



Jeyn
Ostin

Andisha va g'urur



YANGLI ASR AVLODI
TOSHKENT
2016

UO‘K: 821.111-3

KBK: 84(4Ingl)

O-38

Ostin, Jeyn

Andisha va g‘urur. Jeyn Ostin / Rus tilidan Muhabbat Ismoilova tarjimasi. Mas’ul muharrir Nusratullo Jumaxo‘ja. – T.: Yangi asr avlodi, 2016. – 404 bet.

ISBN 978-9943-27-716-8

Jeyn Ostin «Andisha va g‘urur» («Gordost i predubejdeniye») asarida qishloq dvoryanining qizi Elizabet Bennet bilan o‘zining kelib chiqishi, boyligi ila mag‘rur boy pomeshchikning o‘g‘li Fitsuilyam Darsi o‘rtasidagi sarguzashtlarni hikoya qiladi. Asar 1813-yilda nashr qilinib, adabiyot dunyosida katta shov-shuvga sabab bo‘ldi. Ushbu asar haqida o‘sha paytdagi «Britaniya tanqidchisi» jurnali shunday yozgan edi: «Asar shu paytgacha o‘quvchilar hukmiga havola qilingan bu turdagi hamma romanlardan yuqori turadi». Umid qilamizki, mazkur asar hurmatli o‘zbek kitobxonlariga ham manzur bo‘ladi.

UO‘K: 821.111-3

KBK: 84(4Ingl)

Rus tilidan

Muhabbat ISMOILOVA
tarjimasi

Mas’ul muharrir:

Nusratullo JUMAXO‘JA,
filologiya fanlari doktori

Mazkur tarjima asar «Jahon adabiyoti» jurnalining
2014-yil 5-, 6-, 7-sonlarida chop etilgan.

ISBN 978-9943-27-716-8

© Jeyn Ostin, «Andisha va g‘urur». «Yangi asr avlodi», 2016-yil.

MUALLIF VA MUTARJIM HAQIDA SO‘Z

Jeyn Ostin ingliz adabiyotining yorqin namoyandalaridan biridir. Uning yozgan asarlari, oradan ikki asr o‘tib ketgan bo‘lishiga qaramay, hamon o‘z ijtimoiy-badiiy dolzarbligini yo‘qotmagan. Yozuvchining millatdoshlari va muxlislari hanuzgacha uni «Bizning Jeyn» deya faxr-u iftixor bilan tilga olishadi. Yozuvchining asarlari keng kitobxonlar ommasi tomonidan e‘tirof etilgan bo‘lib, ular mazmun va ifodasi hamda syujetining soddaligi, samimiyligi, qiziqarliligi, badiiy tilining latifligi bilan kitobxonlar qalbini o‘ziga rom etgan.

Rejissyorlar Jeyn Ostin asarlari asosida film suratga olishni o‘zlari uchun iftixor deb bilishadi. Tabiiyki, bu asarlar asosida yaratilgan filmlar kino san’atining tabiat manzaralariga boy bo‘lish, asar yozilgan davrdagi kiyinish madaniyatini aks ettirish, milliy muomala madaniyati (etiketi)ni ifodalash, o‘sha davrdagi Angliya ruhini ko‘rsata olish kabi qator talablarga to‘la javob beradi. Ular yozuvchi asarlarining noodatiy atmosferasini to‘liq ochib bera oladi.

Jeyn Ostin 1775-yil 16-dekabrda Xempshir graflikidagi Stiventon shaharchasida tug‘ilgan. Oiladagi sakkiz farzandning yettinchisi bo‘lgan. Ota-onasi o‘qimishli va keng dunyoqarashga ega insonlar bo‘lib, yosh Jeyn vaqti-vaqti bilan maktabga qatnagan bo‘lsa-da, asosiy ta’limni uyida olgan.

Yozuvchining shaxs sifatida shakllanish jara-yonlari oilasidagi ma’rifiy muhitda – kitoblar orasi-

da, kitoblar haqidagi suhbatlar mobaynida, o'qilgan asarlarning jo'shqin va taassurotlarga boy muhokamalari asnosida o'tadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Jeynning ota-onasi juda kitobsevar va ma'rifatparvar insonlar edilar. Shunday insonlar e'tibori va alohida tarbiyasi sabab o'laroq, yosh Jeyn juda erta ijod jarayoniga kirishadi, 14 yoshlaridanoq badiiy asarlar yozishni boshlaydi. Uning ijodi haqida tadqiqot olib borgan olimlar Jeyn Ostinning yozuvchilik faoliyatini ikki davrga bo'lib o'rganishadi:

1. Yozuvchi ijodining ilk davrida yozilgan asarlar: «Hissiyot va hissiyotga berilish» («Чувство и чувствительность»), «Andisha va g'urur» («Гордость и предубеждение») va «Nortenger abbatligi» («Нортенгсское аббатство»).

2. Yozuvchining yetuklik davrida yozgan asarlari: «Mensfild-park», «Emma» va «Idrok asoslari» («Доводи рассудка»).

Jeyn Ostin o'z asarlarini yozuvchining vazifalari to'g'risidagi tasavvurlari va qat'iy prinsiplaridan kelib chiqib, faqat o'zining hayotiy tajribalaridan bilganlarigagina asoslanib yozadi.

Yozuvchi «Andisha va g'urur» («Гордость и предубеждение») asarida qishloq dvoryanining qizi Elizabet Bennet bilan o'zining kelib chiqishi, boyligi ila mag'rur boy pomeshchikning o'g'li Fitsuilyam Darsi o'rtasidagi sarguzashtlarni hikoya qiladi. Asar 1813-yilda nashr qilinib, adabiyot dunyosida katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Ushbu asar haqida o'sha paytdagi «Britaniya tanqidchisi» jurnali shunday yozgan edi: «Ushbu asar shu paytgacha o'quvchilar hukmiga havola qilingan bu turdagi hamma romanlardan yuqori turadi». Umid qilamizki, mazkur asar hurmatli o'zbek kitobxonlariga ham manzur bo'ladi.

Asarning tarjimoni haqida ikki og'iz so'z. Tarjimon Muhabbat Ismoilova 1951-yilda Toshkent shahrida

tugʻilgan. U 1969–1974-yillar davomida Toshkent Davlat Chet tillar institutining ingliz filologiyasi fakultetida tahsil olgan. 1976-yildan 1985-yilgacha shu institutda ingliz tili oʻqituvchisi boʻlib ishlagan. 1987-yildan 1997-yilgacha Toshkentdagi 48-umumtaʼlim oʻrta maktabining rus sinflarida oʻzbek va ingliz tillaridan dars bergan. 1997-yildan shu kungacha TTESI qoshidagi akademik litseyda katta oʻqituvchi lavozimida ishlab, yoshlarga ingliz tilidan saboq berib kelmoqda.

Muhabbat Ismoilovanning oilasida koʻptillilik, ayniqsa, ingliz tilida soʻzlashish muhiti muhayyo edi. Bunga uning umr yoʻldoshi, oʻz sohasining atoqli tilshunos allomasi, Oʻzbekiston Davlat Jahon tillari universiteti rektori lavozimida faoliyat yuritgan Abdulla Ismoilovning ingliz tili va adabiyotining noyob mutaxassisligi hamda ijodga xayrixoh oliyjanob inson ekanligi sharoit yaratgan edi. Bevosita ingliz tilidan oʻzbek tiliga badiiy tarjima bilan shugʻullanish bu insonlarning orzulari edi.

Muhabbat Ismoilova badiiy tarjima bilan keyingi yillarda jiddiy shugʻullana boshladi. 2009-yili «Jahon adabiyoti» jurnalining may oyi sonida Agata Kristining «Tikuvchining xatosi», «Ustasi farang oʻgʻrilar» hikoyalari, 2010-yilda «Oʻzbekiston matbuoti» jurnalining 1- va 2-sonlarida yuqoridagi yozuvchining «Klapamlik oshpazning yoʻqolishi», 2010-yilda «Aʼlo kayfiyat» jurnalining 10-sonida ingliz yozuvchisi Jerom K. Jeromning «Missis Kornerning pushaymoni» hikoyalari tarjimalari bosib chiqarilgani tarjimon ijodiy tajribasining dastlabki natijalaridir. Jahonga mashhur ingliz adibasi Jeyn Ostinning «Andisha va gʻurur» asari tarjimonimiz qoʻl urgan birinchi yirik asardir. Shuning uchun tarjimada uchrashi mumkin boʻlgan xato va kamchiliklar uchun ziyrak

o'quvchilarimizdan oldindan uzr so'raymiz. O'ylaymizki, tarjimonimizning badiiy uslubi va mahorati asardan-asarga tobora sayqal topib boradi hamda o'zbek kitobxonlarini hali dunyo adabiyotining ko'p nodir namunalaridan bahramand etadi.

Nusratullo JUMAXO'JA,
filologiya fanlari doktori

Birinchi bo'lim



***Ushbu mehnat mahsulini
bir ayol erishishi mumkin
bo'lganchalik ham baxt
bergan, ham taxt bergan
farzandlarim otasiga
bag'ishlayman.***

Tarjimon



I bob

Qo'lida puli bor balog'atga yetgan har bir yigit o'ziga qalliq topishi kerakligi hammaga ma'lum. Agar shunday odam yangi joyga ko'chib keladigan bo'lsa, hali hech kim uning rejalaridan xabardor bo'lmay turib, yuqoridagi haqiqat uning yaqin-atrofida yashaydigan qo'shnilarining es-hushini shunchalik egallab oladiki, unga shu zahotiy oq atrofdagi birorta qo'shning qizi uchun qonuniy o'lja, deb qaray boshlashadi.

– Azizim mister Bennet, – dedi bir kuni missis Bennet eriga, – Nezerfild park endi axiri bo'sh turmasligini eshitdingizmi?

Mister Bennet hech narsadan xabari yo'qligini aytdi.

– Lekin shundaymish, – davom etdi ayol. – Bu yangilikni hozirgina missis Long kirib aytdi.

Mister Bennet indamadi.

– Yangi qo'shnimiz kim ekanligini bilishni xohlaysizmi? – sabrsizlik bilan yana so'radi xotini.

– Agar shuni menga juda aytgingiz kelayotgan bo'lsa, unda eshitishga tayyorman.

– Unda eshiting, azizim, – davom etdi missis Bennet. – Missis Longning aytishicha, Nezerfildni shimoliy angliyalik juda ham boy bir yigit ijaraga olganmish. Dushanba kuni u to'rtta otga qo'shilgan karetda kelib

pomestyeni ko'ribdi va joy unga shunaqa yoqib ketib-diki, o'sha zahotiyiq mister Morris bilan ijara haqida kelishib olibdi. O'sha yigit Mixaylovo kunigacha ko'chib kelmoqchi emish, kelasi haftaning oxirlarida esa xizmatkorlaridan kimdir kelarkan.

– O'sha yigitning ismi nima ekan?

– Mister Bingli.

– Uylangan ekanmi yoki bo'ydoqmi?

– Bo'ydoq, azizim, hamma gap shunda-da – bo'ydoq! Yiliga to'rt yoki besh ming daromad topadigan bo'ydoq! Bizning qizlarimiz uchun juda ham qulay imkoniyat-a?!

– Qanaqasiga? Buning bizga nima aloqasi bor?

– Azizim mister Bennet, – dedi missis Bennet, – bugun sizni tushunib bo'lmayapti. Men u yigitning qizlarimizdan biriga uylanishi mumkinligini nazarda tutayotganimni albatta tushunayotgan bo'lsangiz kerak.

– Hm-m, uning rejalari shunday ekanmi?

– Rejalari! Ba'zan juda gapirib qo'yasiz-da! Lekin axir, u qizlarimizdan birini sevib qolishi mumkin-ku! Shuning uchun u bu yerga ko'chib kelishi bilan siz, albatta, unikiga tashrif buyurishingiz kerak.

– Ochig'ini aytsam, men buning uchun yetarli asos ko'rmayapman. Siz o'zingiz qizlar bilan bora qoling. Yoki undan ham yaxshisi – ularning o'zini yubora qoling. Bo'lmasa u yana sizning o'zingizni yoqtirib qolib o'tirmasin, axir siz o'zingiz ham chiroyda qizlarimizdan qolishmaysiz-ku!

– Azizim, meni maqtab yubordingiz. Chindan ham, qachonlardir men ham kelishgangina edim. Afsuski, hozir o'zimni go'zallar qatoriga qo'sha olmayman. Beshta bo'yi yetgan qizi bor ayol o'zining chiroyi to'g'risida o'ylashga ham vaqti bo'lmaydi.

– Bu yoshda, odatda, ayollarda ular bosh qotirishi mumkin bo'lganchalik go'zallik qolmasa ham kerak.

– Lekin azizim, baribir, mister Bingli bu yerda paydo bo'lishi bilan siz unikiga tashrif buyurishingiz kerak.

– Bunday qilmasam kerak.

– Axir, qizlarimiz haqida o'ylasangiz-chi! Tasavvur qiling-a, ularning biridan qutulgan bo'lamiz! Mana ko'rasiz, ser Uilyam bilan ledi Lukas Nezerfildga yugurib kelishadi. Nima uchun deb o'ylaysiz? Albatta qizlari Sharlottani deb! Bilasiz-ku, odatda ular begonalarnikiga bekorga borib yurishni ko'p ham yoqtirishmaydi. Nima bo'lsa ham siz u yerga, albatta, borib kelishingiz kerak bo'ladi – axir biz o'zimizcha bora olmaymiz-ku!

– Juda nozik tabiatsiz-da. Menimcha, mister Bingli sizlar bilan ko'rishganidan xursand bo'lsa kerak. Xohlaysizmi, men eng yoqtirgan qizimizni unga turmushga berishimizni va'da qilib xat yozib, sizdan berib yuboraman? Albatta, kichkintoyim Lizzi haqida ikki og'iz yaxshi gap qo'shib qo'yishim ham kerak bo'ladi.

– Bunday qilmassiz deb umid qilaman. Lizzining boshqa qizlaringizdan ortiq joyi yo'q. U Jeynchalik chiroyli ham emas va Lidiyachalik ko'ngilchan ham emas. Lekin siz har doim uni ortiqroq deb hisoblaysiz!

– Mening qizlarimdan birortasi ham biror narsada ajralib turmaydi, – javob berdi mister Bennet. – Ularning bari bu yoshdagi hamma qizlardek tentak va omi. Shunchaki Lizzi o'zining opa-singillaridan ko'ra ma'niliroq.

– Mister Bennet, qanday qilib siz o'z qizlaringizni shunday deb haqorat qilyapsiz? Mening jahlimni chiqarish sizga yoqadi-a? Albatta, mening asablarim bilan siz boshingizni qotirarmidingiz?

– Azizam, siz yanglishyapsiz. Men asablaringiz bilan hisoblashishga o'rganib qolganman. Axir ular mening eski do'stlarim-ku – siz yigirma yildan beri menga ular haqida gapirib kelyapsiz.

– Oh, mening qanchalik azob chekishimni siz tasavvur ham qila olmaysiz.

– Umid qilamanki, siz bu atrofda yiliga to‘rt ming daromad oladigan yigitchalar paydo bo‘lguncha yashab berasiz.

– Ular yigirmata bo‘lsin, ammo siz ularnikiga borishdan bosh tortar ekansiz, bundan nima foyda?

– Agar ularning soni yigirmataga yetsa, azizam, men albatta bitta borishda ularning hammasini ko‘rib kelaman.

Mister Bennetning tabiatida aqlining o‘tkirligi va istehzoga moyillik, pismiqlik va biroz shoshqaloqlik kabi xislatlar shunchalik aralashib ketgandiki, u bilan birga yashagan yigirma uch yillik hayoti davomida xotini unga moslasha olmagan edi. Ayolning tabiatini tushunish esa ancha oson edi. U kayfiyati tez-tez o‘zgarib turadigan, juda ham farosatli bo‘lmagan savodsiz bir ayol edi. Agar u biror narsadan xafa bo‘lsa buni o‘zining asabi chatoqligidan deb bilar, hayotdagi eng asosiy maqsadi qizlarini turmushga chiqarish bo‘lib, yagona qiziqishi esa mehmondorchiliklarga yurish va yangiliklar edi.

II bob

Nima bo‘lsa-da, mister Binglini birinchilardan bo‘lib, mister Bennet ko‘rgani bordi. Ochig‘ini aytganda, u xotiniga hech ham bormayman degani bilan, u yerga borishni o‘zi allaqachon rejalashtirib qo‘ygan bo‘lib, xotini esa oxirgi daqiqagacha uning rejasidan bexabar qolgandi. Voqea mana bunday edi: mister Bennet ikkinchi qizining shlyapasini tasmalar bilan bezatayotganini kuzatib turar ekan, to‘satdan dedi:

– Lizzi, umid qilamanki, bu mister Bingliga yoqadi.

– Nezerfildga bormas ekanmiz, mister Bingliga nima yoqish, nima yoqmasligini hech qachon bilolmaymiz, – dedi alam bilan missis Bennet.

– Onajon, biz uni balda uchratishimizni yod-ingizdan chiqarmang, – dedi Elizabet, – missis Long bizni tanishtirib qo'yishga va'da bergan.

– Yo'q, missis Long o'lib qolsa ham bunday qil-maydi. Uning o'zining ikkita jiyani bor-ku! O'sha ikkiyuzlamachi va faqat o'zini o'ylaydigan ayolni ko'rgani ko'zim yo'q.

– Men ham, – dedi mister Bennet. – Shunday muhim narsada siz unga bog'liq emasligingizdan xursandman.

Missis Bennet eriga javob qaytarishni lozim top-madi, lekin jahlini ham bosa olmay, qizlaridan biri-ga yopisha ketdi:

– Xudo haqqi, Kitti, bunaqa yo'talmagin! Mening asablarim haqida biroz o'ylasang-chi!

– Bizning Kittimiz hech narsa bilan hisoblash-maydi, – dedi mister Bennet. – Qachon qarama be-vaqt yo'taladi.

– Maza qilganimdan yo'talmayapman-ku! – xafa bo'ldi Kitti.

– Lizzi, keyingi bal qachon bo'ladi?

– Ikki haftadan keyin.

– Shunaqami, – hayron qoldi missis Bennet, – de-mak, missis Long bal bo'lishidan sal oldinroq qaytar ekan-da! Uning o'zi mister Bingli bilan ko'risha ol-mas ekan, bizlarni u bilan qanday qilib tanishtirib qo'ymoqchi ekan?

– Unda, azizam, siz dugonangizga yordam berasiz, ya'ni uni mister Bingli bilan siz tanishtirib qo'yasiz.

– Mister Bennet, siz mening ustimdan kulyapsiz! Axir mening o'zim u bilan tanish emasman-ku!

– Sizning ehtiyotkorligingiz hurmatga sazovor. Al-batta, bunchalik qisqa vaqtli tanishuv hech narsa bermaydi. Ikki hafta ichida inson haqida qanday qilib birorta xulosa chiqarish mumkin? Lekin uni mister Bingli bilan biz tanishtirmasak, bu ishni boshqa bit-

tasi qiladi. Menga qolsa, missis Long va uning jiyanlari ham omadini sinab ko'rishaversin. Agar bu ish sizga yoqmayotgan bo'lsa, bu vazifani men zimmamga olishim mumkin.

Qizlar hammasi otasiga tikilib qolishdi. Missis Bennet ming'irlab qo'ydi:

– Qanday bo'lmag'ur gap!

– Sizning bu chiroyli iborangiz nimani anglatadi, xonim? – hayrat bilan so'radi mister Bennet. – Yoki sizga tanishishning bunday yo'li yoqmaydimi? Qo'rqamanki, bu borada bizning fikrlarimiz har xil. Meri, bu to'g'rida sening fikring qanday? Axir sen juda aqlli qizsan-ku, aqlli kitoblar o'qiysan, ulardan yoqqan joylarini hatto ko'chirib ham yurasan.

Meri jo'yali bir narsa aytmoqchi bo'ldi, lekin xayoliga hech narsa kelmadi.

– Meri biror narsa o'ylab topguncha biz mister Bingliga qaytamiz, – davom etdi mister Bennet.

– Mister Bingli haqida ortiq hech narsa eshitishni xohlamayman, – gapni qisqa qildi xotini.

– Menga bu haqda sal oldinroq aytsangiz bo'lardi. Buni ertalab bilganimda, o'lib qolsam ham unikiga bormagan bo'lardim. Yaxshi ish bo'lmadi, esiz! Unikiga borib bo'lganimdan keyin esa u bilan yaqindan tanishishdan qochib bo'lmaydi.

Mister Bennet bu gaplari bilan mo'ljalga tekkan edi: ayollar hayratda edilar. Ayniqsa, missis Bennet. Biroq hayratlari biroz bosilgach, undan xuddi shu narsani kutganligiga erini ishontira boshladi:

– Azizim, mister Bennet, siz rostdan ham juda to'g'ri ish qildingiz. O'zim ham siz xuddi shunday qilasisiz, deb ishongandim. Siz o'z qizlaringizni juda sevishingizni va ular uchun hech narsadan qaytmasligingizni bilardim. Qanday baxtliman! Xo'p hazil qildingiz-da: Nezerfildga vaqtligina borib kelib-siz-ku, buni hech kim bilmaydi!

– Kitti, endi xohlaganingcha yo‘talaver, – xotinining so‘zlarini ortiq eshitmaslik uchun xonadan chiqar ekan, dedi mister Bennet.

– Qizlarim, otalaringiz qanday ajoyib-a! – eshik yopilgach, faxr bilan dedi missis Bennet. – Bilmadim, uning shunday qalbi uchun siz uni qanday minnatdor qila olasiz. Va meni ham. Gapimga ishonsanglar, bizning yoshimizda har kuni yangi odamlar bilan tanishish oson emas. Lekin farzandlarimiz uchun biz hamma narsaga tayyormiz. Lidiya, azizam, sen eng kichkinamiz bo‘lsang ham, ishonamanki, mister Bingli balda faqat sen bilan raqsga tushadi.

– Buning hech hayron qoladigan joyi yo‘q, – gerdaiyb dedi Lidiya. – Yosh bo‘lsam-da, mening bo‘yim hammadan baland.

Kunning qolgan qismi mister Bingli tanishish uchun ularnikiga endi qachon kelishi mumkinligi va shundan so‘ng uni qachon mehmonga taklif qilish qulay bo‘lishini muhokama qilish bilan o‘tdi.

III bob

Missis Bennet va beshala qiz qancha harakat qilishmasin, otalarini mister Bingli haqida ularning qiziqishlarini qondira oladigan yana biror narsa deyishga majbur qilisha olmadi. Ular mister Bennetga savollar berib ko‘rishdi, o‘zlarining u yigit haqida nimalar o‘ylashayotganini aytib ko‘rishdi, ayyorlik ham qilib ko‘rishdi – lekin hech narsaga erisha olishmadi. Axiri mister Bingli haqida qo‘shnilari ledi Lukasdan olgan ma‘lumotlari bilangina chegaralalanib qo‘ya qolishlariga to‘g‘ri keldi.

Ledi Lukas bergan axborotlar esa turli-tuman edi: ser Uilyam mister Binglidan hayratda emish. U hali yosh, kelishgan, juda muloyim bo‘lib, eng muhimi, yaqin kunlar ichida bir nechta do‘stlari bi-

lan kelib, yaqin orada Meritonda bo'ladigan balda qatnashmoqchi ekan.

Bundan ortiq narsani xohlash ayb bo'lardi. Raqs tushishni yaxshi ko'radigan odamning birovni sevib qolishi oppa-oson. Hamma qizlar o'zlarining yaqin kunlarda mister Binglining yuragini zabt eta olishlariga umid qilishardi.

– Eh, qizlarimizdan birortasining Nezerfild bekasi bo'lganini ko'rish nasib qilsa edi, – derdi missis Bennet eriga, – va qolganlarini ham yaxshi joylarga erga bersam, menga boshqa narsaning keragi yo'q edi.

Bir necha kundan so'ng mister Bingli ularnikiga kelib, o'n daqiqacha mister Bennetning kutubxonasida o'tirdi. Uning bu yerga kelishdan maqsadi odamlardan eshitgani ushbu oilaning go'zal qizlarini ko'rishga umid qilgandi, lekin unga faqat mister Bennetningina ko'rish nasib qildi. Qizlar esa yigitdan omadliroq edilar: ular yuqoridagi derazadan uning otda kelganini va egniga ko'k syurtuk kiyib olganini ko'rishdi.

Bu voqeadan so'ng oradan biroz vaqt o'tgach, ular mister Binglini tushlikka taklif qilib, taklifnoma yuborishdi. Missis Bennet beka sifatida o'zining butun san'atini ishga solib, ovqatlar ro'yxatini tuzar ekan, Nezerfilddan uning hamma rejalarini buzib yuboradigan xabar keldi: baxtga qarshi mister Bingli ertasi kuni Londonga jo'nab ketishi kerak emish va unga ko'rsatilgan e'tibordan foydalana olmasmish va hokazo. Missis Bennetning kayfiyati juda tushib ketdi. U, yigit bu yerga kelishga ulgurmay, London-da qanday ishlari chiqib qolishi mumkinligini tasavvur ham qila olmas va u doim bir yerdan boshqa yerga ko'chib yuradigan bo'lsa, Nezerfild hech qachon uning muqim turar joyi bo'la olmaydi, deb xavfsiray boshlagandi. Uning bu xavotirini ledi Lukasning bu haqdagi fikri tarqatib yubordi: mister Bingli balki Londonga balga birga bormoqchi bo'lgan do'stlarini olib

kelish uchun ketgan bo'lishi mumkin. Shundan so'ng boshqa gaplar oralay boshladi: go'yo mister Bingli bilan o'n ikkita ayol va yettita erkak kelayotgan emish. Kelayotgan ayollarning soni bu yerdagi bo'yi yetgan qizlarni biroz sarosimaga soldi, lekin u bilan o'n ikkita emas, faqatgina oltita ayol – uning beshta singlisi va bitta jiyani – amakivachchasi kelganligidan xabar topishgach, ko'ngillari xotirjam bo'ldi. Nezerfildliklar bal uyushtiriladigan zalga kirganlarida esa kelganlar hammasi bo'lib faqat besh kishi: mister Binglining opa-singlisi, opasining eri va yana bir yosh yigitdan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi.

Yig'ilganlar mister Binglining juda kelishgan va yaxshi tarbiya ko'rganligi yaqqol sezilib turgan yigit ekanligiga darrov amin bo'lishdi. Uning opa-singlisi esa yuqori doiralarda yurgan kibor ayollar ekan. Ularning kuyovi mister Xyorstni dvoryan deb atash qiyin edi. Lekin mister Binglining do'sti mister Darsi esa o'zining kelishgan qaddi-qomati, chiroyli yuzi va oqsuyaklardek ko'rinishi bilan darrov hammaning e'tiborini o'ziga tortdi. Ularning kelishiga besh daqiqa bo'lmasdanoq hamma mister Darsining yiliga o'n ming funt daromad keltiradigan yer-mulki borligidan ham xabardor bo'ldi. Bu yerlik erkaklar uni haqiqiy erkak deb, ayollar esa uni mister Binglidan ko'ra yoqimtoyroq deb topishdi va ziyofatning butun birinchi yarmida hamma undan hayratga tushdi. Lekin biroz o'tib, hamma mister Darsining o'zini qanday tutishini ko'rgach, uning obro'si tushib ketdi: uning burni osmondaligi, haddan ortiq mag'rurligi va unga bas kelish qiyinligi haqida gapira ketishdi. Biroz o'tgach esa hatto uning Derbishirdagi kattakon yeri ham u haqdagi salbiy fikrlarni o'zgartira olmay qoldi.

Oradan ko'p o'tmay, mister Bingli baldagi hamma mehmonlar bilan tanishib oldi. U juda ochiqko'ngil, mehmonnavoz bo'lib, ziyofatning bunchalik tez tu-

gab qolganidan afsusda ekanligini bildirib qo'ydi va hatto Nezerfildda ham bal o'tkazilsa, ko'ngildagidek ish bo'lishini gap orasida qistirib ketdi. U bilan do'sti o'rtasida yer bilan osmonchalik farq bor edi. Mister Darsi butun kecha davomida faqat missis Xyorst bilan bir marta va miss Bingli bilan bir martagina raqsga tushdi. O'zini boshqa ayollar bilan tanishtirishlarini istamadi va kechaning qolgan qismini o'zi bilan birga kelganlar bilan gaplashib o'tirib o'tkazdi. Uning o'zini tutishini hamma gapirdi. Uni bir ovozdan dunyodagi eng gerdaygan va yoqimsiz erkak deb topishdi va bu yerlarda endi boshqa ko'rinmaydi, deb umid bildirishdi. Yigitni yomonga chiqarganlardan biri missis Bennet edi. Ayniqsa, mister Darsining uning qizlaridan biriga e'tiborsiz qaraganligi ayolga juda alam qilib ketgandi.

Kavalerlar yetishmayotganligi sababli Elizabet Bennet ikki raqs davomida stol oldida yolg'iz o'zi o'tirishiga to'g'ri keldi. Va shuning orasida shu yaqin orada turgan mister Darsi bilan mister Binglilarning suhbatini eshitib qoldi:

– Men sizni raqs tushishga majbur qilmoqchi-man, – derdi mister Bingli. – Bir o'zingiz bir chekkada yolg'iz turishingiz menga yoqmayapti. Axir, bi-rortasini taklif qilsangiz-chi!

– Hech ham-da. O'zingiz bilasiz-ku, agar men ayol bilan tanish bo'lmasam, raqs tushishdan bahra olmayman. Bu yerdagilar to'g'risida-ku gap bo'lishi mumkin emas. Sizning singillaringiz raqsga taklif qilib bo'lingan, boshqalar bilan raqsga tushish esa men uchun jazo bilan teng.

– Voy-bo', men sizchalik talabchan emasman! – e'tiroz bildirdi mister Bingli. – Ochig'ini aytsam, men shu paytgacha bir kechaning o'zida shunchalik chiroyli ayollarni ko'rmaganman, ba'zilariga esa gap yo'q.

– Bu zaldagi yolgʻizgina kelishgan chiroyli qiz bilan siz oʻzingiz raqsga tushayapsiz, – miss Bennetlarning eng kattasiga qarab, dedi mister Darsi.

– Ha, u men shu paytgacha uchratgan qizlarning ichida eng chiroylisi. Lekin ana u yerda, shunday orqangizda, uning singillaridan biri oʻtiribdi. Menimcha, u ham yomon emas. Xohlaysizmi, men sherigimdan sizni u bilan tanishtirib qoʻyishni soʻrayman.

– Kimni aytayapsiz? – Darsi oʻgirilib Elizabetga qaradi va uning oʻziga qarayotganini sezib, koʻzi ni oldi va sovuqqina qilib dedi: – Ha, yomon emas shekilli. Lekin mening yuragimga yoʻl topa oladigan darajada emas. Va men hozir boshqa yigitlar qayrilib qarashni xohlamagan qizlarni ovutib oʻtiradigan kayfiyatda emasman. Sherigingizning yoniga qayta qoling. Uning tabassumlaridan bahra olish oʻrniga, men bilan bekorga vaqt oʻtkazayapsiz.

Mister Bingli doʻstining maslahatiga amal qildi, doʻsti esa xonaning boshqa tomoniga qarab ketdi, Elizabetning koʻnglida Darsiga nisbatan gʻashlik paydo boʻldi. Keyinchalik esa, oʻzi tabiatan xushchaqchaq boʻlgani sabab ushbu hodisani doʻstlariga maza qilib, kulib-kulib gapirib berdi.

Butun oila kunni xursandchilik bilan oʻtkazishdi. Missis Bennet Nezerfild egalarining uning katta qiziga koʻrsatgan eʼtiborlaridan juda xursand boʻldi: mister Bingli u bilan ikki marta raqs tushdi va uning opa-singillari ham qizni juda yaxshi qabul qilishdi. Jeynning oʻzi ham juda xursandligini koʻrsatmagan boʻlsa-da, bundan juda mamnun edi. Elizabet opasi uchun juda xursand boʻldi. Meri esa kimdir miss Bingli bilan gaplashayotganda uni yon-atrofdagi eng oʻqimishli qiz deb aytayotganini eshitib qolibdi; Ketrin va Lidiya ham raqs davomida sheriksiz qolishmadi – ularga boshqa narsa kerak ham emas edi. Shunday qilib, ular Longbornga – oʻz qishloqlariga kayfiyatlari koʻtarilgan

holda qaytishdi. Ular qaytib kelishganda mister Bennet hali uxlamayotgan edi. Kitob o'qib o'tirib, u vaqtning qanday o'tganini sezmay ham qoldi; u ham oila a'zolari o'zlari ko'p narsa umid qilayotganlari ushbu kechaning qanday o'tganiga qiziqib ketayotgan edi. U xotinining yangi qo'shnilar borasida tuzayotgan rejalari amalga oshmasligiga ishonchi komil bo'lsa-da, lekin qizlarining hayajonlanib turishlaridan, hali yangi gaplar eshitishi mumkinligini tushundi.

– Azizim mister Bennet, – xonaga kira solib, hayajon bilan gapira ketdi missis Bennet, – biz maza qildik! Ziyofat zo'r bo'ldi. Sizning bormaganingizga juda afsuslandim. Jeyn u yerda katta muvaffaqiyat qozondi: hamma uning go'zalligini gapirdi. Mister Bingli esa uni maftunkor deb atadi va qizimiz bilan ikki marta raqs tushdi. Azizim, eshitdingizmi, ikki marta-ya! U faqat qizimiznigina ikki marta taklif qildi. U avval miss Lukas bilan raqs tushdi. Ikkalasi raqs tushayotganini ko'rganimda, to'g'risini aytsam, qo'rqib ketdim. Lekin miss Lukas yigitga hech ham yoqmad. O'zingiz bilasiz-ku, u kimga ham yoqardi! Jeyn bilan raqs tushayotganda esa ko'zlari yonib ketdi. Uning kimligi bilan qiziqdi, u bilan tanishtirishlarini so'radi va o'sha zahotiyoq ikkinchi raqsga taklif qildi. Qizimizdan keyin u miss King bilan, keyin yana Jeyn bilan, keyin Lizzi... Azizim, men unga qoyil qolyapman! U shunaqangi kelishgan yigitki, asti qo'yaverasiz. Singillari-chi – ikkalasi ham biram go'zal! Men umrimda ularnikidek yasan-tusanni ko'rmaganman. Menimcha, missis Xyorstning egnidagi ko'ylagining to'ri...

Uning gapi shu yerga kelganda, mister Bennet xotinining gapini bo'ldi, chunki ayollarning yasan-tusani to'g'risidagi gaplarini eshitishga tobi yo'q edi. Missis Bennet mavzuni o'zgartirar ekan, mister Darsining o'zini tutishi haqida ko'pirtirib, alam bilan gapirib berdi:

– Ishonch bilan aytishim mumkinki, u Lizzini yoq-tirmagani bilan qizimiz ko'p narsa yo'qotgani yo'q! Bunday odamga hatto yoqishga harakat qilishning ham hojati yo'q. Biram burni ko'tarilgan, bekorga uni darrov yomon ko'rib qolishmadi. Biram osmonda: u bilan raqs tushish uchun yetarli darajada chiroy-li emasmish! Siz o'sha yerda bo'lib, bir ta'zirini berib qo'ysangiz bo'larkan. Menga hech ham yoqmadi.

IV bob

Jeyn va Elizabet yolg'iz qolishgach, shu paytga-cha mister Bingli haqida o'z fikrini ochiq aytmayot-gan Jeyn, yigit unga juda yoqqanini tan olib, dedi:

– U yigit kishi qanday bo'lishi kerak bo'lsa, xuddi shunday: aqlli, ko'ngilchan, xushchaqchaq. Bun-day yigitni oldin uchratmagandim: yaxshi tarbiya ko'rgani shundoq ko'rinib turibdi.

– Buning ustiga ko'inishi ham yomon emas, – qo'shib qo'ydi Elizabet. – Uni hamma tomondan mukammal, deb aytsa ham bo'ladi.

– U meni ikkinchi marta raqsga taklif qilganida shunday xursand bo'lib ketdim! To'g'risini aytsam, buni hech kutmagandim.

– Kutmagandim? Men esa kutgandim. Birov sen-ga sal e'tibor bersa, sen birpasda o'zingni yo'qotib qo'lasan, men esa unday emasman. Ikkalamizning farqimiz ham ana shunda. Axir seni ikki marta raqsga taklif qilganining nimasiga hayron qola-san? Qizlar orasida eng chiroylisi sen ekanligingni sezgandir, axir. Ochig'i, haqiqatan ham kelishgan yigit ekan. Ishqilib, senga yoqsin-da. Ilgari bundan battarroqlari ham yoqqan-ku, a?

– Lizzi!

– O'zing juda yaxshi bilasan: hech kimni yomon deging kelmaydi, kim duch kelsa, o'shani maqta-

ganning-maqtagan. Hamma sen uchun chiroyli va yumshoqko'ngil. O'zing eslab ko'rgin-a, biror marta birovni yomon deganmisan?

– Birovni bilmasdan turib, u odam haqida yomon gapirishni xohlamayman. Lekin men har doim nima o'ylasam, shuni gapiraman.

– Bilaman. Meni doim xuddi shu narsa hayron qoldiradi: sen, shunday aqlli qiz, qanday qilib atrof-dagilarning hech qanday kamchiliklarini sezmayсан? Yolg'ondakam ko'ngilchanlik har qadamda uchraydi. Lekin har bir odamda faqat yaxshi sifatlarni ko'rish, birovning yomonligini hatto sezmaslik esa faqat sening qo'lingdan keladi. Demak, uning opa-singillari ham senga yoqibdi-da? Lekin ularning o'zlarini tutishlari mister Binglinikidan farq qiladi-a?

– Boshida shunday tuyiladi. Lekin biroz gaplash-ganingdan keyin ularning qanday ajoyib ekanliklariga o'zing ishonch hosil qilasan. Miss Bingli akasi bilan birga yashab, unga xo'jalik ishlarida yordam bermoq-chi ekan. Menimcha, u bizga juda yaxshi qo'shni bo'lsa kerak.

Elizabet opasiga indamay quloq solayotgan bo'lsa-da, ichida uning gapiga qo'shilmadi.

Chunki balda o'z ko'zi bilan ko'rganlarini hisobga oladigan bo'lsa, mister Binglining opa-singillarining o'zlarini tutishlari tahsinga sazovor emasdi. Jeyndan ko'ra kuzatuvchanroq bo'lgan Elizabetga bu qizlar-ning ko'pchilik oldida o'zlarini tutishlari yoqmagan edi. Miss Bingli va uning opasi missis Xyorstlar chin-dan ham juda nozikta'b edilar. Ular kayfiyatlari yaxshi bo'lganda, hatto hazilkash ham bo'lib, o'zlariga kerak bo'lsa birovga yoqishni ham o'rniga qo'yishar, lekin ayni paytda injiq va kekkaygan edilar. Ikkalasi ham chiroyli, eng yaxshi pansionlarda bilim olishgan, yigir-ma ming funtga ega bo'lib, oqsuyaklar orasida yurib, bor pullaridan ham ko'proq sarf-xarajat qilishga odat-

lanishgan edi. Shundan kelib chiqib ularning o'zlari haqidagi fikrlari juda yuqori bo'lib, atrofidagilarga esa past nazar bilan qarar edilar. Ular kelib chiqishi shimoliy Angliyadan bo'lgan obro'li oilada dunyoga kelgan bo'lib, hamma boyliklari savdo orqasidan edi.

Mister Binglining otasi unga yuz ming funtga yaqin meros qoldirgan edi. U o'zining ko'zi ochiqligida yer-mulk sotib olmoqchi bo'lgan, lekin orzusini amalga oshira olmagan edi. Mister Binglida ham shunday orzu bo'lib, u hatto shu maqsadda tug'ilgan joylariga ham borib kelgan edi. Lekin u yonida ov qilish maydoni bo'lgan yaxshigina uyni ijaraga olganda, yigitning yengiltak tabiatini yaxshi bilgan yon-atrofdagilar mister Bingli avloddan-avlodga o'tadigan pomestye qurishni keyingi avlodlarga qoldirib, o'z hayotini Nezerfildda o'tkazishiga ishonch hosil qildilar.

Binglining opa-singillari akalarining yer egasi bo'lishini juda xohlashar edi. Va u hozirgi paytda faqat ijarachi bo'lsa-da, miss Bingli akasinikida uy bekasi rolini o'ynashga bajonidil rozi edi. Juda ham boy bo'lmagan, lekin tagli-tugli yigitga turmushga chiqqan missis Xyorst ham o'ziga kerakli paytda uy bekasi rolini ijro etishga qarshi emasdi.

Mister Bingli Nezerfild park haqida o'zi balog'at yoshiga yetgach, ikki yil o'tib, tasodifan bilib qoldi. U butun uyni yarim soat ichida aylanib chiqdi. Uyning joylashishi, qurilishi va uy egasining ba'zi bir narsalarda unga imtiyoz berayotgani yoqdi va o'sha zahotiyuq uyni ijaraga olishga qaror qildi.

Tabiatlari bir-biriga zidligiga qaramay, mister Bingli Darsi bilan juda qalin do'st edi. Darsi – o'zi ham ko'p hollarda norozi bo'ladigan – o'zining tabiatiga qarama-qarshi bo'lsa-da, ochiqko'ngil, biroz yengiltabiat va o'zgalarning ta'siriga tez beriluvchan Binglini hurmat qilardi. O'z o'rnida Bingli ham Darsining chuqur mulohazali yigit ekanligiga tan berar va unga

ishonardi. Bingli ham juda uzoqni ko'ra olmaydiganlar toifasidan bo'lmasa-da, mister Darsi chindan ham juda aqlli edi. Lekin ayni paytda mag'rur, ichimdagini toplardan bo'lib, uning ko'nglini olish juda qiyin edi. Uning xatti-harakatlari yaxshi tarbiya ko'rganligidan darak bersa-da, atrofdagilarga ko'pda yoqavermas edi. Bu o'rinda uning do'sti yuqoriroqda turardi. Mister Bingli qayerda bo'lmasin, darrov hammada o'zi haqida yaxshi taassurot qoldirar, Darsi bo'lsa, aksincha, hammani o'zidan qochirib yuborardi.

Meritonda bo'lib o'tgan balga odamlarning munosabati har xil bo'ldi. Mister Bingli shu paytgacha bunchalik ajoyib jamoa va bunchalik yoqimtoy ayollarni ko'rmagandi: hamma unga g'amxo'r va e'tiborli bo'lib, u o'zini juda bemalol his qildi va tez orada zaldagi hamma bilan til topishib ketdi. Miss Bennet esa undan-da yaxshiroq yigitni tasavvur ham qilolmayotgan edi. Darsi esa, teskarisi, atrofida uni hech ham qiziqtirmayotgan, nazarida juda ham beo'xshov, didsiz, uning o'ziga ham hech e'tibor bermayotgan bir to'p odamlarni ko'rayotgan edi. U Elizabetning o'ziga yarasha kelishganligini tan olgan bo'lsa-da, lekin uni haddan tashqari ko'p jilmayar ekan, deb topdi.

Missis Xyorst va uning singlisi Darsining kichik miss Bennet haqidagi fikriga qo'shilishga tayyor bo'lsalar-da, Jeyn ularga yoqib qoldi. Ular qizni kelishgan deb topishdi va u bilan do'stlikni davom ettirishga qarshi emasliklarini aytishdi.

V bob

Longborn yaqinida Bennetlar bilan juda yaqinligi bor oila yashardi. Ser Uilyam Lukas birmuncha vaqt mobaynida Meritonda savdo-sotiq bilan shug'ullangan va o'sha yerda anchagina boylik ham orttirib, baronet tituliga ega bo'lgandi. Bu narsa unga qattiq

salbiy ta'sir ko'rsatgandi: u bu shaharchadagi oldingi hayotini va savdo-sotig'ini ham yoqtirmay qoldi. Hammasini tashlab, oilasi bilan Meritondan bir mil naridagi uyga ko'chib o'tib, o'sha yerda yashay boshlashdi va uyini o'sha kundan boshlab «Lukas Loj» deb atay boshladi. Ser Uilyam endi bu yerda hamma ishlardan ozod bo'lib, o'zining qanday buyukligi va hammadan ehtiyot bo'lish kerakligi haqida bermalol xayol surishga berildi. Lekin aslida, olgan unvoni uni o'zining ko'zi oldida ko'klarga ko'targan bo'lsa-da, boshqalarga nisbatan kekkayib ketmagan edi. Ser Uilyam har bir uchragan odamga nisbatan o'ta ziyrak va nihoyatda xushmuomala edi, chunki uni Sent-Jeymsdagi saroy ahliga tanishtirishgani bu yumshoq odamni yana ham muloyim qilib qo'ygani edi.

Ledi Lukas esa ko'ngilchan inson bo'lsa-da, juda ham uzoqni ko'ra biladiganlar toifasidan bo'lmagani uchun missis Bennetlarga yaxshi qo'shni bo'lish uchun to'g'ri kelmas edi. Uning bir nechta farzandi bo'lib, o'qimishli va aqlli bo'lgan katta qizi Sharlotta yigirma yetti yoshda edi. U Elizabet bilan yaqin dugona edi.

Mister Lukas va mister Bennet oilasining ayollari bo'lib o'tgan bal haqida g'iybatlashish uchun ertasi kuni ertalab Longbornda to'planishdi.

– Sharlotta, ziyofat siz uchun menimcha yomon boshlanmadi, – miss Lukasga qarata dedi missis Bennet. – Axir, mister Bingli raqsga birinchi bo'lib sizni taklif qildi.

– To'g'riku-ya, lekin unga ikkinchi raqsga birga tushgan qiz ko'proq yoqdi.

– Siz u Jeynni yana ikkinchi marta raqsga taklif qilgani uchun shunday deyapsizmi? Lekin chindan ham u o'zini xuddi uni yoqtirib qolgandek tutdi. Men hatto ularning bu haqda, nimaligi aniq esimda yo'q, mister Robinson bilan gaplarini ham eshitdim.

– Boʻlishi mumkin. Siz uning mister Robinson bilan gaplashayotganda men tasodifan eshitib qolgan gapimni aytayapsizmi? Men oʻzim sizga aytib bermovdimmi? Mister Robinson oʻrtogʻidan bizning oʻsha yerda boʻlishimiz unga yoqyaptimi, u zalda chiroyli ayollar koʻpligiga qanday qaraydi va ayollarning ichida eng chiroylisi kim, deb soʻraganiga u oʻsha zahotiyq: «Albatta miss Bennetlarning eng toʻngʻichi! Bu haqda boshqa gap ham boʻlishi mumkin emas!» deb javob berdi.

– Oʻlay agar, juda qatʼiy javob. Oʻylash mumkinki... Lekin bilasizmi, hech narsa boʻlmasligi ham mumkin.

– Eliza, nima deb oʻylaysan, men sendan koʻra omadliroq izquvar boʻlsam kerag-a? – dedi Sharlotta. – Mister Darsi yoqimli gaplarni oʻrtogʻichalik koʻp aytmas ekan. Bechora Eliza! Sen atigi «yoqimtoy shekilli» ekansan!

– Umid qilamanki, siz Lizzining miyasiga mister Darsining aytgan gaplari unga nashʼa qilishi kerak, degan fikrni quymassiz? Bunday yoqimsiz odamga yoqish haqiqiy baxtsizlik boʻlgan boʻlardi. Missis Long kecha mister Darsi uning yonida roppa-rosa yarim soat oʻtirganini va shu payt davomida hatto ogʻzini ham ochmaganini aytdi.

– Siz shu gapga ishondingizmi? – soʻradi Jeyn. – Rostdan shunaqamikin? Men mister Darsi u bilan gaplashganini oʻzim koʻrdim.

– Boʻlmagan gap! Missis Long ziyofat oxirida undan Nezerfild unga yoqqan-yoqmaganini soʻradi va u javob berishga majbur boʻldi. Uning aytishicha, mister Darsi zoʻrgʻa javob berganmish.

– Miss Bingli menga uning begonalar bilan koʻp gaplashishni yoqtirmasligini aytdi. Lekin yaqin tanishlar bilan esa juda xushmuomala ekan.

– Mana shu gapga esa hech ham ishonmayman. Agar u xushmuomalalik nimaligini bilsa, missis Long

bilan gaplashgan bo'lardi. Bu yerda gap nimadali-gini men juda yaxshi bilaman: o'zi shunchalik kek-kaygan ekan, yana buning ustiga missis Longning ekipaji yo'qligi va balga ijaraga olingan karetda kelganini eshitib qolgan.

– Mister Darsining missis Long bilan gaplash-gan-gaplashmagani men uchun baribir. Lekin uning Eliza bilan raqs tushishdan bosh tortgani menga alam qilyapti.

Shu yerda missis Bennet gapga qo'shildi:

– Lizzi, sening o'rningda kelasi safar men o'zim u bilan raqsga tushishdan bosh tortgan bo'lardim.

– U bilan hech qachon raqsga tushmayman, deb sizga va'da beraman.

– Ochig'ini aytsam, mister Darsining mag'rurli-gining men uchun bordi-keldisi yo'q. Mag'rur bo'lish uchun unda hamma asos bor. Axir, shunday taniqli va boy, kelishgan yigit o'zi haqida yuqori fikrda bo'lsa, buning nimasi ajablanarli? Aytish mumkinki, har qancha mag'rur bo'lishga uning haqqi bor.

– Rost, agar u mening sha'nimga tegmaganida, men ham uning bu kekkayishini kechirgan bo'lardim.

Har doim chuqur mulohazali bo'lgan Meri shu yer-da gapga qo'shildi:

– Menimcha, mag'rurlik insonning kamchiligi hi-soblanadi. Men o'qigan kitoblarning barchasida yo-zilishicha, inson tabiati bu narsaga juda beriluv-chan. Oramizda juda ozchilik odamlargina o'zlari-ni bu narsadan tutib tura oladilar. Mag'rurlik va shuhratparastlik – har xil narsalardir, garchi, odat-da, bu so'zlarni bir-birovining o'rnida ishlatsalar-da. Inson shuhratparast bo'lmay turib, mag'rur bo'lishi mumkin. Mag'rurlik – bu bizning o'zimiz haqimizdagi fikrimiz, shuhratparastlik esa bu bizning boshqalar biz haqimizda shunday o'ylashlarini xohlashimizdir.

– Agar men mister Darsidek boy bo'lganimda edi, oliftagarchilik qilib o'tirmasdan, bir to'da tozi it boqib, har kuni bir shishadan vino ochib, maza qilib ichib o'tirgan bo'lardim, – Longbornga opalari bilan birga kelgan yosh Lukas gapga qo'shildi.

– Agar shunaqa bo'ladigan bo'lsa, sen bir shisha emas, ko'proq ichgan bo'larding, – unga qarshi chiqdi missis Bennet. – Va agar men seni shuning ustida ko'rib qolsam, shishangni tortib olgan bo'lardim.

Yosh Lukas missis Bennet bunday qilishga haddi sig'masligini aytib, ikkalalari bahslashib ketishdi va suhbat mehmonlarning jo'nab ketishlari bilan tugadi.

VI bob

Oradan ko'p vaqt o'tmay longbornlik ayollar nezer-fildlik xonimlarni ko'rgani borishdi. Katta miss Bennet xonimning chiroyli xatti-harakatlari va o'zini tutishlari missis Xyorst va miss Binglilarga juda yoqdi. Qizlarning onasi ularga hech ham yoqmagan, kichkina qizlar to'g'risida esa gap ham bo'lishi mumkin emas, deb hisoblasalar-da, ikki katta qizi bilan yaqin bo'lmoqchi ekanliklarini gap orasida qistirib o'tishdi. Ularning bu e'tibori Jeynni juda xursand qildi. Lekin ularning bu yerlik qo'shnilariga, hattoki, uning opasiga ham, osmondan kelib qarashlarini hazm qila olmayotgan Elizabet ularning fikrlarini sovuqqina qabul qildi. Chunki u, bu ayollarning Jeynga munosabatlari akalarning Jeynga bo'lgan intilishidan kelib chiqyapti, deb tushunayotgan edi. Chindan ham, mister Binglning Jeynga bo'lgan munosabati ularni birga ko'rganlarning hammasining ko'ziga yaqqol tashlanayotgan edi. Elizabetga yana shu narsa aniq ediki, Jeynning mister Bingliga bo'lgan hozirgi munosabati yaqin orada ulkan muhabbatga aylanib ketishi turgan gap edi. Lekin Elizabet yana bir narsaga ham amin edi: opasi-

ning bu sevgisidan atrofdagilar hali-beri xabar topishmaydi, chunki Jeyn har doim ham o'z hissiyotlarini atrofdagilarga ko'rsatavermas va bu narsa ortiqcha gap-so'zlarning oldini olardi. Qiz o'zinig bu fikrlari haqida miss Lukas bilan o'rtoqlashdi.

– Balki bu yomon emasdir, – dedi Sharlotta, – har qanday sharoitda ham o'z hissiyotlaringni yashira bilish... lekin menimcha, buning xavfli tomoni ham bor. Agar qiz bola o'z hislarini yigitidan yashiraversa, uni yo'qotib qo'yishi ham mumkin. Bu holda uni ovutadigan yagona narsa – uning ko'nglidagi gaplardan shu paytgacha hech kimning xabari bo'lmagani. Har qanday bog'lanib qolish ham qaysidir bir darajada yo minnatdorchilik yoki shuhratparastlikka suyangan bo'ladi va bunga e'tibor bermaslik esa xavflidir. Hammamiz ham biroz o'ynab-kulib olgimiz keladi, bu narsa tabiiy. Hech qanday javob kutmay sevadigan bag'rikeng insonlar juda kam. O'ntadan to'qqizta holatda esa ayolga o'zini juda sevadigandek qilib ko'rsatish foydaliroqdir (aslida bunday bo'lmasa-da). Shubhasiz, opang Bingliga yoqadi, lekin u yigitga qat'iyatliroq bo'lishga yordam bermas ekan, bundan hech narsa chiqmaydi.

– Lekin opam o'zining tabiatidan kelib chiqib, qo'li-dan kelgancha yordam beryapti. Nahotki u shunchalik sezgir emaski, ko'rinib turgan narsani sezmayapti!

– Eliza, u Jeynning xarakterini sen bilganchalik bilmasligini yodingdan chiqarma.

– Ayol erkakni yoqtirsa va buni berkitishga urinmasa... axir u buni sezishi kerak-ku!

– Balki agar u ko'p vaqtini qiz bilan o'tkazsa. Lekin Bingli va Jeyn tez-tez ko'rishib turishsa ham, ko'pchilikning ichida hadeb faqat bir-birlari bilan gaplashib tura olishmaydi. Shuning uchun Jeyn u bilan o'tkazadigan har bir daqiqadan foydalanib qolishi kerak. Yigitning yuragini zabt qilib olgandan so'ng o'zi sevib qolishi uchun vaqti bermalol bo'ladi.

– Yomon fikr emas. Faqat, bu erga tegishga shoshayotganlar uchun. Agar men o‘zim boy odamga va umuman, erga tegishni o‘ylayotganimda edi, albatta bundan foydalangan bo‘lardim. Lekin Jeynning hissiyotlari butunlay boshqacha. U hech narsaning hisob-kitobini qilayotgani yo‘q. Shu paytgacha u hali o‘zining Bingliga qay darajada bog‘lanib qolganini ham va bu narsa qay darajada aqldan ekanligini ham bilmaydi. Ular tanishganlaridan beri atigi ikki haftagina o‘tdi. U yigit bilan Meritonda ikki marta raqs tushdi, keyin esa uni bir marta Nezerfildda ko‘rdi. Shundan so‘ng ular to‘rt marta boshqa mehmonlar bilan birga tushlik qilishdi. Bu yigitning tabiatini yaxshilab o‘rganib olish uchun juda oz vaqt.

– Albatta, hamma narsaga sen qaraydigandek qaraydigan bo‘lsak, juda kam. Agar u yigit bilan faqat ovqatlangan bo‘lsa, faqat uning ishtahasi haqida biror narsa bilgan bo‘lishi mumkin. Lekin sen ularning birgalikda to‘rt marta kechqurun uchrashganlarini esdan chiqarayapsan. Bu to‘rt uchrashuv ko‘p narsani anglatishi mumkin.

– Ha, bu uchrashuv ularga ikkalasi ham «yigirma bir» o‘yinidan ham ko‘ra poker o‘ynashni afzal ko‘rishlarini bilishgagina olib keldi. Lekin xarakterlaridagi boshqa muhim tomonlarni ochishga esa imkoniyat bo‘lmadi.

– Nima ham derdim, Jeynga chin dildan muvaffaqiyat tilayman. Agar u mister Bingliga ertagayoq turmushga chiqqan taqdirda ham men u o‘zining bo‘lajak turmush o‘rtog‘ini bir yil davomida o‘rganganchalik baxtli bo‘lish imkoniyati bor deb o‘ylayman. Nikohda baxtli bo‘lish tasodif o‘yinlariga bog‘liq. Ikkala tomon bir-birlari to‘g‘risida qanchalik ko‘p narsa bilishmasin va bir-birlariga qanchalik mos kelishmasin – bu narsa ularning baxtli bo‘lishlari uchun omil bo‘la olmaydi. Vaqt o‘tishi bilan ular o‘rtasida kelishmovchiliklar

paydo bo'la boshlaydi. Shuning uchun bir umr birga yashamoqchi bo'lgan odamingning kamchiliklarini iloji boricha kamroq bilgan yaxshimasmi?

– Sharlotta, menimcha, sen men bilan bahs boylashmoqchisan, shekilli. Lekin sening bu haqdagi fikrlaring hammasi bo'lmag'ur narsa. Buni o'zing ham juda yaxshi bilasan. Sen o'zing ham hayotingda bu narsalarga amal qilmagan bo'larding.

Elizabet mister Bingli bilan Jeyn o'rtalaridagi aloqalarni kuzatib borar ekan, o'zining Binglining do'sti tomonidan diqqat bilan kuzatilayotganidan bexabar edi. Boshida mister Darsi Elizabet haqida u kelishgan qiz, degan fikrdan juda yiroq edi. Balda u qizga umuman e'tibor ham bermagan edi. Kelasi safar uchrashganlarida u qizda faqat kamchiliklarni ko'rdi. Lekin do'stlariga qizning birorta ham o'ziga tortadigan joyi yo'qligini isbotlab bo'lishi bilan, birdan o'zi bilmagan holda qizning yuzi uning chiroyli ko'zlarining ifodasi bilan misli ko'rilmagan darajada samimiy va yoqimtoy ko'rinishini seza boshladi. Bu yangilikdan keyin boshqa va yana boshqa narsalarni ham seza boshladi. U o'zining injiq nazari bilan qizning tashqi ko'rinishi juda ham kamchiliklardan xoli emasligini ko'rib tursa-da, uning odamni o'ziga tortadigan bir sehri borligini tan oldi. Shu bilan birga, Elizabetning o'zini tutishi oliy tabaqaliklarnikidan farq qiladi, deb ta'kidlasa-da, qizning o'zini erkin tuta bilishi uni rom qilayotgan edi.

Elizabetning bu gaplardan xabari yo'q bo'lib, uning uchun Darsi avvalgidek hech kimga yoqmagani va o'zini u bilan raqs uchun yetarli darajada go'zal emas, deb hisoblagan odamligicha qolgan edi.

Darsida qiz bilan yaqindan tanishish xohishi paydo bo'ldi va u bilan suhbatlashishga bahona topish uchun qizning boshqalar bilan gaplariga quloq sola boshladi. Uning bu qiliqlari qizning diqqatini tortdi.

Bahona esa ser Uilyam Lukasnikiga juda ko'pchilik mehmonga kelgan kuni topildi.

– Nima uchun mister Darsiga mening polkovnik Forster bilan gapimni poylash kerak bo'lib qolibdi? – Sharlottadan so'radi Elizabet.

– Bu savolga faqat mister Darsining o'zi javob bera oladi.

– Agar u yana bir marta shunaqa qiladigan bo'lsa, men uning nima qilayotganini sezayotganimni o'ziga aytaman. Uning ko'zlari xuddi odamning ustidan kulayotganga o'xshaydi va men u bilan qattiqroq gaplashib olmasam, sal o'tib undan qo'rqa boshlayman.

Xuddi shu daqiqada mister Darsi suhbatga qo'shish istagini sira ham sezdirmagan holda ularga yaqinlashar ekan, miss Lukas dugonasini hozirgina aytgan gapini amalga oshirishga unday boshladi. Uning bu qistovi Elizabetga ta'sir qildi va yigitga o'girilib, so'radi:

– Siz nima deb o'ylaysiz, mister Darsi, men polkovnik Forsterni Meritonda bal o'tkazishga undab to'g'ri qildimmi?

– Siz juda qizishib gapirdingiz. Lekin bu mavzuda gapirganda har qanday ayol ham qizishgan bo'lardi.

– O, siz biz, ayollarga nisbatan juda talabchan ekansiz.

– Endi, Eliza, biz seni ko'ndirishga harakat qilamiz, – dedi miss Lukas. – Men fortepyanoni ochyapman, bundan so'ng nima qilish kerakligini o'zing yaxshi bilasan.

– Sen juda ajoyib dugonasan, Sharlotta, qachon qarasa sen kim bo'lsa o'shaning oldida fortepyano chalib, ashula aytishga majbur qilasan. Men dong'i chiqqan artist bo'lishni xohlaganimda sen zo'r yordamchi bo'lgan bo'larding. Lekin men bunga intilmayman-ku! Yaxshisi, quloqlari mendan yaxshiroq ashula aytadiganlarning ovozigga o'rganganlarni qiyamay qo'ya qolay.

Lekin miss Lukas hadeb qistayvergach, Elizabet rozi bo'ldi:

– Bo'пти, nima bo'lsa bo'lar! – xo'mraygancha mister Darsi tomonga qarab qo'yar ekan, u qo'shib qo'ydi: – Biz tomonda «Gapirgandan ko'ra yaxshisi jim turgin», degan gap bor. Ashula aytmasam qutulmayman shekilli.

Juda ham ustalik bilan aytmasa-da, qizning ashulasi yoqimli edi. Bir-ikkita ashula aytgach, u hali uni tinglayotganlarning yana ashula aytib berishini so'rashlariga javob berishga ulgurmay, Elizabetning o'rniga fortepyanoning oldiga singlisi Meri o'tirib oldi. Bu Bennetlar oilasidagi qizlarning ko'rimsizrog'i bo'lib, doimo o'z ustida ishlar va qayerda bo'lsa ham o'zini ko'rsatishga harakat qilar edi. Merining na qobiliyati va na didi bor edi. Uning shuhratparastligi uni bir joyda o'tirib ishlay oladigan, ayni paytda esa o'z-o'zidan mag'rurlanadigan qilib qo'ygan ediki, bu narsa uning ijrosi zo'r bo'lgan taqdirda ham salbiy iz qoldirardi. Elizabetning juda ham mohirona ijro etilmagan esa-da, soddagina qo'shig'i atrofdagilarga ko'proq yoqdi. Meridan so'ng u yana shotlandcha va irlandcha qo'shiqlar aytib berdi, singillari va miss Lukas esa zobitlar bilan xonaning boshqa tomonida uning qo'shiqlariga raqs tushishdi.

Mister Darsi ulardan nariroqda turardi. U yoshlarning aqlli suhbatlar qurish o'rniga vaqtlarini bunday o'tkazayotganlariga sira tushunmasdi. Darsi o'z fikrlari bilan shunchalik band ediki, oldiga kelgan ser Uilyam Lukas o'ziga gap qotmaguncha, uning kelganini sezmay ham qoldi.

– Yoshlar uchun eng ko'ngilochar narsa raqs tushish-a, mister Darsi? Haqiqatan, bundan yaxshiroq narsa bormikin? Menimcha, raqs rivojlangan jamiyatning eng katta yutuqlaridan biridir.

– To'ppa-to'g'ri, ser. Lekin bu narsa sivilizatsiya hali yetib bormagan joylarda ham keng tarqalgan. Har bir yovvoyi ham o'yin tushishni eplaydi.

Ser Uilyam kulib qo'ydi va biroz o'tgach, mister Bingli ham o'ynayotganlarga qo'shilganini ko'rib, davom etdi:

– Do'stingiz raqsga juda yaxshi tushar ekan. Siz ham, menimcha, juda usta bo'lsangiz kerak.

– Siz Meritonda mening o'ynaganimni ko'rgansiz shekilli?

– Topdingiz, maza qilgandim. Siz Sent-Jeymsda tez-tez raqs tushib turasizmi?

– Hech qachon, ser.

– Sizningcha, bu qirol oilasiga hurmat ifodasi-ning belgisi emasmi?

– Agar imkonini topsam, birorta oilaga ham hurmatimni bunday ifodalamayman.

– Poytaxtda sizning o'z uyingiz bo'lsa kerag-a?

Mister Darsi bosh silkib qo'ydi.

– Men ham yaxshi insonlar orasida bo'lishni juda yaxshi ko'raman. Shuning uchun bir paytlar Londonga ko'chib o'tishni o'ylab yurgandim. Lekin Londonning ob-havosi xotinimning sog'lig'iga to'g'ri kelmaydi, deb qo'rqdim.

Mister Lukas javob kutib, biroz jim turdi. Lekin suhbatdoshining suhbatni davom ettirish xohishi yo'q edi. Shu payt ularning oldiga Elizabet yaqinlashar ekan, ser Uilyam o'zicha bir aqlli ish qilmoqchi bo'ldi:

– Azizam miss Eliza, siz raqs tushmayapsizmi? Mister Darsi, mening maslahatim bilan bu go'zal qizni raqsga taklif qilsangiz, sizdan juda minnatdor bo'lardim. Axir, oldingizda go'zallikning shunday siymosi turganda, taklif qilmay bo'ladimi? – ser Lukas ushbu so'zlarni ayta turib Elizabetning qo'lini ushlab mister Darsining qo'liga tutqazmoqchi bo'ldi va yigit ham bu kutilmagan harakatdan o'zini yo'qotib qo'yib va ayni paytda bu taklifdan foydalanib qolmoqchi bo'lganda, Elizabet birdan o'zini orqaga tashladi va ser Uilyamga norozilik bilan qaradi:

– Ser, sizni ishontirib aytamanki, men raqsga tushmoqchi emasman. Meni sizning oldingizga o'ziga raqsga tushish uchun sherik topgani kelgan, deb o'ylayotgan bo'lsangiz, sizdan qattiq xafa bo'laman.

Mister Darsi jiddiylilik va hurmat bilan Elizabetni birga raqs tushishga taklif qildi. Lekin uning iltimosi bekor ketdi: Elizabet o'z gapida turib oldi, hatto ser Lukasning aralashishi ham ish bermadi:

– Elizabet, siz raqsga juda chiroyli tushasizki, shunday tomoshadan meni mahrum qilishingiz juda insofsizlik bo'ladi. Va bu yigitimiz raqsni juda yoqtirmasa-da, bizga kichkinagina xizmat qilishga yo'q demas, deb umid qilaman.

– Mister Darsichalik mulozamatli odam bo'lmasa kerak! – kulimsirab dedi Elizabet.

– Albatta shunday! Axir, shunday kelishgan qiz bilan raqsga tushish kimga ham yoqmaydi?

Elizabet kinoyali kulimsiragancha ularning oldidan nari ketdi. Qizning chiroyli rad javobi mister Darsini xafa qilmadi, aksincha, u qiz haqida shirin xayol surar ekan, oldiga miss Bingli yaqinlashgani ni payqamay qoldi.

– Nima haqida o'ylanib qolganingizni topaymi?

– Topolmaysiz, deb umid qilaman.

– Siz bunday odamlar orasida endi har kuni bir-biriga o'xshash kunlarni qanday qilib o'tkazaman, deb o'ylayapsiz. Men ham xuddi shu fikrdaman. Hech qachon bunchalik zerikmagan edim. Hammasi o'zini ko'rsatish uchun shunday harakat qilib yotishibdiki! Hammasi biram pastkash va o'ziga bino qo'yan. Keyinchalik siz ular haqida nimalar deyishingizni juda bilgim kelayapti.

– Bilasizmi, shu safar siz topolmadingiz. Men bundan yaxshiroq narsalar to'g'risida o'ylayotgandim, masalan, kelishgan ayolning chiroyli ko'zlari qanchalik maftunkor bo'lishi mumkinligi haqida.

Miss Bingli uni shunday o'ylashga majbur qilayotgan kim bo'lishi mumkinligini taxmin qilgan-cha, hamrohiga tikilib qoldi. Mister Darsi hech ham hayajonlanmay javob berdi:

– Miss Elizabet Bennet.

– Miss Elizabet Bennet? – qaytardi miss Bingli.

– Ochig'i, men hayron qoldim. U haqda shunday o'ylayotganingizga ancha bo'ldimi? Sizga baxt tilaydigan kunimizga oz qoldimi?

– Sizdan xuddi shu savolni kutayotgandim! Ayollarning tasavvuri qanchalik tez-a! Siz menga baxt tilashingizga amin edim.

– Demak, jiddiy aytayotgan bo'lsangiz, ish hal bo'ldi, deb hisoblaymiz. Siz Pemberliga sizlar bilan birga ko'chib o'tadigan ajoyib qaynanaga ega bo'lasiz.

Mister Darsi miss Binglining kesatiqlarini befarqlik bilan eshitdi. Uning o'zini juda bermalol tutishi qizni xavotir olishga hech qanday asos yo'qligiga ishontirdi va u o'z kesatiqlarini anchagacha davom ettirdi.

VII bob

Mister Bennetning butun boyligi unga yiliga ikki ming funt daromad keltiradigan yer-mulki edi. Qizlarning baxtiga qarshi, bu yer-mulk erkaklar tomonga meros qoldirilib, oilada o'g'il farzand bo'lmagani uchun mister Bennet vafotidan so'ng, yer-mulki uning uzoq qarindoshiga qolar edi. Missis Bennetning mol-mulki esa uning hozirgi sharoitida yetarli bo'lsa-da, yer-mulki bировga o'tib ketgan taqdirda uning o'rnini bosolmasdi. Otasi hayotligida Meritonda chinovnik xizmatida bo'lib, qiziga to'rt ming funt meros qoldirgan edi.

Missis Bennetning singlisi otasining xizmatida ishlab, uning idorasini meros qilib olgan mister Filipsga turmushga chiqqan edi. Akasi esa Lon-

donda yashar va obro'li bir savdo tarmog'ida ishlar edi.

Longborn qishlog'i Meritondan faqat bir milgina narida joylashgan bo'lib, bu haftasiga uch-to'rt marta xolalarini ko'rishga borib, yo'l-yo'lakay o'sha yerdagi do'konchaga kirib chiqadigan Bennetlarning qizlari uchun juda qulay masofa edi. Ayniqsa, ularning kichkinalari, Ketrin va Lidiya bunga juda usta edilar. Opa-singillar ichida yengiltakroq bo'lgan bu ikki qiz boshqa qiziqarli narsa bo'lmagani uchun nonushtadan keyin o'zlarini xursand qilish va kechqurun uyqu oldidan g'iybatlashib yotish uchun yangiliklardan xabardor bo'lgani albatta Meritonga borib kelishlari kerak edi. Va bu atrofda yangiliklar juda kam sodir bo'lishiga qaramay, xolalarinikida ular, albatta, biror yangi narsa eshitardilar. Ayni paytda esa Meriton atrofiga qishni o'tkazish uchun militsiya polki tashlanib, ular shu atrofda uylarga joylashtirilgan va qizlar uchun endi yangiliklar serob edi.

Qizlar xolalarinikiga har borishganda zobitlar va ular orasidagi munosabatlar haqida yangi gaplar eshitishardi. Mister Filips har bir zobitning oldiga borib, qizlar uchun qiziq bo'ladigan axborotlar topib kelardi. Endi onalari juda berilib gapirayotgan mister Binglining boyligi ham ularni qiziqtirmay qo'ygan, praporshik mundiri oldida bu arzimagan gaplar edi.

Bir kuni qizlarining g'iybatlariga quloq solib o'tirgan mister Bennet gap qotdi:

– Gaplaringizdan men shunday xulosa qildimki, sizlarni qirollikdagi eng tentak qizlar deb atash mumkin. Bu gap oldin ham xayolimga kelardi, lekin hozir men bunga amin bo'ldim.

Otasining gapini eshitib, Ketrin jim bo'lib qoldi, lekin Lidiya bu gaplarga e'tibor ham bermay kaptan Karter unga qanday yoqishi, u ertaga Londonga

ketishi oldidan uni yana bir marta ko'rgisi kelayotgani haqida gapiraverdi.

– Azizim, – eriga murojaat qildi missis Bennet, – sizning o'z farzandlaringiz haqida bunchalik kinoya bilan gapirishingiz meni hayron qoldiryapti. Agar men birortasining bolalari haqidagi kamchiliklarga ishonadigan bo'lsam ham, har holda, bu o'zimning bolalarim bo'lmasdi.

– Mening bolalarim shunchalik kaltafahm ekan, men ularga juda ham umid bog'lamoqchi emasman.

– Baxtga ko'ra ular juda aqlli!

– Umid qilamanki, bizning fikrlarimiz faqat shundagina bir xil emas. Agar ikkalamizning fikrlarimiz bir joydan chiqqanda yaxshiroq bo'lardi. Lekin afsuski, men ikkala kenja qizimiz o'taketgan tentak ekanligini ko'rib turibman.

– Azizim mister Bennet, axir, yosh qizchalardan ular o'z ota-onalaridek aqlli bo'lishlarini talab qilib bo'lmaydi-ku! Bizning yoshimizga yetganda balki ular zobitlar haqida hozir biz o'ylaganchalik o'ylamaslar. Bir paytlar mening o'zimga ham qizil mundirlilar juda yoqqani shundoq esimda. Ochig'ini aytsam, ular menga hozir ham yoqadi. Agar birorta yiliga olti ming funt oladigan kelishgan yosh polkovnik qizimning qo'lini so'raydigan bo'lsa, men unga yo'q deya olmasdim. O'tgan kuni ser Uilyamnikida polkovnik Forster o'zining bayram formasida menga shunday yoqdiki!

– Oh, oyijon! – hayajonlanib dedi Lidiya. – Xolam aytayaptiki, polkovnik Forster va kapitan Karter endi miss Uotsonlarnikiga juda kam kirishayotgan ekan. Ularni endi ko'proq Klarkning kutubxonasida ko'rishayotganmish.

Missis Bennet qizining gapiga javob berishiga katta qiziga maktub keltirgan xat tashuvchining kelib qolishi xalaqit berdi. Xat Nezerfilddan bo'lib, uni olib kelgan xizmatkor javob kutib turardi. Missis Bennet-

ning ko'zlari charaqlab ketdi, Jeyn xatga ko'z yugurtirar ekan, qizini savollarga ko'mib tashladi:

– Jeyn, xat kimdan ekan? Nima yozishibdi? Nimalar yozibdi? Jeyn, tezroq! Qizim, gapira qolsang-chi!

– Xat miss Binglidan ekan, – deb Jeyn xatni ovoz chiqarib o'qiy boshladi:

«Aziz dugonajon!

Agar Siz bizga shafqat yuzasidan bugun men va Luiza bilan birga ovqatlanishga rozilik bermas ekan-siz, biz bir-birimizni yomon ko'rib qolishimiz mumkin. Chunki ikki ayolning kun bo'yi bir-biri bilan yuzma-yuz bo'lishi janjalsiz o'tmaydi. Iloji boricha tezroq keling. Akam va uning do'stlari zobitlar bilan ovqatlanishadi.

Hurmat bilan Kerolayn Bingli».

– Zobitlar bilan?! – hayratlandi Lidiya. – Axir, xolam bu to'g'rida hech narsa demagandi-ku!

– Boshqa yerda ovqatlanishadi? Esizgina! – dedi missis Bennet.

– Aravadan foydalansam bo'ladimi? – so'radi Jeyn.

– Yo'q, jonginam. Yaxshisi, otda ketaqol. Yomg'ir yog'ay deyapti, sen u yerda tunab qolishingga to'g'ri kelishi mumkin!

– Xo'p gapirdingiz-da! – dedi Elizabet. – Agar ular o'zlari Jeynni tashlab ketishmasa.

– Lekin mister Binglining karetsi Meritonda bo'ladi-ku! Xyorstlarning esa otlari yo'q.

– Nima bo'lganda ham men aravada ketgim kelyapti.

– Qizginam, aniq bilamanki, otang hozir otlarni berib tura olmaydi. Ular hozir fermaga kerak, to'g'rimi, mister Bennet?

– Ha, otlar fermaga ko'proq kerak.

– Agar siz ulardan bugun foydalansangiz, onam juda xursand bo'lardi, – dedi Elizabet.

Nihoyat, otalaridan «otlar haqiqatan ham bugun band», degan javobni olishib tinchishdi. Jeyn ot minib ketadigan bo'ldi, onasi uni darvoza oldigacha kuzatib borar ekan, ob-havoning yomonlashayotganidan nolib qo'ydi. Uning umidi ro'yobga chiqdi: Jeyn hali uzoqlashmasdan turib singillarini bezovta, onalarini esa rosa xursand qilib chelaklab quyganday yomg'ir yog'a boshladi. Yomg'ir kun bo'yi yog'di va bunday ob-havoda Jeynning qaytishi to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emasdi.

– Yaxshi o'yladim-a! – ob-havo buzilishini xuddi o'zi chaqirgandek, qayta-qayta derdi missis Bennet. Faqat ertasi kuni ertalabgina u o'ylagan narsasining dahshatini his qildi: nonushta tugay deganda Nezerfilddan Elizabet nomiga yozilgan xat keldi.

«Azizam Lizzi!

Bugun ertalabdan o'zimni juda yomon seziyapman – kecha yomg'irda ivib ketganimdan bo'lsa kerak. Bu yerdagi qadrdon do'stlarimiz men biroz o'zimga kelmaguncha ketishim haqida eshitishni ham xohlashmayapti. Ular mister Jons meni ko'rib qo'yishini talab qilishayapti, shuning uchun u meni ko'rgani kelganini eshitib qolsangiz, xavotir olib o'tirmang. Boshim og'riyapti va tomog'imda ham biroz shamollash bor.

Sizlarning Jeyningiz».

– Nima derdim, azizam, – Elizabet xatni o'qib tugatgach, xotiniga murojaat qildi mister Bennet, – agar qizingiz jiddiy kasal bo'lib qolsa yoki balki o'lib qolsa, bu sizning ko'rsatmalaringiz bilan mister Binglining orqasidan quvish natijasida bo'lganini bilish siz uchun taskin bo'ladi.

– Men xavotirlanayotganim yo‘q. Shamollashdan o‘lishmaydi! Unga yaxshi qarashadi va u o‘sha yerda ekan, unga hech narsa bo‘lmaydi. Ekipaj olishning iloji bo‘lganda men uni ko‘rgani borib kelardim.

Chindan-da xavotirlanayotgan Elizabet opasini ko‘rgani borishga qaror qildi. Ekipaj topishning iloji yo‘qligi, uning otda yura olmasligi sabab, Nezerfildga yayov ketishga to‘g‘ri kelardi. U uyidagilarga o‘z rejasini aytdi.

– Sen esingni yebsan, – dedi onasi, – shunaqa loyda yayov ketish! Axir u yerga yetib borganingda senga qarab bo‘lmaydi-ku!

– Men esa Jeynga qarab turishim mumkin bo‘ladi, aslida, muhimi ham shu.

– Lizzi, balki otlarni olib kelarmiz?

– Hech ham kerak emas. Qaytaga maza qilib yurib ketaman. Oldingda aniq maqsad bo‘lganda yo‘lning uzoqligi bilinmaydi. Atigi taxminan uch milgina-ku! Tushlikkacha uyda bo‘laman.

– Yaqin odamingga yordam berishga tayyorligingdan hayratdaman, – dedi Meri. – Lekin ko‘ngilning har bir istagini aql tarozusiga solib ko‘rish kerak.

– Meritongacha sen bilan birga boraylikmi? – so‘rashdi Ketrin va Lidiya.

Elizabet rozi bo‘ldi va uchala qiz uydan birga chiqib ketishdi.

– Agar shoshilsak, balki kapitan Karter ketguncha ulgurarmiz, – dedi Lidiya.

Meritonda ular xayrlashishdi. Singillari zobitlardan birining xotini oldiga ketishdi, Elizabet esa bir daladan ikkinchisiga o‘tib, tez yurib ketdi. Loy va chuqurlardan sakrab o‘tib, Nezerfildga yetib kelganda u juda charchagan, kiyimlari loy bo‘lib, yuzlari tez yurganidan qip-qizarib ketgan edi.

Uni Jeyndan boshqa barcha yig‘ilgan nonushta qilinadigan xonaga olib kirishdi. Elizabetning kelishi-

dan hamma hayratga tushgan edi: mister Binglining singillari uchun uning shunday vaqtli, shunday havoda va yana uch milni yolg'iz bosib kelishi ishonib bo'lmaydigan voqea edi. Ular qizni xursanddek kutib olishgan bo'lsa-da, Elizabet ularga bu juda ham yoqmaganini sezib turardi. Mister Binglining o'zini tutishida esa oddiy iltifotdan ko'ra yuqoriroq nimadir bor edi: minnatdorchilik va hurmat sezilib turardi. Mister Darsi ko'p gapirmadi, mister Xyorst esa umuman hech nima demadi. Mister Darsi qiz tez yurib kelganidan ko'zlari chaqnab ketgani haqida va shuncha yayov yo'l bosib kelib to'g'ri qilganmi yoki yo'qligi to'g'risida o'ylayotgan edi. Mister Xyorstning esa fikr-zikri nonushtada edi.

Jeynning sog'lig'i yaxshi emasdi. U kechasi o'zini yomon his qilgan va hozir o'rnidan turgan bo'lsa-da, xonasidan chiqa olmayotgan edi. Elizabetning iltimosiga ko'ra, uni bemorning xonasiga olib kirishdi. Singlisining kelishi Jeynni xursand qilib yubordi. U uyidagilarni ortiqcha xavotirga solmaslik uchun xatida singlisini ko'rgisi kelganini yozmagan edi. U umuman gapira olmayotgan edi. Miss Bingli qizlarni xonada qoldirar ekan, Jeyn zo'rg'a bu yerda unga qilishayotgan g'amxo'rliklari uchun minnatdorchilik bildirdi. Elizabet indamay opasiga qarasha boshladi.

Nonushtadan so'ng ularning oldilariga yana mister Binglining opa-singillari kirishdi va Elizabet ular Jeynga ko'rsatayotgan e'tiborlarini ko'rib, juda xursand bo'ldi. Chaqirtirilgan doktor bemorning qattiq shamollaganini aytib, unga bir necha kun o'rinda qimirlamay yotishni buyurdi va dori berib yuborishini aytib, jo'nab ketdi. Uning aytganlarini qilishga darhol kirishildi, chunki isitma va bosh og'rig'i kuchayayotgan edi. Elizabet bir daqiqa bo'lsa-da, opasini yolg'iz qoldirmadi. Boshqa ayollar ham shu yerda bo'lishdi.

Soat uchlarda Elizabet endi ketishi kerakligini his qilib, xohlamaygina Jeynga bu haqda aytdi. Miss Bingli unga ekipaj taklif qildi va u ketishga hozirlanar ekan, Jeyn uning ketayotganidan xafa bo'lib qolgani-ni ko'rgan miss Bingli Elizabetni Nezerfildda yana bi-roz qolishga taklif qilishga majbur bo'ldi. Taklif qabul qilinib, kerakli kiyimlarni olib kelish va uyga xabar berish uchun Longbornga odam yuborildi.

VIII bob

Soat beshda ayollar kiyingani ketishdi va soat besh yarimda Elizabetni ovqatga chaqirishdi. Bemorning sog'lig'i to'g'risidagi savollarga javob berar ekan, qiz mister Binglining chin yurakdan bezovta bo'layotganidan xursand bo'ldi. Lekin aslida, ahvol yaxshi emas, Jeynning ahvoli hali ham og'ir edi. Buni eshitib, Binglining singillari bir necha mar-ta o'z hamdardliklarini bildirishdi va o'zaro yana shamollash qanday yomonligi, ular hech ham kasal bo'lishni xohlamasliklari to'g'risida gapira ketishdi, suhbatga berilganlaridan dugonalarini boshqa es-lashmadi ham. Buni ko'rgan Elizabet Jeyn yo'g'ida u haqda o'ylamasliklarini ham tushunib, yana ular-ga nisbatan nafratni his qildi.

Butun yig'ilganlardan qizning hurmatiga sazovor inson yolg'iz mister Bingli edi. Elizabet boshqalar unga xuddi kutilmagan mehmon kabi qarashayot-ganini sezib turar, faqat mister Binglining bemor-ga nisbatan chindan bezovta bo'layotganigina bu hisni yumshatib turardi. Binglidan boshqa hech kim uning borligini ham sezmayotgandek edi. Miss Bingli mister Darsi bilan band, missis Xyorst esa singlisidan qolmaslikka harakat qilar, Elizabetning yonida o'tirgan mister Xyorst esa, yashashni faqat yeyish-ichish va qarta o'ynashdan iborat deb biladi-

gan kimsa bo'lib, uning Elizabet bilan gaplashadigan gapi ham yo'q edi.

Tushlik tugashi bilan Elizabet Jeynning yoniga qaytdi. U xonadan chiqishi bilan miss Bingli uning g'iybatini boshladi: go'yoki Elizabet qo'pol va gerdaygan emish, hech qanday didi, chiroyi va suhbat olib borishga qobiliyati ham yo'q. Bularni ayta turib, u qo'shib qo'ydi:

– Qisqasi, bu qizning yagona fazilati uning ertablari uzoq masofalarni yayov bosib o'tish qobiliyati. Uning bugun ertalab biznikiga kirib kelgan holatini hech ham esimdand chiqarmayman.

– Luiza, u xuddi yovvoyilardek edi. O'zimni kulgidan zo'rg'a to'xtatib qoldim. Kelishining o'zi kulgili. Opasi shamollagan bo'lsa, uning shunday uzoqqa yugurib kelishining nima keragi bor edi? Ko'rinishi-chi – yuzlarini shamol yalagan, sochlari to'zg'igan!..

– Ha, uning yubkasi-chi! Yubkasining loyini ko'rdinglarmi? Etagidagi dog'larni berkitish uchun plashini tushirmoqchi bo'ldi-yu, lekin bu yordam bermadi...

– Aytganlaringiz hammasi balki rostdir, lekin men hech narsa sezmadim, – dedi mister Bingli. – Menga u kirib kelganda ko'rinishi juda yaxshi bo'lib tuyulgan edi. Etagidagi dog'ni esa sezmadim ham.

– Siz-chi, mister Darsi, siz ko'rgandirsiz? – so'radi miss Bingli. – Menimcha, siz ham o'z singlingizni bu ahvolda ko'rishni istamagan bo'lardingiz.

– Siz butunlay haqsiz.

– Uch, yo'q, to'rt, yo'q, beshmi yoki qanchadir milni tizzagacha loyga botib, yana yolg'iz yayov bosib o'tish! Nimani o'ylagan! Men bu narsa qishloqilarga xos bo'lgan jinnilikning bir turi deb hisoblayman.

– Bu opasiga bo'lgan mehribonchilikning maqtovg'a loyiq ko'rinishi bo'lishi ham mumkin, – dedi mister Bingli.

– Mister Darsi, bugungi voqea sizni uning ko‘zlari haqidagi fikringizni buzib qo‘ymasa, deb qo‘rqaman, – dedi asta miss Bingli.

– Hech ham, – javob qildi yigit. – Uning ko‘zlari oldingidan ham yorqinroq charaqlayotgan edi.

Biroz jim qolishgach, missis Xyorst yana gap boshladi:

– Jeyn Bennet menga juda yoqadi. U haqiqatan ham ajoyib qiz. Va men u hayotda baxtli bo‘lishini juda xohlayman. Lekin bunday ota-ona va qarindoshlar bilan bunday bo‘lmasmikan, deb juda qo‘rqaman.

– Menimcha, sen ularning amakisi Meritonda yashaydi deganding shekilli?

– Ha. Yana bittasi Chipsaydda yashaydi.

– Zo‘r! – xitob qildi miss Bingli va ikkalasi kulaverib qotib qolishdi.

– Butun Chipsayd uning amakilari bilan to‘lib-toshganda ham u bu narsadan o‘z chiroyini yo‘qotmasdi, – shaxt bilan dedi Bingli.

– Ha, lekin bu narsa uning odamlar orasida obro‘li bo‘lgan insonga turmushga chiqishiga xalaqit bergan bo‘lardi, – javob qildi Darsi.

Bingli hech narsa demadi, lekin singillari Darsini qo‘llab-quvvatlashdi va yana anchagacha qadrli dugonalarining qo‘pol qarindoshlarining g‘iybatini qilib o‘tirishdi.

Oradan biroz vaqt o‘tgach, yana yumshab, Jeynning xonasiga borishdi va ularni qahvaga chaqirishmaguncha, o‘sha yerda o‘tirishdi. Jeyn hali ham o‘zini yomon his qilayotgan bo‘lib, Elizabet uni kechqurungacha tashlab ketolmadi. Bemorning uyquga ketganidan xotirjam bo‘lib, boshqalarga qo‘shilishga xohish sezdi. U mehmonxonaga kirganda hamma qarta atrofida o‘tirardi. Qizni ham o‘yinga taklif qilishdi. Ular katta pulga o‘ynayotgan bo‘lishlarini taxmin qilib, Elizabet singlisining kasalini bahona qildi-da, shu yerdaligidan

foydalanib kitob o'qimoqchiligini aytib, taklifni rad etdi. Mister Xyorst unga hayron bo'lib qaradi:

– Siz qartadan kitobni afzal ko'rasizmi? Qiziq!

– Miss Eliza Bennet o'yinni yomon ko'radi, – dedi miss Bingli. – U ko'p kitob o'qiydi va boshqa ko'ngilochar o'yinlarni tan olmaydi.

– Men bu turdagi maqtov yoki tanqidlarga loyiq emasman, – javob berdi Elizabet. – Menga ko'p narsalar yoqadi va men unchalik ham ko'p o'qimayman.

– Men esa aminmanki, sizga opangizga qarab o'tirish yoqadi, – dedi Bingli. – Ishonamanki, uning tuzalishi barobarida bu xohishingiz yanada kuchayadi.

Elizabet unga yurakdan tashakkur aytib, ustida bir nechta kitob turgan stol tarafga qarab ketdi. Shuning orasida Bingli unga kutubxonadagi boshqa kitoblarni ham ko'rib chiqishni taklif qildi.

– Agar bundan ko'ra ko'proq kitoblar bilan maqtana olsam, xursand bo'lardim. Lekin men dangasaman va bu yerda men o'qib chiqishim mumkin bo'lganidan ko'ra ko'proq kitob bor.

Elizabet unga shu yerdagi kitoblar ham yetarli ekanligini aytib, tinchlantirdi.

– Otamizga shunchalik kam kitob kifoya qilgani meni hayron qoldiryapti, – dedi miss Bingli. – Lekin mister Darsi, sizning Pemberlidagi kutubxonangiz...

– U yerda boshqacha bo'lishi mumkin emas, – dedi Darsi gapni bo'lib. – Kutubxonaga juda ko'p avlodning hissasi singgan.

– Lekin siz o'zingiz ham qancha hissa qo'shdingiz! Qachon qarasa kitob sotib olasiz.

– Agar men avloddan-avlodga o'tayotgan kutubxonamizga e'tiborsiz bo'lsam, juda xunuk ish bo'lgan bo'lardi.

– E'tiborsiz bo'lishmish! Albatta, siz bu chiroyli go'shani yanada bezatish uchun nimalar qilmayapsiz. Charlz, agar sening o'z uying bo'ladigan bo'lsa,

men o'sha uy ham Pemberliga hech bo'lmaganda yarmichalik o'xshashini xohlardim.

– Men o'zim ham xohlardim.

– To'g'risini aytsam, senga Pemberlining yaqin-atrofidan o'shanga o'xshagan joy sotib olishni maslahat berardim. Butun Angliyada men Der-beshirdan yaxshiroq graflikni bilmayman.

– Rost aytasan. Agar Darsi sotmoqchi bo'lsa, men Pemberlini olardim.

– Charlz, men bo'lishi mumkin bo'lgan narsa haqida gapiryapman.

– Chin so'zim, Kerolayn, bunday joyni qurib emas, faqat sotib olib, unga ega chiqish mumkin.

Ularning suhbatini Elizabetni shunchalik qiziqtirib qo'ydi, qiz o'qishini to'xtatdi va kitobini qo'yib, qarta o'ynashayotgan stol oldiga yaqinlashdi. Mister Bingli va missis Xyorst o'rtasiga turib olib, o'yinni kuzata boshladi.

– Miss Darsi mening ko'zimga o'tgan bahordagidan ancha o'sib qolganga o'xshab ko'rinayapti, – dedi miss Bingli. – U menga o'xshab baland bo'lyi bo'lsa kerak.

– Bo'lishi mumkin. Hozir uning bo'yi, menimcha, miss Elizabet Bennetnikidek yoki sal-pal balandroq.

– Uni yana bir marta ko'rishni xohlardim! Men hali shunchalik yoqimtoy qizni hech uchratmaganman. Uning ko'rinishi va o'zini tutishlari biram chiroyli. Yana shu yoshida shunday o'qimishli, fortepyanoni ham xuddi haqiqiy musiqachilardek chaladi.

– Shu meni bu yoshlarning bilim olishga qayerdan shuncha sabr-toqatlari yetishi qiziqtiradi-da, – dedi Bingli.

– Hamma yoshlar bilimlimi? Charlz, azizim, bu bilan nima demoqchisan?

– Menimcha, hamma. Ularning bari rasm chizadi, sumkachalar to'qishadi, bo'yashadi. Men bu ishlarni qilolmaydigan birorta qizni bilmayman. Va

men birorta qiz haqida, u o'qimishli emas, degan gapni eshitmaganman.

– Qizlarning siz sanab o'tgan fazilatlari, afsuski, to'g'ri, – dedi Darsi. – Sumkachalar to'qishni yoki bo'yashni biladigan qizlarning hammasini o'qimishli deyishadi. Lekin sizning ayollarning o'qimishlili-gi to'g'risidagi fikringizga qo'shilmayman. Masalan, men tanigan qizlar orasida besh-oltita o'qimishlisi bor, deb maqtana olmayman.

– Men ham sizga qo'shilaman, – dedi miss Bingli.

– U holda siz «o'qimishli ayol» degani nimaligini aniq qilib tushuntirib bera olasizmi?

– Ha, bu shunday ham tushunarli-ku!

– Rostdan! – hayajon bilan dedi uning sherigi. – Atrofdagilardan bir bosh yuqori turadiganlarni haqiqiy o'qimishli deb aytish mumkin. Bu nom-ga sazovor qiz musiqani o'rgangan bo'lishi, ashula aytishi, rasm chizishi, o'ynay olishi va chet tillarni bilishi kerak. Buning ustiga yana ko'rinishi, o'zini tutishi, yurishlari, gap ohanglari va gapirishi ham boshqacha bo'lishi kerak. Aks holda «o'qimishli» de-gan nomning yarmigagina ega bo'ladi.

– Albatta, bular hammasi bo'lishi kerak, lekin men bunga yana katta bir narsani – ko'p kitob o'qish bilan ega bo'lingan aqlni ham qo'shgan bo'lardim, – dedi Darsi.

– Unda sizning rostdan ham besh-oltitagina o'qi-mishli qizni bilishingiz meni hayron qoldirmaydi. To'g'rirog'i, ularni topa olganingiz menga qiziq tu-yulayapti.

– Nahotki siz o'z jinsingizga nisbatan shunchalik talabchansizki, bunday qizlar borligiga shubha qil-yapsiz?

– Men undaylarni uchratmaganman. Men siz hozirgina sanab o'tgan hamma sifatlar mujassam-lashgan insonni uchratmaganman.

Missis Xyorst va miss Bingli ularning jinsiga nisbatan bunday adolatsizlikdan jahllari chiqib ketdi va baravariga ular bu turdagi ayollarni juda ko'p uchratganlarini aytishar ekan, mister Xyorst ular o'yinga xalaqit berishayotganlarini aytib, tartibga chaqirdi. Suhbat tugab, Elizabet xonadan chiqib ketdi.

– Eliza Bennet, – eshik yopilishi bilan dedi miss Bingli, – o'z jinsini kamsitib, boshqa jins vakillariga yoqishga harakat qiladigan qizlar toifasidan. Ko'p erkaklarga bu yoqadi. Lekin menimcha, bu – pastkashlik.

– So'zsiz, – dedi bu gap o'ziga tegishliligini sezgan mister Darsi. – Ayollarning erkaklarni o'ziga qaratish uchun atay qilgan barcha harakatlari pastkashlik. Ayyorlik bilan qilinadigan hamma narsa – xudbinlik.

Miss Bingli bu javobdan qoniqmagani uchun suhbatni davom ettirmay qo'ya qoldi.

Elizabet qaytib kelib, opasining ahvoli yomonlashganini bildirib, uni tashlab ketolmasligini aytdi. Bingli mister Jonsni chaqirishni taklif qildi. Singillari esa bu chekka joyda yaxshiroq doktorni topish amrimahol ekanligini aytib, poytaxtdan birorta taniqli doktorga ekipaj yuborish kerakligini aytishdi. Elizabet mister Binglining taklifini qabul qildi va ertasi kuni ertalab agar Jeynning ahvoli yaxshilalmasa, mister Jonsga odam yuborishga kelishildi. Mister Bingli juda xavotirda, singillari esa siqilib ketishgan edi. Lekin ular kechki ovqatdan so'ng duetlar kuylab, o'zlarini ovutishdi, Bingli esa xizmatkorga bemor va uning singlisiga yaxshilab qarashni aytib qo'yish bilan o'ziga taskin berdi.

IX bob

Elizabet butun tunni bemorning oldida o'tkazdi. Ertalab esa uning ahvoli ancha yaxshilanganidan xursand bo'lib, xizmatkor ayol orqali mister Bingli-

ga bu haqda xabar berdi. Lekin shunga qaramay, har ehtimolga qarshi, onasining o'zi kelib ko'rishini so'rab yozgan xatini Longbornga yetkazishlarini ham iltimos qildi. Xat o'sha zahotiyoyq yuborildi va ular nonushta qilishayotganda missis Bennet yana ikki qizi hamrohligida Nezerfildga yetib keldi.

Jeynning ahvoli chindan ham xavfli bo'lganda, missis Bennet xavotirlangan bo'lardi. Lekin qizining ko'rinishidan ancha yaxshi bo'lib qolganini ko'rib, uning bunchalik tez tuzalishini istamadiki, aks holda qizi bu yerdan tezda jo'nab ketishi kerak bo'lardi. Shuning uchun ham Jeynning uyga ketish haqidagi iltimosini eshitishni ham xohlamadi. Bu paytgacha kelib, chaqirtirilgan doktor ham o'rindan turishni maslahat bermadi. Missis Bennet qizi bilan biroz o'tirgach, miss Bingli kirib, uni qizlari bilan nonushtaga taklif qildi. Mister Bingli ularni kutib olar ekan, Jeynning ahvoli unchalik yomon emasligiga umid qilayotganini aytdi.

– Lekin ser, aynan shunday. Ahvoli juda yomon, uni Longbornga olib ketib bo'lmaydi, – dedi missis Bennet. – Mister Jonsning aytishicha, buni xayolga ham keltirish mumkin emasmish. Yana biroz vaqt sizlarning mehmondo'stligingizdan foydalanib turishimizga to'g'ri keladi.

– Longbornga ketish! Bu haqda gap ham bo'lishi mumkin emas. Ishonamanki, singlim bu haqda eshitishni ham istamaydi.

– Xonim, xavotir olmang, – sovuqqina dedi miss Bingli. – Agar miss Bennet biznikida qolsa, lozim bo'lgan hamma narsa qilinadi.

Missis Bennet minnatdorchilik bildirdi.

– Uning atrofida shunday yaqin odamlari bo'lmasa, xudo biladi, nima bo'lgan bo'lardi, – qo'shib qo'ydi u. – Aslida, qizim juda sabrli, lekin shunday qiynalyapti. Men qizlarimga doim sizlar Jeyndek

bo'lishingizga ancha bor, deyman. Mister Bingli, xonalarangiz menga juda yoqdi! Bog' shunday ko'rinib turibdi. Graffligimizda bu Nezerfilddek joy bormikan yana? Bu yerda ijarada tursanglar ham, tez orada ketmasanglar kerag-a?

– Men doim shoshaman, – dedi yigit. – Agar bu yerdan ketishga qaror qilsam, besh daqiqadan keyin meni bu yerda ko'rmaysiz. Hozir esa, menimcha, yaxshilab o'rnashib olganman.

– Men ham sizdan shuni kutayotgandim, – dedi Elizabet.

– Siz mening tabiatimni tushuna boshladingiz-a? – unga qarab so'radi Bingli.

– Ha, ha, men sizni juda yaxshi tushunib turibman.

– Bu gapingizni maqto'v deb qabul qilaman. Lekin ichi qandayligi shundoq ko'rinib turgan odam lapa-shangga o'xshab ko'rinsa kerak.

– Bu sharoitga bog'liq. Ichimdagini top dey-diganlarni sizdan yuqoriroq yoki pastroq deb hisoblashmaydi.

– Lizzi, – missis Bennet gapga aralashdi, – sen uyda gapiradigan gaplaringni bu yerda gapiraverma. Qayerdaligingni unutmagin.

– Men siz inson tabiatini o'rganish bilan shug'ullanasiz, deb o'ylamagandim ham, – dedi Bingli. – Juda qiziq bo'lsa kerag-a?

– Ayniqsa, murakkab xarakterlar qiziq. Buni ulardan olib qo'yib bo'lmaydi.

– Qishloq hayoti bu narsani o'rganish uchun ko'p narsa bermaydi, – dedi Darsi. – Bu yerda aloqada bo'lish mumkin bo'lgan odamlar soni juda kam va chegaralangan.

– Lekin odamlar shunchalik tez o'zgarayaptiki, ularning har birida bir yangilikni kuzatish mumkin.

– Rostdan ham, – xitob qildi mister Darsining qishloq odamlari haqidagi gapi tegib ketgan missis

Bennet. – Bu yerlarda ham undaylar shahardagidan kam emas.

Hamma jim bo'lib qoldi. Darsi esa unga bir qarab qo'yib, indamay teskari o'girildi. O'zini zo'r gapirdim deb o'ylagan mehmon esa yana hammani hayratga solmoqchi bo'ldi:

– Men o'zim, masalan, Londonning do'konlari va ko'ngilochar joylarini hisoblamasa, bu yerdan hech qanday ortiqliği yo'q, deb hisoblayman. Qishloqda yashash yaxshirog'a, mister Bingli?

– Men qishloqqa kelganimda u yerdan ketgim kelmaydi, – javob berdi yigit. – Lekin shaharga borganimda ham shunday. Unisining ham, bunisining ham o'z gashti bor. Menga u yerda ham, bu yerda ham maza.

– To'g'ri, bu sizning sog'lom fikr yuritishingizdan. Manavi yigit esa, – Darsiga qarab dedi missis Bennet, – qishloq hayotiga osmondan kelib qarar ekan.

– Onajon, siz noto'g'ri o'ylaysiz, – onasining gaplaridan uyalgan Elizabet gapga aralashdi. – Siz mister Darsini tushunmadingiz. U qishloqda odamlar shahardagidan ko'ra bir xil demoqchi edi. Albat, siz o'zingiz ham shunday o'ylaysiz.

– Albatta, hech kim katta farq haqida gapirmayapti. Tanish-bilishlarga kelsak, ishonamanki, bu yerda ham boshqa yerdagilardan kam emas. Bizning o'zimiz, masalan, yigirma to'rtta oila bilan bordi-keldi qilamiz.

Elizabet hissiyotlarini hurmat qilgan mister Bingliga bu gaplarni eshita turib o'zini kulib yuborishdan tiyib qolish juda qiyin bo'ldi. Uning singlisi esa akasichalik andishali bo'lmagani uchun Darsiga ma'noli jilmayib qo'ydi. Elizabet onasini chalg'itish uchun undan uyda o'zi yo'qligida mabodo Sharlotta Lukas kirgan-kirmaganligini so'radi.

– Ha, u kecha otasi bilan kelgandi. Mister Bingli, siz nima deysiz, bu ser Uilyam juda ajoyib inson-a?

Haqiqiy oqsuyak: aqlli, xushmuomala. U hammaning ko'nglini birdek ola oladi. Uni haqiqiy insonning tim-soli desa bo'ladi. Birovga tishining oqini ko'rsatmaydigan va o'zini osmonda tutadigan ba'zi birovlar bekorga o'zlarini yaxshi tarbiyali deb hisoblaydilar.

– Sharlotta sizlar bilan tushlik qildimi?

– Yo'q, u uyiga ketishga shoshayotgandi. Menimcha, uyida pirog pishirishga yordam bermoqchi edi. Bizning xizmatkorlarimiz esa, mister Bingli, o'z vazifalarini bajarishni juda yaxshi bilishadi. Ha, mening qizlarim boshqacha tarbiyalangan. Har biri o'ziga xos. Lukaslarning qizlari ham xunuk bo'lishsa-da, yoqimtoy. Lekin men Sharlotta juda xunuk demoqchi emasman – u oilamizning eng yaqin do'sti.

– Sharlotta juda yoqimli qiz shekilli, menimcha, – dedi mister Bingli.

– Bo'lmasam-chi! Lekin uning qo'polgina ekanligini tan olsangiz kerak? Buni ledi Lukasning o'zi ham tan oladi. Mening Jeyninga biram havasi keladi. Albatta, qizing bilan maqtanish yaxshi emas-ku, lekin Jeyndek chiroyli qizlar kam bo'ladi. Har qadamda shuni gapirishadi. U endigina o'n besh yoshga to'lganida bizlar mening Londondagi akam Gardinernikida yashardik. O'sha yerda bir yosh yigit Jeynni yurakdan sevib qoldi. Biz Londondan jo'nab ketishimizdan oldin qizimizning qo'lini so'rasa kerak, deb o'ylagandik. Rost, bu narsa bo'lmadi. U Jeynni hali juda yosh deb o'ylagan bo'lsa kerak. Lekin u Jeynga atab shunaqangi ajoyib she'rlar yozgandiki...

– Va bu sarguzasht shu bilan tugadi, – shoshilib gapga qo'shildi Elizabet. – Menimcha, bu xuddi shunday tugagan yagona qiziqish emas. Qiziq, she'riyat muhabbatni o'ldiradi deb birinchi bo'lib kim aytganikin?

– Men esa muhabbat she'riyatdan bahra oladi, deb hisoblayman, – dedi mister Darsi.

– Ha, agar sevgi sogʻlom, mustahkam va haqiqiy boʻlsa. Allaqachon mustahkamlangan sevgi hamma narsadan bahra olishi mumkin. Lekin agar u shunchaki yoqtirish boʻlsa, bir-ikki qator sheʼrdan keyin undan iz ham qolmaydi.

Darsi jilmaydi. Oraga jimlik choʻkdi. Elizabet onasi shu paytda yana birorta boʻlmagʻur gap gapirib qoʻyadi deb xavotirda edi. Missis Bennet rostdan ham gapirgisi kelar, lekin miyasiga hech narsa kelmayotgan edi. Biroz davom etgan jimlikdan soʻng u yana mister Bingliga Jeynga koʻrsatgan gʻamxoʻrliklari uchun minnatdorchilik bildirar boshladi. Mister Bingli oʻz javoblarida oʻta mulozamatli boʻlib, bu bilan singlisini ham shunday boʻlishga majbur etgan, u ham odatda shunday paytlarda qilinadigan hamma chiroyli mulozamatni qilayotgan edi. Missis Bennet ulardan juda xursand boʻlgan holda uyga qaytish uchun ekipaj tayyorlashlarini soʻradi. Va xuddi shu paytda, birov turtgandek, kichik miss Bennet gap boshladi. Butun tashrif davomida Kitti va Lidiya oʻzaro pichirlashib oʻtirishgan edi. Ular ketayotganlarida mister Bingliga u Xartfordshirga kelganda Nezerfildda bal oʻtkazishga bergan vaʼdasini eslatib qoʻyishga kelishishgandi.

Onasining erkatoysi boʻlgan oʻn besh yoshli Lidiya istarasi issiq, baland boʻyli qiz edi. Aynan shuning uchun ham u shunchalik yosh boʻlishiga qaramay, allaqachon mehmondorchiliklarga yura boshlagan va amakisinikiga uning shirin ovqatlarini birga baham koʻrishga kelib turadigan zobitlarning unga eʼtibor qilishlari natijasida, oʻziga bino qoʻygan bir yengiltak qizga aylanishga ulgurgan edi. Shuning uchun u uyalmasdan mister Bingliga bemaʼlol oʻz vaʼdasini eslatib, agar u vaʼdasiga vafo qilmasa, uningdek yigit uchun bu juda uyat boʻlishini aytayotgan edi. Mister Binglining bergan javobi missis Bennetga juda yoqib ketdi:

– Gapimga ishonimg, men o‘z va‘damni bajonidil bajaraman. Miss Bennet tuzalishi bilan ziyofat kunini belgilashingizni sizdan iltimos qilaman. Lekin opangiz hali kasal ekan. Menimcha, raqsga tushish o‘zingizning ham yuragingizga sig‘masa kerak.

Lidiya uning gaplarini tasdiqladi:

– Ha, albatta, Jeyn tuzalguncha kutib tursak yaxshi bo‘ladi. Buning ustiga u paytgacha kapitan Karter ham Meritonga qaytib kelsa kerak. Men sizdan keyin uni ziyofat berishga majbur qilaman. Polkovnik Forsterga esa u bundan qochadigan bo‘lsa, uyat bo‘lishini aytaman.

Shundan keyin missis Bennet va qizlari jo‘nab ketishdi. Elizabet esa mister Darsi va ayollarga o‘zi hamda uning qarindoshlarini bemalol g‘iybat qilishlariga sharoit yaratib, Jeynning yoniga kirib ketdi. Miss Binglining uning «chiroyli ko‘zlari» to‘g‘risidagi qochiriqlariga qaramay, mister Darsi Elizabet to‘g‘risida lom-lim demadi.

X bob

O‘sha kun boshqa hech qanday yangiliklarsiz o‘tdi. Missis Xyorst va miss Bingli kunning birinchi yarmini bir necha soat sekin tuzala boshlagan Jeynning yonida o‘tkazishdi. Kechqurun Elizabet hamma yig‘ilgan mehmonxonaga kirib keldi. Bu safar hech kim qarta o‘ynamayotgan edi: Mister Darsi xat yozar, miss Bingli esa uning yonida o‘tirib, hadeb singlisiga salom aytib qo‘yishni so‘rar, uning diqqatini chalg‘itar edi. Mister Xyorst va mister Bingli piket o‘ynashayotgan, missis Xyorst esa ularning o‘yinini kuzatib o‘tirar edi.

Elizabet tikishga o‘tirar ekan, mister Darsi va miss Bingli o‘rtasidagi suhbat qulog‘iga kirib ko‘ngli ko‘tarildi. Qizning mister Darsi husnixatining chiroyliligi, fikrlarini xatda chiroyli ifoda qilishiga qoyil

qolib aytayotgan maqtovlariga yigitning butunlay beparvoligi Elizabetning bu ikkala inson to'g'risidagi qilgan xulosalariga mos kelar edi.

– Miss Darsi xatni olib, juda xursand bo'ladi!

Jimlik.

– Haddan tashqari tez yozar ekansiz.

– Bo'lmagan gap. Men juda sekin yozaman.

– Bir yilda qancha xat yozishingizga to'g'ri keladi! Buning ustiga, ish yuzasidan yana qancha xat! Qanaqa charchatadigan ish ekanligini tasavvur qilyapman.

– Shunday og'ir ish menga tekkani sizning omadingiz.

– Iltimos, singlingizga men uni juda ko'rgim kelayotganini yozing.

– Buni yozib bo'ldim.

– Menimcha, peroyingiz juda yomon ekan. Bering, men tuzatib beraman. Men zo'r tuzataman.

– Minnatdorman, lekin peroyimni har doim men o'zim tuzataman.

– Qanday qilib bunaqa tekis yozasiz?

Mister Darsi javob bermadi.

– Singlingizga uning arfa chalishdagi muvaffaqiyatlaridan men juda xursand bo'lganimni yozib yuboring. Va yana aytingki, men uning dasturxonga tikkan kashtalaridan hayratdaman va uning ishi miss Grantlinikidan ancha yaxshi.

– Balki bu maqtovlaringizni keyingi xatga qoldirarsiz? Bu yerda joy qolmadi.

– Voy, bezovta bo'lmang. Men u bilan yanvarda ko'rishaman. Mister Darsi, siz har doim shunaqa ajoyib uzun xatlar yozasizmi?

– Ha, ular rostdan ham uzun, lekin ularning qanaqaligini men o'zim aytolmayman.

– Menga esa bunday uzun xatlar yozadigan odam o'z-o'zidan zo'r xat yozadiganga o'xshaydi.

– Kerolayn, mister Darsi uchun bu maqtov emas, – gapga aralashdi mister Bingli. – Bu xatlarni yozish unga oson emas. U nuqul to‘rt bo‘g‘inli so‘zlar ishlatishga harakat qiladi, shundaymi Darsi?

– Mening xat yozish uslubim, albatta, siznikidan farq qiladi.

– Ha, hech kim xatni Charlzchalik hafsalasizlik bilan yozmasa kerak. So‘zlarining yarmini tashlab ketadi, yarmini o‘chirib tashlaydi.

– Xayolimga fikrlar shunaqa tez keladiki, men ularni qog‘ozga tushirishga ulgurmayman. Shuning uchun mening xatlarim gohida aslida nima demoqchiligimni egasiga yetkazmaydi, – dedi mister Bingli.

– Sizning kamtarligingiz xohlagan tanqidchini qurolsizlantirib qo‘yadi, – dedi Elizabet.

– Birovlarga ko‘rsatib qilingan kamtarlikdan yomon narsa yo‘q. Ba‘zan kamtarlik niqobi ostida boshqalarning fikriga beparvolik va manmanlik yashiringan bo‘ladi.

– Unda mening gaplarimni qanday baholaysiz?

– Albatta, niqoblangan maqtanchoqlik deb. Axir siz ich-ichingizdan xatlaringizdagi kamchiliklar bilan faxrlanayapsiz-ku! Chunki siz bu kamchiliklarni fikrlaringizning ko‘pligidan va ularni ifodalashga ulgura olmayotganimdan deb hisoblaysiz va bu narsalar maqtovga loyiq bo‘lmasa-da, o‘ziga tortadigan jihatlari bor. Biror narsani tez bajarish sifat jihatidan maqtashga arzimasa-da, odatda, bajaruvchi tomonidan yuqori baholanadi. Bugun ertalab siz missis Bennetga agar ketishni xohlab qolsangiz, sizni bu yerda besh daqiqa ham ushlab turib bo‘lmasligini aytib, maqtandingiz. Agar yaxshilab o‘ylab ko‘rilsa, muhim ishlarni tugatmasdan va bu shoshilishdan na senga va na boshqaga biror naf bo‘lmasa, buning nimasi maqtovga sazovor?

– Endi bu haddan tashqari, – e’tiroz qildi mister Bingli. – Ertalabki yomon ish uchun kechqurun gap eshitish! Lekin qasam ichib aytamanki, o’sha aytgan gaplarim rost va bu gapimdan qaytmayman. Har holda, o’zimning shoshilishim haqida ayollar-ning oldida maqtanish uchun gapirmaganman.

– Bunga aslo shubha qilmayman. Lekin sizning bunchalik tez jo’nab ketishingizga men ishonmayman. Chunki bunday paytda har bir insonning xatti-harakati sharoit taqozosidan kelib chiqib bo’ladi, jumladan, sizning ham. Siz endigina otga o’tirganingizda eng yaqin do’stingiz: «Bingli, yana bir haftagina shu yerda bo’lmaymizmi?» deb qolsa, balki unga quloq solib, yana bir hafta emas, yana bir oy ushlalib qolgan bo’lardingiz.

– Siz bu gaplaringiz bilan mister Binglining o’ziga nisbatan adolatsizligini isbotladingiz, – gap qo’shdi Elizabet.

– Siz do’stimning so’zlarini mening tabiatimning yumshoqligini maqtaganga aylantirib yuborganingizdan juda xursandman, miss Elizabet, – dedi Bingli. – Lekin qo’rqamanki, ayni teskarisi. U aslida bunday hollarda qat’iy rad qilib, hech narsaga qaramay tezroq jo’nab qolish kerak, deb hisoblaydi.

– Nahotki, mister Darsi sizning birinchi shoshqaloqligingizni keyingi o’jarligingiz yuvib ketadi, deb hisoblayotgan bo’lsa?

– Xudo haqqi, men tushuntirib berolmayman. Darsining o’zi aytsin.

– Nima, sizlar men gapirmagan, lekin sizlar menga taqayotgan gaplarni qaytarishimni so’rayapsizlarmi? Xo’p, mayli, sizlar aytgandek bo’la qolsin. Miss Bennet, yodingizdami, o’sha men taxminan aytgan do’sti yana biroz qolishni iltimos qilib, faqat o’z istagini bildirdi, hatto nima uchunligini tushuntirib ham o’tirmadi.

– Siz do‘stingiz birovning iltimosini darrov qondirishini yaxshi sifatlardan biri, deb hisoblamaysizmi?

– O‘ylamasdan yon berish ikkala do‘stning ham aql darajasiga putur yetkazgan bo‘lardi.

– Menimcha esa, mister Darsi, siz do‘stlik degan so‘zning qadriga yetarli baho bermayapsiz. Ba‘zan iltimos qilayotgan odamga hurmat yuzasidan iltimosning mazmuniga qaramasdan ham bajarishga harakat qilinadi. Men, siz mister Bingli to‘g‘risida aytgan sharoitni ko‘zda tutmayapman. Mister Bingli bilan shunday hodisa bo‘lishini kutib turamiz va ana o‘shanda unga kerakli bahoni beramiz. Nahotki siz, birov do‘stidan ma‘lum bir ishni qilmaslikni so‘rasa-da, sherigi nimagaligini so‘ramay, unga quiloq solsa, uni bu ishi uchun gunohkor qilsangiz?

– Menimcha, bu masalani muhokama qilishni davom ettirishdan oldin, ularning do‘stligi qay darajada mustahkam ekanligi va so‘ralayotgan iltimosning qay darajada muhimligini aniqlab olsak bo‘lardi.

– To‘ppa-to‘g‘ri! – qizishib dedi mister Bingli. – Kelinglar, hamma mayda-chuyda narsalargacha kelishib olamiz, hatto do‘stlarning bo‘yini va kuchini ham hisobga olamiz. Miss Bennet, bu narsalar juda katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Ishonassizmi, agar Darsi menga qaraganda bunchalik polvon ko‘rinmaganda, men u bilan hatto hisoblashmasdim ham. Ma‘lum bir sharoitlarda, ma‘lum bir joylarda, tan olaman, o‘zini mendan qo‘rqadigandek qilib ko‘rsatadi, ayniqsa, o‘zining uyida dam olish kunlari kechqurun nima qilishni bilmay o‘tirganida.

Darsi jilmayib qo‘ydi. Lekin Elizabet bo‘lgan gaplar Darsining hamiyatiga tekkanini sezib, jilmayishdan o‘zini tiydi. Miss Bingli esa akasining Darsini bunchalik haqorat qilganidan jahli chiqib, ahmoqona gaplari uchun uni urisha ketdi.

– Men siz nima demoqchiligingizni tushundim, Bingli, – dedi Darsi. – Sizga bizning bahsimiz yoqmayapti va shu yoʻl bilan unga nuqta qoʻymoqchi boʻldingiz.

– Balki. Odatda, bahslar munozaraga oʻxshab ketadi. Agar siz va miss Bennet oʻz janjallaringizni men xonadan chiqib ketguncha toʻxtatib tursanglar, juda sizlardan minnatdor boʻlardim. Ketganimdan soʻng men toʻgʻrimda nima desanglar ham roziman.

– Iltimosingizning men uchun hech qanday ogʻirli-gi yoʻq. Mister Darsi ham yozayotgan xatini tugatib olsa yaxshi boʻlardi.

Mister Darsi uning maslahatidan foydalanib, xatini oxirigacha tugatib qoʻydi. Boʻshagach, miss Bingli va Elizabetdan birorta kuy chalib berishlarini soʻradi. Miss Bingli Elizabetning hurmati uchun birinchi boʻlib chalishga taklif qildi, u ham oʻz navbatida hamrohiga hurmat koʻrsatgach, fortepyano yoniga oʻtirdi.

Missis Xyorst singlisi bilan birga ashulaga qoʻshildi. Ular ikkalasi qoʻshiq bilan band boʻlib, Elizabet oldida turgan notalarni varaqlar ekan, Darsining oʻziga tez-tez qarab qoʻyayotganini sezdi. Oʻziga bino qoʻygan bu yigitning uni yoqtirib qarayotganini tasavvuriga ham sigʻdira olmayotgan edi. Shu bilan birga, uning Elizabetga masxaralab qarayotgani ham toʻgʻridek emasdi. Nihoyat, yigitning bu eʼtiborini xonadonda faqat uning fikrlarigina oʻziniki bilan mos kelmayotgani uchunligiga yoʻyib qoʻya qoldi. Bu fikrdan uning kayfiyati oʻzgarmadi. Mister Darsi unga shunchalik yoqmayotgandiki, yigitning oʻzi haqidagi fikri bilan hisoblashishni hatto xayoliga ham keltirmasdi.

Bir nechta italyancha ariyalarni ijro etgach, miss Bingli shotlandcha quvnoq kuyni chala boshladi. Mister Darsi oʻrnidan turib, Elizabetga yaqinlashib, dedi:

– Miss Bennet, vaqtdan foydalanib, shu kuyga bir raqsga tushmaymizmi?

Elizabet hech narsa demay jilmayib qo'ydi. Uning sukutidan hayron bo'lgan Darsi savolini qaytardi.

– Men sizni juda yaxshi eshitdim, faqat nima deb javob qaytarishga hayronman, – dedi Elizabet. – Siz, albatta, taklifingizni qabul qilib, o'zimning didim pastligini isbotlashim uchun yo'l ochib berishimni xohlayotgandingiz. Lekin men doim shunday tuzoqlarni chetlab o'tib, egalarini ular oldindan maza qilib kutayotgan xursandchilikdan bebahra qilishni yaxshi ko'raman. Shuning uchun ham men bu kuyga raqs tushishni o'lgudek yomon ko'raman, deb aytish xayolimga kelgandi. Mana endi, agar qo'lingizdan kelsa, xohlaganingizcha ustimdan kulavering.

– So'zlarimga ishoning, men sizni hech narsada ayblay olmayman!

O'zining gaplari yigitning hamiyatiga tegadi, deb o'ylagan Elizabet, uning muloyimligidan hayratga tushdi. Qizdan ufurib turgan shiringina ayyorlik birorta yigitning hamiyatiga tegishi amrimahol edi. Darsi ilgari birorta ayol ham uni shunchalik maftun qilmaganini his qilib turardi. Va unga yana shu narsa ma'lum ediki, agar Elizabetning qarindosh-urug'lari tuzukroq bo'lishganda, qizning qalbiga yana bir narsa xavf solgan bo'lardi.

Miss Bingli rashkka o'xshash nimanidir his qildi. Unda qadrdon dugonasining sog'ayishini xohlash bilan birga tezroq uning singlisidan qutulish xohishi ham paydo bo'ldi. U yaqin orada bo'lishi mumkin bo'lgan to'ylari va bunday xotin bilan uning qanday baxtli bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi gaplarni gapirib, Darsini Elizabetga qarshi qilib qo'yishga harakat qilardi.

– Umid qilamanki, bu baxtli voqea bo'lib o'tgach, siz qaynonangizga ba'zan tilini tiyib yurish foydali ekanligini shipshitib qo'yasiz, – dedi u ertasi kuni Darsi bilan uy oldidagi bog'da sayr qilib yurishar ekan. – Buni qilib bo'lganingizdan so'ng esa qaynsingillarini

gizni zobitlar ketidan yugurmaydigan qilasiz. Menga bu mavzuda gapirishga ruxsat berilgan ekan, yana bir narsani aytib o'tmoqchiman. Tanlagan qizingizni manmanlikdan xalos qilishga harakat qiling.

– Siz mening baxtli bo'lishim uchun balki yana biror maslahat berarsiz?

– Albatta! Filips amakining portretini Pemberlidagi galereyangizga osib qo'ying. Otangizning amakisi bo'lgan sudyaning rasmi yoniga. Axir ular bir xil kasb egalari-ku, faqat ikki xil tomondan. Elizabetingizning suratini esa hatto chizdirishga ham harakat qilmang. Axir, birorta rassom uning chiroyli ko'zlarini ifoda etishga qurbi yetarmikin?

– Rostdan ham bu ko'zlarning ifodasini chizish oson bo'lmasa kerak. Lekin bu ko'zlarning shaklini, rangini, uzun kipriklarini yaxshi rassom chiza olsa kerak.

Shu payt ular yaqin orada sayr qilib yurgan missis Xyorst bilan Elizabetning o'zini ko'rib qolishdi.

– Men sizlar ham sayrga chiqmoqchi ekanliklaringizni bilmabman! – dedi miss Bingli, ular uning aytgan gaplarini eshitib qolgan bo'lishlaridan xavfsirab.

– Uyat emasmi? Sekingina chiqib ketibsizlar, – javob berdi missis Xyorst va mister Darsining bo'sh tomonidan qo'ltiqlagancha Elizabetni u yog'iga bir o'zi ketishga undadi – yo'l kaga faqat uchta odam sig'ar edi. Uning farosatsizligini sezgan mister Darsi o'sha zahoti dedi:

– Bu yo'l uch kishi uchun torlik qiladi. Kelinglar, anavi katta yo'lga chiqamiz.

Lekin ulardan alohida ketishni juda ham xohlayotgan Elizabet qarshilik ko'rsatdi:

– Yo'q, yo'q, shu yerda qolinglar. Uchalangiz bir ajoyib ketyapsizlar. Agar sizlarga yana bir odam qo'shilsa, mutanosiblik buziladi. Ko'rishguncha!

Va u bir-ikki kundan so'ng bu yerdan ketishini o'ylab, quvongancha yugurib ketdi. Jeyn o'sha kuni o'zini juda yaxshi his qilayotgan bo'lib, shu kuni kechqurun xonasidan chiqib, biroz yurmoqchi bo'ldi.

XI bob

Tushlikdan so'ng hamma qo'zg'algach, Elizabet Jeynning xonasiga ko'tarildi va uni yaxshilab kiyintirib, mehmonxonaga tushdi. Qizni hamma xursandchilik bilan kutib oldi. Mister Binglining singillari bu paytda hech narsa bo'lmagandek biram muloyim, biram mehribon edilar. Ikkalasi ham gapga chechan, latifalarga usta, biror-bir tanishlari ustidan maza qilib kulishar edi.

Lekin erkaklar paydo bo'lishi bilan Jeyn ikkinchi o'ringa o'tib qoldi. Miss Bingli e'tiborini darrov mister Darsiga qaratdi: u hali xonaga kirishga ulgurmay, qiz unga gapira ketdi. Mister Darsi indamay Jeynning oldiga kelib, uni sog'ayganligi bilan tabrikлады. Mister Xyorst ham unga yengilgina ta'zim qilib, «xursandman»ga o'xshash nimadir deb ming'irlab qo'ydi. Lekin mister Bingli hammadan o'tib tushdi. U haddan tashqari xursand va hayajonda edi. Yigit Jeyn sovqotib qolmasligi uchun kaminga o't yoqaman deb, yarim soat ovora bo'ldi. Uning qistovi bilan Jeyn eshikdan nariroqda bo'lish uchun kamin oldidagi kresloga o'tib o'tirdi.

Keyin Binglining o'zi qizning yoniga o'tirib, butun kecha davomida faqat u bilan gaplashib o'tirdi. Ro'parada ish tikib o'tirgan Elizabet ularning o'tirishini xursandchilik bilan kuzatib o'tirdi.

Choydan so'ng mister Xyorst qarta stoliga o'tishni taklif qildi. Lekin Kerolayn mister Darsining hozir qarta o'ynashga hushi yo'qligini sezib turardi. Mister Xyorstning baland ovozda hammaga murojaat qili-

shi bekor ketdi. Miss Bingli unga hech kimning qarta o'ynagisi kelmayotganini aytdi. Bu gapga hamma qo'shilgandek, hech kimdan sado chiqmagach, mister Xyorstning divanga cho'zilib uyquga ketishdan boshqa ishi qolmadi. Darsi qo'liga kitob oldi, miss Bingli ham shunday qildi, missis Xyorst esa uzuk va ziraklarini tartibga sola boshladi, vaqti-vaqti bilan Bingli va Jeynlarning gaplariga qo'shilib turdi.

Miss Bingli o'z kitobini o'qish bilan birga mister Darsi kitobini qanday o'qiyotganini ham sezdirmay kuzatib o'tirar edi. U dam o'tmay yigitdan biror narsa so'rar va uning oldida ochiq turgan kitobga qarab qo'yar edi. Lekin Darsini suhbatga torta olmad: yigit unga qaramay, savollariga qisqagina javob berib, o'qishda davom etardi. Axiri, qilgan harakatlardan hech qanday natija chiqara olmagan miss Bingli og'zini katta ochib esnab, dedi:

– Kechani shunday o'tkazish qanday yaxshi-a! Ochig'ini aytsam, kitob o'qishdan boshqa yaxshiroq mashg'ulotni bilmayman. Boshqa ishdan odam birpasda charchaydi. O'zimning uyim bo'lganda, o'z kutubxonam bo'lmasa, o'zimni eng baxtsiz deb hisoblayman.

Hech kim javob qaytarmadi. U yana bir marta qattiq esnab, kitobni otib yubordi va biror-bir qiziq narsa qidirib, xonani ko'zdan kechirdi. Akasining miss Bennet bilan bal haqida gaplashayotganini eshitib, unga o'girildi-da, so'radi:

– Aytgancha, Charlz, sen rostdan ham Nezerfild-da bal o'tkazmoqchimisani? Bunday qaror qabul qilishdan oldin hozir shu yerda o'tirganlarning fikrini bilsang bo'lardi. Menimcha, bu yerda o'tirganlarning ba'zi birlariga bal o'tkazish yoqmasligi mumkin.

– Sen Darsini ko'zda tutayapsan shekilli, – javob berdi Bingli. – Agar unga yoqmasa, borib uxlashi mumkin. Balni esa albatta o'tkazamiz, boshqa gap

bo'lishi mumkin emas. Hamma narsa shay bo'lishi bilan men mehmonlarga taklifnoma yuboraman.

– Ballar boshqacharoq bo'lganda yaxshiroq bo'lardi. Hozirgilari biram zerikarliki... Raqslar o'rniga jiddiy suhbatlar uyushtirilganda edi, – dedi miss Bingli.

– Albatta, azizam, – dedi Bingli. – Lekin bu bal bo'lmay qolardi-da.

Miss Bingli javob qaytarishni o'ziga lozim ko'rmay, o'rnidan turib, xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Uning qomati kelishgan va yurishlari chiroyli edi. Bu harakat Darsiga qaratilgan bo'lsa-da, u o'qishdan boshini ko'tarmadi. O'z niyatiga yetmagan qiz bir shumlikni o'ylab, Elizabetga dedi:

– Miss Eliza Bennet, mendan o'rnak olib biroz turib yursangiz-chi. Hadeb bir joyda qadalib o'tirishdan so'ng bu juda foydali.

Elizabet biroz hayron bo'lsa-da, baribir o'rnidan turdi. Miss Bingli niyatiga yetdi: mister Darsi o'qishdan boshini ko'tardi. Miss Binglining Elizabetga mehribonligi undan ham ko'ra Darsi uchun kutilmagan hodisa edi va shuning uchun u beixtiyor kitobini yopdi. Yigitga ham qatorga qo'shilishni taklif qilishdi, lekin u rad qildi. Yigitning aytishicha, xona bo'ylab bu sayrning ikkita sababi bo'lishi mumkin va ikkala holda ham u qizlarga xalaqit beradi.

«Bu bilan u nima demoqchi? Elizabet u nima demoqchiligini bilishga qiziqib o'layotgan bo'lsa kerak?» – miss Bingli Elizabetdan Darsining gapidan biror narsa tushungan-tushunmaganini so'radi.

– Albatta yo'q, – javob berdi Elizabet. – Lekin ishonamanki, u bizning nafsoniyatimizga tegmoqchi edi. Va bu qilg'iga javobimiz – undan hech narsa so'ramaslik.

Lekin miss Bingli mister Darsini hech ham xafa qilmoqchi emasdi. Shuning uchun u mister Darsidan nima demoqchi bo'lganini so'rab qistayverdi.

– Xo‘p, yaxshi. Sizning vaqtni bunday o‘tkazishingizdan maqsad yoki sizlar bir-biringizga juda ishonasizlar va nimadir to‘g‘risida sirlashmoqchisizlar yoki shunday yurganda juda chiroyli ko‘rinayapman, deb o‘ylayapsizlar. Birinchi masalada men sizlarga xalaqit beraman, ikkinchisida esa men shu yerda, kaminning oldida o‘tirib, sizlardan zavqlanishim mumkin.

– Qanday dahshat! – hayajon bilan dedi miss Bingli. – Men umrimda bunday haqorat eshitmaganman. Bu gaplar uchun sizni qanday jazolash kerak?

– Bundan oson narsa yo‘q, faqat juda xohlash kerak. Hammamiz bir-birimizga biroz qaltis hazil qilishimiz mumkin. Siz uning jahlini chiqazing, ustidan kuling. Axir, sizlar yaqin do‘stsizlar-ku, uning nozik tomonlarini bilsangiz kerak?

– Chin so‘zim, bilmayman. Sizni ishontirib aytamanki, bizning tanishuvimiz meni bu narsaga o‘rgatmadi. Hech narsa chiqmaydi, deb qo‘rqaman. Bekordan-bekorga kulib tentakka o‘xshab ko‘rinmaymiz-ku! Mister Darsi xotirjam bo‘lishi mumkin.

– Mister Darsining ustidan kulib bo‘lmaydimi? – hayron bo‘ldi Elizabet. – Qanday ortiq joyi bor? Shunchalik ortiqki, menimcha, istisno bo‘lsa kerak. Agar tanishlarim orasida bundaylar ko‘p bo‘lsa, menga juda qiyin bo‘lgan bo‘lardi, chunki men kulgini juda yaxshi ko‘raman.

– Miss Bingli menga menda yo‘q sifatlarni yopishtirayapti. Insonlarning eng aqlli va samimiy-lari yo‘q, aksincha, odamlarning aqlli va samimiy xatti-harakatlari birovning ustidan kulish maqsadi bo‘lganlar tomonidan kulgiga olinadi.

– Albatta, bunday insonlar yo‘q emas, – dedi Elizabet. – Umid qilamanki, meni undaylar qatoriga qo‘shmassiz. Men hech qachon donishmandlik

va insoniylik ustidan kulmaganman. Tentaklik va g'alati-g'alati qiliqlar, injiqlik va betartiblik har doim menga kulgili tuyuladi va doim ularning ustidan kulaman. Lekin siz bunday sifatlardan xolisiz.

– Menimcha, hech kim haqida ham bunday de-yish mumkin emas. Lekin mening o'zim umrim davomida meni kulgili ko'rsatishi mumkin bo'lgan sifatlardan qutulish uchun ko'p harakat qilganman.

– Masalan, mag'rurlik va manmanlikdanmi?

– Ha, aslida ham manmanlik insonning kam-chiligi. Lekin mag'rurlik... Haqiqiy aqlli odam odat-da me'yorida mag'rur bo'ladi.

Elizabet kulgisini yashirish uchun teskari o'girildi.

– Elizabet, menimcha siz mister Darsining tabia-tini biroz bilib oldingiz shekilli. Siz o'zingiz bu haq-da nima deysiz? – so'radi miss Bingli.

– Nima ham derdim. Men rostdan ham mister Darsi-ning har qanday kamchiliklardan xoli ekanligiga ishonch hosil qildim. Uning o'zi ham buni berkitmaydi.

– Men bunday deganim yo'q. Kamchiliklarim tiqilib yotibdi. Faqat mening aqlim bulardan xoli deb umid qilaman. Lekin tabiatim uchun javob bera ol-mayman. Atrofdagilarning gapicha yumshoqko'ngil emasman. Atrofimdagilarning ahmoqliklarini, meni xafa qilganlarini tez esdan chiqara olmayman. Rah-mimni keltirishmoqchi bo'lsa, darrov yumshay qol-mayman. Meni arazchi deyish to'g'ri bo'lsa kerak. Men birovni hurmat qilmay qo'ysam, bu bir umrga.

– Mana bu haqiqiy kamchilik! – dedi Elizabet. – Haddan ortiq arazchilik, albatta, inson tabiatining eng yomon xususiyati. Lekin siz o'z kamchiligingizni ochiq-oydin aytdingiz. Men sizning ustingizdan kula olmayman. Mendan qo'rqmasangiz ham bo'ladi.

– Menimcha, biror-bir kamchilikka ega bo'lish har bir insonga xos bo'lsa kerak. Tabiat bergan kamchilik-ni hatto eng yaxshi tarbiya ham tuzata olmaydi.

– Sizning kamchiligingiz – odamlardan nafratlanishga tayyorligingiz.

– Sizniki esa, – kulib dedi Darsi, – ularni ataydan tushunmaslik.

– Men biroz musiqa eshitgim kelayapti, – o‘zi ishtirok etmayotgan suhbatdan charchagan miss Bingli gapga aralashdi. – Luiza, agar eringni uyg‘otib yuborsam, jahling chiqmaydimi?

Opasi qarshilik qilmagach, Kerolayn fortepyano-ning qopqog‘ini ochdi. Darsi ham qarshi bo‘lmadi, chunki Elizabetga haddan ortiq e‘tibor berib yuborganini sezib qolgan edi.

XII bob

Opa-singil avvaldan kelishganlaridek, ertasi kuni ertalab Elizabet o‘sha kuniyoq ekipaj yuborishlarini so‘rab, onasiga xat yozdi. Missis Bennet esa qizlarining Nezerfildda seshanbagacha qolishlarini rejalashtirayotgan edi. Shuning uchun ularning kelishlarini eshitib, juda ham xursand bo‘lmadi. Uning javobi onasining javobini sabrsizlik bilan kutayotgan Elizabet uchun kutilmagan bo‘ldi. Xatida seshanbagacha ekipaj yubora olmasligini, agar Binglilarning oilasi ularni undan ham ko‘proq ushlab qolishni taklif qilishsa, u ikkita katta qizlarisiz bemalol ham yashab tura olishlarini aytgandi. Eliza yana ushlanib qolish to‘g‘risida o‘ylashni ham xohlamayotgandi, Binglilarning takliflari to‘g‘risida-ku, uning ishonchi komil emasdi. Aksincha, ularning shuncha ushlanib qolganlari cho‘zilib ketganday ko‘rinmasligi uchun Jeynni mister Binglidan ekipaj iltimos qilib ko‘rishga ko‘ndirishga harakat qilib ko‘rdi. Axiri, qizlar ikkalasi birgalikda ularga bugun ertalabdan jo‘namoqchi ekanliklarini aytib, ekipaj berishlarini iltimos qilishga kelishdilar.

Qizlarning ketish xabaridan hamma afsuslandi. Shu bilan birga, ular Jeynning bira to'la tuzalishi uchun yana bir kun qolishsa ham yaxshi bo'lishini aytishdi. Nihoyat, qizlar ertasi kuni ertalabgacha qolishga rozi bo'lishdi. Lekin hayal o'tmay, miss Bingli qizlarni yana bir kun qolishga ko'ndirishganiga afsuslana boshladi, chunki qizlarning biriga nisbatan rashk tuyg'usi ikkinchi qizga nisbatan do'stona his-tuyg'ulardan kuchliroq edi.

Uyning egasi esa yaqinlashayotgan ayriliqdan juda xafa edi. Shuning uchun hadeb miss Bennetga u hali yetarli sog'ayib ketmaganini, yo'lga chiqish mumkin emasligini ta'kidlar edi. Lekin Jeynni ko'ndirishning iloji yo'q, chunki u bir ish qilishga ahd qildimi, gapidan qaytmas edi.

Mister Darsi bu qarordan xursand edi: Elizabet Nezerfildda uzoq qolib ketgan, uning ohanrabosi yigitga u xohlagandan ko'ra ko'proq ta'sir qilgandi. Buning ustiga miss Bingli ham qizga qo'polroq gapira boshlagan, Darsining ham odatdagidan ko'ra ko'proq g'ashiga tega boshlagan edi. Darsi endi miss Bingli biror narsada gumonsiramasi uchun Elizabetga juda ehtiyot bo'lib muomala qilishi kerakligiga aqli yetgan edi. Shu bilan birga, agar miss Binglida u bilan Elizabet o'rtasida biror narsa bor degan fikr tug'ilgan bo'lsa, bu gumoni xayrlashuv chog'ida o'zini qanday tutishiga bog'liqligini sezib turardi. O'ylagan gumoni rostligiga ishonib, shanba kuni Elizabetga kuni bilan ikki-uch og'izgina gap qotdi. Ikkalasi xonada yarim soatcha birga yolg'iz bo'lishgan bo'lsa-da, shunday berilib kitob o'qidiki, qiz tomonga hatto qayrilib ham qaramadi.

Yakshanba kuni ertalabki toat-ibodatdan so'ng ko'pchilik uchun intiqib kutilgan xayrlashish onlari yetib keldi. Miss Bingli Elizabetga nisbatan haddan ortiq mulozamatli edi. Xayrlashishar ekan, qizlar Jeynga

u bilan Longborndami yoki Nezerfilddami – qayerda bo'lsa ham uchrashishdan juda xursand bo'lishlarini aytishdi. Miss Bingli Jeynni oxirgi marta qattiq quchoqab va Elizabetga qo'l cho'zib xayrlashgach, Elizabet yaxshi kayfiyatda hamma bilan samimiy xayrlashdi.

Onalari ularni juda ham xursand bo'lib kutib olmadi. Missis Bennet hammaga ish orttirib, qizlari bekor qaytib kelganlaridan afsusda edi va Jeynning yana kasal bo'lib qolishiga amin edi. Otalari esa juda ochiqchasiga bo'lmasa-da, qizlarining kelganidan xursand bo'lganini bildirib qo'ydi – oxirgi kunlari ikkita katta qizining o'rni juda bilinayotgan edi. Jeyn va Elizabet yo'qligida uyda hamma yig'ilishib o'tiradigan paytlar juda zerikarli o'tayotgan edi. Ular kelishganda Meri odatdagidek musiqa sirlarini va inson tabiati asoslarini o'rganayotgan edi. Opalari uning ijrosida bir nechta yangi kuylar va aql-odob borasida bir nechta chiroyli sitatalarni eshitishdi. Ketrin va Lidiyaning yangiliklari esa butunlay boshqa borada edi: o'tgan chorshanbadan beri polkda ko'p o'zgarishlar bo'lganmish. Amakilarinikida bir nechta zobitlar mehmon bo'lishibdi, bir zobitni jazolashibdi va polkovnik Forster uylanmoqchi emish, degan gap tarqalibdi.

XIII bob

– Azizam, bugun tushlikka birorta mazaliroq narsa pishirasiz, deb umid qilaman, – dedi xotiniga ertasi kuni ertalab mister Bennet. – Menimcha, bugun uyimizga mehmon kelsa kerak.

– Do'stim, kim haqida gapirayapsiz? Bilishimcha, bugun biznikiga hech kim kelmoqchi emas. Mabodo, Sharlotta Lukas kelib qolmasa... Lekin u hech qachon bizning dasturxonimizdan noligan emas. Ularniki biznikidan yaxshiroq bo'lmasa kerak.

– Men jentlmen to‘g‘risida gapirayapman.

– Qanday jentlmen? A-a-a, topdim, mister Bingli to‘g‘risida gapirayapsizmi? Jeyn, jinnivoy, nega ilgariroq aytmading? Voy, o‘lay, uyda baliq yo‘q-ku! Lidiya, jonim qizim, shundoq qo‘ng‘iroqni bosib qo‘y. Miss Xillga aytish kerak, baliq olib kelsin.

– Gap mister Bingli haqida ketayotgani yo‘q, men o‘zim ham hali shu paytgacha ko‘rmaganim bir odamni kutayapman.

Mister Bennetning gaplaridan hamma hayron bo‘lib qoldi va uni savolga ko‘mib tashlashdi. Hammaning qiziqishidan zavqlangan mister Bennet oxiri tushuntirdi:

– Men bir oycha oldin mana bu xatni olgandim. Unga faqat ikki hafta burungina javob yozdim. Xatdagi gaplar juda nozik bo‘lgani uchun men uni oldindan yaxshilab o‘ylab olishim kerak edi. Bu xatni mening amakivachcham mister Kollinz yozgan. Sizlar uni juda yaxshi taniysizlar, mendan keyin u agar xohlasa, sizlarni ko‘chaga haydab chiqaradi.

– Xudo haqqi, men u to‘g‘risida eshitishni ham istamayman! – hayajon bilan dedi missis Bennet. – Bu maxluq haqida gapirmang ham. Axir, sizga tegishli bo‘lgan uydan sizning bolalaringizni haydab chiqarishdan ham adolatsizroq ish bo‘lishi mumkinmi? Men sizning o‘rningizda bo‘lsam, allaqachon biror-bir yo‘lini topgan bo‘lardim.

Jeyn bilan Elizabet onalariga uy-joy vasiyatlari to‘g‘risidagi qonunni tushuntirishga harakat qilishdi. Ular ilgari ham harakat qilishgandi. Lekin u bu haqda eshitishni ham istamas, beshta qiz o‘sayotgan oiladan uylarini tortib olib, hech kim bilmaydigan boshqa bir kimsaga beradigan qonunni qarag‘ay boshlardi.

– Albatta, bu juda katta adolatsizlik. Mister Kollinz ham Longbornga merosxo‘rlik borasidagi aybini

hech qanaqasiga yuva olmaydi, – dedi mister Bennet. – Lekin balki sizlar xatda nima yozilganini bilsangiz, uning mazmuni sizlarni biroz tinchlantirar.

– Men tinchlana olmayman! Qanaqa qilib sizga xat yozishga haddi sig‘di? Soxta nusxalarni ko‘rgani ko‘zim yo‘q! Yaxshisi, otasiga o‘xshab biz bilan dushmanlik qilib yursa yaxshi edi!

– Xatini yaxshilab eshitsangiz, u chindan ham ba‘zi bir narsalarga majbur ekanligini tushunasiz.

*«Xansford, Usterxem yaqinida,
Kent, 15-oktabr.*

Hurmatli ser!

Siz bilan mening marhum otam o‘rtasidagi tushunmovchiliklardan har doim ezilib kelganman. Otam vafotidan so‘ng menda o‘rtamizdagi jarlikni yo‘qotish istagi paydo bo‘ldi. Lekin ancha vaqtgacha, otam urishib yurgan odam bilan yaxshi aloqada bo‘ladigan bo‘lsam, otamning xotirasini haqoratlagan bo‘lmaymanmi, degan ikkilanishlar bilan yurdim».

– Missis Bennet, ko‘ryapsizmi?

«Lekin endi men aniq bir qarorga keldim. O‘tgan pasxada men pastorlik darajasini olib, ser Lyuis de Byorning bevasi Ketrin de Byor zoti oliylariga qarashli yerlarda diniy nazorat ishlarini olib borish sharafiga musharraf bo‘ldim. Bu ayolning saxiyligi va menga nisbatan yaxshi munosabati tufayli men shu yerdagi cherkovga ruhoniy bo‘ldim va endigi faoliyatim ingliz cherkovining xodimiga munosib bo‘lgan barcha tadbir va tantanalarni o‘tkazish hamda bu zoti oliylariga nisbatan yetarlicha hurmatda bo‘lishdir. Cherkov xizmatchisi sifatida mening majburiyatlarimdan yana biri barcha oilalarda kuchim yetganicha tinchlik va

itoatkorlik urug'ini sepishdir. Shu sabablardan kelib chiqib, siz mening Longbornning merosxo'ri ekanligim to'g'risidagi faktga ko'z yumib, mening ko'ngilli bo'lib qo'ygan qadamimni va sizga uzatilgan qo'limni qaytar-massiz, deb umid qilaman. O'zim xohlamagan holda sizning ajoyib qizlaringizning tinchligiga raxna soluvchi qurolga aylanib qolganimdan juda xijolatdaman va bu yo'qotishning o'rini to'ldirish uchun qo'limdan kelgan xizmatni qilaman deb so'z berishga tayyorman... Lekin bu haqda keyinroq... Agar Siz mening tashrifimga qar-shilik bildirmasangiz, 18-noyabr, dushanba kuni soat 4 da kelib, balki kelasi haftaning shanba kunigacha sizning mehmondo'stligingizdan foydalanmoqchiman. Ledi Ketrin ba'zan yakshanba kunlari agar mening o'rimga boshqa birov vazifalarimni bajarib tursa, menga u yoq bu yoqqa borib turishga ruxsat beradi.

Miss Bennet va qizlaringizga chuqur hurmat, ehti-rom bilan, do'stingiz

Uilyam Kollinz».

– Demak, soat to'rtida biz bu tinchliksevar in-sonni kutib olamiz, – xatni taxlar ekan, dedi mister Bennet. – Menimcha, u juda tarbiyali va ko'ngli toza inson bo'lsa kerak. Biz u bilan tanishligimizdan xursand bo'lishimiz kerak.

– U bizning qizlarimiz to'g'risida yozishida bir gap bor. Agar qizlarimiz uchun biror narsa qilmoqchi bo'lsa, uni qaytarib o'tirmayman.

– Bizga qilinadigan yo'qotishning o'rnini qanaqa qilib to'ldirmoqchi ekan, tasavvur ham qilolma-yapman. Lekin shunday xohishi borligining o'ziyoq hurmatga sazovor.

Elizabetga xatning eng ta'sir qilgan joyi Kollinz-ning ledi Ketringa bo'lgan o'ta hurmati va o'z murid-larini cho'qintirish, nikohlash va kerak bo'lganda, ko'mishi edi.

– Bu amakivachchamiz juda ajoyib shekilli, – dedi u. – Gaplarini tushunish biram qiyin-e... Nima-ga merosxo'r sifatidagi huquqlari uchun kechirim so'rayapti? Uning bizga yordam berishi mumkinli-giga ishonish qiyin. Nima deb o'ylaysiz, ser, u aqlli insonmikin?

– Yo'q, azizam, unday deb o'ylamayman. Men-ga teskarisi bo'lib tuyulayapti. Uning xatidan o'ziga bino qo'ygan va birovlariga egilib-bukiladigan ekan-ligi sezilib turibdi. Shuning uchun ham men uni juda ko'rgim kelayapti.

– Xat yozish uslubidan uning savodliligi ko'rinib turibdi, – dedi Meri.

Ketrin va Lidiyani na xat va na uning yozuvchi-si qiziqtirayotgandi. Uni qip-qizil mundirda kelishi-ga ishonib bo'lmasdi, oxirgi paytlarda esa ularni boshqa rangdagi kiyim kiygan erkaklar kam qiziqti-rayotgan edi. O'qishgan xatlari missis Bennetning yuragiga g'ashlik solib qo'ygan bo'lsa-da, mister Kollinzning kelishiga eri va qizlarini hayratga solib, berilib tayyorgarlik ko'ra boshladi.

Mister Kollinz aytgan paytiga yetib keldi va bu-tun oila uni xursandchilik bilan kutib oldi.

To'g'ri, uy egasi qisqagina qilib salomlashib qo'ya qoldi. Lekin ayollar juda sergap bo'lib ketish-di, mehmon ham juda kamgap bo'lmay, ortiqcha takallufga muhtoj emas edi. U yigirma besh yosh-lardagi baland bo'yli, to'ladan kelgan, og'ir-bo-siq yigit edi. Tanishganlariga hech qancha vaqt o'tmasdan u missis Bennetga qizlarining go'zalli-gini maqtay ketdi va ularning go'zalligi to'g'risida u eshitgan gaplari qizlarining haqiqiy sifatlarini ye-tarli ifodalay olmaganini aytdi va bu qizlar yaqin orada o'z tenglarini topishiga o'z ishonchini bildir-di. Qarindoshlarining bu gaplari atrofdagilarning hammasiga ham yoqmadi. Lekin maqtov gaplarni

yaxshi ko'radigan missis Bennet uning gaplarini minnatdorchilik bilan qabul qildi:

– Ser, maqtovlaringizdan juda minnatdorman. Va umid qilamanki, aytgan gaplaringiz ro'yobga chiqadi, aks holda ularning taqdiri juda ayanchli bo'ladi. Hozirgi sharoit biram ahmoqonaki!...

– Siz mening meros haqidagi huquqlarimni ko'zda tutayapsizmi?

– Ha-da! Qizlarim uchun bu qanday yomonligini o'zingiz juda yaxshi bilasiz. Men sizni hech ham ayblamoqchi emasman, bu hammasi tasodif natijasi. Uy-joy erkak tomonidan meros beriladigan bo'lganda xohlagan odamga tegishi mumkin.

– Xonim, men bu ishlar uchun o'z amakivachalarimga o'z hamdardligimni bildiraman va bu boradagi o'z fikrlarimni aytmqchi edim. Lekin to'ydan oldin nog'ora chalmaslik uchun shoshmay turaman. Bir narsani qat'iy aytamanki, men bu yerga qizlaringizning go'zalligidan hayratlanish uchun keldim. Men bunga hozir hech narsa qo'shmoqchi emasman, lekin yaqinroq tanishganimizdan so'ng...

Shu yerga kelganda mister Kollinz gapini bo'lishga majbur bo'ldi: ularni tushlikka taklif qilishayotgan edi. Mister Kollinzni hayratga solayotgan narsa faqatgina qizlarning go'zalligi emas edi. Mehmonxona, yemakxona, butun uyning jihozlari – hech narsa uning nazaridan chetda qolmadi va yuqori baho oldi. Uning maqtovlari albatta missis Bennetga yoqayotgan bo'lsa-da, lekin shu bilan birga, uning bu narsalarga xuddi endi o'zinikidek qarayotgani ayolning yuragini po'killatib yuborayotgan edi. Tushlik davomida ham mister Kollinz har bir narsadan hayratlanishni davom ettirdi. Bu safar u juda shirin qilib tayyorlangan bu taomlarning ijrochisi qizlardan qaysi biri ekanligi bilan qiziqdi. Lekin missis Bennet hali uyda yaxshi oshpaz tutishga qurbi yetishini, qizlarning oshxonada qi-

ladigan ishi yo'qligini aytib, uni o'rniga o'tqazib qo'ydi. Mehmon shosha-pisha kechirim so'radi va missis Bennet biroz yumshab, undan xafa bo'lmaganini aytdi. Shunga qaramay, mister Kollinz yana bir qancha vaqtgacha uzr so'rashda davom etdi.

XIV bob

Butun tushlik davomida mister Bennet hech kim bilan gaplashmadi hisob. Lekin tushlik tugab, xizmatchilar xonadan chiqib ketishgach, u mehmon bilan gaplashadigan vaqt yetganini his qildi. U ustalik bilan Kollinzni qiziqtirishi mumkin bo'lgan mavzular-dan gap ochib, uning o'z bekasidan juda ham mamnunligini sezdi. Ledi Ketrin de Byorning Kollinzning hamma orzu-istaklarini ma'qullashi bir qarashda erish ko'rinardi. Bu mister Bennetga suhbat olib borish uchun juda qulay mavzu edi. Mehmon ledi de Byor haqida juda berilib, hayajon bilan gapirdi. Bu mavzu uni juda ham gapga chechan qilib qo'ydi. Umrida unga hech kim ledi Ketrinchalik samimiy munosabatda bo'lmaganini, oliy toifadagi insonlar o'rtasida hali u birorta ham bunday ajoyib insonni uchratmaganini ishonch bilan aytib o'tdi. Ayolning mister Kollinz uning borligida qilgan ikkala va'zini ham ma'qullaganini aytdi. U mister Kollinzni ikki marta Rozingsga tushlikka va bir haftagina burun esa birga kadril o'ynashda ishtirok etish uchun taklif qilgan ekan. Birovlar ledi Ketrinni haddan tashqari mag'rur deyishar ekan. Lekin unga nisbatan juda ham samimiy emish. Zoti oliyalari u bilan hamma jentlmenlar bilan gaplashgandek gaplashar ekan. U yigitning atrof-tevarakdagilar bilan tanish-bilishchilik qilishiga hech ham qarshilik qilmas, ba'zan esa qarindoshlariniki-ga borib kelish uchun ishidan ketishiga ham ruxsat berib turar ekan. U hatto mister Kollinzga iloji bori-

cha tezroq uylanishni maslahat beribdi, bir kuni esa uning kamtarona uyiga ham kelgan ekan. Uyida esa yigitning qilgan hamma ishlarini ma'qullabdi va ba'zi bir kerakli maslahatlarni beribdi.

– Xonim tomonidan qilingan bu ishlar maqtovga sazovor, – gap qo'shdi missis Bennet. – Bu juda ajoyib ayol bo'lsa kerak. Esiz, hamma ayollar ham unga o'xshamaydi. U sizga yaqin joyda yashaydimi?

– Mening uyim joylashgan bog' janobi oliyalari yashaydigan Rozings parkdan o'rtadan o'tgan alleya bilan ajralib turadi.

– Uni beva deb aytdingiz-a? Farzandlari bormi?

– Yolg'izgina qizi bor – Rozingsning merosxo'ri.

– Ehe, – boshini chayqab qo'ydi missis Bennet.

– Demak, u boshqa qizlardan ancha baxtliroq. O'zi qanaqa? Chiroylimi?

– Haqiqatda juda chiroyli qiz! Onasi ledi Kettrin-ning aytishicha, go'zallik borasida miss de Byor boshqalardan yuqoriroq turadi, qizda uning katta dargohdan ekanligini ko'rsatib turadigan nimadir bor. Lekin baxtga qarshi, uning sog'lig'ining mazasi yo'qroq va bu narsa uning ko'p sohalarida muvaffaqiyatga erishishiga xalaqit beryapti. Uning tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi xodimaning aytishicha, u baquvvatroq bo'lganda ko'p narsaga erishgan bo'lar ekan. Bundan tashqari, u shunaqangi samimiyki, goho o'zining kichkina poni otga qo'shilgan aravasida aylangani chiqqanida kaminaning xonadoniga kirib o'tishni o'ziga or deb bilmaydi.

– U saroy ahli bilan tanishtirilganmi? Men saroydagi ayollar ro'yxatida uning ismini uchratmaganman.

– Baxtga qarshi uning sog'lig'i shaharga ko'chib o'tishga yo'l qo'ymaydi. Bu hol, bir kuni men ledi Kettrin-ning o'ziga aytganimdek, Britaniya saroyini eng yaxshi durlardan bebahra qoldiryapti. Zoti oliyalariga mening gaplarim juda yoqib ket-

di. Ochig'ini aytsam, men ayollarga yoqadigan bu tarzdaqi maqtov so'zlarni tez-tez ishlatib turaman. Masalan, men ledi Ketringa uning qizi malika bo'lish uchun tug'ilgan va u o'zi borgan hamma joyni yashnatib turadi, degan gapni bir necha marta aytganman. Men zoti oliyalariga bu tarzdaqi gaplarim bilan unga bo'lgan e'tiborimni ko'rsatib turishni o'z burchim deb bilaman.

– Juda to'g'ri fikr yuritarkansiz, – dedi mister Bennet. – Shunday gaplar bilan eritish qobiliyatiga ega ekanligingiz sizning baxtingiz. Xo'sh, sizdan so'ramoqchi edim, bu turdaqi chiroyli gaplar xayolingizga birdan keladimi yoki siz ularni oldindan tayyorlab qo'yasizmi?

– Odatda suhbat jarayonida keladi. Lekin ba'zan bo'sh paytlarimda hazil uchun har xil sharoitlarga to'g'ri keladigan gaplarni o'ylab qo'yaman, faqat gapirayotganimda hozirgina xayolimga kelgandek qilib aytaman.

Mister Bennetning kutgani butkul tasdiqlandi. Amakivachchasining tentaknamo gaplari mister Bennetning u haqdagi fikrlarini tasdiqladi. U mehmonning gaplariga juda jiddiylik bilan quloq solar ekan, ich-ichidan kulib, maza qildi.

Kechqurungi choyxo'rlikkacha qabul qilgan «doza»si shunchalik yetarli ediki, mister Bennet Kollinzni bajonidil mehmonxonagacha kuzatib qo'ydi va undan ayollarga biror nima o'qib berishni so'radi. Uning roziligini olgach, kutubxonadan kitob keltirib berishdi. Lekin kitobga qarashi bilan u sakrab tushdi va hech romanlar o'qimasligini aytib, uzr so'radi. Kitti unga hayron bo'lib qarab qoldi, Lidiya ham hayronlikdan og'zini ochgancha qoldi. Unga boshqa kitoblar keltirishdi va nihoyat, u For-daysning nutqlarida to'xtaldi. Kitob ochilishi bilan Lidiyani esnoq tutdi. Mister Kollinz bir xil zerikar-

li tovush bilan endigina uch betni o'qir ekan, qiz uning o'qishini bo'lib, onasiga murojaat qildi:

– Oyi, Filips amakim Richardni haydab yubormoqchi ekan. Eshittingizmi? Agar u shunday qiladigan bo'lsa, polkovnik Forster Richardni o'z oldiga olmoqchi. Buni menga xolam aytdi. Ertagayoq Meritonga borib, anig'ini bilib kelish kerak. Yo'l-yo'lakay mister Denni shahardan qachon qaytishini ham bilib kelaman.

Katta qizlar Lidiyadan tilini tiyib turishini so'rashdi, lekin o'zini haqoratlangandek his qilgan mister Kollinz, kitobni chetga surib, dedi:

– Men yosh qizlarni ularning foydalari uchun yozilgan jiddiy mazmundagi kitoblar qiziqtirmasligiga ko'p duch kelganman. Tan olaman, bu meni doim hayron qoldiradi. Axir, ular uchun yaxshi odobnomadan ko'ra foydaliroq narsa bormikin? Endi men qizlarimizning quloqlarini qiynamoqchi emasman...

Shu yerga kelganda mister Bennetga o'girilib, undan bir partiya triktrak o'ynashni so'radi. Mister Bennet uning qizlarni o'z holiga qo'yib to'g'ri qilganini his qilib, rozi bo'ldi. Missis Bennet va qizlar Lidiyaning qiligi uchun chin dildan kechirim so'rashdi va u agar o'qishni davom ettirsa, endi bunday bo'lmasligiga va'da berdilar. Lekin mister Kollinz Lidiyadan hech ham xafa bo'lmaganini aytib, mister Bennetning yoniga o'tirdi va o'yinga tayyorgarlik ko'ra boshladi.

XV bob

Mister Kollinz juda ham iqtidorli emasdi. Tabiatning bu xatosi esa tarbiya bilan yoki insonlar bilan muloqotda ham tuzalmagan edi. Umrining ko'p qismini savodsiz va maydagap bo'lgan otasi nazorati ostida o'tkazgan edi. Universitetda o'qir ekan, bir qancha fanlarni o'rgandi, lekin birorta ham foydali tanish

orttirmadi. Uning tabiatiga itoatgo'ylikni singdirgan otasining tarbiyasidan doim ezilgan Kollinz vaqt o'tishi bilan uzoqni ko'ra olmaydigan, o'z holicha yashaydigan odam bo'lib yetishdi va kutilmaganda muvaffaqiyatga erishdi. Xansforddagi cherkov bo'shagan paytda u kutilmagan baxtli tasodif tufayli ser Lyuis de Byorning bevasiga duch kelib qoldi. Uning yuqori tabaqasiga, shaxsiga chuqur hurmat, shu bilan birga, ayolning cherkov boshlig'i sifatida o'zining shaxsiga nisbatan yuqori fikrdaligi undan tabiatida manmanlik, o'zbilarmonlik va yana bir qancha salbiy sifatlar uyg'unlashib ketgan odamni bunyod qildi.

Turarjoy va yetarli daromadga ega bo'lgach, uylanish to'g'risida o'ylay boshladi. Bennetlar oilasi bilan yarashuv to'g'risida reja qilar ekan, agar bu qizlar unga yetib kelganidek rostdan ham chiroyli va tarbiyali bo'lsa, birortasiga uylanishga qaror qildi. Merosxo'r sifatida Bennetlar oilasiga keltiradigan zararini qoplash, deganda ana shu jihatni ko'zda tutgan edi. Mister Kollinz xayoliga hamma uchun juda ham qulay fikr kelgan deb sanar va bu fikr yana bir marta uning fe'li kengligini tasdiqlaydi, chunki bundan unga hech qanday naf yo'q, deb hisoblardi.

Qarindoshining oilasi bilan tanishgach, uning rejaları o'zgarmadi. Buning aksi o'laroq, katta miss Bennetning chiroyli ko'rinishi mister Kollinzning rejalarini yanada mustahkamladi. Shunday qilib, birinchi kuni uning tanlagani Jeyn edi. Lekin ertangi kunning tongi uning fikrlariga biroz o'zgartirish kiritdi.

Nonushtadan oldin u chorak soatcha missis Bennet bilan yuzma-yuz gaplashdi. Suhbat Xansforddagi pastorning uyi haqida bo'lib, o'z-o'zidan mister Kollinzning bu uyning bekasini Longborndan topish umidiga o'tib ketdi. Missis Bennet chin dildan jilmayganicha uning rejalarini qo'llab-quvvatlashini aytdi-yu, shuning orasida yigitni eng katta qizi borasida

ogohlantirib qo'ymoqchiligini ham qistirib o'tdi. Ya'ni boshqa qizlarining birortasiga ko'ngli borligi to'g'risida hech ham xabari yo'qligi, lekin eng katta qizi to'g'risida uni ogohlantirib qo'yish vazifasi ekanligini, ya'ni yaqin kunlarda qizi unashtirilish arafasida ekanligini aytdi.

Mister Kollinz qilishi kerak bo'lgan narsa – qizlarning birini ikkinchisiga almashtirish edi. Missis Bennet kamindagi olovni o't oldirar ekan, bu vazifa bajarildi: yoshi ham, ko'rinishi ham Jeyndan farq qilmaydigan Elizabet Jeynning o'rniga tanlandi.

Missis Bennet yaqin kunlarda bir emas, ikki qizi turmushga chiqishi mumkinligidan xursand bo'lib, mister Kollinz ishora qilayotgan rejalarini ma'qulladi. Yaqingina nomini eshitishni ham xohlamayotgan inson endi unga yoqib ketayotgan edi.

Lidiya Meritonga borish fikridan qaytmagan edi va u bilan Meridan tashqari boshqa opalari ham birga bormoqchi bo'lishdi. Mister Bennetning iltimosi bilan ularga mister Kollinz hamroh bo'ladigan bo'ldi. Uyning xo'jayini bir amallab undan qutulib, o'zining eng yaxshi ko'radigan xonasi – kutubxonada vaqt o'tkazmoqchi edi. Chunki mister Kollinz bu yerda bo'lgan butun davr mobaynida uning ketidan shu yergacha kirib, o'zining Xansforddagi uyi va bog'i to'g'risidagi gaplari bilan joniga tegayotgan bo'lib, o'zini bunday tutishi mister Kollinzning sabrini tugatayozgan edi. Mister Bennet faqat o'z kutubxonasida tinchlik topardi. O'zi Elizabetga iqror bo'lganidek, uyning boshqa burchaklarida tentaklikka duch kelsa, bu yer uning uchun eng tinch joy bo'lib, u bema'lol hamma narsadan dam ola olardi. Shuning uchun u mister Kollinzdan qizlari bilan birga aylanib kelishni yolvorib so'radi. Kollinz ham bajonidil rozi bo'ldi.

Butun yo'l bo'yi faqat mister Kollinz gapirdi. Qizlar esa goh-goh biror gap qistirish uchungina uning osmondan kelib gapirayotgan gaplarini bo'lishardi.

Lekin shaharga yetib kelishlari bilan, qizlar uni butkul unutishdi va zobitlar ko'rinib qolarmikin deb, atrofga alanglay boshlashdi. Ularni bu mashg'ulotdan faqat do'kon oynalariga osib qo'yilgan chiroyli shlyapalar va yangi olib kelingan gazmollarning qiy-qimi chalg'ita olardi.

Qizlarning diqqatini ko'chani qarama-qarshi tomonida bir zobit bilan sayr qilib yurgan kelishgan yigit tortdi. Ro'para kelganlarida zobit bosh egib, ular bilan salomlashdi. Bu yigit mister Denni bo'lib, Lidiya Meritonda shu yigitning keladigan paytini bilmoqchi edi. Uning sherigi qizlarda katta taassurot qoldirdi va bu yigit kim bo'lishi mumkinligini fol ocha boshlashdi. Kitti va Lidiya buni shu zahotiyuq hal qilmoqchi bo'lib, ko'chani kesib o'ta boshlashdi. Yigitlar ham bu paytda orqaga qaytib, ro'paraga kelib qolgan edilar. Mister Denni darrov gap boshladi va ularni o'z do'sti mister Uikxem bilan tanishtirdi. Aytishicha, do'sti u bilan yaqinda Meritonga kelgan va ularning polkiga birlashtirilgan ekan. Mister Uikxem juda kelishgan yigit edi: baquvvat gavdali, yuzlarining bichimi to'g'ri, kelishgan, o'zini tutishni ham o'rniga qo'yardi. Qizlarga tanishtirilgach, suhbatga bimalol qo'shilib ketdi. Uning o'zini tutishida qalbakilikning izi ham sezilmasdi, chunki yigit gapdon edi. Uzoqdan tuyoqlarning tovushi eshitilib, ko'cha bo'ylab otda kelayotgan mister Darsi va Bingli ko'rinishganda yig'ilganlarning gapi hali tugamagan edi. Tanish qizlarni ko'rib, yigitlar so'rashish uchun yaqinroq kelishdi. Ko'proq mister Bingli gapirdi, gaplari asosan Jeynga qaratilgan edi. Aslida, ular Jeynning sog'lig'ini bilish uchun Longbornga ketishayotgan ekan. Darsi uning gapini ma'qullab, boshini silkitib qo'ydi va o'zining Elizabetga ko'p qaramaslikka qaror qilgani esiga tushib qolib, boshini burar ekan, nigohi to'satdan notanish yigitga

tushib qoldi. Ularga tasodifan qarab qolgan Eliza-
bet yigitlarning yuzida paydo bo'lgan o'zgarishdan
hayratga tushdi: ularning ikkalasining yuzi o'zga-
rib ketdi – biri oqardi, ikkinchisi qizardi. Bir necha
soniyadan so'ng mister Uikxem shlyapasiga qo'lini
tekkizdi, Darsi esa uning bu salomiga zo'rg'a javob
qaytardi. Nima yuz bergan bo'lishi mumkin? Javob
topish juda qiyin edi. Lekin bu sirning tagiga yetish
xohishidan kechish ham qiyin edi.

Bir necha daqiqadan so'ng mister Bingli nima
bo'lganini ham sezmay, do'sti bilan jo'nab ketdi.

Mister Denni bilan mister Uikxem esa qizlarni
mister Filipsning uyigacha olib borib, Lidiyaning
uyga kirishga qistashiga qaramay, xayrlashdi. Shu
orada derazadan ko'chaga qaragan missis Filips
ham Lidiyaga qo'shilib, yigitlarni taklif qildi. Bu ayol
o'z jiyanlarini ko'rishdan doim xursand edi. Ayniqsa,
ikki katta miss Bennetlarning bir necha kun uyda
bo'lishmagani uchun ularni juda sog'ingan edi. U
qizlarning Longbornga bunchalik tez qaytishgani-
dan hayron bo'lganini gapira ketdi. Birinchidan,
ular begona aravada qaytishdi, agar dorixonada
ishlaydigan mister Jonsning yugurdagi ikkala miss
Bennet qaytib kelishgani uchun endi Nezerfildga
dori olib bormayotganini aytmaganda, u hech nar-
sa bilmay qolaverardi. Shu yerda missis Filips ga-
pidan to'xtab, e'tiborini Jeyn unga tanishtirayotgan
mister Kollinzga qaratdi. Ayol mister Kollinzga juda
tavoze bilan murojaat qildi, o'z navbatida, mister
Kollinz ham undan qolishmadi. Uyga taklifsiz kir-
gani uchun uzr so'rar ekan, o'zini bekaga tanishti-
rayotgan qizlar bilan qarindoshligi gunohini yuvadi,
deb umid qilishini aytdi. Shu paytda qizlar missis
Filipsni boshqa yigit haqida savolga tuta boshlash-
di. U esa qizlarga ularga allaqachon ma'lum bo'lgan

narsani, ya'ni u mister Denni bilan birga London-dan kelganini va ...shir polkiga leytenant bo'lib bo-rayotganini ayta oldi, xolos. Uning gapicha, u bir soatlardan beri yigit ko'chada sayr qilib yurganini tomosha qilgan ekan va agar mister Uikxem yana paydo bo'lib qoladigan bo'lsa, qizlar ham shunday qilishlari mumkinligini aytdi. Baxtga qarshi, ko'chada bir-ikki zobitdan boshqa hech kim ko'rinmadi. Bular esa ularni qiziqtirgan yigit oldida «hech kim» edilar. Ertasi kuni polkdan kimlardir kelmoqchi ekan va missis Filips eridan agar Longborndan qarindoshlari keladigan bo'lsa, mister Uikxemni ham taklif qilishni iltimos qila boshladi. Mister Filips rozi bo'lgach, ular issiq ovqatdan oldin berilib loto o'ynay boshladilar. Ertasi kuni bo'ladigan xursandchilikni o'ylab, hamma xush kayfiyat bilan xayrlashdi va qizlar mister Kollinz bilan uyga jo'nashdi. Ketayotib, Kollinz yana berilib uy bekasidan uzr so'radi.

Longbornga qaytayotganlarida yo'lda Elizabet Jeynga o'zining ko'zi oldida ikki yigit o'rtasida bo'lib o'tgan narsani aytib berdi. Lekin Jeyn yigitlarning ikkalasini oqlashga tayyor turgani uchun unga bu hodisani tushunish qiyin edi.

Mister Kollinz missis Filipsning o'zini tutishini va takalluflarini maqtayverib, qizlarning onasini juda xursand qildi. Agar ledi Ketrin va miss de Byor hisobga olinmasa, u hali bunchalik mehmondo'st ayolni uchratmagan ekan. U mister Kollinzni bugun uyida kutib olgani yetmaganday, ertasi kuniga ham taklif qildi. Buni albatta uning Bennetlar oilasi bilan qarindoshchiligi borligida deganda ham, baribir u shu paytgacha o'ziga nisbatan bunday e'tiborni ko'rmagan ekan.

XVI bob

Mister Kollinz er-xotin Bennetlarni yolgʻiz tashlab ketishni hech ham xohlamayotgan boʻlsa-da, hamma miss Bennetlarning xolalarinikiga borish toʻgʻrisidagi iltimoslari ota-onasi tomonidan qondirildi va hammalari kelishilgan vaqtda karetaga oʻtirib, Meritonga joʻnashdi. U yerga kelgach, mister Uikxemning uy egasining taklifini qabul qilib, hozir mehmonlar orasida oʻtirganini eshitib, juda quvonib ketishdi. Hammalari mehmonxonaga kirib, joy-joylariga oʻtirishgach, mister Kollinz atrofni koʻzdan kechirib, yonidagilarga zalning muhtashamligini va u oʻzini goʻyoki Rozingsning yozgi xonasida oʻtirgandek his qilayotganini aytdi.

Missis Filips oldin uning gaplariga unchalik tushunmadi. Lekin mister Kollinz unga Rozings nimeligini va uning egasi kim ekanligini tushuntirib, ledi Ketrinning uyidagi birgina mehmonxonani tasvirlab berib, bu xonadagi kaminning oʻzi uy egasiga sakkiz yuz funtga tushganini aytgandagina missis Filips oʻziga atalgan maqtoovning mazmunini tushundi.

Mister Kollinz erkaklar xonaga kirguncha ledi Ketrin va uning yerlarining kattaligi haqida, oʻz uyi va oʻzining u yerda qilayotgan har xil oʻzgarishlari haqida gapirib berdi. U missis Filips timsolida juda yaxshi tinglovchini topgan edi. Bu ayolning uning shaxsiga nisbatan fikri undan eshitganlarini boshqalar bilan oʻrtoqlashish xohishi bilan birga oʻsib borayotgan edi. Amakivachchalarining gaplari joniga tekkan qizlar esa musiqaning boshlanishini sabrsizlik bilan kutib, kamin ustida turgan oʻzlari chizgan rasmlarni tomosha qila boshladilar. Nihoyat, kutish onlari tugadi. Xonaga yigitlar kirib kelishdi va Uikxem xonaga kirib kelganda, Elizabet uni birinchi marta koʻrganida oʻzining unga boshqacha qaraganini va keyinchalik ham u haqda

hayajon bilan o'ylagani yodiga tushdi. ...shir polki zobitlarining ko'pchiligi ajoyib yigitlar edi va bu yerga ularning eng tanlanganlari kelishgandi. Lekin ularning orasida mister Uikxem ko'rinishi, o'zini tutishi va gap-so'zlari bilan boshqalardan farq qilardi. U xonadagi hamma qizlarning ko'zi unda bo'lgan erkaklarning eng omadli vakili, Elizabet esa shunday yigit yoniga kelib o'tirgan eng baxtli qiz edi. O'tirgan zahotiyiq yigit qiz bilan gaplasha ketdi. Suhbat mazmuni nihoyati kechqurungi namgarchilik va yomg'irli kunlarning yaqinlashib kelayotgani haqida bo'lsa ham, Elizabet agar suhbatdoshing diltortar bo'ladigan bo'lsa, har qanday mavzudagi suhbat ham qiziq bo'lishini his qildi.

Mister Uikxem va uning boshqa zobit o'rtoqlari qizlarning e'tiborini qozonishda mister Kollinzni soyada qoldirishdi. Qizlar uchun u yo'qdek bo'lib qoldi. Shunday bo'lsa-da, missis Filips vaqti-vaqti bilan uning gaplariga berilib quloq solar, yigitni qahva va bulkalar bilan siylar edi. Qarta o'yini boshlanganda mister Kollinz ayolga o'yinda qatnashishni taklif qildi:

– Men o'ynashni hali yaxshi bilmayman, – dedi u. – Lekin malakamni oshirishim kerak. Chunki mening hayotdagi o'rnimda...

Missis Filips uning taklifi uchun minnatdorchilik bildirdi, lekin gapini oxirigacha eshita olmadi.

Mister Uikxem qartada vist¹ o'ynamas edi, shuning uchun uni boshqa stolga taklif qilishganda, u bajonidil borib, Lidiya va Elizabetning o'rtasiga o'tirdi. Bunday paytlarda to'xtamasdan gapirish qobiliyatiga ega bo'lgan Lidiya uni o'ziga og'dirib oladi, degan xavf bor edi. Lekin qizni o'yin ham juda qiziqtirayotgan edi. Tez orada o'yinga shunchalik berilib ketdiki, yon-atrofida qilargalarga e'tibor ham bermay qo'ydi. Shu bilan mister Uikxem uni diqqat bilan tinglayotgan Elizabet bilan

¹ Vist – qarta o'yinining bir turi.

bemalol gaplashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Elizabet yigit bilan gaplashayotib undan mister Darsi haqida eshitib qolarmikanman, deb kutardi. Qiz hatto bu ismni aytishdan ham qo'rqib turgandi. Kutilmaganda uning qiziqishi qondirildi: bu mavzuda mister Uikxemning o'zi gap boshladi. Nezerfild va Meriton o'rtasidagi masofa qandayligini so'rab, o'z savoliga javob olgandan so'ng Elizabetdan mister Darsi bu yerlarda qachon paydo bo'lganligini so'radi.

– Bir oycha oldin, – dedi Elizabet va vaqtdan foydalanib, so'radi: – Eshitishimcha, Derbishirda uning katta yeri bor ekanmi?

– Ha, zo'r joy, – dedi Uikxem. – Yiliga o'n ming funt daromad keltiradi. Bu haqda mendan ham aniqroq ma'lumot beradigan birortasini uchratishingiz dar gumon. Men bolalikdan bu oila bilan bog'liqman.

Elizabet o'z hayratini yashira olmadi.

– Ajablanmay ham ko'ring-chi, miss Bennet! Kecha biz sovuqqina ko'rishganimizni sezmadingizmi? Miss Bennet, siz u bilan yaqindan tanishmisiz?

– U bilan ortiq ko'rishishni xohlamaydigan darajada! – hayajon bilan javob berdi Elizabet. – Men u bilan bir payt to'rt kun bir tom ostida bo'lishimga to'g'ri kelgandi, o'shanda menga juda yoqimsiz bo'lib ko'ringandi.

– Yoqimli yoki yoqimsiz, deb baho berishga haqqim yo'q, – dedi Uikxem. – Menga bu hatto yarashmaydi ham. Lekin haqiqiy bahoni berish uchun men uni anchadan beri va juda yaxshi bilaman. Shunday bo'lsada, sizning mister Darsi to'g'risidagi fikringiz ko'plarni hayron qoldirgan bo'lardi. Balki boshqa yerda o'z fikringizni aytmagan ham bo'larmidingiz. Albatta, bu yerda boshqa gap – o'zingiznikilarning orasidasiz.

– Xudo haqqi, men boshqa yerda gapirib bo'lmaydigan hech narsa deganim yo'q. Nezerfild bundan mustasno. U Xartfordshirda hech kimga yoqmaydi.

Bu insonning kekkayishi hammani o'zidan qochiradi. Va u haqda mendan yaxshiroq gapiradigan bi-rortasini topishingiz mushkul.

– Mister Darsi yoki boshqa birovning qilmishiga baho berishgani menga yoqmaydi, deb yolg'on gapirmoqchi emasman, – biroz sukutdan so'ng gapida davom etdi mister Uikxem. – Lekin mister Darsi haqida kamdan-kam yomon gapirishadi. Odatda, uning boyligi va qo'li uzunligi odamlarning ko'zini qamashtirib qo'yadi yoki o'zini balandparvoz tutishidan o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. Odamlar uni u qanday ko'rinishni xohlasa, shunday ko'radilar.

– Hatto shunchaki yuzaki tanishuv ham uning tabiati juda og'irligini sezdirib qo'yadi.

Uikxem boshini chayqab qo'ydi va xiyol o'tib, Elizabetdan so'radi:

– Mister Darsi bu yerlarda anchadan beri yashayptimi?

– Xabarim yo'q. Men Nezerfilddaligimda uning jo'nab ketishi to'g'risida gapirishmayotgandi. Uning bu yerdaligi sizning ...shir polkiga joylashishingizga xalaqit qilmaydimi?

– Aslo! Mening undan qo'rqadigan joyim yo'q. Agar men bilan uchrashgisi kelmasa, o'zi jo'nab keta qolsin. Biz hech qachon do'st bo'lmaganmiz va uni ko'rishga ko'zim yo'q! Uni nega yoqtirmasligimning sabablarini xohlagan odamga aytishim mumkin. Yashiradigan joyim yo'q. Birinchi sabab, menga o'tkazilgan achchiq alam. Va yana uning shunday inson ekanligi. Uning otasi marhum mister Darsi juda yaxshi odam, ayni vaqtda mening eng yaqin do'stim edi. Mister Darsi bilan to'qnash kelganimda meni doim xotiralar ezadi. U menga juda ko'p yomonliklar qilgan. Lekin u otasining umidlarini oqlagan va xotirasini xor qilmaganda men Darsining hamma ayblarini kechirgan bo'lar edim.

Elizabet yigitning gaplarini katta qiziqish bilan tinglar, lekin mavzu juda nozik bo'lgani uchun savol berishga xijolat chekayotgan edi.

Mister Uikxem mister Darsi haqidagi gaplarini to'xtatib, umumiy gapga o'tib ketdi: Meriton shahri, uning chet qishloqlari va bu yerning odamlari haqida gapirdi. Bular hammasi unga yoqishini aytib, dedi:

– ...shir polkiga kirar ekanman, men avvalo, bu yerda yaxshi do'stlar orttirishni rejalashtirgandim. Bu polk dong'i ketgan va hammaga o'rnak harbiy qismligini bilardim. Lekin do'stim Denni meni shahar aholisi haqidagi o'zining gaplari bilan yo'ldan urdi. Bu yerda zobitlarni juda hurmat qilisharmish. Ular bu yerda juda yaxshi tanishlar orttirishgan emish. Ha, menga ham yor-do'stlar kerak. Hayotdan juda soviganman, yolg'izlikdan qo'rqaman. Mening yon-atrofimda doim odamlarim va sevimli mashg'ulotim bo'lishi kerak. Meni harbiy bo'lishga tayyorlashmagandi. Lekin taqdir taqozosi bilan menga tegishli ulush faqat shugina bo'lib qoldi. Mening joyim cherkovda edi va ruhoniy bo'lish ruhida tarbiyalashgandi. Hozir uning to'g'risida gapirayotganimiz – jentlmen xohlaganda edi, hozir eng zo'r cherkovi mening ixtiyorimda bo'lgan bo'lardi.

– Nahotki?

– Ha, ha! Marhum mister Darsi o'z ixtiyoridagi yerlardagi eng yaxshi cherkovni menga atagan edi. U yerda bo'sh o'rin bo'lishi bilan o'sha yerga men o'tirishim kerak edi. U mening cho'qintirgan otam edi va meni jonidan ortiq ko'rardi. Uning menga qilgan g'amxo'rliklarini so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. U meni bekamu ko'st ta'minlab qo'ymoqchi edi! Lekin o'rin bo'shab... boshqaga ketib qoldi.

– Voy xudo! – hayrat bilan dedi Elizabet. – Nahotki? Mister Darsi qanday qilib otasining vasiyatiga qarshi chiqdi?! Siz qonunga murojaat qilmadingizmi?

– Qog‘ozlardagi rasmiy noaniqliklar mening bunday qila olishimga yo‘l qo‘ymadi. Nomusi bor erkak marhumning istagiga qarshi chiqmasdi, lekin mister Darsi bu qog‘ozlarni o‘zicha talqin qildi. Vasiyatnomadagi menga tegishli gaplarni u shartli edi, deb e‘lon qildi va o‘zimning yengiltakligim, hamma narsani yelga sovrurishim, xullas, hamma yomon sifatlarimdan kelib chiqib, mening bu huquqlardan mahrum ekanligimni aytdi. Shu narsa aniqki, bundan ikki yil oldin cherkov bo‘sh edi, men esa yosh jihatidan u yerga ega bo‘lish huquqiga ega bo‘ladigan yoshda edim, lekin menga berilmadi. Va yana shu narsa aniqki, o‘zimni u yerga ega bo‘lish huquqidan mahrum qiladigan biror gunoh qilmaganman. Men tabiatan qiziqqonman. Balki men yosh Darsi to‘g‘risida o‘z fikrlarimni berkitmayman, ba‘zan hatto yuziga ham ochiq aytgandirman. Bundan boshqa narsani eslolmayman. Hamma gap shundaki, biz ikki xil odamlarmiz va u meni yomon ko‘radi.

– Lekin bu ablahlik-ku! Uning sharmandasini chiqarish kerak emasmi?

– Ertami, kechmi, axiri shunday bo‘ladi. Lekin buni men qilmayman. Hali katta mister Darsining xotirasi tirik ekan, men kichik Darsini yomonotliq yoki sharmanda qila olmayman.

Elizabet yigitning gapirayotganda qanday chiroyli bo‘lib ketgani to‘g‘risida o‘ylar ekan, uning insoniylik hislaridan mamnun bo‘ldi. Biroz sukutdan so‘ng u so‘radi:

– Bunday qilish uchun unda qandaydir sabablar bo‘lgan bo‘lishi kerak-ku! Bunchalikka borish uchun nima sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin?

– Menga nisbatan nafrat hissi. Nafratki, menga qolsa asosan ko‘rolmaslikdan kelib chiqqan. Agar marhum mister Darsi meni shunchalik yaxshi ko‘rmaganda edi, o‘g‘li balki menga yaxshiroq munosabatda bo‘lgan bo‘lardi. Menimcha, otasining

menga qattiq bogʻlanib qolgani oʻgʻlining gʻashini keltirgan.

– Mister Darsi shunday odam boʻlishi mumkinligini men xayolimga ham keltirmagandim. Ochigʻi, u menga ilgari ham yoqmasdi. Lekin shunchalik ekanligini bilmagandim. Albatta, u atrofdagilarga qanday nafrat bilan qarashini sezgandim. Lekin Darsining shunchalik qasoskor, shunchalik adolatsiz, shunchalik insofsiz ekanligini xayolimga ham keltirmagandim.

Biroz jimlikdan soʻng, Elizabet gapida davom etdi:

– Hozir bir kuni Nezerfildda u oʻzining haddan tashqari ginachi ekanligini aytgani esimga tushdi. Qanday murakkab tabiatli kishi!

– Men bu haqda fikrimni aytmay ham qoʻya qolaman. Chunki unga nisbatan adolatli boʻlishim qiyin.

Elizabet bir onlik sukutdan soʻng hayrat bilan dedi:

– Oʻz otasining yaxshi koʻrgan insoniga, oʻzining yaqin doʻstiga shunday qilish! – qiz «koʻrinishining oʻziyoq bir qarashda odamni mahliyo qilib qoʻyadigan yigitga-ya», demoqchi boʻldi, ammo buning oʻrniga «bolaligidan oʻzining eng yaqin doʻsti boʻlgan insonga nisbatan-a! Yana bilishimcha, oʻzi bilan maʼlum bir jihatdan bogʻliq odamga-ya!» deb qoʻya qoldi.

– Biz bitta pomestye va bitta prixodda tugʻilganmiz. Bolaligimiz ham birga oʻtgan – bir tom ostida yashaganmiz, birga oʻynaganmiz, bizni birga erkalatishgan. Otam marhum mister Darsiga foydali boʻlish uchun oʻzining butun hayotini Pemberliga bagʻishlagan va kekxa mister Darsi buning qadriga yetardi. Otalarimiz juda yaqin doʻst edi! Mister Darsi doim oʻz doʻsti oldida qarzdor ekanligini tan olardi. Va otamning oʻlimidan sal oldin unga oʻz ixtiyori bilan mening kelajakdagi hayotimni taʼminlashga vaʼda berdi. Men ishonamanki, u otamga minnatdorchilik yuzasidan va shu bilan birga, menga bogʻlanib qolgani uchun ham shunday qilgan.

– Ishonib bo'lmaydi! – hayratlandi Elizabet. – Hatto, mag'rurligidan kelib chiqib ham mister Darsi sizga nisbatan o'z burchini bajarishi kerak edi! Agar uning boshqa yaxshi sifatlari bo'lmasa ham, nega shunday nomussizlik qilishga g'ururi yo'l qo'ydi ekan? Ha, nomussizlik – buni boshqacha atab bo'lmaydi!

– Rostdan ham juda g'alati, – ta'kidladi Uikxem.
– Chunki uning hamma harakatlari mag'rurlikdan kelib chiqadi. Juda ko'p hollarda shunday bo'lgan. Lekin istisnosiz qoidalar bo'lmaydi: menga kelganda uning xayolida boshqa narsa bo'lgan bo'lsa kerak.

– Nahotki, haddan ortiq mag'rurligidan unga bi-ror naf bo'lsa?

– Bo'lmasam-chi! Uning mag'rurligi ko'pincha sa-xiylik bilan pul ulashishga, mehmon kutishga, kam-bag'allarga yordam berishga undaydi. Buning orqa-sida oilaviy va o'g'illik g'ururi yotadi – u otasi bilan shunchalik faxrlanadi. O'z avlodining dovrug'ini yo'qotib qo'yishdan, Pemberlining boshqalarga ta'si-ri va mashhurligini bo'shashtirib qo'yishdan qo'rqish uning hayotida katta rol o'ynaydi. Darsiga xos narsa yana singlisiga mehribon va ko'ngilchan akalik hissi-dir. Hali uni qanday mehribon va g'amxo'r aka, deb atashlari qulog'ingizga chalinib qolishi mumkin.

– Miss Darsi to'g'risida nima deya olasiz?

U boshini tebratdi:

– U qiz to'g'risida bajonidil yaxshi gap aytgan bo'lardim! Darsilar xonadoni to'g'risida yomon gap gapirish men uchun juda og'ir. Lekin afsuski, u qiz xuddi akasining o'zi – haddan ortiq mag'rur. Lekin kichkinaligida qanday yoqimtoy, erkatoy qizaloq edi va meni shunday yaxshi ko'rardi. Uni o'ynatib yurish uchun qancha vaqtim ketardi! Endi esa bu qizaloq men uchun – hech kim. Hozir u o'n besh, o'n olti yoshlardagi bir olifta, yengiltak qiz. Eshitishim-cha, otasi vafot etgandan beri u Londonda yashar-

kan va qandaydir bir ayol uning tarbiyasiga qarab turarkan.

Elizabet suhbat uchun boshqa mavzu topishga harchand harakat qilmasin, gap aylanib yana mister Darsiga taqaldi:

– Meni uning mister Bingli bilan yaqinligi hayron qoldiryapti. Axir, mister Bingli, menga samimiy va ajoyib tabiat egasi bo‘lib ko‘rinayotgan shunday inson, nega mister Darsidek odam bilan do‘st tutinib yuribdi? Nahotki ular bir-birlarinii tushunishsa? Aytgancha, siz mister Binglini taniysizmi?

– Yo‘q, tanimayman.

– Juda ajoyib inson. U do‘sti mister Darsi qandayligini hatto tasavvur ham qila olmaydi.

– Bo‘lishi mumkin. Agar mister Darsi xohlasa, istagan odamiga yoqa oladi. U qobiliyatsiz emas. U nafaqat jamiyat pog‘onasining o‘zidan quyiroqda turadiganlar, balki o‘zining tenglari orasidagilarga ham o‘xshamaydi. Mag‘rurlik doim uning yo‘ldoshi. Lekin boylarga nisbatan u adolatli va kelishuvchan. Boylarning jamiyatdagi o‘rni va boyligiga tan bergan holda, ular bilan ochiq, samimiy va hatto odamshavanda.

Birozdan so‘ng qarta o‘ynayotganlar o‘yinni tugatib, stol atrofiga to‘planishdi. Mister Kollinz uning muvaffaqiyatlari haqida savolga tutgan missis Filips va Elizabetning o‘rtasiga kelib o‘tirdi. Ma‘lum bo‘lishicha, u biror marta ham yutmabdi. Lekin missis Filipsning unga qilgan hamdardliklariga javoban u hech ham xafa emasligini, chunki pullar uning uchun hech narsa ekanligini va u hatto ba‘zi yutqizishlarga e‘tibor ham bermasligini aytdi.

– Xonim, menga yaxshi ma‘lumki, odam qarta stoliga o‘tirar ekan, bunday omadsizliklarga tayyor bo‘lishi kerak. Baxtinga, mening sharoitim shundayki, men bu besh shilling uchun qayg‘urishim shart emas. Albatta, bunday deya olmaydigan

odamlar juda ko'p. Lekin ledi Ketrin de Byor orqasidan men shunchalik ta'minlanganmanki, bunday mayda-chuydalarga e'tibor bermayman.

Mister Kollinz aytayotgan gaplar mister Uikxeming qulog'iga kirdi. U mister Kollinzga qarab olib, yarim ovozda Elizabetdan uning tanishi de Byorlar oilasi bilan qay darajada inoqligini so'radi.

– Ledi Ketrin de Byor yaqindagina unga cherkov prixodini bergan. U ayol bu yigitga nima sabablar bilan bunday yaxshilik qilganini bilmayman, lekin ularning yaqinligi uzoqqa cho'zilmasa kerak.

– Siz albatta, ledi Ketrin de Byor va ledi Enn Darsi opa-singil bo'lishganidan xabaringiz bo'lsa kerak? Ledi Ketrin mister Darsining xolasi.

– Yo'q, men buni bilmasdim. Men ledi Ketrin to'g'risida umuman hech narsa bilmayman. O'tgan kunigacha men bunday ayol borligini hatto bilmasdim ham.

– Uning qizi de Byor katta meros oladi. Odamlarning aytishicha, miss Byor va uning xolavachchasi ikkala merosni qo'shishmoqchi.

Bu so'zlarni eshitgan Elizabet bechora miss Bingli esiga tushib jilmaydi. Demak, uning mister Darsini o'ziga qaratish uchun qilayotgan hamma harakatlari bekor ekan-da. Demak, uning mister Darsi va singlisiga yaqinlashish uchun qilayotgan hamma xatti-harakatlari behuda va foydasiz. Mister Darsi boshqa ayolga tegishli.

– Mister Kollinz ledi Ketrin va uning qizini juda ko'klarga ko'taradi. Lekin uning hikoyalaridagi ba'zi bir g'alati narsalar meni minnatdorchilik tuyg'usi uning ko'zini qamashtirib qo'ygan deb o'ylashga majbur qilayotgan edi. O'zimning amakivachchamni qanchalik hurmat qilmayin, menga bu ayol yengiltak bo'lib ko'rinyapti.

– Menimcha, unisi ham, bunisi ham to'g'ri. Men uni ancha yillardan beri ko'rganim yo'q, lekin ledi

Ketrinning hukmrondek va qo'pol qiliqlari men- ga hech qachon yoqmagani esimda. U o'ta aqlli va ma'nili ayol sifatida dong taratgan. Buning uchun o'zining tutgan o'rni va boyliklaridan, qolgan bosh- qa narsalarda esa o'zining butun avlodi o'tkir aqli bilan ajralib turishini juda xohlaydigan jiyanining mag'rurligidan minnatdor bo'lishi kerak.

Ledi Ketringa berilgan bu baho Elizabetga juda ishonarli bo'lib tuyuldi. Bu ikki yosh bir-birlaridan ko'ngillari to'lgan holda ovqatga chaqirishguncha gaplashib o'tirishdi. Missis Filipsnikida ovqat ma- halida odatda shunchalik shovqin bo'lardiki, gapla- shishning imkoni bo'lmasdi. Lekin mister Uikxem- ning o'zini tutishi hammaga yoqdi: u chiroyli harakat qilardi, yig'ilganlarni qoyil qoldirib, chiroyli gapirardi. Elizabet uylariga qaytayotganda faqat Uikxem haqi- da o'ylab ketdi. Uikxem haqidagi o'ylar va uning qiz- ga aytib berganlari hech xayolidan ketmayotgan edi. Lidiya bilan mister Kollinz esa to'xtamay gapirishar edi. Lidiya yozgi loto o'yinlari vaqtidagi o'z hunarlari, yutqazganlari-yu yutganlari haqida tinmay bidirlar- di. Mister Kollinz esa mister va missis Filipslarning odamgarchiliklarini ko'klarga ko'tarib maqtar, qarta- da yutqizgani unga hech ham alam qilmaganiga ham- mani ishontirishga urinar, stolga tortilgan taomlarni sanab chiqar, ekipajda amakivachchalarini bezovta qilib qo'ymadimmi deb bezovtalanar edi. U gapirayot- gan gaplar mavzusi shunchalik ko'p ediki, Longborn- ga yetib kelguncha ularning tugashi amrimahol edi.

XVII bob

Ertasi kuni Elizabet Uikxem bilan gaplashganla- rining hammasini Jeynga aytib berdi. Jeyn hayron bo'lib qoldi: «Nahotki, mister Darsi mister Bingliga do'st bo'lishga noloyiq bo'lsa?» Ayni paytda esa bu

kelishgan va juda aqlli ko'ringan yigitning gaplariga ishonmaslikka ham o'rin yo'q edi. Mister Uikxemga qilingan adolatsizliklar uchun unga achinishga arziydi. O'zining tabiatidan kelib chiqib, Jeyn ikkala yigitga soya solishi mumkin bo'lgan hamma narsani tushunmovchilikka yo'yib, ularni baravar oqlay boshladi:

– Menimcha, ular ikkalasi ham bizga noma'lum sabablarga ko'ra xato qilishgan. Balki ularga dushmanlik qilmoqchi bo'lgan ba'zi kimsalar bir-birlari haqida noto'g'ri ma'lumot berishgandir. Ular orasida nimadan nizo chiqqani biz uchun qorong'i va bu biz uchun sir bo'lib qo'ya qolsin.

– Sen haqsan. Unda, azizam Jeyn, bu ishga aralashganlar, yomon maqsadli odamlar himoyasi uchun nima deysan? Bu odamlarni ham oqlash kerakasmikin? Axir, biz baribir kimdir to'g'risida yomon o'ylashimizga to'g'ri keladi-ku!

– Mening ustimdan xohlaganingcha kulishing mumkin, lekin fikrimni o'zgartira olmaysan. Lizzi, azizam, o'ylab ko'r, axir bu mister Darsini atrofdagilarga qanchalik yomon ko'rsatib qo'yadi. Otasi yaxshi ko'rgan, bir umrga ta'minlab qo'yishga so'z bergan yigitchaga nisbatan shunday munosabatda bo'lish! Ishonish qiyin! O'z obro'sini o'ylaydigan birorta odam ham bunday qilishga qodir emas. Axir, eng yaqin do'stlari shunday yanglishishi mumkinmi? Yo'q, bo'lishi mumkin emas!

– Men uchun kecha mister Uikxem aytib bergan gaplar hammasi yolg'on deb o'ylashdan ko'ra, mister Bingli do'st tanlashda yanglishgan degan gapga ishonish osonroq. Mister Uikxem adashmasdan nomlarni, faktlarni, joylarga aniq qilib aytib berdi. Mister Darsi agar qo'lidan kelsa, qani hammasini rad qilib ko'rsin-chi! Uikxemning hikoyasida har bir so'zdan haqiqat ko'rinib turgandi.

– Nima deyishni ham bilmaysan – hammasi biram chalkash va yoqimsizki...

– Kechirasan-ku, lekin bu haqda nima deb o‘ylash menga aniq.

Jeyn uchun esa bitta narsa – agar mister Bingli rostdan ham yanglishganini bilib qolsa, qanday afsuslanishi aniq edi.

Opa-singil o‘rtasidagi bu suhbat butalar o‘sib yotgan yo‘lkada bo‘lib o‘tayotgan edi. Qizlarning bu yerdaligi-ga sabab esa uyda ular hozirgina o‘z suhbatlarida tilga olayotgan kimsalar bor edi. Gap shunda ediki, mister Bingli va uning singillari Longbornga bu yerdagilar-ning hammasini yaqin kunlarda seshanba kuni bo‘lib o‘tadigan uzoq kutilgan balga taklif qilib kelishgan edi. Ikkala opa-singil, o‘zlarining aytishlaricha, anchadan beri ko‘rmagan o‘z dugonalarini ko‘rishdan juda mamnun edilar va ular biri olib, biri qo‘yib, oxirgi marta xayrlashganlaridan beri nima ishlar bilan mashg‘ul bo‘lganini so‘ray ketishdi. Opa-singillar boshqa Bennetlarga umuman e‘tibor bermaslikka harakat qilishdi: uy bekasini sezmaganlikka olishdi, Elizabet bilan esa iloji boricha gaplashmaslikka, kichik qizlarga ham biror og‘iz so‘z demaslikka harakat qilishdi. Birozdan so‘ng akalarini hayron qoldirib, shosha-pisha ketishga hozirlanishdi va o‘sha zahotiyoyq jo‘nab qolishdi. Ular xuddi missis Bennet bilan xayr-xo‘sh qilishdan qocha-yotgandek harakat qilishardi.

Bennetlar oilasidagi hamma ayollarning fikr-zikri Nezerfildda uyushtiriladigan balda bo‘lib qoldi. Missis Bennet bu bal uning kattasi Jeyn sharafiga tashkil qilinayapti, deb o‘ylar va taklifnoma yuborib qo‘ya qolmay, mister Binglining shaxsan o‘zi ularni taklif qilish uchun Longbornga kelganidan juda quvonib ketgan edi. Jeyn esa ziyofatda o‘zini ikki dugonasi bilan birgalikda, mister Bingli tomonidan o‘ziga qilinajak diqqat-e‘tiborni tasavvur qilib, xursand edi. Elizabet bo‘lsa, o‘zining mister Uikxem bilan raqs tushayotganini tasavvur qilar va shu paytda mister Darsining

yuzida Uikxem aytib bergan narsalar isbotini topayotgandek bo'lardi. Ketrin va Lidiya intizorlik bilan kутayotgan xushkayfiyat esa biror-bir aniq kimsa yoki voqea bilan bog'liq emasdi. Ularning ikkalasi ham xuddi Elizabet kabi kechaning yarmini Uikxem bilan raqs tushib o'tkazishni mo'ljallashayotgan bo'lsalarda, boshqa kavalrlarni ham ko'zdan qochirishmayotgandi. Axir, bal baldek bo'lishi kerak-ku! Hatto, Meri ham unga hech qanday e'tirozi yo'qligini aytdi:

– Agar ertalablari bo'sh bo'lsam, menga shuning o'zi yetarli. Va agar vaqti-vaqti bilan kechqurungi ko'ngilochar o'tirishlarga boradigan bo'lsam, bu men uchun hech ham qiyin emas. Jamiyat hamma odamlarga huquq berib qo'yibdi. Men ham goh-goh shu huquqlardan foydalanib turaman.

Elizabetning kayfiyati zo'r edi. U oxirgi paytlarda mister Kollinz bilan iloji boricha kamroq gaplashishga harakat qilayotgan bo'lsa-da, bu safar o'zini to'xtata olmay, undan mister Binglining taklifiga qanday qarashini, uning darajasidagi odamga bunday joylarda qatnashish mumkinmi yoki yo'qmi ekanligini so'radi, biroq javobni eshitib, hayratga tushdi. Emishki, amakivachchasining bu borada hech qanday gumoni yo'q va arxiyepiskop va ledi Ketrin de Byorning ham man qilmasliklariga imoni komil.

– Hamma uchun hurmatli bo'lgan inson tomonidan hurmatli insonlar uchun o'tkazilajak bunday ziyofat, meningcha, hech qanday yomon niyatni ko'zda tutmasa kerak. Men raqsqa tushishni yoqtirmayman emas, aksincha, ziyofat davomida amakivachchalarimning har bittasi bilan raqsqa tushish imkoni bo'ladi, deb umid qilaman. Va fursatdan foydalanib, azizam miss Elizabet, sizni birinchi raqsqa taklif qilib qo'yishga ruxsat bersangiz. Mening bu taklifimni miss Jeyn to'g'ri qabul qiladi va mendan xafa bo'lmaydi, deb umid qilaman.

Elizabet noto'g'ri gapirib qo'rganini angladi. U o'zini birinchi bo'lib raqsga mister Uikxem taklif qilishiga ishonchi komil edi. Endi esa buning o'rniga mister Kollinz bilan tushishiga to'g'ri keladi. U ilgari hech qachon o'zining hamma bilan chiqishib keta olishidan bunchalik pand yemagandi. Lekin endi kech edi. Mister Uikxem va o'zi uchun baxtli daqiqalar kechroq bo'ladi. Mister Kollinzning taklifiga qo'lidan kelgancha mulozamat bilan javob qaytardi. Mister Kollinzning taklifida oddiy xushmuomalalikdan tashqari yana nimadir borligi Elizabetga yoqmadi. Shu paytda xayoliga birinchi marta, axir aynan u mister Kollinzning Xansforddagi xonadoniga beka bo'lishi mumkin-ku, degan fikr keldi. Uning bu shubhasi mister Kollinzning unga nisbatan e'tibori ortib borayotganini, Elizabetning o'tkir aqliga qoyil qolib qilayotgan maqtovlarini ko'rgach, ishonchga aylana bordi. Shundan so'ng Elizabet o'z chiroyidan xursand bo'lish o'rniga, shunday bo'lib qoladigan bo'lsa, missis Bennetning qanchalar xursand bo'lishini eshitib, quvonish o'rniga, aksincha, sarosimaga tushib qoldi. O'zining rad javobidan so'ng uyda qanday janjal ko'tarilishini tasavvur qilgan Elizabet o'zini go'yo hech narsa tushunmayotgandek tutishda davom etdi. Balki mister Kollinz taklif ham qilmas. Demak, u hali hech narsaga qaror qilmagan ekan, podadan oldin chang chiqarishning hojati yo'q.

Agar Nezerfildda bal bo'lishi, unga qanday tayyorlanish muammolari bo'lmaganda, kichik miss Bennetlar balki o'zlarini eng baxtsiz deb his qilishgan bo'lishardi, chunki balga taklif qilingan kundan boshlab, to bal bo'ladigan kungacha to'xtamay yomg'ir yog'di va ular Meritonga borishdan mahrum bo'lishdi.

Na xolalarini, na tanish zobitlarni ko'rgani bora olishdi, hatto bal uchun kerak bo'ladigan arzimaymayda-chuydalarni ham xizmatkor sotib olib keldi. Yomg'ir Elizabetning sabrini ham sinovdan o'tkazdi,

chunki yomg'ir uning mister Uikxem bilan tanishishda davom etishiga xalaqit berishi mumkin edi. Kitti bilan Lidiya uchun esa juma, shanba, yakshanba va dushanba kunlarini zo'rg'a o'tkazish seshanba kuni bo'ladigan raqslarni kutish bilan sal yengillashdi.

XVIII bob

Nezerfildda mehmonxonaga kirib, u yerdagi qizil mundir kiygan mehmonlar orasidan mister Uikxemni qidirishni boshlamaguncha, yigit bu yerga kelmasligi mumkin-ku, degan fikr Elizabetning hatto xayoliga ham kelmadi. U bilan balda uchrashish qiz uchun shunchalik tabiiy tuyulayotgandiki, u hatto yigitning bu yerga kelishiga monelik qiladigan sabablar to'g'risida o'ylab ham ko'rmagandi. Qiz balga borish uchun juda berilib yasandi va a'lo kayfiyatda ishonch bilan bugun bir kechaning o'zidayoq yigit yuragini oxirigacha to'liq zabt etishga tayyorgarlik ko'rdi. Lekin zalga kirgan zahoti, axir mister Bingli do'sti mister Darsining ko'ngliga qarab Uikxemni balga taklif qilingan zobitlar ro'yxatiga kiritmagan bo'lishi mumkin, degan shubha xayoliga keldi. Haqiqatda esa sababi bu bo'lmasa-da, mister Uikxemning yo'qligini uning do'sti mister Denni tasdiqladi. Uikxemning bal arafasida zarur ishlar bilan Londonga jo'nab, hali qaytmaganini ma'lum qilar ekan, yigit ma'noli jilmayib qo'ydi:

– Albatta, uning hozir bu yerda ishtirok etayotgan ma'lum bir jentlmen bilan uchrashuvdan qochayotganligini hisobga olmaydigan bo'lsak, ishonamanki, hech qanday ish uni shunday kunda bu yerga kelishdan ushlab qola olmasdi.

Mister Dennining bu qochirimini Lidiya ham eshitgan bo'lsa-da, ma'nosini faqat Elizabet tushundi. Bu gap Uikxemning bu yerda ishtirok eta olmasligining

sababchisi mister Darsi ekanligiga ishora edi. Kutayotgan rejalari poymol bo'lgan Elizabet mister Darsini shunday yomon ko'rib ketdiki, u bilan so'rashish uchun yaqinlashgan Darsining mulozamatiga mulozamat bilan javob berishga o'zini zo'rg'a majbur qildi. Bu odamga nisbatan e'tibor, rahm-shafqat, kechirimlilik Uikxemga nisbatan sotqinlik bilan barobardek edi. U Darsi bilan bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday suhbatdan o'zini olib qochishga harakat qildi, hatto mister Bingli bilan suhbatlashayotganda ham o'zini g'azabdan tutib tura olmadi, chunki Binglining do'stiga shunchalik bog'lanib qolgani ham unga endi kechirib bo'lmas gunohdek bo'lib tuyulayotgan edi.

Shunday bo'lsa-da, Elizabet g'am chekib o'tiradiganlar toifasidan emasdi. Uning baldan kutayotgan hamma umidlari puchga chiqqan bo'lsa-da, u har xil yomon xayollarga borib o'tirmadi. Bir haftadan oshiq ko'rmagan dugonasi Sharlotta Lukasga ichidagilarni aytib bergach, gapining oxirida uni o'zining amakivachchasi bilan tanishtirdi. Mister Kollinz bilan tushilgan birinchi raqs uning kayfiyatini yanada tushirib yubordi. Bu endi haddan ortiq haqoratdek edi: mister Kollinz harakatlari qo'pol, raqs tushishni umuman bilmas, dam o'tmay uzr so'rar edi. Raqs tugaganda, Elizabet yengil nafas oldi.

Kollinzdan keyin u yana bir zobit bilan raqs tushdi. Raqs tushayotib, mister Uikxem haqida gap ketdi va undan yigitni hamma hurmat qilishini eshitib, biroz o'ziga keldi. Raqs tugagach, Sharlottaning yoniga bordi va dugonasi bilan suhbatga berilib ketib, oldiga mister Darsi kelib o'zini keyingi raqsga taklif qilayotganini ham sezmay qoldi. Bunday taklifni kutmagan Elizabet o'zini yo'qotib qo'ydi va rozilik berib yubordi. Darsi nari ketgach, qilib qo'ygan ishidan kayfiyati buzilgan Elizabet dugonasi bilan yolg'iz qoldi. Sharlotta uni yupatishga harakat qildi:

– Menimcha, u raqsda juda yaxshi sherik bo'lsa kerak.

– Xudo saqlasin! Yomon ko'rishga tayyor turgan odamim bilan raqs tushsam-a!

Raqs boshlangach, Darsi ularning oldiga kelib, Elizabetning qo'lidan tutar ekan, dugonasi sekingina, Uikxemni deb undan ham obro'liroq odamning oldida past ketmasdan, o'zini aqlli roq tutishi kerakligini shipshitib qo'ydi. Elizabet unga javob qaytarmay, mister Darsi bilan raqsga tushayotganidan o'ziga o'zi hayron qolib o'rta ga tushar ekan, atrof-dagilar ko'zida ham shunday hayronlikni ko'rdi.

Bir qancha vaqtgacha ular churq etmay raqs tushishdi. Elizabet, hatto, oxirigacha shunday indamay raqs tushsak kerak deb o'ylay boshladi va bu jimlikni buzishni ham xohlamadi. Lekin agar gapirtira olsa, hamrohining jig'iga battarroq tegishi mumkinligini o'ylab, tushayotgan raqslari haqida bir-ikki gapirib qo'ydi. Darsi qisqagina javob berib, yana jim bo'ldi. Bir-ikki daqiqa davom etgan sukutdan so'ng, qiz yana davom etdi:

– Endi, mister Darsi, gapirish sizdan. Men raqs haqida gapirdim, siz esa zalning kattaligimi yoki raqs-ga tushayotganlar haqidami gapirishingiz mumkin.

Yigit jilmayib qo'ydi va qiz nimani xohlasa shu to'g'risida gapirishga tayyor ekanligini bildirdi.

– Mana, yaxshi bo'ldi, – dedi qiz. – Bu davr uchun siz yetarli gapirdingiz. Balki birozdan so'ng men xonadonlarda o'tkaziladigan ballar jamoada uyushtiriladigan ballardan yaxshiroqligi to'g'risida gapirarman. Lekin hozircha jim turganimiz ma'qul.

– Siz raqs tushayotib, gaplashishga o'rganganmisiz?

– Ha, ba'zan. Axir, ba'zan jimlikni buzib ham turish kerak-ku, to'g'rimi? Agar ikki kishi yarim soat birga o'tirib, bir og'iz gaplashmasa, kulgili ko'rinadi-ku! Lekin nima bo'lganda ham, ikkalamiz iloji boricha kamroq gaplashsak, kimgadir juda yaxshi bo'ladi.

– Bu bilan siz mening xohishimni koʻzda tutayapsizmi yoki bu sizning oʻzingizga maʼqulmi?

– Unisi ham, bunisi ham, – toʻgʻri javobdan qochib, dedi Elizabet. – Men ikkalamizning fikr yuritishimiz bir xil ekanligini anchadan beri sezib kelayapman. Ikkalimiz ham kamgapmiz, agar mabodo hammani hayron qoldiradigan biror ajoyib gapmi, keyinchalik ogʻizma-ogʻiz avlodlarga yetib boradigan maqolmi aytishga toʻgʻri kelmasa, koʻp gapirishni yoqtirmaymiz.

– Sizning tabiatingizga kelsak, menimcha, juda ham toʻgʻri taʼriflamadingiz. Meni qanchalik toʻgʻri taʼriflaganingizga esa men baho berolmayman. Balki bu taʼrifingiz oʻzingizga yoqsa kerak-da.

– Men oʻz sanʼatimga oʻzim baho berolmayman.

Darsi javob bermadi. Ular keyingi raqs davomida yigit qizdan opa-singillari Meritonda tez-tez boʻlib turishlarini soʻramaguncha, bir-birlari bilan gaplashmadilar. Tasdiq javobini berarkan, Elizabet oʻzini toʻxtata olmay, qoʻshib qoʻydi:

– Yaqinda oʻsha yerda siz bilan koʻrishib qolganimizda, biz endigina yangi tanish orttirgan edik.

Bu gaplarning taʼsiri oʻsha zahotiyuq koʻrindi: Darsining yuzida manmanlik ifodasi paydo boʻldi. Lekin u hech nima demadi. Elizabet esa, harchand urinmasin, gapini davom ettirishga yuragi dov bermadi. Biroz oʻtib, Darsi sovuqqina qilib, dedi:

– Uikxem shunday kelishgan va ajoyib odatlarga egaki, juda tez doʻstlar orttira oladi. Lekin meni doim shubhaga soladigan narsa shuki – u bu doʻstlarini ushlab qola oladimi yoki yoʻqmi?

– Uning aytishicha, siz bilan doʻstligini uzgan ekan, – maʼnoli qilib davom etdi Elizabet. – Balki bu narsa bir umrga yuragida jarohat qoldirgandir.

Darsi javob bermadi, lekin suhbat mavzusini oʻzgartirishni xohlayotgani koʻrinib turardi. Shu payt ularning oldida raqs tushayotganlarning ora-

sini yorib o'tib, ser Uilyam Lukas paydo bo'ldi. U mister Darsi bilan juda berilib so'rashdi va o'sha zahotiyiq uning raqsini va u bilan birga raqs tushayotgan qizning go'zalligini maqtay ketdi:

– Ser, raqsingizni tomosha qilib, maza qildim. Bunchalik nazokat bilan raqs tushadiganlar juda kam. Sizning yuqori tabaqadanligingiz shundoq ko'rinib turibdi. Yana bir gapni aytib o'tishga ruxsat bering. Siz bilan hozir birga raqs tushayotgan qiz, menimcha, sizga juda mos va umid qilamanki, men bundan buyon ham tez-tez bunday ajoyib raqsni ko'rib turaman. Albatta, intiqib kutilayotgan hodisa ro'y bergandan so'ng, to'g'rimi, miss Eliza? – bu so'zlarni aytayotib, u Bingli va Jeyn tomonga qarab qo'ydi. – Hamma uchun xursandchilik bo'ladi. Lekin mister Darsi, sizni ko'p ushlab turmoqchimasman. Bo'lmasa, sizning menga gina bilan qarayotgan bu ajoyib go'zal qiz bilan suhbatingizga xalaqit berayotganim uchun menga minnatdorchilik bildirmaysiz.

Bu uzundan-uzoq gapning oxirini mister Darsi hatto eshitmadi ham. Lekin ser Uilyamning do'sti mister Bingli haqidagi ehtimoli unga ta'sir qildi. Yuzi jiddiy tus olib, sal narida raqs tushayotgan Bingli bilan Jeynga tikilib qaradi. Sal o'tib, o'ziga keldi va Elizabetga dedi:

– Mister Uilyam suhbatimizga xalaqit berdi.

– Menimcha, biz gaplashmayotgan edik. Ser Uilyam butun xonani qidirib ko'rsa ham, bir-biriga aytadigan gapi yo'q boshqa juftlikni topa olmasa kerak. Ikkalamiz biror-bir mavzuda gaplashishga harakat qilib ko'rdik, xolos. Men hatto biz ikkalamiz endi yana nima haqda gaplashishimiz mumkin ekan, deb o'ylayapman.

– Siz kitoblar haqida nima deya olasiz?

– Kitoblar haqida? Yo'q, men aniq bilamanki, biz ikkalamiz bir xil kitoblarni o'qimaganmiz. Juda bo'lmaganda, o'qiyotib, bir xil narsani his qilmaganmiz.

– Afsus, bekorga bunday deb o‘ylayapsiz. Lekin siz haq bo‘lgan holda ham, gapirish uchun mavzu topish mumkin edi: fikrlarimizni taqqoslashimiz mumkin edi.

– Yo‘q, men balda kitob haqida gapirishni yomon ko‘raman. Bunday joylarda mening xayolimga boshqa fikrlar keladi.

– Va ular har doim sizning atrofingizdagilarga tegishli, to‘g‘rimi? – ikkilanibroq so‘radi Darsi.

– Ha, doimo, – o‘ylamay javob berdi Elizabet. Haqiqatda esa uning xayoli butunlay boshqa yoqda edi. Qiz buni tasdiqlagandek birdan gapira ketdi:

– Bilasizmi, mister Darsi, bir kuni sizning hayotda birortasini hech ham kechirmasligingizni aytganingiz esimda. Demak, sizningcha, sizni bir marta xafa qilib qo‘ygan odam sizning kechirishingizga umid qilmasa ham bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, siz doim arzimagani narsalarga xafa bo‘lmaslikka harakat qilasiz.

– Ha, albatta, – ishonch bilan dedi mister Darsi.

– Hech qachon birovga bilmay salbiy baho berib, aybdor bo‘lib qolmaysizmi?

– Umid qilamanki, bunday bo‘lmaydi.

– Birovlarning fikri bilan hech ham hisoblashmaydiganlar, ayniqsa, hamma narsada oldindan ehtiyot bo‘lishlari kerak.

– Siz nimani ko‘zda tutayotganingizni bilsam bo‘ladimi?

– Men shunchaki sizning tabiatigingizni yaxshilab bilib olishga harakat qilyapman, – o‘zini beparvo tutishga harakat qilib, dedi qiz.

– Qo‘lingizdan kelyaptimi?

Elizabet boshini tebratdi:

– Zig‘ircha ham. Siz haqingizda men eshitgan narsalarim shunchalik rang-barangki, nima deb o‘ylashga ham hayronman.

– Sizga aytilgan fikrlar bir-biriga butunlay zid ekanligini tasavvur qilayapman, – jiddiylik bilan dedi mis-

ter Darsi. – Menga qolsa, siz hozircha mening aslida qandayligimni tasavvur qilishingizni istamayman. Aks holda, natijadan na men va na siz qoniqamiz.

– Lekin men asosiy narsani hozir aytmasam, bundan keyin bunday qulay fursat kelmasligi mumkin.

– Sizga yoqishi mumkin bo'lgan narsaga xalaqit bergim kelmayapti, – sovuqqina javob qildi Darsi.

Elizabet indamadi. Raqs tugagach, ikkalasi ham ko'ngilda g'ashlik bilan bir-birlaridan uzoqlashishdi. Shunday bo'lsa-da, mister Darsi allaqachon Elizabetga nisbatan yuragida intilish his qilayotgani sabab, qizdan xafa bo'lmadi.

Shundan sal o'tib, Elizabetning oldiga miss Bingli keldi-da, mensimas ohang bilan gap boshladi:

– Demak, miss Bennet, siz Jorj Uikxemdan hayratda ekansiz-da? Menga buni Jeyn aytdi. U meni sizning bu yangi tanishingiz haqidagi savollarga ko'mib tashladi. Lekin men opangizning gaplaridan shuni angladimki, bu yigit o'zi haqida gapirayotib, marhum mister Darsinikida eshik og'asi bo'lib ishlagan qariya Uikxemning o'g'li ekanligini aytishni unutibdi. Men sizga bu yigitning hamma gaplariga ishonavermaslikni do'stona maslahat bergan bo'lardim. Uning mister Darsi o'ziga nisbatan yomon munosabatda bo'lishi haqidagi gaplari hammasi yolg'on. Aksincha, mister Darsi unga nisbatan misli ko'rilmagan mardlik qilgan. Jorj Uikxem esa, teskarisi, mister Darsiga nisbatan nomardlik qildi. Men hamma ikir-chikirlarini yaxshi bilmayman, lekin aniq biladiganim – mister Darsini birorta narsada ayblab bo'lmaydi. U Jorj Uikxem haqida eshitishni ham istamasligi bekorga emas. Akamga mister Uikxemni boshqa zobitlar qatorida taklif qilmaslik juda noqulay bo'lib turganda, uning o'zi taklifdan bosh tortib qoldi. Uning bu yerlarda paydo bo'lishi misli ko'rilmagan bezbetlik. Qanday qilib bunga haddi sig'diykin?! Miss Eliza, menga sizning bu yangi

tanishingizning basharasini ochib tashlash juda og'ir. Lekin uning kelib chiqishini hisobga oladigan bo'lsak, tanishingizdan boshqa narsa kutib ham bo'lmadi.

– Miss Bingli, sizning so'zlaringizdan men anglaganim shu bo'ldiki, mister Uikxemning aybi uning kelib chiqishida, – keskin javob berdi Elizabet. – Siz unga otasi eshik og'asi bo'lganligidan boshqa hech qanday ayb qo'ya olmadingiz. Lekin men sizni ishon-tirib aytamanki, buni uning o'zi menga aytgan.

– UZR so'rayman, – undan uzoqlashar ekan, ke-satib dedi miss Bingli. – Aralashganim uchun ke-chirasiz, men yaxshi niyatda gapirgandim.

«Qanday yuzsizlik! – o'ziga o'zi gapirdi Elizabet. – Lekin siz, xonimcha, shu yo'l bilan mening yuragim-ga tegaman, deb xom o'ylayapsiz. Bu bilan siz o'zin-gizning naqadar pastkashligingizni va mister Darsi-ni ablahliligini yana bir marta isbotladingiz, xolos».

Elizabet mister Bingli bilan berilib suhbatla-shayotgan Jeynni qidirgancha ketdi. Bu kechadan juda ham xursand bo'lgan Jeyn singlisini chiroyli jilmayish bilan qarshi oldi. Jeynning yuz ifodasidan uning nimalarni o'ylayotganini taxminan bilgan Elizabet mister Uikxem haqidagi gaplar opasining qulog'iga ham kirmasligini sezdi.

– Men sendan mister Uikxem haqida biror nar-sa bila oldingmi, deb so'ramoqchi edim. Sen faqat bittagina odam haqida o'ylab, vaqtini juda yaxshi o'tkazayapsan, shekilli. Shunday bo'lsa, men sen-dan xafa emasman.

– U butunlay yodimdan chiqib ketibdi, – javob berdi Jeyn. – Lekin ochig'i, senga birorta yaxshi gap aytol-mayman. Mister Bingli bu haqda juda oz narsa bilar ekan. Mister Uikxem mister Darsi oldida nima gunoh qilgan, uning xabari yo'q ekan. Lekin u o'z do'stining nomusli, toza yigit ekanligiga kafillik bera oladi. Yana u aytdiki, mister Uikxem mister Darsi unga ko'rsat-

gan yaxshiliklariga arzimaydi. Uning gapicha va yana miss Binglining aytishicha, mister Uikxemni toza yigit, deb aytib bo'lmaydi. U o'zini juda nomunosib tutgan va mister Darsining oldida hurmatini yo'qotib qo'ygani bo'lsa kerak, deb qo'rqaman.

– Mister Bingli mister Uikxemni tanir ekanmi?

– Yo'q, Meritonda uchrashguncha biror marta ham ko'rmagan.

– Uning Uikxem haqidagi fikrlari Darsidan o'tgan ekan-da, shundaymi? Tushunarli. Cherkov prixodi haqida nimalar bilar ekan?

– Bu haqda do'stidan ko'p marta eshitgan bo'lsa-da, nima bo'lganini o'zi juda aniq bilmaydi. Prixod, menimcha, Uikxemga shartli qilib berilgan.

– Men mister Binglining samimiyligiga shubha qilmayman, – iloji boricha yumshoqlik bilan dedi Elizabet, – lekin meni quruq gaplar qoniqtirmaydi. Albatta, mister Bingli sodiq do'st sifatida Darsining tarafini oladi. Lekin bu voqeaning ba'zi tomonlari unga nomal'umligini, bilganlari esa faqat mister Darsidan eshitganlari ekanligini hisobga olgan holda, men bu ikki yigitga ham bir xil munosabatda bo'lishda davom etaman.

Shu so'zlardan so'ng u gapni ikkalasi uchun qiziq bo'lgan mavzuga burib yubordi va opasidan mister Binglining xushomadlari unda katta umidlar uyg'otayotganini bilib oldi. O'z navbatida o'zi ham opasining umidlarining iloji boricha ro'yobga chiqishi tarafdori ekanligini aytdi. Opa-singillarning yoniga mister Bingli yaqinlashgach, Elizabet ularni yolg'iz qoldirib, miss Lukasni qidirib ketdi. U dugonasining oxirgi birga raqsga tushgan sherigi haqidagi savoliga javob berar ekan, oldilariga mister Kollinz kelib qo'shildi va hozirning o'zida bir yangilik kashf qilganini aytdi.

– Tasodifan men bu yerda bekamning juda yaqin qarindoshini uchratib qoldim. Shu kechaning

bezagi bo'lgan qiz bilan raqsga tushayotib, bu yigit qarindoshi miss de Byor va uning onasi ledi Ketrinning nomlarini tilga oldi. Hayotda nimalar bo'lmaydi! Men shu yerda, bugun shu kechada ledi Ketrinning jiyani uchrataman, deb kim ham o'ylabdi? Unga o'zimni tanita olish imkoni berilgan ekan, albatta, men bu ishni hoziroq qilaman.

– Mister Darsiga o'zingizni tanitmoqchimisiz?

– Albatta. Men bu ishni ilgariroq qilmaganim uchun undan kechirim so'rayman. Mister Darsi rostdan ham ledi Ketrinning jiyani deb ishonaman. Men unga bir haftagina burun xolasining sog'lig'i juda yaxshi bo'lganini aytib qo'yaman.

Elizabet iloji boricha mister Kollinzni bunday qilmaslikka ko'ndirmoqchi bo'ldi. Notanish odamning o'ziga murojaat qilishini Darsi o'zining xolasiga hurmat belgisi deb emas, balki o'zboshimchalik deb hisoblashini, bu yerda ular bir-birlariga e'tibor berishlari shart emasligini va agar uchrashishlari kerak bo'lib qolgan taqdirda ham bu qadamni jamiyatda mavqeyi balandroq bo'lgan Darsi qo'yishi kerakligini tushuntira boshladi. Mister Kollinz qizning hamma gaplarini baribir o'zining aytganini qiladigan odamdek tinglagach, dedi:

– Azizam miss Elizabet! Men sizning o'zingiz yaxshi biladigan narsalar to'g'risida to'g'ri fikr yuritishingizga katta hurmat bilan qarayman. Lekin oddiy odamlar bilan xudo yo'lida xizmat qiluvchilarning insoniy munosabatlarining normalari o'rtasida katta farq bor. Shuning uchun o'zimning burchim deb hisoblagan narsani qilishga menga ijozat bering. Va boshqa hamma narsada sizning maslahatingizga ko'nishga tayyor bo'lgan holda, hozir undan foydalanmayotganim uchun uzr so'rayman. Hozirgi sharoitda o'z bilimim va tajribamdan kelib chiqib, sizday yosh qizning emas, balki o'zimning fikrim to'g'ri deb hisoblayman.

Elizabetga egilib ta'zim qilgancha, mister Kollinz uni qoldirib, to'g'ri mister Darsi tomonga qarab ketdi. Qiz bu kutilmagan murojaat Darsiga qanday ta'sir qilishini xavotirlanib kuta boshladi.

Mister Kollinzning birinchi so'zlaridanoq Darsining yuzida ajablanish alomatlari paydo bo'ldi. Mister Kollinz gapini qattiq yo'talib qo'yishdan boshladi. Uning so'zlari qizga eshitilmayotgan bo'lsa-da, lablarining qimirlashidan Elizabet «kechirasiz» «Xansford» va «ledi de Ketrin» degan so'zlarni eshitayotgandek edi. Qarindoshining mister Darsi oldida bunday kulgili ahvolda ko'rinishidan Elizabet xafa bo'lib ketdi. Darsi mister Kollinzga hayrat va ajablanish bilan qarab turar, Kollinz axiri gapidan to'xtab, Darsiga gapirish uchun sharoit tug'ilganda u sovuqqina javob berdi. Lekin bu narsa Kollinzni xijolat ham qilmadi va u yana gapida davom etdi. Uning bu qiligi Darsining Kollinzga nisbatan nafratini battarroq kuchaytirgandek edi va u gapini tugatganida, Darsi indamay bosh silkidi-da, nariroqqa ketdi. Kollinz esa Elizabetning yoniga qaytib keldi.

– Uning menga munosabatidan hech ham xafa bo'lganim yo'q, ishoning, – yaqinlasha turib dedi u. – Mister Darsiga mening munosabatim yoqdi. U men bilan juda samimiy gaplashdi va hatto ledi Ketrinning injiqligini bilishini va uning hurmatiga faqatgina haqiqiy insongina musharraf bo'la olishini aytdi. U buni shunday chiroyli tashbihlar bilan aytdiki! Rostdan, menga juda yoqdi.

Endi baldan o'zi uchun kutadigan hech narsa qolmagani uchun Elizabet butun diqqatini mister Bingli va opasiga qaratdi. Bu narsa unda yaxshi fikrlar uyg'otdi va o'zini xuddi Jeyndek baxtli his qila boshladi. Hatto endi Jeynni o'z tasavvurida bu uyda haqiqiy muhabbat va nikohda bo'ladigandek baxtli, hech qanday kam-ko'stsiz yashayotgan uy bekasidek

tasavvur qila boshladi. Bu holda u o'zini hatto mister Binglining opa-singillari ham yaxshi ko'rib qolishi mumkin, deb hisoblardi. Missis Bennetning ham fikri zikri shunda ekanligi ko'rinib turardi va onasining lop etib, birorta bo'lmag'ur gap aytib qo'yishidan cho'chigan Elizabet, undan uzoqroqda bo'lishni ma'qul ko'rdi. Lekin baxtga qarshi stol oldiga o'tirayotib u yana onasining oldida bo'lib qoldi. Uning ledi Lukasga baland ovozda to'xtamasdan mister Bingli va qizi Jeynning yaqin orada bo'ladigan to'ylari to'g'risida gapirayotganini eshitib qoldi. Suhbat mavzusi shunchalik qiziq ediki, missis Bennet bu juftlikning kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan afzalliklarini gapirib charchamasdi. Birinchi navbatda uni xursand qiladigan narsa shu ediki, mister Bingli shunday kelishgan, shunday boy va Longbornga juda uzoq bo'lmagan joyda yashaydi. Bundan so'ng u yana berilib, mister Binglining opalari Jeynni qanchalik yoqtirib qolishganini va ular bunday qarindoshchilikdan juda xursand bo'lishlari mumkinligi haqida gapirdi. Va yana asosiysi, bu hodisa uning kichik qizlariga ham boy oilalarga kelin bo'lishlariga yo'l ochib berishi mumkin. Gapining oxirida missis Bennet ledi Lukasga u ham yaqin kelajakda o'ziga o'xshab juda baxtli bo'lishini tiladi. Sharlottaga bu gaplarni gapira turib, missis Bennet o'zining butun borlig'i bilan bu narsa ushalishi mumkin bo'lmagan orzuligini ifodalab turardi. Onasining hamma gaplarini eshitib turgan Elizabet uni jim bo'lishga, juda bo'lmaganda sekinroq gapirishga behuda harakat qildi, chunki bu gaplar onasining ro'parasida o'tirgan mister Darsiga ham eshitalayotgan edi. Uning bu urinishlari onasining jahlini chiqardi:

– Nega qo'rqishim kerak? Mister Darsi kim bo'libdi? Nima, biz undan qarzdormizmi, nega unga yoqmaydigan bir narsa deyishga qo'rqishimiz kerak?

– Onajon, xudo haqqi, sekinroq gapiring. Mister Darsini haqorat qilishning nima keragi bor? Bu bilan uning o'rtog'ida qanday taassurot qoldirasiz?

Elizabetning gaplari onasiga ta'sir qilmadi. Missis Bennet hammaga eshittirib, o'zining orzulari haqida gapirishda davom etdi va natijada Elizabet uyatdan goh qizarib, goh bo'zarib o'tirdi. U o'zining xavotiri asossiz emasligini aniqlash uchun vaqti-vaqti bilan Darsi tomonga yashirincha qarab qo'yardi. Darsi missis Bennet tomonga qaramayotgan esa-da, uning diqqati ayolga qaratilgani sezilib turardi. Borgan sari yigitning yuz ifodasi o'zgara boshladi: avvalboshda nafrat sezilib turgan bo'lsa, oxiriga borib uning yuzida qat'iy qaror qilgani sezilib turgan ifoda paydo bo'ldi.

Nihoyat, missis Bennetning gap xaltasi bo'shab, esnog'ini zo'rg'a bosgancha uning gaplariga qo'shilib o'tirgan ledi Lukas oldilariga qo'yilgan tovuq go'sh-tidan tatib ko'rish imkoniga ega bo'ldi. Elizabet o'ziga kela boshlagandek edi. Lekin nafas rostlashi juda qisqa vaqtga ekan: ovqatlanib bo'lishgach, musiqa to'g'risida gap ketdi va hamma yig'ilganlar Meridan o'z san'atini ko'rsatishni iltimos qila boshlashdi. Elizabet ko'z qarashi bilan singlisini bunday qilishdan to'xtatmoqchi bo'ldi, lekin befoyda. O'zining bor-yo'q san'atini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'lgan Meri hech narsani tushunishni xohlamadi va fortepyano yoniga o'tirdi. Elizabet bezovta bo'lgancha, ko'zini uzmasdan singlisining bir kupletdan ikkinchi kupletga o'tishini kuzatib o'tirdi. Qo'shiqning tugashi ham Elizabetga yengillik keltirmadi: uni olqishlayotganlar orasida yana qo'shiq aytib berishini so'rayotganlar borligidan mamnun bo'lgan qiz, yana yangisini boshladi. Merida jamoat oldida ashula aytadigan hech qanday iqtidor yo'q edi: ovozi kuchsiz, ijro mahorati ham yo'q. Elizabet o'zini qayerga qo'yishni bilmasdi. U bu azob Jeynga qanday ta'sir qilayotganini bilish uchun opasi tomonga o'giril-

di. Lekin Jeyn mister Bingli bilan tinchgina gaplashib o'tirgandi. Elizabet mister Binglining singillari tomonga qaradi va ularning bir-birlariga va mister Darsiga qarab imo-ishora bilan masxara qilib o'tirganlarini ko'rib qoldi. Mister Darsi esa o'zini hech narsa tushunmayotganga solib o'tirardi. Elizabet nihoyat otasi tomonga yalingannamo qarab qo'ydi: agar otasi aralashmasa, Meri o'zining qo'shig'ini tonggacha cho'zishi mumkin edi. Otasi qizi nima demoqchi bo'layotganini sezib, Meriga qarab baland ovoz bilan dedi:

– Qizalog'im, yetar endi. Quloqlarimiz maza qildi. Endi boshqa qizlarga ham yo'l ber.

Meri o'zini otasining gaplarini eshitmaganga solgan bo'lsa-da, baribir biroz noqulaylik sezdi.

O'z navbatida Elizabet ham singlisi uchun uyaylib, ham otasini noqulay ahvolga solib qo'rganidan kuyinib nima qilishni bilmasdi. Bu orada yig'ilganlar endi kim qo'shiq aytishini kutishayotgandi.

– Agar menda musiqaga qobiliyat bo'lganda edi, – gap boshladi mister Kollinz, – odamlarga ariya aytib bergan bo'lardim. Chunki men musiqani cherkov xodimi ham mashg'ul bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilxushlik deb bilaman. Albatta, musiqaga juda ko'p vaqt sarflashimiz kerak deb o'ylamayman, chunki bizning diqqatimizni jalb qiladigan ishlarimiz oshib-toshib yotibdi. Cherkov xodimining ishi qanchalik ko'pligini bilsangiz edi! Qolgan vaqti har xil cherkov taomillarini bajarish, o'z xonadonining to'kisligini ta'minlashga zo'rg'a yetadi. Bundan tashqari, u yana atrofidadigarlarga, ayniqsa, o'zining jamiyatdagi o'rnini uchun kimdan minnatdor bo'lsa, o'shalarga ham g'amxo'rlik qilishi muhimdir. Men ham o'z bekasi bilan qarindoshlik rishtalari bo'lgan shaxsga hurmat ko'rsatish majburiyatidan o'zimni olib qochmayman.

Shu bilan u mister Darsi tomonga qarab ta'zim qilganlar ekan, yig'ilganlarning yarmi eshitadigan qilib gapir-

gan nutqini tugatdi. Kimlardir mister Kollinzga tikilib qaradi, kimlardir kulib qo'ydi. Lekin uning nutqi bosh-qalarga mister Bennetga ta'sir qilganchalik kulgili tuyulmadi. Ayni vaqtda esa missis Bennet uni ma'qullab turar ekan, qo'shnisi ledi Lukasga mister Kollinzning naqadar aqlli va o'ktam yigit ekanligini gapirib berdi.

Elizabetga, agar uning barcha oila a'zolari bugun o'zlarini kulgiga qo'yishga qaror qilishgan bo'lsa, buning uchun bu kun eng qulay fursatga o'xshab tuyulayotgan edi. Mister Bingli va Jeynlarning baxtiga bu teatrning ayrim joylari insonning tentakligiga juda ham e'tibor bermaydigan yosh yigitning e'tiboridan chetda qolgan edi. Lekin mister Darsi va mister Binglining singillari uchun uning qarindoshlari ustidan maza qilib kulishga imkon yaratib berilayotgan edi. Elizabet o'ziga eng qattiq tegayotgan narsa nima: ikki ayolning ochiqdan-ochiq kulishayotganimi yoki yigitning nafrat bilan jim turishimi – ekanligini bilolmay ham qoldi.

Kechaning qolgan qismi unga hech qanday xursandchilik olib kelmadi. Mister Kollinzning ketidan yurishi joniga tekkan edi. Mister Kollinz raqs tushishga o'zi ko'ndira olmasa-da, qiz boshqa bir yigitning taklifini qabul qilishiga ham xalaqit berayotgan edi. Elizabetning uni zaldagi xohlagan qizi bilan tanishtirib qo'yishga urinishi bekor ketdi. Mister Kollinz har safar o'zi raqsni yoqtirmasligini va buning o'rniga qimmatli amakivachchasiga mehribonlik ko'rsatishni xohlayotganini aytar ekan, o'zini Elizabetning oldida ko'rsatib qo'yishga urinar edi. Shu sabab, bal oxirigacha qizning oldidan ketmaslikni afzal ko'rdi. Qiz uning bu istagiga qarshi hech narsa deya olmadi. Tez-tez ularning oldiga kelib, mister Kollinzni alahsitib turgani uchun dugonasi Sharlottadan minnatdor bo'ldi.

Elizabet bir tomondan, gapirishga intilmayotgan bo'lsa-da, yaqin atrofda aylanishib yurgan Darsidan uzoqlashayotganidan xursand edi. Uning ga-

pirmayotganini o'zining Uikxem haqidagi gaplaridan, deb bilgan Elizabet suyunib qo'ydi.

Zaldan oxirgi bo'lib longbornlik mehmonlar chiqishdi. Missis Bennetning ayyorligi sabab ularning ekipaji hamma ketib bo'lgandan so'ng chorak soat o'tgach keldi. Bu narsa ularning nezerfildliklardan biri ularning ketishini qanday sabrsizlik bilan kutayotganini bilishga yordam berdi. Missis Xyorst va singlisi o'zlarini tutishlari bilan tezroq yolg'iz qolgilari kelayotganini ko'rsatar ekanlar, faqat o'zlarining naqadar charchaganlarini aytish uchungina og'iz ochardilar. Ular ochiqchasiga missis Bennetning gapga tutishidan o'zlarini olib qochar edilar. Bu vaziyatni mister Kollinzning mister Bingli va uning opalariga maqtov so'zlari, endigina tugagan ziyofatning to'la-to'kisligi, uy egalariining mehmondo'stligi to'g'risidagi gaplari yumshatib turardi. Mister Darsi jim edi. Mister Bennet ham ko'z oldida bo'layotgan hodisalardan «zavqlanib» jim turardi. Mister Bingli bilan Jeyn esa boshqalardan nariroqda, bir-birlari bilan gaplashib turishardi. Elizabet missis Xyorst va miss Binglidan ham ko'ra battarroq sukutda edi. Hatto, Lidiya ham og'zini ochib esnagancha, «Voy, xudoyim, biram charchadimki», deyishdan nariga o'tolmasdi.

Axiri hammalari ketishga otlanganlarida missis Bennet nezerfildliklar agar vaqt topib Longbornga borishsa, juda xursand bo'lishlarini bildirdi. U asosan mister Bingliga qaragancha, o'z dasturxonlarini hech qanday rasmiyatsiz u va uning yaqinlari bilan baham ko'rishdan juda mamnun bo'lajaklarini ta'kidladi. Mister Bingli unga chin dildan minnatdorchilik bildirdi va ertasi kuni Londonga ish yuzasidan qilmoqchi bo'lgan qisqa safaridan qaytib kelgach, imkoniyat tug'ilishi bilan ularnikiga borishga va'da qildi.

Missis Bennet bo'lib o'tgan baldan juda mamnun edi. Nezerfilddan jo'nab ketar ekan, u katta qizining

to'y sarpolarini tayyorlashga, uy jihozlashga va yangi ekipajlar sotib olishga ketadigan uch-to'rt oydan so'ng bu yerga ko'chib o'tishiga katta umid bog'layotgandi. Xuddi shuningdek, u ikkinchi qizining ham yaqin orada turmushga chiqishiga amin edi. Bu nikohga ishonch ham, Jeynnikichalik bo'lmasa-da, ayolga juda quvonch keltirayotgan edi. Missis Bennet Elizabetni barcha qizlaridan ko'ra kamroq suyardi. Albatta, uning mister Kollinz va uning uyiga nisbatan hech qanday qarshiligi bo'lmasa-da, mister Bingli va Nezerfild bilan tenglasha olmasdi.

XIX bob

Ertasi kuni Longbornda muhim voqealar sodir bo'ldi: mister Kollinz mister Bennetning ikkinchi qizining qo'lini so'rab, rasmiy taklif qildi. Uning Longbornda bo'lish vaqti kelasi shanba kuni tugayotgan bo'lib, vaqtini bekor o'tkazmaslikka qaror qildi. Kollinzga uyalish hissi yot edi, shuning uchun hissiyotlarini o'zining lug'atidagi eng ajoyib so'zlar bilan ifodaladi.

Nonushtadan so'ng missis Bennetning Elizabet va yana kichik qizlaridan biri bilan o'tirganini ko'rib, uy bekasiga murojaat qildi:

– Xonim, agar men go'zal qizingiz Elizabetdan men bilan yolg'iz suhbatlashishni taklif qilsam, siz unga o'z gapingizni o'tkaza olasizmi?

Missis Bennetning javobidan Elizabet, hatto qizarishga ham ulgurmadi:

– Voy, xudoyim! Albatta! Albatta! Men ishonamanki, Lizzi sizning gaplaringizni bajonidil eshitishga tayyor. Uning hech qanday qarshiligi bo'lishi mumkin emas. Kitti, qizginam, yur, sen menga tepada kerak bo'lasan.

Bu gaplarni gapira turib missis Bennet tikayotgan narsalarini olib chiqishga hozirlanar ekan, Elizabet uni to'xtatishga harakat qildi:

– Iltimos, yalinaman, bu yerdan ketmanglar. Mister Kollinz meni kechirsin. U menga bu uydagi odamlar eshitishi mumkin bo'lmagan hech narsa aytmaydi. Yaxshisi, men o'zim ketaman.

– Qanday tentaklik! Menga bu xonada sening qo'lishing kerak! – missis Bennet o'zini yo'qotib qo'ygan Elizabet rostdan ham xonadan chiqib ketishi mumkinligini ko'rib, qo'shib qo'ydi: – Lizzi, men sening shu xonada qolib, mister Kollinzning gaplarini eshitingingni talab qilaman!

Bunday buyruqni buzishga Elizabetning yuragi betlamadi. Biroz o'ylab ko'rgach, bu ishni tezroq va ortiqcha shovqin-suronsiz hal qilish ma'qulroqligini tushunib, qaytib joyiga o'tirdi va tikayotgan ishini qo'liga oldi. Uning ham yig'lagisi, ham kulgisi kelayotgan edi. Missis Bennet va Kitti xonadan chiqishlari bilan mister Kollinz gap boshladi:

– Azizam miss Elizabet, ishonimg, sizning kamtarligingiz menda yomon taassurot qoldirish emas, sizning mukammal inson ekanligingizdan darak beryapti. Agar siz men bilan bu suhbatga rozilik bildirmaganingizda edi, balki siz menga hozir bunchalik jozibali bo'lib ko'rinmagan bo'lardingiz. Faqat bir narsani oldindan aytib qo'yishga ruxsat bering: men siz bilan gaplashib olishdan avval onangizning ruxsatini olganman. O'zingizning uyatchanligingizdan kelib chiqib, balki mening maqsadimni yaxshi tushunmassiz. Aslida esa, men sizga o'zimning tanlovimni yaqqol sezdirishga harakat qildimki, siz buni sezmagani bo'lishingiz mumkin emas. Eshigingizga birinchi kelgan kunimdanoq sizni ko'rib, mening kelajakda umr yo'ldoshim bo'lishingizni his qilganman. Lekin hozir men o'zimning yonib turgan hissiyotlarim haqida gapirishdan oldin, nega o'zimga umr yo'ldoshi tanlash uchun men ayni Xartfordshirga kelganim sabablarini aytib o'tsam.

Amakivachchasi o'zining yonib turgan hissiyotlariga erk berishini ko'z oldiga keltirgan Elizabet, o'zini zo'rg'a kulgidan tiyib qoldi. Shu sabab, u mister Kollinzni o'z hissiyotlari haqida gapirishdan to'xtatib qolishga ulgura olmadi:

– Demak, birinchidan, menga o'xshagan moliyaviy jihatdan o'ziga to'q har bir cherkov xodimi o'z prixodida hamma uchun o'rnak bo'la oladigan oilaparvar bo'lishi kerak. Ikkinchidan, men aniq ishonamanki, bu qo'yilayotgan qadam meni yana ham baxtliroq qiladi. Va oxiri, uchinchidan, balki buni birinchi o'ringa qo'ysam to'g'riroq bo'lardi, men o'zimning bekam deb ataydigan oliyanob bir ayolning maslahatlariga quloq solyapman. U ayol (men undan iltimos qilmasam-da) ikki marta bu masala yuzasidan o'z fikrlarini aytdi. Hatto shanba kuni, men bu yerga kelishim arafasida, missis Jenkinson ikki raqs o'rtasida miss de Byorning oyoqlari tagidagi stulchani to'g'rilab qo'yayotganda, ledi Ketrin menga: «Mister Kollinz, siz uylanishingiz kerak. Siz kabi cherkov xodimi albatta uylangan bo'lishi kerak. Aql bilan, o'zingizga mosini tanlang. Albatta, mening didimni ham hisobga oling. Tarbiyali, toza, erkato'y bo'lmagan va berilib ishlaydigan va kam oylikni ham ro'zg'orga yetkaza oladigan qiz bo'lishi kerak. Men sizga shuni maslahat beraman. Tezroq o'zingizga mosini toping, uni Xansfordga olib keling va men uni ko'rgani boraman», – degan. Shu o'rinda, aziz qarindosh, ledi Ketrin de Byorning menga e'tibori va hurmatini o'zim sizga hozir qo'shqo'lib topshirmoqchi bo'lgan boshqa narsalarning oxiriga qo'ymoqchi emasman. U bilan tanishgach, bu ayolning men sizga ta'riflagandan ham afzalroq ekanligiga o'zingiz amin bo'lasiz. Va men umid qilamanki, sizning uning yuqori tabaqadagi o'rni qarshisida albatta anchagina yumshaydigan o'tkirligingiz va harakatchanligingiz unga yoqadi. Mana, meni uylanishga unday-

digan sabablar. Endi menga yana bir narsani, ya'ni men o'zimga juft tanlashda nima uchun yaxshi qizlar tiqilib yotgan Xansford atrofidagi qishloqlarga emas, Longbornga kelganim sababini aytish qoldi. Hamma gap shundaki, sizning hurmatli otangiz vafot etgach (albatta, hali ko'p yashasin!) uning yer-mulki menga meros qoladi. Bu boradagi andishamdan kelib chiqib, men uning qizlaridan birini o'zimga xotin qilib olishga qaror qildim. Men xohlardimki, oila a'zolarinigiz ushbu, hali men aytib o'tganimdek, hali-beri sodir bo'lmaydigan g'amgin voqea sodir bo'lgan holda undan juda ham azob chekishmasin. Mening rejalarim ana shular va umid qilamanki, bular sizning ko'z oldingizda mening obro'yimni to'kib qo'ymaydi. Endi faqat o'zimning sizga nisbatan bo'lgan chuqur hissiyotlarimga ishontirish qoldi. Mening pul bilan ishim yo'q va bu borada otangizga hech qanday tama ham qilmoqchi emasman, chunki bilamanki, foydasi yo'q. Men yana shu narsadan xabardormanki, sizning kelajakdagi bor-yo'q merosingiz hurmatli onangiz missis Bennetning o'limidan keyingina egalik qilishingiz mumkin bo'lgan bir yillik to'rt foiz foydadan keladigan bir ming funtginadir. Men bu borada baliqdek soqov bo'laman va bir umr mening og'zimdan hech qanday ta'na eshitmaysiz.

Mister Kollinzni nima qilib bo'lsa ham, to'xtatish kerak edi:

– Ser, siz shoshilyapsiz! – jahl bilan dedi Elizabet.
– Men hali sizga rozilik bermaganimni unutdingiz, shekilli. Menga tezda shu ishni qilishimga ruxsat bering. Ser, menga ko'rsatgan e'tiboringiz uchun sizdan juda minnatdorman. Sizning bu taklifingiz men uchun qanchalik sharaf ekanligini juda yaxshi tushunaman, lekin men rad etishga majburman.

– Men yosh qizlarning ularning qo'lini birinchi marta so'rashganda, o'zlari ichida rozi bo'lib tursa-

larda, rad javobi berishlari to'g'risida ko'p eshitganman. Ba'zi hollarda ikkinchi, hatto uchinchi hollarda ham rad javobini qaytarishadi. Shuning uchun sizning javobingizdan men hech ham xafa emasman va chin ko'ngildan umid qilamanki, yaqin kelajakda men sizni muqaddas mehrobga olib boraman.

– Ammo mening rad javobimdan so'ng sizning yana umid qilishingiz menga asosli bo'lib ko'rinmayapti. Men sizni ishontirib aytamanki, men (agar shundaylar bo'lsa) yana ikkinchi marta taklif qilinishini kutib, o'z baxtini garovga qo'yadigan qizlar toifasiga kirmayman. Mening sizga javobim jiddiy. Siz meni baxtli qila olmaysiz va menimcha, dunyodagi qizlar ichida ayni men sizdek insonni baxtli qila olmayman. Ikkilanmasdan aytishim mumkin, agar do'stingiz ledi Ketrin meni yaxshi bilsa, u sizning tanlagan qizingizni ma'qullamagan bo'lardi.

– Nahotki, ledi Ketrin sizga shunday munosabatda bo'lgan bo'lardi? – jiddiylilik bilan dedi mister Kollinz. – Men sizning zoti oliylariga yoqmasligingizni tasavvur qila olmayman. Bemalol ishonishingiz mumkinki, men uni uchratganimda sizning kamtarligingizni, uy ishlariga uquvingiz zo'rli va boshqa ijobiy sifatlaringizni oshirib aytaman.

– Yo'q-yo'q, mister Kollinz, mening sharafimga aytdigan maqtov so'zlaringiz bekor ketadi. Taqdirimni o'zim hal qilishimga ijozat bering va mening gaplarimga ishonavering. Men chin dildan sizga baxt va boylilik tilayman, sizga turmushga chiqishga rad javobim bilan bu tilaklarim ro'yobga chiqishiga yo'l ochib bergan bo'laman. Mening roziligimni so'rayotib, bizning oilamiz to'g'risidagi o'z andishangizni yig'ishtirib qo'ysangiz bo'lardi. Endi esa, payti kelib Longbornimiz sizning qo'lingizga o'tganda uyalmasdan bemalol egalik qilishingiz mumkin. Shunday qilib, bu masalani hal bo'ldi, deb hisoblayverishingiz mumkin.

Shu soʻzlar bilan Elizabet xonani tark etishga chogʻlanar ekan, mister Kollinz yana gapirib qoldi:

– Kelasi safar men yana bu mavzuda gapirish sharafiga muyassar boʻlganimda, umid qilamanki, siz menga hozir berayotgan javobingizdan koʻra yaxshiroq javob olaman. Shu bilan birga, sizlarning jinsingiz vakillari erkaklar ularning qoʻllarini soʻrashganda rad javobini berishlari odatiy hol ekanligini bila turib, men sizni hissizlikda ayblashdan yiroqman. Buning aksi, siz menga umid bagʻishladingiz.

– Siz meni juda qiziq ahvolga solib qoʻyyapsiz, – hayajon bilan dedi Elizabet. – Agar mening bu javobim sizga umid bagʻishlagan boʻlsa, sizni oʻzimning rad javobimga ishontirish uchun nima deyishim kerakligini tasavvur ham qila olmayapman.

– Azizam, siz menga faqat ogʻizdagina rad javobi berdingiz deb oʻzimni ishontirishga ruxsat bering. Qisqasini aytganda, men quyidagi sabablarga koʻra bunga aminman. Mening sizga mos emas yoki men sizga taklif qilayotgan shartlar sizni qoniqtirmaydi, degan fikr hatto xayolimda ham yoʻq.

Bu borada mening jamiyatda tutgan oʻrnim, de Byorar oilasi bilan tanishligim va sizlarning oilangiz bilan qarindoshligim yoʻl ochib turibdi. Va sizning bor ajoyib fazilatlaringizga qaramay, sizda endi bundan buyon turmushga chiqish uchun boshqa sharoit boʻlmashligini yaxshi tushunishingiz kerak. Sepingizning arzimashligi sizning goʻzalligingiz va boshqa ijobiy sifat-laringizning kuchini kamaytiradi. Shuning uchun siz ichingizda menga rad javobi bermoqchi emassiz, deb hisoblayman. Sizning javobingiz barcha kelishgan ayollarga xos oliftagarchilik qilib, mening hissiyotlarimni yana ham yoʻlqinlatish xohishi deb oʻylayman.

– Ser, men bir jiddiy insonning hissiyotlarini oʻyin qilib, muvaffaqiyatga erishmoqchi emasman. Siz mening samimiyligimga ishonishingizni xohlardim.

Yana bir marta menga ko'rsatgan e'tiboringiz uchun minnatdorchilik bildiraman, lekin sizning taklifingizni qat'iy qabul qila olmayman. Men butun vujudim bilan bunga qarshiman. Tushuntira oldimmi? Menga sizni o'ziga qaratishga harakat qilayotgan erkatoyni qizga qaraganday qarashni bas qiling! Oldingizda chin yurakdan haqiqatni gapirayotgan jonzot turganini ko'rishga harakat qiling.

– Juda ajoyibsiz, gap yo'q! – o'rinsiz o'ktamlilik qildi mister Kollinz. – Men aminmanki, ota-onangiz mening taklifimni ma'qullashganda, siz bunga xayrixohlik bilan qaraysiz.

Elizabet mister Kollinzning o'zbilarmonligini sal bo'lsa-da, o'zgartirishga kuchi yetmasligini tushundi va agar u bundan keyin ham o'zining rad javobini noto'g'ri tushunishda davom etaveradigan bo'lsa, otasiga aytib berishga qaror qildi. Otasi esa unga bu rad javobi erkatoyni qizning nozi emasligini albat-ta yaxshilab tushuntirib qo'ya oladi.

XX bob

Mister Kollinz o'zining muhabbat bobidagi xayollariga ko'p berila olmadi: kiraverishdagi xonada missis Bennet orada bo'lib o'tgan suhbat natijasini kutib o'tirardi. Qizi eshikni ochib, uning oldidan yugurib o'tar ekan, mister Kollinzning oldiga kelib, uni va o'zini yaqin orada o'zlari o'rtasida o'rnatiladigan qarindoshchilik aloqalari bilan tabriklay boshladi. Mister Kollinz uning bu gaplarini eshitib, shunchalik qiziqqonlik bilan javob qaytardi va orada bo'lib o'tgan suhbatni ipidan ignasigacha gapirib berdi va o'zining bu suhbatdan qoniqish hosil qilganini bildirdi. Haqiqatan ham, u amakivachchasining qat'iy rad javobini uning uyatchanligi va qalbining nozikligidan, deb tushunayotgan edi.

Bu xabar missis Bennetni xavotirga solib qo'ydi. U rostdan ham, Elizabet mister Kollinzning taklifiga yigitning hissiyotlarini yanada yolqinlantirish uchun rad javobi bergan, degan gapga ishongisi keldi. Lekin ich-ichidan bu gapga o'zi ham ishonmayotgan va xavotirini ham yashira olmayotgan edi.

– Lekin menga ishonavering, azizim! – dedi u. – Men uning aqlini kirgizib qo'yaman. Hozir borib u bilan ochiqchasiga gaplashaman. Tentak qiz – o'zining baxti ochilayotganini tushunmayapti. Lekin men unga o'rgatib qo'yaman.

– Kechirasiz, shu yerda sizning gapingizni bo'lishimga to'g'ri keladi. Agar qizingiz rostdan ham o'jar va injiq bo'ladigan bo'lsa, bu nikohdan oilaviy xotirjamlik kutayotgan mening darajamdagi odamga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun u bundan keyin ham mening taklifimni rad qilaversa, balki uni majbur qilish kerak emasdir? Qo'rqamanki, bunday qusurlar bilan u meni baxtli qila olmaydi.

– Ser, siz meni noto'g'ri tushundingiz, – shoshapisha dedi xavotirga tushib qolgan missis Bennet. – Lizzi faqat shunday hollardagina o'jar bo'lib qoladi. Boshqa paytlarda esa dunyodagi eng yumshoq qiz. Men hozir mister Bennet bilan gaplashaman va mana ko'rasiz, hamma narsani hal qilamiz.

Mister Kollinzning javobini ham kutmay, u yugura erining xonasiga qarab ketdi va kutubxonaning eshigidanoq gap boshladi:

– Mister Bennet, siz menga hoziroq yordam berishingiz kerak! Hammamiz o'zimizni yo'qotib qo'ydik. Choping tez, Lizzini mister Kollinzga turmushga chiqishga ko'ndiring, chunki u buni aslo xohlamayapti. Agar siz bu ishga hoziroq kirishmasangiz, u aynib qolishi mumkin va qizimizga uylanmaydi.

Mister Bennet xotini kirib kelganda o'qiyotgan kitobidan boshini ko'tardi va uning xabaridan

xavotirga tushganini hech ham sezdirmagan holda, xotiniga sovuqqina qaradi:

– Azizam, afsuslar bo'lsinki, men siz aytgan gaplarning mohiyatini tushunmadim. Nima haqida gapirayapsiz?

– Mister Kollinz va Lizzi haqida. Lizzi unga turmushga chiqmasligini aytdi, mister Kollinz esa endi unga uylanmasligi to'g'risida gapiryapti.

– Xo'sh? U holda men nima qilishim kerak? Bu ishdan hech nima chiqmaydiganga o'xshaydi.

– Siz Lizzi bilan gaplashishingiz kerak. Undan mister Kollinzga turmushga chiqishini talab qiling.

– Yaxshi, qani, uni chaqiring-chi. Men unga o'z fikrimni aytaman.

Missis Bennet qo'ng'iroqni chalib, Elizabetning kutubxonaga kelishini so'radi.

– Qizim, qani bu yoqqa kel-chi, – dedi otasi qizi kirgach. – Men seni muhim bir ish yuzasidan chaqirtirdim. Tushunishimcha, mister Kollinz sendan o'ziga turmushga chiqishingni so'rayapti. To'g'rimi?

Elizabet tasdiq ishorasini qildi.

– Yaxshi. Sen esa rad qildingmi?

– Ha, ser.

– Yaxshi. Endi asosiy gapga o'tamiz. Onang sen bu taklifni qabul qilishingni talab qilyapti. Shundaymi, missis Bennet?

– Ha, shunday. Yo'qsa, mening bunday qizim yo'q!

– Demak, qizim, sening sharoiting hozir juda og'ir. Shu daqiqadan boshlab sen yoki mendan yoki onangdan ayrilasan. Agar sen Kollinzga turmushga chiqmaydigan bo'lsang, onang sendan kechadi, agar unga turmushga chiqadigan bo'lsang, men seni ko'rishni istamayman.

Elizabet shunday tantana bilan boshlangan suhbatning bunday tugaganidan o'zini jilmayishdan tutolmadi. Lekin erining uning yonini olishiga

ishonchi komil bo'lgan missis Bennet esa nima qilishni bilmay qoldi:

– Mister Bennet, bu bilan nima demoqchisiz? Axir siz menga, qizingizni unga turmushga chiqishga majbur qilaman, deb va'da bermaganmidingiz?

– Azizam, – javob berdi mister Bennet, – mening sizga ikkita kichkina iltimosim bor. Birinchidan, meni o'z qarorimdan qaytarishga urinmang, ikkinchidan, xonamda yolg'iz qolishni istayman. Agar kutubxonani iloji boricha bo'shatib qo'ysangiz, juda xursand bo'lardim.

Eridan hafsalasi pir bo'lgan bo'lsa-da, missis Bennet qo'l ko'tarishni xohlamasdi. U Elizabet bilan qayta-qayta, goh urishib, goh yalinib gaplashib ko'rdi. Jeyndan madad kutib, unga gapirib ko'rdi, lekin Jeyn o'ziga xos bo'lgan muloyimlik bilan bu ishga aralashishdan bosh tortdi. Elizabet onasining gaplariga goh hazil qilib, goh jiddiy qilib javob berdi. Lekin u rad javobini qanday ko'rinishda bermasin, ma'nosi bitta edi.

Bu orada mister Kollinz yolg'iz o'zi bugun ertalab u bilan sodir bo'lgan voqeani tahlil qilib ko'rdi. Yigit amakivachchasining rad javobi sababini tushunishga qodir emas, chunki o'zi haqida juda yuqori fikrda edi. Bu uning hamiyatiga tekkan bo'lsa-da, xafa bo'lmadi. Elizabetga bo'lgan munosabati uning o'zi haqidagi tasavvurining mahsuli edi. Onasining Elizabetga qilgan ta'nalari o'rinli bo'lishi mumkinligini faraz qilib, u hech narsaga achinmadi.

Sharlotta Lukas ularnikiga kelganda, missis Bennetning oilasida janjal avjida edi. Yo'lakda uni Lidiya kutib olar ekan, Sharlottaga qattiq shivirlab dedi:

– Yaxshiyam kelding. Uyimizda shunday ishlar bo'lyaptiki! Bilasanmi, bugun ertalab nima bo'ldi? Mister Kollinz Elizabetdan unga turmushga chiqishini so'radi, u esa rad qildi!

Sharlotta hali javob berishga ulgurmay, xuddi shu yangilikni aytib, xonaga Kitti kirib keldi. Qizlar onalari yolg'iz o'tirgan xonaga nonushta qilishga kirishganda, missis Bennet yana shu mavzuda gap ochdi. U Sharlottaning yordamiga umid qilib, undan dugonasini oilaning orzusiga qarshi chiqmaslikka ko'ndirishga urinib ko'rishini iltimos qildi.

– Xudo haqqi, azizam miss Lukas, shunday qilgin, – ezilib qo'shib qo'ydi. – Meni hech kim qo'llab-quvvatlamayapti. Hech kimning menga rahmi kelmayapti, hamma o'zini shafqatsizlarcha tutyapti. Birortasi mening tamom bo'lgan asablarimni o'ylasa-chi!

Jeyn va Elizabetning kirib kelishi Sharlottaning missis Bennetga javob qaytarishiga xalaqit berdi.

– Mana, uning o'zi. Parvoyifalak. Xuddi biz ham-mamiz Yorkning qayeridadir yashaydigandek, biz bilan ishi yo'q. Faqat unga tegmasak bo'ldi! Lekin azizam miss Lizzi, aytib qo'yay, bundan buyon ham sizning qo'lingizni so'raydigan yigitlarning ham-masini rad qilaversangiz, hech qachon erga tega olmaysiz! O'lay agar, otangiz vafot etadigan bo'lsa, bilmadim, siz haqingizda kim qayg'urarkin? Shuni yodda tutingki, mening bunga kuchim yetmaydi. Bugundan boshlab siz men uchun yo'qsiz. Bu haqda sizga kutubxonada aytgandim – endi men siz bilan gaplashmayman. Mana ko'rasiz, men gapimda tura olaman. Yaxshilikni bilmaydigan qiz bilan gaplashishning nima hojati bor! Umuman, nima uchun birov bilan gaplashishim kerak? Asabi chatoq ayollar juda ham gaplashishni yoqtirishmaydi. Mening qanday azob chekishimni hech kim tushunmaydi! Bunga ajablanishning hojati yo'q. Boshidan o'tkazmagan odam buni tushunmaydi.

Qizlar onasining gaplarini churq etmay eshiti-shardi, chunki uni to'xtatishga bo'lgan har bir harakat onaning battar jahlini chiqarardi. Shuning

uchun xonaga mister Kollinz kirib kelmaguncha, missis Bennet o'zining taqdiridan nolishni davom ettirdi. Yigit avvalgidan ham kekkayib olgan edi. Uni ko'rib, missis Bennet qizlariga qarab dedi:

– Endi men mister Kollinz bilan dildan gaplashib olmoqchiman. Hammangiz, ha, ha, hammalaringiz tilingizni tiyib o'tiring va bizga xalaqit bermang.

Elizabet xonadan chiqib ketar ekan, Jeyn va Kitty ham uning orqasidan ergashishdi, Lidiya esa gapga quloq solish uchun o'rnidan jilmadi. Sharlotta bo'lsa, undan butun qarindoshlari va o'zining ahvolini so'ragan mister Kollinzning savollariga javob berish uchun ushlanib qoldi va yana qiziqishi ustun kelib, o'zini xuddi u yerdan hech narsa eshitilmaydigandek tutib o'tirdi.

Missis Bennet ezilgan tovush bilan oldindan tayyorlab qo'yan gaplarini gapira boshladi:

– Mister Kollinz!

– Xonim, – dedi yigit, – bu mavzuga boshqa qaytmaymiz. Men qizingizning gaplariga xafa bo'lishdan yiroqman, – shunday deyayotgan bo'lsa-da, yigitning gap ohangidan noroziligi sezilib turardi. – Bo'ladigan hamma ko'ngilsizliklarga bosh egish – bizning burchimiz. Bu, ayniqsa, men kabi jamiyatda tutgan o'rni ko'tarilayotgan yigit uchun xos narsadir. Shuning uchun ham men o'zimni ko'ngilsizliklarga bo'ysunishga majbur qilaman. To'g'ri, mening xayolimga yana bir fikr keldi – agar amakivachcham rozi bo'lgan taqdirda ham, men u bilan baxtli bo'larmidim? Umid qilamanki, xonim... men uning ota-onalarining emas, qizingizning javobidan kelib chiqib, o'zimni ozod deb hisoblashim... Lekin biz hammamiz ham adashishimiz mumkin. Har holda, mening rejalarim yaxshilik yo'lida edi. Men o'zimga aqlli umr yo'ldoshi tanlamoqchi va ayni paytda sizlarning oilangizga yaxshilik qilmoqchi

edim. Agar mendan qandaydir xatolik o'tgan bo'lsa, sizdan kechirishingizni o'tinib so'rayman.

XXI bob

Mister Kollinzning sovchilikka kelishi bilan bog'liq hayajonlar nihoyasiga yetdi. Elizabet endi faqatgina bu voqeadan keyingi g'ashlik va onasining goh-goh ming'irlab qo'yishlaridan siqilardi. Mister Kollinzning o'ziga kelsak, u bo'lib o'tgan hodisalardan xafaga ham o'xshamasdi va amakivachchasidan o'zini olib qochishni xayoliga ham keltirmas, o'z noroziligini esa indamay yurish bilan bildirardi. U Elizabet bilan umuman gaplashmay, kuni bo'yi butun diqqatini miss Lukasga qaratdi. Sharlotta esa yigit bilan suhbatlashib o'tirib, dugonasiga va butun oilaga tengsiz yaxshilik qilayotgandi.

Kelgusi kun ham missis Bennetning na kayfiyatini va na sog'lig'ini tuzatdi. Mister Kollinz butun yurish-turishi bilan uning nafsoniyatiga tegishganini bildirar edi. Elizabet uning bu alami uni tezroq Longborndan jo'nab ketishga majbur qiladi, deb umid qilayotgandi. Lekin mehmon o'z rejasini o'zgartirmagan, ayni shanba kuni jo'nab ketmoqchi edi.

Nonushtadan so'ng qizlar Uikxemni ko'rish va u nega Nezerfildagi ziyofatga bormaganini bilish uchun Meritonga jo'nab ketishdi. Yigit ularni shahar chetida uchratib qoldi va birga missis Filipsnikiga bordi. U yerda uning nega balda qatnasha olmagani, juda ham afsusda ekanligi va qizlarning ham bundan xafa bo'lganliklarini qizishib muhokama qilishdi. Elizabet bilan bo'lgan xoli suhbatda esa unga bo'lmaganing sababini biroz oshirib gapirganini aytdi:

– Balga bir necha kun qolganda, men u yerga yaxshisi bormasligim kerakligini tushundim, – dedi Uikxem. – U bilan bir xonada birga uzoq o'tira ol-

masdim. Bu esa unga ham, menga ham yaxshilik keltirmasdi.

Elizabet uning bu qarorini ma'qulladi. Mister Uikxem va uning yana bir do'sti ularni Longbornga kuza-tib qo'yishar ekan, Elizabet va yigit bu haqda to'yguncha gapirishib ketishdi. Yo'lda yigit Elizabetga alohida e'tibor ko'rsatib ketdi. Uning qizni uyigacha kuzatib qo'yishga tayyorligi qizni ikki tomonlama xursand qilayotgan edi: birinchidan, o'z-o'zidan bu unga yo-qayotgan va ikkinchidan, Uikxemni uyidagilar bilan tanishtirish uchun bu qulay fursat edi.

Ular qaytib kelishgandan biroz vaqt o'tgach, Nezerfilddan katta miss Bennetga xat olib kelishdi. Xat o'sha zahotiyoq ochildi. Konvertda ayol qo'li bi-lan oppoq qog'ozga chiroyli qilib bitilgan maktub bor edi. Opasi ba'zi bir joylarida to'xtab, xatni o'qir ekan, Elizabet uning yuzi o'zgarib borayotganini ko'rdi. Xatni o'qib bo'lgach, Jeyn uni yashirib qo'yib, o'zini qo'lga olgancha suhbatga qo'shildi. Lekin maktub Elizabetni shunchalik qiziqtirib qo'ygandiki, u Uik-xemni ham esidan chiqardi. Yigit do'sti bilan jo'nab ketishi bilan, Jeyn ko'z qiri bilan singlisini xonasiga chaqirdi-da, kirishgach, xatni qo'lga olib, dedi:

– Xat Kerolayn Binglidan. Ochig'ini aytsam, u meni hayron qoldirdi. Ular Nezerfilddan Londonga jo'nab ketishganmish. Va bu yerga boshqa qaytib kelishmas emish. Mana, eshit, bu yerda nima deb yozilgan.

U xatning opa-singillar akalari ketidan London-ga ketishga qaror qilganliklari haqidaligini aytib, bugun mister Xyorstning Grovnor-stritdagi uyida tushlik qilmoqchi ekanliklari to'g'risidagi joyini o'qib berdi. Davomi esa bunday edi: *«Aziz dugonajon, Xartfordshirdan ketayotib, men faqat sizdan uzoq-lashayotganimgagina achinayapman. Lekin umid qilamanki, bir kun kelib siz bilan yana ko'rishamiz. Hozir esa ayriliqning og'rig'ini tez-tez xat yozib turish*

bilan olamiz. Sizdan xat kutib qolaman». Bu yolgʻon va balandparvoz gaplarni Elizabet beparvolik bilan eshitdi. Uni Binglilarning toʻsatdan joʻnab ketishlari hayron qoldirayotgan boʻlsa-da, bu xatda xavotir oladigan hech nimani koʻrmadi. Bundan miss Bingli va missis Xyorstlarning yoʻqligi yigitning Nezerfeldga kelishiga xalaqit beradi, degan fikr chiqmasdi. Bu ayollar bilan ayriliqni esa Jeyn mister Bingli bilan birga oʻtkazadigan damlar sezdirmaydi, – ikkilanmay xulosa qildi Elizabet.

– Albatta, ular bilan xayrlashmay qolganing achiqarli, – dedi u biroz sukutdan soʻng. – Lekin miss Bingli aytayotgan baxtli uchrashuv u faraz qilayotganidan tezroq yuz berishi mumkin emasmi? Va sizlar dugona boʻlganingizdagidek yaqinlik sizlar opa-singilga aylanganingizdan keyin yana ham yoqimliroq boʻlmaydimi? Axir ular Binglini Londonda ushlab qolishmas.

– Kerolayn ulardan hech kim bu qish Xartfordshirga qaytib kelmasligini aniq yozyapti. *«Akam ketayotib uning Londonga borishini taqozo qilayotgan ishni nihoyati uch kunda bitirishini aytgandi. Lekin bunday emasligini biz juda yaxshi bilamiz. Uning shaharga kelgandan keyin qaytib ketishga shoshilmasligini bilib, biz ham uning mehmonxonada yolgʻiz oʻzi oʻtirmasligi uchun uning ketidan ketishga qaror qildik. Mening koʻp tanishlarim qishni oʻtkazish uchun shaharga ketishayapti. Dugonajon, men sizning ham ular qatorida boʻlishingizni xohlardim, lekin esiz, buning iloji yoʻq. Umid qilamanki, Rojdestvo bayrami sizlarga Xartfordshirda yaxshiliklar olib keladi va sizning doʻstlaringizning koʻpligi biz sizdan ayirayotgan uch odamning yoʻqligini sezdirmaydi».*

– Bu gaplardan koʻrinib turibdiki, bu qish u qaytib kelmaydi.

– U miss Binglining fikricha qaytib kelmasligi koʻrinib turibdi, – dedi Elizabet.

– Lekin sen nega bunday deb o‘ylayapsan? Bu uning o‘zining ishi, o‘ziga o‘zi xo‘jayin, demoqchimisani? Sen hali hammasini eshitganing yo‘q. Hozir menga ayniqsa, tekkan joyini o‘qib beraman. Sendan hech narsani yashirmoqchi emasman:

«Mister Darsi singlisini juda ham ko‘rgisi kelib ketayapti, ochig‘i, buni biz ham undan kam xohlamayapmiz. Men hech kim Jorjiana Darsi bilan na chiroy, na noziklik va na boshqa narsalarda tenglasha olmaydi, demoqchi emasman. Lekin u bizda o‘ziga nisbatan uyg‘otgan mehrdan kelib chiqib, bir kun kelib biz bilan opa-singil bo‘ladi, deb umid qilamiz. O‘zimizning rejalarimiz haqida gapirganimizmi yoki yo‘q, yodimda emas, lekin biz sizga bu narsani aytmasdan ketishni xohlamasdik va ishonamanki, siz bizni noto‘g‘ri tushunmaysiz. Akam oldin ham miss Darsidan hayratda edi. Endi esa unda bemalol uchrashib turish imkoni bo‘ladi. Uning hamma qarindoshlari va akamning yaqinlari ham shuni xohlashadi. Va qarindoshlik tuyg‘ularim meni aldamayotganiga umid qilib, men Charlz xohlagan ayol ko‘nglini zabt qila oladi, deb ishonaman. Hech qanday xalaqit beradigan narsa bo‘lmagani holda mazkur nikohning bo‘lishini ta‘minlovchi hamma sharoit bo‘lib turganini hisobga olib ko‘pchilikka baxt keltiradigan bu narsadan umid qilishim mumkinmi?»

– Lizzi, azizam, bu gapga nima deysan? Yetarli darajada tushunarli emasmi? – xatni bukklar ekan, so‘radi Jeyn. – Axir, Kerolayn meni singil qilishni xohlamayotgani va bu narsa bo‘lishi mumkin emasligini ochiq aytmayaptimi? Mister Binglining menga nisbatan befarqligiga aniq ishonib va mening akasiga bo‘lgan tuyg‘ularimni sezib, meni ogohlantirib qo‘ymoqchimi? Buni boshqacha tushuntirib bo‘ladimi?

– Ha va juda oson. Men, masalan, boshqacha o‘ylayapman. Nimaligini aytaymi?

– Xudo haqqi, ayta qolgin.

– Qisqagina qilib aytishim mumkin. Miss Bingli akasi seni yoqtirib qolganini ko'rib turibdi, lekin uning miss Darsiga uylanishini xohlaydi. Akasini Londonda ushlab tura olishiga umid qilib, uning ketidan ketadi va senga esa bunaqa xat yozadi.

Jeyn boshini silkitib qo'ydi.

– Jeyn, jonginam, menga ishon! Ikkovingizni birga ko'rgan odamlardan hech kim uning senga nisbatan bo'lgan tuyg'ulariga shubha qilmaydi. Miss Binglining ham bunga aqli yetadi. Agar o'zi mister Darsida shunday tuyg'uning zarrachasini sezganida allaqachon nikoh ko'ylagiga buyurtma berib qo'ygan bo'lardi. Gapning indallosi shuki – biz ular uchun yetarli darajada boy va tagli-zotli emasmiz. Miss Binglining akasini miss Darsiga uylantirishdan maqsadi, bunday qilgan taqdirda ikkinchi – o'zining maqsadiga yetishi oson bo'lgan bo'lardi. Juda ayyorlik bilan qurilgan reja. Agar uning yo'lida ledi de Byor bo'lmaganida, bu reja balki amalga oshgan bo'lardi. Axir sen uning akasi mister Darsining singlisini shunchalik yoqtirsa ham, seni qadrlashi seshanba kuni baldan keyin xayrlashgan paytdagidan kamayib qolgan, deb o'ylamayotgandirsan! Yoki uning seni emas, balki singlisining eng yaxshi ko'rgan dugonasini sevishi miss Binglining qo'lida emasdir.

– Agar biz miss Bingli haqida bir xil o'ylaganimizda, sening xatni qanday tushunganing menga tasalli bergan bo'lardi, – dedi Jeyn. – Lekin sen xato qilayotganingni juda yaxshi tushunib turibman. Atayin aldash Kerolaynning qo'lidan kelmaydi. Men faqat uning o'zi ham adashayapti, deb umid qilishim mumkin.

– Juda yaxshi. Mening aytganim bo'lishi mumkin emas ekan, balki o'zingniki to'g'ridir. Xudo haqqi, u yanglishayapti deb hisoblayver. Sen o'z burchingni bajarding va endi hech narsa haqida xavotirlanmasang ham bo'ladi.

– Lekin Elizabet, azizam, yaxshi narsaga umid qilaylik. Opa-singillari va do'stlari boshqa qizga uylanishini xohlayotgan yigitga turmushga chiqib, men baxtli bo'la olamanmi?

– Bu sening ishing, agar o'zing yaxshilab o'ylab ko'rib, turmushga chiqib, baxtli bo'lganingdan ko'ra uning opa-singillarining norozi bo'lishlari ko'proq ahamiyatga ega, deb hisoblaydigan bo'lsang, yaxshisi, rad javobini berganing ma'qul.

– Shunday deyishga qanday tiling borayapti? – zo'rg'a jilmayib dedi Jeyn. – Axir, ularning noroziligi meni qanchalik xafa qilsa, qanday javob berishim mumkinligini o'zing yaxshi bilib turibsan-ku!

– Bunga ishonchim komil. Shuning uchun ham men sening qayg'uingni yuragingga yaqin olmayapman.

– Lekin u qish davomida qaytib kelmasa, balki mening javob berishimga ham hojat qolmas. Olti oy ichida ming xil narsa sodir bo'lishi mumkin.

Mister Binglining Nezerfildga qaytib kelmasligi haqidagi taxmin Elizabetga bo'lishi mumkin emasday, bu narsa Kerolayn o'ylab topgan bahonaday tuyular edi. U singlisi qanchalik ustalik bilan singdirishga urinmasin, mister Bingli bunga ko'nadi, degan fikrni xayoliga ham keltirishni xohlamasdi.

Jeynni o'zining haqligiga shunchalik ishontirdiki, birozdan so'ng gaplarining ta'sirini seza boshladi. Jeyn tabiatan g'amga botib o'tiradigan qiz emasdi, shuning uchun ham Elizabet opasining yuragida Binglining Nezerfildga qaytib kelishi va uning yuragidagi tuyg'ulariga xuddi shunday javob qaytarishiga juda oz bo'lsa-da, umid tug'dira olish qo'lidan keldi.

Ular onalariga yigitning rejalari haqida hech narsa demay, faqat qizlarning jo'nab ketishganini aytishga kelishib olishdi. Lekin hatto shu ham missis Bennetning kayfiyati buzilishiga, ularning oilasi endigina qa-

rindosh bo'lay deganda miss Bingli va missis Xyorstni ketishga majbur qilgan sababdan, to'xtamay qarg'a-nib shikoyat qilishiga olib keldi. Biroq biroz vaqt o'tib, mister Bingli yaqinda albatta qaytib keladi va Longbornda ular bilan tushlik qiladi, degan umid bilan o'z-o'ziga tasalli berdi. Va oxirida yigit faqat tushlik qilishgagina taklif qilinsa-da, yana qo'shimcha ovqatlar ham tayyorlanishini qo'shib qo'ydi.

XXII bob

Bennetlar oilasi Lukaslarnikiga tushlik qilish uchun taklif qilingan edi. Miss Lukas hali ham shunday mulozamatli ediki, kun bo'yi mister Kollinzning dil izhorlarini indamay eshitdi. Paytdan foydalanib, Elizabet dugonasiga o'z minnatdorchiligini bildirib qo'ydi:

– Sen bilan gaplashayotganda, uning kayfiyati juda yaxshi bo'ladi, – dedi u dugonasiga. – Men sendan shunday minnatdormanki...

Sharlotta dugonasiga foydasi tegayotganidan juda xursandligini aytdi. Bu qiz tomonidan juda katta iltifot edi. Lekin Sharlottaning fe'li Elizabet kutgandan ham kengroq chiqib qoldi: qiz dugonasini nafaqat mister Kollinz uning ketidan yurishlaridan qutqarmoqchi, balki yigitni butunlay o'ziga qaratib olmoqchi edi. Va uning bu harakatlari shunday muvaffaqiyat bilan ketayotgan ediki, agar Kollinzning Xartfordshirdagi safari bunchalik tez tugab qolmaganda, o'sha kungi uchrashuvda qiz o'z maqsadiga yetgan bo'lardi. Lekin qiz Kollinz tabiatidagi tezkorlikni payqay olmagan ediki, unga ko'ra mister Kollinz ertasi kuni tongdanoq Longborndan qizning oyoqlariga yiqilish uchun Lukaslarnikiga qarab jo'nadi. U rejalari hali ro'yobga chiqmay, undan xabardor bo'lib qolishlaridan xavfsirab, uydan

hech kimga bildirmay chiqib ketishga harakat qildi. Rejalarining ijobiy hal bo'lishiga ishonib turgan bo'lsa-da (asossiz emasdi, chunki Sharlottaning o'zi uni rag'batlantirib turgandi), ko'nglida baribir biroz gumon bor edi. Lekin uni juda yaxshi kutib olishdi. U Lukaslarnikiga yaqinlashar ekan, yuqorida dera-zadan qarab turgan miss Lukas uni ko'rib, tasodifan uchrashib qolgandek ko'rishish uchun yugurib yo'lga chiqdi. Shunday bo'lsa-da, qiz undan shunchalik ko'p sevgi izhorini kutmayotgan edi.

Ikkalasining fikri bir joydan chiqib, yoshlar mister Kollinzning so'zamolligi yo'l qo'yganchalik fursatda hamma narsa to'g'risida kelishib olishdi. Uyga kirishar ekan, mister Kollinz qizdan uni baxtli qiladigan kunni aytishni yolvorib so'radi. Qiz hozir unga aniq javob berishga qodir bo'lmasa-da, yigitning fikrlariga yengil ko'z bilan qaramayotgan edi. Mister Kollinzning tabiatan tentakroqligi to'ydin oldin qizlar kutadigan hayajonli daqiqalardan qizni mosuvo qilar ediki, faqatgina o'z hayotini yo'lga qo'yish uchungina unga turmushga chiqayotgan miss Lukas uchun uning o'ylaganlari aynan qachon ro'yobga chiqishi baribir edi.

Tezlikda ser Uilyam va ledi Lukaslarning roziligi so'raldi va ular ham o'sha zahotiyoq o'z roziliklarini bildirishdi. Chunki mister Kollinzning ayni paytdagi mavqeyi ularning qizlari uchun ayni muddao edi va ota-ona qizlari uchun juda katta sep qilishlari ham shart emas edi. Yana buning ustiga uning yaqin kelajakda yanada boyib ketishi ham kutilyapti. Ledi Lukas oldinlari ham unda bu narsaga bo'lgandan ham ko'ra ortiqroq qiziqish bilan, mister Bennet yana necha yil umr ko'rishi mumkinligiga qiziqdi, ser Uilyam esa mister Kollinz Longbornga xo'jayinlik qila boshlaganda o'zi va xotini Sent-Jeyms saroyida bemalol bo'la olishlarini aytdi. Xullas, butun

oila xursandchiligining cheki yo'q edi. Kichik qizlar endi ularni ular kutishayotgandan ham vaqtliroq mehmondorchiliklarga olib yurishadi, deb umid qila boshlashdi. Ukalari Sharlotta qari qiz bo'lib qoladi, deb endi qo'rqmay qo'yishdi. Qiz ham o'z maqsadiga erishgan bo'lib, nima voqealar bo'lganini endi yaxshilab o'ylay boshladi. Bo'lib o'tgan narsalar hammasi uni qoniqtirar edi. Mister Kollinzni albatta, na kelishgan va na aqlli deb bo'lmasdi; u bilan birga bo'lish og'ir edi, yigitning qizga nisbatan tuyg'ulari esa so'zsiz, havoyi edi. Lekin nima bo'lsa-da, Kollinz endi qizga uylanayotgan edi. Qizning nikoh haqidagi, umuman, erkaklar haqidagi fikrlari odatda juda yuqori bo'lmasa-da, turmushga chiqish doim uning maqsadi edi. Chunki turmushga chiqibgina o'qimishli, lekin kambag'al qiz jamiyatda o'z o'rnini topar, baxtli bo'lmasa ham, chorasizlikdan himoyalangan bo'lardi. Hozir esa u bu himoyani topgan edi. O'zining hozirgi yigirma yetti yoshida, go'zal bo'lmay turib, qanday omadi kelganini juda yaxshi tushunib turardi. Faqat Elizabet o'zining eng yaqin dugonasi bo'lgani uchun uning bu nikohga qanday qarashi qizning yuragini g'ash qilayotgan edi. Bu qaror Elizabet uchun kutilmagan bo'lib, balki u buning uchun Sharlottani gunohkor ham qilishi mumkin edi. Bu ko'ngilsizlik Sharlottaning fikrini baribir o'zgartirmasa-da, uning yuragida chuqur iz qoldirishi mumkin edi. Shuning uchun qiz bu yangilikni dugonasiga o'zi aytmoqchi bo'ldi va Kollinzdan Longbornga qaytganida hech kimga hech nima aytmasslikni tayinladi. Kollinz sirni saqlashga va'da bergan bo'lsa-da, so'zida turishi oson bo'lmadi. Yigitning ancha vaqt yo'q bo'lib ketgani hammani qiziqtirib, turli savollarni yog'dirib tashlashdi. Javobdan qochish uchun u turli-tuman yolg'onlarni gapirishga majbur bo'lgan qahramonimiz, ayni

paytda o'z muvaffaqiyati bilan maqtangisi ham ke-
layotgandi.

Mister Kollinzning ertasi kuni Longborndan juda
vaqtlı ketishi mo'ljallanayotgan bo'lib, Bennetlar bi-
lan xayrlashuv marosimi ular kechqurun uyquga yo-
tishlaridan oldin o'tkazildi. Shu o'rında missis Bennet
juda ham muloyim va yumshoq qilib, mister Kollinzga
u yana vaqti bo'lishi bilan mehmonga kelsa, ular juda
ham xursand bo'lishlarini ta'kidlab o'tdi.

– Bu taklifingizdan juda ham minnatdorman,
chunki men aynan shu gapni kutayotgan edim.
Shuning uchun xotirjam bo'lishingiz mumkin, iloji
bo'lishi bilanoq bu taklifingizdan foydalanaman.

Uning javobi hammani hayron qoldirdi. Mister Kol-
linzning bunchalik tez yana qaytib kelishi hech ham
yoqmayotgan mister Bennet shosha-pisha dedi:

– Bu bilan ledi Ketrinning g'ashiga tegib qo'ymay-
sizmi? O'z bekangizni xafa qilib qo'ygandan ko'ra
qarindoshlardan kechib qo'ya qoling.

– Do'stona maslahatingiz uchun sizga katta
tashakkur, – javob berdi mister Kollinz. – Xotirjam
bo'ling. Albatta, men zoti oliyalarining ruxsatisiz bir
qadam ham bosmayman.

– Juda ehtiyotkor bo'lish qo'lingizdan kelmasov.
Nima qilsangiz qiling-ku, lekin uning sizdan xafa
bo'lishiga aslo yo'l qo'ymang! Agar Longbornga ke-
lasi safar kelishingiz, ishonamanki, albatta hali
yana kelasiz – uning sizdan norozi bo'lishiga olib
keladigan bo'lsa, jimgina uyda qola qoling. Xotirjam
bo'ling, biz sizdan hech ham xafa bo'lmaymiz.

– Juda ham minnatdorman. Va bilib qo'yingki,
juda yaqin kunlar ichida Xartfordshirda bo'lgan
davrimda menga ko'rsatilgan ushbu va boshqa ham-
ma hurmat-e'tiborlaringiz uchun minnatdorchilik
bildirilgan xat yozib yuboraman. Go'zal amakivach-
chalarimga kelsak, yaqin kunlarda Longbornga

qaytib kelishim aniq bo'lsa-da, ularning hammasiga, shu jumladan, miss Elizabetga ham sog'-salomatlik va tinch-omonlik tilayman.

Shundan so'ng ayollarning bari uning bu rejasidan hayratga tushgan bo'lsalar-da, odatda bunday paytda aytiladigan gaplarni aytishib, o'z xonalariga yo'nalishdi. Missis Bennet yigitning bu gaplarini uning kichik qizlaridan biriga ko'z tikkaniga yo'yishga harakat qildi. Onaga qizlaridan Meri uning taklifini qabul qilishi mumkinga o'xshab ko'rindi. Meri yigitning qobiliyatiga o'z opalariga qaraganda yuqoriroq baho bergan, ba'zan esa uning chuqur mulohazalaridan hatto hayratga tushgan edi. Va yigitning ong darajasini o'zinikiga teng hisoblamasa-da, u o'z ustida ishlasa, balki vaqt o'tib uning darajasiga yetishi mumkin, deb hisoblardi. Lekin ertasi kuni ertalab hamma umidlar puchga chiqdi: nonushtadan so'ng ularnikiga miss Lukas keldi va Elizabetni chetga tortib, unga bo'lajak unashtiruv haqida aytib berdi.

Mister Kollinz o'zini Sharlottani sevib qolganga solishi mumkinligi Elizabetning xayoliga kelgandi. Lekin uning fikricha, dugonasi buni qabul qilishi mumkin emasdek edi. Qiz hayratdan qichqirib yubordi:

– Mister Kollinz bilan unashtiruv? Sharlotta, dugonajon, bunday bo'lishi mumkin emas!

Elizabetning bu ta'nasi natijasida o'zini bamayli-xotir tutib turgan miss Lukas avvaliga nima deyishni bilmay qoldi. Lekin Elizabetning hayrati u kutganidan ortiq bo'lmagani uchun tezda o'zini tutib olib, dedi:

– Nahotki, bu seni shunchalik hayratga solayapti, Eliza? Agar sendan hech narsa chiqmagan bo'lsa, mister Kollinzning boshqa bir qiz bilan omadi keliishi mumkin emasmi?

Elizabet o'zini qo'lga olib, dugonasi bilan qarindosh bo'layotganidan xursandligini aytdi va unga hamma yaxshi tilaklarni tiladi.

– Sen nimani his qilayotganingni yaxshi tasavvur qilayapman, – dedi Sharlotta. – Sen juda hayron qolayotgan bo'lsang kerak. Axir, mister Kollinz yaqindagina senga uylanmoqchi bo'layotgan edi. Lekin hammasini bir boshdan o'ylab ko'rsang, men to'g'ri qilayotganimga o'zing amin bo'lasan. Juda yaxshi bilasan, men xayolparastlikdan yiroqman. Bu narsa doimo menga begona bo'lgan. Mening boshimga boshpana kerak. Va men mister Kollinzning tabiatini, uning yashash tarzini va jamiyatdagi o'rnini haqida o'ylab ko'rib, baxtli oila qurish haqidagi orzu-umidlarimning boshqalarnikidan hech farqi yo'q, degan qarorga keldim.

Elizabet sekingina: «Ha, albatta», – deb javob berdi.

Sharlotta Longbornda ko'p bo'lgani yo'q va u ketgandan so'ng Elizabet eshitganlari to'g'risida yana bir marta o'ylay boshladi. Uning ushbu nikoh to'g'risidagi fikrga ko'nikishiga ancha vaqt ketdi. Dugonasi-ning turmushga chiqish borasidagi fikrlari o'zinikiga o'xshamasligini bilar edi. Lekin uning tinchgina yashashni xohlagani uchun eng nozik narsalarni ham qurbon qilishi mumkinligini aqliga sig'dira olmayotgan edi. Eng yaqin dugonasi – mister Kollinzning xotini! Qanday ahmoqona holat! Uning nazarida, Sharlottaning bu yo'l bilan o'zini yerga urganidan paydo bo'lgan og'riq qizning taqdiri achinarli bo'lishiga bo'lgan ishonchdan kuchliroq edi.

XXIII bob

Ser Uilyamning o'zi Longbornga tashif buyurganda Elizabet onasi va opa-singillari bilan o'tirar va yaqindagina eshitgan yangiligi va bu yangilikni uyidagilarga aytishi kerakmi yoki yo'qligi to'g'risida xayol surardi. Sharlotta ser Uilyamni o'zining Bennetlarning qarindoshi bo'lmish yigit bilan unashuvi to'g'risidagi xabarni aytish uchun yuborgan edi. U o'z nutqini iloji

boricha chiroyli soʻzlar bilan bezashga urinib va ayni paytda ularning oilasi bilan qarindosh boʻlayotganidan xursandchiligini taʼkidlab, hayron boʻlib oʻtirganlarga yangilikni yetkazdi. Missis Bennet bepisandlik bilan bunday boʻlishi mumkin emasligini aytar ekan, doimo betgachopar boʻlgan Lidiya hayrat bilan dedi:

– Voy oʻlay! Ser Uilyam, nimalar deyapsiz? Siz hali mister Kollinz Lizziga uylanayotganini bilmaysizmi?

Bunday betgachoparlikka chiday olish uchun oʻta sovuqqon boʻlish kerak edi. Ser Uilyam tabiatida esa bu sifat yetarli edi. U oila aʼzolarini olib kelgan xabariga ishonitirar ekan, oʻziga qarata aytilgan hamma taʼnalarni qulogʻining tagidan oʻtkazib yubordi.

Elizabet uni bu noqulay vaziyatdan chiqarishni oʻzining burchi deb bildi va bu yangilikni Sharlot-taning oʻzidan ancha ilgari eshitganligini aytib, ser Uilyamning aytganlarini tasdiqladi. Onasi va singillarining ortiqcha gap-soʻzlariga barham berish uchun u ser Uilyamning oʻzini ham bu yangilik bilan tabrikladi va bu tabrikka Jeyn ham qoʻshildi. Elizabet oʻz tabrigida kelin va kuyovga baxt tiladi va mister Kollinzning ajoyib insonligi va Xansfordning Londondan uzoq emasligini ham aytib oʻtdi.

Missis Bennet rostdan ham oʻzini juda yoʻqotib qoʻygan edi va ser Uilyam joʻnab ketguncha hatto ogʻzini ham ochmadi. Lekin mehmon joʻnashi bilan oʻzini qoʻyib yubordi. Birinchidan, bunday boʻlishi aslo mumkin emasligini taʼkidlab oʻtdi. Ikkinchidan, mister Kollinzni ahmoq qilishgani koʻrinib turibdi. Uchinchi-dan, bu nikoh yaxshilik keltirmasligi koʻrinib turibdi. Va toʻrtinchidan, u aminki, bu unashuv, albatta, buziladi. Bularning hammasidan ikkita xulosa kelib chiqardi. Birinchisi – bu hamma balolarning sababchisi Elizabet, ikkinchisi esa hamma missis Bennet bilan mulozamatsiz munosabatda boʻlayapti. Bularning hammasi ayolning kun boʻyi norozilanib yurishi-

ga sabab bo'ldi. Uni tinchitish yoki yupatishning hech iloji yo'q edi. Ayolning jahli bir kunda o'tib ketmadi, bir hafta davomida Elizabetga kinoyasiz gapira olmadi, ser Uilyam va ledi Lukaslarga ham bir oylarcha davomida faqat tagdor gaplar bilan muomala qildi. Sharlottani kechirishi uchun esa bir necha oy ketdi. Mister Bennet esa bu hodisaga ancha sovuqqonlik bilan qaradi. Bu unga hatto yoqdi ham. Ayniqsa, u aqli deb hisoblaydigan Sharlotta Lukasning aqli uning xotininikidan ko'p emasligi va qizininikidan esa hatto kamligi uni xotirjam qildi.

Jeyn mister Kollinzning unashuvi uni hayratga solganini berkitib o'tirmadi. Lekin u bu haqda kelin va kuyovga baxt va omad tilab so'zlaganidan ko'ra kamroq gapirdi. Hatto, Elizabet ham uni bu nikoh omadli bo'lishi mumkin emasligiga ishontira olmadi. Miss Lukasga havas qilish Kitti va Lidiyalarning xayollariga ham kelmadi, chunki qizlar uchun u nari borsa bir ruhoniy edi. Mazkur unashuv ular uchun butun Meritonga yoyib chiqadigan bir yangilik edi, xolos.

Ledi Lukas esa o'z navbatida qizini qo'shnisidan oldin uzatayotganini tantana qilayotgan edi. O'z quvonchini ichiga sig'dirolmay, qo'shni oila a'zolarining xo'mrayib qarashlari, missis Bennetning istehzoli gaplariga qaramay, ularnikiga oldingi paytdagilarga nisbatan tez-tez keladigan bo'ldi.

Elizabet va Sharlotta o'rtasida esa ko'rinmas devor paydo bo'lib, dugonalar iloji boricha unashuv mavzusini tilga olmaslikka harakat qilishar, Elizabet dugonasi bilan endi hech qachon ilgarigidek bir-birlariga ishona olmasliklariga amin edi. Eng yaqin dugonasidan ko'ngli qolgan Elizabet endi opasi Jeynga oldingidan ham ko'proq bog'lanib qoldi. Kunlar o'tgan sayin u opasining baxti xususida ko'proq xavotirlana boshladi. Mister Bingli jo'nab

ketganiga allaqachon bir hafta bo'lgan, undan esa hech qanday xabar yo'q edi.

Jeyn Kerolaynning xatiga tezda javob yozib, endi undan qachon javob xati kelarkin, deb kutib o'tirar edi. Mister Kollinz yozishga va'da qilgan xatni esa seshanba kuni olishdi. Xat mister Bennetga atalgan bo'lib, minnatdorchilik so'zlari bilan to'la edi. Odatda, bunday xatni birortasi ma'lum bir oilada hech bo'lmasa bir yil yashab ketgandan keyin yozgan bo'lardi. Mister Kollinz miss Lukasning roziligini olganidan juda ham baxtiyorligini havoyi so'zlar bilan ifodalab, agar sharoit tug'ilib qolsa, yana ikki haftalardan so'ng, dushanba kuni yana Longbornga kelishga qaror qilganini yozgan edi. Yana ledi Ketrin uning uylanish borasidagi qarorini chin dildan ma'qullaganini va bu to'yni iloji boricha tezroq o'tkazish kerakligini aytib o'tganini ham qo'shib qo'ygan edi. Bu qaror uning Sharlottasi uchun uni eng baxtli qiladigan kunni yaqinlashtirish uchun sabab bo'la oladi, deb hisoblar edi.

Mister Kollinzning Xartfordshirga qaytib kelishi endi missis Bennetni ortiq quvontirmayotgan edi, endi eridan ko'ra u kutilmagan mehmonning kelishidan norozi edi. Mister Kollinzning Lukas Lojga emas, Longbornga kelmoqchiligi ajablanarli edi va agar u keladigan bo'lsa, anchagina noqulaylik va bezovtaliklar tug'dirardi. Axir, kayfiyating yomon bo'lib turganda mehmonnavozlik qilish, ayniqsa, sevishganlarga, ko'ngilga sig'maydi-ku! Missis Bennetning oxirgi paytlarda o'ylayotganlari faqat shular haqida bo'lib, vaqti-vaqti bilan mister Bingli ham dom-daraksiz ketganini alam bilan gapirib qo'yardi.

Jeyn bilan Elizabet ham bu holatdan xavotirda edilar. Kunlar o'tar, agar uning butun qish bo'yi endi Nezerfildga kelish niyati yo'qligi to'g'risidagi g'iybatlarning butun Meritonga tarqalganini hisobga olmasa, mister Binglidan hech qanday xabar

yo‘q edi. Bu gaplar missis Bennetning battar g‘azabini qo‘zg‘atib, bu odamlarning o‘zlari o‘ylab topgan gaplar deb o‘zini ishontirardi.

Hatto, Elizabet ham endi xavotirga tusha boshladi – mister Binglining bee‘tiborligidan emas – yigitning singillari uni chindan ham Londonda ushlab qola olgan bo‘lishlari mumkinligidan. Qiz opasi Jeynning baxtsizligiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan va uning tanlagan yigitning mardligiga soya soladigan bu fikrni o‘zidan haydashga harakat qilsa-da, bu fikr uning miyasiga qattiqroq o‘rnashib borardi. Singillarining va hukmron do‘stining ta’siri, miss Darsining jozibasi va markazning ko‘ngilochar tabiati ta’sirida yigitning Jeynga bo‘lgan munosabati oqizlik qilib qolishi mumkinligidan Elizabet endi chindan qo‘rqqa boshlagan edi.

Jeynning o‘ziga keladigan bo‘lsak, albatta, mavhumlik Elizabetdan ko‘ra ko‘proq uni ezayotgan edi. Lekin nima bo‘lganda ham qiz o‘z hissiyotlarini har qanaqasiga atrofdagilarga bildirmaslikka urinar va opa-singillar o‘rtasida bu mavzu boshqa ko‘tarilmayotgan edi. Missis Bennet esa aksincha, unda bunday nozik tuyg‘ular yo‘qligi bois, dam o‘tmay Bingli haqida gapirar, uning nega ushlanib qolishi mumkinligi sabablarini o‘zicha aytar yoki bo‘lmasa hatto Jeyndan agar yigit qaytib kelmasa, qizi aldanib qolgan bo‘lishi mumkinligini bo‘yniga olishini talab qilar edi. Tabiatan o‘ta vazmin bo‘lgan Jeyn onasining bu gaplariga zo‘rg‘a chidab turardi.

Mister Kollinz ketganidan so‘ng ikki hafta o‘tib, dushanba kuni yana qaytib keldi. Yigitni birinchi marta Longbornga kelganichalik xursandchilik bilan kutib olishmadi. Lekin yigit o‘zining o‘y-xayollari bilan shunchalik band ediki, ortiqcha e‘tiborga muhtoj emas edi. Hammaning baxtiga u butun vaqtini Sharlotta bilan o‘tkazib, Bennetlar bilan

kamdan-kam ko'rishar, kechqurun uyga qaytgach, birga bo'lolmagani uchun uzrini aytar-aytmas, oila a'zolari o'z yotoqlariga kirib ketishar edi.

Missis Bennetning ahvoli chindan ham juda achi-narli edi. Mister Kollinzning uylanishi to'g'risidagi arzimagan gap ham uning kayfiyati buzilishiga olib kelar, aksiga olib esa hamma yerda faqat shu haq-da gap borardi. Miss Lukasni ko'rishning o'ziyoq ayolning g'azabini qo'zg'atar edi. Sharlotta birrovgi-na Longborna kelib ketishi bilanoq missis Bennet-ga u xuddi bu uyning bekasi bo'lishini tasavvur qilib sevinayotgandek tuyular edi. Agar Sharlotta Kollinz bilan biror narsa to'g'risida sekin suhbatlashayotgan bo'lsa, uning tasavvurida ular xuddi ayolning o'zi va qizlarini mister Bennetning o'limidan so'ng chiqarib yuborishni rejalashtirishayotgandek edi. Missis Ben-net o'zining hamma o'ylayotganlarini eriga aytib berdi.

– O'zingiz o'ylang, azizim, – dedi u, – bir kun ke-lib, Sharlotta Lukas bu yerda xo'jayin bo'lishini tan olish qanday alam qilyapti. Men esa uni bu yerda ko'rib turib, indamay ketishga majburman!

– Azizam, bunaqa yomon xayollarga berilaver-mang. Keling, yaxshisi, yoqimliroq biror narsa to'g'risida o'ylaymiz va men mister Kollinzdan ko'ra uzoqroq yashayman, deb umid qilamiz.

Erining bu gaplari missis Bennetni butunlay xotirjam qila olmadi va javob berish o'rniga, u yana shu mavzuda gapira ketdi:

– Bizning uy-joyimiz shu odamlarga o'tib ketadi, degan fikrga hech chiday olmayapman. Agar bu yer ularga er tomondan meros bo'lib o'tadigan bo'lma-ganda ham mayli edi...

– Qanday bo'lsa, siz rozi bo'lardingiz?

– Boshqa nima bo'lsa ham rozi bo'lgan bo'lardim!

– Bunday mavhumlikdan asragani uchun xudo-ga shukur qilishimiz kerak.

– Mister Bennet, men er tomondan meros to‘g‘risidagi narsalarning birortasi borasida ham xudoga shukur, deya olmayman. Yer egasining qizlariga qarashli yerni tortib olishga qanday qilib odamlarning vijdoni yo‘l qo‘yadi, hech tushunmayman. Yana bu qandaydir mister Kollinzni deb bo‘lsa! Birorta o‘tkazib qo‘ygan joyi bormi?

– Savolingizga o‘zingiz javob bera qoling, – dedi mister Bennet.

Ikkinchi bo'lim



I bob

Miss Binglidan hamma gumonlarni yo'qqa chiqaradigan xat keldi. Xatning boshidayoq Bingli va uning singillari butun qish bo'yi Londonda qolishlari aytib o'tilgan edi. Xatning davomida esa akalari u yerdan jo'nab ketish oldidan xartfordshirlik do'stlari bilan xayrlasha olmaganidan afsusda ekanligi yozilgan edi.

Tamom, hech qanday umid qolmagan edi. Jeyn xatning oxirini e'tibor bilan o'qib chiqar ekan, o'zaro do'stlikni ta'kidlovchi umumiy jumalardan boshqa hech narsa topmadi. Xat asosan miss Darsini maqtashga qaratilgan bo'lib, uning hamma yaxshi sifatleri to'liq sanab o'tilgan edi. Kerolayn o'zlari bilan qiz o'rtasida yaqinlik paydo bo'lgani va u oldin Jeynga aytib o'tgan gap balki rostga aylanar, degan umidi borligini aytardi. Qiz yana xursandchilik bilan akasi mister Darsilarnikida o'z odamidek ekanligini aytib, akasining do'sti o'z uyida o'zgarishlar qilmoqchi ekanligini ham qo'shib qo'ygan edi.

Jeyn xatni o'qib chiqqan zahotiy oq mazmun nima haqida ekanligini Elizabetga aytib berar ekan, singlisi uning gaplarini alam bilan indamay eshitdi. Bir paytning o'zida uning ham opasiga rahmi kelar va ayni paytda xatda sanab o'tilganlarning hammasidan jahli chiqar edi. Kerolaynning akasi miss Darsiga befarq emasligini aytgan gapiga esa ishonmadi. Uning sezishicha, yigitning Jeynga munosabati avvalgidek edi. Elizabet mister Bingliga nisbatan avvalgidek yaxshi munosabatda bo'lib qolishni xohlasa-da, ayni paytda uning irodasizligi va beqarorligi oqibatida boshqalar uni o'yinchoqqa aylantirishayotganidan

g'azabi kelayotgan edi. Qizlar o'z ko'ngilxushliklari deb uning baxtini qurbon qilishayotgan edi. Agar gap faqat o'zining hayoti haqida bo'lsa, xohlagancha hal qilish mumkin edi. Lekin bu yerda uning opasining hayoti ham hal bo'layapti-ku! Axir yigit buni sezishi kerak edi-ku! Shu kabi o'ylar qizning miyasiga tinchlik bermayotgan edi. Elizabet mister Bingli Jeyndan rostdan ham soviganmikan yoki yaqinlarining ta'sirida shunday harakat qilyaptimi, Jeyn uni qanchalik yurakdan sevishini tasavvur qilyaptimikin yoki bu narsani bilmaydimi, degan narsalar haqida qancha o'ylamasin, bular faqat uning Bingli haqidagi fikrini o'zgartirishi mumkin edi xolos, lekin Jeynning yarasiga malham bo'la olmasdi.

Ikki kungacha Jeynning singlisi bilan o'z tuyg'ulari haqida gaplashishga yuragi dov bermadi. Lekin bir kuni missis Bennet Nezerfild va uning xo'jayini to'g'risida bo'lar-bo'lmas gaplarni gapirib, qizlarni yolg'iz qoldirib, xonadan chiqar ekan, Jeyn o'zini to'xtata olmadi:

– Onamiz sal o'zini tuta bilsa edi! Mister Bingli haqidagi gap-so'zlari bilan qanchalik yaramga tuz sepayotgani nahotki xayoliga ham kelmaydi. Lekin mening tashvishga tushishga haqqim yo'q. Yaqinda hammasi tugaydi. Uni hammamiz esdan chiqaramiz va yana avvalgidek yashay boshlaymiz.

Elizabet opasiga ishonqiramay qarab qo'ydi, lekin biror og'iz so'z demadi.

– Sen menga ishonmayapsan-a? – biroz qizarib xitob qildi Jeyn. – Lekin bekor qilyapsan. Axir u bir yaxshi tanish yigit sifatida mening xotiramda qolishi mumkin emasmi? Men umid qilishim mumkin bo'lgan hech kim yo'q, qo'rqadigan narsam ham yo'q va hech kimdan gina ham qilmayman. Bu azobdan, xudoga shukrki, qutuldim. Biroz vaqt o'tsin, bundan ham yaxshiroq bo'ladi.

Biroz o'tib, u yanada dadilroq ovoz bilan dedi:

– Juda bo'lmasa, men bu voqealarni xayolimda bo'ldi, deb hisoblayman va ular mening o'zimdanda boshqa hech kimga zarar keltirmaydi.

– Jeyn, azizam, sen shunchalik ko'ngilchansan-ki! Oqilaligingning chegarasi yo'q. Hozir kerakli so'z topolmayapman, lekin menga shunday tuyulayaptiki, men hech ham sening qadringga yetmagan va seni yetarlicha yaxshi ko'rmagan ekanman.

Miss Jeyn singlisining so'zlarini inkor qilib, bu narsa opa-singillik tuyg'ulari, deb tushuntirdi.

– Jeyn, axir bu adolatdan emas-ku! O'zing olamdagi barchani maqtashga tayyorsan, agar men birov haqida yomonroq gap aytadigan bo'lsam, darrov xafa bo'lasan. O'z opam to'g'risida bittagina yaxshi gap aytishim bilan men bilan bahslashishga tayyorsan. Qo'rqma, men bu gaplarni birovlariga aytib o'tirmayman. Bunday bo'lmaydi, chunki dunyoda juda ham kam odam mening sevgimga sazovordir. Men haqiqatan hurmat qiladiganlar esa undan ham kam. Men borliqni kuzatar ekanman, u menga shunchalik yoqmay ketyapti. Har bir o'tayotgan kun menga inson tabiatining qanchalik mukammal emasligini va go'yoki insonning ko'rinib turgan samimiyligi va aqliga ishonib bo'lmasligini ta'kidlayotgandek. Oxirgi kunlardagi mana shu ikkita narsa menga yaxshigina maktab bo'ldi. Bittasi haqida gapirishni xohlamayman. Ikkinchisini esa dugonam Sharlottadan oldim. Harna qilsam ham ikkinchisiga hech aqlim yetmayapti.

– Lizzi, azizam, bunday hislarga erk berma! Axir, yuraging ezilib ketadi. Sen hayotiy sharoitlarni va har bir insonning xarakterini hisobga olmayapsan. O'ylab ko'rgin-a, mister Kollinzning jamiyatda qanday munosib o'rnini bor va Sharlotta esa qanday sovuqqon va uzoqni ko'ra biladi. O'zing o'ylab ko'r, uning nechta

aka-singlisi bor va Sharlottaning turmushga chiqishi oilasining nochor ahvoriga qanday yordam bergan bo'lardi. Iltimos, bizlar uchun, Sharlotta amaki-vachchamizni hurmat qiladi va uning obro'sini joyiga qo'yadi, deb ishonishga harakat qilgin.

– Menimcha, seni deb men hamma narsaga tayyor bo'lsam kerak. Lekin bundan hech kimga oson bo'lmaydi-da. Rostdan ham, kimdir Sharlottaning mister Kollinzda ko'ngli bor, deb ishontira olsa, men u haqda battar yomonroq o'ylagan bo'lardim. Jeyn, azizam, sen o'zing ham mister Kollinzning tentak, hissiz, o'ziga bino qo'ygan, subutsiz odam ekanligini mendan yaxshiroq bilasan. Shuning uchun ham, unga tegayotgan qizning ko'nglida boshqa niyatlar ham borligiga aqling yetsa kerak. Shuning uchun ham Sharlotta Lukasni oqlashga harakat qilmay qo'ya qol. Bitta odamni deb insondagi yaxshi fazilatlarga nisbatan bo'lgan qarashlaringni o'zgartirish mumkin emas. Manfaatparastlik – bu o'ylab ish qilish, aqlga quloq tutmaslik – baxtga olib boradigan yo'l, deb mening fikrimni o'zgartira olmaysan.

– Ular haqida sen juda qat'iy hukm chiqarayapsan, – javob berdi Jeyn. – Va umid qilaman, ularning hayoti joyiga tushib ketgach, o'zing ham bunga ishonasan. Bo'ldi, bu haqda boshqa gaplashmaylik. Senga maktab bo'lgan ikki narsa to'g'risida gapira turib, sen yana bir odamga til tekkizib o'tding. Men seni tushuna olmadim. Lizzi, azizam, uni aybdor qilib, sening nazaringdan qolganini aytib, menga azob berma, iltimos. Bizga atayin ozor berishdi, degan fikrdan qochaylik. Axir, yoshgina yigitdan, u juda ehtiyotkor bo'lishi va har bir qadamini o'ylab bosishi kerakligini talab qilib bo'lmaydi. Shuhratparastligimiz ko'p hollarda bizni aldab qo'yadi. Ayollar ba'zan bir martagina ehtiros bilan qarab qo'yganga ham katta e'tibor berishadi.

– Erkaklar esa ularning bu harakatidan foydalalanishadi.

– Agar bu holda erkak hamma narsani oʻz manfaatini yuzasidan qilsa, albatta uni oqlab boʻlmaydi. Lekin men hamma odamlar ham faqat oʻz manfaatini uchun harakat qilishiga ishonmayman.

– Men mister Binglining oʻzini tutishi hammasi manfaat yuzasidan, degan fikrni aytishdan yiroqman, – dedi Elizabet. – Lekin yomonlik qilmasdan va bironi baxtsiz qilmay turib ham, xato qilish va yuragiga nish urish mumkin. Yaʼni oddiygina yengiltaklik qilib, yetarlicha eʼtibor bermay va boʻshanglik qilib.

– Sen aytib oʻtgan bu sifatlar unda ham bor, demoqchimisiz?

– Boshidan oxirigacha. Agar hozir sen uchun aziz boʻlgan odamlar haqida gapira boshlasam, seni xafa qilib qoʻyishim mumkin. Shuning uchun hali kech boʻlmasdan meni toʻxtatishing mumkin.

– Sen hali ham singillari unga taʼsir oʻtkazishayapti deb oʻylaysanmi?

– Ha, oʻrtogʻi ham.

– Aslo ishongim kelmaydi. Bu ularga nima uchun kerak? Axir, unga baxt tilashlari kerak-ku! Agar u meni chindan sevib qolgan boʻlsa, boshqa birorta ayol bilan baxtli boʻla olmaydi.

– Gap asosiy maqsad nimadaligida. Akalarining baxtli boʻlishidan tashqari yana boshqa maqsadlari ham boʻlishi mumkin. Masalan, uning boyligini koʻpaytirish, jamiyatda mavqeyini oshirish yoki boy, tagi zotli oilaning qiziga uylantirish.

– Albatta, bu holda ular miss Darsini tanlagan boʻlishardi. Lekin bu narsalarni sen aytgandan koʻra boshqacharoq maqsad bilan deb ham aytish mumkin, – dedi Jeyn. – Ular miss Darsi bilan mendan oldinroq tanishishgan. Shuning uchun ularning u qiz bilan yaqinroq ekanligi tushunarli. Lekin nima oʻyla-

gan taqdirlarida ham mister Binglining intilishlariga qarshilik qilishmaydi-ku! Qaysi singil o'z akasiga shunday qilgan bo'lardi? Agar ular akasi meni sevadi deb bilishsa, bizni ayirmagan bo'lishardi – chunki bunday urinishdan hech narsa chiqmasdi. Aslida yo'q sifatlarni unga yopishtirib, mening yuragimni eza-yapsan. Meni bunga ishontirib, yana battar azobga qo'ymagin. O'z xatoyimdan uyalmayman, chunki bu uyat hissi uning o'zi yoki oilasi haqida yomon o'ylagandagi og'riqdan ko'ra yengilroq. Bularning hammasiga yaxshi ko'z bilan qarashga menga izn bergin.

Elizabetning bunga ko'nmay iloji yo'q edi. Shu paytdan boshlab, opa-singil o'rtasida mister Bingli haqida boshqa gap ko'tarilmadi.

Missis Bennet mister Bingli kelmayotganidan hamon o'ziga kelolmay yurar edi. Elizabet gap nimaligini harchand tushuntirishga urinsa-da, onasi bunga hech ko'nika olmasdi. O'zining gapiga o'zi ishonmagan holda qiz onasini mister Bingli Jeyn bilan biroz ko'ngilxushlik qilish uchungina do'stlashganini, ular bir-birlaridan uzoqlashishlari bilan esa qizni yodidan chiqarganiga ishontira boshladi. Missis Bennet vaqti-vaqti bilan bu gapga ishona boshlagan bo'lsa-da, baribir Elizabet bu gapni har kuni kamida bir marta takrorlab turishi kerak edi. Elizabetning o'zini esa, mister Bingli yozning boshlariga Nezerfildga albatta keladi, degan fikr ovuntirayotgan edi.

Mister Bennetning fikri esa bu borada butunlay boshqacha edi:

– Shunday qilib, Lizzi, anglashimcha, opangning yuragi biroz yaralandi, – dedi u bir kuni. – Uni mening nomimdan tabriklab qo'y. Yosh qizlarda vaqti-vaqti bilan shunday bo'lib turadi, xuddi turmushga chiqishgani kabi. Bu ularni fikrlashga undaydi va boshqa qizlardan ajratib turadi. Sening navbating qachon keladi endi? Axir, Jeyn sendan o'zib ketishi-

ga yo'l qo'ymaysan-ku, to'g'rimi? Buning payti keldi. Bu yerdagi barcha qizlarning boshini aylantirish uchun Meritonda ofitserlar yetarli. Sen Uikxemni tanlab ko'rmaysanmi? Zo'r yigit, xohlagan qizining boshini aylantirishi mumkin.

– Minnatdorman ser, menga bundayrog'i ham bo'laveradi. Hammaning ham Jeynchalik omadi kelavermaydi-ku!

– Bu rost, – dedi mister Bennet. – Ayniqsa, bunday hollarda hech narsani ko'zdan qochirmaydigan g'amxo'r onang bo'lsa...

Mister Uikxemning paydo bo'lishi Longborn ahliga yengillik olib kelib, Bennetlar oilasidagi oxirgi paytlardagi g'amgin voqealarni unuttirib yubordi. Ular yigitni tez-tez ko'rishar ekan, nazarida yigitning hamma ijobiy xislatlariga yana bir xislat qo'shildi: bu Uikxemning ochiqko'ngil tabiati. Bir paytlar Elizabet yigitdan eshitgani uning mister Darsidan xafaligi va Darsining unga yetkazgan zarari haqida Uikxem endi hammaga aytib bergan va hammaning og'zida shu gap edi. Va hamma mister Darsini ko'rmayoq, uning aslan qanday inson ekanligini bilib olganlaridan xursand edilar.

Katta miss Bennet bu voqealarda xartfordshirliklarga ma'lum bo'lmagan, vaziyatni yumshatadigan nimadir borligini hisobga olayotgan yolg'iz kimsa edi. Qizning o'ta beg'uborligi uni hamma narsaga kechirimli bo'lishga va har bir yovuzlikni tushunmovchilik, deb qarashga undar, lekin qolgan hamma esa mister Darsini o'taketgan ablah, deb hisoblayotgan edi.

II bob

Shanba kuni yetib keldi. Mister Kollinz sevgi izhor qilish bilan o'tkazgan bir haftadan so'ng o'z Sharlottasi bilan xayrlashishga majbur bo'ldi. Lekin ayriliq azobini kelin kelishiga uyida ketayotgan

tayyorgarliklar biroz yumshatdi. Xartfordshirga ke-yingi kelishiga hamma narsa hal bo'lishiga u butkul ishonardi. Longbornlik qarindoshlari bilan u xuddi o'tgan safardagidek hammasiga sog'lik va amaki-vachchalariga muvaffaqiyatlar tilab, tantanali xayrlashdi va qizlarning otasiga albatta minnatdorchilik xatini yuborishini va'da qildi.

Kelasi dushanba kuni missis Bennet odatlari bo'yicha Rojdestvo bayramini Longbornda o'tkazishga o'rgangan ukasi va uning xotinini kutib oldi. Mister Gardiner opasiga nisbatan ancha aqlli va birmuncha yaxshi xislatlarga ega inson edi. Nezerfild ayollariga savdo bilan shug'ullanuvchi va omborxonasi yaqinida yashovchi odamning shunchalik yaxshi tarbiyasi va dilkash inson bo'lishi qiziq ko'rinardi. Aqlli, dilkash va kelishgan missis Gardiner missis Bennet va missis Filipstan ancha yosh bo'lib, longbornlik jiyanlari uni juda yaxshi ko'rishardi. Ayniqsa, u Londonga ko'p marotaba kelgan ikki katta miss Bennetlar bilan yaqin dugona edi.

Missis Gardinerning Longbornga kelishi bilan qilgan ishi olib kelgan sovg'alarini ulashish va markazdagi oxirgi urflar bilan tanishtirish bo'ldi. Bularni tugatgach esa u tinglovchiga aylandi. Missis Bennet taqdiridan nolib, bo'lib o'tgan hamma ko'ngilsizliklarni aytib berdi: ular oxirgi marta ko'rishganlaridan beri o'zlari bilan bog'liq shunchalik ko'p noxushliklar sodir bo'ldi... O'ylab ko'ring-a, axir ikkita qizi endigina turmushga chiqay degandi-ya! Va birdan hammasi ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi.

– Jeynni hech narsada ayblay olmayman, – davom etdi u. – Iloji bo'lsa u mister Bingliga turmushga chiqqan bo'lardi. Lekin Lizzi! Siz tasavvur ham qila olmaysiz – agar tabiati bunday ahmoqona bo'lmaganda u allaqachon missis Kollinzga aylangan bo'lardi. Mister Kollinz xuddi shu xonada uning roziligini

so'radi, Lizzi esa rad qildi! Endi ledi Lukasning qizi mening qizlarimdan avval birinchi bo'lib turmushga chiqayapti! Longborn esa erim tarafdin merosga o'tib ketadi. Bu Lukaslar juda ayyor, o'zinikini qo'ymaydi. Ular haqida bunday deyish menga og'ir, lekin buning hammasi haqiqat. O'zi shunday ham tobim yo'q va asablarim qaqshagan, buning ustiga o'zimning uyimdagilar g'ashimga tegishadi. Yana yonginangda faqat o'zini o'ylaydigan qo'shnilar yashaydi. Yaxshi ham siz ayni paytida kelibsiz, bo'lmasa hozir uzun yenglar urfda ekanligini qayerdan bilardik!

Elizabet bilan yolg'iz qolgach, missis Gardiner yana bo'lib o'tgan voqealar to'g'risida gap boshladi.

– Aytib berishingizdan, bu rostdan ham Jeyn uchun munosib nomzod bo'lgan bo'lardi, – dedi u. – Uning xafa bo'lib qolgani chatoq bo'libdi. Lekin bunday hodisalar bo'lib turadi. Siz aytganlaringizdan tasavvur qilyapman, mister Bingliga o'xshagan yigitlar yaxshi qizlarni osonlik bilan sevib qoladilar. Keyin esa biror joyga ketishlari bilan yana osonlik bilan esdan chiqarishadi. Bunday beqarorlik har qadamda uchraydi.

– Siz tasvirlagan holat uchun juda yaxshi ovunch, – dedi Elizabet. – Lekin bizning sharoitimizga to'g'ri kelmaydi. Biz tasodifan bu ahvolga tushmadik. Ba'zan do'stlarning aralashuvi oqibatida mustaqil bo'lgan yosh yigit o'zi sevib qolgan qiz haqida mutlaqo o'ylamay qo'yish hollari kam bo'lsa-da, uchrab turadi.

– Elizabet, azizam, mister Bingli rostdan Jeynni juda yoqtirib qolganmidi?

– Men oldin bunaqasini hech ko'rmagandim. U boshqa atrofidagilarga hatto qayrilib ham qaramay qo'ydi. Ko'zlari faqat Jeynni ko'rardi. Har safar uchrashganlari sayin bu narsa yaqqol ko'rina boshlagandi. U uyiga mehmonga chaqirib turib, ikkitami yoki uchdami qizni raqsga taklif qilmay, hatto xafa ham qilib qo'ydi. Men o'zim u bilan ikki

marta gaplashib javob ololmadim. Yana qanday belgilari bo'lishi mumkin? Atrofdagilarga bee'tiborlik sevib qolganlikning eng ko'rinib turgan alomati emasmi?

– Ha, ha! Bechora Jeyn! Unga achinib ketayapman. Uning tabiati bilan hali-beri o'ziga kela olmasa kerak. Uning o'rnida yaxshisi sen bo'lsang bo'larkan, Lizzi. Sening tabiatining bilan bu narsani unutish osonroq bo'lardi. Nima deysan, Jeynni biz bilan Londonga ketishga ko'ndira olarmikanmiz? Sharoitni almashtirish va ro'zg'or tashvishlaridan biroz dam olish unga yaxshi ta'sir qilgan bo'lardi.

Bu taklif Elizabetga juda yoqib tushdi. Taklif Jeynga ham yoqishiga u amin edi.

– Albatta, Jeyn bu sayohatni u yigit bilan bog'lama kerak, – davom etdi missis Gardiner. – Biz shaharning narigi chekkasida turamiz va ular bilan umumiy tanishligimiz ham yo'q. Ko'chaga kamdan-kam hollarda chiqamiz va mister Bingli bilan uchrashib qolish ehtimoli juda oz, mabodo, yigitning o'zi Jeynni ko'rgani kelib qolmasa.

– Bunday bo'lishi ehtimoldan yiroq. U doim do'stining nazorati ostida. Mister Darsi esa bunga aslo yo'l qo'ymaydi. Bu fikr qayerdan xayolingizga keldi? Mister Darsi Greyschyorch-street haqida balki eshitgandir. Lekin u agar o'shanday yerlarga boradigan bo'lsa, unga yopishgan changlarni ketkazish uchun bir oy kerak bo'ladi, deb hisoblasa kerak. Mister Bingli to'g'risida esa xotiringiz jam bo'laversin – u do'stining ruxsatisiz bir qadam ham bosolmaydi.

– Unda juda yaxshi. Demak, ular boshqa uchrashmaydi, deb umid qilamiz. Aytgancha, Jeyn uning singlisi bilan xat yozishmaydimi? Balki miss Bingli kelib qolishi mumkin.

– Menimcha, u endi bu tanish-bilishlikni yig'ishtirib qo'ysa ham kerak.

Elizabet bu gapi bilan opa-singillari endi mister Binglini Jeyn bilan uchrashishiga yo'l qo'yishmaydi, degan yakunlovchi fikrni aytayotgan bo'lsa-da, bu mavzuni hali davom ettirish niyati ham yo'q emas edi. Yaxshilab o'ylab ko'rib, biroz bo'lsa-da umid bor, degan fikrga keldi. Uning o'ylashicha, mister Binglining ko'ngli yana Jeynni istab bosh ko'taradi va bu hissiyotlar singillariga bo'lgan hislaridan ustun kelib, ularga bo'lgan mutelikni bosib ketishi mumkin.

Jeyn missis Gardinerning taklifini bajonidil qabul qildi. Kerolayn akasidan alohida yashagani bois, mister Darsini uchratib qolish ehtimoli bo'lmagani sabab, Jeyn ba'zan ertalablari u bilan ko'rishib turishi mumkinligiga umid qilayotgandi.

Gardinerlar Longbornda bir hafta bo'lishdi. Filipslar, Lukaslar, ...shir polki zobitlari sabab biror kun ham mehmonsiz o'tmadi. Missis Bennet ukasi va uning xotinini xursand qilishga astoydil harakat qildiki, ular biror kun ham zerikib qolishmadi. Longbornda har kuni albatta bir nechta zobit bo'lar va ular orasida albatta mister Uikxem ham bor edi. Elizabetning bu zobit haqidagi yurakdan aytgan gaplari missis Gardinerga shubhali tuyulib, u yigitga va jiyaniga diqqat bilan e'tibor bera boshladi. Buning natijasida yoshlarning bir-birlariga jiddiy munosabatlari bor, degan xulosaga kelmasa-da, ularning ochiqchasiga bir-birlariga intilayotganlari ayolni tashvishga soldi va missis Gardiner jo'nab ketishlari oldidan Elizabet bilan albatta jiddiy gaplashib olishni ko'ngliga tugib qo'ydi. Uning fikricha, o'z hissiyotlariga erk berib yuborish qiz uchun aqldan emas edi.

Bir hodisa sabab bo'lib, missis Gardiner mister Uikxemga jiddiy qiziqib qoldi. O'n-o'n ikki yillar burun, hali turmushga chiqmasidan oldin, u Uikxemning kelib chiqqan yurti bo'lgan Derbishirda uzoq yillar yashagan edi. Shuning uchun ularning

ikkalasida ham umumiy tanishlar chiqib qoldi. Mister Darsining otasi o'lgandan so'ng o'tgan besh yil davomida o'zi ham u yerlarda bo'lmagan esa-da, Uikxem missis Gardinerga do'stlari haqida o'zi bilganidan ko'ra ko'proq yangiliklarni aytib berdi.

Missis Gardiner bir paytlar Pemberlida bo'lgan va u yerning egasi haqida ko'p narsalarni bilardi. Bu mister Uikxem bilan uning o'rtasida tuganmas mavzu bo'ldi. Pemberli joylashgan yerlarni tasvirlash, mister Darsining marhum otasi haqida yaxshi gaplarni gapirish ularning ikkalasiga ham yoqayotgan edi. Uikxemdan mister Darsi unga nisbatan qilgan nomardligi to'g'risidagi voqeani eshitar ekan, missis Gardiner o'sha paytlarda yosh Darsi haqida eshitganlarini eslashga urindi. Va oxiri yosh Darsining mag'rur va yoqimsiz tabiati to'g'risida eshitganman, deb o'zini ishontirdi.

III bob

Missis Gardiner Elizabetni ogohlantirib qo'ymoqchi bo'lgani yodidan chiqmagan edi va birinchi imkon tug'ilishi bilanoq u bilan o'zining xavotiri haqida gap ochdi. Uni ikkilantirayotgan hamma narsani qizga ochiq-oydin gapirib, dedi:

– Lizzi, seni ogohlantirib qo'ygani sababli ataydan sevib qolmaslik uchun sen yetarli darajada aql-lisan. Shuning uchun men senga to'g'risini aytaman. Sen juda hushyor bo'lishingni xohlayman. O'zing berilib ketmagin va uni ham yo'ldan urma. Ikkalan-gizning ham yetarlicha mablag'ingiz yo'qligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bu aqldan bo'lmaydi. Mening unga ta'na qiladigan hech qanday sababim yo'q. Albatta, u juda kelishgan yigit. Buning ustiga boy ham bo'lgani-da edi, men seni qo'llab-quvvatlagan bo'lardim. Lekin hozirgi sharoitda sen o'zingning tasavvuringga juda

ham erkinlik berib yuborishing mumkin emas. O'zing aqlli qizsan va xatti-harakatlaringda to'g'ri yo'lni tanlashingga ishonaman. Otang ham sening sog'lom fikrlashingga va o'zingni munosib tutishingga ishonayapti. U sendan ranjib qolishi aslo mumkin emas.

– Xolajon, siz shunaqangi jiddiy narsalar to'g'risida gapirayapsiz!

– Albatta. Sen ham bu gaplarni jiddiy qabul qilishingga ishonaman.

– Bu holda mendan xavotir olmasangiz ham bo'ladi. Men o'zim va mister Uikxem haqida o'ylab ko'raman. Agar men xalaqit bera olsam, u o'lib qolsa ham meni sevib qolmaydi.

– Elizabet, sen hazilga olayapsan.

– UZR. Boshidan boshlayman. Men hozir mister Uikxemni sevib qolmaganman. Buni ishonch bilan ayta olaman. Lekin shubhasiz, u men uchratgan yigitlar ichida eng kelishgani. Meni chindan yoqtirganida edi... Aslida bunday bo'lmagani ma'qul. Bu qanchalik aqldan emasligini juda yaxshi tushunib turibman. Eh, bu mister Darsi!.. Albatta, otamning menga bo'lgan ishonchini suiiste'mol qila olmayman. Agar uni aldasam, o'zimni kechira olmasdim. Lekin otam mister Uikxemni yoqtiradi. Qisqasi, xolajon, birortangizni ham xafa qilib qo'yishni xohlamayman. Lekin biz kuniga qanchadan-qancha sevishtiganlar hech qanday to'siqlarsiz bir-birlariga yetishganlarining guvohi bo'lamiz-ku! Men qanday qilib, bu borada tengdoshlarimdan aqlliyoq bo'lamen, deb so'z bera olaman? Bu ishim to'g'ri bo'ladimi yoki yo'qmi – bunisi ham nomalum... Shuning uchun men faqat shoshmaslikka va'da bera olaman. Men chindan ham uning yuragini zabt etdim, deb xulosa qilishga shoshmayman. U bilan birga bo'lganimda bunga intilmayman. Qisqasi, qo'limdan kelgan hamma narsani qilaman.

– Unga bu yerga ko‘p kelmasligini sekingina aytib qo‘yish kerakmasmikin? Juda bo‘lmaganda, o‘zing uni taklif qilish kerakligini onangning yodiga solma.

– Kecha qilganimni aytayapsizmi? – qizarib so‘radi Eliza. – Ha, siz haqsiz. Men noto‘g‘ri ish qildim. Lekin siz u doimo biznikida ekan, deb o‘ylamang. Bu hafta uni sizlar shu yerda ekanligingiz uchungina taklif qildik. Axir, onam mehmonlarni yaxshi ko‘rishini o‘zingiz bilasiz-ku! Rost, menga nima to‘g‘ridek tuyulsa, o‘shani qilishga so‘z beraman. Endi xursandmisiz?

Missis Gardiner qizning javobidan qoniqqanini aytdi. Elizabet esa uning g‘amxo‘rligi uchun minnatdorchilik bildirdi va ikkalasi xayrlashishdi.

Gardinerlar va Jeyn jo‘nab ketishlari bilan Xartfordshirga mister Kollinz keldi. Lekin bu safar Lukaslarnikida to‘xtagani uchun uning kelishi missis Bennetga ko‘p ovoragarchilik keltirmadi. Uning nikohi yaqinlashayotgan bo‘lib, missis Bennet bunga ko‘nikkan va hatto, vaqti-vaqti bilan bu nikoh yaxshilik bilan tugashiga umid bildirardi.

To‘y kuni payshanbaga belgilangan edi, chorshanba kuni esa miss Lukas xayrlashish uchun Longbornga keldi. Qaytib ketayotganida onasining qiz bilan sovuqqina xayrlashganidan uyalgan Elizabet dugonasini ko‘chagacha kuzatib chiqdi:

– Eliza, menga tez-tez xat yozib turaman, deb va‘da ber.

– Ishon, albatta yozib turaman.

– Yana bir narsani iltimos qilaman. Meni ko‘rgani borasan-a?

– Xartfordshirda tez-tez uchrashib turamiz, deb umid qilaman.

– Yaqin orada Kentdan chiqa olmasam kerak. Shuning uchun menga Xansfordga boraman, deb va‘da ber.

Elizabet bu sayohat unga hech ham qiziqarli ko'rinmayotgan bo'lsa-da, dugonasiga rad javobini bera olmadi.

– Martda otam va Mariya menikiga borishmoqchi, – davom etdi Sharlotta. – Sen ular bilan borsang bo'ladi. Eliza, rost, borsang juda xursand bo'laman.

Nikoh o'qilgach, yoshlar cherkovdan to'ppa-to'g'ri Kentga jo'nab ketishdi va odatda bo'ladigandek, nikoh to'g'risida rosa gap-so'zlar bo'ldi. Tez kunda Elizabet dugonasidan xat oldi. Shundan so'ng ular, oldingichalik bo'lmasa-da, tez-tez xat orqali bir-birlari bilan gaplasha boshlashdi. Har safar xat yozishga o'tirar ekan, Elizabet dugonasi bilan ruhan yaqinligi oldingidek emasligini sezgandek bo'lardi. Kanda qilmay xat yozishar ekan, u hozirgi emas, o'zlarining avvalgi do'stliklari haqqi xat yozayotgandek tuyulardi. Sharlottaning birinchi xatlari katta qiziqish bilan o'qildi. U unga o'zining yangi uyi haqida nimalar deyishi, ledi Ketrin unga qanday yoqqanligi, o'zining baxti haqida nimalar deyishi hamma uchun qiziq edi. Lekin dugonasining xatlarini o'qir ekan, Elizabet ular qanday javob kutayotgan bo'lsalar, aynan shu narsalar yozilishiga e'tibor berdi, ya'ni har narsadan xotirjam, hamma narsa bisyor ekanligini, arz qiladigan narsa yo'qligini yozar edi. Uy, jihozlar, qo'shnilar va yo'llar – hammasi uning ko'nglidagidek, ledi Ketrin esa o'ziga nisbatan juda do'stona munosabatda ekan. Sharlotta tasvirlagan narsalar mister Kollinzning qo'li bilan yozilgandek tuyulardi. Elizabet dugonasining hayoti to'g'risidagi haqiqatni faqat Xansfordga borib, o'z ko'zi bilan ko'rgachgina bilishini tushundi.

Jeyn borishi bilanoq singlisiga Londonga esonomon yetib kelishganini yozib yubordi. Elizabet Jeyn keyingi xatida Binglilar oilasi to'g'risida biror nima yozib qolar, deb umid qildi. Tez orada u sabrsizlik bilan kutgan xat keldi. Poytaxtda bir hafta bo'lib,

Jeyn Kerolaynni uchratmabdi va u haqda hech narsa eshitmabdi. Jeyn buni o'zining Kerolaynga Longborndan yuborgan xati yo'lda qayerdadir yo'qolib qolgan bo'lishi mumkin, deb izohlardi.

«Xolamiz, – davom etdi Jeyn, – ertaga shaharning o'sha qismiga bormoqchi va men ham fursatdan foydalanib, Grovnor-stritga bormoqchiman».

Jeynning keyingi xati u Grovnor-stritga borib, miss Binglini ko'rganidan so'ng yozilgan edi:

«Menimcha, Kerolaynning kayfiyati yo'qroq edi, lekin u meni ko'rganidan juda xursand bo'ldi va nega Londonga kelayotganimni unga xabar qilmaganimga rosa gina qildi. Demak, unga yozgan xatim qayerdadir yo'qolgan bo'lsa kerak, deganim rost ekan. Albat, men undan akasining sog'lig'i haqida so'radim. U sog'-salomat ekan, lekin ko'p vaqtini mister Darsi bilan o'tkazgani uchun qizlar uni juda kam ko'rishayotgan ekan. Shu kuni ularnikiga birgalikda tushlik qilish uchun miss Darsi keladigan ekan. Ochig'ini aytsam, men uni juda ko'rgim kelayapti! Men ular bilan ko'p bo'la olmadim, chunki Kerolayn va missis Xyorst qayergadir shoshilishayotgandi. Yaqin kunlarda ularni menikida ko'raman, deb umid qilaman».

Xatni o'qib bo'lgach, Elizabet boshini chayqab qo'ydi: mister Bingli Jeynning shaharga kelganini faqat tasodif orqaligina bilishi mumkin.

Jeynning Londonga kelganiga to'rt kun bo'lsa-da, u hali ham mister Binglini ko'rmagan edi. Jeyn buning uchun hech ham xafa emasman, deb o'zini ishontirishga urinsa-da, miss Binglilarning o'ziga nisbatan bee'tiborligini sezmasligining iloji yo'q edi. U har kuni nima deyishni o'ylab, miss Binglini kutib ikki haftani o'tkazganda, axiri Gardinerlarnikiga Kerolayn kirib keldi. Uning juda qisqa vaqtga kirgani va quruqqina gap-so'zidan Jeyn endi o'zini ortiq aldab bo'lmasligiga

ishondi. Uning bu paytda nimalarni his qilgani singlisiga yozgan xatlarida aks etgandi:

«Azizam Lizzi! Miss Binglining menga do'stona munosabatda bo'lganini chin ko'ngildan, deb o'ylab qat-tiq yanglishganimni eshitib, mening ustimdan tanta-na qilmassan, deb umid qilaman. Lekin singiljonim, hayot sen haqligingni isbotlagan bo'lsa-da, men hatto hozir ham uning o'sha paytdagi o'zini tutishidan kelib chiqib, mening ishonchim sen unga gumon bilan qara-ganingdan ko'ra tabiiyroq edi, desam meni o'jarlikda ayblama. Lekin nima uchun u men bilan yaqinlashish-ga harakat qilgani menga noma'lumligicha qolayap-ti. Lekin o'sha payt yana qaytariladigan bo'lsa, men baribir yana yanglishgan bo'lardim. Kerolayn kechagi kungacha biznikiga kelgani yo'q edi. Shu paytgacha esa undan hech qanday xabar ham kelmadi. Kelgani-danoq uning uchrashuvimizdan xursand bo'lgani sezil-gani yo'q. U shu paytgacha meni ko'rishga kelmagani uchun sovuqqina uzr so'rab qo'ydi, kelgusida men bilan ko'rishib turmoqchi ekanligi to'g'risida biror og'iz ham so'z aytmadi. Dugonam shunday o'zgarib ketgan ediki, ketgach, men u bilan endi aloqani davom ettirmaslikka qaror qildim. Lekin afsuski, uni aydbor qilmasdan ilojim yo'q. Miss Binglining men bilan o'rtoq tutinishining ho-jati yo'q edi – men seni ishontirib aytamanki, har safar yaqinlashish uchun uning o'zi qadam qo'ygan edi. Le-kin baribir unga rahmim keladi, chunki yaxshi ish qil-mayotganiga aqli yetsa kerak. Bu xatti-harakati akasi-ning taqdiriga beparvo qaramayotganidan bo'lsa kerak. Buni boshqacha tushuntirishning iloji yo'q. Sen bilan ikkalamiz Kerolaynning xavotir olishiga asos yo'qligini bilsak-da, u shuni his qilayotgan ekan, bu uning men-ga bo'lgan munosabatining sababini anglatadi. Buning ustiga akasi uning mehriga munosib va singlisining unga nisbatan g'amxo'rlik qilishi ham tabiiydir. Lekin baribir,

missi Binglining mendan qo'rqishi hayron qoldirayapti, chunki hali ham akasining yodida bo'lganimda biz allaqachon uchrashgan bo'lardik. U mening Londonga kelganimni biladi, mening bunga ishonchim komil – miss Binglining o'zi bir aytgandi. Shunday bo'lsa-da, uning gap ohangidan, akasi miss Darsini sevadi deb xuddi o'z-o'zini ishontirishga urinayotganga o'xshaydi. Men ana shu narsani tushunmayapman. Lekin men hamma yomon fikrlarni o'zimdanda haydashga urinayapman va faqat yoqimli narsalar to'g'risida – sen bilan ikkalamizning do'stligimiz, amakim va xolamizning menga nisbatan g'amxo'rliklari to'g'risida o'ylashga harakat qilayapman. Iloji bo'lishi bilan menga tezroq xat yozib yubor. Miss Bingli, juda ishonarli bo'lmasa-da, akasi endi Nezerfildga bormasligini va ijara uydan voz kechishini aytdi. Bu gaplarni uyda yaxshisi aytib o'tirmay qo'ya qol. Xansfordlik do'stlarimiz haqidagi yaxshi xabarlardan xursand bo'ldim. Ser Uilyam va Mariya bilan ularnikiga albatta borin. U yerlar senga yoqadi deb ishonaman.

Sening Jeyning»

Bu xatdan Elizabetning ko'ngli og'ridi. Lekin opasining endi juda bo'lmaganda miss Bingliga aldab qolmasligini o'ylab, ruhi biroz ko'tarildi. Mister Bingliga nisbatan esa endi tamoman umid yo'q edi. Elizabet endi hatto yigit opasining ketidan yurishini xohlamay ham qoldi – qizning oldida uning shunchalik obro'si qolmagandi. Va qiz Binglining miss Darsi bilan to'yi tezroq bo'lib o'tishini chin dildan tiladi, bu narsa Jeynga osoyishtalik, yigitning o'ziga esa jazo bo'lgan bo'lardi, chunki Uikxemning aytganlari rost bo'lsa, Jorjiana o'z tabiati bilan tez kunda Binglini tavbasiga tayantirgan bo'lardi.

Shu kunlarda Elizabet missis Gardinerdan ham xat oldi. U xatida qizga Uikxem haqidagi va'dasini esiga

solib, yangiliklarni yozib yuborishni so'ragan edi. Elizabetning bu haqda yozgan narsasi o'zidan ham ko'ra xolasiga yoqimliroq edi: Uikxemning o'ziga nisbatan bo'lgan qiziqishi so'nib, hozirda u boshqa qizga qarab ketgan edi. Elizabet buni vaqtida sezib qolib, ushbu voqeani sovuqqonlik bilan qarshi oldi va xolasiga ham bularni tinchgina yozib yubordi. Agar o'zi yetarli darajada mol-mulkka ega bo'lganda, yigit bunday qilma-gan bo'lardi, degan fikr ham uning yuragiga tegmadi. Yigit hozir ko'nglini olishga harakat qilayotgan qizning undan yuqoriligi shunda ediki, u birdaniga o'n ming funtga ega bo'lib qolgandi. Elizabet Sharlotta bilan bo'lgan voqeadagidan farqli o'laroq, Uikxemning mus-taqillikka intilishi uchun ta'na qilmadi. Qaytaga ham-ma narsa tabiiy bo'ldi-ku! O'z xohishidan voz kechish baribir yigitga biroz og'ir bo'lgan, degan fikrni xayoli-ga ham keltirmaslikka urinib, uning bu qarori o'ylab qilinganiga va bu ikkalasi uchun ham to'g'ri bo'lgani-ga o'zini ishonтира bildi va chin yurakdan Uikxemga baxt tiladi.

O'ylaganlarining hammasini missis Gardinerga yozar ekan, davom etdi:

«Xolajon, men chinakamiga sevib qolmaganimga amin bo'ldim. Chunki agar men bunday samoviy va toza tuyg'ularni his qilganimda edi, hozir uning nomi-ni eshitiboq, sakrab tushgan va unga yomonliklar ti-lab o'tirgan bo'lardim. Men esa nafaqat uning o'ziga, balki miss Kingga ham do'stona munosabatdaman. Men u qizga nisbatan hech qanday nafrat hissini tuymayapman va hatto u haqda yomon so'z aytishni ham xohlamayman. O'zimni tuta olishim menga yor-dam berdi. Agar uni rostakamiga sevib qolganimda atrofdagilar uchun juda qiziq bo'lgan bo'lardi, lekin men bu voqeadan g'amga botib o'tiribman, deya ol-mayman. Ba'zan shuhrat qozonish juda qimmatga

tushadi. Kitti bilan Lidiya uning xoinligini mendan ko'ra yuraklariga yaqin olishdi. Ular hali juda yosh va eng kelishgan yigitlar ham xuddi eng ko'rimsiz yigitlardek yashash uchun mol-mulkka ega bo'lishlari kerak, degan haqiqatni tushunishmaydi».

IV bob

Yanvar va fevral oylari Bennetlar oilasi uchun hech qanday muhim voqealarsiz o'tdi. Ba'zan Meriton bo'ylab goh muzlagan, goh loy bo'lib yotgan ko'chalarda aylanib kelishlarini hisobga olmasa, kunlar bir xil o'tardi. Mart oyida Elizabet Xansfordga borishi kerak edi. Avvaliga u bu sayohat haqida jiddiy o'ylamayotgandi. Lekin o'ylab-o'ylab, Sharlotta chindan ham uning kelishini kutayotgan bo'lishi mumkinligiga ishonib va bu sayohatga albatta bo'lishi lozim bo'lgan va juda ham yoqimsiz hodisa emas, deb qaray boshladi. Dugonasi bilan ayriliq unga bo'lgan intilishni kuchaytirgan va mister Kollinzga bo'lgan dushmanlik hissini ham yumshatgan edi. Bu sayohat unga yangi taassurotlar va'da qilar, onasi va janjalkash singillari bilan munosabatlarini doim ham yoqimli deb bo'lmagani uchun vaqtinchalik sharoitni almashtirish o'ziga ham yoqayotgan edi. Sayohat bundan tashqari unga Jeynni ko'rib kelish imkoniyatini ham berar edi. Xullas, safar vaqti yaqinlashar, agar uni kechiktirish kerak bo'lib qolsa, qiz endi achingan bo'lardi. Biroq hech qanday qarshilik kelib chiqmadi va hamma narsa Sharlotta avvaldan rejalashtirgandek hal bo'ldi: Elizabet ser Uilyam va uning ikkinchi qizi Mariya bilan yo'lga chiqishi kerak edi. Bir kechani Londonda o'tkazish taklifi ham hammaga ma'qul bo'ldi.

Elizabetning xursandchiligiga raxna solayotgan narsa faqat otasi bilan ayriliq edi. Qizining uyda yo'qli-

gini eng his qiladigan ham otasi edi. Jo'nash vaqti keldanda mister Bennet qizini hech ham qo'yib yuborgisi kelmadi va unga albatta xat yozib turishni buyurdi.

Uikxem bilan xayrlashuv esa do'stona kechdi. Yigit Elizabetning birinchi bo'lib o'zi uning diqqatini jalb qilganini, birinchi bo'lib uni tinglaganini va o'zining hamdardligini bildirganini, birinchi bo'lib uning diqqatiga sazovor bo'lganini unutmagan edi. Uning qiz bilan unga yaxshiliklar tilab xayrlashishida ham, ledi Ketrin de Byordan nima kutishi mumkinligini esiga solayotganida ham, bu ayol va boshqa o'zi uchun umumiy bo'lgan tanishlar to'g'risida fikri bir joydan chiqishiga aminligini aytayotganda ham bir do'stona ohang bor ediki, go'yo Elizabetning e'tiborini butunlay qozongan-dek. Yigit bilan xayrlashar ekan, Elizabet uning uylanganmi yoki yo'qligidan qat'i nazar, o'zi uchun eng yaxshi, yigit timsoli bo'lib qolishiga amin edi.

Ertasi kuni Elizabetga qo'shilgan hamrohlari uning Uikxem bilan xayrlashuvidan qolgan xush kayfiyatiga aslo xalaqit bermadilar. Ser Uilyam Lukas va uning yumshoqko'ngil, lekin otasidan battar tentak qizi Mariya bir og'iz ham ma'nili gap aytmas, Elizabet esa ularning gaplariga g'ildiraklarning g'irchillashiga qanday quloq tutayotgan bo'lsa, shunday quloq solib ketar edi. Inson tabiatining qiziqligi doim uning e'tiborini tortardi, lekin ser Uilyamni anchadan beri bilardi. Saroy tartiblari to'g'risida gapirib ketar ekan, Elizabetga hech qanday yangilik ochmadi.

Hamrohlar hammasi bo'lib yigirma to'rt mil yurishlari kerak bo'lib, tushlikkacha Greyschyorch-stritga yetib kelish uchun ular vaqtli yo'lga chiqishgan edi. Mister Gardinerning uyiga yaqinlashganlarida Jeyn mehmonxona derazasidan qarab, ularning kelishlarini kutayotgan edi. Qiz mehmonlarni kiraverishda kutib oldi. Elizabet opasining ochilib ketganidan xursand bo'lib ketdi. Zinada ularni bir necha yosh bolalar

kutib turishardi. Bir yillik fursatdan so'ng amakivachchalarining holati ular uchun qiziq edi.

Kunning birinchi yarmi do'kon aylanish bilan, ikkinchi yarmi esa teatrga sayohat qilish bilan o'tdi.

Elizabet, nihoyat, missis Gardiner bilan gaplashishga erishdi. Ularning suhbatı avvalo Jeyn haqida bo'ldi. Elizabet bir qancha so'rab-surishtirishlardan so'ng Jeyn o'zini qo'lga olishga harakat qilayotgan bo'lsa-da, gohida ezilayotganini eshitib, xafa bo'lib ketdi. Missis Gardiner miss Binglining tashrifi va o'zining Jeyn bilan bir necha marta qilgan suhbatı haqida gapirib, Jeynning bu tanishuvni mutlaqo yoddan chiqarishga qaror qilganini aytdi.

Missis Gardiner mister Uikxemning xiyonati haqida Elizabetga hazillashib, uni bu xiyonatni mardonavor o'tkazgani bilan tabriklab, dedi:

– Aytgancha, miss King kimligini bilasizmi? Bizning yosh do'stimiz hamma narsani faqat o'z manfaatini o'ylab qilishiga ishonishni xohlamasdim.

– Lekin uylanish va turmushga chiqish masalalarida o'z manfaatı uchun yoki aql bilan ish qilish o'rtasida aniq chegara bormikan o'zi? O'ylab ish qilish qayerda tugab, ochko'zlik qayerda boshlanishini kim biladi? Rojdestvo bayrami kunlari siz u aqldan ozib menga uylanishidan qo'rqayotgan edingiz. Endi esa u o'n ming funt puligina bor qizga uylanayotgani uchun uni boshqa narsada ayblayapsiz.

– Agar miss King qanday qizligini aytsang, men senga u to'g'risida xulosa chiqarib beraman.

– Menimcha, juda ajoyib qiz. U haqda birorta yomon gap aytolmayman.

– Lekin missis King buvasi o'lib, bu pullarga qiz ega chiqmaguncha yigit unga hatto qayrilib ham qaramagan edi-ku!

– Ha, nima qilibdi? Agar mening kambag'alligim uchun u menga qayrilib qaramagan ekan, nega

endi agar unga yoqmagan bo'lsa ham mendan boyroq bo'lmagan xuddi shunday qizning orqasidan yurishi kerak?

– Uning qiz meros olishi bilan unga e'tibor qila boshlagani senga uyatli bo'lib tuyulmayaptimi?

– Yetishmovchiliklar orasida yashayotgan odamga hamma uchun majburiy hisoblangan odatlarga doim ham amal qilish qiyin. Agar qizning o'zi qarshi bo'lmasa bizga nima?

– Miss Kingning ko'ngilchanligi mister Uikxemni oqlamaydi. Bu faqat uning aqli kaltaligi yoki befarosatligidan darak beradi.

– Mayli, siz aytgancha bo'la qolsin: u – yulg'ich, qiz esa – tentak.

– Lizzi, buning menga hech ham keragi yo'q. Nahotki men derbishirlik yigit haqida yomon o'ylagim kelmayotganini sen tushunmayotgan bo'lsang?

– Ha-a-a, mana gap nimada ekan! Agar gap shunda bo'lsa, mening derbishirlik yigitlar haqidagi fikrim juda ham yuqori emas. Ularning Xartfordshirda yashaydigan eng yaqin do'stlari ham ulardan qolishmaydi. Hammasidan ham nafratlanaman. Xudoga shukurlar bo'lsinki, ertaga birorta ham ijobiy fazilatlariga ega bo'lmagan, na aqli va na xatti-harakatlari bilan ajralib turmaydigan odamni ko'raman. O'zi faqat tentaklar bilan muomala qilish kerak.

– Lizzi, ehtiyot bo'l. Gaplaringdan hafsalang pir bo'lganga o'xshaydi.

Spektakl tugash arafasida Elizabetga mister va missis Gardinerlardan ularning mamlakat bo'ylab sayohatlari davrida birga aylanish uchun taklif tushdi:

– Hali qayergacha borishni hal qilganimizcha yo'q. Balki Ko'llar o'lkasigacha borarmiz.

Boshqa hech bir narsa Elizabetni shunchalik xursand qilmagan bo'lardi. U taklifni minnatdorchilik bilan bajonidil qabul qildi:

– Azizam, mehribonim, xolajonim, – hayajon bilan xitob qildi u, – qanday yaxshi! Siz menga yangi hayot bag'ishladingiz! Balandliklar va qoyalar oldida odamlar nima degan gap! Oldimizda qanday ajoyib damlar turibdi! Biz esa qaytib kelgach, ikki og'iz gapni birga qo'shib aytolmaydigan sayyohlar emasmiz. Kim-kim-u, biz qayerlarda bo'lganimizni va nimalarni ko'rganimizni aytib bera olamiz. Ko'llar, tog'lar va daryolar esimizdan chiqmaydi va birorta ajoyib narsani tasvirlab turib, tutilib qolmaymiz. Shuning uchun ham bizning hikoyamiz tinglovchilarga boshqalarnikiga o'xshab zerikarli bo'lib tuyulmaydi.

V bob

Ertasi kuni sayohat davomida Elizabetning diqqatini tortgan hamma narsa unga yangi va qiziq bo'lib tuyulib, yuragi xursandchilikdan gurs-gurs urardi. Jeynning ko'rinishi uning sog'lig'idan xavotir olmasa ham bo'lishini aytib turar, shimolga sayohat esa quvonchli kayfiyat uchun bahona edi.

Karetalari katta yo'ldan Xansfordga olib boradigan loy ko'chaga burilar ekan, yo'lovchilar har bir muyulishda bo'lishi mumkin bo'lgan pastorning uyini ko'zlari bilan qidira boshlashdi. Ular Rozings park yonidan o'tishar ekan, Elizabet bu yerning odamlari to'g'risida eshitganlarini eslab, jilmayib qo'ydi.

Nihoyat, mister Kollinzning uyi ham ko'rindi. Ichkaridan uyi ko'rinib turgan, yo'lga tutashib ketgan bog', yashil to'siq, lavr butasi – hammasi kutilgan marraga yetib kelinganini bildirib turardi. Eshikda kulib va ta'zim qilishib, mister Kollinz va Sharlotta ko'rinishdi, kulib va ta'zim qilib turgan passajirli ekipaj ham uydan torgina toshli yo'lak ajratib turgan eshik oldida to'xtadi. Kelganlar o'sha zahoti karetdan tushib, uy egalari bilan ko'risha ketishdi. Missis Kol-

linz dugonasini juda suyunib kutib oldi, buni ko'rib Elizabet ham kelishga rozi bo'lganidan xursand bo'ldi. U uzundan-uzoq qilib oilaning har bir a'zosi haqida so'rab, mehmonlarni eshik oldida ushlab qolgan mister Kollinzni ko'rib, uylanish uni hech ham o'zgartirmaganini darrov sezdi. Uy ichiga kirishar ekan, eshik oldida hozirgina xotini aytgan gaplarni takrorlab, ularni o'zining kamtarona boshpanasiga taklif qildi.

Elizabet mister Kollinzning haqiqiy qiyofasini ro'ystro ko'rishga oldindan hozirlanib kelgan edi. Mister Kollinz uyining ichlarini, jihozlarni, derazadan tashqarilarni ko'rsatar ekan, Elizabetga bu holat xuddi unga turmushga chiqmay nimalardan quruq qolganini qizga ko'rsatib qo'yish uchun gapirayotganday bo'lib tuyuldi. Qiz esa, hamma narsa shinam bo'lib ko'rinsa-da, o'zini unga turmushga chiqmagani uchun achinayotgandek qilib ko'rsata olmadi, dugonasining esa, u qanday qilib shunday umr yo'ldoshi bilan yashab, o'zini xushchaqchaq tuta olayotganiga hayron edi. Mister Kollinz xotinini noqulay ahvolga solib qo'yadigan biror narsa deganda – bu esa bir necha marta takrorlandi – Elizabet har safar Sharlottaqa qarab qo'yardi. U bir-ikki marta dugonasining qizarib ketganini sezdi, lekin Sharlotta ko'p hollarda erining bunday gaplarini qulog'ining tagidan o'tkazib yuborardi. Mehmonxonada u yerdagi hamma narsani – bufetdan tortib, kamin panjarasigacha muhokama qilishib, sayohatlarini tasvirlab, Londonda nimalarni ko'rganlari to'g'risida gaplashib, yetarlicha o'tirishgach, mehmonlar uy egasi bilan uning o'zi barpo qilgan ajoyib bog'ga chiqishdi. Bog'da ishlash yigitning sevgan mashg'uloti edi va Sharlotta jismoniy mehnatning foydali ekanligi va erining bu qiziqishini yurakdan qo'llab-quvvatlashini aytar ekan, o'zini juda yaxshi tutayotganini Elizabet mamnun bo'lib kuzatdi. Mehmonlarni uzunasiga, ko'ndalangiga o'tgan

yo'lkalardan olib yurar ekan, mister Kollinz oldida paydo bo'layotgan har bir go'zallikka ularning diqqatini tortar, lekin bu gaplardan go'zallik go'yo o'zining maftunkorligini yo'qotayotgandek bo'lardi. Lekin uning bog'ining, graflik va hatto qirollikning ovozasini yoyadigan narsa daraxtlar orasida ko'rinib turgan, tepalikda qurilgan chiroyli zamonaviy bino edi.

Mister Kollinz ularni bog'dan to'g'ri dalasiga olib bormoqchi edi, lekin ayollarning oyoq kiyimlari hali erib bitmagan qorda yurishga noqulay bo'lgani uchun u bilan faqat ser Uilyam birga ketdi. Sharlotta esa, eri yo'qligidan foydalanib, singlisi va dugonasiga uyni aylantirib ko'rsatib chiqmoqchi bo'ldi. Bino katta emas, lekin qulay va puxta o'ylab qurilgan edi. Bu yerda hamma narsa did bilan jihozlangan bo'lib, Sharlottaning bekalik qobiliyatidan darak berib turardi. Hamma narsada to'la-to'kislik ufurib turardi. Sharlottaning xotirjam yuziga razm solar ekan, Elizabet dugonasi rostdan ham ko'p hollarda erini esga olmasligiga amin bo'ldi.

Ledi Ketrinning hali ham Londonga ko'chib o'tmagan Elizabetga ma'lum edi. Tushlikda bu to'g'risida gap ketar ekan, suhbatda ishtirok etayotgan mister Kollinz dedi:

– Ha, miss Elizabet, yakshanba kuni siz cherkovda ledi Ketrin de Byorni ko'rish sharafiga muayassar bo'lasiz va undan qanchalik hayratlanishingizni aytib o'tirishimning hojati yo'q. Men uchun bekam kamtarlik va samimiylik timsolidir. Aminmanki, xizmatigingiz tugagach, siz uning nazariga tushasiz. Yana ikkilanmasdan aytamanki, u xotinim Sharlottaga nisbatan ham juda e'tiborli. Biz Rozingsda haftasiga ikki marta tushlik qilamiz va hech qachon uyga yayov qaytmaymiz: zoti oliylarining ekipaji bizning xizmatimizda. Ekipajlaridan biri deb aytsam to'g'riroq bo'ladi, chunki ular bitta emas.

– Ledi Ketrin rostdan ham og‘ir-bosiq ma’nili ayol,
– erining gaplarini tasdiqlab, dedi Sharlotta. – Juda e’tiborli qo‘shni ham.

– To‘ppa-to‘g‘ri, azizam, men ham xuddi shunday demoqchi edim. Bunday insonga nisbatan hurmat hech qachon haddan ortiq bo‘lishi mumkin emas.

Kechqurun asosan Xartfordshirdagi yangiliklar haqida gaplashib o‘tirishdi. O‘z xonasida yolg‘iz qolar ekan, Elizabet dugonasining o‘z taqdiridan qanchalik qoniqayotganligi haqida, uning eriga munosabatlari-da qanday yo‘l tutayotgani to‘g‘risida o‘ylab ko‘rib, dugonasi hamma narsani to‘g‘ri qilyapti, degan xulosaga keldi. Hatto, o‘zining bu yerga tashrifi qanday o‘tishini ham ko‘z oldiga keltirdi: odatdagi uy ishlari va dugonasi bilan suhbat, mister Kollinzning yopishqoqligi, Rozingsda bo‘ladigan tantanali uchrashuv – hammasi ketma-ket uning ko‘z oldidan o‘ta boshladi.

Ertasi kuni Elizabet aylanib kelish uchun xonasida kiyinayotganida birdan pastdan shovqin-suron eshittilib qoldi. Mister Kollinzning uyi xuddi ostin-ustin bo‘layotgandek edi. Asta quloq solar ekan, kimdir uni chaqirib zinadan chiqib kelayotganini sezdi. Eshikni ochayotib, hansirab kelayotgan Mariyani ko‘rdi:

– Eliza, azizam, xudo haqqi, tezroq! Oshxonaga yuguring. Derazadan kimni ko‘rishingizni bilsangiz edi! O‘zim o‘lsam ham aytmayman! Tezroq, tezroq, bo‘la qoling!

Elizabet Mariyadan gap nimadaligini so‘rab qis-tagani hech ish bermadi. Qiz unga baribir hech nimani aytmadi va ikkalasi oshxonaning ko‘cha to-monga qaragan derazasiga qarab yugurishdi. Derazadan ular uyning eshigi oldida to‘xtagan fayton-da o‘tirgan ikkita ayolni ko‘rishdi.

– Shuginami? – xitob qildi Eliza. – Men esa bog‘ga cho‘chqa kirib qolibdi, deb o‘ylabman, bular atigi ledi Ketrin bilan qizi ekan-ku!

– Eliza, nimalar deyapsiz! – dedi Mariya uning yanglishganidan jahli chiqib, – qanaqa ledi Ketrin? Keksa ayol – bu missis Jenkinson, uning sherigi, yoshrogʻi esa miss de Byor! Yaxshilab qarang. Qanaqa kichkina-ya! U shunaqa ozgʻin va kichkinagina deb hech oʻylamagandim!

– Shunday shamolda ular Sharlottani koʻchada ushlab turishlari yaxshi emas. Uyga kirish qiyin ekanmi?

– Sharlotta ular hech ichkariga kirishmasligini aytgandi. Miss de Byorning uyga kirishi shuni oʻziga munosib koʻrganidan emish.

– Menga uning koʻrinishi yoqdi, – dedi Elizabet, boʻlgan voqealar esiga tushib. – U kasalmand va asabiya oʻxshaydi. Juda yaxshi, unga munosib xotin boʻlishga arziydigan qiz.

Eshik oldida Sharlotta va mister Kollinz faytondagi ayollar bilan gaplashib turishardi. Ser Uilyam esa kiraverishda joylashib olib, mehmonlarga hurmat bilan tikilib turar, har safar miss de Byorning unga koʻzi tushganda, egilib taʼzim qilardi.

Oxiri gaplari tugagach, faytondagilar joʻnab ketishdi va er-xotin uyga kirishdi. Kollinz qizlarni koʻrishi bilan ularga yangilikni aytib, tabrikladi. Sharlottaning aytishicha, yangilik ertangi kunga ularni Rozingsga mehmonga taklif qilishganidan iborat ekan.

VI bob

Mister Kollinz mehmonga taklif qilinganidan juda xursand edi. U mehmonlarga oʻz bekasining qanchalar oliy tabaqadan chiqqan va hurmatli ekanligini, uning oʻzi va xotiniga nisbatan hurmatini koʻrsatib qoʻygisi kelayotgandi. Ushbu taklif juda tez boʻlganini hisobga oladigan boʻlsa, rostdan ham

bu ledi Ketrinning unga bo'lgan yaxshi munosabatidan darak berardi.

– Tan olaman, – dedi u, – agar zoti oliyalari bizni dam olish kuni kechqurun choyga taklif qilganida ham menga erish tuyulmagan bo'lardi. Aksincha, uning juda ko'ngilchanligini bilganim uchun men hatto bunga tayyor edim. Lekin u bizga shunchalik e'tibor beradi, deb kim o'ylabdi deysiz! Kelishimiz bilan bizni mehmonga taklif qilishadi, yana hammamizni taklif qilishadi, deb kimning xayoliga kelibdi deysiz!

– Meni bu hech ham hayratga solgani yo'q. Xudoga shukurki, jamiyatdagi o'rnim orqasidan men yuqori tabaqadagi kishilarning odatlari bilan biroz tanishman, – dedi ser Uilyam. – Va aytib o'tishim lozimki, bunday odatlar saroyda kamyob narsa emas.

O'sha kuni va ertasi kunning ertalabki qismi zoti oliyalarinikiga borish haqida bo'ldi. Mister Kollinz mehmonlar katta zallarni, hisobsiz xizmatkorlar va ajoyib yasatilgan dasturxonni ko'rganlarida o'zlarini yo'qotib qo'ymasliklari uchun ularni Rozingsda nimalar kutayotganiga tayyorladi.

Ayollar yasanish uchun xonalariga tarqalishar ekan, u o'zicha maslahat berish uchun Elizabetni to'xtatdi:

– Siz kiyimingiz haqida bezovta bo'lmasangiz ham bo'ladi. Ledi Ketrin bizlardan o'zi va miss de Byorgagina xos bo'lgan yasan-tusanni kutmaydi. Men sizga shunchaki sal bayramona bir ko'ylak kiyishingizni maslahat berardim. Sizni ishontirib aytamanki, soddagina kiyinsangiz, ledi Ketrin siz haqingizda yomon o'ylamaydi. Aksincha, qaytaga jamiyatdagi o'rinlaringiz ajralib turgani bu ayolga hatto yoqadi.

Hamma kiyinayotganda mister Kollinz har bir eshikning oldiga borib, zoti oliyalari kech qolganini yoqtirmasligini aytib, tezroq bo'lishga shoshirdi. Elizabet mister Kollinz kutganchalik bo'lmasa-da,

bo'lajak mehmondorchilikni ko'z oldiga keltirib, hayajonlanardi. Lekin borajak yerlaridagi uyning dera-zalari soni, ularga qachonlardir marhum ser Lyuis de Byor qo'ydirgan oynalarning narxi uni hayratlantirmayotgandi.

Ular uy oldiga yaqinlashishar ekan, Mariyaning qo'rqqoligi kuchaya boshladi, hatto ser Uilyam ham xotirjam emasdi. Elizabet esa, aksincha, hech qanday qo'rquvni his qilmadi. U ilgari ledi Ketrinning biror iste'dodi yoki bir boshqa xislatlari haqida hech narsa eshitmagan, boylik va hammaga taniqlilik haqida esa hayajonlanish shart emas, deb hisoblardi.

Mister Kollinz ularning e'tiborini kattaligi va bezaklariga qaratgan xonadan o'tib, xizmatkorlar ketidan miss de Byor va missis Jenkinson o'tirgan xonaga kirishdi. Ledi Ketrin mehmonlarni kutib olish uchun o'rnidan turishni o'ziga ep ko'rdi. Sharlotta ularni bekaga o'zi tanishtirishini eri bilan kelishib olgani uchun tanishtiruv marosimi ortiqcha, aks holda mister Kollinz bu sharoitda aytishi mumkin bo'lgan gaplarsiz, samimiygina o'tdi.

Ser Uilyam bir paytlar hatto Sent-Jeymsda bo'lish baxtiga musharraf bo'lgan esa-da, hozir atrofdagi muhtashamlik uni ezib kelayotgan ediki, u zo'rg'a chuqur ta'zim qilib, o'ziga ko'rsatilgan o'ringa borib o'tirdi. Uning qo'rqib ketgan qizi esa ko'zini yerdan uzolmay, zo'rg'a stulning chetiga o'tirdi. Faqat Elizabetgina hech qanday hayajonsiz oldidagi uchta ayolga bemalol qaray oldi. Ledi Ketrin bir paytlari chiroyli bo'lgani sezilib turgan baland bo'yli, to'ladan kelgan ayol ekan. Uning o'zini tutishida mehmonlarning kimligini unutilib, bemalol yozilib o'tirishga chorlaydigan xohish yo'q edi. Mezbonning indamasligi odamning yuragiga qo'rquv solmasdi, biroq Uikxem aytgandek, uning har bir gapida o'zining shaxsi qanday ulug'ligini ta'kidlash ohanglari

sezilib turardi. Butun mehmondorchilik davomida Elizabet ledi Ketrin xuddi o'ziga tasvirlashganidek ekanligiga tan berib o'tirdi.

Uy bekasiga tikilib o'tirar ekan, Elizabet ayolning harakatlari va yuzida mister Darsi bilan qandaydir o'xshashlik borligini sezdi. Qiziga qarab esa uning Mariya Lukasga o'xshab oriqligidan hayron qoldi. Ona va qizi o'rtasida hech qanday o'xshashlik yo'q edi. Miss de Byor rangpargina bo'lib, kasalmand ko'rinardi, yuz tuzilishlari to'g'ri bo'lsa-da, ko'rimsiz edi. Uning missis Jenkinsonga bir necha martagina gapirganini aytmasa, doimo jim o'tirardi.

Hali o'tirganlariga besh daqiqa ham bo'lmay, ularni tashqarini tomosha qilish uchun deraza oldiga taklif qilishdi. Mister Kollinz atrofni maqtay ketdi, ledi Ketrin esa yozda bu yerlar bundan ham chiroyli bo'lishini ta'kidladi.

Tushlik haqiqatan ham ajoyib bo'lib, mehmondorchilik davomida mister Kollinz aytgandek qimmatbaho idish-tovoqlar va xizmatkorlarni ko'rishdi. Bekaning xohishiga binoan yigitga bekaning ro'parasidan joy ajratildi. Uning o'zini tutishi xuddi unga eng buyuk ehtirom ko'rsatilayotgandek edi. U pichoq-qoshiqni ustalik bilan ishlatar va har bir berilayotgan ovqatdan zavqlanar edi. Taomlar haqida o'z fikrini avval mister Kollinz aytdi, ketidan esa ancha o'ziga kelib qolgan ser Uilyam kuyovining so'zlarini qaytardi. Elizabetni hayron qoldirgan narsa, ledi Ketrin bu gaplarni shunchaki emas, balki aytilgan maqtovlardan g'ururlangandek eshitar, ayniqsa, har safar ular uchun notanish bo'lgan ovqat keltirilganda mehmonlarga bir boshqacha nazar bilan qarab qo'yar edi. Ovqat paytida suhbatlashishmadi. Elizabet gapirishga urinmoqchi edi, lekin u Sharlotta va miss de Byorning o'rtasida o'tirgan bo'lib, Sharlotta faqat bekaning gapini ting-

layotgan, ledi de Byor esa hali Elizabetga bir og‘iz ham so‘z qotmagandi. Missis Jenkinsonning diqqati esa faqat qaramog‘idagi qizda bo‘lib, uni hadeb ovqat yeyishga undar, o‘zini qanday his qilayotgani ni so‘rayverar edi. Mariya bir og‘iz ham gapirolmas, erkaklar esa faqat ovqat yeb maza qilishardi.

Ayollar mehmonxonaga qaytib kelishgach, qahva keltirgunlaricha Elizabetning ledi Ketrinning gaplarini eshitib o‘tirishdan boshqa iloji qolmadi. Ledi Ketrinning gap ohangidan u o‘ziga gap qaytarishlariga o‘rganmaganligi sezilib turardi. U Sharlottadan uyi haqida batafsil hamma narsani so‘rab, unga har xil maslahatlar berdi, o‘zining kichkinagina xo‘jaligini qanday yuritishi kerakligini tushuntirdi, qushlar va sigirlarga qanday qarash kerakligini ham aytib o‘tdi. Elizabet bu gaplardan, ayol uchun uning nazaridan qochmaydigan, ayniqsa, agar ular birovni o‘qitish uchun xizmat qiladigan bo‘lsa, mayda-chuyda narsalar yo‘qligini tushundi. Missis Kollinz bilan suhbatini tugatgach, ledi Ketrin har xil savollar bilan Mariya va Elizabetga murojaat qildi. Uni, ayniqsa, miss Bennet qiziqtirdi. Asta-sekin u Elizabetdan nechta opa-singlisi borligini, ular turmushga chiqishadimi yoki yo‘qmi, chiroylimi va qayerda tarbiyalanishganini, otasining ekipaji qanaqaligini, onasining qizlik familiyasi nimaligini so‘rab oldi. Elizabet berilayotgan savollarning yuzsizlarcha ekanligini his qilib tursa-da, ularning hammasiga to‘la-to‘kis javob berdi. Ledi Ketrin davom etdi:

– Men uy-joylaringiz ota tomonidan meros ekanligini va keyinchalik mister Kollinzga o‘tishini eshitgandim. Bu holda, missis Kollinz, sizning qiziqishlaringizdan kelib chiqib xursand bo‘lmay ilojim yo‘q, – dedi u Sharlottaga qarab. – Lekin umuman aytganda, ayollarni merosdan mahrum qilishlarini men qo‘llab-quvvatlamayman. Xudoga shukrki, ser

Lyuis de Byorlar xonadonida bunday tartib-qoidalar yo'q. Miss Bennet, siz biror nima chalib ashula ayta olasizmi?

– Biroz qo'limdan keladi.

– Unda biror kun sizni eshitamiz. Menda, bilasizmi... zo'r musiqa asbobi bor. O'zingiz tan berasiz. Opa-singillaringiz ham chalib ashula aytishadimi?

– Ha, bittasi.

– Nega faqat bittasi? Hammalarini o'rgatish kerak edi. Mister Uebbnings hamma qizlari musiqa bilan shug'ullanishadi, ularning otasi esa sizning otangizdan ham kam topadi. Siz rasm solasizmi?

– Afsuski yo'q.

– Qanaqasiga? Birortangiz ham-a?

– Birortamiz ham.

– Qiziq. O'rganishga sizlarda imkoniyat bo'lmagan bo'lsa kerak. Onangiz sizlarni har bahorda dars olish uchun poytaxtga olib kelishi kerak edi.

– Onamning qarshiligi yo'q edi, lekin otam Londonni yoqtirmaydi.

– Guvernantka¹laringiz ketib qolganmi?

– Bizning hech qachon guvernantkamiz bo'lmagan.

– Guvernantkangiz bo'lmagan? Aqlga to'g'ri kelmaydi! Beshta qiz guvernantkasiz o'sgan! Bunaqasini hech eshitmaganman. Onangizning sizlarga qarayman deb bir daqiqa ham tinchi bo'lmagan bo'lsa kerak!

Ledi Ketrinni xato o'ylayotganiga ishontirayotib, Elizabet kulib yuborishdan o'zini zo'rg'a tiydi.

– Unda sizlarning bilim olishlaringiz bilan kim shug'ullangan? Kim sizlarga qaragan? Guvernantka bo'lmagan bo'lsa, o'z holingizga tashlab qo'yishganmi?

– Boshqa ba'zi oilalar bilan solishtiradigan bo'lsak, balki shundaydir. Lekin bizning o'qishni xohlagan har birimizga kerakli narsalar hammasi

¹ Guvernantka – dvoryanlar va boyonlar oilasida yosh bolalar tarbiyasi uchun maxsus yollangan ayol.

bor edi. Bizni doim kitob o'qishga rag'batlantirishardi va biz uchun kerak bo'lgan o'qituvchilarimiz ham bor edi. Albatta, birortamiz dangasalik qilsak ham, gap eshitmasdik.

– Bunga hayron bo'lmayman. Guvernantkalar aynan shu narsaga qarashadi. Agar men onangiz bilan tanish bo'lsam, unga albatta guvernantka olishni maslahat bergan bo'lardim. Men ko'p marta aytganman: kundalik tirishqoqlik bilan qilingan mashqlarsiz bilim olib bo'lmaydi, bu esa guvernantkasiz aslo mumkin emas. Mening maslahatlarim juda ko'p oilalarga foyda bergan. Shaxsan o'zim qancha yosh qizlarga ish topib berganman. Masalan, missis Jenkinsonning to'rtta jiyani juda yaxshi joyga ishga joylashishgan. Yaqinginda bir oilaga menga tavsiya qilishgan qizni joylashtirgandim. Ular qizdan juda xursand. Missis Kollinz, sizga hali kecha ledi Metkaf kirib, menga minnatdorchilik bildirganini aytmadimmi? Uning aytishicha, miss Poup haqiqiy boylik emish. U xuddi shunday dedi: «Ledi Ketrin, siz menga boylik sovg'a qildingiz». Miss Bennet, opa-singillaringiz mehmondorchiliklarga borib turishadimi?

– Ha, hammalari.

– Qanday hammalari? Bir yo'la beshalovimi? Qiziq! Va siz oiladagi ikkinchi qizsiz! Kattalari turmushga chiqmay turib, kichkinalari mehmondorchiliklarga yurishadi! Singillaringiz juda yosh bo'lsa kerak?

– Ha, eng kichkinasi hali o'n oltiga ham to'lmagan. Balki u rostdan ham mehmondorchilikka borishga kichkinalik qilar. Lekin vijdonan aytadigan bo'lsak, hali kattalari turmushga chiqmagani uchungina kichkinalarini o'ynab-kulishdan mahrum qilish ularga nisbatan bag'ritoshlik. Oxirgi bo'lib tug'ilgan qiz ham birinchi bo'lib tug'ilgan qizchalik yoshlikdan bahramand bo'lishga haqli. Sen oxirgi bo'lib tug'ilganing uchungina bulardan mahrum bo'lish...

Bu holda, menimcha, opa-singillar o'rtasida ahillik va qarindoshchilikning boshqa yaxshi fazilatlariga umid qilmasa ham bo'ladi.

– O'lay agar, yoshgina qiz uchun siz juda jiddiy gaplarni aytayapsiz. Qiziq, necha yoshdasiz?

– Mening uchta kap-katta singillarim borligini hisobga oladigan bo'lsak, nahotki, siz meni yoshimni aytadi, deb o'ylasangiz? – jilmayib dedi Elizabet.

Ledi Ketrin savoliga kutilgan javobni ololmay shoshib qoldi va Elizabet o'zining shunday mag'rur ayolga qarshi chiqishga jazm qilgan birinchi kimsa bo'lgan bo'lishi mumkinligini taxmin qildi.

– Ishonamanki, yoshingiz yigirmadan katta emas. Shuning uchun yoshingizni yashirishingiz shart emas.

– Ehe, yoshim endi hatto yigirma bir ham emas.

Erkaklar ham ularga qo'shilishib choyxo'rlikdan keyin qarta stoli atrofiga o'tirishdi. Ledi Ketrin, ser Uilyam, mister va missis Kollinzlar kadril o'ynashni boshlashdi. Miss de Byor kazino o'ynashni xohlagani uchun esa qizlar va missis Jenkinson unga qo'shilishlariga to'g'ri keldi. Ularning stoli oldida jimlik hukm surardi. Bir partiya o'yin davomida, o'yinga bog'liq bir-ikki gapni hisobga olmasa, hech kim og'zini ochgani yo'q. Faqat missis Jenkinsongina vaqti-vaqti bilan miss de Byordan unga issiqmi yoki sovuq emasligini, juda ham yorug' yoki qorong'i emasligini so'rab, bezovta bo'lardi. Boshqa stol atrofida gilar esa berilib o'ynashardi. Ledi Ketrin goh sheriklarining xatolarini ko'rsatsa, goh ularga o'z hayotidan birorta hodisani aytib berib, to'xtamay gapirar edi. Mister Kollinz esa uning har bir gapini tasdiqlar, har bir yutib olgan ochkosi uchun unga minnatdorchilik bildirar va yutib olayotgani uchun undan uzr ham so'rab qo'yardi. Ser Uilyam esa kam gapirib, eshitgan latifalari va aristokratlarning nomlarini yodlab qolishga harakat qilardi.

Qarta o'ynash uy egasi va uning qizining jonlariga tekkach, stollar yig'ishtirib olindi. Ledi Ketrin Sharlottaga ekipaj taklif qildi va Sharlotta buning uchun minnatdorchilik bildirgach, kerakli ko'rsatmalarni berdi. Shundan so'ng hammalari ertasi kungi ob-havo haqida ledi Ketrin aytadigan gaplarni eshitish uchun kamin oldiga to'planishdi. Mezboning gaplari kareta kelishi bilan bo'lini va mister Kollinzning uzundan-uzoq minnatdorchilik so'zlari va ser Uilyamning ta'zimlaridan so'ng ular jo'nab ketishdi. Hali uzoqlashmaslaridanoq, missis Kollinz Elizabetdan uning Rozings haqidagi taassurotlarini so'radi. O'rtog'ining hurmati uchun qiz o'zining haqiqiy taassurotlarini sal yumshatibroq aytishga harakat qildi. Lekin qanchalik harakat qilmasin, uning xulosalari mister Kollinzni qoniqtirmadi va uning o'zi zoti oliyalarini maqtay ketdi.

VII bob

Ser Uilyam Xansfordda atigi bir haftagina bo'ldi. Lekin shu bir hafta ichida ham qizining shunday erga tegib baxtli ekanligi va uning olamda kamdan-kam uchraydigan shunday yaxshi qo'shniga ega bo'lganiga ishonch hosil qildi. Qaynotasining unikida qolishi davomida mister Kollinz har kuni ertalab uni o'zining aravasida tevarak-atrofni aylantirib ko'rsatib keldi. Qaynota ketishi bilanoq Xansforddagilar yana o'zlarining kundalik hayotlariga sho'ng'ishdi. Elizabetning baxtiga bu o'zgarish uning ko'p vaqtini amakivachchasi bilan o'tkazishiga olib kelmadi. Nonushta bilan tushlik orasida uy egasi yoki bog'da ishlar yoki o'z xonasiga kirib ketib, kitob o'qir va nimalardir yozar, yoki bo'lmasa shunchaki derazadan ko'chaga qarab o'tirardi. Ayollar esa vaqtlarini derazalari hovliga qaragan xonada o'tkazardilar. Sharlottaning xonani bundan

ko'ra ancha chiroyli va keng bo'lgan ovqatlanadigan xonadan ko'ra ko'proq yoqtirishi oldiniga Elizabetga erish tuyuldi. Biroz o'tgach, u dugonasining nimaga bunday qilishini tushungandek bo'ldi: agar umumiy xona mister Kollinzning xonasidek qulay bo'lganida, u so'zsiz vaqtini yolg'izlikda kamroq o'tkazar edi. Elizabet Sharlottaning to'g'ri tanloviga tan berdi.

Ayollar o'z xonalaridan ko'chani ko'ra olmas edilar. Shuning uchun ko'chadan o'tib ketayotgan ekipajlar haqida, ularnikiga miss de Byorning faytuni kelganligi haqida mister Kollinzdangina eshitib turishar edi. Miss de Byor Xansfordga tez-tez kelib turar va aravadan tushmasdan turib, missis Sharlotta bilan bir necha og'iz so'rashib ketardi.

Mister Kollinzning Rozingsga bormaydigan kuni juda kam bo'lib, xotini uni har safar kuzatib qo'yishni o'zining burchi deb bilardi. Sharlottaning o'z vaqtini nega shunga ketkazishini Elizabet yaqinda ledi Ketrinda cherkovda bo'sh o'rinlar bo'lib qolishini anglab yetmaguncha tushunmay yurdi. Vaqti-vaqti bilan ledi Ketrinning o'zi ularnikiga kelishni o'ziga ep ko'rib qolardi. U uyalmay ayollarning hamma ishlariga murosasiz aralashar, tikayotgan ishlarini olib ko'rar ekan, boshqacharoq qilish kerakligini maslahat berar, mebellarning joylashuvidan kamchiliklar topar va xizmatkorlarning aybini qidirar edi. Agar ular bilan birga ovqatlanishga qoladigan bo'lsa, shunchalik kam odamga berilayotgan ovqatning nihoyatda ko'pligini aytish uchungina qolganga o'xshardi.

Elizabet ayolning bu yerda yashovchilar to'g'risida g'amxo'rlik qilib o'tirmasa-da, lekin cherkovning hamma ishlariga aralashishini, bu ishlarning eng mayda-chuydasigacha mister Kollinz tomonidan unga xabar berib turilishini sezib qoldi. Agarda birorta odamning noroziligini eshitib qolsa, xonim bu ishlarni hal qilish uchun qishloqqa yugurib borishga tayyor edi.

Xansforddagilar haftasiga ikki marta Rozingsda tushlik qilish sharafiga ega bo'lishdi. Ser Uilyamsning, shu bilan birga, karta o'ynaladigan ikkinchi stolning yo'qligini hisobga olmaganda, keyingi tushliklar birinchisidan hech narsasi bilan farq qilmadi. Xansforddagilar uchun bu yerda boshqa ko'ngilxushliklar yo'q edi, chunki boshqa qo'shnilarning turish-turmushi mister Kollinznikichalik emasdi. Shunga qaramay, Elizabet vaqtini juda maroqli o'tkazayotgan edi. Dugonasi bilan maza qilib suhbatlashar, erta bahorga xos bo'lmagan iliqqina ob-havo esa qizga har kuni maza qilib aylanib kelish imkonini berardi. Hamma Rozingsga ketganida, u ko'pincha parkka tutashib ketgan daraxtzorga borar va quyuq o'sgan daraxtlar orasida unga yoqib qolgan, nazarida faqat o'zigina uning ajoyibligiga tan bergan yo'lka bo'ylab aylanib yurar, bu yerda o'zini zoti oliylarining o'tkir nigohidan himoyalanganday sezar edi.

Qizning Kentda o'tkazgan dastlabki ikki haftasi hech qanday hodisalarsiz tinchgina o'tdi. Pasxa bayrami yaqinlashib kelayotgan edi va bayramga bir hafta qolganida Rozingsdagi odamlar soni ko'paydi. Xansfordga kelganidan biroz o'tib, Elizabet yaqin haftalar ichida bu yerga mister Darsi kelishi haqida eshitgandi. Uning ledi Ketrinning jiyanini uchratgandan ko'ra, uchratishni xohlagan boshqa tanishlari kam bo'lsa-da, yigitning kelishi Rozingsda kuzatayotganlariga yana qo'shimcha mavzu bo'lardi. Buning ustiga Darsining ledi Ketrin unga xotinlikka mo'ljallanayotgan xolavachchasi bilan muomalasini ko'rib, miss Binglining mister Darsiga nisbatan qilayotgan umidlari puchga chiqishini ko'rishdan ham xursand bo'lardi. Ledi Ketrin jiyanining kelayotganidan juda quvonib, u haqda ajoyib gaplar gapirdi va missis Lukas va Elizabet u bilan oldin boshqa yerda tanishishganini aytishganda, hatto jahli chiqib ketdi.

Darsi kelgani haqidagi xabar Xansfordda darrov ma'lum bo'ldi, chunki uning kelganini hammadan birinchi bo'lib bilishni intiqlik bilan kutayotgan mister Kollinz yigitning kelishi aytilgan vaqtni uning kelayotganini bemalol ko'rish mumkin bo'lgan park darvozasi oldidagi yo'lda aylanib o'tkazayotgandi. Uyi tomonga qayrilgan ekipajga egilib ta'zim qilgach, mister Kollinz uydagilarga xabar berish uchun yugurib ichkariga kirib ketdi. Ertasi kuni ertalab u kelgan mehmonlarga o'z hurmatini bildirish uchun Rozingsga shoshdi. Uning salomiga ledi Ketrinning ikki jiyani baravariga alik olishdi: mister Darsi bilan Rozingsga uning amakisi, lordning kichik o'g'li polkovnik Fitsuilyam ham kelgan edi. Mister Kollinz uyiga ikkala yigit bilan birga qaytib kelib, hammani hayron qoldirdi. Sharlotta ularni ko'chani kesib o'tishayotganida ko'rib qolib, yugurib mehmonxonaga kirdi-da, qizlarga yangilikni aytdi:

– Bu e'tiborga men sen tufayligina sazovorman, Eliza. Mister Darsi mening o'zimni bunaqa tez yo'qlamagan bo'lardi.

Elizabet buni rad qilar-qilmas, mehmonlar kelgani bildirib, qo'ng'iroq chalindi va o'sha zahoti xonaga uchta erkak kirib keldi. Xonaga birinchi bo'lib kirgan polkovnik Fitsuilyamga o'ttiz yoshlar berish mumkin edi. U juda ham kelishgan bo'lmasa-da, muomalasi va ko'rinishidan haqiqiy jentlmenligi ko'rinib turardi. Mister Darsi esa uni Xartfordshirda ko'rishganda qanday bo'lgan bo'lsa, xuddi o'shanday edi. O'ziga xos bo'lgan takallufsizlik bilan u missis Kollinz bilan salomlashdi. Va uning dugonasiga nisbatan qanday munosabatda bo'lmasin, qizning qarashlariga o'zini tutib javob berdi. Elizabet ham biror og'iz so'z qotmay, yengilgina ta'zim qilib, salomlashdi.

Polkovnik Fitsuilyamning yaxshi tarbiya ko'rgani uning osonlik bilan suhbatga aralashib ketganidan ko'rinib turardi. Mister Darsi Sharlotta bilan uning

uyi va bog'i to'g'risida gaplashishgach, bir muncha vaqt jim qoldi. Birozdan so'ng muloyimlik bilan Elizabetdan oilasining sog'lig'i haqida so'radi. Unga odatda shunday paytda aytiladigan javoblarni bergan Elizabet, bir soniyalik sukutdan so'ng so'radi:

– Mening opam oxirgi uch oyni Londonda o'tkazayotgandi. Mabodo siz uni uchratmadingizmi?

Qiz inkor javob bo'lishini oldindan bilardi. Lekin yigit biror harakati bilan Binglilar oilasi va Jeyn o'rtasida bo'lgan gaplardan xabari borligini bildirib qo'ymasmikin, deb qiziqayotgan edi. Yigit London-da miss Bennetni ko'rish baxtiga muyassar bo'lganini aytayotganda biroz qizargandek bo'ldi. Bu to'g'rida boshqa gap ochilmadi va sal vaqt o'tib, yigitlar Xansforddan jo'nab ketishdi.

VIII bob

Polkovnik Fitsuilyamning o'zini tutishi ayollarda yoqimli taassurot qoldirdi va yigitning kelishi bilan ularning Rozingsga borishlari ham endi qiziqarliroq bo'lishini his qildilar. Lekin ularni Rozingsga taklif qilgunlaricha bir necha kun o'tdi. Ledi Ketrin hozir jiyanlari unikida ekan, mehmonlarsiz ham endi bemalol kuni o'tar edi. Faqat pasxaning birinchi kungina, yigitlar kelgandan bir hafta o'tgach, Kollinzlarni mehmonga chaqirishdi: ledi Ketrin cherkovdan ketayotib ularga kechani Rozingsda birga o'tkazishni taklif qildi. Oxirgi hafta ichi ular ledi de Ketrin va uning qizini ko'rishmagan edi. To'g'ri, polkovnik Fitsuilyam pastorning uyiga bir necha marta kelib ketgan, lekin mister Darsini faqat cherkovda uchratishgandi.

Albatta, taklif bajonidil qabul qilindi va kelishilgan mahalda ular Rozings mehmonxonasida edilar. Ledi Ketrin mehmonlarni xursandchilik bilan kutib olgan bo'lsa-da, ularning kelishi ayolga oldingicha-

lik kerak emasligi sezilib turardi. Bekaning butun diqqat-e'tibori hozir jiyanlarida bo'lib, ayniqsa, Darsi bilan boshqalarga nisbatan ko'proq gaplashardi.

Kollinzlarning kelishidan eng xursand bo'lgan odam Fitsuilyam edi. Unga Rozingsda zerikayotganini yengishga yordam berayotgan hamma narsa yoqayotgandi. Buning ustiga yana missis Kollinzning kelishgan dugonasi uning boshini aylantirib qo'yan edi. Hozir, uning yoniga o'tirib olib, Kent va Xartfordshir to'g'risida, uy hayoti va sayyohatlar haqida, yangi kitoblar va musiqa haqida gaplashishar ekan, Elizabet bu uyga kelganidan birinchi marta xursand bo'ldi. Ularning bermalol va berilib suhbatlashishlari ledi Ketrin va mister Darsining diqqatini tortdi. Darsi bir necha marta ular tomonga qiziqib qarab qo'ydi. Uy bekasi ham ularning suhbatiga qiziqayotganini yashirib o'tirmadi va so'rashdan ham uyalmadi:

– Fitsuilyam, nimalar deyapsan? Nimalar haqida gaplashyapsizlar? Sen miss Bennetga aytayotgan narsalarni biz ham eshitsak bo'ladimi?

– Xonim, biz musiqa haqida gaplashyapmiz, – javob bermaslikning iloji bo'lmagach, dedi yigit.

– Musiqa haqida! Xudo haqqi, unda balandroq gaplashinglar. Musiqa men uchun hamma narsadan yuqori turadi. Musiqa haqida gap ketganda jim turolmayman. Nazarimda, Angliyada musiqani menchalik tushunadigan va qadrlaydigan odam juda oz bo'lsa kerak. Agar bolaligimda meni musiqaga o'qitishganda edi, buyuk musiqachi bo'lib yetishardim. Enn ham, agar sog'lig'i yaxshiroq bo'lganda shunday bo'lgan bo'lardi. Uning chalishi hammamizga juda yoqqan bo'lardi. Darsi, Jorjiananing bu borada ishlari qanday?

Mister Darsi singlisining muvaffaqiyatlari to'g'risida gapirdi.

– Nima ham derdim, juda xursandman, mening nomimdan unga aytib qo‘ygin: berilib ishlamasdan turib hech narsaga erisha olmaydi.

– Sizni ishontirib aytamanki u bunday ogohlantirishga muhtoj emas, – javob berdi Darsi. – U yetarlicha berilib o‘qiyapti.

– Undan ham yaxshi. Shug‘ullanib turish hech qachon ortiqcha bo‘lmaydi. Men unga keyingi safar xat yozganimda shug‘ullanishni hech ham tashlamaslikni aytaman. Doim yosh qizlarga yaxshilab shug‘ullanmasdan turib, musiqada muvaffaqiyatga erishish mumkin emasligini tushuntiraman. Mana, miss Bennetga ham necha marta aytdim: agar shug‘ullanmay qo‘ysa, hech qachon rostakamiga yaxshi chala olmaydi. Agar missis Kollinznikida chaladigan narsa bo‘lmasa, u har kuni Rozingsga kelib missis Jenkinsonning xonasidagi fortepyano-da mashq qilishi mumkin. Uyning bu tomonida hech kimga xalaqit bermaydi.

Mister Darsi xolasining befarosatligidan biroz xijolat chekkandek bo‘ldi-yu, lekin hech narsa demadi.

Qahva ichib bo‘lishgach, polkovnik Fitsuilyam Elizabetga uning va‘dasini eslatdi va qiz fortepyano yoniga o‘tirdi. Yigit o‘z kreslosini yaqinroqqa surdi. Ledi Ketrin chalinayotgan kuyni o‘rtasigacha tinglagach, yana avvalgi safardagidek jiyanining oldiga borib, unga gapira boshladi, Darsi esa o‘rnidan turib, yaqinroqqa bordi-da, qizning yuzi yaxshiroq ko‘rinadigan qilib o‘tirib oldi. Elizabet buni sezdi va qulay fursat bo‘lishi bilan, unga ayyorlik bilan kulib qo‘ydi:

– Bunaqa diqqat bilan eshitishga tayyorlanib, meni uyaltirib qo‘ymoqchi bo‘ldingiz-a? Lekin sizning singlingiz qanchalik zo‘r chalmasin, men baribir sizdan qo‘rqmayman. Mening o‘jarligim boshqalar oldida o‘zimni past olishimga yo‘l qo‘ymaydi. Meni qo‘rqitmoqchi bo‘lishsa, men battarroq o‘jarlikka o‘taman.

– Men siz noto‘g‘ri o‘ylayotganingizni isbotlab o‘tirmoqchi emasman. Meni shu narsaga qodir, deb o‘ylamayotgan bo‘lsangiz kerak? Sizning ko‘pincha o‘zingiz ichingizda o‘ylamayotgan gaplarni aytishingizni bilib qolganman.

O‘zi haqidagi bu gapdan Elizabet maza qilib kuldi va polkovnik Fitsuilyamga qarab murojaat qildi:

– Mister Darsi sizni mening birorta gapimga ham ishonmaslikka o‘rgatib, xarakterimni sizga yaxshilab ochib bergan bo‘lsa kerak. O‘zi omadim yurishmagan-da: yaxshi nom qozonib olaman degan joyimda mening hamma sirlarimni ochib beradigan odamni uchratib qoldim. Mister Darsi, rostdan ham, men haqimda Xartfordshirda eshitgan hamma yomon gaplarni aytib berishingiz yaxshi emas. Yana qo‘shib qo‘ymoqchiman: bu siz tomondan ehtiyotsizlik bo‘ladi, chunki men ham sizga qarshi biror narsa aytib qo‘yishim mumkin. Unda bu yerdagi yaqinlaringizni xursand qilmaydigan biror yomon siringiz ochilib qolishi mumkin.

– Men bundan qo‘rqmayman, – kulib javob berdi yigit.

– Xudo haqqi, ayting, uni nimada ayblash mumkin, – xitob qildi polkovnik. – Men axir uning o‘z uyidan tashqarida nimalar qilib yurganini bilishim kerak.

– Bo‘pti, buni bilib olasiz! Lekin dahshatli narsa eshitishga hozirlaning. Men sizlarga mister Darsi bilan birinchi marta Xartfordshirda balda uchrashganimni aytib qo‘yay. Sizningcha, u bu balda boshqalardan nimasi bilan ajralib turgandi? Yosh yigitlar yetishmagani holda u faqatgina to‘rt marta raqsga tushdi. Men sizlarni xafa qilmoqchi emasman, lekin rostdan shunday edi. U faqatgina to‘rt marta raqsga tushdi va bu yana ko‘pgina qizlar sherik yetishmagani uchun raqsga tusha olmay o‘tirganlarida! Gaplarimni rad qilmassiz-a, mister Darsi?

– O’sha kecha men bilan birga kelgan ayollarni hisoblamasak, u yerdagilarning birortasini ham men tanimasdim.

– Albatta-da. Axir, sizni birortasi bilan tanishtirishning xuddi iloji yo‘q edi-da! Polkovnik, endi nimani chalay? Barmoqlarim sizning amringizni kutib turibdi.

– Agar o‘zimni birortasiga tanishtirishlarini istaganimda, men to‘g‘rimda yaxshiroq o‘ylagan bo‘lardingiz. Lekin boshqalarga o‘zimni majburan tiqishtirishni yoqtirmayman.

– Nega shundayligini amakivachchangiz tushuntira oladimi? – Fitsuilyamga qarab dedi Elizabet. – U balki nima uchun shunday aqlli va o‘qimishli odam, buning ustiga jamiyatda o‘z o‘rni bor inson, nega o‘z tanishlarining sonini ko‘paytirmasligi sababini aytib berar.

– To‘g‘risi, buni o‘zim ham aytib bera olsam kerak, – dedi Fitsuilyam. – Bunga mister Darsining aloqasi yo‘q. Buning sababi u o‘zini o‘zi bezovta qilishni istamasligidan bo‘lsa kerak.

– Menda chindan ham ba’zi bir odamlardek tanimagan odamim bilan birdaniga chiqishib keta olish qobiliyati bo‘lmasa kerak, – dedi mister Darsi. – Gaplashayotgan odamimning fikriga qo‘shilib ketish yoki uning ishlari meni qiziqtirayotganga solib ko‘rsatish men uchun juda qiyin.

– Mening barmoqlarim fortepyano klavishlari ustidan men boshqa usta musiqachilarda kuzatganimdek ustalik bilan yugurmaydi. Chalishimda na tezlik, na ustalik bor. Buning sababini men yetarli darajada shug‘ullanmaganimda deb bilaman. Bunga mening barmoqlarim aybdor, degan fikr hech qachon xayolimga ham kelmagan.

Darsi jilmayib, dedi:

– Sizga qo‘shilaman. Sizga berilgan vaqtdan juda unumli foydalangansiz. Chalganingizni tinglashga

muyassar boʻlganlar kamchiligingizni sezmagan ham boʻlsalar kerak. Begonalar oldida esa biz chalmaymiz.

Suhbat shu yerga kelganda, ledi Ketrin ular nima toʻgʻrisida gaplashayotganlariga qiziqib, ularning gaplarini boʻldi. Elizabet shu zahoti yangi kuy chalishni boshladi. Ledi Ketrin uning chalayotganiga biroz vaqt quloq solib turib, Darsiga dedi:

– Agar miss Bennet koʻproq shugʻullanib, londonlik ustozlardan dars olganida, yaxshiroq chalgan boʻlardi. Uning tezligi yetarli, lekin unga Enndagidek did yetishmayapti. Sogʻligʻi yoʻl qoʻyganida, mening qizimdan ajoyib musiqachi chiqqan boʻlardi.

Elizabet bu gaplarga qanchalik qoʻshilishini bilib olmoqchidek, Darsining yuziga tikildi. Lekin bu paytda ham, undan keyin ham u yigitda jiyaniga nisbatan koʻngli borligini sezdiradigan biror nimani sezmadi. Mister Darsining oʻz jiyaniga munosabati miss Binglini quvontiradigan darajada edi: miss de Byorning yigitga turmushga chiqishi qanchalik mumkin boʻlsa, miss Binglida ham shunchalik imtiyoz bor edi.

Ledi Ketrin ancha vaqtgacha Elizabetning chalishiga yana bir nechta tanbehlar berib, unga musiqiy did va chalish yoʻllari haqida bir nechta maslahatlar berdi. Miss Bennet bularning hammasini mehmonga xos boʻlgan sabr-toqat bilan eshitdi. Yigitlarning iltimosiga quloq solib, zoti oliylarining karetsi ularni Xansfordga olib ketishga tayyorligi haqida aytishmaguncha fortepyano chalib oʻtirdi.

IX bob

Ertasi kuni ertalab, missis Kollinz va Mariya ish bilan qishloqqa ketib, Elizabet yolgʻiz oʻzi opasiga xat yozib oʻtirar ekan, birov kelganidan darak berib, qoʻngʻiroq jarangladi. Ekipaj ovozi eshitilmagan boʻlsa-da, bu ledi Ketrin boʻlsa kerak, deb oʻyladi. Ledi Ketrin

berishi mumkin bo'lgan bema'ni savollardan qochib, qiz o'zi yozayotgan xatni berkitdi. Eshik ochilib, uni hayron qoldirib, mister Darsi kirib keldi. Buning ustiga yolg'iz. Mehmon ham qizning xonada yolg'iz o'tirganini ko'rib, biroz o'ng'aysizlandi va uzr so'rab u xonada barcha ayollarni ko'rishni kutganini aytdi.

Ikkalasi o'tirishdi. Elizabetning Rozingsdagilarining hol-ahvoli haqidagi bir necha savolidan so'ng uzoq cho'zilishi mumkin bo'lgan jimlik boshlandi. Suhbat boshlash uchun tezlikda mavzu topish kerak edi. Shu payt Elizabetning Binglini o'shanda Xartfordshirda qay holatda ko'rgani yodiga tushdi va uning nima uchun o'shanda Nezerfilddan bunday tez jo'nab ketganini bilgisi keldi:

– Mister Darsi, siz noyabr oyida bizning joylardan kutilmaganda ketib qoldingiz. Mister Bingli sizlarni shunday uzoq ayriliqdan keyin yana ko'rishdan juda xursand bo'lgan bo'lsa kerak. Esimda, uning o'zi ham Londonga sizdan bir kun oldin jo'nagan edi-a? Albatta, siz Londondan jo'nab ketayotganingizda uning o'zi va opa-singillari sog'salomat bo'lgan bo'lishsa kerak?

– Rahmat, juda yaxshi edi.

Qiz mister Darsining boshqa hech narsa aytmasligini sezib, sukutdan so'ng yana davom etdi:

– Menga aytishdiki, mister Bingli endi Nezerfildga qaytishni xohlamayotgan emish-a?

– Men uning bunday deganini eshitmadim. Lekin endilikda ko'p vaqtini u yerda o'tkazmasligi juda ham mumkin. Binglining do'stlari juda ko'p, u esa hozir do'stlarining soni va o'zining bandligi kundan-kun ko'payadigan yoshda.

– Do'stingiz endi Nezerfildda yashamoqchi emas ekan, qo'shnilari uchun uning bu joylardan butunlay jo'nab ketgani yaxshiroq edi. Bu holda u yerga boshqa oila ko'chib kelardi. Balki mister Bingli

Nezerfildni qo'shnilarga qulaylikdan ham ko'ra o'ziga qulay bo'lishini ko'proq o'ylab ijaraga olgandir? Demak, shundan kelib chiqib yoki Nezerfildni o'ziga qoldiradi yoki undan voz kechadi.

– Agar Bingli o'ziga munosib boshqa uy chiqib qolib, Nezerfilddan ketadigan bo'lsa, men hayron qolmasdim.

Elizabet indamadi. Yigitning do'sti haqidagi suhbatni davom ettirishidan qo'rqib, yana nima to'g'risida gapirishni bilmay, suhbatni davom ettirish muammosini Darsiga yuklab qo'ya qoldi.

U qizning ishorasini tushundi va dedi:

– Bu uy juda shinam ekan. Mister Kollinz bu yerga ko'chib kelganda ledi Ketrin bu uy ustida ko'p ishlagan bo'lsa kerak.

– Siz haq bo'lsangiz kerak. Ishonamanki, mister Kollinzga yaxshilik qilib juda to'g'ri ish qilgan.

– Mister Kollinzning uylanib omadi kelgan ekan.

– Bo'lmasam-chi! Unga turmushga chiqib, uni bir umr baxtli bo'lishga sazovor qiladigan qizga uylaniganidan do'stlari ham quvonishsa arziydi. Dugonam aqlli. Mening fikrimcha, uning turmushga chiqishi juda ham aqldan bo'lmagan bo'lsa-da, biroq u hozir baxtliga o'xshab ko'rinayapti va sog'lom fikrlab ko'radigan bo'lsak, bu nikoh Sharlotta uchun juda omadli bo'lgan bo'lishi mumkin.

– Ayniqsa, uyi, ota-onasi va do'stlaridan uzoqda emasligini hisobga olsa, yanada yaxshi.

– Sizningcha, bu yerdan Meritongacha shunaqa yaqinmi? Axir, orasi ellik mildan ortiq-ku!

– Yo'l yaxshi bo'lsa, ellik mil nima degan gap? Yarim kunlik yo'l. Menimcha, uncha uzoq emas.

– Nikohning omadli ekanligini masofa bilan o'lchash mening xayolimga ham kelmagan bo'lardi va men missis Kollinz ota-onasiga yaqin joyga tushgan, deb o'ylamayman.

– Bu sizning Xartfordshirga juda bogʻlanganligingizni koʻrsatadi. Longbornga yaqin boʻlmagan hamma joy sizga uzoq boʻlib tuyuladi.

Yigit bu gapni cuhbatdoshiga tushunarli boʻlgandek jilmayish bilan aytdi. U qizning soʻzlarini Nezerfild va Jeynga tegishli deb hisoblayotgan edi. Qiz qizargancha, javob berdi:

– Men turmushga chiqqach, qizlar ota-onasi bilan orasidagi masofani juda uzoq deb bilishadi, demoqchi emasman. Yaqinlik va uzoqlik – bular sharoitdan kelib chiqadigan nisbiy tushunchalardir. Boylikdan kelib chiqib yoʻl kira hech qanday qiyinchilik keltirmaydigan joyda masofa hech narsa emas. Lekin bizning misolimizda bunday emas. Kollinzlarning yetarlicha daromadlari bor, lekin bu tez-tez u yoq-bu yoqlarga borib kelish uchun yetarli darajada emas va mening ishonchim komilki, dugonam uning uyi hozirgiga qaraganda ikki barobar yaqinroqda boʻlganda ham, uyim ota-onamnikiga yaqin, demagan boʻlardir.

Mister Darsi stulini unga yaqinroqqa surib, dedi:

– Tugʻilgan joylarga bunchalik yopishib olish kerak emas. Axir, bir umr hayotingizni Longbornda oʻtkazmaysiz-ku!

Elizabet uning soʻzlaridan hayron boʻldi. Lekin biridan Darsining kayfiyati oʻzgardi, stulini orqaga surib, qizga yuqoridan qaradi-da, sovuqqina qilib dedi:

– Kent sizga yoqdimi?

Shundan soʻng ular qisqagina qilib bu yerlar haqida oʻz fikrlarini aytishdi. Suhbatni ular yolgʻiz yuzma-yuz oʻtirishganidan hayratga tushgan Sharlotta bilan singlisining kirib kelishi boʻldi. Mister Darsi oʻzining yanglishib kelib qolgani va bu bilan miss Bennetning ham ishiga xalaqit berganini aytib, bir necha daqiqa oʻtirgach, indamay joʻnab ketdi.

– Nima gap ekan-a? – u chiqib ketishi bilan hayron boʻlib dedi Sharlotta. – Eliza, azizam, menimcha

u seni sevib qolgan bo'lsa kerak – aks holda o'lsa ham bu yerga o'zi kelmasdi.

Lekin Elizabetdan yigitning juda kam gapirganini eshitgach, gapiga o'zi ham ishonmay qoldi. Ikkalasi Darsining kelishi haqida xilma-xil sabablarni aytib o'tishgach, u shunchaki vaqt o'tkazish uchungina kelgan, degan fikrda to'xtashdi. Rostdan ham, ov qiladigan vaqt tugagan edi. Rozingsda esa ledi Kettrin, kitoblar va bilyardgina bor edi. Axir, erkaklar butun kun uy ichida o'tirisha olmaydi-ku! Pastorning uyi yaqinligi uchunmi, bu uyga olib keladigan yo'l yoqib qolgani uchunmi yoki unda yashaydiganlar bilan uchrashuv yoqqani uchunmi, xullas, ikkala yigit ham bu uyga tez-tez kelib turadigan bo'lishdi. Ular, odatda, ertalab kelishar, ba'zan alohida, ba'zan birga, ba'zan esa ular bilan ledi Kettrin ham kelardi. Ayollarga polkovnik Fitsuilyamning kelishi sababi aniq edi – unga bu ayollar bilan birga bo'lish yoqayotgandi. Elizabetga bu yigit kelishining yoqishi va qizda qoldirgan taassurotlari xuddi mister Uikxem bilan bo'lgan-dek taassurotlarni yodiga soldi. Ikkalasini solishtirar ekan, u polkovnikning harakatlarida Uikxemdek odamni o'ziga jalb qiladigan joziba yetishmasa-da, uning ko'proq o'qiganiga amin bo'lardi.

Lekin mister Darsining Xansfordga bunchalik ko'p kelishining sababi nimaligi noma'lum edi. U suhbatdoshga muhtoj emasligi aniq ko'rinib turardi, chunki ko'p hollarda ancha vaqtgacha bir og'iz ham so'z aytmay o'tirar edi. Gapirishni boshlaganda esa u kerakligi uchun emas, faqat gapirish kerakligi uchungina og'iz ochganga o'xshardi. U kamdan-kam hollardagina tetik bo'lib ko'rinardi. Missis Kollinz nima deyishga ham hayron edi. Polkovnik Fitsuilyamning goh-goh uning bunday holati us-tidan kulib qo'yishini e'tiborga olsa, demak, u doim ham shunday emas edi. Darsini qanchalik daraja-

da bilishi esa bu haqda biror narsa deya olishiga yoʻl bermasdi. Albatta, u Darsidagi bu holatni oʻzining dugonasini sevib qolganlikka yoʻyishni chin dildan istayotgandi va nima qilib boʻlsa-da, bunga ishonch hosil qilishni xohlayotgandi. Sharlotta ular Rozingsga borishganda yoki yigit Xansfordga kelganida uni diqqat bilan kuzata boshladi, lekin hech qanday natijaga erisha olmadi. Yigit koʻpincha Elizabetga tikilib tursa-da, yuz ifodasini koʻp narsaga yoʻyish mumkin edi. Koʻz qarashlari tikka va jiddiy boʻlib, Sharlotta koʻpincha bu qarashlarda biror maʼno bor yoki yoʻqligini tushunolmay qolardi. Baʼzan esa unga yigit dugonasiga qarab turib, boshqa bir narsa toʻgʻrisida oʻylayotgandek boʻlib tuyulardi.

Sharlotta bir-ikki marta Elizabetga Darsi uni yoqtirib qolgan boʻlishi mumkinligi toʻgʻrisida gapirmoqchi boʻldi, lekin Elizabet gapni hazilga aylantirib yubordi va Sharlotta yana roʻyobga chiqmaydigan umid tugʻilib qolmasin deb, gap-soʻzlarni bas qildi. Aslida, u dugonasining yigit taʼsirida ekanligini bilsa, Darsiga boʻlgan salbiy munosabati darhol oʻzgarishiga amin edi.

Oʻz dugonasiga chin dildan yaxshilik istayotgan Sharlotta vaqti-vaqti bilan uning polkovnik Fitsuil-yam bilan topishishi haqida ham oʻylab qolardi. U, albatta, juda ajoyib inson va jamiyatda oʻz oʻrniga ega. Elizabet ham unga yoqadi. Lekin Darsi moddiy tomondan undan yuqoriroqda turardi.

X bob

Park boʻylab aylanib yurar ekan, Elizabet bir necha marta mister Darsi bilan toʻqnashib ketdi. Yigitni birinchi marta uchratib qolgani parkning u hali biror marta ham oʻtmagan burchagida yurganida boʻldi. Keyingi safar bunday tushunmovchiliklar boʻlmasligi

uchun u yigitga har doim shu yerda aylanishini aytib qo'ydi. Keyingi to'qnashuvlar qanaqasiga ro'y berdi – tushunarsiz edi. Shunga qaramay, Darsi qizning yo'li-da ikkinchi marta ham, uchinchi marta ham chiqib qoldi. Buni yigit ataydan qilayapti deb yoki o'zini o'zi qiynayapti deb o'ylash mumkin edi. Chunki qizni ko'rishi bilan bir-ikki og'iz so'z aytib ketishning o'rniga unga ergashardi. Mister Darsi odatda kamgap edi, Elizabet ham ko'p gapirmasdi. Ular uchinchi marta uchrashib qolishganida Elizabet yigitning berayotgan savollari sira bir-biriga yopishmayotganiga e'tibor berdi. Yigit Elizabetdan bir Xansford unga yoqadimi deb so'rasa, bir unga yolg'iz aylanish yoqadimi deb so'rar yoki mister va missis Kollinzlarning hayoti haqida savollar berardi. U yana Rozings to'g'risida, balki bu yer Elizabetda noto'g'ri taassurot qoldirgan bo'lishi mumkinligi, keyingi safar Kentga kelganida qizning o'sha yerda to'xtashi haqida gapirdi. Nahotki, u polkovnik Fitsuilyamga shama qilayotgan bo'lsa? Elizabetga yigit xuddi bir narsani ko'zda tutib gapirayotgandek bo'lib tuyuldi. O'zini tahqirlangandek his qilib, tezroq uyga qaytishga shoshildi.

Yana shunday aylanib yurgan kunlarning birida, Jeynning oxirgi xatini o'qib, opasining xafaligi, ayniqsa, yaqqol bilinib turgan so'zlar ustida o'ylar ekan, orqadan qadam tovushlari eshitildi. Biroq qayrilib qarab, mister Darsini emas, unga tomon kelayotgan polkovnik Fitsuilyamni ko'rdi. Xatni berkitib, o'zini zo'rlab jilmaydi-da, yigitga dedi:

– Men sizni bu yerlarda ko'raman deb o'ylamagandim!

– Men bir yilda bir marta parkning hamma joyini aylanib chiqaman, – dedi polkovnik. – Hozir esa Xansfordga kirmoqchi edim. Siz uzoqqa ketayapsizmi?

– Yo'q, men ham endigina qaytmoqchi bo'layotgandim.

Shu gaplarni aytib, qiz polkovnik bilan ruhoniyni-ning uyi tomon birga keta boshladi.

– Sizlar rostdan ham shanba kuni jo‘nab ketayapsizlarmi? – so‘radi Elizabet.

– Ha, agar Darsi yana gapidan qaytib qolmasa. Men unga bo‘ysunishga majburman. U bo‘lsa o‘zi xohlaganini qiladi.

– Va o‘zi xohlaganini qiladigan xo‘jayin bo‘lib, boshqalarni o‘ziga bo‘ysundirib rohatlanadimi? Men hali shu paytgacha o‘zi istagan narsani qilish huquqini shunchalik avaylaydigan odamni uchratmaganman.

– Ha, u o‘z taqdiriga o‘zi xo‘jayin bo‘lmoqchi, – javob berdi Fitsuilyam. – Lekin bu har bir insonga xos narsa-ku! Darsining farqi shundaki, buni amalga oshirish uchun uning imkoniyatlari ko‘proq. Ko‘pchilik kambag‘al bo‘lgani holda, Darsi yetarli darajada boy. Men buni juda yaxshi bilaman. Kichik o‘g‘il birovga qaramlikka va har qadamda istagan narsasidan o‘zini tiyishga ko‘nikishi kerak.

– Men esa grafning kichik o‘g‘liga unisi ham, bunisi ham begona deb o‘ylagan edim. To‘g‘risini aytib, siz muhtojlikni ko‘p ko‘rganmisiz? Nahotki, pulingiz yo‘qligi sabab, biror narsani sotib ololmay qolgan yoki o‘ylab qo‘ygan sayohatingizga borolmay qolgan paytlaringiz ko‘p bo‘lgan bo‘lsa?

– Bular hammasi oilaviy hayotga tegishli. Balki men, bunday qiyinchiliklarni ko‘p ko‘rganman, deb aytishga haqqim yo‘qdir. Lekin kattaroq ishlarda mablag‘ yetishmasligi jiddiy xafagarchiliklarga olib keladi. Masalan, kichik o‘g‘illar o‘ziga yoqqan qizga uylana olmaydilar.

– Odatda ular bilan bo‘ladigandek, agar boy bo‘lgan merosxo‘r qiz ularga yoqmagan taqdirda.

– O‘zi istagandek yashash odatlarimiz bizni pulga qaram qilib qo‘yadi. Mening atrofimdagi odamlar

ichida keyin bemalol ishlatishlari mumkin bo'lgan mablag' haqida o'ylamay, xohlagan qiziga uylana oladigan dovyuraklar juda kam.

«Nahotki, bu gaplar menga tegishli bo'lsa?» o'yladi qizarib ketgan Elizabet. Lekin o'zini qo'lga olib dedi:

– Menga ayting-chi, unda grafning kichik o'g'illarining narxi qancha? Agar akasi gullab-yashnayotgan bo'lsa, kichkinasi ellik mingcha tursa kerak?

Yigit ham shu ruhda javob berdi va shu yerda suhbat tugadi. Biroz o'tib, Elizabet yigitning uning shamasi ta'sirida, deb o'ylashi mumkin bo'lgan sukutni buzish uchun dedi:

– Menga amakivachchangiz sizni xuddi bironing ustidan boshqarib yurish uchungina olib kelganga o'xshaydi. Lekin u nimaga uylanib, bir umrga o'ziga shunday qulaylikni yaratmayotganiga men tushunmayapman. Balki bu maqsad uchun singlisi hozircha yetarli bo'lsa kerak-da. Qizning yolg'iz g'amxo'ri mister Darsi – u singlisiga xohlagancha buyruq berishi mumkin.

– O, yo'q, – dedi polkovnik. – Bu huquqni u men bilan bo'lishishiga to'g'ri keladi. Miss Darsining taqdiri uchun Darsining bo'ynida qanchalik javobgarlik bo'lsa, mening ham shunchalik javobgarligim bor.

– Rostdanmi? Xo'sh, javobgarligingizni qanday amalga oshiryapsiz? U sizga ko'p ish orttiradimi? Uning yoshidagi qizlarni eplash, odatda, biroz qiyinroq. Buning ustiga uning tabiati ham akasidek o'zining aytganini qildiradigan bo'lsa kerak.

Bu gaplarni ayta turib, Elizabet yigit o'ziga diqqat bilan qarab qo'rganini sezdi. Uning jiddiylilik bilan nima uchun Elizabet miss Darsi bezovtalik tug'dirishi mumkin deb hisoblaydi, deb bergan savoli qizning taxmini haqiqatdan yiroq emasligini isbotlab turardi. Elizabet kuttirmay, javob berdi:

– Xavotir olmang – men miss Darsi haqida hech qanday yomon gap eshitmaganman. Boshqa bi-ror qiz haqida miss Darsichalik ko‘p gapirishmay-di, deb hisoblasam-da. Miss Darsi mening ikki ta-nishim – missis Xyorst va miss Binglilarning jon-u dili. Menimcha, siz ularni ko‘rganman, deb aytgan-dingiz shekilli?

– Ularni biroz taniyman. Akasi Darsining yaqin do‘sti, ajoyib yigit.

– Ha, gap yo‘q, – xo‘mrayib dedi Elizabet. – Mister Darsi mister Bingliga nisbatan o‘ta ko‘ngilchan va doim u haqda qayg‘uradi.

– Qayg‘uradi? Rost, men ham shunday bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman. Bingli ayni shunga muhtoj bo‘lib tur-ganda u o‘rtog‘iga qattiq g‘amxo‘rlik qilgandi. Darsining Kentga kelayotganimizda aytgan ikki og‘iz gapidan do‘sti uning oldida qarzdor ekanligini tushungandim. To‘g‘rirog‘i, bu mening gumonim. Chunki do‘sti kim ekanligini ming so‘ramay, Darsi nomini aytmagandi.

– Bu bilan nima demoqchisiz?

– Shunchaki bir narsa. Darsi buni hamma bilib qolishini xohlamasdi. Agar bu gap bir qiz oilasining qulog‘iga yetsa, katta noxushlik bo‘lgan bo‘lardi.

– Xotirjam bo‘laving, hech kimga aytmayman.

– Yodingizdan chiqmasin: u butunlay Binglini ko‘zda tutmagan bo‘lishi mumkin. Uning aytgan gapi shu bo‘ldiki, o‘rtog‘ini bir qizga o‘ylamay uyla-nib qolishdan qutqarib qolgani uchun o‘z-o‘zidan xursandligi edi. Men gap Bingli to‘g‘risida deb xu-losa qilganimga sabab esa, faqat ugina shunday vaziyatga tushishi mumkin edi. Buning ustiga ular Darsi ikkovi o‘tgan yozni birga o‘tkazishgan edi.

– Nima uchun o‘rtog‘ining ishlariga aralashishiga to‘g‘ri kelganining sababini Darsi sizga aytganmi?

– Mening tushunishimcha, qizga nisbatan qattiq qarshiliklar bor edi.

– Mister Darsi ularni qanday ajrata olibdi?
– U menga bu haqda aytmadi, – jilmayib dedi Fitsuilyam. – O‘zingma ma‘lum bo‘lgan hamma narsani esa sizga aytdim.

Elizabet hech narsa demadi. Uning g‘azabi qaynab ketayotgan edi. Biroz o‘tib, Fitsuilyam undan jim bo‘lib qolish sababini so‘radi.

– Hozirgina aytgan gaplaringizni o‘ylayapman, – javob berdi Elizabet. – Do‘stingizning xatti-harakati menga yoqmadi. U kim bo‘libdiki, o‘zini qozidek tutadi?

– Sizningcha, uning aralashuvi bekor bo‘lganmi?

– Do‘stining tanlagani to‘g‘rimi yoki yo‘qligini hal qilishga uning nima haqqi bor? Bingli kim bilan baxtini topadi – u qayerdan biladi? Lekin – biroz o‘zini tutib olib, davom etdi Elizabet, – anig‘ini bilmasdan turib, uni ayblay olmaymiz. Balki yigit bilan qizning munosabatlari juda chuqur bo‘lmagan bo‘lsa kerak.

– To‘ppa-to‘g‘ri! Bu Darsining xizmatiga to‘g‘ri baho bo‘lmasa-da.

Yigitning bu so‘zlari hazil ohangida aytilgan edi. Elizabet o‘zini sotib qo‘yishdan qo‘rqib, gapni boshqa mavzuga burdi va uygacha birga gaplashib ketishdi. Fitsuilyam ketgach, u o‘z xonasida qamalib olib, hozirgina eshitgan gaplari haqida o‘ylay boshladi. Eshitgan gaplari uning yaqinlari haqida emasligiga ishonish qiyin edi. Dunyoda mister Darsining qattiq ta‘siri ostida ikkita odam bo‘lishi mumkin emasdi. Bingli va Jeynning ajralib ketishiga oid voqealarda uning qo‘li bor bo‘lishi mumkinligini oldin ham taxmin qilgan edi. Lekin bu voqealarda asosiy ijrochi deb miss Binglini ayblardi. Lekin endi ma‘lum bo‘lishicha, agar Darsining o‘zini shuhratparastligi aldamagan bo‘lsa, aynan u, uning manmanligi va o‘zbilarmonligi Jeynning o‘tgan va bo‘lajak g‘am-g‘ussalarining sababchisi edi. Birov

emas, aynan u dunyodagi eng nozik bir qalbni baxtli bo'lish umididan bebahra qildi. Bundan paydo bo'lgan yara qachon bitishi esa noma'lum.

Polkovnik aytdiki, «Qizga nisbatan qattiq qarshiliklar bor edi!» – bu qarshiliklar uning bir amakisi savdogar, boshqasi ham bir qishloqi xodim bo'lgani bo'lsa kerak.

«Jeynning o'ziga qarshi esa biror-bir narsa deymagan bo'lardi! – xitob qildi Elizabet. – U qanchalik kelishgan va yoqimli! Qanchalik aqlli va o'zini tutishni biladi! Otamizga qarshi ham birorta yomon gap aytib bo'lmaydi. Uning qiziq-qiziq odatlari bo'lsa ham, hatto mister Darsining o'zi ham uning (o'zi hech qachon bunday bo'la olmaydigan) yetuk aqliga va g'oyatda batartibligiga ko'zini yuma olmaydi».

Onasi yodiga tushib, Elizabetning ishonchi biroz so'ndi. Lekin ayolning kamchiliklari Darsining g'ashiga tekkan, degan fikrni xayoliga keltirishni ham istamadi. Darsining g'ururi, do'sti aqli noqisroq emas, balki o'zidan pastroq tabaqadagi odamlar bilan qarindoshchilik qilsa toptalgandek bo'ladi, shekilli. O'ylab-o'ylab, qiz Darsining xatti-harakati uning o'ta manmanligi va singlisini Bingliga berishni xohlaganidan, degan qarorga keldi.

Bugungi kun noxushliklari uning yig'lashi va boshi og'rishiga olib keldi. Kechga borib esa bu holati kuchaydi, buning ustiga Darsini ko'rishni xohlamayotgani uchun bugun Kollinzlar taklif qilingan Rozingsga borishdan bosh tortdi. Dugonasining rostdan ham mazasi yo'qligini ko'rib turgan missis Kollinz uni zo'rlamadi va iloji boricha erining ham yopishqoqlik bilan borishini so'rashidan dugonasini qutqardi. Lekin mister Kollinz Elizabetning kelmagani ledi Kettrinning jahlini chiqaradi, demaslikdan o'zini tiya olmadi.

XI bob

Hammalari jo'nab ketishgach, Elizabet o'zini mister Darsiga battarroq qarshi qilish uchun Kentdaligida Jeyndan olgan xatlarini qaytadan o'qib chiqqa boshladi. Bu xatlarda ochiqdan ochiq shikoyat yo'q edi. Opasi o'tgan voqealarni eslamas va o'zining hozirgi ahvoli to'g'risida ham hech narsa demasdi. Lekin har bir xati, har bir qatori uning oldingi xatlarida bo'lganidek Jeynga xos bo'lgan hayotni sevishga bo'lgan intilishning yo'qolganiga guvohlik berardi. Elizabet xatlardagi har bir so'zdan ufurib turgan alamni birinchi marta o'qiganidan ham ko'ra endi aniqroq his qildi. Mister Darsining birovning hayotiga uyatsizlarcha aralashib, o'zini osmonda his qilishidan opasi boshidan kechirgan qayg'uning naqadar chuqurligini battarroq his qildi. Qiz yigitning jo'nab ketishiga qolgan ikki kunning tezroq o'tishini chin dilidan istadi. Uning ko'nglini biroz xotirjam qilgan narsa ular opasi bilan ikki haftadan so'ng ko'rishishlari va opasining ko'nglini ko'tarish uchun hamma narsani qilish fikri bo'ldi.

Mister Darsining Kentdan ketishini o'ylar ekan, qiz u bilan birga polkovnikning ham ketishini yodidan chiqarmadi. Polkovnik Fitsuilyam o'zi tomonidan birov jiddiy gap borligiga hech qanday shama qilmadi. U qanchalik yaxshi hamsuhbat bo'lmasin, Elizabet uning ketishidan xafa bo'lib o'tirmoqchi emas edi.

Shu narsalarni o'ylab o'tirar ekan, qiz birdan eshik qo'ng'irog'ini eshitdi. Kelgan odam oldin ham xuddi shu paytda kelgan Fitsuilyam bo'lishi mumkin degan fikrdan Elizabet biroz hayajonlandi. Lekin eshikdan kirib kelgan mister Darsini ko'rganda, uning gumoni tarqab, hayron bo'lib qoldi. Mehmon qizning ahvolidan so'radi va uning sog'lig'ini so'rash uchun kirganini aytdi. Qiz sovuqqina qilib javob qaytardi. Yigit biroz

o'tirdi, yana turdi va xona bo'ylab u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Elizabet hayron edi, lekin indamasdan turaverdi. Bir necha daqiqa indamay turgach, yigit birdan shiddat bilan qizga yaqinlashib dedi:

– Mening hamma kurashganim bekor! Hech narsa kor qilmayapti! Men o'z tuyg'ularimni jilovlay olmayapman. Bilib qo'ying: siz menga juda yoqasiz va men sizni sevaman!

Yigitning so'zlari Elizabetni qanday hayron qoldirganini tasvirlash qiyin. Qizarib, o'zini yo'qotib qo'yg'an Elizabet yigitga qarab jim turardi. Uning jim turganidan umid qilgan Darsi o'zining oxirgi kunlarda nimalarni his qilganini va uni hozir nimalar qiynayotgani haqida gapirdi, o'ziga xos bo'lmagan qiziqqonlik bilan so'zladi. Lekin uning aytayotgan so'zlarida faqat yuragining sadosi aks etmayotgan edi: ehtirosli muhabbat ohanglari shikastlangan g'ururdan kuchliroq emasdi. Ikkovlarining o'rtasidagi tengsizlik, o'zining nomiga keltirayotgan zarar, o'zining tuyg'ularini shu paytgacha qizga ochishiga xalaqit bergan oilaviy bid'atlar to'g'risida hayajon bilan aytayotgan mulohazalari uning tuyg'ulari qanchalik kuchliligidan darak bersada, dil izhorining muvaffaqiyatiga yordam berolmasdi. Mister Darsiga nisbatan chuqur sovuq munosabatiga qaramay, Elizabet bunday yigitning sevgisi uning uchun sharaf ekanligini tan olardi. O'zining unga nisbatan bu sovuq munosabatini yo'qotmagan holda, oldiniga yigitning rad javobini olishi uni qay holga solishini o'ylab, hatto qizning unga biroz rahmi keldi. Lekin yigitning gaplarini davom ettirib aytayotgan fikrlari shunchalik uning g'azabini keltirdiki, bu g'azab uning yuragidan har qanday rahmni siqib chiqardi. Shunga qaramay, u yigit gapini tugatganda, silliqroq javob berish uchun o'zini tutib olishga harakat qildi. Gapining oxirida yigit yuragini shunchalar qiynoqqa solgan his-tuyg'ulari miss Bennetning beradigan roziligi bilan taqdirлана-

di, degan umidni bildirdi. Qizning rad javobi berishi mumkinligi, hatto xayoliga ham kelmas edi. O'zining qanchalik hayajon bilan javob kutayotganini aytib, mister Darsi o'zining butun yurish-turishi bilan ijobiy javob eshitishiga aminligini ko'rsatib turardi. Bularning hammasi Elizabet yuragida yana ham ko'proq g'alayon uyg'otdi. Yigit gapini tugatishi hamon, u qiziqqonlik bilan dedi:

– Siz his qilayotgan tuyg'ularni ular atalgan odam ham his qiladimi yoki yo'qmi, bundan qat'i nazar, minnatdorchilik bilan qabul qilish lozim bo'lsa kerak. Minnatdorchilik inson tabiatiga xos narsa va agar men hozir uni his qilayotgan bo'lganimda, albatta, sizga bildirgan bo'lardim. Lekin men hozir buni his qilmayapman. Men hech ham sizga yoqishga harakat qilmaganman va sizning bu hissiyotlaringiz mening irodamga bog'liq bo'lmagan holda paydo bo'lgan. Birovning ko'ngliga ozor yetkazayotganimdan afsusdaman, agar bunda aybim bo'lsa, bu uzoq davom etmaydi, deb umid qilaman. O'z hissiyotlaringizga bo'ysunishingizga xalal bergan mulohazalaringiz mening rad javobimga bardosh berishingizga ham yordam beradi.

Mister Darsi kaminga suyangancha Elizabetga tikilib turardi. Qizning so'zlaridan hayron qoldi va qattiq g'azablendi, rangi oqarib ketdi. O'zini sokin tutishga harakat qildi va biror og'iz ham so'z aytmadi. O'rta-da paydo bo'lgan jimlik Elizabetni yutib yuborguday bo'ldi. Yigit so'zlarini chertib-chertib dedi:

– Men sizdan kutayotgan javob shuginami? Siz o'z javobingizni hech bo'lmaganda qog'ozga o'rab aytganingizning sababini bilsam bo'ladimi? Ha, mayli, endi farqi yo'q!

– Xuddi shu tarzda sizdan meni o'z irodangizga, o'z idrokingizga va hatto o'z qiziqishlaringizga qarshi o'laroq sevishingizni aytayotganingizda meni aniq yerga urib, haqorat qilmoqchi bo'lganligingiz

sabablarini so‘rashim mumkin! Agar sizga qattiqroq gapirgan bo‘lsam, shu narsa meni oqlamaydimi? Lekin menda boshqa sabablar ham bor va siz ularni bilasiz. Agar butun borlig‘im sizga qarshi bosh ko‘tarmaganida yoki sizga befarq bo‘lsam yoki hatto sizni yoqtirsam – nahotki, shu sabablar mening opamning baxtsiz bo‘lishiga sababchi bo‘lgan odam sevgisini qabul qilishimga arzisa?

Elizabetning bu so‘zlaridan Darsining yuzi o‘zgaradi. Lekin u birozdan so‘ng o‘zini tutib oldi va qizning so‘zlarini bo‘lmasdan, eshitishda davom etdi:

– Siz haqingizda yomon o‘ylash uchun menda hamma asos bor. Sizning yomon niyat bilan ataydan aralashishingiz oqibatida mister Bingli bilan opamning orasi buzilib ketganini hech qanday bahona bilan oqlab bo‘lmaydi. Siz bu ajralishning asosiy, balki yolg‘iz sababchisi ekanligingizni rad etolmaysiz. Bu ishingiz oqibatida Bingli subutsiz degan nomni oldi, Jeyn esa ro‘yobga chiqmagan umidlari orqasidan kulgiga qoldi. Va ular ikkalasi ham o‘zlarini baxtsiz his qilishyapti.

Qiz gapirishdan to‘xtar ekan, yigitning afsusda ekanligini bildiruvchi birorta harakatsiz o‘zini tinglayotganiga e‘tibor berdi. Qaytaga yigit uning gaplariga ishonmaganday qarab turardi.

– Bo‘lib o‘tgan voqealar sababchisi siz emasligingizni tan olasizmi? – so‘radi qiz.

Yigit chertib javob berdi:

– Men do‘stimni opangizdan uzoqlashtirish uchun qo‘limdan kelgan hamma narsani qilganimni yoki harakatlarim natijasidan xursandligimni rad qilmoqchi emasman. Bingli uchun men o‘zimga qiladigandan ko‘ra ko‘proq harakat qildim.

Elizabet avvaliga uning bu gaplarini eshitmaganiga oldi. Lekin yigitning gaplaridagi ma‘no diqqatini tortdi va g‘azabini bosa olmay, dedi:

– Lekin men sizni yoqtirmasligim sababi faqat bu emas. Sizga nisbatan boʻlgan munosabatim oldinroq shakllangan. Bir necha oy oldin, mister Uikxem siz haqingizda gapirib berganidayoq, men sizning tabiatangiz toʻgʻrisida xulosa chiqarib boʻlgandim. Bunga nima deysiz? Oʻzingizni qanday oqlaysiz? Qilgan qilmishlaringizni notoʻgʻri aytgan deb, kimni qoralaysiz?

– Siz bu yigitchaning taqdirini juda yuragingizga yaqin olibsiz, – oʻzini tutib olib, dedi Darsi.

– Uning yoʻqotganlari toʻgʻrisida eshitgan odam beparvo boʻla olarmikan?

– Yoʻqotganlari? – nafrat bilan dedi Darsi. – Ha, u rostdan ham koʻp narsa yoʻqotgan.

– Bunga siz aybdorsiz! – qizishib dedi Elizabet.
– Siz uni qashshoqlikkacha olib borgansiz. Boshqa birov emas, siz uni umid qilish mumkin boʻlgan hamma narsadan mosuvo qilgansiz. Siz uning umrining eng yaxshi onlarini, ham qonuniy tomondan, ham xizmatlari uchun unga tegishli boʻlgan mustaqillikni tortib olgansiz. Bular hammasi sizning ishingiz! Bu ham yetmagandek, siz yana uning ustidan kulmoqchi boʻlyapsizmi?

– Ha-a-a, mana siz men haqimda nima deb oʻylayapsiz! – uyning u burchagidan bu burchagiga yurib, xitob qildi Darsi. – Mana, siz nimalarni oʻylayotgan ekansiz! Sizningcha, men butunlay gunohkor ekanman-da? Lekin – u toʻxtab, qizga tik boqdi, – mening sizga dil izhorlarimni aytishga xalaqit bergan ikkilanishlarim va ichki kurashlarim toʻgʻrisidagi gaplarim sizning gʻururingizga tegmaganda, mening ayblarimni kechirish mumkin boʻlarmidi? Agar men oldindan koʻra bilib, bu hislarimni sizdan yashirganimda, balki bu ayblovlardan ozod boʻlarmidim? Yoki sizga yaltoqlanib, oʻzimning qarama-qarshiliklar, oʻylab ish qilish yoki jamiyatning taomillari soya sololmaydigan qaynoq sevgimga sizni ishontirishim kerakmidi? Le-

kin men soxtalikni o'lgudek yomon ko'raman. Men sizga aytgan o'z tuyg'ularimdan uyalmayman. Ular haqiqiy va tabiiy. Siz o'zingiz doim ichida bo'ladigan odamlar orasida bo'lish menga yoqimli bo'ladi, deb kutganmidingiz? Yoki jamiyatda o'rni menikidan pastroq odamlar bilan qarindoshchilik qilish bilan o'zimni tabriklashimnimi?

Elizabetning g'azabi daqiqa sayin ortib bordi. Lekin yigitga javob bera turib, o'zini bosishga harakat qildi:

– Mister Darsi, sizning dil izhor qilish uslubingiz mening javobimga o'z ta'sirini ko'rsatdi, deb o'ylayotgan bo'lsangiz, qattiq yanglishasiz. Bu narsa meni agar siz haqiqiy oliyjanob insonlardek o'zingizni tutganingizda beradigan rad javobim ta'sirida men his qilishim mumkin bo'lgan qiyinchilikdan ozod qildi.

Qiz Darsining titrab ketganini sezdi. Lekin yigit javob qaytarmagach, davom etdi:

– Siz o'z tuyg'ularingizni qay tarzda izhor qilmang, men baribir rad javobini bergan bo'lardim.

Yigitning yuzida yana hayronlik alomati paydo bo'ldi. Qiz gapirar ekan, yigit unga ishonchsizlik va o'zini yo'qotib qo'yishdek ifodalar aralashib ketgan bir nazar bilan qarab turardi:

– Boshidan boshlab aytish mumkinki, siz bilan tanishganimning birinchi onlaridanoq sizning o'zingizni tutishingizdan manmanligingiz, balandparvozligingiz, atrofingizdagilarning tuyg'ulariga nisbatan befarqligingizni sezgan edim. Mening sizga nisbatan nafratim o'shanda boshlangan. Lekin keyin sodir bo'lgan voqealar ta'sirida ular mustahkamlandi. Tanishganimizga hali bir oy to'lmay turib, siz men turmushga chiqmasligim aniq bo'lgan odamlar ro'yxatida edingiz.

– Xonim, yetarli gapirdingiz. Men sizni tushundim. O'z hislarimdan uyatdaman. Vaqtingizni olganim uchun uzr. Sizga sog'lik va salomatlik tilayman.

Shu gaplarni aytib, Darsi xonadan chiqib ketdi. Elizabet u ko'cha eshigini ochib, chiqib ketganini eshitdi. Hamma narsa aralash-quralash bo'lib ketgan edi. O'zini tutib turishga boshqa kuch topolmay, kresloga o'tirdi-da, ko'z yoshlariga zo'r berdi. Yarim soatlar shunday o'tirgach, hozirgina bo'lib o'tgan gap-so'zlarni birma-bir yana xayolidan o'tkaza boshladi. Uning hayronligi ortib borardi: mister Darsining o'zi unga sevgi izhor qildi! Mister Darsi uni bir necha oydan beri sevadi! Shunchalik sevib qolganki, Bingli bilan Jeyning turmush qurishlariga imkon bermaydigan va o'zida ham xuddi shu sababli paydo bo'lishi mumkin bo'lgan qarshiliklarga qaramay, uning roziligini so'radi! Bularning hammasi yolg'onga o'xshardi. Shunday tuyg'uning sababchisi bo'lish albatta xush yoqar edi. Lekin mister Darsining o'ta mag'rurligi, o'zining Jeyn taqdiriga aralashganidan maqtanishi va bu borada o'zini haq deb bilishi, Uikxem haqida shunchalik befarqlik bilan gapirishi, bu yigitga nisbatan bag'ritoshligi – bular hammasi yigitning sevgisi haqidagi o'ylari natijasida paydo bo'lgan daqiqalik hamdardlikni yuragidan siqib chiqardi.

Eshik tagiga kelgan ekipaj ovozi eshitilganda, Elizabet hali ham o'ylab o'tirar edi. Sharlotta uni shu holatda ko'rib qolishidan qo'rqib, shosha-pisha o'z xonasiga kirib ketdi.

XII bob

Ertasi kuni ertalab Elizabet yana o'sha yarim kechagacha unga uyqu bermagan o'y-fikrlar bilan uyg'ondi. U hali ham o'ziga kelolmayotgan edi. Boshqa narsa to'g'risida o'ylashning esa aslo iloji yo'q edi. Biror ish qilishga qo'li bormay, nonushtadan so'ng, aylanib kelishga qaror qildi. O'zi yoqtirgan tomonga borar ekan, mister Darsi odatda uni shu yerda

ko'rishni yodiga tushib, boshqa tomonga qarab ketdi. Biroz o'tib, u parkning boshqa tomonida edi. Yo'lka-ning u boshidan bu boshiga borar ekan, erta tongdan zavqlanib, parkni tomosha qildi. U Kentda o'tkazgan besh hafta davomida tabiatda ozmuncha o'zgarishlar bo'lmadi, kundan-kunga yashil bo'lib borayotgan daraxtlarda yosh novdalar chiqa boshlagan edi. Parkka ichkariroq kirmoqchi bo'layotgan qiz, sal narida o'zi tomonga qarab kelayotgan odamni ko'rdi. Bu mister Darsi bo'lishi mumkinligidan qo'rqib, tezlik bilan qarama-qarshi tomonga yura boshladi. Lekin kelayotgan odam ham qadamini tezlatdi-da, Elizabetning ismini aytib chaqirdi. Mister Darsining ovozi tanigan Elizabet eshik tomonga qarab qadamini tezlatdi. Mister Darsi eshik oldiga u bilan bir paytda yetib keldi va qizning g'ayriixtiyoriy ravishda uzatgan qo'liga xat tutqazar ekan, takabburona sovuqqonlik bilan dedi:

– Men anchadan beri sizni uchratish ilinjida parkda aylanib yuribman. Shu xatni o'qib chiqib, menga bir yaxshilik qilmaysizmi?

Shu gaplarni aytgach, yengilgina ta'zim qildi-da, tezlik bilan daraxtzor oralab yurib ketdi.

Xatdan hech bir yaxshi narsa kutmayotgan bo'lsa-da, qiziqish ustun kelib, Elizabet konvert-ni ochib, unda ikki bet qog'ozga zich qilib yozilgan xatni ko'rdi. Qog'ozning orqa tomoni ham to'la edi. Yo'lka bo'ylab sekin ketar ekan, qiz xatni o'qiy boshladi. Xat Rozingsda ertalab soat 8 da yozilgan bo'lib, mazmuni quyidagicha edi:

«Xonim, bu xatni olib xavotir bo'lmang – unda kecha sizning noroziligingizga sabab bo'lgan takliflar yoki o'z tuyg'ularini ifodalashlar yo'q. Men ikkimizning tinchligimiz haqi, iloji boricha unutilishi lozim bo'lgan rejalarim haqida gapirib, na sizga tekkizishni va na o'zimni pastga urishni istamagan holda, ushbu xatni yozayapman. Maktubning yozilishi va albatta o'qilishi-

ni talab qilgan tabiatimning o'ziga xosligi bo'lmaganda, bu xatni qiynalib yozib o'tirish shart emasdi. Shuning uchun menga biroz vaqtingizni ajratishingizni so'rab qilgan erkalgimni ko'tarasiz, degan umiddaman. Bilaman, siz butun vujudingiz bilan qarshisiz, lekin sizning adolatli ekanligingizga aminman.

Siz kecha mening bo'yninga bir-biriga butunlay zid bo'lgan ikkita ayb qo'ydingiz. Birinchisi shu ediki, men miss Bennet va mister Binglilarning tuyg'ulari bilan hisoblashmay, bu ikki sevishganlarni ajratib yubordim, ikkinchisi – gardanimdagi majburiyatimga, nomus va insoniylik burchiga qaramay, men mister Uikxemning boyligiga zarar yetkazdim va uning kelajakka umidini yo'qqa chiqazdim. Otasi yaxshi ko'rgan, keyinchalik yashashi uchun pul keladigan yagona manba menga tegishli bo'lgan yerlardagi cherkov prixodi bo'lgan va bu prixod menga atalgan, degan fikr bilan ulg'aygan yoshlikdagi do'stini ataydan va murossasizlarcha pisand qilmaslik, atigi bir necha haftagina bir-birlariga yaxshi munosabatda bo'lgan ikki yoshni ajratib yuborishdek arzimagan ishga solishtirganda, albatta, jinoyat bo'lgan bo'lar edi. Umid qilamanki, quyida mening xatti-harakatlarim va ularning sabablarini o'qib va hamma sharoitni hisobga olgan holda, kelgusida, kecha juda osonlik bilan qilganingizdek, meni qattiq ayblamaysiz. Balki o'z harakatlarimni tushuntirish barobarida ba'zi narsalarga o'zimning qarashlarimni aytayotib, sizga yana tegib ketishim mumkin, buning uchun oldindan uzr so'rayman. Men bu o'rinda zaruratga suyanayapman, chunki keyingi pushaymonning hojati yo'q.

Xartfordshirga kelganimizdan biroz o'tib, men ham boshqalar kabi mister Binglining o'sha yerdagi ayollar ichida opangizga nisbatan boshqacha munosabatini seza boshladim. Lekin Nezerfilddagi balgacha men ular o'rtasida jiddiy munosabatlarni bo'lishi

mumkinligiga ishonmadim. Chunki do'stim oldinlari ham mening ko'z oldimda qizlar bilan o'ralashib yuraverardi. Faqat o'sha bal kuni siz bilan raqs tushayotib, ser Uilyam Lukasning, Binglining miss Bennetga bo'lgan munosabati ko'pchilikda ularning turmush qurishlari mumkinligiga umid uyg'otdi, degan gapini eshitib qoldim. Ser Uilyam bu haqda shunaqa ishonch bilan gapirdiki, xuddi faqat to'y kunini aniqlash qolgandek. Shu daqiqadan boshlab men do'stimning yurish-turishiga e'tibor bera boshladim. Ana shundagina uning miss Bennetga munosabati uning oldingi holatlaridan ko'ra jiddiyligini sezib qoldim. Yana ham diqqat bilan opangizni ham kuzatdim. Uning o'zini tutishlari har doimgidek yoqimli, quvnoq va bermalol ediki, uning yuragi rostdan ham band deb, jiddiy o'ylashga hech qanday asos yo'q edi. Butun kecha davomida miss Bennet Binglining unga e'tiborini qabul qilayapti, lekin o'zida hech qanday intilish yo'q, degan xulosaga keldim. Sizning gaplaringiz boshqacha ekan, men adashgan bo'lishim mumkin. Opangizni siz yaxshiroq bilasiz, shuning uchun siz haq bo'lsangiz kerak. Noto'g'ri xulosam orqasida men opangizga ma'naviy zarar yetkazdim, mendan qancha g'azablansangiz ham bari asosli. Lekin shu o'rinda o'zimni qisman oqlash fikrim bor: opangiz o'zini juda erkin tuta olar ekanki, eng ko'zi o'tkir odam ham uning yuragida nima borligini bila olmaydi. O'z-o'zidan men ham uning mister Bingliga nisbatan beparvoligiga ishonmadim. Lekin ta'kidlab aytaman, kuzatishlarim va bu xulosalarim har doim ham mening xohishim yoki qo'rquvlarimga bog'liq emas. Va opangizning qalbi bo'sh bo'lgan, degan xulosaga kelishim men shuni istaganim uchun emas. Kecha men sizga keltirganim xulosalar hammasi emas edi. Kelib chiqishlarimizdagi tengsizlik nafaqat menga, balki do'stinga ham te-

gishli. Lekin boshqa to'siqlar ham bor edi. Va ular hali ham bor. Ular do'stim ikkalamizga tegishli, lekin oxirgi paytlarda ularga ko'z yumishga harakat qildim. Bular to'g'risida baribir biroz gapirib o'tishimga to'g'ri keladi. Qarindoshlaringizning ona tomonidan past tabaqadan kelib chiqishi, missis Bennet, uchala kichik singlingiz va ba'zi hollarda hatto otangizning o'zlarini tuta bilmasliklari oldida hech narsa emas. Sizni yana ranjitatayotganim uchun uzr so'rayman. Lekin qarindoshlaringizning kamchiligini o'ylab va xatimda shu gaplarni yozayotganim uchun meni qarg'agan holda, o'zingiz va opangiz ham bu xislatlardan yiroqligingiz va yurish-turishingiz sizlarning naqadar aqlli va yuksak didli ekanligingizdan darak berishini bilib qo'ying. Demak, o'sha kuni Nezerfildda ko'rganlarim, men oldinroq xulosa qilganimdek, do'stimni bu, mening nazarimda, omadsiz bo'ladigan, uylanishdan ogohlantirib qo'yishga undadi. Ertasi kuni u, yodingizda bo'lsa, tezda qaytib kelish fikri bilan jo'nab ketdi.

Endi sizga bu voqeadagi o'rnim haqida aytib bermoqchiman. Uning opa-singlisi ham men kabi xavotirda edilar. Hammamizning fikrimiz bir xil ekanligi tezda ma'lum bo'ldi. Tezda mister Binglining fikrini o'zgartirishimiz kerak, deb qaror qilgan holda, hammamiz uning ketidan Londonga ketdik. Shaharga kelgach, men do'stimning ko'zini ochishga harakat qildim. Unga hamma narsani jiddiy tushuntirib berdim. Aytganlarim uning qarorini bo'shashtirib, o'ylagan narsalarining bajarilishini orqaga surgan bo'lsa-da, men Binglini shu bilan orqaga qaytardim, deya olmayman. Asosiy narsa, men opangizning unga nisbatan befarqligini aytganimdan keyingina, u ishondi. Bundan oldin unikichalik bo'lmasa-da, opangizning ham unga nisbatan iliq munosabatiga ishonchi bor edi. Lekin do'stim tabiatan ishonuvchan bo'lgani uchun qilayotgan ishi noto'g'riligiga ko'ndirish qiyin bo'lmadi. Uni ishontirgach,

yana Xartfordshirga qaytmaslikka ko'ndirish juda oson ko'chdi. Men shu paytgacha qilganlarim uchun o'zimni ayblamayman. Yuz bergan voqealar ichida men norozi bo'lgan narsa bittagina. Miss Bennetning Londonga kelganini yashirish uchun ayyorlik qilishimizga to'g'ri keldi. Uning kelgani to'g'risida men va miss Bingli bilar edik. Binglining o'zi shu paytgacha bu to'g'risida hech narsa bilmaydi. Balki ularning uchrashuvi hech qanday yomon oqibatga olib kelmasdi. Lekin men Binglining opangizga nisbatan hali butunlay sovimganidan qo'rqdim. Aks holda, ular uchrashadigan bo'lsa, do'stimning sevgisi yana alangalana boshlashidan qo'rqdim. Balki bu yolg'onda ishtirok etib, noto'g'ri qilgandirman. Lekin bo'lar ish bo'ldi. Hammasi yaxshi niyat bilan qilingan edi. Bu to'g'rida gaplarim tamom. Va men o'zimni oqlash uchun boshqa hech narsa deya olmayman. Agar opangizning ko'nglini og'ritgan bo'lsam, men buni atay qilmaganman. Agar meni bu ishni qilishga majbur qilgan sabablar sizga ishonchli bo'lib tuyulmasa, nima uchun qilmasligim kerak bo'lgan sabablarni ko'rmayapman.

Ikkinchi, og'irroq ayblovigizga, mister Uikxemga yetkazilgan zarar haqidagi gapingizga keladigan bo'lsak, men uning bizning oilamiz bilan bog'liqlik joyi haqida aytib beribgina o'zimni oqlashim mumkin. U meni aynan nimada ayblagani menga noma'lum. Men sizga hozir aytib bermoqchi bo'lgan haqiqatni xohlagan odamingiz tasdiqlashi mumkin.

Mister Uikxem – Pemberlida ko'p yillar davomida sodiq xizmat qilgan va shuning orqasidan otamni ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishga undagan odamning o'g'li. Otam o'zining cho'qintirgan o'g'li bo'lgan Uikxemga e'tiborini qaratgandi. Oldin uning maktabdagi, keyin esa Kembrijdagi o'qishiga pul to'ladi. Bu yordam juda salmoqli edi, chunki xotinining pul ushlay olmasligi orqasida bechoraholga tushib qolgan

otasi o'g'lini o'qimishli qilib tarbiyalay olmasdi. Otam bu yigitchani faqat yaxshi ko'ribgina qolmay, balki u to'g'risida juda boshqacha fikrda bo'lib, diniy sohani tanlaydi deb, unga shu yo'lda yordam bermoqchi bo'lgandi. Menga keladigan bo'lsak, unga boshqacha ko'z bilan qaray boshlaganimga ancha yillar bo'ldi. O'zining axloqsizligini, o'z burchiga sodiqlik hissining yo'qligini u hammadan yashirishga urinar edi. Lekin o'zi bilan yoshi teng bo'lgan, o'zi bilan doim yonma-yon bo'lishga imkoniyati bo'lib, aslida qandayligini bemalol ko'ra oladigan odamdan qocha olishi mumkin emasdi. Hozir men yana sizning ko'nglingizni, bilmadim, qay darajada og'ritaman. Siz mister Uikxemga qanday ko'z bilan qaraysiz, bilmadim, lekin bu narsa meni uning haqiqiy basharasini ochib tashlashga battarroq undaydi. Otam besh yilcha oldin vafot etgan. Uning Uikxemga bog'lanib qolgani shunchalik kuchli ediki, o'z vasiyatida menga Uikxem haqida qayg'urishimni aytib o'tdi. Bunga ko'ra, u ruhoniy bo'lmoqchi bo'lgan holda, hamma sharoitlarni yaratib berish va bo'sh joy bo'lishi bilan uni cherkov prixodiga joylashtirib qo'yish kerak edi. Bundan tashqari, unga yana ming funt ham vasiyat qilingan edi. Yigitning otasi ham ko'p o'tmay vafot etdi. Oradan yarim yil o'tib, mister Uikxem ruhoniy bo'lish fikridan qaytganini yozib yubordi. Buni yoza turib, u buning o'rniga oladigan badalni ko'zda tutgan edi. O'zining gapicha, yuristlikka qiziqib qolibdi va buning uchun ming funt kamligini men juda yaxshi tushunardim. Shunday bo'lsa-da, gaplarining rostligiga ishonishni xohladim, chunki ruhoniylilik uning uchun emasligini juda yaxshi tushunardim. Ish shu bilan tugadiki, Uikxem ruhoniylilik yo'lida bo'ladigan har qanday yordamdan voz kechdi va men unga uch ming funt to'ladim. Shu bilan oramizdagi hamma bordi-keldi tugadi hisob. Uikxemni Pemberliga mehmonga chaqirish yoki poytaxtda u bilan uchrashishga intilish

uchun men uning to'g'risida juda yomon fikrda edim. Tushunishimcha, u faqat Londonda yashayotgan edi, yurisprudensiyani o'rganish esa bir bahona edi xolos. Uni ushlab turadigan hech kim yo'q, endi istagancha o'ynab-kular edi. Uch yil davomida Uikxem to'g'risida hech qanday xabar eshitmadim. Lekin cherkov prixodidagi ruhoniy vafot etganda, shu o'rinni unga berishimni so'rab, menga xat yozdi. Uning aytishicha, juda qiyin ahvolda qolgan emish va bunga ishonish qiyin emas edi. Yurisprudensiyani o'rganish unga hech narsa bermaganmish va aytishicha, agar prixodni unga bersam, diniy mansabga ega bo'lishga qat'iy qaror qilganmish. Bu gaplarni men so'zsiz bajarishimga uning imoni komil edi, chunki men g'amxo'rlik qiladigan boshqa odam yo'q edi va men otamning aytganlarini unutmagan edim. Siz men Uikxemning bu iltimosini va uning keyingi boshqa da'volarini ham bajarmaganim uchun meni ayblamasangiz kerak? Uning noroziligi shu darajaga yetdiki, hammaning oldida va hatto mening o'zimga ham bo'hton gaplarni aytishdan toy-madi. Shundan boshlab bizning o'rtamizdagi hamma narsa tugadi. Uning keyingi hayoti qanday kechdi – menga noma'lum. Lekin o'tgan yoz u juda yoqimsiz tarzda o'zining borligini namoyon qildi.

Men sizga o'zim butunlay miyamdan chiqarib tashlashni xohlagan voqeani aytib bermoqchiman. Sizga bu xatni yozishga majbur qilgan sababgina bu voqeani sizga aytishga majbur qilyapti. Va sizning ham bu sirni hech qachon hech kimga aytmasligingizga aminman. Mendan o'n yosh kichik bo'lgan singlimga g'amxo'rlik qilish menga va onamning jiyani bo'lmish polkovnik Fitsuilyamga yuklatilgan edi. Bir necha yillar burun biz singlimni maktabdan olib, avval Londonda, o'tgan yoz esa unga qarab turadigan ayol bilan Remsgeytda joylashtirdik. Mister Uikxem ham yomon niyat bilan o'sha yerda

joylashgan ekan. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, biz tabiatida yanglishganimiz missis Yang uni ancha paytdan beri bilar ekan. Uning beparvoligi orqasida mister Uikxem yoshligidan unga yaxshi ko'z bilan qaragan singlimni shunchalik o'ziga og'dirib olibdiki, singlim o'zini sevib qoldim deb ishonib, u bilan qochib ketishga rozi bo'lgan. Singlimni bu ishda oqlaydigan narsa – bu paytda u endigina o'n beshga to'lgan edi. Uning yengiltalik qilganini bo'ynimga olaturib, yana aytamanki, qochib ketish haqida singlimning o'zi menga aytib berdi. Men ular mo'ljallagan vaqtdan bir yoki ikki kun burun singlimning oldiga keldim. O'z otasidek ko'radigan akasini xafa qilib qo'ymaslik uchun, u menga hamma narsani aytib berishga qaror qildi. Mening nimalarni his qilganimni va nimalar qilganimni bemalol tasavvur qila olasiz. Singlimning nomiga dog' tushirmaslik uchun bu ishni ochib tashlashning iloji yo'q edi. Men mister Uikxemga xat yozdim va tez orada u bu yerlardan jo'nab ketdi. Albatta, bu o'rinda endi missis Yangning xizmati ham kerak emas edi. Mister Uikxemni albatta, singlimning o'ttiz ming bo'lgan merosi qiziqtirgan. Lekin men aniq ishonamanki, shu yo'l bilan mendan ham o'chini olmoqchi bo'lgan. Mana, xonim, mening bu odam bilan bog'liq tarixim ana shulardan iborat. Agar menga ozgina bo'lsa-da ishonsangiz, meni mister Uikxemga nisbatan bag'ritoshlikda ayblamay-siz. U sizni qanday qilib o'ziga qaratishga erishgan, menga qorong'i, lekin bu narsaga erishganiga hayron qolib bo'lmaydi. Bizlar haqimizda hech narsa bilmay turib, siz uni yolg'on ustida ushlay olmasdingiz, gumonsirash esa – sizning tabiatingizga zid narsa.

Bu narsalarni men sizga nega kecha kechqurun aytib bermaganim qiziq tuyular. Lekin kecha men to'g'ri qilayapmanmi yoki yo'q, deya oladigan ahvolda emasdim. Gaplarimning to'g'riligini polkovnik Fit-

suilyam tasdiqlashi mumkin. Bizning qarindoshligimiz va bir-birimizdan sir berkitmasligimiz, yana buning ustiga Jorjiana uchun u ham javobgarligini qo'shgan holda, uni ham bo'lgan voqeadan xabardor qilishim kerak edi. Agar o'zingizning menga nisbatan beparvo munosabatingiz orqasida so'zlarimga ishonmasangiz, balki Fitsuilyamga ishonarsiz. Va sizda undan so'rash imkoni bo'lishi uchun bu xatimni sizga bugun ertalab berishga harakat qilaman. Bu gaplarga qo'shadiganim bitta: xudo o'zi sizga oq yo'l bersin!

Fitsuilyam Darsi».

XIII bob

Elizabet mister Darsining xatini olar ekan, u yana o'zining roziligini so'rayapti, deb o'ylamagan bo'lsa-da, nima yozgan bo'lishi mumkin, deb o'ylash ham xayoliga kelmagan edi. Shuning uchun xatda yozilgan gaplarni qanchalik berilib o'qiganini va o'qiganlari unda qanday bir-biriga zid bo'lgan taassurotlar uyg'otganini anglash qiyin emas. U his qilayotgan narsalarni atashga so'z yo'q edi. Boshida u Darsi o'zini oqlashga harakat qilayapti, deb o'yladi. Darsida har bir o'ziga to'g'ri inson ham uyaladigan sabablar bo'lishi mumkinligiga ishonmadi. Yigit aytmoqchi bo'lgan narsalarning bariga nafrat bilan u Nezerfildda bo'lgan voqealar to'g'risida o'qiy boshladi. Har bir qatorni yutqib o'qir ekan, u hozirgina o'qigan qatorining mag'zini chaqmay turib, keyingi qatorda nima yozilganiga qiziqish orqasida oldingi qatordagi gapning mazmunini tushuna olmay qoldi. Boshida Darsining opasining mister Bingliga munosabatlarini sezmaganiman, degan gapi yolg'onga o'xshab tuyuldi. Yigitning bu nikohga qarshiligining jiddiy va haqiqiy sabablarining ro'yxati Elizabetning shunchalik g'azabini qo'zg'adi-

ki, u yigitning soʻzlariga toʻgʻri baho berishga qodir emasdi. U oʻz qilmishlariga qiz istaganchalik darajada pushaymon boʻlmayotgandi. Uning soʻzlarida pushaymonlik emas, balki oʻz qilmishidan xursandlik aks etardi. Xat boshidan oxirigacha manmanlik va gerdayishga toʻladek edi.

Lekin qiz xatning Uikxem haqidagi qismini oʻqiyotganida battarroq qiynoqqa tushdi. Boshi biroz yengilashgach, agar yozilganlar hammasi toʻgʻri boʻlsa, bu yigit toʻgʻrisidagi hamma yaxshi gaplarni yoʻqqa chiqaradigan voqealarni qaytadan oʻqib chiqdi. Yozilgan narsalar Uikxem aytgan narsalarning oʻzginasi edi. Qiz dahshatga tushdi. «Boʻlishi mumkin emas! Bu yolgʻon! Bunday emas!» – degan gaplar bilan xatdagi barcha faktlarni yoʻqqa chiqarmoqchi boʻldi. Xatga yana bir bora koʻz yugurtirib, taxlar ekan, endi boshqa oʻqimayman, deb oʻz-oʻzini ishontirishga urindi.

Yuragi taka-puka boʻlib, fikrlarini jamlay olmay, biroz aylanishga harakat qildi. Lekin bu yordam bermadi. Yarim daqiqalardan soʻng, oʻzini qoʻlga oldi-da, xatni yana ochib, Uikxemga tegishli joyini qaytadan oʻqishga tushdi. Asta-sekin oʻqiyotgan har bir gapining magʻzini chaqa boshladi. Uikxemning mister Darsining oilasi haqida aytganlari yigit aytayotgan gaplariga mos kelardi. Ikkalasining, oldin Elizabet bu toʻgʻrisida hech narsa bilmagan boʻlsa-da, marhum Darsining saxiyligi toʻgʻrisidagi fikrlari bir xil edi. Shu paytgacha ularning gaplari bir-birini toʻldirib kelardi. Lekin qiz vasiyat haqida oʻqiy boshlaganda, fikrlar oʻrtasidagi farq sezila boshladi. Qiz Uikxemning oʻziga vasiyat qilingan prixod haqidagi gaplarini yaxshi eslardi va bundan yigitlardan birining yolgʻon gapirayotgani kelib chiqardi. Birinchi daqiqalarda Elizabet oʻzining sezgisi aldamaganiga umid qildi. Lekin Uikxemning oʻziga atalgan prixoddan voz kechgani va uning oʻrniga uch ming funt olgani yozilgan joyiga

kelganda uning ishonchi sustlasha bordi. Xatga qaramay, xolis bo'lishga urinib, har bir dalilni taroziga solishga harakat qildi, lekin bu yordam bermadi. Har ikkala tomonda quruq so'zlar edi. Har bir qatorni o'qib chiqar ekan, Elizabet o'zini tutishini nomussizlikdan boshqa narsa deb bo'lmaydi, deb hisoblayotgan Darsini endi butunlay aybsiz, deyishni boshlagan edi.

Uikxemning isrofgarchilikda va buzuvchilikda ayblanishi qizning yuragiga tegdi – ayniqsa, bu gaplarning nohaqligini isbotlaydigan asoslar yo'qligi hisobga olinsa. U yigit endigina tanishgani bir do'stining maslahati bilan ...shir polkiga joylashmaguncha, Uikxem haqida hech narsa bilmasdi. Qizning yaqinlari ham Uikxem o'zi haqida gapirib berganlaridan tashqari u to'g'risida hech narsani bilishmasdi. Uning aslida kim ekanligini surishtirish hech kimning, hatto Elizabetning ham xayoliga kelmagan edi. Yigitning tashqi ko'rinishi, ovozi, o'zini tutishi – hammasi uning yaxshi fazilatlariga ega ekanligidan darak berib turardi. Elizabet yigitning mister Darsining aytganlarini yo'qqa chiqaradigan birorta yaxshi ishini, alohida bir xislatini yodiga tushirmoqchi bo'ldi. Lekin hech narsani eslay olmasdi. Yigitning o'zini muloyimdek tutishlarini eslash oson edi. Lekin uning shu ko'rinishi bilangina hammaning og'ziga tushganini aytmasa, boshqa yodda qoladigan birorta fazilati yo'q edi. Ancha o'ylab o'tirgach, Elizabet yana o'qishda davom etdi. Lekin xatning davomidagi Uikxemning miss Darsini yo'ldan urmoqchi bo'lgani yaqinda u polkovnik Fitsuilyam bilan gaplashgan gaplariga to'g'ri kelardi. Buning ustiga mister Darsi aytayotganlarining tasdig'ini polkovnikdan so'rashi mumkinligini, chunki u ham o'zi bilan bir qatorda singlisining hayotiga javobgarligini yozar edi. Shunday daqiqa bo'ldiki, Elizabet rostdan ham polkovnik bilan gaplashib ko'rmoqchi

bo'ldi, lekin mavzuning qaltisligini va Darsi agar o'zi ishonmasa undan so'rab ko'rish mumkinligini aytmagan bo'lardi, deb o'ylab, fikridan qaytdi.

Elizabet Uikxem bilan birinchi marta mister Filipsnikida uchrashganda u bilan gaplashgan gaplari miridan sirigacha hammasi yodida edi. Uning ko'p gaplari esa kechagina gaplashganday edi. Qiz birdan yigitning bu narsalarni endigina tanishgan odamiga aytib bergani naqadar aqldan bo'lmaganini o'ylab, nega shu oddiy narsa xayoliga kelmaganiga hayron bo'ldi. Yigitning hamma yerda odamlarning e'tiborini tortmoqchi bo'lgani ham odobdan emas edi. Uning aytganlari harakatlariga zid edi. Qizning esiga yana uning Darsi bilan uchrashuvdan qo'rqmasligini, kerak bo'lsa mister Darsi o'zi bu yerlardan ketsin, deganlari tushdi. Shunga qaramay, bu gaplardan so'ng bir haftagina o'tib, u Nezerfildidagi balga kelmadi. Elizabet yigitning yana nezerfildliklar Xartfordshirdan ketganlaridan keyingina o'z tarixini hammaga aytib bergani yodiga tushdi. Mister Darsini yomonotliq qilish uchun u hech narsadan qaytmagan, ayni paytda esa katta mister Darsiga o'zining sodiqligi to'g'risida gapira turib, bu sodiqligi uning o'g'li to'g'risida yomon gapirishga yo'l qo'ymaydi, deb qizga uqtirishga harakat qilgandi.

Mister Uikxemning har bir xatti-harakati endi qizning nazarida boshqacha ma'no kasb etayotgandi. Uning miss King orqasidan yurishi pastkashlarcha faqat o'zini o'ylab qilgan harakat edi – qiz sepining qiymati kamligi uning ishtahasining pastligidan emas, balki uning har bir mayda o'ljaga ham tayyorligida edi. Uning Elizabetga munosabatini endi yaxshi umidlar bilan edi, deb oqlab bo'lmasdi: u yoki qizning mablag'i to'g'risida yanglishgan yoki qiz ehtiyotsizligi orqasida unga bildirib qo'yan tuyg'ulari ustidan o'ynashmoqchi bo'lgan. Elizabet-

ning Uikxemni oqlashga qilgan barcha harakatlari o'ylagani sari bo'shashib borardi. Darsini oqlagani sari esa mister Binglining Jeynning savoliga javoban do'stining Uikxemga nisbatan beginaligini aytgani; o'zini gerdayib tutishiga qaramay, oxirgi paytlarda shuncha vaqt birga bo'lish davomida, o'zining ko'ngil tubidagi sirlarini ocha turib, Darsi biror marta ham uni adolatsizlik yoki vijdonsizlikda ayblab bo'ladigan birorta harakat qilmaganini; o'z do'stlari davrasida obro'ga egaligini; hatto Uikxem ham uning qanday mehribon akaligini aytganini; o'zining ham Darsi necha marta singlisi haqida qanchalik mehr bilan gapirganlarini eshitganini esladi.

Elizabet o'zining Darsiga qilgan muomalasidan uyalib ketdi. U Darsi yoki Uikxem haqida o'ylar ekan, o'zining naqadar ko'r, adolatsiz, tentak ekanligi va noto'g'ri fikrlaganiga tan berdi.

– Qanday uyat ish qildim! – xitob qildi u. – Men – o'zimning ziyrakligimdan mag'rurlanadigan va o'zimning to'g'ri fikrlashimga tayanadigan qiz! Doim opam ko'ngilchanligining ustidan kuladigan va o'zimning shuhratparastligimni beparvolikni parda qilib berkitadigan qiz! Bu yangilik meni qanchalar yerga uraypti! Bu narsa qanchalik adolatli! Sevib qolgan taqdirimda ham men shunchalik ko'r bo'lmagan bo'lardim. Lekin sevgi emas, shuhratparastlik meni ko'zdan ayirdi! Birinchi tanishishdayoq uni yoqtirib qolishganidan boshi osmonga yetgan va boshqa birovning esa unga beparvoligidan o'zini haqoratlangan deb hisoblagan men, yolg'on tasavvurlarga tayanib, har ikkalasi haqida noto'g'ri xulosa qilibman! Mana, qay vaziyatda men o'zimni tushunib olishim kerak!

Qiz fikrlari o'zidan Jeynga, Jeyndan Bingliga sakrar ekan, Darsining xatidagi shu joyiga aloqador gaplar juda ham ishonarli chiqmagan, degan fikr uning xayoliga kelishi mumkin edi. U yana qaytadan

o'qib chiqdi. Endi bu gaplar butunlay boshqa ma'no kasb etardi. Darsi xatining bir joyida aytayotgan gaplarining asoslilikini tan ola turib, boshqa joyini rad etish mumkinmikan? Uning aytishicha, Jeyn do'stini shunchalik sevib qolgan bo'lishi mumkinligini hatto tasavvur ham qilmagan ekan. Shu yerda qiz dugonasi Sharlottaning bu haqda aytgan gaplarini esladi va yigit aytayotgan fikrlar to'g'riligini inkor qila olmadi. Elizabetning o'zi ham, Jeynning tuyg'ulari qanchalik chuqur bo'lmasin, uning o'ta vazminligi orqasida ichida nimalar sodir bo'layotganini bilish qiyinligini his qilib turardi.

Xatning uning qarindoshlari to'g'risida yozilgan joyiga kelganda qiz yana uyatdan lovullab ketdi. Aytilgan gaplarni inkor qilib bo'lmasdi, chunki qizning o'zi ham aslida shundayligini juda yaxshi bilardi. Darsi aytib o'tgan Nezerfilddagi balda bo'lgan va Darsini o'rtog'ining tanloviga qarshi bo'lishiga olib kelgan hamma gap-so'zlar o'zining ham yodida edi.

Bennetlarning ikki katta qizlari to'g'risidagi maqtov so'zlari ham e'tiborsiz qolmadi. Bu maqtov boshqa Bennetlar to'g'risidagi salbiy fikrlarni salgina yumshatar edi xolos, lekin og'riqni olmasdi. Qiz Jeynning baxtsizligi o'z qarindoshlarining o'zlarini noloyiq tutishlari orqasidan ekanligini tushunib yetgan va bu hol unga tuganmas azob berayotgan edi.

Parkda yana ikki soatlarcha aylanib yurar ekan, Elizabet o'zini to'liqlantirayotgan narsalar ustida qayta-qayta o'ylar, bo'lib o'tgan voqealarni tahlil qilar va o'zining qarashlarida ro'y bergan o'zgarishlarga ko'nikishga harakat qilar edi. Axiri, juda charchaganini sezib va o'zining uyda yo'qligi ham cho'zilib ketganini his qilib, uyga qaytdi. Uyga kirayotib odatdagicha quvnoq ko'rinishga va uydagi suhbatga xalal beradigan hamma narsani miyasidan chiqarib tashlashga urindi.

Uyga kirishi bilan unga u yo'g'ida Rozingsdan ikkala yigit kelib ketishganini aytishdi. Mister Darsi bir necha daqiqagagina xayrlashgani kiribdi. Polkovnik Fitsuilyam esa uni kutib, bir soatcha o'tiribdi va hatto uni qidirishga ham chiqmoqchi bo'libdi. Elizabet bu borada pushaymonligini aytdi, aslida esa shunday bo'lganiga xursand bo'ldi. Uning uchun endi Fitsuilyam yo'q, hozir faqat xat haqida o'ylar edi.

XIV bob

Ikkala yigit ham ertasi kuni ertalab Rozingsdan jo'nab ketishdi. Xayrlashish uchun ko'cha eshigi oldida kutib turgan mister Kollinz qaytib uyga kirar ekan, ularning sog'-omonliklarini aytib, ledi Ketrin va missis de Byorlarni ovutish uchun Rozingsga qarab yugurdi. Qaytib kelganda, ularning halitdan zirikishayotganini va ayollarni mehmonga taklif qilib yuborishgani aytdi.

Ledi Ketringa tikilar ekan, Elizabet, agar xohlaganda hozir o'zining bu ayolga bo'lajak jiyan kelin deb tanishtirgan bo'lishlarini xayoliga keltirdi. Va shunday bo'lgan taqdirda bekaning qanday darg'azab bo'lishi mumkinligini ko'z oldiga keltirib, zo'rg'a o'zini kulgidan tiyib qoldi. «Qiziq, shunday bo'lsa, u nima degan bo'lardi va o'zini qanday tutardi?» – ichida kulib, o'ziga o'zi savol berardi Elizabet.

Suhbat ledi Ketrinning jiyanlari Rozingsdan ketishgani to'g'risidagi xabardan boshlandi:

– Ishonasizlarmi, ularning jo'nab ketishi yuragimni buzdi, – derdi ledi Ketrin. – Hech kim yaqinlarining jo'nab ketishini menchalik yuragiga yaqin olmasa kerak. Ayniqsa, shu ikkala yigitga mening mehrim boshqacha. Ular ham menga juda bog'lanib qolishgan! Ketayotganlaridan qanday xafa bo'lganlarini bil-

sangiz edi! Doim shunday. Bechora polkovnik o'zini zo'rg'a tutib turdi, Darsi esa o'tgan yildagidan ham bu ayriliqdan qattiq xafa bo'ldi. U Rozingsga avvalgidan ham qattiqroq bog'lanib qolibdi.

Shu o'rinda mister Kollinz gap nimadaligiga shama qilib, gap qistirib qo'ydi, ona-bola esa jilmayib qo'yishdi.

Tushlikdan so'ng ledi Ketrin Elizabetning shashti pastroqligini sezib, bu ularning ketish kuni yaqinlashayotganidan, deb o'yladi-da, dedi:

– Gap shunda bo'lsa, onangizdan yana biroz ushlanib qolishga ruxsat so'rang. Missis Kollinz ham bundan xursand bo'ladi.

– Taklifingizdan bag'oyat minnatdorman, – dedi Elizabet. – Afsuski, qabul qila olmayman. Kelasi shanba kuni men Londonda bo'lishim kerak.

– Unda Kentda nihoyati olti haftagina bo'lgan bo'lasizlar-ku! Men esa ikki oy bo'lasizlar deb umid qilgandim. Kelishinglardan oldin men missis Kollinzga shunday degandim. Bunday tez ketishinglar shart emas. Missis Bennet sizlarsiz ikki hafta chidab turar.

– Ha, lekin otam mensiz chiday olmaydi. Yaqinginda u mendan tezroq kelishimni so'radi.

– Yo'g'-e, agar onangizga kerak bo'lmasangiz, otangizga undan nari bo'lsa kerak. Otalar qizlari uchun ko'p ham qayg'urmaydilar. Yana bir oy qolsanglar, bittanglarni Londongacha birga olib ketardim – iyun oyining boshlarida o'sha yoqqa bormoqchiman. Aravaga faqat bittanglar sig'asiz. Agar havo issiq bo'lmasa, balki ikkovlaringni olib ketarman – juda ozg'insizlar-ku, balki sig'ib qolarsiz.

– Sizdan juda-juda minnatdorman, zoti oliyalari. Lekin biz birinchi rejamizni o'zgartira olmasak kerak, deb qo'rqaman.

Ledi Ketrin ko'nib qo'ya qoldi.

– Missis Kollinz, siz ularga xizmatkor qo‘shib yuboring. Bilasiz, men doim rostini aytaman. Qizlar o‘z holilaricha pochta otlarida ketishlariga yo‘l qo‘ya olmayman, bu yaxshi emas. Albatta birovni topishingiz kerak. Yosh qizlar, jamiyatdagi o‘z o‘rinlariga ko‘ra doimo nazorat ostida bo‘lishlari kerak. Jiyanim Jorjiana o‘tgan yoz Remsgeytga ko‘chib o‘tgani-da men u bilan ikki odam borishini talab qildim. Pemberlilik mister Darsining qizi bo‘lgan miss Darsi va ledi Enn uchun xizmatkorlarsiz ketish tasavvurga sig‘maydigan ish edi. Bunday masalalar borasida men juda injiqman. Missis Kollinz, qizlar bilan Jonni jo‘natishingiz kerak. Yaxshiyam bu narsa xayolimga keldi – bo‘lmasa oxirini o‘ylamay, ularni yolg‘iz jo‘natib yuborgan bo‘lardingiz.

– Amakim xizmatkor yubormoqchi edi.

– Amakingizmi? Uning xizmatkori bor-a? Haytovur, ichlaringda bu narsani o‘ylaydigan kimdir bor ekan. Otlarni qayerda almashtirasiz? Albatta, Bromlida bo‘lsa kerak. «Qo‘ng‘iroq»da mening nomimni aytsangiz bo‘ldi, sizlarga darrov g‘amxo‘rlik qilishadi.

Ledi Ketrin ularga yana ko‘p ko‘rsatmalar berdi va qizlar savollarining hammasiga javob bermagani uchun ularga ham qo‘shilib turishlariga to‘g‘ri keldi. Elizabet bu gap-so‘zlardan juda xursand edi, chunki istagan mahalda o‘z xayollariga berilib ketib qolib, qayerda o‘tirganini ham esidan chiqarib qo‘yadigan ahvolda edi. Bu xayollarini keyinroqqa olib qo‘ymoqchi bo‘ldi – yolg‘izlikda yana hammasini o‘ylab ko‘rmoqchi edi. Shu niyatda har kuni yolg‘iz o‘zi parkka aylangani chiqadigan bo‘ldi.

Mister Darsining xatini u yodlab olgan edi. Xatdagi har bir jumla ustida o‘ylar va har xil joylarida uning fikrlari bir-biriga zid bo‘lardi. Yigitning uning roziligini so‘rayotgan paytdagi holi esiga tushganda alami chiqar, lekin o‘zining uni qanchalik qo‘pollik

bilan ayblagani va sevgisini rad qilganini eslasa, o'zini o'zi yomon ko'rib ketar va unga yuragi achir edi. Yigitning munosabati minnatdorchilik, tabiati esa hurmatga sazovor edi. Lekin shunga qaramay, qiz uni xuddi avvalgidek yoqtirmayotgan edi va o'zining rad qilganidan ham pushaymon emasdi, yigitni yana bir bor ko'rishni ham aslo xohlamayotgandi. Qiz o'zining oldingi xatti-harakatlaridan pushaymon edi. Yaqinlarining o'zlarini tutishlaridan esa battarroq azobda edi. Va ular qachonlardir o'zgarishadi, degan umid ham yo'q edi. Kichik qizlarining ustidan kulishni yaxshi ko'radigan otasi hech qachon ularni tarbiyalashni bo'yniga olmaydi. O'zining tabiati ham tugallikdan yiroq bo'lgan onasi esa, qizlarida hamma narsa joyida emasligi xayoliga ham kelmagan. Elizabet bilan Jeyn juda ko'p marotaba Ketrin va Lidiyaga ta'sir o'tkazmoqchi bo'lishgan edi. Lekin onalari qo'llab-quvvatlamas ekan, ularning qo'lidan nima ham kelardi? Tabiatan bo'sh va injiq bo'lgan Ketrin, o'zidan kichik bo'lgan Lidiya ta'siri ostida bo'lib, opalarining gaplariga faqat xafa bo'lardi. O'zbilarmon va o'yinqaroq Lidiya esa ularning gaplariga quloq ham solmasdi. Ikkala qiz dangasa, omi va o'zlariga bino qo'yishgan edi. Meritonda bitta ham zobit qolmaguncha ular tannozlik qilishdan to'xtamasliklari aniq edi. Longborndan Meritongacha uzoq bo'lmagani bois, u yerga borib kelish ish emasdi.

Jeyn to'g'risidagi xayollar ham Elizabetga tinchlik bermayotgandi. Darsining xati Elizabetning Bingli to'g'risidagi avvalgi fikrini qaytardi va shu bilan birga, opasi yo'qotgan narsaning qiymatini yanada oshirdi: yigitning munosabati haqiqiy ekan, do'stiga ko'r-ko'rona ishonishini hisobga olmasa, uning tabiatiga nisbatan o'ylashgan xulosalari ham asossiz ekan. Har tomondan to'kis, kelajakda baxtli bo'li-

shi ko'rinib turgan shunday ajoyib juftlik o'z qarindoshlarining e'tiborsizligi orqasidan ajralib ketishi bema'ni bir hodisa edi.

Yuqorida aytib o'tilganlarga yana mister Uikxemning haqiqiy basharasi ochib tashlanganligi qo'shilganda, tabiatan o'zining quvnoqligiga qaramay, Elizabet juda ezilib ketgan va yuzida bamaylixotir ifodani zo'rg'a ushlab turar edi.

Kollinzlarnikida o'tkazayotgan oxirgi haftalarini ular xuddi birinchi kelganlarida bo'lganidek, tez-tez Rozingsga borib o'tkazishayotgan edi. Ketishlaridan bir kun oldingi oxirgi kechani ham ular ledi Ketrinikida mehmonda o'tkazishdi. Butun kecha davomida u qizlarning ketishlariga oid hamma mayda-chuydalargacha surishtirdi, hatto kiyimlarini qanday taxlab solishgacha o'rgatdiki, uyga qaytib kelganlarida Mariya ertalaboq tayyorlab qo'yganlarini qaytadan joyladi.

Mehmondorchilikdan qaytayotganlarida ledi Ketrin ularni kelasi bahorda yana Xansfordga kelishga taklif qilib, oq yo'l tiladi, miss de Byor esa tizzasini bukib ta'zim qilishni lozim ko'rib, har biri bilan qo'l berib xayrlashdi.

XV bob

Shanba kuni ertalab mister Kollinz nonushtaga yig'ilishlaridan oldinroq Elizabetni ko'rib, unga o'zining nazarida xayrlashuv oldidan albatta aytilishi kerak, deb hisoblagan iltifotli so'zlarni aytdi:

– Miss Elizabet, missis Kollinz sizlarning biznikiga kelganlaringizdan boshimiz osmonga yetgani ni aytdimi yoki yo'qmi, xabarim yo'q. Lekin men bizning bundan juda xursand bo'lganimizni aytmasdan sizlarni jo'nata olmayman. Sizni ishontirib aytamanki, bizning oramizda bo'lganingiz uchun

juda minnatdormiz. Biz, albatta, bu kamtargina kulbamizda sizning diqqatingizga sazovor boʻladigan narsalar kamligini tushunamiz. Bizning oddiy hayotimiz, kichkinagina xonalarimiz, xizmatkorlar soni ozligi va tanish-bilishlarning kamligi Xansfordni sizdek yosh qiz uchun zerikarli koʻrsatgan boʻlsa kerak. Lekin siz oʻzingizni bu yerda yaxshi his qilishingiz uchun biz qoʻlimizdan kelgan hamma narsani qilganimizga ishonasiz, deb umid qilaman.

Oʻzlarining bu yerda boʻlganlaridan xursandligini aytib, Elizabet minnatdorchilik bildirdi. Oʻtgan olti hafta ularga juda katta xursandchilik berganini, Sharlotta bilan oʻtkazgan damlaridan boshi osmonga yetganligini, oʻzlariga koʻrsatilgan bunday eʼtibordan mamnun ekanliklarini aytdi. Mister Kollinz qizning javoblaridan qoniqdi va yana jilmayib dedi:

– Sizning bu yerda vaqtingizni juda yaxshi oʻtkazganlaringizni eshitishdan xursandman. Rozingsdagi aloqalarimizdan foydalanib, sizni oqsuyaklar olamiga olib kirib, uyimizdagi bir xil hayotni sal jonlantirishga erishganimizni hisobga oladigan boʻlsak, siz Xansfordga kelganingizdan chindan ham afsuslanmayapsiz, deb umid qilaman. Ledi Ketrin oilasi bilan yaqinligimiz bizga juda koʻp yengilliklar beradi. Siz endi bizlarning u bilan qanchalik yaqinligimizni va bizni u yerga tez-tez chaqirib turishlarining guvohi boʻldingiz. Ochigʻini aytganda, mening nazarimda bu yerda yashovchilardan hech kim, shunday qulayliklardan foydalanayotib, achinishga muhtoj emas.

Yuragidan toshib kelayotgan gaplarni aytishga ulgurmay, mister Kollinz xonaning ichida u yoqdan bu yoqqa yurar ekan, Elizabet yana minnatdorchilik soʻzlarini aytishga ulgurdi.

– Uyingizga kelganda, xonim, bizning hayotimizni yaxshilab tasvirlab bera olasiz. Shunday boʻladi, deb umid qilaman. Siz har kuni ledi Ketrin tomoni-

dan missis Kollinzga nisbatan qilingan alohida e'tiborning guvohi bo'ldingiz. Men o'ylaymanki, dugonangizni baxtsiz deb atash mumkin emas... Yaxshisi, bu haqda gapirmaymiz. Azizam miss Elizabet, sizning ham turmushga chiqishda omadingiz keladi, deb ishonch bilan aytishga ruxsat bering. Menga qadrli bo'lgan Sharlotta bilan men hamma narsaga bir xil ko'z bilan qaraymiz va bir xil fikrlaymiz. Bizning xarakterlarimiz va qarashlarimiz juda o'xshash va biz bir-birimiz uchun yaralganmiz.

Elizabet chin ko'ngildan mister Kollinz o'z baxtini topganiga ishonchi komilligini aytdi. Shu payt suhbatni ularning bu yerdalik davrlarida hamma qulayliklarga ega bo'lganliklarining sababchisi bo'lgan ledi Ketrinning kelib qolishi bo'ldi. Bechora Sharlotta! Dugonasini shunday odamlar orasiga tashlab ketish achinarli edi. Lekin u o'z yo'lini o'zi tanladi. Sharlotta mehmonlarining ketayotganidan achinayotgan bo'lsa-da, tashida hech narsa sezdimadi. Uy va xo'jalik, cherkov prixodi va qushlarga qarash va shular bilan bog'liq narsalar hali-beri uning joni-ga tegishga ulgurmagan edi.

Axiri kareta kelib, yuklar tepaga, tugunlar ichkariga joylashtirilgach, ketishga hamma narsa taxtligi e'lon qilindi. Dugonasi bilan xayrlashgach, Elizabet ekipaj tomonga yurar ekan, mister Kollinz qizning oilasiga o'tgan qishda u Longbornga borganda ko'rsatgan mehmondorchiliklari uchun minnatdorchilik bildirib qo'yishni, notanish bo'lishsa-da, mister va missis Gardinerlarga ham salom aytib qo'yishni iltimos qildi. So'ng qizga karetaga joylashib olishiga yordam berdi. Elizabetdan so'ng karetaga Mariya ham joylashdi. Karetaning eshigini yopishayotganda mister Kollinzning yodiga mehmonlarning Rozingsdagilarga biror narsa aytib qo'yishmagani tushdi:

– Ha, mayli, hechqisi yo‘q, – dedi u. – Albatta, sizlar mendan ular ko‘rsatgan mehmondo‘stliklari uchun chuqur ta‘zimda ekanliklaringizni aytib qo‘yishimni so‘ragan bo‘lardinglar, to‘g‘rimi?

Elizabetdan tasdiq javobini olgach, kareta eshigi yopildi va mehmonlar jo‘nab ketishdi.

– Voy, xudoyim! – biroz sukutdan so‘ng xitob qildi Mariya. – Nazarimda, xuddi kechagina kelgandek-miz. Vaholanki, necha kun o‘tib ketdi. Va shu payt ichida nimalar yuz bermadi!

– Ha, rost aytasan, – dedi Elizabet.

– O‘ylab ko‘ring-a, Rozingsda to‘qqiz marotaba tushlik qilibmiz! Yana ikki marta choyga chaqirishdi! Uydagilarga qancha narsa aytib berishim kerak!

«Men esa qancha narsani yashirishim kerak», – ichida o‘z-o‘ziga dedi Elizabet.

Yo‘lda ular umuman gaplashmadilar hisob. Oradan to‘rt soat o‘tgach, hech qanday hodisalarsiz mister Gardinernikiga yetib kelishdi. Qizlar bu yerda yana bir necha kunni o‘tkazishlari kerak edi.

Ko‘rinishidan Jeynning ahvoli yaxshi edi. Miss Gardinerning qilayotgan hazil-huzillari orqasida uning yuragida nima kechayotganini bilish qiyin edi. Lekin ular yaqinda Longbornga qaytishadi va uyda Elizabetning opasini kuzatishga bermalol vaqti bo‘ladi. Mister Darsining unga qilgan taklifini uyga bormaguncha opasiga aytmasdan turishga zo‘rg‘a sabri chidayotgan edi. Elizabet, aql bilan bu tuyg‘udan shuncha qochmoqchi bo‘lsa-da, g‘ururi uchun yoqimli bo‘lgan bu yangilikni opasiga ipidan ignasigacha aytib berishga shoshayotgan edi. Unga xalaqit berayotgan narsa esa shoshib ehtiyotsizlik qilib, mister Binglining nomini tilga olib qo‘yish va bu bilan opasining yarasini yangilab qo‘yishdan qo‘rqish edi.

XVI bob

Uchta yosh qiz Greyschyorch-stritdan chiqib, Xartfordshirdagi shaharchaga yo'l olganlarida may oyining ikkinchi haftasi edi. Qizlarni mister Bennetning ekipaji kutib olishi kerak bo'lgan mehmonxona oldiga yaqinlashganlarida, ular aravakashning o'z ishiga puxtaligining guvohi bo'lishdi. Ikkinchi qavatdagi oshxona derazasidan Kitti va Lidiya qarab turishardi. Kelayotganlarni kutib ular ikkalasi shahar aylanib kelishgan, do'konlarga kirishgan va bodringli salat tayyorlab qo'yishgan edi. Ko'rishib bo'lganlaridan so'ng singillar opalariga stol ustiga yasatib qo'yilgan ovqatlarni ko'rsatib maqtanishdi:

– Qaranglar, zo'r-a? Sizlar uchun kutilmagan sovg'ami?

– Biz sizlarni mehmon qilmoqchimiz, – dedi Lidiya. – Faqat pulini sizlar berasizlar, chunki biz bor pulimizni do'konda ishlatib bo'ldik.

Shunday deb, qiz do'kondan olgan narsalarini ko'rsata ketdi:

– Qaranglar, men o'zinga qanday shlyapa sotib oldim. Albatta, juda zo'r emas, olmasa ham bo'lar-di. Uyda uni buzib, birorta tuzukroq narsa chiqarib bo'larmikin, deb oldim.

Opalari Lidiya olgan shlyapa dabdala ekanligini aytishar ekan, u pinagini ham buzmay dedi:

– U yerda bundan ham battar ikki-uch xili bor edi. Ozgina yorqin atlas mato sotib olib, biroz o'zgartirilsa, yaxshigina shlyapa bo'ladi. Agar polk ikki haftadan so'ng Meritondan jo'nab ketarkan, yozda nima kiyib yurishimiz baribir emasmi?

– Polk jo'nab ketayaptimi? – bu xabardan Elizabet o'zida yo'q sevinib ketdi.

– Ular endi Braytonda lager o'rnatishar ekan. Otamiz bizni yozda o'sha yoqqa olib borsa edi! Maza

qilardik, unchalik qimmat ham emas. Onam ham shuni orzu qilib yotibdi. Axir, o'zingiz o'ylab ko'ring, yozda zerikib o'lamiz-kul!

«Rostdan ham ajoyib fikr, – o'yladi Elizabet. – Bizga o'zi xuddi shu narsa yetishmayotgan edi. Butun bir harbiy lager joylashgan Braytonga borish! Kichkinagina polk va bir oyda bir marta bo'ladigan Meritondagi ballarni deb, hamma narsa ostin-ustin bo'lib ketay deyapti-kul!»

– Menda sen uchun yangilik bor, – dedi Lidiya stol atrofiga o'tirishganda. – Nimaligini topa olasani? Zo'r yangilik. Ajoyib yangilik – biz hamma-mizga yoqib qolgan odam to'g'risida.

Jeyn va Elizabet bir-birlariga qarab olishdi, yonlarida ularga xizmat qilayotgan malayga chiqib ketishga ruxsat berishdi.

– Hali ham o'sha-o'shasizlar! – xaxolab dedi Lidiya. – Oddiy malay eshitib qolishidan qo'rqasizlar. Xuddi bu unga kerakdek! U men hozir sizga aytmoqchi bo'lganlardan battarog'ini eshitsa kerak. Nima bo'lsa ham, chiqib ketgani yaxshi bo'ldi. Umrimda bunaqa uzun soqolni ko'rmaganman! Demak, eshitinglar. Gap bizning qadrdon do'stimiz Uikxem haqida ketayapti. U Meri Kingga uylanmoqchi emas, mana gap nimada! Qalay, yangilik yoqdimi? Qiz Liverpoolga, amakisinikiga jo'nab ketibdi, yana bir umrga. Endi Uikxemdan ko'nglimiz to'q bo'lsa ham bo'ladi.

– Meri Kingdan ham ko'nglimiz to'q bo'lsa bo'ladi, u aqlsiz bo'lgan nikohdan qutulibdi, – qo'shib qo'ydi Elizabet.

– Agar Uikxem unga yoqqan bo'lsa, u holda o'taketgan tentak ekan.

– Ularning aloqasi juda ham chuqurlashib ketmagan edi, deb umid qilaman, – dedi Jeyn.

– Uikxem albatta jiddiy emasdi. Men sezishimcha, unga baribir edi. Sepkili bor bu qo‘g‘irchoq kinga ham yoqardi.

Elizabet o‘zining bu to‘g‘ridagi gaplari, hozir Lidiya aytayotganchalik behayolarcha aytilmagan bo‘lsa-da, mohiyatan uyatsiz bo‘lganini o‘ylab, dahshatga tushdi.

Ovqatlanib bo‘lib, yegan narsalari uchun pul to‘lab bo‘lishgach, ekipajga o‘tirishdi. Bir talay tugunlar, sumkalar va qutilar bilan hammalarining bitta ekipajga sig‘ishlari oson bo‘lmadi.

– Zo‘r sig‘dig-a! – xitob qildi Lidiya. – Bu shlyapani sotib olganimdan juda xursandman. Nima bo‘libdi, yukimiz yana bittagina qutiga ko‘p bo‘ldida. Endi, kelinglar, yaxshilab joylashib olamiz-da, keta ketguncha maza qilib gaplashib ketamiz. Qani, endi uydan ketganlaringdan keyin nimalar bo‘lganini aytib beringlar-chi. Birorta qiziqroq yigitni uchratdinglarmi? Uning boshini aylantira oldinglarmi? Men, qaytib kelgungacha bittalaring erga tegib olasizlar deb kutgan edim. Tavba qildim, o‘lay agar, Jeyn endi qari qiz bo‘lib qoladi. Yigirma uchga chiqib qoldi-ya! Agar o‘zim shu yoshgacha erga tegmasam uyatdan o‘lib qolgan bo‘lardim. Bilasizmi, Filips xolamiz biz hammamiz turmushga chiqishimizni rosa kutib yotibdi. Uning fikricha, Lizzi mister Kollinzga tegmay bekor qilibdi. Men o‘zim, to‘g‘risi, bundan bir ish chiqishiga ko‘zim yetmagan edi. Voy xudo, hammadan birinchi bo‘lib o‘zim erga tegib olgim kelayapti! O‘shanda men o‘zim sizlarni ballarga olib yurardim. Voy qizlar, bilasizlarmi, o‘tgan kuni Forsterlarnikida maza qildik. Kitti ikkalamizni taklif qilishgan edi. Kechqurun esa missis Forster birpas raqs tushishni taklif qildi. Aytgan-cha, missis Forster bilan juda qalinmiz. U opa-singil Xarringtonlarni ham taklif qilgan ekan. Xarri-

yet kasal ekan, Pen yolg'iz o'zi kelibdi. Topinglar-chi, biz nima qildik? Chamberlenga ayollarning kiyimini kiydirib qo'ydik – bir ko'rsanglar edi! Buni polkovnik va missis Forsterdan boshqa hech kim bilmadi. Kitti va men, yana Filips xolamiz ham bildi – biz undan u-bu kiyim olgandik. Unga kiyim qanaqa yarashganini ko'rsanglar edi! Denni, Uikxem, Pratt va yana ikki-uch yigit – bittasi ham tanimadi. Maza qilib kulganimni bir ko'rsanglar edi. Kulaverib ichagim uzilay dedi. Shundan keyin yigitlar nimadandir shubha qilganday bo'lishib, keyingina sezishdi.

Shu taxlit gaplar bilan Lidiya yo'l bo'yi opalarini kuldirib kelishga harakat qildi. Vaqti-vaqti bilan unga Kitti ham qo'shilib turdi. Elizabet singlisiga quloq solmaslikka harakat qildi, lekin Lidiyaning gap orasida Uikxem nomini tez-tez tilga olganiga e'tibor berdi.

Uyda qizlarni quchoq ochib kutib olishdi. Missis Bennet Jeynning o'ziga kelib qolganidan mamnun bo'ldi. Ovqat ustida esa, mister Bennet Lizziga qarab, uning qaytib kelganidan juda xursandligini aytdi.

Shu kecha uyda odam juda ko'p bo'ldi, chunki Lukaslarning uyidagilarning hammasi Bennetlarnikiga kelishgan edi. Ular Mariyani kutib olishmoqchi va mehmondorchilik qanday o'tganini bilishmoqchi edi. Ledi Lukas katta qizining oilasi, ro'zg'ori va qushlari haqida tezroq hamma narsani bilgisi kelayotgan edi. Missis Bennet esa ikki tomonlama suhbat olib borardi: bir tomondan Jeyndan oxirgi urflar to'g'risida so'rayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan Jeynning gaplarini kichik miss Lukasga aytib berayotgan edi. Eng ko'p gapirayotgan Lidiya esa ularga ertalabdan beri bo'lgan gap-so'zlarni aytib berdi.

– Meri, esiz, sen biz bilan bormaganing yomon bo'ldi-da! Biz rosa maza qildik! Ketayotganda odamlar hech kim yo'q ekan deb o'ylashsin deb, karetaning pardasini tushirib oldik. Oxirigacha shunday ketamiz

deb o'ylayotgan edim, Kittining ko'ngli ayniy boshladi. Lekin Jorjnikida zo'r bo'ldi. U yerda biz yo'lovchilarni rosa yaxna taomlar bilan mehmon qildik. Sen borsang, seni ham mehmon qilgan bo'lar edik. Mehmondan chiqqanimizda esa shunaqa hangoma bo'ldi! Men karetaga sig'masak kerak, deb o'ylagandim. Yo'ldachi, qaytib kelayotganimizda, qanaqa maza qilganimizni bilsang edi! Shunaqa xaxolashib kulishib keldik, hamma eshitgan bo'lsa kerak!

Meri jiddiylik bilan dedi:

– Men, singiljonim, bunday o'yin-kulgilarning ahamiyatini kamsitmoqchi emasman. Albatta, bunday narsalar ko'pchilik qizlarga yoqadi. Lekin men ga emas! Men uchun kitob o'qiganim yaxshiroq!

Birovning gapiga zo'rg'a yarim daqiqagina diqqat qila oladigan Lidiya uning gaplariga quloq ham solib o'tirgani yo'q. Ovqatlanib bo'lishgach, Lidiya qizlarni tanishlarini ko'rib kelish uchun yana Meritonga borishga unday boshladi. Elizabet bunga qarshi keskin rad javobini berdi, chunki odamlarning mister Bennetning qizlari zobitlarni yarim kun ko'rmasa turisha olmaydi, degan gaplaridan qo'rqayotgan edi. Yana boshqa bir sabab ham bor ediki, bu Uikxem edi. Qiz nima bo'lsa-da, undan uzoqroqda yurib turishni ma'qul ko'rayotgan edi. Shuning uchun u polkning Meritondan jo'nab ketayotganiga juda xursand edi. Yana ikki haftadan so'ng ular jo'nab ketishadi va bu yigit haqida endi hech narsa eshitmaydi.

Qaytib kelganlariga ko'p o'tmasdan, Elizabet zobitlar polkining Braytonga jo'nab ketishlari ota-onasi o'rtasida ko'p marotaba muhokama qilinayotganini sezib qoldi. Qiz otasining bu ma'noda onasiga quloq solib o'tirmasligiga amin edi. Lekin otasining javoblari mujmal ediki, missis Bennet nima deb xulosa chiqarishni ham bilmay, ko'nib qolar, deb umid qilishdan boshqa iloji qolmagandi.

XVII bob

Endi o'z sirini ortiq yashirib turishga Elizabetning sabri qolmadi. Ertasi kuni ertalab, opasini har xil gaplar bilan biroz tayyorlagach, unga o'zi bilan mister Darsi o'rtasida bo'lib o'tgan gaplarni aytib berdi. Albatta, Jeynga tegishli joylar haqida gapirib o'tirmadi. Lekin uning gaplaridan Jeynning hayronligi uzoqqa cho'zilmadi. Chunki uning Elizabet to'g'risidagi fikrlari shunchalik baland ediki, birovning unga nisbatan intilishini tabiiy, deb bilar edi. Biroz o'tib esa uning xayolini boshqa fikr band qildi. Mister Darsining o'z tuyg'ularini bu yo'sinda ifoda etgani uni juda ranjitdi. Bundan ham qayg'uga solgan narsa esa singlisi-ning rad javobidan yigitning xafa bo'lib qolgan bo'lishi mumkinligi edi.

– Albatta, uning bunchalik o'ziga ishonib gapirgani yaxshi emas, – dedi Jeyn. – Buni juda ochiq aytishi kerak emas edi. Lekin sening javobingdan juda ruhi tushib ketgan bo'lsa kerak?

– Nima qilay, o'zimning ham rahmim kelayapti. Lekin uning tabiatidagi boshqa sifatlar meni tezda unutishiga yordam beradi. Unga rad javobini berganim uchun meni ayblamayotgandirsan?

– Seni ayblash?! Albatta yo'q!

– Uikxemni oqlaganimni-chi?

– Nega oqlashing kerak emas edi?

– Endi ertasi kuni nima bo'lganini eshitsang, negaligini tushunasan.

Elizabet opasiga xatning Uikxem haqidagi joyini gapirib berdi. Bitta odamda shuncha illat mujassamligiga Jeynning ishonishi juda qiyin edi. Hatto bu bilan Darsini oqlash ham uni ovuntira olmayotgan edi. U zo'r berib Elizabetni bu yerda boshqa bir tasodif bo'lishi mumkinligiga ishontirishga urinardi.

– Yo'q, boshqacha bo'lishi mumkin emas! – e'tiroz bildirdi Elizabet. – Ikkalasi ham bir xil tarzda be-

gunoh emas. Xohlaganingni tanla, lekin faqat bit-tasini. Ikkalasini qo'shganda faqat bittasigagina ye-tadigan yaxshi fazilatlar bor. Oxirgi paytgacha bu fazilatlar qaysi biriga tegishliligi menga noaniq edi. Lekin hozir, bu fazilatlar hammasi mister Darsiga o'tib ketgandek. Sen esa, xohlaganingni tanlayver.

Jeyn biroz jilmayib javob berguncha, vaqt o'tdi.

– Hech qachon bunchalik hayratga tushmagan edim. Nahotki, Uikxem shunchalik ablah bo'lsa? Hech odam ishongisi kelmaydi. Bechora mister Darsi! Lizzi, unga rosa qiyin bo'lgan bo'lsa kerak? Umidlari yo'qqa chiqqaniga chidash qanday qiyin! Yana o'zing haqingda shuncha yomon gaplar eshi-tish! Tug'ishgan singlisi haqidagi sirlarini birovga aytishga majbur bo'lish! Bechora! Elizabet, sening ham rosa rahming kelgandir?

– Yo'g'-a! Sen qanchalik achinib ketayotganingni ko'rib, mening achinishlarim qochib ketdi. Daqiqa sayin mening mister Darsiga achinishim kamayib borayapti – seniki unga yetarli bo'lishiga ishonchim komil. Sening bu saxiyliging menga o'z tuyg'ularim-ni avaylay olish imkonini berayapti, agar yana bi-roz shunday bo'lib turib bersang, mening yuragim yengilgina bo'lib qoladi.

– Bechora Uikxem! Ko'rinishi shunday muloyim – qarashlari samimiy, o'zini tutishlari-chi!

– Xudo bu ikki yigitni yaratayotganda katta xato bo'lgan: biriga hamma yaxshi xislatlarni, ikkinchisi-ga esa faqat tashqi ko'rinishnigina bergan.

– Men hech ham mister Darsining tashqi ko'ri-nishida yaxshi sifatlar yo'q, deb ayta olmayman.

– Nima bo'lganda ham, men unga nisbatan befarq bo'lib, o'zimning o'tkir fikrlashim bilan mag'rurlan-ib o'tiribman. Bunday befarqlik aqlni xezlaydi va pi-ching-kesatiqlar uchun zamin yaratadi. Birorta aqlii gap aytmagan holda, to'xtamasdan gapirish mumkin.

– Lizzi, xatni birinchi marta o'qiganingda, bunday o'ylamagan bo'lsang kerag-a?

– Ha, albatta. O'sha paytda nima qilishni bilmay qoldim. O'zimni juda baxtsiz his qildim. Yuragimni ochadigan hech kim yo'q edi. Yonimda mening qadrdon opajonim, mening u qadar ichi bo'm-bo'sh, shuhratparast, kekkaygan emasligimni aytadigan opam yo'q edi. O'sha paytda yonimda bo'lib qolishingni shunday xohladimki!

– Mister Darsiga Uikxem haqida gapira turib, bekorga bunday qattiq gaplarni aytibsan. Aslida, unday emas ekan-ku!

– Bo'lmasa-chi. Qolaversa, haddan ortiq o'tkir ohang soxtalikning natijasidir. Aytgancha, sendan so'ramoqchi edim. Nima deysan, qarindoshlarimizga Uikxem haqida aytaymi?

Jeyn biroz o'ylab, dedi:

– Menimcha, buni aytib o'tirish uchun zarurat yo'q shekilli. Nima deysan?

– Ha, hozircha shart emas. Mister Darsi bu ishni qilishga menga vakolat bergani yo'q. Aksincha, singlisiga oid hamma gaplar faqat men uchun edi. Uikxemning hamma kirdikorlarini aytsam, birov menga ishonarmidi? Mister Darsi haqida odamlarning fikri shunchalar salbiyki, bu gaplarga o'lib qolsa ham ishonishmaydi. Bari befoyda. Buning ustiga Uikxem ketay-ketay deyapti. Shuning uchun uning qanaqaligi odamlarga baribir. Axiri bir kun kelib, bu gaplardan hamma xabar topadi. Hozircha hech kimga hech narsa demay turamiz.

– To'ppa-to'g'ri. Hamma gapni ochib tashlash Uikxemni butunlay yer bilan yakson qilishi mumkin. Qayerdan bilamiz, balki u qilgan ishlari uchun achi-nayotgandir va xatolarini tuzatmoqchidir? Biz uni butunlay chohga itarib yuborishga haqqimiz yo'q.

Bu suhbatdan so'ng Elizabet taskin topgandek bo'ldi. U o'zini ezayotgan ikki narsadan xalos bo'ldi va Jeyn timsolida o'ziga fikrdosh topdi. Lekin o'zining nihoyatda ehtiyotkorligi sabab, opasidan ba'zi narsalarni yashirdi. U Jeynga Darsining xatidagi mister Binglining opasiga munosabatlari qanchalik jiddiy bo'lgani to'g'risidagi joylarini aytmadi. Elizabet bu gaplarni hech kimga ocha olmasdi. U Jeyn bilan Bingli o'rtasidagi munosabatlar yana davom etgan taqdirdagina bu gapni ochishi mumkinligini juda yaxshi tushunar edi. «Ana o'shanda, – derdi u o'ziga o'zi, – rostdan agar shunday bo'ladigan bo'lsa, mister Binglining o'zi mendan ham yaxshiroq qilib aytgan narsalarni aytib berardim. Shuning uchun men bu sirni u o'zining qimmatini yo'qotmaguncha saqlashga majburman».

Elizabet opasining qalbi naqadar azobdaligini juda yaxshi tushunardi: Jeyn baxtsiz edi. Uning hali ham Binglida ko'ngli bor edi: qizning bu tuyg'ulariga birinchi sevgiga xos hissiyotlar bilan odatda uning yoshiga munosib sodiqlik tuyg'ulari qorishib ketgandi.

– Lizzi, Jeyn bilan bo'lib o'tgan ishlarga sen nima deysan? – bir kuni so'radi missis Bennet. – Menga qolsa, endi ularning nomini ham tilga olmayman. Yaqinda missis Filipsga ham shunday dedim. Shu paytgacha anig'ini bila olmadim: ular Londonda bir-birlarini ko'rishdimi? Qanaqa odam ekan o'zi? Menimcha, endi undan hech qanday umid yo'q. Bu yerlarga yozda qaytib kelishi to'g'risida hech qanday gap ham yo'q. Men bu haqda bilishi mumkin bo'lgan odamlarning hammasidan so'rab chiqdim.

– U endi Nezerfildga qaytib kelmasa kerak, deb o'ylayman.

– Battar bo'lsin! Bilganini qilsin! Uning bu yerda hech kimga keragi ham yo'q! Mening qizimga nis-

batan pastkashlik qilganini hammaga aytaman. Jeynning o'rnida bo'lsam, bunday alamni ko'tara olmasdim. Men o'z-o'zimni, Jeyn g'amdan o'lib qoladigan bo'lsa, mister Bingli nima qilib qo'rganidan azobda qoladi, degan xayol bilan ovutib yuribman.

Elizabet o'z-o'zini yupatishning bu yo'lini o'ziga ep ko'rmay, indamay qo'ya qoldi.

– Xo'sh, Lizzi, – biroz sukutdan so'ng davom etdi missis Bennet, – Kollinlar rostdan ham yaxshi yashashar ekanmi? Ishqilib, bu uzoqroq davom etsin. Yeyish-ichishlari qanaqa ekan? Sharlotta yomon uy bekasi bo'lmagan bo'lsa kerak. Agar onasi bo'lganchalikning yarmicha uddaburon bo'lsa ham, Sharlotta u-bu yig'ishning ham uddasidan chiqishi mumkin. Ular ro'zg'orga ko'p ketkizishmas ekanmi?

– Ha, ko'p emas.

– Ro'zg'or tutishda bu juda muhim. Ha. Ayniqsa, Sharlotta boriga qanoat qilib yashashga harakat qilishi kerak. Nochorlik ularga tahdid qilmayotgan bo'lsa-da. Mister Bennet vafot etgandan so'ng Longborn ularniki bo'lishini o'ylab, maza qilishayotganini tasavvur qilayapman. Allaqachon o'zlariniki bo'ldi, deb o'ylashayotgandir?

– Mening oldimda bunday gaplar bo'lgani yo'q.

– Bo'lmasa-chi! Endi shunisi qolgan edi! Lekin aniq bilaman: o'zlari faqat shuni gapirishsa kerak. Birovning yer-mulkini indamay tortib olishdan uyalishmas ekan, nima ham qilardik. Men erim tomondan meros qilib biror narsa olishga uyalgan bo'lardim!

XVIII bob

Jeyn va Eliza qaytib kelishganining birinchi haftasi juda tez o'tdi. Ikkinchi hafta boshlandi. Bu zobitlar polkining Meritonda bo'lishining oxirgi haftasi bo'lib, qizlar hammasi yomon kayfiyatda

yurishar edi. Hamma tushkunlikda edi. Faqat ikki katta miss Bennetlarga ovqat yeb, suv ichib, uxlab, har kungidek uy yumushlarini qilib yurishga qodir edilar. Ularning bunchalik befarqligidan Kitti va Lidiyaning jon-ponlari chiqib ketayotgan edi.

– Voy xudo, endi nima boʻladi? Endi nima qilamiz? – ular har qadamda uf tortishardi. – Lizzi, qanday qilib kulishga qurbing yetayapti?

Onalari ham oʻzining yigirma besh yil oldingi kechinmalarini eslab, qizlarining dod-voylariga rahmi kelayotgan edi.

– Oʻlay agar, oʻshanda polkovnik Millerning polki qishlogʻimizdan joʻnab ketganida ikki kun tinmay yigʻlagan edim. Yuragim tamom boʻldi, deb oʻylagan edim.

– Ishontirib aytamanki, mening yuragim rostdan ham tamom boʻldi! – dedi Lidiya.

– Braytonga borib kelishning iloji boʻlsa edi! – dedi missis Bennet.

– Ha, Braytonga borsak edi! Lekin otamni koʻndirib boʻlarmidi?

– Daryoda choʻmilish menga yoqqan boʻlardi.

– Filips xolam daryoda choʻmilish menga foydali boʻlishini aytgandi, – dedi Kitti.

Yuqoridagi gap-soʻzlar Bennetlar xonadonida har kuni qaytarilayotgan edi. Elizabet ularga kulib qarasa-da, ichida yaqinlarining oʻzlarini tutishlaridan uyalar edi. Borgan sari mister Darsining aytgan gaplarida jon borligini tan olardi. Uning doʻsti Binglining ishlariga aralashgani ham toʻgʻri ekani haq edi.

Polkovnik Forsterning xotini uni Braytonga kuzatib qoʻyishni soʻrab, Lidiyaga yuborgan taklifi qizning kayfiyatini koʻtarib yubordi. Missis Forster yaqiniginada turmushga chiqqan boʻlib, hali yoshgina edi. Uning ham quvnoq va oʻyinqaroqligi Lidiya

bilan do'stlashishiga sabab bo'lib, uch oydan beri ikkalasi ajralmas dugona bo'lib qolishgan edi.

Lidiyaning xatni olgandagi quvonchini, missis Ben-netning xursandligini va Kittining alimini so'z bilan ifodalash qiyin. Opasining qiynalayotgani bilan ishi yo'q, Lidiya o'z xursandchiligini ichiga sig'dira olmay, u xonadan bu xonaga yugurar, oldingidan ham battar xaxolab kulib, hammani kuldirar edi. Kitti esa alamd-an yuzlari burishib, norozi ohangda derdi:

– Missis Forster meni ham taklif qilsa bo'lardi-ku! To'g'ri, men u bilan juda ham yaqin emasman. Le-kin men Lidiyadan ikki yosh kattaman-ku! Va bun-da mening haqqim ko'proq edi!

Elizabet uni jim qilishga bekor urinar, Jeynning uni yupatish uchun qilgan harakatlari ham bekor edi. Elizabetning o'zi bu taklifdan xursand emasdi: u Lidiyaning Braytonga borishi uning butunlay izdan chiqishiga sabab bo'ladi, deb tashvishlanayotgandi. Shuning uchun onasi va Lidiya buni bilib qolishsa, qanchalik janjal bo'lishini sezib tursa-da, otasidan Lidiyani Braytonga yubormaslikni iltimos qildi. Sing-lisining bir qator yengiltakliklarini otasining yodi-ga solib, missis Forster bilan yaqinligi unga yaxshi-lik keltirmasligini aytdi. Qiz Braytonda o'zini qo'yib yuborishi uchun sharoit uydagidan ko'proqligini o'ylab, bu turdagi o'rtoqchilik bilan singlisi battarroq yengiltaklik qilib qo'yishidan qo'rqrar edi. Otasi qizi-ning gaplarini diqqat bilan tinglagach, dedi:

– Lidiya bir ishni boshlamaguncha baribir tinchi-maydi. Oilamizga bundan kamroq zarar keltirishi mumkin bo'lgan boshqa imkoniyat bo'lmasligi ham mumkin.

– Lidiyaning o'zini uyatsizlarcha tutishi biz-ga qanchalik gap tekkizishini bilsangiz edi! – dedi Elizabet. – To'g'rirog'i, gap tegdirganini! O'shanda boshqacha gapirgan bo'lardingiz.

– Gap tekkizdi? – qayta so‘radi mister Bennet.
– Bu bilan sening orqangdan yurganlarni qo‘rqitib yubordimi? Bechora Lizzil Xafa bo‘lma. Qarindoshlaringning aybi uchun sendan kechadigan yigitlarning bizga keragi yo‘q. Qani, o‘shalardan birining ismini ayt-chi.

– Siz noto‘g‘ri tushundingiz. Men bunday demoqchi emasman. Men aniq bir voqeani emas, Lidiyaning qiliqlari orqasida oilamizga keladigan ma‘naviy zararni aytmoqchi edim. Singlimning o‘zini tuta bilmasligi, kekkayganligi, yengiltakligi orqasida bizning odamlar orasidagi obro‘-e‘tiborimiz, tanishlarimizning bizga nisbatan hurmatlari susayib borayapti. Meni kechiring, lekin fikrimni oxirigacha aytaman. Agar siz hozirning o‘zidayoq uning tizginini qo‘lingizga olib, qilayotgan ishlari yaxshi emasligini tushuntirmas ekansiz, yaqin orada singlimning tarbiyasi bilan shug‘ullanishga kech bo‘ladi. Uning tabiati shakllanib bo‘lgan bo‘ladi va o‘n olti yoshga borib, bizni sharmanda qilib, yengiltak bir qizga aylanadi. Yengiltak bo‘lganda ham, faqat yoshligi va sal chiroyini aytmasa, hech qanday g‘ururi yo‘q, eng pastkashi bo‘ladi. O‘zining omiligi va ko‘nglida hech qanday yaxshi fazilatlarning yo‘qligi sabab, kulgiga qoladi. Uning orqasidan ergashayotgan Kittini ham shu narsa kutayapti – tentak, shuhratparast, bekorchi va o‘taketgan bebosh. Otajon, nahotki siz ularning tanishlar orasida gapga qolib, opalarining obro‘sigaputur yetkazayotganini o‘ylamasangiz?

Mister Bennet Elizabetning bu gaplarni yuragidan gapirayotganini sezib turardi. Qizining qo‘lini asta ushladi-da, dedi:

– Qizim, sen bekorga kuyinyapsan. Seni yoki Jeynni yaxshi biladiganlar ikkalangizni hurmat qilishadi va qadrlashadi. Va sizlarning bu ikki yoki boring-chi, uchta singlingiz deb, ularning sizga

bo'lgan qarashlari o'zgarib qolmaydi. Agar Lidiya Longbornga bormas ekan, uyda tinchlik bo'lmaydi. Bora qolsin. Polkovnik Forster aqlli odam. U singling bilan birorta falokat ro'y berishiga yo'l qo'yib qo'ymaydi. Baxtimizga, singling kambag'al, boylik ketidan quvadigan yigitlar esa unga qayrilib ham qaramaydi. Lidiya u yerda noz-karashma qilishi uchun hech kimni topolmaydi, chunki Braytonda zobitlar undan ham yaxshiroqlarini topishadi. Bu sayohat Lidiyaga o'zining hech narsaga arzimassligini bildirib qo'yadi, deb umid qilamiz. Nima bo'lganda ham, biz singlingni umrining oxirigacha uyga qamab qo'ysak ham, u bundan battarroq bo'lmaydi.

Elizabet otasining gapiga quloq solishga majbur bo'ldi. Otasining oldidan og'ir xayollar bilan chiqqan bo'lsa-da, tabiatan alamini ichiga yutib yuradiganlardan bo'lmagani uchun o'zini biroz yengil sezdi. U o'z burchini bajarganini tushunib turar, hali bo'lmagan narsaga oldindan g'am chekish esa unga yot edi.

Agar Lidiya bilan onasi Elizabet otasi bilan nimalarni gaplashganini bilishsa edi, nima qilishini bilmay qolishardi. Braytonga borish Lidiya uchun eng katta baxt edi. Qizning ko'z oldiga, hali unga notanish zobitlar bilan to'la ko'chalar kelar, hammaning o'ziga ta'zim qilayotganini tasavvur qilardi. Tasavvurida bir qator chodirlar joylashgan va chodirlar orasida to'da-to'da qizil mundir kiygan chiroyli yigitlar yurgan harbiy lager jonlanar edi. Hammadan ham u o'zini shunday chodirlarning birida hech bo'lmaganda kamida oltita yigit bilan noz-firoq qilib o'tirganini ko'z oldiga keltirar edi.

Opasi otasi bilan nima haqda gaplashganini bilib qolsa, qanday hodisa yuz berishini xudo bilardi. Bunday hislarni o'zi ham yoshligida boshidan o'tkazgan missis Bennet qizini yaxshi tushunardi. Butun oilaning Braytonga borishiga eri ruxsat bermaganining

alamini faqat shu Lidiyaning keta olayotganigina bosib turardi. Ota-bola o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatdan bexabar bo'lganliklari uchun Lidiya Longborndan jo'naydigan kungacha ko'tarinki kayfiyatda yurdi.

Elizabet Uikxemni yana bir safar oxirgi marta uchratishiga to'g'ri keldi. Bu uchrashuv uni juda ham hayajonlantirmayotgan edi, chunki qaytib kelishganidan beri yigitni bir necha marta ko'rgan edi. Ularning avvalgi yaqinliklaridan asar ham qolmagandi: qiz hatto Uikxemning xatti-harakatlarida oldin uni asir etgan samimiylukning qalbaki ekanligini seza boshlagan edi. Bundan tashqari, yigitning munosabatida uning g'ashiga tegayotgan nimadir paydo bo'lgan ediki, bu yigitning unga yana xushomad qila boshlagani edi. Shuncha gap-so'zlardan keyin yigitning bu qiligi qizga haqoratdek bo'lib tuyuldi, shilqimligini seza boshlagan zahoti, qiz unga nisbatan qolgan zarracha hurmatini ham yo'qotdi. Uikxemning o'ziga nisbatan qilayotgan mulozamatiga keskin qarshilik ko'rsatar ekan, qiz o'zining oldingi xatti-harakatlaridan afsusda edi. O'sha kunlar yaxshi yodida turgan Uikxem esa o'zining nega va qancha paytga Elizabetning orqasidan yurishni to'xtatganidan qat'i nazar, qizga yana e'tibor qilishi bilan darrov quchoq ochib keladi, deb o'ylayotgan edi.

Meritonda bo'lishlarining oxirgi kuni Uikxem va boshqa zobitlar birga Longbornda ovqatlanishdi. U bilan do'stona ohanglarda xayrlashishni istamayotgan Elizabet yigitning Xansfordda qanday yashaganlari to'g'risidagi savollariga polkovnik Fitsuilyam va mister Darsining uch hafta davomida Rozingsda mehmon bo'lishganini aytib, Uikxemdan u polkovnikni tanish-tanimasligini so'radi.

Qizga yigit o'zini yo'qotib qo'ygandek tuyildi. Lekin birozdan so'ng o'zini tutib olgan yigit qachonlardir polkovnikni bir necha marta ko'rganini va

uni haqiqiy jentlmen deb sanashini aytib, Elizabetning o'zi u haqda nima deb o'ylashini so'radi. Qiz yigit haqida iliq fikrlarni aytdi. Uikxem gap orasida yo'l-yo'lakay yodiga tushgandek, yigitlar Rozingsda necha kun bo'lishganini so'radi.

– Uch haftacha.

– Siz ularni tez-tez ko'rib turdingizmi?

– Ha, deyarli har kuni.

– Polkovnik Darsidan butunlay boshqacha-a?

– Ha, juda ham. Lekin mister Darsini yaqindan bilgach, mening u to'g'ridagi fikrim yaxshi tomonga o'zgardi.

– Rostdanmi? – Uikxemning o'ziga tez qarab qo'ygani qizning nazaridan qochmadi. – So'rasam bo'ladimi?..

– Lekin o'zini tutib olib, mensimas ohangda davom etdi: – U odamlar bilan samimiyroq gaplashadigan bo'libdimi? Yoki muloyimroq bo'lib qolibdimi? Men uning chindan o'zgarganiga juda ham ishonmayman, – jiddiy ohang bilan gapini tugatdi Uikxem.

– Yo'q, mohiyatan u qanday bo'lgan bo'lsa, o'shandayligicha qolgan.

Uikxem bu gaplarni qanday qabul qilishni tushunmadi: suyunish kerakmi yoki ishonish kerak emasmi? Qiz gapida davom etar ekan, uning yuzidagi ifoda yigitni sergaklantirdi.

– Bizning tanishligimiz mobaynida u mening ko'z oldimda o'sdi, deganda, men uning tabiati yoki qarashlari o'zgardi, demoqchi emasman. Shunchaki u bilan yaqinroqdan tanishgach, mister Darsining aslida qandayligini tushuna boshladim.

Uikxemning yuzida paydo bo'lgan qizil dog'lar va ko'zlarida paydo bo'lgan ifoda uning nimadandir xavotirlanganini ko'rsatib turardi. Yigit bir necha daqiqa jim qoldi. Axiri, o'zini bosib olib, yana o'zining silliqqina ohangi bilan dedi:

– Mening mister Darsiga boʻlgan munosabatimni bilguvchi sizga, uning hech boʻlmasa tashidan oʻzini tuta bilishga aqli yetganidan bagʻoyat xursand ekanligim tushunarli boʻlsa kerak. Bundayligi uning magʻrurligidan. Darsining bu magʻrurligi oʻziga boʻlmasa-da, unga ishi tushadiganlarga foyda keltiradi. Shu tufayli bunday odamlarga nisbatan, bir paytlar menga qilganidek, yomonlikka bormaydi. Faqat, siz unda sezgan oʻylab ish qilish fazilati, siz uni xolasinikida uchraganingizdan boʻlsa kerak, deb qoʻrqaman. U xolasini juda qadrlaydi va oldida zir titraydi. Buning yana bir sababi borki, bu uning miss de Byorga uylanishga qaror qilganidan boʻlsa kerak.

Uikxem bu gaplarni aytar ekan, qiz kulib yuborishdan oʻzini zoʻrgʻa tiyib qoldi. Yigitning bu bilan gapni Darsi unga yetkazgan ozorlariga burmoqchi boʻlayotganini sezgan Elizabet yigitning bu niyatiga erishishiga yoʻl qoʻymadi.

Kechgacha Uikxem, endi Elizabetga ortiq eʼtibor bermay, odatdagidek quvnoq boʻlib oʻtirdi. Axiri hamma tarqalayotganda qiz ham, yigit ham bir-birlarini ortiq uchratmaslik umidida bir-birlari bilan xayrlashdilar.

Hamma mehmonlar tarqalishgach, Lidiya ertasi kuni birga Braytonga joʻnash uchun missis Forster bilan Meritonga ketdi. Qarindoshlar xayrlashayotganda shovqin boʻlib ketdi. Kitti alam qilganidan va hasaddan achchiq koʻz yoshlari toʻkar, missis Bennet esa kichik qiziga yaxshilab xursandchilik qilishni, hech bir imkoniyatni qoʻldan bermaslikni tayinlar ekan, qizi ham shunday qilish umidida edi.

XIX bob

Elizabetning oilaviy baxt tushunchasi oʻz oilasida ota-onasi tajribasidan kelib chiqqanida edi, u holda bu tasavvur boshqacharoq boʻlardi. Mister Bennet

o'z hayotini yoshligi va chiroyidan boshqa qolgan fazilatlari yuzaki bo'lgan ayol bilan bog'lagan edi. Nikohining birinchi kunlaridanoq, bu ayol o'zining tor dunyoqarashi va aqlining juda ham o'tkir emasligi bilan erining hamma orzularini yo'qqa chiqardi. O'zaro hurmat, ishonch, ma'nan yaqinlik bir umrga yo'qoldi va bu bilan oilaviy baxt to'g'risidagi umidlar ham puchga chiqdi. Lekin mister Bennet, odatda, boshqa erkaklarda bo'lganidek, boshqa joydan ermak qidirib yurmadi. Bu narsalar unga yot edi. U tabiatni sevar, kitob o'qishni yoqtirar edi va bular uning hayotdagi quvonchi bo'lib qoldi. Xotini oldida majburiyati yo'q edi, faqat goh-goh ayolning tentakligi va omiligi ustidan kulib, o'zini xursand qilar edi. Albatta, bu baxtli oilada erkakning umr yo'ldoshi oldida o'zining majburiyatini his qilish baxti emas edi. Lekin boshqa xursand bo'ladigan sabab bo'lmagan holda, haqiqiy faylasuf bor narsaning o'zidan ham foyda topa oladi.

Elizabet otasi o'zini erkak sifatida o'rnak bo'ladigan darajada tutmasligini juda yaxshi bilar edi. Bu qiz uchun doimo og'riqli nuqta edi. Lekin otasining o'tkir aqlini hurmat qilib va uning yaxshi otalik fazilatlari uchun minnatdorlikni his qilib, Elizabet u farzandlari oldida onasining ustidan kulishlarini, uni hurmat qilmasligini sezmaslikka olardi. Elizabet endi birinchi marta omadsiz nikohning bunday oilalarda o'sayotgan farzandlar uchun naqadar zararliligini, otasining o'z aqli-tafakkurini bekorga befoyda narsalarga sarf qilgani nimalarga olib kelganini tushunib yetgandi.

Darvoqe, Uikxemning yo'qligidan o'zida yo'q xursand Elizabet, uning polki jo'nab ketganidan boshqa quvonchli voqeani topa olmadi. Uydan tashqarida bo'ladigan uchrashuvlar hammasi bir xil tarzda edi. Missis Bennet va Kittining hadeb zerikayotganlaridan

arz qilaverishlari oilaviy hayotni juda g'amgin qilib qo'ygan edi. Kitti endi unga ta'sir qiladigan zamin yo'qligi uchun aqlini yig'ib oladi, degan umid paydo bo'lgan bo'lsa, singlisi Lidiya dengiz bo'yidagi shahar va harbiy lager ta'sirida yana ham bemulohaza va yengiltak bo'ladi, degan fikr ham bor edi. Elizabet, ular ancha vaqtdan beri kutayotgan voqea, ya'ni polkning Meritondan jo'nab ketishi, yengillik keltirish o'rniga, yana boshqa bir muammoga duch keltirdi, deb hisoblardi. Endi yana, bu hamma omadsizliklar tugab, yangi orzular, yangi maqsadlar, ularning ro'yobga chiqishi davomida yuzaga keladigan xursandchiliklarni tatib ko'rish uchun yana vaqt kerak. Qiz hozir yaqinda Ko'llar o'lkasiga bo'ladigan sayohat haqida o'ylayotgan edi. Onasi va Kittining hadeb arz qilaverishlaridan charchab, ezilib ketgan paytlarda, shu sayohatni ko'z oldiga keltirib, o'zini ovutardi. Agar sayohat davomida Jeyn ham yonida bo'lsa, xursandchilik tugallagan bo'lardi.

– Agar biror narsa men o'ylagandek bo'lmasa, – o'ylardi Elizabet, – balki bu hatto yaxshi hamdir. Agar hammasi men xohlagandek bo'ladigan bo'lsa, vaqt o'tib, men zerika boshlardim. Hozir esa, Jeyn bilan oramizda bo'ladigan ayriliqdan xafa bo'lib o'tirib, bo'lajak sayohatdan oladigan xursandchilikdan umid qilib o'tiribman. Hamma tomoni to'ppa-to'g'ri keladigan reja hech qachon muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Agar birorta arzimagan narsa muvozanatni buzsagina, umidsizlikdan chiqib ketish mumkin.

Lidiya jo'nab ketishidan oldin onasi va Kittiga Braytonda bo'ladigan hamma voqealarni batafsil yozib, tez-tez xat jo'natishga va'da qilgan edi. Lekin uning har bir xatini uzoq kutishga to'g'ri kelar, aksiga, qizning xatlari juda qisqa edi. Onasiga yozganlarida qiz dugonasi bilan hozirgina kutubxonadan qaytib kelishgani, ularni qaysi zobitlar ku-

zatib qo'yishgani, kutubxonaning bezaklari hayratga tushar darajada chiroyli ekanligini yoki yangi ko'ylak va yana yangi bir nechta narsalar sotib olganini, agar missis Forster hozir uni tezroq bo'lishga shoshirmaganda, boshqa narsalarni ham batafsil yozgan bo'lishini aytardi. Kittiga yozgan xatlari esa qisqa bo'lsa-da, har xil shamalarga to'la ediki, ularni ko'pchilikning oldida o'qib bo'lmasdi.

Ikki-uch haftalardan keyin Longbornda yana hayot qaynay boshladi. Hammaning kayfiyati ko'tarinki bo'lib, barchasi o'z joyiga tusha boshladi. Qishni o'tkazish uchun shaharga ko'chib ketgan oilalar ham qaytib kelgan, ko'chalarda odamlar yengil kiyimlarga o'tishgan va yozgi o'yin-kulgilar boshlangan edi. Missis Bennet yana odatdagi ming'ir-ming'iriga o'tgan edi. Kitti ham o'ziga kelib qolgan, endi Meritonga borayotganda ko'z yoshi qilmas va bu yaxshilik alomati bo'lib, mabodo, harbiy vazirlikdan birorta boshliq yana Meritonga yangi bo'linmani joylashtirishni o'ylab qolmasa, Elizabet Rojdestvo bayramigacha singlisi zobitlar haqida kamroq gapiradigan bo'ladi, deb umid qilardi.

Shimolga sayohat qiladigan kun ham yaqinlashib qolgandi. Jo'nashga ikki hafta qolganda missis Gardinerdan xat olishdi. Xatda jo'nashlari sal orqaga surilayotgani, sayohatlari esa avval rejalashtirganlaridek uncha uzoq bo'lmasligi yozilgan edi. Mister Gardinerning ishlari chiqib qolib, oldin o'ylashgan vaqtdan ikki hafta o'tibgina, iyul oyida jo'nashlari mumkin bo'lib, bir oy o'tib, Londonga qaytib kelishlari zarur ekan. Ilgarigi rejalari bo'yicha boriladigan joylar uchun vaqt kamligi sababli, Ko'llar o'lkasiga borish fikridan voz kechilib, yaqinroq joylarga boriladigan bo'libdi. Yangi reja bo'yicha ular Derbishirdan nariga chiqishmas ekan. Bu graflikda ularning ixtiyoridagi vaqt ichida bermalol aylanib chiqadigan talay xush-

manzara joylar bor bo'lib, ayniqsa, missis Gardiner uchun bu ayni muddao edi. Bir necha yillar burun o'zi yashagan shaharcha uni hozir o'z go'zalligi bilan olamga tanilgan Metlok, Chetsuort va Davdeyllardan ko'ra ko'proq qiziqtirayotgan edi.

Elizabetning kayfiyati buzildi. U Ko'llar o'lkasiga borishga tayyorlanayotgan edi va uning nazarida buning uchun vaqtlari bermalol yetardi. Lekin endi boriga ko'nishga majbur edi va qiz yana sayohatga berilib tayyorlana boshladi.

Derbishir nomi unda g'alati hislarni uyg'otdi. Bu nom Pemberli pomestyesi va uning egasi bilan bog'liq edi.

– Nima, u yerga men uning ruxsatisiz bora olmaymanmi, – o'zicha o'ylardi qiz, – uning ko'ziga ko'rinmay esdalikka bir nechta toshcha olib kelib bo'lmaydimi?

Kutish cho'zilib ketdi. Gardinerlarning kelishiga to'rt hafta bor edi. Nihoyat, bu vaqt ham orqada qoldi va to'rt bolasi bilan Gardinerlar Longbornga kelishdi. Olti va sakkiz yoshli ikki qiz va ulardan kichikroq ikkita o'g'il bola Jeyn bilan qolishadigan edi. Ular qizni juda yaxshi ko'rishar, Jeyn ham o'zi-ga yuklatilgan vazifani sidqidildan bajarar edi: ularni o'qitish, birgalikda o'ynash va birinchi o'rinda bolalarning ko'nglini ovlash qizning joni dili edi.

Gardinerlar Longbornda bir kecha tunab, ertasi ertalabdan Elizabet bilan birga yangi taassurotlar orttirish uchun yo'lga tushishdi. Ular uchun zo'r bir sharoit bor ediki, bu uchalasi ham bir xil dunyoqarashli insonlar edi. Hammalari sog'lom va chidamli bo'lib, yo'l azoblarini qiynalmay, xursandchilik bilan bosib o'tishar va uzoq yo'lni qiziqarli qilish uchun kerak bo'lgan qiziq-qiziq voqealarni aytib bera oladigan darajada bilimga ega edilar.

Bularni aytib berishdan maqsad, Derbishirni yoki bu graflikka olib boradigan yo'ldagi biror chi-

royli joyni tasvirlash emas. Oksford, Blenxeym, Uorik, Kenilvort va Birmingemlar ham taniqli joylar. Bizlarni qiziqtirayotgan joy Derbishirning bir burchagi, xolos. Yoʻlda duch kelgan hamma tarixiy joylarni tomosha qilib, bizning yoʻlovchilari-miz missis Gardiner bir paytlar yashagan, yaqinda eshitganiga qaraganda hali ham bir nechta eski tanishlari bor boʻlgan Lemton shaharchasi tomon yoʻl olishdi. Missis Gardiner aytib berganlaridan Elizabet shaharchaning Pemberlidan besh milcha narida joylashganini bildi. Ularning yoʻllari yoʻldan bir yoki ikki milcha narida joylashgan Darsining pomestyesi yonidan oʻtardi. Kechqurun ertangi kun rejasini qilishayotganda, missis Gardiner ushbu pomestiyega kirib ketish istagini bildirdi. Mister Gardiner ham rozi boʻldi. Endi Elizabetning roziligi kerak edi.

– Elizabet, jonim, sen ham bu joylar toʻgʻrisida koʻp eshitgansan. Senga ham bu joylarni koʻrish qiziq boʻlsa kerag-a? – soʻradi missis Gardiner. – Ular senga koʻp tanishlaringni yodga soladi. Uikxemning yoshligi shu yerlarda oʻtganini oʻzing bilasan.

Xolasining bu gaplaridan Elizabet biroz xijolat boʻldi. U Pemberlida qiladigan ishim yoʻq, deb hisoblayotgan edi. Shuning uchun shuncha boy xonadonlarni koʻrishgani yetarli ekanligi va ulardan charchagani, ajoyib gilamlar va shoyi darpardalar endi unga zavq bermayotganini bahona qilib, u yerga borishni yoʻq qilmoqchi boʻldi.

Lekin missis Gardiner uning bu qiligiʻidan oʻpkalandi:

– Agar gap faqat chiroyli qilib bezatilgan boy xonadon toʻgʻrisida boʻlsa edi, men oʻzim ham gapirib oʻtirmasdim. Lekin Pemberli oʻzining ajoyib koʻrinishlari bilan mashhur. U yer mamlakatimizning eng yaxshi parklaridan biri.

Elizabet bu gapga javoban hech nima demadi, lekin ich-ichidan borishni xohlamasdi. Qiz u joylarni ko'rishga borgan vaqtlarida mister Darsini uchratib qolishdan qo'rqayotgan edi. Bu uchrashuv to'g'risida o'ylashning o'zidanoq qizning yuzlariga qizillik yugurdi. Bunday tavakkal qilgandan ko'ra, xolasiga hamma gapni aytib ham bermoqchi bo'ldi. Lekin bunga yuragi dov bermay, agar pomestyening egasi uyda bo'lgan taqdirdagina, u yerga borishni xohlamasligi sababini aytish uchun xolasiga o'z sirini ochishga qaror qildi.

Uyquga yotishdan oldin u mehmonxonadagi xizmatchi ayoldan Pemberli rostdan ham shunaqa chiroyli joymi, egasi kim, u oilasi bilan yozni o'tkazish uchun pomestyesiga kelganmi yoki yo'qmi, deb so'radi. Oxirgi savoliga o'zi istagan javobni olgach, xotirjam bo'lib u yerlarga borishni endi intiqlik bilan kuta boshladi. Ertasi kuni ertalab u yerga borish masalasi yana ko'tarilganda bu rejaga hech qanday qarshiligi yo'qligini aytdi. Va ular Pemberliga jo'nab ketishdi.

Uchinchi bo'lim



I bob

Pemberli o'rmonlari boshlanishini kutib, Elizabet tevarak-atrofga to'liqlanib qarab ketdi. Qorovulxona oldidan o'tib, axiri qo'rg'on tomonga buri-lishganda, u haddan ortiq hayajonda edi. Benihoya katta parkning ko'rinishi ajoyib edi. Parkning eng pastlik qismidan aylanishni boshlab, sayohatchi-lar bir muncha vaqt chiroyli va quyuq o'sgan da-raxtzor oralab yurishdi. Elizabet suhbatda ishtirok etish uchun haddan ortiq hayajonda bo'lsa-da, parkdagi har bir chiroyli narsadan huzur qilayot-gan edi. Yarim millar yuqoriga ko'tarilishganda bir-dan ularning oldilarida daraxtlardan xoli baland-lik paydo bo'lib, u yerdan ro'parada qad ko'targan xo'jayinning uyi ko'rinib turardi. Bu toshlardan qurilgan bahaybat uy bo'lib, tog' yonbag'rida juda qulay joylashgan edi. Vodiydan oqib o'tayotgan ir-moq uy ro'parasiga kelganda hech qanday sun'iy aralashishlarsiz katta suvga aylanib ketgan bo'lib, qirg'oqlari ham tabiiy holda edi. Elizabet hayratda edi. U tabiatning o'zi in'om etgan va insonning did-siz qo'li bilan buzilmagan bunday go'zal joylarni hali umrida ko'rmagan edi. Hammalari hayratda edilar. Ayni shu daqiqalarda u Pemberliga bekalik qilish degani nimani anglatishini to'liq his qildi.

Ular vodiydan pastga tushib, ko'prikan o'tishdi va uyga yaqinlashishdi. Qiz uy devorlari oldida turib uni tomosha qilar ekan, uy egasi ko'rinib qolmasmikan, degan qo'rquv yana bosib kela boshladi. Mehmonxo-nadagi xizmatchi ayol yanglishgan bo'lishi mumkin, degan fikr uni tinch qo'ymayotgan edi. Ular uy ichi-

ni ko'rib chiqishga ruxsat olishgach, ularni vestib-yulga taklif qilishdi. Uy boshqaruvchisini kutib turishar ekan, Elizabet uni taqdir yetaklab kelgan joyda ko'rayotganlaridan aqli shoshayozgan edi.

Ularning oldida uy boshqaruvchisi – oddiygina, xushmuomala kekxa ayol paydo bo'ldi. Mehmonlar uning ortidan yemakxonaga – nafis qilib bezatilgan keng xonaga kirishdi. Xonani bir bor ko'zdan kechirib chiqqan Elizabet tashqarini tomosha qilish uchun deraza oldiga bordi. Ular hozirgina tushib kelganlari o'rmon bilan o'ralgan balandlik bu yerdan ajoyib ko'rinardi, shunchalik ko'zni quvontirardiki, Elizabet ko'z uzolmay qoldi: daryo, uning qirg'oqlarida o'sgan daraxtlar, ufqqacha tutashib ketgan vodiylar – bunday go'zal manzarani tasvirlashga til ojizlik qilardi. Boshqa xonalarga o'tib, derazadan qarashar ekan, manzara o'zgarib borar, lekin biri biridan go'zal edi. Xonalar katta, shiftlari baland bo'lib, shunday pomestyening egasiga mos tarzda juda boy jihozlangan edi. Uning didiga tan bera turib, Elizabet bu xonalarning Rozingsdagidek serhasham va dabdabali bo'lmasa-da, o'ta nozik did bilan yasatilganiga tan berdi.

«Sal bo'lmasa men shu yerga beka bo'lay degandim-a! – ichida o'z-o'ziga dedi Elizabet. – Allaqachon bu xonalarga o'rganib ulgurgan bo'lardim. Bu xonalarni tasodifiylar bir o'tkinchiday tomosha qilmay, ular o'ziminiki bo'lgan bo'lardi hamda mister va missis Gardinerlarni mezbon sifatida kutib olayotgan bo'lardim! Lekin... yo'q, bu bo'lmaydigan narsa edi. Men ularni butunlay yo'qotgan bo'lardim. Ularni bu yerga taklif qilishga menga ruxsat berishmasdi».

Yuqoridagi fikr qizning xayoliga ayni uning ko'nglida achinishga o'xshagan his paydo bo'lgan damda keldi.

Qiz bir nechta bor uy boshqaruvchisidan hojasining rostdan ham safarda ekanligini so'ramoqchi

bo'ldi, lekin yuragi dov bermadi. Bu savolni mister Gardiner berdi. O'z hayajonini yashirish uchun teskari qaragan Elizabet, missis Reynolds tasdiq javobi berganini eshitdi:

– Ha. Biz uni ertaga kutyapmiz. U bu yerga do'stlari bilan keladi.

Elizabet bu javobdan xursand bo'lib turar ekan, devorda osilgan bir rasmni ko'rsatish uchun missis Gardiner uni chaqirib qoldi. Elizabet yaqinroq kelib kamin ustidagi rasmlar orasida mister Uikxemning suratini ko'rdi. Missis Gardiner qizdan portret qanday ekanligini so'radi. Ularga yaqinlashgan missis Reynolds rasmdagi yigit oldingi boshqaruvchining o'g'li bo'lib, uni marhum katta Darsi o'zi tarbiya qilganini aytdi.

– U hozir armiyada, lekin undan yaxshi odam chiqmadi, – qo'shib qo'ydi ayol.

Missis Gardiner jilmayib, Elizabetga qarab qo'ydi, u esa ko'zini olib qochdi.

– Mana bu esa, – boshqa rasmni ko'rsatar ekan, dedi missis Reynolds, – yosh Darsi, o'ziga juda o'xshaydi. Ikkala rasm ham bir paytda, sakkiz yilcha burun chizilgan.

– Men mister Darsi haqida ko'p eshitganman, – rasmni ko'zdan kechirayotib, dedi missis Gardiner.

– Rasmiga qaraganda juda kelishgan yigit. Lizzi, o'xshashligini sezayapsanmi?

Elizabetning Pemberlining egasi bilan tanishligini eshitgan ayolning unga hurmati oshdi:

– Bu yosh qizimiz mister Darsini taniydimi?

– Biroz, – qizarib dedi Elizabet.

– Nima deysiz, xonim, juda kelishgan yigit-a?

– Ha, to'g'ri aytasiz.

– Men boshqa bunday kelishgan yigitni uchratmaganman. Yuqoridagi xonada hozir uning bundan kattaroq, bundan ham yaxshi chiqqan suratini

ko'rasiz. Marhum xo'jayin bu xonani juda yaxshi ko'rar edi, bu yerdagi narsalar uning paytida qanday bo'lgan bo'lsa, shundayligicha qolgan, o'zgartirilmagan. U bu rasmlarni juda yaxshi ko'rardi.

Ayolning bu gapidan nima uchun Uikxemning rasmi haligacha bu yerda turganini tushundilar.

Missis Reynolds ularning diqqatini miss Darsi-ning sakkiz yoshligi aks ettirilgan rasmga tortdi.

– Miss Darsi ham akasichalik chiroylimi? – qiziqdi mister Gardiner.

– Shubhasiz! – xitob qildi missis Reynolds. – U dunyodagi eng go'zallardan qolishmaydi. Yana qanday tarbiyal! Ertadan kechgacha musiqa bilan shug'ullanadi. Yonimizdagi xonada yaqiningnada olib kelishgan musiqa asbobini ko'rasizlar – xo'jayinimizning miss Darsiga sovg'asi. Biz ertaga u ham akasi bilan kelishini kutayapmiz.

Mister Gardinerning chin yurakdan qiziqib berayotgan savollari missis Reynoldsning gap qulfini ochib yubordi: u o'z xojasi va singlisi haqida bilganlarini aytib berdi.

– Xo'jayiningiz ko'p vaqtini Pemberlida o'tkazadimi?

– Men xohlaganimchalik ko'p emas. Umrining yarmi shu yerda o'tadi, deyishim mumkin. Miss Darsi esa har yozni shu yerda o'tkazadi.

«Bir yozni Remsgeytda o'tkazganini hisobga olmaganda», – o'yladi Elizabet.

– Xo'jayiningiz uylansa, uni ko'proq ko'rib turasiz.

– Ha, ammo bu qachon bo'lishi noma'lum-da. Unga sal bo'lsa ham munosib xotin bo'la oladigan birortasini bilmayman.

Mister va missis Gardinerlar kulib qo'yishdi, Elizabet esa o'zini tuta olmay, dedi:

– Menimcha, siz uning foydasiga o'ylaysiz, shekilli?

– Men faqat bor gapni gapiraman – buni mister Darsini taniydigan hamma tasdiqlashi mumkin, –

javob berdi ayol. Elizabetga u bu gaplarni qoʻrqmasdan aytayotgandek tuyuldi. Missis Reynoldsning keyingi gapidan esa hayratga tushdi: – Butun umri davomida u menga bitta ham yomon soʻz aytmagan. Men esa uni toʻrt yoshidan beri bilaman.

Bu soʻzlar Elizabetni juda hayron qoldirdi: ular oʻzining mister Darsi haqidagi tasavvurlariga mutlaqo zid edi. U shu paytgacha yigit xarakterini oʻta ogʻir deb bilayotgandi. Elizabetning qiziqishi borgan sari zoʻrayayotgan, yigit haqida yana boshqa narsalarni ham bilgisi kelayotgandi. Mister Gardiner soʻrashda davom etdi:

– Juda kam odamlar bunday maqtovga sazovor boʻlishadi. Xoʻjayiningiz shundayligidan siz juda baxtli boʻlsangiz kerak?

– Ha, chindan ham mening omadim kelgan. Butun dunyoni qidirsa ham bundan yaxshisini topib boʻlmaydi. Men har doim koʻngilchan bolalar ulgʻayishgach, yaxshi inson boʻlib yetishganlariga guvoh boʻlganman. Mister Darsi esa kichkinaligida juda rahmdil, oliyjanob bola edi, bunaqasini men haligacha boshqa uchratmaganman.

Elizabet undan koʻzini uza olmasdi: «Nahotki, gap mister Darsi haqida ketayotgan boʻlsa?» – oʻylardi qiz.

– Uning otasi ham oliyhimmatliligi bilan nom qozongandi, – dedi missis Gardiner.

– Toʻppa-toʻgʻri, xonim, rost aytdingiz. Oʻgʻli ham xuddi otasining oʻzi. Oddiy odamlarga nisbatan juda mehribon.

Elizabet ayolning gaplarini tinglar ekan, hayratlanar, ikkilanar va yana koʻproq narsalarni bilishni istardi. Missis Reynoldsning rasmlar, xonalarning katta-kichikligi, jihozlarning qiymati haqidagi gaplarini shunchaki eshitgan Elizabet endi ayolning soʻzlarini jon qulogʻi bilan tinglayotgandi. Uy boshqaruvchisining mister Darsini koʻklarga koʻtarib maqtashi mister

Gardinerga juda qiziq tuyuldi. Ular uzun zina bo'ylab ko'tarilishar ekan, ayol xo'jayinining boshqa fazilatlarini ham sanashda davom etdi:

– Mister Darsi dunyodagi eng zo'r yer egasi va eng zo'r xo'jayin, – dedi u. – U hozirgi yigitlardek faqat o'zinigina o'ylaydiganlardan emas. U haqda birorta yaxshi gap aytmaydigan bitta ham ijarachi yoki xizmatchini topa olmaysiz. Kimlardir uni haddan tashqari mag'rur deyishadi. Lekin men buni hech qachon sez-maganman. U, ba'zi yoshlardek, bo'lar-bo'lmas narsalar bilan qiziqmagani uchun shunday deyishsa kerak.

«Bu so'zlar mister Darsini qanday darajaga chiqarib qo'yyapti!» – o'yladi Elizabet.

– Uning bu gaplari mister Darsining bizning bechora do'stimizga qilgan qiliqlari bilan kelishmaypti-ku! – Elizabetga pichirlab dedi missis Gardiner.

– Balki bizga noto'g'ri aytishgandir?

– Bunday bo'lmasa kerak. Bizga aytganlar aldaydigan odamlar emasdi.

Ikkinchi qavatda keng kiraverishdan o'tib, chiroyli bir xonaga kirishdi. Bu xona pastki qavatlardagidan ham muhtasham bo'lib, juda nozik did bilan jihozlangan edi. Missis Reynold bu xonani o'tgan yili miss Darsiga yoqib qolgani uchun unga deb qaytadan pardozi berilganini aytib o'tdi.

– Miss Darsining akasi chindan ham juda g'amxo'r ekan, – deb qo'ydi Elizabet ochiq oynalardan birining oldiga yaqinlashar ekan.

Missis Reynolds miss Darsi xonaning yangi pardozini ko'rgandan keyin qanday xursand bo'lishini ko'z oldiga keltirib, oldindan quvonayotgan edi.

– Singlisini ozginagina bo'lsa ham xursand qiladigan hamma narsani badastir qiladi, – dedi u. – Qo'lidan keladigan hamma narsani bajo keltiradi.

Ular hali ko'rmagan rasmlar galereyasi bilan ikki yoki uchta katta yotoqxona qolgan edi. Galereya-

da juda chiroyli chizilgan rasmlar ko'p bo'lsa-da, rassomlikka uncha tushunmaydigan Elizabet miss Darsining qalamda chizgan rasmlarini tomosha qila boshladi. Begona odamlar diqqatini juda ham tortavermaydigan oilaviy suratlarini ko'rar ekan, Elizabet ular orasidan o'ziga tanish birgina qiyofani qidirar edi. Axiri bu rasmga ko'zi tushdi: suratning mister Darsiga juda o'xshashligidan hayron qoldi. Rasmda uning kulib turgan chehrasi ifodalangan bo'lib, bu kulgini qiz yigit o'ziga tikilib turgan paytlarida ko'rgan edi. Qiz bir necha vaqt rasmga tikilib turdi. Uning oldiga missis Reynolds kelib, bu surat katta mister Darsi tirikligida chizilganini aytdi.

Ushbu daqiqalarda Elizabet birinchi marta rasmining asliga nisbatan iliq tuyg'ularni his qildi. Missis Reynoldsning maqtab aytayotgan gap-so'zlari ta'sir qilmay qolmasdi. Axir, minnatdor xizmatchining maqtov so'zlaridan ortiq ishonib bo'ladigan narsa bormikin? Qiz Darsiga yuklatilgan akalik javobgarligi, yer egasi, uy egasi sifatidagi javobgarliklar to'g'risida o'ylardi. U odamlarga qancha yaxshilik yoki yomonlik keltirishi mumkin! Uning ixtiyorida qancha xursandchilik va qayg'ular bor! Missis Reynolds aytib o'tgan uning tabiatidagi har bir chizgi yigitning foydasiga hal bo'layotgan edi. Ko'zlari unga qarab turgan surat oldida turar ekan, Elizabet uning sevgi izhor qilib aytgan so'zlarining ma'nosini hozir yanada chuqurroq his qildi va yigit izhoridagi ba'zi narsalarni xaspo'shlab yuborishga harakat qildi.

Ko'rish mumkin bo'lgan hamma joylarni tomosha qilishgach, pastga tushishdi va uy boshqaruvchisi bilan xayrlashib, eshik oldida ularni kutib turgan bog'bon bilan qolishdi.

O'tlar oralab daryo bo'yiga tushishar ekan, uyga yana bir bor qarash uchun Elizabet orqasiga o'girildi. Mister va missis Gardinerlar ham to'xtashdi.

Mister Gardiner uyning qurilgan vaqti to'g'risida o'z fikrini aytar ekan, otxonaga olib boradigan yo'lka muyulishidan uyning egasi chiqib keldi.

Ular orasida yigirma yard (91,44 sm)cha masofa bo'lib, yigit shunchalik tasodifan paydo bo'lgandiki, Elizabetning qochishga hech imkoni yo'q edi. Ular-ning ko'zlari uchrashdi va ikkovining ham yuzlari qip-qizarib ketdi. Mister Darsi titrab ketdi, avvaliga go'yo hayratdan qotib qolgandek bo'ldi, lekin tezda o'ziga kelib, ularning oldiga keldi-da, hali o'ziga kelmagani-ga qaramay, qizga hurmat bilan gapira boshladi.

Birinchi daqiqalarda Elizabet beixtiyor orqasiga o'girilib, bir necha qadam tashladi. Lekin yigit uning yoniga yetib kelganda, o'zini yo'qotib qo'ygancha, to'xtab, uning gaplariga quloq sola boshladi. Qizning hamrohlarining oldilarida mister Darsining paydo bo'lishi va uning hozirgina ko'rishgani portreti ular-ning qarshisida uy egasi turganini yetarli darajada ishontirmagan bo'lsa, bog'bon yuzida xo'jayinini to'sat-dan ko'rib qolganidan paydo bo'lgan hayrat buni tas-diqlab turardi. Mister Darsi Elizabet bilan gaplashar ekan, qolganlar nariroqda turishdi. Ko'zlarini ko'tarib qarashga ham iymenib, qiz Darsining oilasi va ular-ning salomatligi haqida yigit bergan savollarga zo'rg'a javob berardi. Yigitning ular oxirgi marta uchrash-ganlaridan beri qanchalik o'zgarib ketgani Elizabetni lol qoldirgan, lekin yigitning gaplaridan borgan sari xijolati ortib borardi. Bir necha daqiqalik bu suhbat davomida o'zini shu joyda ko'rib qolishganidan qan-chalik noqulay ahvolga tushgani qiz uchun bir umr yodida qolarli bo'ldi. Mister Darsining o'zini tutishi ham undan qolishmas edi: uning gaplarida odatda-gi xotirjamlik yo'q edi. Ularning Longborndan qachon chiqqanlari, necha kundan beri Derbishirda ekan-liklari haqida dovdirab savollar berar ekan, u ham o'z hayajonini berkita olmas edi. Axiri, endi nima haqida

so'rashni bilmay, bir necha daqiqa turib qoldi va indamay nari ketdi.

O'sha zahotiy oq Elizabetning yoniga mister va missis Gardinerlar kelishib, yigitning ko'rinishidan hayratda ekanliklarini aytishdi. Biroq o'z o'ylari bilan mashg'ul Elizabet ularning gaplariga javob bermay, ketlaridan keta boshladi. Uyat va xo'rlanganlik hissidan uning dili xufton edi. Mister Darsiga u juda g'alati ko'ringan bo'lsa kerak! Qanday sharmandalik! U, qiz atay mening yo'limdan chiqdi, deb o'ylayotgan bo'lsa kerak? Nimaga o'zi bu yerlarga keldi? Uning ham bir kun oldin kelgani-chi! Uydan o'n daqiqagina vaqtliroq chiqishganda edi, yigitni uchratmagan bo'lishardi! Mister Darsining hozirgina kelgani ko'rinib turibdi – endigina otdan yoki ekipajdan tushgan edi. Qiz o'zining Pemberliga kelgani noto'g'ri bo'lganini his qilib, uyatdan yonib ketayotgan edi. Lekin mister Darsining o'zgarib ketganini! Buni nima bilan izohlash mumkin? Uning qiz bilan gaplashganining o'ziyoq hayron qolarli edi. Qarindoshlari haqida qanday hurmat bilan gapirgani-chi! Darsi hali qizga hech qachon bugungichalik nazokat bilan gapirmagan edi. Uning o'zini bunday tutishi ilgari Rozingsda qizga o'z xatini berayotgandagidan butunlay boshqacha edi. Elizabet buni nima deb o'ylashni ham, qanday tushunishni ham bilmasdi.

Ular shundoq suv bo'yidagi yo'lkadan ketib borishardi. Yurganlari sayin oldilarida chiroyli manzaralar paydo bo'lar ekan, Elizabet ularni sezmasdi. Gardinerlar savollariga beixtiyor javob berar ekan, u butunlay boshqa narsani o'ylayotgan edi. Ko'z oldida o'sha bitta – hozir Darsi kirgan xona gavdalanayotgan edi. Qiz hozir uning nimalar haqida o'ylayotganini, qizni bu yerda ko'rib, nimalarni his qilganini, hech narsaga qaramay hali ham o'ziga nisbatan nozik tuyg'ulari saqlanib qoldimikan – bilishni istardi. Yigitning o'zini

erkin tutishi o'z uyida ekanligidan emasmikan? Lekin uning gapirish ohangida nimadir bor ediki, Darisi o'zini bemalol tutayapti, deb bo'lmadi. Uning bu uchrashuvdan xursand yoki xafa ekanligi noma'lum edi. Har holda yigitga baribir emasdi.

Hamrohlarining qizning parishonxotirligiga nisbatan ishoralarini payqagan Elizabet fikrlarini jamlab, o'zini qo'lga olishga majbur qildi. Ular quyuq daraxtzor ichiga kirib, qiyalikdan tepaga qarab ko'tarila boshlashdi. Daraxtlar orasidan tushayotgan yorug'lik orqali so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan darajada chiroyli manzarani ko'rish mumkin edi. Mister Gardiner bittada hamma yoqni aylanib chiqishni taklif qildi, va bu fikrga o'sha zahotiyiq o'zi qarshi chiqdi: bittada aylanish uchun charchab qolishlari mumkin edi. Uning gaplariga bog'bon kulibgina, kamida yana o'n milcha yurishlariga to'g'ri kelishini aytdi. Bu masalani hal qilishdi va ular yana yo'llarida davom etdilar. Yo'l yana tog'ga qarab ketgan edi. Engashib yotgan daraxtlar orasidan o'tib, daryoning toraygan joyiga kelib, atrofdagi tabiat ruhiga mos keladigan qilib qurilgan ko'prikdan narigi tomonga o'tdilar. Parkning bu qismi, boshqa joylarga nisbatan inson qo'li eng kam tekkan joy edi. Daralar orasida faqat suv oqimi uchun joy va butalar bilan qoplangan torgina yo'lka bor edi. Elizabet suv oqimini sinab ko'rgisi keldi. Lekin yayov yurishga o'rganmagan missis Gardiner birdan uydan ancha uzoqlab ketishganini sezib qolib, boshqa yurishni istamadi va tezroq qaytishni so'ray boshladi. Elizabet ko'nishga majbur bo'ldi va ular daryo bo'yida qolgan ekipaj yoniga eng yaqin yo'ldan tusha boshladilar. Lekin juda tez yurishmayotgan edi. Mister Gardinerning baliq oviga bo'lgan qiziqishi (o'zining bu qiziqishini qondirish unga juda kam nasib qilsa-da) sabab, u daryoda jilpanglayotgan forelni tomosha qilish uchun yoki bog'bondan shu baliq haqidagi savollariga javob

olish uchun to'xtab-to'xtab tushishlariga to'g'ri keldi. Shu ahvolda sekin tushishar ekan, ular birdan o'zlari tomon kelayotgan mister Darsini ko'rib qolishdi. Elizabet boya uni birinchi marta ko'rganda qanday hayron qolgan bo'lsa, hozir yanada qattiq ajablandi. Yo'lka oldingi sohildagidek daraxtlar bilan juda o'ralmagani uchun, oradagi masofa yigit yetib kelguncha ular Darsi bilan yuzma-yuz kelishga tayyor bo'lishlari uchun yetarli vaqt ketadigan darajada edi. Ajablanganiga qaramay, Elizabet yigit oldilariga kelgudek bo'lsa, u bilan bemalol gaplasha olish uchun o'zini tutib oldi. Lekin atigi bir necha lahza shunday tuyuldiki, go'yo yigit boshqa yo'lga qayrilib ketgandek bo'ldi. Lekin bu bir necha soniyagina, yo'lkaning qayrilgan joyidan o'tib kelguncha vaqtni oldi. Va yigit o'sha zahoti ularning oldida paydo bo'ldi. Birinchi qarashdanoq, Elizabet yigitning ular hali pastda ko'rganlaridek, o'zini mulozamatli tutayotganini sezdi. O'zi ham shunday bo'lishga harakat qilib, Elizabet bu yerning manzaralaridan juda hayratdaliklarini aytdi. Lekin «maftunkor» va «ajoyib» degan so'zni ikki marta qaytargach, Pemberli haqida bu so'zlarni uning aytishi boshqacha tushunilishi mumkinligini o'ylab, jim bo'lib qoldi.

Missis Gardiner nariroqda turar edi. Elizabetning jim bo'lib qolganidan foydalanib, mister Darsi qizdan o'zining hamrohlarini unga tanishtirishni so'radi. Bunday ehtiromni hech ham kutmagan qiz, o'zini zo'rg'a jilmayishdan tutib, yigit uning roziligini so'ragan paytda bunday odamlarga nisbatan g'ururi qanday bosh ko'targanini esladi.

«Bularning kimligini bilgandan keyin rosa ajablanar, – o'yladi qiz. – Axir u bularni oqsuyaklarga mansub, deb o'ylayotgan bo'lsa kerak».

Shunga qaramay, tezda yigitga hamrohlarini tanishtirdi. O'zining Gardinerlarga jiyan ekanligini ayta turib, zimdan yigitni kuzatar ekan, u hozir yugurib

qochib qolsa kerak, deb o'yladi. Ularning qarindosh ekanligi, chindan ham Darsi uchun tomdan tarasha tushgandek bo'ldi. Lekin tezda o'zini o'nglab oldi va yangi tanishlari bilan birga keta turib, mister Gardiner bilan qizg'in suhbatlasha ketdi. Elizabet juda xursand edi. Axiri mister Darsini o'zini uyaltirib qo'ymaydigan qarindoshlari bilan tanishtirganidan ko'ngli xotirjam edi. Ularning suhbatlariga quloq solar ekan, tog'asi-ning aytayotgan har bir gapiga, uning aqlidan, dididan, oliyanob tabiatidan darak beruvchi gaplaridan xursand bo'lar edi.

Erkaklar suhbatini baliq oviga taqalib, Elizabet mister Darsi tog'asini ular shu yerdaligida birga baliq ovlashga taklif qilganini eshitdi. Yigit mister Gardinerga kerakli asbob-anjomlarni o'zi berishini aytib, unga baliq ovlash uchun qulay joylarni ko'rsatdi. Elizabet bilan yonma-yon ketayotgan missis Gardiner dam o'tmay, qizga hayron bo'lib qarar edi. Elizabet o'zida yo'q xursand, ammo jim ketardi. Mister Darsining bu e'tibori, albatta, qiz orqasidan. Lekin bu narsa uni ajablantirar ekan, o'z-o'zidan, «U nima uchun shunchalik o'zgardi? Buning sababi nima? Faqat meni deb bo'lishi mumkin emas! Faqat meni deb u o'zini shunchalik ehtirom bilan tutayotgan bo'lishi mumkin emas! Unga Xansfordda aytgan gaplarim shunchalik ta'sir qilgan bo'lishi mumkin emas! U meni hali ham sevishi mumkin emas-ku?!»

Ancha paytgacha ayollar oldinda, erkaklar bir necha qadam orqada ketishdi. Lekin biroz o'tib, qandaydir bir suv o'tini ko'rish uchun suvga tushganlaridan so'ng, sharoit o'zgardi. Shu paytgacha Elizabetga suyanib kelayotgan missis Gardiner charchaganini his qilib, erining qo'lidan ushlab oldi. Uning o'rnini mister Darsi egallab, yana yo'lda davom etishdi. Bir muncha vaqt jim ketishgandan so'ng, Elizabet birinchi bo'lib gap boshladi. U Pemberliga kelishga qaror qilganida o'zining yigit u yerda emasligiga amin bo'lganini tu-

shuntirmoqchi edi. Shuning uchun yigitning kutilmagan tarzda kelib qolishidan ajablanishganini aytdi:

– Uy boshqaruvchingiz ertadan vaqtli kelmasligingizni aytgandi. Biz Beykuellidan ketayotganimizda ham shunday deyishgandi. Sizni bugun kutishmayotgandi.

Darsi chindan ham kutilmaganda kelganini, sababi do'stlari kelguncha uy boshqaruvchisi bilan qiladigan ishlari borligini aytdi.

– Ular ertaga ertalab kelishadi, – gapida davom etdi yigit. – Ular orasida sizning eski do'stlaringiz – mister Bingli va uning opa-singillari ham bo'lishadi.

Elizabet boshini yengilgina qimirlatib qo'ydi. Uning xayoli yigit bilan ikkalasi Binglining nomini oxirgi mar-ta tilga olishgan paytga ketdi. Darsining yuzidagi ifodadan u ham shu to'g'rida o'ylayotgani sezildi.

– Yana ular orasida siz bilan tanishishni juda ham istayotgan birov bor, – biroz jimlikdan so'ng gapida davom etdi mister Darsi. – Sizni, agar ko'p narsa so'ramayotgan bo'lsam, shu yerdaligingizdan foydalanib, singlim bilan tanishtirib qo'ysam maylimi?

Elizabet yigitning bu iltimosidan ajablandi. Qanday qilib bunday sharafiga ega bo'lgani unga qorong'i edi. Miss Darsi akasi ta'sirida u bilan tanishmoqchi bo'lishi mumkin. Nima bo'lganda ham, Elizabet bunda hech bir yomonlikni ko'rmayotgan edi. Uni beayb xafa qilganlariga qaramasdan, yigitning o'zi haqida yomon xayolga bormayotgani uchun yigitdan minnatdor edi.

Ikkalasi ham o'z xayoli bilan bo'lib, jim ketishar edi. Elizabetning ahvolini juda yaxshi deb bo'lmasdi – bu haqda gap ham bo'lishi mumkin emasdi. Lekin u minnatdor edi. O'zini miss Darsi bilan tanishtirmoqchi ekanliklari, ayniqsa, qiz uchun nozik xushomaddek edi. Ular o'z hamrohlaridan ancha oldinga ketib qolishgandi. Yigit bilan qiz kareta oldiga yetib kelishganda, mister va missis Gardinerlar ulardan ancha orqada qolishgan edi.

Darsi qizni ichkariga kirishga taklif qildi, lekin Elizabetdan charchamaganligi haqidagi javobni olgach, ikkalasi o'tloqda turib qolishdi. Suhbat qurishga ayni chorlaydigan bunday sharoitda indamay turish noqulay edi. Qiz gapirmoqchi bo'ldi, lekin qaysi mavzu bo'lmasin, unga xuddi shu mavzuda gapirish mumkin emasday tuyuldi. Nihoyat, ular sayohatda ekanliklari yodiga tushib qolib, Elizabet Metlok va Davdeyl haqida gapirdi va yigit bilan ikkalalari Derbishirning go'zalligini maqtay ketishdi. Lekin vaqt va missis Gardiner shunday sekin harakat qilishayotgandiki, bunday yuzma-yuz qolishganining oxiriga borib nima to'g'risida gapirishni ham bilmay qolishdi.

Axiri Gardinerlar yetib kelishdi va yigit ovqatlanib ketish uchun ularni ichkariga taklif qildi. Yangi tanishlar taklifdan voz kechishdi va iliq xayrlashib, yo'lga tushishdi. Mister Darsi ekipajga chiqib o'tirishayotganda ayollarga yordam berib yubordi. Otlar yurib ketganda, Elizabet uning asta uyi tomon ketayotganini ko'rdi.

Mister va missis Gardinerlar mister Darsi haqidagi o'z taassurotlarini aytishni kechiktirishmadi. Ikkalasi ham bir ovozdan undan hayratda ekanliklarini aytishdi.

– U o'zini oliy darajada tutar ekan: hurmati ham, kamtarligi ham, hammasi o'z o'rnida, – dedi mister Gardiner.

– Albatta, biroz viqor sezilib turibdi, ko'rinishi shunday bo'lsa kerak, lekin o'ziga yarashib turibdi, – dedi missis Gardiner. – Men uy boshqaruvchisi aytgan gaplarga yuz foiz qo'shilaman: ba'zilar uni gerdaygan deyishsa-da, men hech ham buni sezmadim.

– Meni ayniqsa uning mehmondo'stligi ajablantirdi. Bizga nisbatan nafaqat xushmuomalada, balki o'ta mulozamatda bo'ldi. Axir, uning o'zini bunday tutishiga hech qanday asos yo'q edi, Elizabet bilan tanishligi esa shunchaki yuzaki edi.

– Lizzi, u Uikxemchalik emas, – erining gapiga qo'shildi missis Gardiner. – To'g'rirog'i, unchalik ke-lishgan emas, lekin yomon emas. Nega sen uni bizga dahshatli qilib tasvirlagan eding?

Elizabet qo'lidan kelgancha o'zini oqlashga harakat qildi: yigit Kentda unga ko'proq yoqqanini, bugun er-talab uchrashib qolganlarida esa u o'zini juda ham boshqacha muloyim tutganini aytdi.

– Menimcha, u sal ko'ngliga kelgan noma'qulchilik-ni qilaveradiganlardan bo'lsa kerak, – dedi mister Gar-diner. – Bunday pog'onadagi odamlar odatda shuna-qa bo'lishadi. Shuning uchun ham men uning baliq ovlash taklifiga yo'q deb qo'ya qolaman. Bo'lmasa, birdan kayfiyati o'zgarib qolib, men qochib qolishimga to'g'ri kelib o'tirmasin.

Elizabet ularning mister Darsining tabiatini umu-man tushuna olishmaganiga amin bo'ldi, lekin inda-may qo'ya qoldi.

– Unga qarab turib, nahotki shu yigit birortasiga xuddi Uikxemga qilganidek yomonlik qilishi mumkin-ligiga ishongim kelmayapti. U hech ham dahshatliga o'xshab ko'rinmaydi, qaytaga, gapirayotganda labla-rining chetida biram muloyim ajinchalar paydo bo'lar ekan. Uning o'zini tutishida o'z qadr-qimmatini bilishi sezilib turibdi. Bizga uyni ko'rsatgan ayol-chi, uni qa-naqa maqtadi. Ba'zi gaplarni aytayotganda men zo'rg'a o'zimni kulgidan tiyib qoldim. Juda saxiy ham bo'lsa kerak, shuning uchun xizmatkorining ko'ziga hamma yaxshi fazilatlariga ega bo'lib ko'rinadi.

Elizabet yigitning Uikxemga qilgan xatti-haraka-tini oqlash zarurligini tushundi. Nihoyatda ehtiyot-korlik bilan u Gardinerlarga Darsining qarindoshlari-ning aytishicha, uning Uikxem bilan munosabatlarini boshqacha tushungan bo'lishlari mumkin ekanligini aytdi. Bu gap bilan birinchi yigit obro'siga putur yet-masdi va ikkinchisining esa ular Xartfordshirda amin

bo'lganlaridek, juda ham toza emasligi kelib chiqardi. Bu gaplar isboti sifatida qiz, kimdan eshitganini ayt-magan hamda aytmoqchi bo'lgan gaplarining rostligi-ni ta'kidlagan holda, ikkala yigit o'rtasida bo'lib o'tgan mojarolarni aytib berdi.

Missis Gardiner bu gaplarni eshitib, hayron qoldi va juda xafa bo'lib ketdi. Lekin bu paytga kelib uning yoshligi o'tgan shaharchaga kirib kelishgan edi va bu suhbat mavzusini o'zgartirdi. Eriga yo'lda uchrayot-gan yoshligi bilan bog'liq biror joyni ko'rsatar ekan, u endi boshqa narsa haqida o'ylamay qo'ygan edi. Erta-labdan beri juda charchaganlariga qaramay, tushlik qilib bo'lishlari bilan necha yildan beri ko'rmagan eski tanishlarini ko'rish uchun aylangani chiqib ketishdi.

Bugungi kun voqealari Elizabetni shunday char-chatgan ediki, u yangi tanishlari bilan bermalol o'tira olmadi. Butun o'tirish davomida u o'z xayollari bilan band bo'lib o'tirdi: mister Darsining do'stona gaplari yodiga tushib ajablanar, ayniqsa, yigitning singlisi bi-lan tanishtirmoqchi bo'lganiga hamon tushunmas edi.

II bob

Elizabet mister Darsi va singlisi ularni ko'rishga miss Darsi kelgan kunning ertasiga kelishsa kerak, deb faraz qilayotgandi. Shuning uchun u o'sha kun-ning birinchi yarmida mehmonxonada bo'lib turish-ga qaror qildi. Lekin uning o'ylagani bo'lmadi – mister Darsi singlisi Pemberliga kelgan kunning o'zidayoq ularni ko'rishga keldi. Yangi do'stlari bilan tevarak-at-rofni aylanib kelib, kiyim almashtirish va ovqatlanib olish uchun mehmonxonaga qaytib kelgan Gardiner-lar va Elizabet ko'chadan ekipaj shovqinini eshitishdi va derazadan qarab, ichida yigit va qiz o'tirgan ochiq fayton yaqinlashganini ko'rishdi. Elizabet kelganlar kim ekanligini darrov sezib, ularni hozir qanday iz-zat-ikrom kutayotganini aytib, Gardinerlarni hayron

qoldirdi. Qizning yuzidagi xijolat ifodasi, aytayotgan yangiligi, bir kun oldingi voqealar Gardinerlarni hamma narsaga boshqacha ko'z bilan qarashga majbur qildi. Oldin bunday faraz hatto bo'lishi mumkin bo'lmagan bo'lsa, ular hozir o'zlariga bo'layotgan bunday e'tiborning sababchisi mister Darsining Elizabetga moyilligidan boshqa narsa emasligini tushunib qolishdi. Ularning bu taxminlari hali mustahkamlanib ulgurmasdan, qiz battarroq sarosimaga tusha boshladi: bunchalik asabiylashayotganidan o'zi ham hayron edi. Elizabet yigit singlisiga o'zini juda ham maqtab yubormaganmikan, deb qo'rqa boshlagan edi. U chindan ham, mehmonlarni iloji boricha iliq kutib olaman deb qaytaga buzib qo'ymaymanmi, deb qo'rqayotgan edi. Ko'chadan ko'rib qolmasliklari uchun derazaning oldidan qochar ekan, xonaning u boshidan bu boshiga yurib, o'zini bosib olmoqchi bo'ldi. Lekin tog'asi va xolasining unga hayron bo'lib qarab turishlaridan battar sarosimaga tusha boshladi.

Xonaga miss Darsi bilan akasi kirib kelishdi va nihoyat, shunchalik qo'rquv bilan kutilgan tanishuv amalga oshdi. Elizabet yangi tanishining o'zidan ham battar sarosimadaligini payqab, ajablandi. Lemtondalik vaqtida miss Darsining o'ta mag'rurligi to'g'risida ko'p eshitgan edi. Uning o'ta uyatchanligini bilish uchun Elizabetga bir necha daqiqa kifoya qildi. U qizni gapirtirish uchun shuncha harakat qilib, undan bir nechtagina so'z eshita oldi, xolos.

Miss Darsi baland bo'lyi, Elizabetdan ham balandroq edi. Endigina o'n oltiga chiqqaniga qaramay, ayni balog'at yoshidagi latofatli qiz edi. Uning yuz bichimlari akasinikidek emas edi, lekin ko'rinishi va o'zini tutishlari qizning aqli, ko'ngilchanligi va odobliligidan darak berardi. Qizning ham akasiga o'xshab o'tkir hamda inson tabiatini kuzatishni yaxshi ko'radigan bo'lsa kerak, deb gumon qilayotgan Elizabet aka-singilning bir-birlariga mutlaqo o'xshamasliklarini sezdi.

Oradan bir muncha vaqt o'tib, mister Darsi ularni ko'rgani mister Bingli ham kelganini aytdi. Qiz o'z roziligini aytishga ulgurmay, zinada qadam tovushlari eshitilib, xonaga yigitning o'zi kirib keldi. Elizabetning Bingliga nisbatan alamlari allaqachon o'tib ketgandi. Agar bu alamning zarrachasi qolganda ham, yigitning yuzidagi ifodadan uning bu uchrashuvdan qanday xursandligini ko'rib, o'sha zarracha alam ham yo'qolgan bo'lardi. Bingli qarindoshlardan hech kimning ismini aytmagan holda, sog'liqlari bilan qiziqdi. U Xartfordshirda o'zini qanday tutgan bo'lsa, hozir undan ham samimiyroq va ochiqko'ngillik bilan gaplashdi.

Mister Bingli Gardinerlarda katta qiziqish uyg'otdi – uni anchadan beri ko'rishni xohlashayotgandi. Ikkalasi ham kelgan mehmonlarga qiziqib qarab turishardi. Yaqinginda mister Darsining o'z jiyanlariga bo'lgan munosabati haqidagi shubhalari endi ikkala yigitni ham diqqat bilan kuzatishga undardi. Bu kuzatuvlari mister Darsining Elizabetda ko'ngli borligiga ularni aniq ishontirdi. Jiyanlarining yigitga nisbatan qarashlariga hali to'liq ishonishmagan, lekin yigitning unga sajda qilishga tayyor ekanligi yaqqol sezilib turardi.

O'z navbatida Elizabet ham juda band edi: u mehmonlarning nima to'g'risida o'ylayotganlarini seza bilishi, o'zining o'y-xayollarini tartibga solib olishi va atrof-dagilarga yaxshi ko'rinishga harakat qilishi kerak edi. Uni eng sarosimaga solayotgan narsa o'sha oxirgisi bo'lsa ham, bu borada u xotirjam bo'lishi mumkin edi, chunki u yoqishga harakat qilayotgan odamlar unga xayrixoh edilar. Bingli uni yaxshi deyishga tayyor edi, Jorjiana – niyatlari xolis, Darsi esa – qiz haqida eng yaxshi xulosa chiqarishga qattiq kirishgan edi.

Binglini ko'rgan paytda Elizabetning xayoli Jeynga qarab ketdi. U Bingli ham shuni o'ylayotganmikan, deb qiziqardi. Qizga u avvalgidan kamroq gapiradigan bo'lib qolganga o'xshab ko'rindi, bir-ikki marta esa

yigit o'zining yuzidan xuddi Jeynga o'xshash joylarni qidirayotgandek tuyuldi. Bu narsalar uning tasavvuri-ning natijasi, deb qaralgan holda ham, yigitning miss Darsiga munosabati bir paytlar uni Jeynga raqiba, deb Elizabetga aytganlaridek emas edi. Qiz na yigit va na miss Darsida bir-birlariga intilishga o'xshagan tuyg'uni sezgani yo'q. Miss Bingli aytganlarini tasdiqlaydigan hech qanday gap yo'q edi va biroz o'tib, bu borada Elizabetning ko'ngli xotirjam bo'ldi. Qaytaga yigitning o'zini tutishidan u Jeynni yodidan chiqarmaganini, agar jasorati yetganda, u haqda gapirgan bo'lishi mumkinligi shunday sezilib turardi. Hammalari gap bilan band bo'lib turishganda, Bingli chuqur xo'rsinish bilan dedi:

– Sizlar bilan ko'rishganimdan beri qancha vaqt o'tdi! – Elizabet hali javob berishga ulgurmay, qo'shib qo'ydi: – Sakkiz oydan oshiqroq! Axir, yigirma oltinchi noyabr, Nezerfildda raqs tushganimizdan beri ko'rishganimiz yo'q!

Elizabet yigitning bu kunni aniq sanasigacha eslab qolganiga e'tibor berdi. Biroz vaqt o'tgach, yigit paytini topib, hech kimga sezdirmay qizdan opa-singillari hammasi hali ham Longborndaligini so'radi. Uning bu savoli ham, oldingi gaplari ham ko'p narsani anglatmasdi, lekin yigitning bu gaplarni aytayotganda yuzidagi ifodasi va o'zini tutishi ko'p narsani bildirardi.

Elizabet mister Darsi tomonga zo'rg'a ko'z tashlab qo'yardi. Lekin har safar ko'zi tushganda yigitning yuzida ochiqko'ngillik ufurib turgan ifodani ko'rardi. Nima demasin, qanday harakat qilmasin, unda gerdayish yoki manmanlik ishoralari sezilmasdi. Bu qizning kecha, «o'zini tutishlari yaxshi tomonga o'zgarib qolibdi», deb xayoliga kelgan fikrning, balki bu qisqa vaqtga bo'lgan taqdirda ham, bir kundan ortiqroqqa cho'zila-yotganining isboti edi. Yigitning bir necha oygina bu-run gaplashishni o'zi uchun past ketish deb hisoblaydigan odamlarga yoqish uchun qilayotgan harakatini

ko'rib, nafaqat o'ziga mulozamatli bo'lishga, balki uning (yaqinida o'zi qanday nafrat bilan qaragani) qarindoshlariga ham benihoya hurmat bilan qarayotganini sezib va ikkalovining Xansfordda bo'lib o'tgan suhbatlarini eslab, yigitning tabiatida yuz bergan chuqur o'zgarishlarni ko'rib, Elizabet baland ovozda o'z hayratini ifodalashdan o'zini zo'rg'a ushlab turardi. Mister Darsi na Nezerfildda – o'zining qadrdon do'stlarining ichida, na Rozingsdagi o'zining oliy tabaqadagi qarindoshlarining oldida o'z suhbatdoshiga hozirgichalik yoqishga harakat qilmagandi. Ayni vaqtda shunday sharoit edi, uning bunchalik harakat qilishining hojati ham yo'q edi, lekin hozir shunchalik e'tibor berayotgan odamlari bilan tanish bo'lishining o'ziyoq uni Nezerfild yoki Rozingsdagi ayollar oldida kulgiga qo'yishi mumkin edi.

Mehmonlar ular bilan yarim soatlar davomida birga o'tirishdi. Ketish oldidan, Darsi tanishlarini bu yerdan ketgunlariga qadar Pemberliga mehmonga chaqirmoqchi bo'lishganini singlisining yodiga soldi. Bekalik qilishni hali o'rganmagan miss Darsi ularni chin dildan uylariga taklif qildi. Missis Gardiner, birinchi o'rinda o'ziga qaratilgan bu taklifga qanday qararkan deb, Elizabetga ko'z tashladi. Lekin bu payt Elizabet teskari qaradi, uning bu qiligi javobdan qochish emas, balki qizning xijolatda ekanidan edi. Buni to'g'ri tushungan missis Gardiner yangi tanishlaridan boshi osmonga yetgan erining bu taklifni albatta qabul qilishini sezib, rozilik berishni o'z zimmasiga oldi. Pemberliga ertadan keyin borishga kelishib olindi.

Miss Bennet bilan yana uchrashish, u bilan xartfordshirlik do'stlari haqida yana ko'proq gaplashish imkoni tug'ilganidan mister Binglining boshi osmonda edi. Buni ko'rgan Elizabet esa, u Jeyn to'g'risida so'ramoqchi, deb umid qilardi. Mehmonlar ketgandan keyin qiz vaqtimiz (o'zi uchun nihoyatda og'ir bo'lgan bo'lsa-da) bekorga ketmadi, deb xursand bo'ldi. Mister

Gardinerlarning berib qolishi mumkin bo'lgan savollardan qochib va yolg'iz qolgisi kelib, shosha-pisha ularning savollariga qisqagina javob berdi-da, kiyin-gani o'z xonasiga kirib ketdi.

Lekin na mister va na missis Gardiner qizga sinch-kov savollar berishmoqchi emasdi. Ular qizni hamma gapni ochib tashlashga majbur qilishdan yiroq edilar. Jiyanlarining mister Darsi bilan ulardan ko'ra ko'proq tanish ekanligi ko'rinib turardi. Yigitning qizni jiddiy sevib qolgani esa yaqqol ko'rinib turardi.

Endi mister Darsi to'g'risida ijobiy narsalarni o'ylash kerak edi. Hozircha, ular tanishganlaridan beri yigit tomonidan hech qanday kamchilikni sezishgani yo'q. Yigitning samimiyligidan ular xursand edilar. Ular o'z ko'zlari bilan ko'rganlaridan kelib chiqib yoki uy bosh-qaruvchisining so'zlaridan kelib chiqib, yigitning qan-dayligini tasvirlashadigan bo'lsa, xartfordshirliklar bu tasvirdagi yigitda o'zlari bilgan yigitni tanimas edilar. Gardinerlar missis Reynoldsga ishongilari kelayotgan edi. Va ular o'z xo'jayinini to'rt yoshidan beri biladi-gan va ishonsa bo'ladigan xizmatkorning guvohligini shoshilib yo'qqa chiqarib bo'lmaydi, degan xulosaga kelishdi. Bu yerda orttirgan do'stlari ham mister Dar-si to'g'risida hech qanday yomon fikrlarni aytishma-di. Mister Darsini faqat mag'rurlikda ayblash mum-kin edi. Balki rostdan ham mag'rurdir. Lekin bun-day bo'lmaganda ham, yigitning yaqin do'stlari ko'p bo'lmagan bu shaharchaning odamlari unga bunday yorliqni o'zlari yopishtirishlari mumkin edi. Shu bilan birga, uni nochor ahvolda qolganlarga yordam qo'lini cho'zadigan saxiy odam, deb ham izohlashdi.

Uikxemga kelganda esa sayohatchilar bu yerda uning hech qanday obro'si yo'qligining guvohi bo'lish-di. Odamlar Uikxemning mister Darsi bilan mojarolarini to'g'risida har xil gaplarni gapirishgan bo'lsa-da, yigitning Derbishirdan jo'nab ketayotib, ko'pchilikdan

qarz olgani va bu qarzlarni keyinchalik mister Darsi uzganini ham bilishdi.

Elizabetning xayoli bu kun kechqurun oldingi kundan dagidan ham ko'proq Pemberli bilan band edi. Qizga vaqt juda sekin o'tayotgandek tuyulsa-da, u Pemberlining egasiga nisbatan o'zining tuyg'ularini aniqlay olmayotgan edi. U fikrlarini bir joyga jamlashga harakat qilib, ikki soatcha uxlay olmadi. Ayni kezda yigitga nisbatan hech qanday nafratni his qilmas edi. Nafrat bir necha oylar oldin yo'qolib bo'lgan edi. Yana bir necha vaqt o'zi nafrat deb hisoblagani, aslida esa yigitga nisbatan noto'g'ri fikrda bo'lgani uchun uyali yurdi. Yigitning ijobiy xislatlariga nisbatan paydo bo'lgan hurmat hissi endi uning ko'nglidagi tuyg'ularga zid emas edi. Yigitning shu oxirgi ikki kun ichida o'zini tutishi ham uni qizning ko'zi oldida yuqoriga olib chiqib qo'ydi. Lekin Elizabetning yuragida Darsiga bo'lgan hurmat va tahsindan ham qattiqroq bir ovoz gapirardiki, unga quloq solmaslikning iloji yo'q edi. Bu minnatdorlik tuyg'usi edi. Yigitning oldingi his-tuyg'ulari uchun emas, qizning uning sevgi izhorini rad qilib, bunga javoban adolatsiz va berahmlarcha qilgan ayblovlariga qaramay, uni shu paytgacha sevishda davom etgani uchun minnatdorlik tuyg'usi edi. Qizning fikricha, yigit ularni uchratib qolganda ashaddiy dushmandan qochganday qochish o'rniga, tanishliklarini davom ettirish uchun qo'ldan kelgan narsani qilyapti. O'zining qizga munosabatini ko'z-ko'z qilmagan holda va o'z yurish-turishini ham bejab ko'rsatmay, qizning qarindoshlarida o'ziga nisbatan yaxshi munosabatni uyg'otishga harakat qildi va singlisini u bilan yaqinlashtirishga urinyapti. Shunchalik mag'rur odamdagi bunday o'zgarish odamni nafaqat ajablantirardi, balki minnatdorchilik tuyg'ularini ham uyg'otardi, chunki insonda bunday o'zgarishlarning so-dir bo'lishining sababi muhabbat, qaynoq muhabbat bo'lishi kerak. Bu muhabbat esa Elizabet qalbida, hali

nimaligi noma'lum, lekin rivojlanishi kutilayotgan yoqimli bir hisni uyg'otayotgan edi. Qiz bu insonni hurmat qilayotgan, qadriga yetayotgan edi, undan minnatdor edi va unga ulkan baxt tilayotgan edi. Qiz uchun hozir o'zi tushunib olishi muhim bo'lgan narsa, hayotini yigitniki bilan bog'lashni xohlaydimi, agar hozirda uning qo'lida bo'lib turgan jilovdan foydalanib, yigitni yana o'z roziligini so'rashga majbur qiladigan bo'lsa, to'g'ri qilgan bo'ladimi yoki yo'qmi, degan fikrlar edi.

O'sha kuni kechquruning o'zida xola-jiyan miss Darsi Pemberliga kelgan kunning o'zidayoq ularga ko'rsatgan izzat-hurmatga yarasha javob qaytarish uchun ertasi kuni ertalab ularnikiga javob tashrifi bilan borishga kelishib olishdi. Demak, ertaga Pemberliga borishadi. Elizabet, sababini o'zi tushunmagan holda, juda xursand edi.

Mister Gardiner nonushtadan so'ng bir o'zi chiqib ketdi. Uning kechagi kuni yana baliq oviga taklif etilgani tushlikkacha bir nechta tanishlar bilan uchrashishini taqozo qilardi.

III bob

Miss Binglining o'ziga g'ashi kelishi rashkdan ekanligini yaxshi tushungan Elizabet, u o'zini endi Pemberlida ko'radigan bo'lsa, qay ahvolga tushishini tasavvur qilayotgan edi. Shuning uchun yana ko'rishganlarida, miss Bingli o'zini odob doirasida tutib tura olarmikan, degan fikr qizni qiziqtirayotgandi.

Pemberliga yetib kelishganida ularni derazalari shimolga qaragan, yozning issiq kunlarida ham salqingina bo'ladigan mehmonxonaga taklif qilishdi. Xona derazalaridan quyuq o'rmon qoplagan balandliklar, uy oldida ko'm-ko'k bo'lib o'sib yotgan o'tloq, baland eman daraxtlari va ispan kashtanlari ko'rinib turardi.

Bu xonada ularni miss Darsi, missis Xyorst, miss Bingli va miss Darsi bilan Londonda birga yashagan ayollar kutib olishdi. Jorjiana ular bilan xursand holda ko'rishdi. Lekin o'ta uyatchanligi va biror xato qilib qo'yishdan qo'rqayotgani uchun qizning harakatlari-da erkinlik yetishmas, bu esa atrofdagilarga go'yo u o'zini osmonda tutayotgandek bo'lib tuyulardi. Missis Gardiner bilan jiyan qizning ahvolini juda yaxshi tushunib turishgani uchun unga hamdardlik bilan qarab turishardi.

Missis Xyorst va miss Bingli mehmonlarga yengilgina ta'zim qilib qo'ya qolishdi. Hammalari o'tirishgach, odatda shunday paytda bo'ladigan jimlik cho'kdi. Bu jimlikni ko'rinishidan xushro'ygina bo'lgan missis Ensli buzib, suhbatni boshlab berdi va o'zining har xil mavzudagi gaplari bilan bu yerdagilar ichida eng yaxshi suhbatdosh ekanligini ko'rsatdi. Bu ayol va missis Gardiner bilan bo'lgan suhbatga vaqti-vaqti bilan Elizabet ham qo'shilib turdi. Miss Darsining yuzidan uning ham suhbatga juda aralashgisi kelayotgani sezilib turardi. Uni birortasi eshitib qolishi gumonligiga ishongan zahoti, qiz bir-ikki og'iz gap qo'shib qo'yardi.

Biroz o'tirishgach, Elizabet miss Bingli o'zini diqqat bilan kuzatib o'tirganini, ayniqsa, miss Darsiga gapirganida har bir so'ziga e'tibor berayotganini sezib qoldi. Shunga qaramay, u agar yaqinroq o'tirganida Jorjiana bilan ko'proq gaplashmoqchi edi. Boshqa tomondan esa, o'z xayollari bilan bo'lib, ko'p gapirishi shart emasligidan xursand ham edi. Har daqiqada erkaklarning kirib kelishi kutilayotgandi. Qiz bir paytning o'zida uy egasining ham ular bilan birga kirishini ham xohlar, ham xohlamas, xohishidan qaysi biri kuchliroq ekanini o'zi ham tushunmasdi. O'tirganlariga o'n besh daqiqalar bo'lganda, Elizabetga shu paytgacha biror og'iz so'z qotmagan miss Bingli, undan qarindoshlari sog'-omonligini so'radi. Savol qanchalik qisqa va sipo-

lik bilan berilgan bo'lsa, Elizabet ham unga xuddi shu tarzda javob qaytardi.

O'rtadagi noqulaylikni yaxna go'sht, shirinliklar va yilning shu fasliga xos bo'lgan turli-tuman ho'l mevalar olib kirayotgan xizmatkorning paydo bo'lishi buzardi. Missis Ensli ko'z qiri bilan uyning yosh bekasiga o'zining majburiyatlarini eslatib turdi. Endi hamma uchun mashg'ulot bor bo'lib, suhbatlashishni hamma eplolmasa ham, ovqat yeyish hammaning qo'lidan kelar edi. Tabiat mo'jizasidek tuyulgan katta-katta shaftoli, uzum va olxo'rilar hammaning diqqatini o'ziga tortdi.

Ushbu daqiqalarda Elizabetning boshida birgina xayol aylanar edi: u mister Darsini xonaga kirishini xohlayaptimi yoki yo'qmi? Yigitning xonada paydo bo'lishiga bir daqiqagina qolganda, xohlayapman, deb o'yladi. Yigit kirib kelganda esa buni hech ham istamayotganga o'xshadi.

Mister Darsi esa bu vaqtgacha bir nechta shu yerlik erkaklar bilan baliq ovlagani borgan mister Gardiner bilan birga edi. Mister Gardinerdan xotini va jiyanining ularnikiga ketganini eshitib, yigit uyiga shoshildi. Mister Darsi xonada paydo bo'lishi bilan, Elizabet, o'zimni uning oldida bemalol tutishim kerak, degan xulosaga keldi. Hammaning ularga shubha bilan qarayotgani, yigitning har bir qadami sinalayotgani hisobga olinadigan bo'lsa, qizning qarori bajarish qiyin bo'lsa-da, to'g'ri edi. Lekin hech kimning qiziqishi, miss Binglinikidek yuzidan – har safar Elizabet yoki Darsi bilan gaplashayotganida jilmayishdan o'zini tiya olmayotgan bo'lsa-da – shunday ochiqchasiga ko'rinib turmayotgandi. Qizning rashki hali uning umidlarini yo'qqa chiqarmagan va Pemberlining egasiga bo'lgan qiziqishi ham susaymagan edi. Miss Darsi akasi kirib kelgandan so'ng suhbatga ko'proq aralashishga harakat qildi, Elizabet yigitning o'zini singlisi bilan yaqinroqdan tanishtirgisi kelayotganini, buning uchun ularning suhbatga

kirishib ketishlariga harakat qilayotganini sezib turardi. Bu narsa miss Binglining ham nazaridan chetda qolmadi va odatda asabiylashayotgan odamlar qiladigandek, istehzo bilan so'radi:

– Aytgancha, miss Eliza, ...shir polkining Meritondan ketgani rostmi? Bu sizlarning oilangiz uchun haqiqiy falokat bo'lgan bo'lsa kerag-a?

Darsining oldida u Uikxem nomini tilga olishga botina olmadi. Lekin Elizabet qizning ayni uni ko'zda tutayotganini darrov tushundi va yigit bilan bog'liq og'riqli voqealar yodiga tushib, ko'ngli g'ashlandi. Miss Binglining savoliga shunga yarasha javob berishga tayyor bo'lsa-da, o'zini bosib olib, loqaydlik bilan javob qaytardi. Shu payt qizning ko'zlari tasodifan qizarib ketgan Darsining unga tikilib turganiga va uyalganidan yerga qarab turgan Jorjianaga tushdi. O'zining bu gapi bilan qadrdon dugonasiga qanday azob berishini bilganida edi, miss Bingli aslo bu savolni bermagan bo'lar, lekin uning fikricha, Uikxemga ko'ngli bo'lgan Elizabetni chaqib olgisi kelayotgandi. Bu bilan Elizabetga uning qarindoshlarining bu polk bilan bo'lgan bordi-keldi gaplarni yodiga solib qo'yib, qizni mister Darsining oldida yerga urmoqchi bo'layotgandi. Miss Darsining Uikxem bilan qochib ketmoqchi bo'lgani to'g'risidagi voqeani u eshitmagan edi – buni Elizabetdan boshqa kimsa bilmasdi. Bu voqea, ayniqsa, Binglilar oilasidan sir tutilar ediki, Darsining Binglilar bilan qarindosh bo'lib qolish istagi borligini Elizabet sezgan edi. Bir paytlar chindan ham Darsida shunday fikr bo'lgan va mister Bingli bilan Jeynni bir-birlaridan ajratib yuborishdan maqsadi atay shuning uchun bo'lmasa-da, u do'stining baxti uchun harakat qilgandi.

Elizabetning o'zini tuta olishi Darsining xavotirini tarqatib yubordi. Hafsalasi pir bo'lgan miss Bingli yana Uikxemni tilga olishga jur'ati yetmadi, bu orada Jorjiana ham o'ziga kelib olgan bo'lsa-da, suhbatda

ishtirok etishga endi yuragi dov bermayotgandi. Miss Bingli Darsi bilan ko'zlari to'qnash kelib qolishidan qochayotgan, yigit esa uning dardi nimaligini xayoliga ham keltirmas edi. Miss Binglining nazarida yigitni Elizabetdan nari itarishi kerak bo'lgan bahona, aksincha, uning qiz haqida yanada mehr bilan o'ylashiga sabab bo'lgan edi.

Oradan biroz o'tib, mehmonlar jo'nab ketishdi. Mister Darsi ularni kuzatgani chiqib ketganda, Kerolayn Elizabet Bennetning ko'rinishini, o'zini tutishini, kiygan ko'ylagigacha gapirib, alamdand chiqib oldi. Lekin Jorjiana uning gaplariga qo'shilmadi. Xohlagan birovni yaxshi ko'rib, hurmat qilishi uchun unga akasining tavsiyasi yetarli edi. Akasi yanglishishi mumkin emasdi, u Elizabetni shunchalik mehr bilan ta'riflagan ediki, Jorjiana qizning chiroyli va kelishganligini darrov tan oldi. Darsi mehmonxonaga qaytib kelganda, miss Bingli hozirgina opasiga aytgan gaplarini Darsiga ham qaytardi.

– Mister Darsi, bugun Elizabet Bennetning ko'rinishi juda yomon edi-a? – xitob qildi qiz. – Men shu paytgacha odam yarim yilda shunchalar o'zgarib ketganini ko'rmaganman! Juda xunuk bo'lib ketibdi! Agar uni ko'chada ko'rib qolsak, sira ham tanimasdik!

Miss Binglining bu gaplari Darsiga yoqmagan bo'lsa-da, u qisqagina qilib Elizabetning yozda sayohat qilgani sabab biroz qorayganini aytmasa, hech qanday o'zgarish sezmagani aytdi.

– Ochig'ini aytsam, – gapida davom etdi miss Bingli, – men hech qachon bu qizda biror-bir chiroyli ko'rmaganman. Yuzi juda cho'zinchoq, rangi qoracha, yuz bichimi ham yoqimsiz. Burni-chi, burni – oddiygina. Lablariga chidasa bo'ladi, lekin u ham hamma qatori. Uning ko'zlarida esa – kimdir uni bir paytlar chiroyli deganmidi? – biror-bir odamni o'ziga tortadigan jihathatni ko'rgan emasman. Uning odamni yeb qo'ygudek

sinchkov qarashini biram yoqtirmayman. Turishidan o'ziga bino qo'ygani shundoq sezilib turadi!

Miss Bingli Elizabet mister Darsiga yoqayotganini sezar va bu turdagi gaplari bilan o'zi albatta yigitga yoqmasligi turgan gapligini juda yaxshi tushunar edi. Lekin jahl kelganda aql ketadi, degan gap rostligi shu o'rinda to'g'ri keladi. Yigit yuzidagi jahlning alomati qizning Elizabet haqidagi gaplari natijasi edi. Lekin yigit jim edi. Uni gapga chorlab, qiz gapida davom etdi:

– Birinchi marta uni Xartfordshirda uchratganimizda, hammamizning ko'zimizga chiroyli bo'lib ko'ringani yodimda. Bennetlar Nezerfildda biz bilan ovqatlanishganda siz aytgan gaplar shunday qulog'imning tagida turibdi: «Shu qiz chiroylimi? Men qaytaga uning onasini odamlarning joni dili degan bo'lardim!» Keyinchalik, u sizga yoqa boshladi shekilli – bir paytlar uni hatto ko'hlikkina ham degandingiz.

– Ha, – dedi axiri sabr kosasi to'lgan Darsi. – Tanishgan paytimizning boshida shunday degandim. Lekin oradan shuncha oy o'tgandan so'ng, uning men uchratgan ayollarim ichida eng chiroyligi ekanligiga tan berdim.

Shu gaplarni aytar ekan, miss Binglining o'zi sug'urib olgan iqrori bilan qizning yuragini yaralab, yigit xonadan chiqib ketdi.

Uyga qaytishayotganda missis Gardiner va Elizabet bo'lib o'tgan mehmondorchilikning hamma ikir-chikirini muhokama qilishdi. Faqat ikkalasini qiziqtirib turgan mavzuda og'iz ochishmadi. U yerda yig'ilganlarning o'zini tutishi, kiyinish uslubini gapirib o'tishdi, uning singlisi, do'stlari haqida, uyi, mehmondorchilik haqida, hamma-hamma narsa to'g'risida gapirishdi. Faqat yigitning o'zi haqida og'iz ochishmadi. Shu bilan birga, Elizabet xolasining mister Darsi haqidagi fikrini bilishni istar, missis Gardiner esa qizning o'zi yigit haqida gap boshlashini kutayotgandi.

IV bob

Lemtonga qaytishganda Jeyndan hali ham xat yo'qligini ko'rib, Elizabetning hafsalasi pir bo'ldi. Ertasi, undan keyingi kuni ham xat bo'lmadi. Nihoyat, to'rtinchi kuni ertalab opasidan xat keldi. Elizabetga birvarakayiga ikkita xat kelgan bo'lib, birida xatning noto'g'ri manzilga yuborilganini bildiruvchi muhr bor edi. Buning hayron qoladigan joyi yo'q edi, chunki konvert ustidagi Jeynning dastxatini tushunish juda qiyin edi.

Xat olib kelingan paytda Elizabet endigina Gardinerlar bilan aylangani chiqib ketayotgan edi. Ular qizni yolg'iz qoldirib, o'zlari chiqib ketishdi. Elizabet birinchi bo'lib besh kun burun yozilgan, yo'lda yo'qolgan xatni o'qiy boshladi. Xatning boshi odatdagi gaplar, mehmondorchiliklar, yon-atrofdagilar haqida edi. Xatning davomiga esa ertasi kungi sana qo'yilib, shoshilib yozilgani ko'rinib turardi, mazmuni esa quyidagicha edi:

«Azizam Lizzi, bu kutilmagan va jiddiy hodisa yuz berganda xatning boshini yozib qo'ygan edim. Lekin qo'rqib ketma – biz hammamiz sog'miz. Senga aytmoqchi bo'layotgan yangiligim bechora Lidiya haqida. Kecha kechasi, biz endigina uyquga yotay degan paytda Londondan polkovnik Forster xat berib jo'natgan chopar kelib qoldi. Xatda yozilishicha, Lidiya zobitlardan biri... qisqasi Uikxem bilan Shotlandiyaga ketib qolibdi! Bizning ahvolimizni ko'z oldingga keltiraver. Lekin bu gap Kitti uchun kutilmagan yangilik bo'lmadi. Men o'zimda yo'q xafaman. Ikkalasi uchun ham to'g'ri kelmaydigan nikoh! Men juda yomon tomonini o'ylagim kelmayapti, balki bu bechora yigit haqida odamlar aytgan gaplar yolg'ondir! Uning o'ylamay ish qilishi va yengiltabiat ekanligiga ishonaman. Lekin bu qilig'i uchun uni yomonotliqqa chiqarish mumkin emas. Chunki juda bo'lmaganda, uning bu qilig'ida o'z manfaatini o'ylash yo'q – otamiz unga hech vaqo bera olmasligi-

ni juda yaxshi biladi-ku! Bechora onam nima qilishni bilmayapti. Otamiz biroz tuzuk. Yaxshiyam, Uikxem to'g'risida eshitganlarimizni ularga aytmagan ekanmiz! U gaplarni endi o'zimiz ham esdan chiqarib yuborishimiz kerak. Taxmin qilishlaricha, ular shanba kuni yarim kechasi ketishgan, ularning yo'qligini esa kecha ertalab soat sakkizda bilib qolishgan. O'sha zahotiyog chopar yuborilgan. Lizzi, azizam, ular uyimizdan atigi o'n mil naridan o'tib ketishgan! Xatiga qaraganda, polkovnik Forster yaqin orada bu yerda bo'lsa kerak, deb umid qilyapmiz. Lidiya o'zlarining rejaları haqida qisqagina xat yozib polkovnikning xotinida qoldiribdi. Boshqa yoza olmayman – onam bechorani yolg'iz qoldirib bo'lmayapti. Senga hammasini tushunib olish qiyin bo'lsa kerak – nimalar yozganimni o'zim ham tushunmayapman».

Hech narsani o'ylab o'tirmay, Elizabet birinchi xatni o'qib bo'lishi bilan ikkinchisini ochib, quyidagilarni o'qidi (bu xat oldingisidan bir kun o'tib yozilgandi):

«Aziz singlim, bu paytga kelib men kecha shoshi-
linchda yozib yuborgan xatimni olgan bo'lsang kerak. Bu xatim tushunarliroq bo'lishiga harakat qilaman, lekin boshimda ming xil xayol borligidan buning uddasidan chiqamanmi yoki yo'qmi, bilmadim. Lizzi, azizam, qanday yozishni bilmayapman, lekin bu yerda yomon gaplar ham bor va men senga ularni yetkazishim shart. Mister Uikxem bilan bechora Lidiyamizning nikohi o'xshamagan narsa bo'lsa ham, ayni paytda biz bu nikohning bo'lishiga ishonishni xohlardik. Chunki ular Shotlandiyaga umuman bormagan, degan gaplar yuribdi. Chopar kelib ketganidan bir necha soat o'tib, biznikiga polkovnik Forsterning o'zi keldi. Lidiyaning missis Forsterga yozib yuborgan xatiga qaraganda ular Gretna-Gringa ketishgan bo'lishi kerak edi. Lekin mister Denni kimgadir Uikxemning umuman Lidiya-

ga uylanish niyati bo'lmaganini aytgan ekan. Bu gap polkovnik Forsterga yetib kelgan va u o'sha zahoti vahima qilib, ularning qayoqqa yo'l olganlarini bilish uchun Braytondan jo'nab ketgan. U yoshlarning izidan Klepxemgacha to'g'ri borgan, lekin u yerda izini yo'qotgan. Chunki ular shu yerda karetdan tushib, izvoshchi yollashgan. Bundan so'ng ularning London tomonga yo'l olishganigina ma'lum. Nima o'ylashni ham bilmayman. Polkovnik Forster Londonning bu tomonida uchragan har bir shlagbaum oldida va mehmonxonalardan surishtirib, Xartfordshirgacha kelgan, lekin hech qanday natija chiqmagan – qochoqlarni hech kim ko'rmagan. U Longbornga juda ham asabiylashgan holda keldi va bizga o'zining juda xavotirda ekanini aytdi. Mening polkovnik Forsterga ham, missis Forsterga ham hech qanday ginam yo'q – ularning hech qanday ayblari yo'q. Lizzi, azizam, hammamiz juda yomon ahvoldamiz. Otam bilan onam eng yomon oqibatni kutishayapti, lekin men mister Uikxem haqida yomon o'ylagim kelmayapti. Balki Londonda hammadan yashirin nikoh o'qitish uchun ularning jiddiy sabablari bordir. Agar yigit yaxshi oilaning qizini boshini aylantirmoqchi bo'lgan, deb o'ylasak, Lidiya ham shu darajada aqlini yeb qo'ygan bo'lishi mumkinmi? Bo'lishi mumkin emas! Polkovnik Forster ularning nikoh o'qitgan bo'lishlariga juda ham ishonmayapti. Men unga o'zim umid qilayotgan fikrlarimni aytganimda, u mister Uikxemning ishonib bo'ladigan odamligiga shubha qilishini aytdi. Bechora onamning juda mazasi yo'q, hatto xonasidan ham chiqmayapti. Agar biroz o'zini qo'lga olsa, osonroq bo'lardi, lekin buning iloji yo'q. Otamizga kelsak, men shu paytgacha uni bu ahvolda endi ko'rishim. Hamma bor gapni bilib turib yashirgani uchun Kittiga jahl qilyapti. Lekin u bechora ham o'ziga ishonib aytishgan gapni sotib qo'yishga haqi bormidi? Sen hozir bu voqealar ichida emasligingdan juda xursandman. Lekin

hozir, shuncha gap-so'zlar bo'lib o'tgandan so'ng, tezda qaytib kelishingni shunday xohlayapmanki! Lekin agar senga qiyin bo'lsa, qaytib kelishing shart emas.

P.S. Hozirgina aytgan gapimdan qaytib, sening tezroq yetib kelishingni aytish uchun yana qo'linga ruchka oldim. Lekin sharoit sizlarning iloji boricha tezroq qaytib kelishlaringni taqozo qilyapti. Men yuqoridagi gaplarni bemalol ayta olishim uchun tog'amlarni juda yaxshi bilaman va mening ularga alohida iltimosim bor. Otam hozir Lidiyani topib kelish uchun polkovnik Forster bilan Londonga jo'nab ketyapti. Qanaqa qilib topmoqchi, tasavvur ham qila olmayapman. Lekin uning hozir juda asabiyligini e'tiborga olsak, biror ishni aql bilan qila olishiga ham ko'zim yetmayapti, polkovnik esa ertaga kechqurun Braytonga qaytib ketishi kerak. Bu sharoitda tog'amiz maslahati va yordami ayni muddao bo'lgan bo'lardi. U mening ahvolimni darrov tushunadi va men ham uning yordam bera olishiga ishonaman».

Xatni o'qib bo'lishi bilan Elizabet o'rnidan sakrab turib ketdi:

– Qani, ular qani, tog'amni qayerdan topay?

Elizabet har daqiqani g'animat bilib, mister Gardinerni izlab ketmoqchi edi. Lekin u eshik oldiga kelganda eshik birdan ochilib, mister Darsi kirib keldi. Qizning oppoq oqarib ketgani va o'ziga qarab qadam tashlaganini ko'rib, yigit nima qilishni bilmay qoldi. U Elizabetga bir og'iz gap topib aytguncha, butun dardi-fikri hozir Lidiyada bo'lgan qiz unga qarab, dedi:

– Uzr, lekin men hozir ketishim kerak. Muhim bir ish yuzasidan hoziroq mister Gardinerni topishim kerak. Har daqiqa g'animat.

– Nima bo'ldi, menga ayta olasizmi? – odob-axloq qoidalaridan kelib chiqib, hamdardlik bilan so'radi yigit. Biroz o'tib, qo'shib qo'ydi: – Albatta, men sizni

ushlab qolishga haqqim yo'q. Lekin mister va missis Gardinerlarni topishni menga yoki xizmatchilardan biriga qo'yib bering. Sizning mazangiz bo'lmay qolishi mumkin, bir o'zingizni qo'yib yuborib bo'lmaydi.

Elizabet o'z gapida turib olmoqchi edi, lekin birdan oyoqlari bo'shashib ketganini sezib, chindan ham Gardinerlarni bir o'zi topa olishiga ko'zi yetmadi. Shuning uchun xizmatkorlardan birini chaqirdi-da, unga mister va missis Gardinerlarni topib, ularga tezda mehmonxonaga yetib kelishlarini aytishni buyurdi. Qiz hayajonlanganidan zo'rg'a-zo'rg'a gapirardi.

Xizmatkor chiqib ketgach, oyoqlarida kuch qolmagan Elizabet kresloga cho'kdi. Uning ko'rinishi shunchalik ayanchli ediki, Darsi uni tashlab chiqib ketishni nojoiz deb bildi va g'amxo'rlik bilan so'radi:

– Oqsochni chaqiraymi? Quvvat beradigan biror narsa ichib olishingiz kerak. Bir qadah vino quyib beraymi? Juda mazangiz yo'qqa o'xshaydi.

– Yo'q, yo'q, minnatdorman, – hayajonini zo'rg'a bosib, dedi qiz. – Menga hech narsa qilmadi. Men soppa-sog'man. Faqat hozirgina Longborndan kelgan yomon xabar meni izdan chiqazdi.

Bu gaplarni ayta turib, qiz o'zini yig'idan tiyib tura olmadi va ancha vaqtgacha gapira olmadi. Mister Darsi nima qilishni bilmay, qizga taskin berishga urinib nimalardir der va unga ayanch bilan termilib turar edi. Nihoyat, qiz yana gapira boshladi:

– Men hozirgina Jeyndan juda yomon xabar yozilgan xat oldim. Bu endi baribir hammaga ma'lum bo'ladi. Mening eng kichkina singlim qochib ketibdi... mister Uikxem bilan. Ular birga Braytondan jo'nab ketishibdi. Siz bu odamni juda yaxshi bilganingiz uchun ularning bu qiligi nimaligini juda yaxshi tushunasiz. Singlimning uni ushlab qolish uchun na puli, na tanish-bilishi – hech narsasi yo'q – u tamom bo'ldi.

Darsi hayronlikdan qotib qoldi.

– Axir, men buning oldini olishim mumkin edi-ku!
– battarroq hayajonlanib davom etdi Elizabet. – Men, uning qanaqaligini juda yaxshi bilgan odam! Mening u yigit haqida bilganlarimning ozginasini aytib qo'ysam bo'ldi edi. Uning qanday odamligini bilishsa, bu narsa ro'y bermagan bo'lardi. Endi hech nima qilishning iloji yo'q!

– Juda achinarli hol! Rosti, menga ham yomon ta'sir qildi. Lekin xuddi siz aytib berganingizdek bo'lganiga aminmisiz? Xatdagi hamma gaplar to'g'rimikan?

– Afsuski, ha! Ikkalasi Braytondan yakshanba kuni tunda chiqib ketishgan, Londongacha izlarini topishgan, lekin u yog'i noma'lum. Ularning Shotlandiyaga ketishmagani esa aniq.

– Nimalar qilinibdi? Singlingizni qaytarishga urinishibdimi?

– Otam Londonga ketibdi. Jeyn xatida tog'amning tezroq qaytishini so'rabdi. Lekin endi hech narsa qilib bo'lmasa kerak. Endi hech ish chiqmasligini men juda yaxshi tushunib turibman. Axir, bunday odamga ta'sir o'tkazib bo'ladimi? Hech bo'lmasa ular topilsa ham edi, lekin qanday qilib? Hech narsaga ishonmayapman. Shunchalik ham bo'ladimi?

Darsi uning gaplarini tasdiqlagandek, indamay boshini egdi.

– Axir, menga u haqda aytishgandi! O'sha paytda men bu narsaning oldini olishim *mumkinligini*, yo'q, yo'q, *kerakligini* bilganimda edi! Lekin men tushunmagandim-ku – chuqurlashib ketishidan qo'rqqandim! Tuzatib bo'lmaydigan, katta xato qildim!

Darsi uning gaplariga indamadi. Balki xonaning u boshidan bu boshiga yurar ekan, o'z o'y-xayollari bilan bo'lib, qizning gaplarini eshitmagandir ham. Uning peshonasida chuqur ajinlar paydo bo'lgan, kayfiyati juda yomon edi. Elizabet unga diqqat bilan qarab turib birdan hammasini tushundi: o'zining yigit ustidan

hokimligi tugadi. Nahotki, hammasi shunday oilaviy sharmandalik bilan tugasa, ko'rinib turgan nomus-sizlik bilan tugasa?! Qiz hech narsaga ajablanmadi, u yigitni hech narsada ayblay olmasdi. Lekin yigit o'z tuyg'ularidan ustun kelganini anglashdan unga hech qanday yengillik bo'lmayotgan edi. Bu bilan uning g'ami kamayib qolmagan edi. Aksincha, bu narsa unga o'zining yuragiga boqib ko'rishi uchun bir turtki edi. Ayni shu daqiqalarda, endi o'rtalarida sevgi to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin bo'lmagan daqiqalarda, yigitni qanchalik kuchli sevib qolishi mumkinligini hali biror marta ham hozirgidek aniq his qilmagandi.

Qiz xayolida yuqoridagi fikrlar paydo bo'lgan bo'lsa-da, ular ko'pga cho'zilmadi. Lidiya hammalari-ga yetkazgan tahqirlanish, g'am-alam hissi boshqa hissiyotlarni siqib chiqargandi. Dastro'molini yuziga bosgancha yig'layotgan Elizabet atrofdagilarni unut-gandek edi. Bir necha daqiqadan so'nggina, suhbat-doshining hamdardlik va sarosima bilan gapirayotgan gaplari qulog'iga kirdi:

– Siz ketishimni kutayotgan bo'lsangiz kerak. Men o'zimning befoyda bo'lsa-da, chin dildan o'z hamdard-ligimni aytnasam, bu yerda turishimga boshqa baho-na topa olmayman. Siz uchun biror nima qila olsam yoki sizning g'amingizni yengillatish uchun biror nar-sa deya olsam edi! Lekin sizdan minnatdorchilik talab qilgandek quruq so'zlarni gapirishimdan nima naf? Bu voqea sabab, endi singlim sizni Pemberlida ko'rish sharafiga muyassar bo'la olmaydimi?

– Albatta! Iltimos, miss Darsiga mening uzrimni aytib qo'ying. Unga shoshilinch ish chiqib qolib, biz-ning ketishimizga to'g'ri kelganini ayting. Iloji boricha undan bu voqeani yashiring. Men bilaman, bu ko'p davom etmasa kerak.

Yigit hozirjavoblik bilan sirni yashirishga va'da berdi, balki hammasi u o'ylaganchalik yomon emasdir, deb

umid bildirdi va qarindoshlariga undan salom aytishni so'rab, ko'zlari bilan xayrlashgancha, chiqib ketdi.

Yigit ketgach, Elizabetning xayoliga endi ular Derbishirda qanchalik yurakdan, samimiylik bilan uchrashgan bo'lsalar, boshqa bu hol takrorlanmasligi mumkinligi to'g'risidagi fikr keldi. U o'zining yigit bilan tanish bo'lgan, qarama-qarshiliklarga to'la bo'lgan davri mobayniga nazar solib, tuyg'ularning qanday o'zgarishi haqida o'ylab, xo'rsinib qo'ydi. Elizabetning bu tuyg'ulari yaqinida yigitni hayotidan o'chirib tashlashga qaratilgan bo'lsa, hozir bu do'stlikni yuragida saqlab qolishga qaratilgan edi.

Agar hurmat va minnatdorlik hislarini yuraklarni bir-biriga bog'laydigan rishta deb hisoblaydigan bo'lsak, Elizabet yuragida sodir bo'layotgan tuyg'ularning o'zgarishini bo'lishi mumkin bo'lmagan narsa yoki qalbaki deb bo'lmasdi. Nima bo'lganda ham Darsidan ayrilish uni og'ir xayollarga cho'mdirdi. Bu ayriliq singlisi bilan bo'lgan sharmandalik oqibatida ekanligi xayoliga kelganda, Lidiyaning qilmishi orqasidan yuragida paydo bo'lgan og'riq yanada kuchaydi. Jeynning ikkinchi xatini o'qiganidan so'ng u Uikxemning singlisiga uylanishi mumkinligi to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emasligiga amin bo'ldi. Uning fikricha, Jeyndan boshqa hech kim bu narsaning bo'lishi mumkinligiga ishonmasdi. Voqealarning rivoji yaqqol ko'rinib turardi. Hali ikkinchi xatni o'qimaganida u Uikxemning qanday qilib bir tiyini ham yo'q qizga uylanmoqchiligiga hayron bo'layotgan, Lidiyaning yigitni o'ziga qanday qilib shunchalik og'dirib olganiga aqli yetmayotgandi. Endi hammasi tushunarli. Bu taxlit sarguzasht ko'hlikkina singlisi uchun mos edi. Elizabet singlisining turmushga chiqishni hatto o'ylamagan holda, bilib turib qochgan bo'lishi mumkinligiga ishongisi kelmasa-da, Lidiyaning juda osonlik bilan uni yo'ldan urgan odamning qurboniga aylanishi mumkinligiga ham amin edi.

Uikxem xizmat qilgan polk Xartfordshirda ekanligida Elizabet Lidiyaning yigitga qiziqishini aslo sezmagan edi. Lekin u singlisining birorta yigit sal gap otsa ham o'shaning bo'yniga osilib olishini juda yaxshi bilardi. Mulozamatiga qarab goh u, goh bu zobit bilan gaplashardi. U intiladigan yigitlar doim o'zgarib turar, lekin yuragi hech bo'sh turmasdi. Mana shu qizga ishonib, uning qarovsiz qolishiga ruxsat berilibdi! Bu fikr Elizabetning yurak-yuragini teshib yuborayotgan edi.

Qiz hamma narsani o'z ko'zlari bilan ko'rib, o'z quloqlari bilan eshitish uchun uyasi buzilgandek uylaridagi hamma muammolarni faqat yolg'iz bir o'zi ko'tarayotgan opasi bilan teng bo'lishish uchun tezroq uyiga qaytishni istayotgan edi. Bu vaqtda mister Bennet Londonga ketgan, missis Bennet esa ro'zg'orni tebrata oladigan holda emas, o'zi unga qarab turishlariga muhtoj edi. Elizabet endi Lidiyaga hech narsa bilan yordam berish mumkinligiga ishonmasa-da, baribir mister Gardinerning aralashishi biror natija berib qolishidan umid qilayotgan edi. Xizmatkordan jiyanlarining mazasi qochib qolganini eshitgan Gardinerlar xavotirlanib, tezda yetib kelishdi. Elizabet ularni o'zining soppa-sog'lig'iga ishontirib, vahimasining sababini qisqa qilib tushuntirib, opasidan kelgan xatlarni o'qib berdi. Gardinerlar Lidiyani hech qachon yoqtirishgan bo'lmasa-da, bu xabar ularni ham qayg'uga solib qo'ydi. Bu voqea nafaqat qizning o'ziga, balki butun oila sha'niga ham soya solgan edi. Bu gaplarni eshitib, attang qilgan mister Gardiner yordamga tayyorligini bildirdi. Elizabet undan boshqa javob kutmayotgan bo'lsa-da, ko'zlarida yosh bilan minnatdorchilik bildirdi. Shu zahoti jo'nashni rejalashtirib, yo'l tadorigini ko'ra boshlashdi.

– Pemberlini nima qilamiz? – xitob qildi missis Gardiner. – Jon, sen uni bizni chaqirishga yuborayotganingda mister Darsi shu yerda ekanligini aytgandi. Shu to'g'rimi?

– Ha. Xavotirlanmang, men unga bora olmasligimizni aytdim.

– Xavotirlanmang? – Elizabet narsalarini yigʻish uchun xonasiga kirib ketganda qaytardi missis Gardiner. – Nahotki, ularning orasi shunchalik yaqinki, Elizabet hammasini aytib bergan boʻlsa? Nima boʻlganini juda bilgim kelayapti!

Bu xohishni roʻyobga chiqarishning hech iloji yoʻq edi. Ular shosha-pisha narsalarini yigʻishar ekan, ayolning xayoli shu fikr bilan band edi. Elizabet esa ushbu damda agar bekorchi boʻlsa, boshiga tushgan qaygʻudan juda holdan ketgan boʻlardi. Lekin u ham, missis Gardiner ham hali koʻp ish qilishlari, Lemtondagi doʻstlariga bunchalik shoshilib ketayotganlari uchun biror nimani bahona qilib, xat yozib qoldirishlari kerak edi. Biror soatga qolmay, hamma ishlarini tugatishdi. Bu orada mister Gardiner mehmonxona bilan hisob-kitob qildi va ular endi joʻnashga tayyor edilar. Bugun sodir boʻlgan shuncha koʻrgiliklardan keyin Elizabet moʻljallaganidan ancha oldin ular nihoyat, Longbornga joʻnaydigan ekipajga oʻtirishdi.

V bob

– Men hamma narsani oʻylab koʻrdim, – ular yoʻlga tushishgandan soʻng biroz oʻtib, Elizabetga dedi mister Gardiner, – va yaxshilab mulohaza qilib, Jeyn aytganlari toʻgʻri, degan qarorga keldim. Menimcha, juda ham himoyasiz va yolgʻiz boʻlmagan, buning ustiga oʻz polkining komandirinikida mehmon boʻlayotgan qizga nisbatan zobitning shunchalik ablahlik qilishi aqlga toʻgʻri kelmaydi. Shuning uchun men yaxshilikka umid qilyapman. Har holda, Uikxem Lidiya bilan hech kimning ishi boʻlmaydi, deb umid qilmagan boʻlsa kerak? Bundan tashqari, polkovnik Forsterni shunchalik haqoratlagandan soʻng polkda qola olmasligiga koʻzi ye-

tayotgandir? Bu darajada yoʻldan ozish bilan qilingan tavakkalning oʻrtasida hech qanday mutanosiblik yoʻq.

– Siz rostdan shundayligiga ishonayapsizmi? – umid bilan soʻradi Elizabet.

– Rostini aytsam, – missis Gardiner ham gapga qoʻshildi, – men ham shunday boʻlsa kerak, deb oʻylayapman. Uikxemni shu darajada aybdor deb oʻylash uchun bu voqea haddan tashqari odob-axloq va or-nomus degan tushunchalarga, hatto oʻz manfaatlariga ham zid. Men uni shu darajada yomon, deb ayblay olmayman. Lizzi, nahotki u koʻz oldingda oʻzini shunchalik yerga urdiki, sen oʻzing ham uni aybdor sanayapsan?

– Oʻz foydasiga bepisandlik masalasida – yoʻq. Lekin qolgan hammasiga u mensimay qaragan. Albatta, siz haq boʻlib chiqishingizni juda ham xohlardim. Lekin afsuski, men bunga ishona olmayman. Ularning Shotlandiyaga borishmaganini nima bilan izohlash mumkin?

– Avvalambor, ularning u yoqqa ketishmagani hali aniq emas, – dedi mister Gardiner.

– Ha, lekin ularning pochta karetasidan izvoshga oʻtganlari juda shubhali. Buning ustiga Barnetga ketadigan yoʻlda hech qanday iz qoldirishmagan.

– Demak, bundan chiqdiki, ular hozir Londonda, deb hisoblaymiz. Boshqa sabablardan tashqari, ular Londonga ketlaridan qidirayotganlardan qochish uchun ham borgan boʻlishlari mumkin. Ularning puli juda ham koʻp boʻlmasa kerak. Shuning uchun nikohdan oʻtishning osonroq yoʻlini izlayotgan boʻlishlari ham mumkin.

– Lekin nega yashirincha? Ularni topib olishlaridan qoʻrqishmaydimi? Nega bekitib nikohdan oʻtishmoqchi? Yoʻq, yoʻq, ishongim kelmayapti. Jeynning yozishicha, Uikxemning eng yaqin doʻsti uning singlimga uylanish niyati ham boʻlmaganini aytibdi. Uikxem sepsiz qizga

uylanmaydi. Bu tarzda sarf-xarajatga u qodir emas. U Lidiyada nima topdi ekan? Singlim o'zining yoshligi, sog'lomligi, yengiltakligidan boshqa nimasi bilan uni yo'ldan ura olibdiki, u uylanish bilan o'z moddiy ahvolini to'g'rilab olish imkoniyatini Lidiya uchun qurbon qilibdi? Men u harbiy mundirni sharmisor qilishdan qanchalik qo'rqishi kerak edi, bilmadim, chunki bu kabi voqealar qanday oqibatlarga olib kelishini men bilmayman. Lekin keltirgan ikkinchi sababingiz unchalik ishonarli emas, chunki Lidiya uchun turib beradigan akalari yo'q. Mister Bennetning o'zini tutishi esa, uning yuragi kengligi, uy ishlariga befarqligi Uikxemning otam bunday holatlarda odatda otalar aralashganichalik aralashmaydi, deb hisoblashiga olib kelgan.

– Seningcha, Lidiya o'zidan boshqa hech kimni o'ylamay, unga turmushga chiqmay turib ham birga yashayverishga rozi bo'lishi mumkinmi?

– Eng dahshatlisi shuki, Lidiyaning hamma birdek amal qiladigan yaxshi fazilat va axloq-odob qoidalariga qarashlari butunlay boshqacha, – ko'zlarida yosh bilan javob berdi Elizabet. – Men hozir fikrimni tushuntirib berolmayman. Balki unga nisbatan men adolat-sizlik qilayotgandirman. Lekin singlim hali juda yosh. U jiddiy o'ylashga o'rgatilmagan. Oxirgi yarim yil, yo'q, bir yilcha bo'ldi – u o'yin-kulgidan boshqa narsani bilmaydi. Uning hech ish qilmay, bekorchi bo'lib, qayerlardandir o'rganib olgani bema'ni qiliqlar qilib yurishiga yo'l qo'yib qo'yilgan. ...shir polkinging Meritonga kelganidan beri Lidiyaning miyasida faqat sevgi-muhabbat, zobitlar va xushtorlar edi. Faqat shu haqda o'ylab, faqat shu haqda gapirib, u, qanday tushuntirsam ekan, o'zida shundoq ham yetarli bo'lgan bu sifatlarga moyillikni rivojlantirdi. Uikxemning o'z tashqi qi-yofasi va gapirishi bilan ayollarni qanday osonlik bilan iydira olishini bilganimiz uchun, u juda osonlik bilan bunga erishganini tushunsak bo'ladi.

– Ha, lekin Jeyn uni, Lidiyani yoʻldan urishi mumkin boʻlgan darajada yomon emas, deb hisoblayapti-kul! – dedi missis Gardiner.

– Jeyn kim haqida yomon oʻylagan? Jeyn birortasini, ilgari ming yomonotliq boʻlganiga qaramay, hozirda agar isbot boʻlmasa, ayolni yoʻldan urgan deya oladimi? Lekin Jeyn Uikxemning qandayligini mendan ham yaxshi biladi. Uning haqiqiy ablahligini ikkalamiz juda yaxshi bilamiz. Yigitning na uyati va na nomusi borligini-yu, yolgʻonchi va nosamimiyligini, tulkidek ayyorligini ham.

– Sen rostdan ham shularning hammasini bilarmiding? – xitob qildi qiz bularni bilganiga hayron qolgan missis Gardiner.

– Ha, bilardim, – qizarib dedi Elizabet. – Men bir paytlar uning mister Darsiga nisbatan pastkashlik qilganini sizga aytib bergandim. Siz oʻzingiz ham uning Longbornda bir inson unga nisbatan oliyjanoblik qilganini aytib berganini eshitgansiz. Lekin men u haqda birovga aytishga haqqim boʻlmagan butunlay boshqacha gaplarni... yoʻq, hozircha bu gaplarni aytish shart emas. Uning mister Darsining oilasi haqida aytgan boʻhtonlarining chegarasi yoʻq. Uning menga miss Darsi haqida aytganlaridan uni kekkaygan, pismiqlik va yoqimsiz qiz, deb tasavvur qilgandim. Lekin qizning bunday emasligini oʻzi juda yaxshi bilardi. U miss Darsining kecha biz oʻzimiz guvohi boʻlganimizdek xushmuomala va samimiy qizligini yaxshi bilgan boʻlishi kerak.

– Nahotki, Lidiya shu narsalarni sezmagani? U sen va Jeynga maʼlum boʻlgan narsalarni hech ham bilmagani boʻlishi mumkinmi?

– Afsuski, ha! Meni ezayotgan narsa ham shu. Kentga borib, u yerda mister Darsi va uning qarindoshi polkovnik Fitsuilyam bilan yaqindan tanishmaguncha, men oʻzim ham hech narsadan bexabar edim. Uyga qaytganimda esa ...shir polki Meritondan joʻnab

ketish arafasida ekan. Biz Uikxemning nomini ketishi oldidan yomonga chiqarishni xohlamadik. Shuning uchun na men va mendan hamma gapni eshitgan na Jeyn hech kimga hech narsa demadik. Lidiyaning mis-sis Forster bilan ketishi ma'lum bo'lganda ham, unga bu gaplarni aytib qo'yish lozimligini hatto o'ylamagan-dim ham. Uikxem singlimni aldashi mumkinligini xayolimga ham keltirmaganman. Gapimga ishoning, bo'lib o'tgan voqeani tasavvur ham qilmaganman.

– Demak, Braytonga jo'nashayotganda ularning bir-birlariga befarq emasligini sen sezmagansan?

– Hech ham. Ular bir-birini yoqtirganiga hatto ishora ham yo'q edi. Siz o'zingiz yaxshi bilasiz, biror narsa sezib qolinsa, bizning oilada darrov hamma bil-may qolmaydi. To'g'ri, Uikxem polkka yangi kelganda Lidiya uni sevib qolishga tayyor edi. Darvoqe, faqat u emas, hammamiz ham shunday holga tushgandik. Ikki oylargacha Meritondagi va yon-atrofdagi yashov-chi qizlarning hammasi Uikxem uchun jonlarini fido qilishga tayyor edi. Lekin u Lidiyaning borligini ham sezmagandi. Lidiya bir necha haftagacha yonib-kuyib yurdi-da, keyin sekin-sekin miyasidan chiqarib tash-ladi va vaqtini unga e'tibor qilayotgan boshqa zobitlar bilan o'tkaza boshladi.

Ushbu mavzuga oid yuqoridagi gaplar, albatta, ularning taxminlari, umidlari yoki qo'rquvlariga hech qanday yangilik qo'shmayotgan edi. Lekin butun yo'l bo'yi sayohatchilarnig gapi tugamadi. Elizabet bosh-qa biror narsa to'g'risida o'ylay olmayotgan edi: u o'zi qilgan xatosining jabrini tortayotgan va o'zini kechira olmayotgan edi.

Sayohatchilar juda tezlik bilan harakat qilisha-yotgan edi. Tunni yo'lida o'tkazib, ertasi kuni tushda Longbornga yetib kelishdi. Elizabetga taskin berayot-gan yagona narsa, Jeyn ularning kelishini ko'p kutib qolmaydi, degan fikr edi.

Hovliga kirayotib, ular eshik oldida karetaga qarab turgan kichik Gardinerlarni ko'rishdi. Kareta yaqinlashganda bolalarning yuzlari yorishib ketdi – ular o'z xursandliklarini yuzlarini ming ohangga solib, sakrab, qiyqirishib bildirdilar.

Elizabet karetdan sakrab tushib, bolalarni birma-bir o'pdi-da, yugurib ichkariga kirdi. Ichkarida onasining xonasidan tushib kelayotgan Jeynni uchratdi. Ikkalasining ko'zlari to'la yosh edi. Quchoqlab ko'rishishdi va Elizabet opasidan qochoqlardan bi-rorta yangilik bor-yo'qligini so'radi.

– Hali yo'q, – javob berdi Jeyn. – Lekin mana tog'amiz keldi, endi hammasi joyida bo'ladi, deb umid qilaman.

– Otam Londondami?

– Ha, senga yozgandim, seshanba kuni ketgan.

– Undan xat kelmadimi?

– Bittagina keldi. Chorshanba kuni. Eson-omon yetib kelganini, men undan so'ragan ishlarni qilganini yozib yuboribdi. Yana birorta yozishga arziydigan gap chiqmaguncha, xat yozib o'tirmasligini ham aytibdi.

– Onam-chi? U qalay? O'zinglar qandaysizlar?

– Onam menimcha biroz o'ziga kelib qoldi. Asablari yomon qaqshagan. Hozir tepada, o'z xonasida, sizlarni ko'rib, rosa xursand bo'ladi. Hozircha o'z xonasidan chiqmayapti. Meri bilan Kitti esa, xudoga shukur, yaxshi yurishibdi.

– O'zing-chi, o'zing qanaqasan? Ranging oqarib ketibdi. Sen bechoraga rosa qiyin bo'lgan bo'lsa kerak.

Jeyn o'zi sog'omonligiga singlisini ishontirdi. Opa-singillarning gapi Gardinerlarning bola-chaqalari bilan birga kirib kelishlari bilan bo'lindi. Jeyn ular bilan ham ko'zlarida yosh bilan jilmayib ko'rishdi.

Hammalari mehmonxonada to'planishganda Gardinerlar ham Elizabet so'ragan savollarni qaytadan berishdi va Jeyn ham ularga bor gapni aytib berdi.

Shunga qaramay, Jeyn endi o'z tabiatiga xos tarzda umid qila boshladi: hammasi yaxshilik bilan tugaydi, otasi yoki Lidiyadan ularning nikohdan o'tishgani aytilgan xat keladi.

Ular mehmonxonada gaplashib bo'lishganidan so'ng missis Bennetning xonasiga kirishdi. U mehmonlarni ko'zlarida yosh bilan o'zining taqdiridan nolib, Uikxemning qilgan qiligi'ga la'natlar aytib, o'zining tortayotgan azoblaridan nolib, qizining yengiltakligiga o'zi eng ko'p yo'l qo'yib bergan yolg'iz bir odamdan tashqari, hammadan gina qilib, kutib oldi.

– Braytonga hammamiz borishimizga ko'ndira olganimda edi, shu gaplar yo'q edi, – dedi u. – Bechora Lidiyaga g'amxo'rlik qiladigan hech kim bo'lmagan. Axir, Forsterlar unga doim ko'z-quloq bo'lib turishlari kerak edi-ku? Ular juda befarq bo'lishgan. Agar ular yaxshi qarab turishganda edi, mening qizim bunday narsalar qiladigan qiz emasdi. Ularga ishonib bo'lmasligini o'zim ham sezgandim. Lekin har doimgidek, men bilan hisoblashishmadi. Bechora bolajonim! Endi mister Bennet ham bizni tashlab ketdi, bilaman, u Uikxemni topgan zahotiyoyq u bilan mushtlashadi va uni o'ldirishadi, u holda bizga nima bo'ladi? Uning tanasi sovimay turib, Kollinzlar bizni tashqariga uloqtirishadi! Ukajonim, sen tezroq harakat qilmasang, bilmadim, bizlarga nima bo'ladi?

Hammalari bir bo'lib uning bunday g'amgin taxminlarini yo'qqa chiqarishdi. Opasini uni va uning oilasini juda yaxshi ko'rishiga ishontirgan mister Gardiner ertasi kuniyoq Londonga jo'nashini va Lidiyani topish uchun mister Bennetga yordam berishini aytdi.

– Biz g'amga botib o'tirishimiz kerak emas. Lekin eng yomoniga ham tayyor turishimiz kerak, – dedi mister Gardiner. – Ular Braytondan ketishganiga hali bir hafta bo'lgani yo'q. Bir necha kun ichida ularni topamiz. Uikxem Lidiyaga uylandimi yoki yo'qligiga

amin bo'lmagunimizcha, sarosimaga tushmasligimiz kerak. Londonga yetib kelishim bilan men mister Bennetni Greyschyorch-stritga ko'chirib kelaman va nima qilishimizni yaxshilab kelishib olamiz.

– Oh, ukajonim! – xitob qildi missis Bennet. – Men ayni shu gapni kutayotgandim. Iltimos, ularni qayerdan bo'lsa ham toping, agar nikohdan o'tishmagan bo'lsa, shunday qilingki, ular nikohdan o'tishsin. To'y liboslari deb buni orqaga surishmasin. Lidiyaga aytinglar, erga tekkanidan so'ng unda xohlagan ko'ylagini sotib olish uchun yetarli puli bo'ladi. Eng muhimi, mister Bennetni duel tushishdan qaytaring. Unga men qanday ahvoldaligimni, qo'rquvdan aqldan ozay deyayotganimni, hamma yog'im qaqshayotganini, boshim, yuragim og'riyotganidan na kechasi, na kunduzi oromim yo'qligini ayting. Yana mening jonim Lidiyaga aytingki, men bilan maslahatlashmay turib, nikoh ko'ylagini buyurtirib qo'ymasin. Chunki qaysi do'konda yaxshi tikilishini u bilmaydi. Qanday yaxshisiz-a! Siz, aniq ishonaman, mening iltimoslarimni unutmaysiz.

Mister Gardiner qo'lidan keladigan hamma ishni qilishga va'da berdi va shu bilan birga, bu haqda kamroq o'ylashni ham maslahat berdi.

Missis Bennet bilan shu tarzda ko'rishib bo'lish-gach, onasini qizlar yo'qligida unga qarab turadigan xizmatchi ayolga qoldirib, hammalari xonadan chiqib ketishdi.

Mister va missis Gardinerlar uning bunchalik tarki dunyo qilishi uchun yetarli asos yo'qligini yaxshi tushunishar edi, lekin bu to'g'rida gapirib o'tirishni lozim ko'rishmadi, chunki ovqat mahalida xizmatkorlar oldida ham bemalol bo'lar-bo'lmas gaplarni aytib yuborishini yaxshi bilishardi. Shuning uchun ular bo'layotgan gap-so'zlarni hamma bilgandan ko'ra, chetdan bitta, buning ustiga ular ko'pdan beri taniydigan odamgina bilgani yaxshi deb, qo'ya qolishdi.

Yemakxonada ular hali kelishganidan beri ko'rishmagani Meri bilan Kittini uchratishdi. Ulardan biri endigina kitobdan, boshqasi esa pardoiz stolidan boshini ko'targan edi. Ikkalasining ham ko'rinishi beg'am edi. Ikkala qiz ham, agar Kittining hadeb unga ta'na qilaverishganidan biroz asabiyroq bo'lib qolganini hisobga olmasa, deyarli o'zgarishmagan edi. Meri esa, o'zini tutib turar ekan, Elizabet o'tirishi bilan uning yoniga o'tirib, ma'yus ovoz bilan dedi:

– Qanday kutilmagan ofat! Rosa gap-so'z bo'ladi endi! Lekin biz bir-birimizni qo'llab-quvvatlab, mahkam turib berishimiz kerak.

Elizabetning unga javob bermocqi emasligini ko'rib, gapida davom etdi:

– Lidiya bilan bo'lgan bu baxtsiz voqeadan biz o'zimizga xulosa chiqarib olishimiz kerak. Bular: qiz bola uchun or-nomusini yo'qotish tuzatib bo'lmas gunoh; uning obro'si qanchalik toza bo'lsa, shunchalar nozik; yana, qiz bola o'ziga munosib bo'lmagan qarama-qarshi jins vakiliga nisbatan o'ta ehtiyotkor bo'la olmaydi.

Elizabet singlisiga hayron bo'lib qarab qo'ydi, lekin biror narsa deyishga hech xoli bo'lmagani uchun indamay qo'ya qoldi. Meri esa yuqoridagidek odob-axloq haqidagi gaplar bilan anchagacha o'zini ovutib o'tirdi.

Kechqurunga borib Jeyn va Elizabet yarim soatgina yolg'iz o'zlari qolishga erishdilar. Vaqtdan foydalalanib, Eliza opasidan o'zini qiziqtirgan savollarni so'radi va Jeyn ham berilib hamma savollarga batafsil javob berdi. Ikkalovi bo'lib o'tgan voqeadan kelib chiqadigan salbiy oqibatlarga nisbatan o'z munosabatlarini bildirishgach, Elizabet gapida davom etdi:

– Lekin hali sen menga hamma narsani aytib berganing yo'q. Bu voqeaga otamiz qanday munosabat bildirdi? Polkovnik Forster nimalarni aytib berdi? Lidiya bilan Uikxem qochib ketishguncha Forsterlar hech

nimani sezishmagan ekanmi? Axir, ularni hamma yoqda birga ko'rishgan-ku!

– Polkovnik Forster ularning, ayniqsa, Lidiyaning bir-biriga intilishlarini sezgan. Lekin vahima qilishga arzirli hech nimani sezmagani. Uni ko'rsang, rahming kelardi – shunaqa samimiy va ko'ngilchan inson ekan. Qochoqlarning Shotlandiyaga ketmaganliklarini bilishidan oldin ham biznikiga kelmoqchi bo'lgan ekan. Ularning u yerga ketganliklariga shubha tug'ilgani zahoti yetib kelibdi.

– Denni Uikxemning Lidiyaga uylanmasligiga amin ekanmi? Ularning qochmoqchi bo'lishganini bilgan ekanmi? Polkovnik Forster Dennining o'zini ko'ribdimi?

– Ha. Lekin polkovnik bilan gaplashganda, u yoshlarning qochmoqchi bo'lishganini bilganini aytmagan. Ularning nikohdan o'tmoqchi emasliklari to'g'risida boshqa gapirmagan va bundan kelib chiqadiki, balki uni oldin boshqacha tushungan bo'lishlari mumkin.

– Polkovnik bu yerga kelmaguncha, ular nikohdan o'tishmaydi, degan fikr sizlarning xayolingizga kelmadimi?

– Buni o'ylash esga kelibdimi? Men o'zim Lidiya Uikxem bilan baxtli bo'larmikan deb, xavotirda edim, chunki Uikxemning axloqi juda yaxshi emasligini bilardim-ku! Otam va onam esa hech nimadan shubha qilishmadi, faqat bu nikoh juda ham aqldan emasligini aytishdi. Birdan, hamma gapdan xabari borligidan gerdayib turgan Kitti Lidiya unga yozgan oxirgi xatida unga o'z rejasi haqida gapirganini aytib berdi. U Lidiya bilan Uikxemning bir necha haftadan beri bir-birlarini yaxshi ko'rib yurishganini bilar ekan.

– Bu ular Braytonga ketishgandan keyin boshlanganmi?

– Menimcha, shunday bo'lsa kerak.

– Polkovnik Forster Uikxem haqida juda yomon fikrdami? U yigitning qandayligini endi bilibdimi?

– Ochigʻi, u Uikxem haqida oldingidek maqtab gapirmadi. U yigitni oʻzini tuta olmaydigan va bor-yoʻgʻini sovradigan, deb atadi. Bu gaplardan keyin Uikxemning Meritonda koʻpchilikdan qarzdor ekanligi ham maʼlum boʻldi. Bu gaplar zora yolgʻon boʻlsa, deb umid qilaman.

– Jeyn, opajon, bizga maʼlum boʻlgan gaplarni yashirmasdan hammaga aytib berganimizda, menimcha shu ishlarning oldi olingan boʻlardi.

– Balki yaxshi boʻlgan boʻlardi, – dedi Jeyn. – Lekin odamning hozir qanaqaligini bilmasdan, uning oldingi xatolarini ochib tashlash, menimcha, adolatsizlik boʻlgan boʻlardi. Bizning maqsadimiz yomonlik emasdi-ku!

– Polkovnik Forster Lidiyaning uning xotiniga yozgan xati haqida nima dedi?

– U xatni bizga berish uchun olib kelgan ekan.

Jeyn kitob orasidan xatni olib, Elizabetga uzatdi. Unda quyidagilar yozilgan edi:

«Azizam Xarriyet!

Mening qayerga ketganimni bilsang, kulgidan oʻzingni toʻxtatolmaysan. Oʻzim ham sen ertalab turganingda men yoʻqolib qolganimni aytishganda qanday holatga tushishingni tasavvur qilib, kulaverib oʻlib qolay deyapman. Men Gretna-Gringa joʻnab ketayapman, agar sen kim bilanligini hali sezmagan boʻlsang, unda seni tentak deb hisoblayman, chunki dunyoda men sevadigan inson bitta – va bu inson – farishta. Men bu odamsiz hech baxtli boʻla olmagan boʻlardim, shuning uchun qochib ketganimga eʼtibor berma. Agar sen uchun xijolatli boʻlsa, mening qochib ketganimni Longborndagilarga aytmay qoʻya qol. U holda ular mening «Lidiya Uikxem» deb qoʻl qoʻygan xatimni olib battar hayron boʻlishadi.

Rosa kulgili bo'ladi-da! O'zinga shunday kulgili tuyilayaptiki, xatni zo'rg'a yozayapman. Iltimos, bugun u bilan raqsga tusha olmasligim uchun mening nomimdan Prattga uzrimni aytib qo'y. Unga hammasini bilganidan keyin albatta kechirishini aytib, keyingi safar uchrashgan birinchi balda men u bilan albatta raqsga tushishimni va'da qil. Longbornga borishim bilan ko'ylaklarimni olib kelishga odam yuboraman. Lekin ularni taxlab qo'yishdan oldin Salli mening anavi yupqa ko'ylagimdagi so'kilib ketgan chokni tikib qo'ysa, yaxshi bo'lardi.

Ko'rishguncha. Polkovnik Forsterga mendan salom! Bizning sayohatimiz yaxshi o'tishi uchun qadah ko'tarasizlar, deb umid qilaman.

Sening sodiq dugonang Lidiya Bennet».

– Beg'am, beg'am Lidiya! – xitob qildi Elizabet. – Hayotidagi shunday jiddiy voqea haqida ham shunaqa xat yozadimi? Mayli, jilla qursa bu xatdan uning niyati jiddiy bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Uikxem unga keyin nimalar deganidan qat'i nazar, u badnom bo'lishni xayoliga keltirmagan. Bechora otam! Unga juda og'ir bo'lgan bo'lsa kerak!

– Men birovning shunchalik mushkul ahvolga tushganini oldin ko'rmaganman. U o'n daqiqacha nima deyishni bilmay jim bo'lib qoldi. Onam esa darrov tobi qochib qoldi va uyda hamma narsa ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi.

– Jeyn, jonim, uyda bu voqeani boshidan oxirigacha eshitmagan biror xizmatkor qoldimi?

– Nima desam ekan... Menimcha, ha. Lekin o'sha paytda o'zimizni ushlab turish juda qiyin bo'ldi. Onamning jazavasi tutib qoldi, men qo'limdan kelgan hamma narsani qilgan bo'lsam-da, yordam bera olmadim. Endi bu nima bilan tugaydi, deb shunday qo'rqib ketdimki, nima qilishni ham bilmay qoldim.

– Sen qo‘lingdan keladigandan ham ortig‘ini qilgan-san. Seni o‘zingning ko‘rinishing yaxshi emas. Shu yerda bo‘lganimda, o‘zim senga qarardim.

– Meri va Kitti juda yaxshi qiz bo‘lib berishdi. Men qo‘yib bersam, ular hammasini birga qilishardi. Men ularning sog‘lig‘iga zarar bo‘ladi, deb ruxsat bermadim. Kitti shunaqa nozik, sal narsaga asabiylasha-yapti, Meri esa mashg‘ulotlariga mukkasidan ketgan. Seshanba kuni, otam ketgandan so‘ng Longbornga Filips xolamiz keldi. U payshanbagacha biznikida qolib, menga qarashdi. Ledi Lukas ham yordam berdi. U chorshanba kuni kelib, o‘z hamdardligini bildirdi va o‘zi va qizi bizga qo‘lidan kelgan yordamni berishga tayyorliklarini aytdi.

– Yaxshisi uyida o‘tirsin! – jahl bilan dedi Elizabet. – Balki u yaxshi niyatda gapirgandir. Lekin bizning holatimizda qo‘shnilarni qancha kam ko‘rsang, shuncha yaxshi. Bu yerda hech kim bizga yordam bera olmaydi, hamdardlikni esa hazm qilish qiyin. Ular bizning boshimizga tushgan tashvishdan nariroqda suyuna-verishsin.

Elizabet opasidan otasi Londonda nima qilmoqchi bo‘lganini so‘radi.

– Menimcha, ular oxirgi marta otlarini almashtirgan Epsomga borib, izvoshchilardan biror nima aniqlamoqchi edi. Maqsadi – ularni Klepxemdan olib ketgan izvoshning raqamini bilish edi. U izvoshchi Londondan kim bilandir kelgan ekan. Otam bunday tasodif, ya‘ni bir yigit va qizning bir izvoshdan ikkinchisiga o‘tishi sezilmay qolishi mumkin emas, deb o‘ylab Klepxemga bormoqchi bo‘ldi. Agar izvoshchi ularni qaysi uy oldida tushirganini eslasa, o‘sha yerga bormoqchi edi. Balki otam u yerda izvoshchining raqami va qayerda to‘xtatishini bilishi mumkin bo‘lar. Yana nimalar qilmoqchi bo‘lganini bilmayman. U shunaqa asabiylashgan va shoshayotgan edi, men shu narsalarni ham zo‘rg‘a so‘rab oldim.

VI bob

Hamma ertasi kuni mister Bennetdan albatta xat kelishini kutayotgan edi, lekin hech qanday xat kelmadi. Oila a'zolari uning odatda xat yozishni yoqtirmasligini bilishardi, lekin ayni paytda o'zini majbur qila oladi, deb umid qilishayotgandi. Balki xabar beradigan hech qanday yaxshi gap yo'qdir, deb o'ylashdi, lekin shu narsani bilishga ham rozi edilar. Xat kelishini kutib, ushlanib turgan mister Gardiner darrov jo'nab ketdi.

U ketgandan so'ng, endi hech bo'lmaganda nimalar bo'layotganini bilib turamiz, deb umid qilishdi. Xayrlasha turib, mister Gardiner mister Bennetni iloji boricha tezroq Longbornga qaytishga ko'ndirishga va'da berdi. Bu va'dasi bilan u erini duelda o'lib qolishdan qutqarishning yagona yo'li, deb bilayotgan opasiga taskin berdi.

O'zining bu yerda bo'lib turishi jiyanlariga yordam bo'ladi, deb hisoblagan missis Gardiner hozircha Longbornda yana bir necha kun qolishga qaror qildi. U qizlarga missis Bennetga qarashlarida yordam berar va bo'sh paytlarida u bilan o'tirish qizlar uchun ham yoqimli edi. Missis Filips ham ularnikiga tez-tez kelayotgandi. Lekin u Uikxemning qanchalik insofsiz va yaramasligi to'g'risida yangi gaplar topib kelar va u kelib ketgach, hammaning kayfiyati buzilar edi.

Butun Meriton ahli uch oygina burun o'zlari farishta deb atagan odamni endi har qanaqasiga qoralay boshlagandi. Uikxemning deyarli barcha do'konlardan qarzdor ekanligi ma'lum bo'lib qoldi. Hamma uni dunyodagi eng iflos odam deb, uning chiroyli ko'rinishi ularni hech ham chalg'itmagan deb, qasam ichishga tayyor edi. Elizabet bu gap-so'zlarning yarmisiga ham ishonmayotgan bo'lsa-da, baribir bu gap-so'zlar uning, endi singlisining nomiga dog' tushadi, deb qilayotgan xavotiri bejiz emasligini isbotlardi. Shu paytgacha bun-

day gaplarga quloq solmayotgan Jeyn ham endi bu voqeaning yaxshilik bilan tugashiga umid qilmayotgandi, buning ustiga uning Uikxemlarning Shotlandiyaga qochgan, degan umidi rost bo'lsa, ulardan allaqachon biror xabar kelishi kerak edi.

Mister Gardiner yakshanba kuni Longborndan jo'nab ketdi. Seshanba kuni esa xotiniga xat yozib yubordi. Xatda uning mister Bennetni topgani va Greyschyorch-stritga ko'chirib kelgani to'g'risida yozilgan edi. U kelgunicha mister Bennet Epsom va Klep-xemda bo'lgan ekan, lekin u yerda biror yangilik eshishning iloji bo'lmabdi. Mister Bennet endi Londonning eng yirik mehmonxonalaridan so'rab chiqmoqchi emish, chunki qochoqlarning kela solib alohida xususiy uyda ijaraga tura olishlariga uning ishonchi yo'q ekan. Mister Gardiner bu qidiruvlardan biror natija chiqishiga ishonmasa-da, mister Bennet bu ishga boshi bilan sho'ng'igani uchun qo'ldan kelgancha unga yordamlashmoqchi ekan. U yana mister Bennetning hali-beri Londondan ketmoqchi emasligini aytib, yaqin orada yana xat yozib yuborishga va'da berardi. Xatning oxirida yana qo'shimcha bor edi:

«Men polkovnik Forsterdan bu yigitning tanish-bilishlaridan uning Londonda biror tanishimi yoki qarindoshimi bor-yo'qligini bilib berishini iltimos qildim. Agar bor bo'lsa, ulardan Uikxem shaharning qay qismida yashiringanini bilish mumkin edi. Chunki biz qurol qilib olishimiz uchun hozir qo'limizda hech narsa yo'q. Men aniq ishonamanki, polkovnik bizga yordam berish uchun qo'ldan keladigan hamma narsani qiladi. Lekin mening xayolimga birovlardan ko'ra Lizzining o'zi yigit borishi mumkin bo'lgan qarindoshlarining nomini bilishi mumkin, degan fikr keldi».

Elizabet nima uchun mister Gardinerning xayoliga bunday fikr kelganini darrov tushundi. Lekin unda

bu to'g'risida hech qanday axborot yo'q edi. Uikxemning bir necha yillar burun o'tib ketgan ota-onasidan boshqa qarindoshlari borligi haqida hech narsa eshitmagandi. Lekin uning ...shir polkidagi birorta tanishi ko'proq narsa bilishi mumkin. Qizning bunga ishonchi bo'lmasa-da, polkovnik Forster biror yangilik aytadi, degan umidi bor edi.

Kunlar vahima bilan o'tardi. Lekin eng odamni ezadigan payt – bu pochtaning kelishini kutish bo'lib, xat olishlari katta voqea edi. Xatlardan qidirish ishlarining yaxshi yoki yomon ketayotganini bilish mumkin bo'lib, har bir kun eng muhim xabarni olib kelishi mumkin edi.

Lekin bir kuni, ularning mister Gardinerdan navbatdagi xatni olishlaridan burun, mister Bennetga atalgan xat keldi. U mister Kollinzdan edi. Mister Bennet o'ziga kelgan xatlarni ochib o'qishlarini tayinlab ketgan edi. Xatni avval Jeyn ochib, o'qib chiqdi. Keyin Kollinzning xat yozish uslubini yaxshi bilgan Elizabet o'qidi. Unda quyidagilar yozilgan edi:

«Xurmatli ser!

Siz bilan qarindoshchiligimizni va mening jamiyatda tutgan o'rnimni e'tiborga olgan holda, biz kecha Xartfordshirdan olgan xat orqali eshitganimiz oilangizda sodir bo'lgan xunuk voqea tufayli sizga o'z ta'ziamni izhor qilishni o'z burchim deb bilaman. Hurmatli ser, ishoning, biz missis Kollinz ikkimiz Sizga va Sizning Oilangizga hamdardmiz. Boshingizga tushgan qayg'u juda og'ir bo'lsa kerak, chunki bu voqeaning asoratlari vaqt bilan davolab bo'lmaydi. Men o'zim tomondan sizning bu jiddiy baxtsizligingizni biroz yumshatish yoki sizning ota sifatida yuragingiz ezilib ketayotgan ushbu damlarda sizni ovutish uchun o'z daldamni ayamayman. Agar qizingiz vafot etganda edi, uning qayg'usi hozirgi voqealar boshingizga solgan qayg'udan yengil-

roq bo'lgan bo'lardi. Undan ham og'irroq'i, bu voqealar sababi, men o'zimning aziz Sharlottamdan eshitganim, qizingizning yengil tabiatligi uning tarbiyasida yo'l qo'yilgan beparvolik orqasidan ekanligini tan olish bo'lsa kerak. Qizingizning ota-onasiga tasalli berish uchun men, uning shunday yosh bo'la turib bu narsaga qadam qo'ygani bunday yengiltaklik asli uning tabiatida bo'lgan bo'lsa kerak, degan fikrdaligimni aytib qo'yishim lozim. Nima bo'lganda ham, Siz chuqur tasalliga muhtojisiz. Bu fikrimga faqat missis Kollinz emas, men orqali bu gaplardan xabar topgan ledi Ketrin va miss de Byorlar ham qo'shilishadi. Ular yana mening Sizning qizlaringizdan birining noto'g'ri qadami orqasida boshqa qizlaringiz ham yomonotliqqa chiqadi, degan xavotirimga ham qo'shilishayapti. Ledi Ketrinning aytishicha, endi sizlar bilan birortasining quda-andachilik qilishi amrimahol emish. Bu fikr o'tgan yilning noyabr oyida bo'lib o'tgan voqeani yodimga soldi. Agar o'sha paytda ishlaringiz boshqacha bo'lganda, men hozir Siz bilan bir qatorda Sizning g'amingizga va Sizning sharmandaligingizga sherik bo'lgan bo'lardim. Muhtaram ser, menga yana bir marta sizning tashvishingizga hamdardligimni bildirishga hamda qizingiz bir umr o'zining buzuvchi axloqining mevalarini totishi uchun uni bir umrga oq qilishingizni maslahat berishga ijozat bering.

Hurmat bilan... va h.k.»

Mister Gardiner polkovnik Forsterdan xabar kelmaguncha, hech qanday xat yubormadi. Polkovnikning xabari esa suyuntiradigan emasdi. Uning aniqlashicha, Uikxemning bordi-keldi qiladigan qarindoshi, umuman hech qanday qarindosh-u tanish-bilishlari yo'q ekan. Ilgari uning tanishlari juda ko'p bo'lib, polkka kelgandan so'ng yigit ular bilan muloqotni davom ettirmagan, shuning uchun Uikxem haqida biror nima deya oladigan odamni topish imkoniyati bo'lmagan. U

nafaqat Lidiyaning qarindoshlaridan berkinib yuribdi, balki buning yana boshqa sabablari ham bor emish. Braytonda katta miqdorda qartada yutqizgan bo'lib, polkovnik Forsterning fikricha, uning qarzlarini yopish uchun ming funtdan ortiqroq pul kerak ekan. Mister Gardiner bu gaplarni longbornliklardan yashirib o'tirmadi. Bu gaplarni o'qigan Jeyn dahshatga tushdi:

– Qartaboz! Hech kutmagandim. Xayolimga ham kelmagandi!

Mister Gardiner ertasi, ya'ni shanba kuni mister Bennetning qaytayotganini ham qo'shib qo'ygandi. Qilgan hamma harakatlari behuda ketganidan jahli chiqqan mister Bennet qaynisining unga ko'rsatmalar berib uyga qaytib ketishga undashiga rozi bo'libdi. Missis Bennet bu gapni eshitib, qizlari u erining hayoti uchun xavotir olayotgan edi, endi ko'ngli xotirjam bo'ladi, deb o'ylaganlarining aksicha, jahli chiqib ketdi:

– Qanaqasiga! Bechora Lidiyani yolg'iz tashlab-a? Ularni topmaguncha, mister Bennet hech qayerga ketmaydi! Unda Uikxemni Lidiyaga uylanishga majbur qilib, u bilan kim otishadi?

Missis Gardiner bolalari bilan uyiga qaytishni o'ylab turgan edi, ertasi kuni mister Bennet kelishini eshitib, Longborndan mister Bennetni olib kelish uchun yuboriladigan ekipajda ketib olmoqchi bo'ldi.

Missis Gardiner Lemtondan qaytishganidan beri bosh qotirayotgani – Elizabet bilan uning Derbishirlik do'stining orasida qanday munosabat bo'lishi mumkin, degan savolga javob topa olmay ketayotgan edi. Elizabet birinchi bo'lib uning nomini hech tilga olmasdi. Missis Gardiner kutganidek, yigit ham hech qanday xat yubormayotgan edi. Qaytib kelishganidan beri Pemberlidan Elizabetning nomiga hech qanday xat kelmagandi. Oiladagi tushkunlik kayfiyati Elizabetning kuchini olib qo'ydi – buning uchun boshqa sabab qidirib o'tirishning hojati yo'q edi. O'z hissiyotlarining

yechimini qidirayotgan Elizabet, agar u mister Darsi bilan tanish bo'lmaganda, Lidiya orqasidan ularning boshiga tushgan bunday sharmandalikni ko'tarish osonroq bo'lardi, degan xulosaga keldi. Uning fikricha, bu holda uyqusiz o'tkazayotgan tunlarining soni kamida ikki hissa kamayardi.

Mister Bennet Longbornga qaytib kelganda o'ziga xos bo'lgan faylasufona xotirjamlikda edi. U odatdagidan ko'proq gapirmadi, o'zini Londonga borishga majbur qilgan sabablarni ham tilga olmadi va qizlar ham anchagacha o'zlari bu haqda og'iz ochishga had-dilari sig'madi. Tushlikdan keyin choy ichishayotganda Elizabet man qilingan mavzuda og'iz ochishga jur'at qildi. Uning otasiga boshiga tushgan muammolar uchun o'zining hamdardligini bildirib, aytgan gaplariga mister Bennet quyidagicha javob berdi:

– Bu haqda gaplashmaymiz. Sodir bo'lgan ishlar uchun mendan boshqa kim javob berishi kerak? Bo'lib o'tgan ishlarning aybdori faqat men va men javob beraman.

– O'zingizni bunchalik ayblamang.

– Maslahating to'g'ri. O'z shaxsiga nisbatan shafqat qilish insonga xos. Yo'q, Lizzi, hayotimda bir marta bo'lsa ham o'z aybimni his qilishimga menga izn ber. Qo'rqma, bu meni bukib qo'ymaydi. Bunday tuyg'ular tez o'tib ketadi.

– Sizningcha, ular Londondamikin?

– Albatta. Ular yana qayerda shunday yashirina olishardi?

– Lidiya doim Londonda yashashni orzu qilardi! – gap qo'shdi Kitti.

– Demak, u maqsadiga erishibdi, – quruqqina dedi otasi. – Endi u Londonda juda uzoq qolsa kerak.

Biroz sukutdan so'ng mister Bennet qo'shib qo'ydi:

– Lizzi, may oyida meni ogohlantirib qo'yganing uchun sendan xafa emasman. Aytganlaring to'g'ri chiqdi.

Ularning suhbatini Jeynning missis Bennetga choy tayyorlash uchun xonaga kirib kelishi bo'ldi.

– Qanday ajoyib tomosha! – xitob qildi mister Bennet. – Bu onangizning qayg'usini yanada chiroyliroq qilib ko'rsatayapti. Ertaga men ham shunday qilaman: kutubxonada xalatimni va qalpog'imni kiyib o'tiraman-da, sizlarni yugur-yugur qilishga majbur qilaman. Yoki men Kitty ham qochib ketguncha kutib turaymi?

– Men hech qayoqqa qochib ketmoqchi emasman. Agar Braytonga boradigan bo'lsam, men bilan bunday hodisalar bo'lmaydi.

– Braytonga borsam? Men seni hatto Ist-Byorning ham qo'yib yubormayman. Yo'q, Kitty, men endi g'oyat sergak bo'laman va sen buni albatta his qilasan. Birorta zobit ostonamizga qadam bosmaydi, qishlog'imizga yaqin yo'lamaydi. Agar raqs tushishni xohlasang, opalaring bilan tusha ber – hech qanday raqslarga borish yo'q. Bir kecha-kunduzda hech bo'lmaganda o'n daqiqa birorta aqlli ish qila olishingni isbot qilmaguningcha, men senga uydan chiqishga ruxsat bermayman.

Bu so'zlarni jiddiy qabul qilgan Kitty alamidani yig'lay boshladi.

– Demak, shunday, – dedi mister Bennet, – o'n yil davomida aqlli qiz bo'lib bersang, balki seni biror joyga aylantirgani olib borarman.

VII bob

Mister Bennet qaytib kelganidan ikki kun o'tib, Jeyn bilan Elizabet uylarining orqa tomonidagi daraxtzorda aylanib yurishar ekan, ular tomon yugurib kelayotgan xizmatchi ayolni ko'rishdi. Missis Bennet chaqirayapti shekilli, deb o'ylab qizlar xizmatchiga peshvoz chiqishdi. Lekin ayol missis Bennetning gapini aytish o'rniga, Jeynga qarab dedi:

– Kechirasiz, xonim, suhbatingizga xalal berdim. Londondan yaxshi xabar bo'lsa, men ham eshitay, deb kelgandim.

– Xill, nimani ko'zda tutayapsiz? Londondan hech qanday xat olganimiz yo'q.

– Xonim, bu nima deganingiz? – hayron bo'lib so'radi missis Xill. – Siz hali mister Gardinerdan chopar kelganini eshitmadingizmi? U mister Bennetga paket olib kelganiga yarim soatdan oshdi.

Yangilikni tezroq eshitishga oshiqib, qizlar uyga qarab yugurishdi. Ular xolldan o'tib avval oshxonani qarashdi, so'ng kutubxonani, u yerda otalarining yo'qligini ko'rib, onalarining xonasiga bormoqchi bo'lisha-yotganda, qizni eshik og'asi to'xtatdi:

– Agar xo'jayinni qidirayotgan bo'lsangiz, daraxtzor-ga boringlar – u hozirgina o'sha yoqqa ketdi.

Qizlar yana yugurib tashqariga chiqib, qo'rg'on chetidagi daraxtzor tomonga qarab ketayotgan otalari-ga yetib olish uchun gulzor oralab yugurib ketishdi. Singlisiga nisbatan to'laroq bo'lgan va ko'p yugurish-ga o'rganmagan Jeyn orqada qolib ketdi, Elizabet esa kela solib, hansiragancha otasini savolga tutdi:

– Otajon, nima gaplar? Yangiliklar bormi? Gardiner amakimdan xabar bormi?

– Ha, u chopardan xat berib yuboribdi.

– Nimalar yozibdi? Yaxshi gapmi yoki yomonmi?

– Hozir biz yaxshi xabar keladigan ahvoldamizmi? – paltosining cho'ntagidan xatni chiqarayotib, dedi mister Bennet. – Qiziqsang, balki o'qib chiqarsan.

Elizabet xatni shosha-pisha olayotganda, Jeyn ham yetib keldi.

– Ovozingni chiqarib o'qi-chi, – so'radi mister Bennet. – Nima deyilganiga zo'rg'a tushundim.

«Greyschyorch-strit, dushanba, 2-avgust.

Hurmatli mister Bennet, axiri men o'z jiyanim haqida sizni biroz tinchlantiradigan xabar aytishim mumkin.

Siz shanba kuni jo'nab ketganingizdan so'ng men ularning Londonning qaysi burchagida yashiringanlarini bilishga muvaffaq bo'ldim. Ikir-chikirlarini ko'rishganimizda aytib beraman. Ularning topilgani va men ular bilan uchrashganim ham hozircha yetarli...»

– Mana, mening aytganim bo'libdi, – Elizabetning gapini bo'ldi Jeyn, – ular nikohdan o'tishibdi.

«Men ularning ikkisini ham ko'rdim. Ular nikohdan o'tishmagan va nikohga hech qanday tayyorgarlikni ham ko'rmadim. Lekin men qo'rqmasdan nomingizdan aytgan shartlarga rozi bo'lsangiz, yaqin orada to'y bo'ladi. Sizdan talab qilinadigani faqat – ota-onasi o'tib ketgandan keyin farzandlaringizga qoladigan besh ming funtning beshdan bir qismini Lidiyaga qoldirishingizni va Sizlar tirikligingizda qizingizga yiliga yuz funt to'lab turishingizni yozma tarzda tasdiqlab berishdan iborat. Bo'lib o'tgan bunday gaplardan keyin sizning menga ishongan vakolatingizdan foydalanib, ularning shartiga rozi bo'ldim. Men ushbu xatni chopardan berib yuborayapman, chunki iloji boricha tezroq javobingizni olishim kerak. Aytib o'tgan gaplarim ko'pchilik hozir hisoblayotgandek mister Uikxemning ishlari unchalik ham umidsiz emasligiga sizni ishontiradi, deb umid qilaman. Bu o'rinda hamma adashgan – u hamma qarzlarini to'lab bo'lgan taqdirda ham, unda Lidiyaning pullariga qo'shib qo'yadigan pul ortib qoladi. Agar Siz bu shartlarning hammasiga ko'nsangiz, men darhol Sizning nomingizdan Xagerstonga kerakli qog'ozlarni tayyorlashni topshiraman. Londonga kelishingiz hech ham shart emas, shuning uchun menga hammasini ishonib, bemalol uyda bo'lavering. Javobni tezroq yozib yuboring va iloji boricha fikringizni aniqroq ifodalang. Biz bu yerda – siz albatta

rozi bo'lishingizga ishonaman – jiyanim cherkovga biznikidan ketadi, deb qaror qildik. Boshqa ishlar hal bo'lishi bilan yana xat yozib yuboraman.

Sizning Edv.Gardineriingiz».

– Nahotki? Nahotki, Uikxem unga uylansa? – xatni buklay turib, dedi Elizabet.

– Demak, Uikxem biz hammamiz o'ylaganchalik ablah emas ekan! – xitob qildi Jeyn.

– Xatga javob yozdingizmi? – so'radi Elizabet.

– Yo'q, hali. Lekin tezroq yozishim kerak.

Elizabet otasini bu ishni orqaga surmaslikka undadi.

– Otajon, iltimos, uyga kirib, tezroq yozing. Bunday ishlarda sustkashlik qilib bo'lmasligini o'zingiz juda yaxshi bilasiz-ku!

– Agar javob yozishni xohlamayotgan bo'lsangiz, sizning nomingizdan men yoza qolay? – taklif qildi Jeyn.

– Albatta, xohlamayapman, – javob berdi mister Bennet. – Lekin afsus, xatni yozish kerak.

Shu gaplar bilan ular uyga kirishdi.

– Otajon, sizdan bir narsani so'ramoqchi edim... Siz aytilgan shartlarni qabul qilasizmi? – so'radi Elizabet.

– Qabul qilamanmi? Uning shunchalik kam so'raganidan uning uchun men uyalib ketayapman.

– Va Lidiya unga tegishi kerak! Uning shunday odamligiga qaramay!

– Ha, unga tegishi kerak. Endi hech nima qilib bo'lmaydi. Lekin men ikkita narsani tushunishni xohlardim. Birinchisi, tog'angiz unga necha pul tiqishtirganki, ikkinchisi, men bu pullarni unga endi qanday qilib qaytaraman?

– Pul? Tog'amga? Nimani ko'zda tutayapsiz? – hayron bo'ldi Jeyn.

– Aqli bor birorta yigit ham yiliga keladigan allaqanday yuz funt va men o'lganimdan so'ng keladigan besh ming funt uchun Lidiyaga uylanmasdi.

– Rostdan ham. Bu narsa mening xayolimga ham kelmabdi. Qarzlardan qutulib, yana qolar ham emish. Albatta, bu ish tog'amsiz bitmagan bo'lsa kerak. Tog'amiz qanday saxiy-a! Bu bilan u inqirozga uchramasa bo'ldi! Bu yerda kam pul bilan ish bitmasdi.

– Hech qanaqasiga, – Elizabetga qo'shildi mister Bennet. – Agar o'n mingdan kamiga ko'nib, qizimizga uylansa, Uikxem ahmoq bo'lardi. Albatta, u bilan qarindosh bo'ladigan bo'lganimizdan keyin Uikxem haqida yomon gapirishni xohlamayman.

– O'n ming! Lekin biz bu pulning yarmini ham qaytara olmaymiz-ku!

Mister Bennet javob bermadi va hammalari o'z o'ylari bilan band bo'lgancha uyga kirishdi. Mister Bennet xat yozish uchun to'g'ri kutubxonaga kirib ketdi, qizlar esa nonushta qilish uchun xonaga kirishdi.

– Nahotki, ular nikohdan o'tishadi? Odamning ishongisi kelmaydi! – xitob qildi Elizabet. – Biz yana bunga suyunishimiz kerak! Baxtli bo'lishga hech qanday umid yo'qligi va erining barcha kamchiliklariga qaramay – to'y bo'ladi – mana, endi gap-so'zlarning oldini olishning yagona yo'li! Eh, Lidiya, Lidiya!

– Men esa, – dedi Jeyn, – agar uning Lidiyada ko'ngli bo'lmasa, hech qanaqasiga uylanmasdi, deb o'zini ovutayapman. Agar tog'amiz unga yordam bergan bo'lsa ham, men bu o'n ming va hatto shunga yaqin bo'lishiga ham ishongim kelmayapti. Gardinerlarning bolalari bor, balki yana bo'lar. Axir, tog'amiz bolalarining rizqini qiymaydi-ku!

– Agar biz Uikxemning qarzlari qanchaligini, nikoh shartnomasi bo'yicha Lidiyaning nomiga necha pul qo'yishini bilsak, tog'am unga qancha berganini aniqlab olsak bo'ladi. Uikxemning o'zining bir tiyini

ham yo‘q. Biz qarzimizni hech qachon uzolmaymiz. Ular Lidiyani o‘z himoyalariga olishgani, unga qilishayotgan g‘amxo‘rliklari uchun uzoq yillar davomida minnatdor bo‘lsak-da, hech qachon uzolmaymiz. Hozir Lidiya ularnikida bo‘lishi kerak! Agar ularning unga nisbatan shunday oliyjanoblik qilishganini tushunmasa, u baxtli bo‘lishga sazovor emas! U xolamizning ko‘ziga qanday qaray olgan ekan?!

– Uikxem va Lidiyaning qilmishlarini eslamaslikka harakat qilaylik, – dedi Jeyn. – Odam ularning baxtli bo‘lishiga ishongisi kelayapti. Uning Lidiyaga uylanishga rozi bo‘lgani – tuzala boshlaganining alomati. Ikkalasining bir-biriga intilishi ularni og‘irroq bo‘lishga undaydi va ular asta-sekin yaxshi hayot kechira boshlashadi, deb umid qilaman va bu voqealar ham sekin-asta unutilib ketadi.

– Ularning qilgan qilmishlarini hech kim – na men, na sen va na boshqalar, hech kim unutmaydi. Buni gapirib o‘tirishning hojati yo‘q.

Gap shu yerga kelganda qizlar onalarining hali xat kelganidan xabari yo‘qligini eslab, otalaridan unga aytish kerak-kerakmasligini so‘rash uchun kutubxonaga kirishdi. Mister Bennet hali xatini yozib tugatmagan edi. Boshini ko‘tarmay, befarq ovozda dedi:

– O‘zinglar bilasizlar.

– Onamga o‘qib berish uchun xatni olsak maylimi?

– Xohlagan narsani olib, meni tinch qo‘yinglar.

Elizabet stol ustidan xatni olib, Jeyn ikkalasi yuqoriga yugurib ketishdi. Meri bilan Kitti onalarining oldida edilar. Yaxshi xabarlar kelganini aytishgandan keyin xatni baland ovozda o‘qib chiqishdi. Missis Bennet o‘zini zo‘rg‘a tutib turardi. Jeyn mister Gardinerning to‘y haqidagi gaplariga kelganda, uning yuzida hayrat ifodasi paydo bo‘ldi va borgan sari bu ifoda kuchaya bordi. U yaqinligida boshiga tushgan g‘am-tashvishdan qanchalik qayg‘uga botgan bo‘lsa, hozir bu yaxshi

xabardan shunchalik hayajonlangan edi. Unga qizi turmushga chiqayotgani to'g'risidagi xabarning o'zi yetarli edi. Qizining hayoti yaxshi bo'lib ketishi uchun qilinadigan harakatlar, uning qilib qo'ygan yengiltakligidan afsuslanish xayoliga kelmaganidek, onaning esiga ham kelmayotgan edi.

– Lidiya, qizalog'im! – xitob qildi missis Bennet. – Qanday ajoyib! U turmushga chiqadi! Yaqinda men uni ko'raman! O'n olti yoshida turmushga chiqayapti! Ukaginam! Shunday tugashini bilgandim – uning qo'lidan hamma narsa keladi! Qizimni qanchalik ko'rgim kelayotganini bilsangiz edi! Uikxemni ham! Nikoh ko'ylagini nima qilamiz? Hoziroq missis Gardinerga yozib yuborish kerak, Lizzi, qizginam, yugurib otangdan nikoh ko'ylagi uchun necha pul bera olishini so'rab kelgin. Yo'q, yo'q, to'xta! Yaxshisi, men o'zim boraman. Kitti, Xillni chaqirgin. Hozir, kiyinib olay. Lidiya, qizginam mening! Mana ko'rasizlar, u kelganda uyimizda bayram bo'lib ketadi!

Jeyn onasiga ko'p masalada Gardinerlardan qarzdorliklarini aytib, uning oh-vohlarini to'xtatmoqchi bo'ldi.

– Faqat tog'amning marhamati bilangina hammasi yaxshilik bilan tugadi. U Uikxemga yaxshigina miqdorda pul bergan bo'lsa kerak, – qo'shib qo'ydi Jeyn.

– Nima qilibdi, bu tabiiy! – dedi missis Bennet. – Jiyani to'g'risida tog'asi qayg'urmasa, yana kim qayg'uradi? Agar uning oilasi bo'lmaganda pullari menga va qizlarimga o'tardi. Qilishgan sovg'alarini aytmassa, u bizga birinchi marta nimadir berayapti. Lekin men shunday xursandman, shunday xursandman! Yana biroz vaqtdan so'ng – qizlarimdan biri turmushga chiqqan bo'ladi! Missis Uikxem! Qanday chiroyli jaranglayapti. Axir u endigina o'n oltiga to'ldi! Jeyn, jonginam, shunchalik to'iqinlanib ketdimki, hech narsa yozolmayman, shekilli. Otang bilan pul to'g'risida

ham keyinroq gaplasharmiz. Lekin ko'ylakni hoziroq buyurishimiz kerak.

Shu bilan missis Bennet har xil gazmollar nomini aytib, har birining afzalliklarini sanab o'tib, buyurtma berishga tayyor turganda Jeyn mister Bennetning roziligini olmaguncha, bu ishni qilmay turishga onasini zo'rg'a ko'ndirdi. Jeynning onasiga tushuntirishi bo'yicha bir kun kechroq buyurtma berish katta ahamiyatga ega emas ekan. Kayfiyati baland bo'lib turgan missis Bennet indamay ko'nib qo'ya qoldi. Uning miyasida yangi rejalar paydo bo'la boshlagan edi:

– Hozir kiyinib bo'lib, yangiliklarni aytish uchun Meritonga, Filipstnikiga boraman. Qaytayotganda esa Lukaslarnikiga va missis Longlarnikiga kirib o'taman. Kitti, pastga tushib, karetani tayyorlashlarini ayt. Qizlar, Meritonda sizlar uchun nima qilishimni xohlaysiz? Mana, Xill ham keldi. Xill, azizam, bizdagi yangilikni eshitdingizmi? Miss Lidiya turmushga chiqayapti!

Missis Xill, albatta, eshitgan yangiligidan xursand bo'ldi, Elizabet va boshqa qizlarni yangilik bilan tabrikladi. Bu shovqin-surondan biroz charchagan Elizabet hammasini yana bir marta o'ylab ko'rish uchun o'z xonasiga qarab ketdi.

Aslida Lidiyaning sharoiti yig'laydigan darajada bo'lsa-da, bundan ham battar bo'lishi mumkinligini hisobga olsa, xursand ham bo'lish kerak edi. Elizabet shunga sevinayotgan edi. Agar kelajakka nazar solinsa, Lidiyani na oilaviy baxt, na to'la-to'kislik kutayotgan edi. Lekin ikki soatgina burun qanday qo'rquvda o'tirishganini o'ylab, Elizabet bu voqeaning shunday tugaganiga ham shukur qildi.

VIII bob

Mister Bennet ancha paytdan beri o'z tushumlari-dan oz-ozdan jamg'arib qo'yishni o'ylayotgan edi. Shunday qilgan taqdirda biroz pul to'plab qizlarini

va agar undan keyin qoladigan bo'lsa, xotinini ham ta'minlab qo'ygan bo'lardi. U, ayniqsa, hozir shunday qilishi kerak bo'lganini chuqur his qildi. Agar u bu-runroq shu ishni qilganida qanchalik aqlli ish bo'lgan bo'lishini endi tushunayotgan edi va Lidiya yaxshi nomini va nomusini saqlab qolgani uchun tog'asidan qarzdor bo'lib o'tirmasdi. U holda butun qirollikdagi eng yomon yigitga turmushga chiqqanida ham hech qanday gap-so'z bo'lmasdi. Bu shubhali baxt to'lovini qaynisi to'laganini mister Bennet hech hazm qila olmayotgan edi, shuning uchun undan ketkazgan pul-larining qiymatini bilib olib, imkon topilishi bilan qar-zini qaytarishni mo'ljallayotgandi. Mister Bennet yangi uylangan paytda, merosxo'r tug'iladi, degan fikr bilan, pul tejash haqida o'ylamagan ham edi. O'g'il tug'il-gan taqdirda, u balog'at yoshiga yetgach, yer-mulkni o'z nomiga rasmiylashtirib, onasi va o'zidan kichik farzandlarning kelajagini ta'minlagan bo'lardi. Lekin baxtga qarshi, ketma-ket qiz tug'ilib, o'g'ildan darak bo'lmadi. Missis Bennet Lidiyani tuqqanidan keyin yana ancha paytgacha merosxo'r tug'ilishidan umid qilib yurdi. Axiri bir kun kelib umidlari puchga chiqdi, lekin endi pul jamg'arishga kech bo'lgan edi. Missis Bennet tabiatan tejamkor bo'lmay, faqat erining qarzni yomon ko'rishi sababligina ular yerlaridan tushadigan pullardan ko'ra ortiqroq sarf-xarajat qilishmas edi.

Missis Bennet va uning farzandlari uchun nikoh shartnomasi bo'yicha besh ming funt o'tkazilgan edi. Pullarning farzandlar o'rtasida qanday bo'linishi ota-onaning qaroriga bog'liq edi. Ayni paytda, Bennet-lar uchun farzandlari o'rtasida, hech bo'lmasa hozir Lidiya uchun ushbu masalani hal qilish muammosi turardi. Mister Bennetning xayolida mister Gardiner tomonidan taklif qilingan shartlar masalasida hech qanday ikkilanish yo'q edi. Unga qilgan yaxshiligi uchun qaynisiga qisqacha qilib o'z minnatdorligini

bildirgan holda, u mister Gardinerning qilgan barcha harakatlarini ma'qulladi va uning nomidan qaynisi o'z ustiga olgan majburiyatlarni bajarishiga o'z roziligini ta'kidladi. U qizini Uikxemga berishi mumkinligini yoki Uikxemning o'zi shunchalik kam pul sarf qilib, qiziga uylanishni xohlagan taqdirda ham – ilgari hatto xayoliga ham keltirmagan edi. Lidiyani boqish, uning kundalik chiqimlari, onasi tez-tez qilib turadigan pul ko'rinishidagi sovg'alarni va har yili bu kelin-kuyovga berib turilishi lozim bo'lgan yuz funtni qo'shib hisoblaganda ham, u yiliga ko'p yo'qotmasdi.

U tomondan ko'p kuch sarflanmayotgani mister Bennet uchun ko'nglidagidek ish bo'layotgan edi. Endi u bo'lishi kutilayotgan yugur-yugurlardan ham iloji boricha qutulishni istardi. U boshida bo'lgan, qizini topish uchun yugurishga majbur qilgan g'azabidan tushgan va avvalgi tepsa-tebranmas holiga qaytgan Mister Bennet xatini bir zumda yozib tugatdi – u odatda biror narsa qilishdan oldin ko'p o'ylar, lekin qilishni boshlaganda, tez tugatib qo'yar edi. Xatining oxirida u qaynisidan yana nimalarda qarzdorligini so'radi. Lidiyadan esa shunchalik g'azabda ediki, u haqda biror og'iz so'z aytmadi.

Yaxshi xabar bir zumda hamma yoqqa tarqaldi. Albatta, miss Lidiyani Meritonga qaytarib olib kelishganida yoki olis bir fermaga jo'natib yuborishganida, bu gap-so'zlar yana ham qiziqarliroq bo'lardi. Biroq uning turmushga chiqayotganini ham maza qilib g'iybat qilish mumkin edi. G'iybatchi ayollarning yoshlarga baxt tilashayotgani o'zining asl ma'nosini yo'qotmayotgan edi, chunki Uikxemdek inson bilan turmush qurish hech qanaqa baxt va'da qilolmasdi.

Missis Bennet ikki haftadan beri yemakxonaga chiqmayotgan edi. Lekin ushbu bayramona kunda u axiri o'z xonasidan chiqib, ovqat tepasida o'zi bosh bo'lib o'tirdi. U qizi uchun hech ham uyatni his qilayotgani

yo'q edi. Jeyn o'n olti yoshdan oshganidan keyin uning miyasiga o'rnashib qolgan qizlaridan birini uzatish orzusi nihoyat amalga oshayotgan edi. Uning fikr-zikri hozir faqat to'y marosimi, kiyim-kechaklar, karetarlar, yangi xizmatchilar bilan band edi. U tuganmas bir g'ayrat bilan qizi to'ydan keyin yashashi uchun yaqin atrofdan uy qidira boshladi. U yoshlarning to'ydan keyin qo'llarida bo'lishi mumkin bo'lgan jamg'armaning qiymatini ham bilmay, hatto bu masalani xayoliga ham keltirmay, katta-kichikligi to'g'ri kelmaydi yoki qurilgani yoqmadi, deb ko'p uylarni rad qildi.

– Agar Goldinglar ko'chishganda, Xey-parkdagi uy yaxshi bo'lardi, – xayol qilardi missis Bennet. – Yoki mehmonxonasi kattaroq bo'lganda, Stoukdagi uncha katta bo'lmagan uy ham yaxshi edi. Eshuortdagi uy esa juda uzoq – agar bizning uyimizdan o'n mildan uzoq bo'lsa, men chiday olmayman. Palvis Lojedagi uy esa menga hech ham yoqmadi!

Xonada xizmatkor bor ekanligida mister Bennet xotinining bunday gaplariga xalaqit bermadi. Lekin yolg'iz o'zlari qolishlari bilan u xotiniga dedi:

– Missis Bennet, qizingiz va uning eri uchun shu uylardan birini yoki hammasini ijaraga olishingizdan avval ikkalamiz bir narsani aniq kelishib olishimiz kerak. Ular hech qachon biz bilan bir joyda yashamaydi. Men ularning Longbornga kelaverib, jonimga tegishlarini aslo istamayman!

Missis Bennet erining bu gapiga rosa qarshilik ko'rsatdi, lekin befoyda. Bahs davomida missis Bennet uni dahshatga solgan boshqa yangilikni – eri qizining to'y liboslari uchun bir giney ham sarf qilmoqchi emasligini eshitdi. Eri, Lidiya otasi tomonidan hech qanday e'tibordan umid qilmasligini e'lon qildi. Missis Bennet nima deyishni bilmasdi. Otasining g'azabi deb, qizining erga tegayotib qilinishi lozim bo'lgan hamma narsadan mosuvo bo'layotganini tushunishga

uning aqli noqislik qilardi. To'y liboslarining kamligi, uning nazarida, Lidiyaning qochib ketishi va hali to'y bo'lmasdan yigit bilan ikki hafta birga yashagani orqasidan kelgan sharmandalikdan ham ortiqroq edi.

* * *

Elizabet asabiylashib turganida mister Darsiga Lidiyaning taqdiridan xavotir olayotganini aytib yuborganidan afsusda edi. Singlisining qochib ketishi turmushga chiqish bilan tugar ekan, o'sha paytda Braytonda bo'lmagan hamma tanishlardan buni yashirib turishsa bo'lar ekan. Qiz Darsining bu gaplarni begonalarga aytishidan cho'chimayotgandi. Chunki vazminligiga ishonish mumkin bo'lgan boshqa odamni topish mushkul edi. Lekin qizga eng alam qilayotgani ularning oilasidagi sharmandalikni aynan u bilgani edi. Gap bu ishning o'ziga tegishli narsalarga ham salbiy ta'sirida emasdi. Endi bu sharoitda ular ikkalasi o'rtasida katta jarlik bor edi. Lidiya hamma tarbiyali qizlardek turmushga chiqsa ham, oldin bor bo'lgan hamma kamchiliklariga yana uning nafratiga loyiq bo'lgan inson bilan qarindoshchilik qilishgani qo'shilgan oilaga Darsining kuyov bo'lishini hatto taxmin ham qilib bo'lmasdi. Bu turdagi qarindoshchilik fikridan u dahshatga tushsa kerak. Mister Darsining Derbishirda yaqqol ko'zga tashlanayotgan uning ko'nglini olishga urinishi mantiqan o'ylab qaralsa, ushbu voqeaga qarshilik qilolmasdi. Qiz o'zi ham nimaligini bilmayotgan narsasini yo'qotganidan yuraklari chok-chokidan so'kilib ketayotgandek edi. Aynan hozir, endi ushlab qolishning hech imkoniyati yo'qligini tushunganida – yigitning o'ziga munosabati qanchalik azizligini sezib qoldi. Endi yigit haqida birorta yangilik eshitishi amrimahol bo'lganda qiz uning hayotiga qiziqib qoldi. Darsi bilan yonma-yon birgalikda

baxtli hayot kechirishlari mumkin bo'lganini qiz endi, u bilan ko'rishishlariga hech qanday umid qolmagan-da, tushunib yetgandi.

«Agar mister Darsi atigi to'rt oygina burun qilgan taklifini hozir minnatdorchilik bilan qabul qilishlarini bilganida edi, roza izzat-nafsi orom olgan bo'lardi», – degan fikr qizning xayoliga tez-tez kelardi. Yigitning boshqa o'z jinsidagilarga qaraganda ancha oliyjanob-roq ekaniga ishonchi komil edi. Lekin hamma xom sut emgan bandalardek, u ham qo'li baland kelganidan, albatta xursand bo'lgan bo'lsa kerak.

Elizabet o'z tabiati qiziqishlari bilan ayni shu yigit unga mos kelishini endi tushuna boshlagan edi. Mister Darsining o'zinikidan yuqoriroq bo'lgan aqli, xarakteri ayni uning talablariga javob berardi. Ikkalasining birlashuvi har biri uchun ham yaxshi bo'lgan bo'lardi. Qiz tabiatidagi quvnoqlik yigitning harakatlari va fikrlashlariga yumshoqlik kasb etgan bo'lardi. Yigitning aqli, bilimlari, sog'lom fikrlashi ortida o'zi ham teranroq fikrlaydigan bo'lardi.

Ammo insoniyatga asl er-xotinlik baxti nimaligini isbotlab beradigan bu nikohning bo'lishi nasib qilma-gan ekan! Buning o'rniga, yaqinda Bennetlar oilasi-da baxtli tugamasligi oldindan ma'lum bo'lgan nikoh bo'lishi kutilayotgan edi.

Elizabet Uikxem va Lidiyalarning to'ydan keyin mustaqil ravishda ro'zg'or yurita olishlarini tasavvur ham qila olmayotgandi. Lekin javobgarlik hissidan kuchliroq bo'lgan ehtiros natijasida yuzaga kelayotgan bu juftlikni juda ham baxt va'da qilmayotgan kelajak kutayotganini ham qiz juda yaxshi tushunardi.

* * *

Tez orada mister Bennet Londondan xat oldi. Qilgan ishlari uchun mister Bennet bildirgan minnatdorchiliklariga javob berayotib, mister Gardi-

ner, bu oilaning barcha a'zolariga xizmat qilishga doim tayyorligini aytgan va boshqa bu mavzuda to'xtamaslikni iltimos qilgandi. Xatni yozishdan maqsadi mister Uikxem polkdan ketishga qaror qilganini aytish ekan.

«...Nikoh haqidagi kelishuvimizdan so'ng, men bir necha bor bu to'g'rida undan so'ragan edim, – yozardi mister Gardiner. – Menimcha, uning polkdan ketishi o'zi uchun ham, Lidiya uchun ham yaxshi bo'lishiga siz ham qo'shilsangiz kerak. Mister Uikxem doimiy armiyaga kirishni rejalashtirayapti. Do'stlari orasida unga bu borada yordam bera oladigan odam bor ekan. Unga shimolda joylashgan general ...ning polkida praporshchik unvonini va'da qilishayapti. Ularning bu yerlardan uzoqroqda bo'lishlari menga yoqayapti. U o'zini yaxshi tutib yurishga va'da berayapti, men ham ular o'zlarini munosib tutib yurishlari shart bo'lgan yangi muhitda aqllari kirib qoladi, degan umiddaman. Men ishlarimiz qanday ketayotgani haqida polkovnik Forsterga yozib yubordim va undan Brayton va boshqa yaqin-atrofdagi Uikxemga pul qarz bergan odamlarni yaqin orada pullari qaytarilishini aytib, tinchlantirib qo'yishni, bu borada hamma javobgarlikni men o'z bo'ynimga olishimni yetkazishini so'radim. Balki siz ham uning Meritondagi kreditorlarini shu gap bilan ishontirib qo'yarsiz. Men Uikxemdan olgan ro'yxatimni sizga yuboraman. U hamma qarzlarning ro'yxatini berdi. U bizni aldamayapti, deb umid qilaman. Xagerstonga kerakli ko'rsatmalar berilgan va bir hafta ichida hamma ishlar tugaydi. Shundan so'ng, agar ular Longbornga taklif qilinmasa, o'z polklariga qarab jo'naydilar. Missis Gardinerning aytishi-cha, Lidiya jo'nab ketishidan oldin sizni juda ko'rgisi kelayotgan emish. U sog'-salomat, siz bilan onasiga salom aytayapti.

Sizning E.Gardineriingiz».

Mister Bennet va qizlari Uikxemning polkdan ketishining yaxshiligini mister Gardinerdan ham yaxshiroq tushunishardi. Lekin bu missis Bennetga uncha yoqmadi. U hali ham Lidiya yaqin-atrofda yashaydi, degan umidini yo'qotmagan edi. Shuning uchun qizining endi uning yonida bo'lib, onasining ko'nglini ko'taradi, deganda ularning shimolga ketishlari, missis Bennetning hafsalasini pir qildi. Bundan tashqari Lidiyaning shuncha xushtorlari bor, hamma bilan tanish bo'lgan polkdan ketishlari ham uni qayg'uga soldi:

– U missis Forsterni shunaqa yaxshi ko'radi, ularni ayirish gunoh! Yana polkda unga yoqadigan bir nechta yigitlar bor. General ...ning polkidagi zobitlar uncha yoqimtoy bo'lmasligi mumkin.

Mister Bennet avvaliga Lidiyaning shimolga ketishdan oldin uydagilar bilan ko'rishishni so'rab qilgan iltimosini rad qildi. Lekin singillariga ichlari achigan Jeyn va Elizabet, otalariga yalinib, erkanib, undan Lidiyaning to'ydan keyin shimolga ketishidan oldin Uikxem bilan birga Longbornga kelib-ketishiga ruxsat berishini so'rashdi. Nihoyat, mister Bennet rozilik berdi. Missis Bennet ham, qizining shimolga surgunga ketishlaridan oldin eri bilan qo'ni-qo'shnilar oldida ko'rina olishidan boshi osmonga yetdi. Mister Bennet ularning kelishiga roziligini bildirib, qaynisiga xat yozib yubordi. Yoshlarning to'y marosimidan keyin darrov Longbornga jo'nab ketishlariga kelishildi. Elizabet Uikxemning bunga rozi bo'lganiga hayron qoldi. Agar uning o'ziga qolsa, yigit bilan uchrashmaslik uchun hamma narsaga rozi edi.

IX bob

Jeyn va Elizabet to'y bo'ladigan kuni kelindan ham ko'proq hayajonlanishdi. Yoshlar uchun jo'natilgan

ekipaj ularni... yonida kutib turishi va tushlik paytiga-cha bu yerga qaytib kelishi kerak edi.

Bu daqiqalarni ikkala katta miss Bennetlar ham juda betoqatlik bilan kutdilar. Ayniqsa Jeyn, bu voqealarning aybdori o'zi bo'lganda, his qiladigan tuyg'ularni Lidiyaga yopishtirib, juda to'qinlanayotgan edi. Singlisi nimalardan o'tganini his qilib, unga achinib ketayotgan edi.

Kelin-kuyovlar nihoyat yetib kelishdi. Butun oila ularni kutib olish uchun mehmonxonaga to'plandi. Uyning oldiga ekipaj kelib to'xtaganda missis Bennetning yuzlariga tabassum yoyildi, mister Bennet juda jiddiy, qizlar esa hayajondan o'zlarini noqulay sezishayotgan edi.

Tashqaridan Lidiyaning ovozi eshitildi, eshik lang ochilib, u xonaga yugurib kirdi. Onasi unga qarab quchog'ini ochgancha yugurdi. Keyin muloyimgina jilmayib, Uikxemga qo'lini uzatdi va quvnoqlik bilan xuddi shunday bo'lishi aniqdek, ikkala yoshga baxt tiladi.

Onasidan keyin ular mister Bennetga yaqinlashishdi. Lekin u xotinichalik xursandligini izhor qilmadi. Uning yuzi battar jiddiylashgan, hatto og'zini ham ochmayotgan edi. Bu ikki yoshning yengiltakligi uning battar jahlini chiqarishi mumkin edi. Elizabet hayratda, hatto Jeyn ham hayron edi: Lidiya oldingi Lidiyaligicha qolgan edi – surbet, aqlsiz, tinib-tinchimmas va maqtanchiq, o'ziga bino qo'yan qiz. Bir opasi bilan ko'rishib, ikkinchisiga o'tar ekan, u opalarining har birini o'zini tabriklashga majbur qildi. Nihoyat, hammalari stol atrofiga o'tirishganda, u hamma yoqni ko'zdan kechirib, xonada bo'lgan o'zgarishlarga e'tibor berdi va kulib, u oxirgi marta bu xonada bo'lganiga ancha bo'lganini aytdi.

Uikxem ham bermalol o'tirar edi. Agar hammalari bu yigitning asli qandayligini bilishmaganida, singillariga hamma qatori uylanganida edi, uning o'zini chi-

royli tutishlari, jilmayishlari hammani o'ziga jalb qilgan bo'lardi. Ilgari yigitning o'z-o'ziga bunchalik ishonishi qanday oqibatlariga olib kelishini Elizabet o'ylab ko'rmagan edi. Hozir shu xonada o'tirib, bundan buyon uyatsiz insonning hayosizligining chegarasi bo'lishiga hech qachon ishonmaslikka o'z-o'ziga so'z berdi. Dam o'tgan sayin u qizarib ketayotgan edi. Jeyn ham. Lekin ularni qizarishga majbur qilganlarning esa rangi o'zgarmas edi.

Suhbat osonlik bilan boshlandi. Yangi kelin onasi bilan gaplashib to'ymas edi. Elizabetning yonida o'tirib qolgan Uikxem esa o'zining xartfordshirlik tanishlari to'g'risida shunchalik beparvolik bilan so'rar ediki, qiz uning savollariga javob berishga ojiz qoldi. Xuddi bu ikki yosh hayotiga soya soladigan hech narsa bo'lmagandek. Ular hech narsadan pushaymon emas edilar. Lidiya esa suhbat mavzusini, opalari o'lib qolsa ham yaqin kelmaydigan mavzuga burmoqchi bo'lardi.

– Bu yerdan ketganimga uch oy bo'libdi! – xitob qildi qiz. – O'lay agar, menga endigina ikki hafta bo'lganga o'xshaydi. Lekin bu vaqt ichida ancha-muncha voqealar bo'lib o'tdi. Men bu yerdan jo'nab ketayotganimda, endi bu yerga erli ayol bo'lib qaytaman, degan fikr xayolimda ham yo'q edi. To'g'ri, shunday bo'lsa rosa qiziq bo'lardi, deb o'ylardim.

Qiz bu gaplarni aytayotganida otasi unga tikilib qaradi. Jeyn o'zini noqulay seza boshladi, Elizabet esa Lidiyaga ma'noli tikildi. U esa o'ziga xos bo'lgan: agar xohlamasa na ko'rmaydigan, na eshitmaydigan tarzda gapini davom ettirdi:

– Aytgancha, onajon, bu yerda mening erga tekkanimni hamma biladimi? Men bu gap hammaga yetib bormagan bo'lsa, deb rosa qo'rqdim. Shuning uchun Uilyam Goldinglarning aravasini quvib o'tayotganimizda u ham bilsin deb, karetaning oynasini ochib uzukli qo'limni chiqardim. Keyin unga ta'zim qildim, jilmayib qo'ydim va hokazo.

Elizabetning sabr kosasi to'layotgan edi. U sakrab turib, xonadan chiqib ketdi va hammalari boshqa xonaga o'tishmaguncha u yerga qaytib kirmadi. U yemakxonaga kirib kelganda, Lidiya onasining o'ng tomonida o'tirgan Jeynga qarab gapirayotgan edi:

– Jeyn, sening o'ringga endi men o'tirishim kerak, sen esa surilasan. Axir men turmushga chiqqanman.

Vaqt kelib Lidiyada biroz bo'lsa-da uyat paydo bo'ladi, deb umid qilish qiyin edi. Aksincha u battarroq surbet va manmanga aylangandi. U missis Filips, missis Lukas va boshqa qo'shnilarni tezroq ko'rgisi va ularning unga «missis Uikxem» deb murojaat qilishlarini eshitgisi kelib ketayotgandi. Hozir esa, hech bo'lmaganda xizmatkorlarga maqtanib qo'yish uchun tashqariga chiqib ketdi.

– Xo'sh, onajon, mening erim sizga yoqayaptimi? – onasidan so'radi qiz. – Ajoyib-a? Opalarimning menga rosa hasadlari kelyapti. Ular menda borining yarmiga ega bo'lishsa ham xursand bo'lardim. Ular ham Braytonga borishlari kerak. Mana, qayerdan er qidirish kerak! U yoqqa butun oilamiz bilan borolmaganimiz uchun hali ham achinaman.

– Bo'lmasam-chi! Agar mening qo'limda bo'lsa, hammamiz borgan bo'lardik. Lekin Lidiya, rosti, sen u yerdan qay holda ketib qolganing menga yoqmaydi. Shunday qilish shartmidi?

– Voy, albatta-da! Nima qilibdi? Shunisi qiziq-da! Endi, otam ikkalangiz, opalarim bizni ko'rgani borishlar kerak. Biz butun qish bo'yi Nyu-kaslda yashaymiz va men aminman, u yerda ballar bo'lib tura-di. Menga ishon-ing, u yerda opalarimning hammasiga yigit yetadi.

– Eng xohlayotgan narsam ham o'zi shul!

– Uyga qaytayotganda opalarimdan bir-ikkitasi-ni biznikida tashlab kelsanglar bo'ladi. Ishonaver-ing, qish tugaguncha men ularga er topib beraman.

– Menga g'amxo'rlik qilayotganing uchun xursandman, – dedi Elizabet. – Lekin sening erga tegish uslubing menga yoqmaydi.

Yosh kelin-kuyovlar bu yerda faqat o'n kun bo'lishlari rejalashtirilgan edi. Londondan ketishlari oldidan mister Uikxem u biriktirilgan polkka ikki haftadan so'ng yetib borishi haqida ko'rsatma olgan edi. Ular-ning Longbornda bunchalik kam vaqt bo'lishlaridan missis Bennetdan boshqa hech kim xafa bo'lgani yo'q. Ona-bolaning butun vaqtlari qo'shnilarinikiga chiqish va o'z uylariga mehmon chaqirish bilan o'tdi. Uylarida doimo begonalarning bo'lishi, biror narsa haqida jiddiy xayol surayotganlar uchun ham, aksincha, hech narsani o'ylashni xohlamayotganlar uchun ham qulay bo'layotgan edi.

Uikxemning xotiniga munosabati xuddi Elizabet kutgandek edi. Bu munosabatni hatto Lidiya eriga nisbatan his qilayotgan tuyg'u bilan solishtirib ham bo'lmadi. Ularga bir qarashning o'ziyoq, qochish fikri Uikxemdan emas, Lidiyadan chiqqanini tasdiqlab turardi. Uikxemning pul ishlarida ancha muammolari borligini yaxshi bilgan Elizabet yigitning Lidiyani sevmay turib, qanday qilib bu ishga qadam qo'ygani hech tushuna olmayotgan edi: Uikxem shunday sharoitda ham birorta qizni yo'ldan uradigan yigitlar toifasidan emasdi.

Lidiya esa Uikxemdan boshi osmonda edi. U erini «azizim Uikxem» deb atash uchun har bir bahonadan foydalanayotgandi. Qizning fikricha, u tengsiz edi. Bir kuni, ikkala katta opasi bilan o'tirgan Lidiya Elizabetga dedi:

– Sen hali biz qanday turmush qurganimizni bilmaysan-a? Men boshqa opalarimga, onamga aytib berayotganimda sen chiqib ketgan eding. Qanday bo'lganini senga aytib beraymi?

– Yo'q, rahmat, hojati yo'q. Bu narsalarni qanchalik kam eslasak, shuncha yaxshi.

– Voy, qiziqsan-a! Men baribir senga aytib bera-man. Biz avliyo Kliment cherkovida nikohdan oʻtdik, Uikxemning uyi oʻsha pxirodda. Hamma soat oʻn birda yigʻilishi kerak edi. Men togʻam va xolam bilan borishim, qolganlar esa bizni cherkovning oldida kutishlariga kelishilgan edi. Dushanba kuni men rosa hayajonlandim – xuddi bir nima boʻladigandek, xuddi toʻyni qoldirishadigandek boʻldi. Buning ustiga yana kiyinayotganimda xolamning menga oʻrgatib yotgan gaplari. Xuddi maʼruza oʻqiyotgandek. Toʻgʻrisi, aytayotgan gaplarining oʻndan birini tushunayotgandim. Oʻzing bilasan, men oʻzimning aziz Uikxemim haqida oʻylayotgandim: uning koʻk mundir kiyish-kiymasligi meni qiziqtirayotgandi.

Shunday qilib, soat oʻnda, har kungidek nonushta qilgani oʻtirdik. Ochigʻini aytishim kerak, ularnikida ekanligimda Gardinerlar menga juda yomon munosabatda boʻlishdi. Ishonasanmi, ikki haftagacha hech qayerga chiqa olmadim. Hech qayerga bormadim va hech kim kelmadi! Toʻgʻri, London boʻm-boʻsh edi, lekin Kichik teatr ishlayotgan edi. Xullas, axiri kareta kelganda, ish bilan mister Stoun chaqirib qoldi. Oʻzing bilasan-ku, ikkalasi topishsa, oxiri koʻrinmaydi. Nima qilishni bilmadim, jonim chiqib ketayotgandi, chunki oʻsha kuni kechiksak, bizni qabul qilishmasdi. Baxtimga oʻn daqiqalardan soʻng togʻam boʻshadi va biz yoʻlga tushdik. Keyin xotirladim: axir, togʻam ushlanib qolsa ham, uning oʻrniga mister Darsi bor edi-ku!

– Mister Darsi? – hayron boʻlib qoldi Elizabet.

– Ha, mister Darsi. U Uikxem bilan kelishi kerak edi. Voy, yodimdan koʻtarilibdi: buni aytish mumkin emasdi-ku! Soʻz bergandim. Endi Uikxem nima deydi? Bu sir edi-ku!

– Agar bu sir boʻlsa, boshqa gapirma, – dedi Jeyn. – Men seni ayt, deb majburlamayman.

– Ha, ha, – dedi qiziqib qolgan Elizabet. – Biz sendan hech narsani soʻramaymiz.

– Rahmat, qizlar, – dedi Lidiya. – Agar so‘rasanglar hamma narsani aytib yuborardim va mening aziz Uikxemimning rosa jahli chiqqan bo‘lardi.

Savol berishdan o‘zini zo‘rg‘a ushlayotgan Elizabet yaxshisi uzoqroqqa ketishni ma‘qul ko‘rdi. Lekin hech narsani bilmay qolish ham bo‘lmasdi. Hech bo‘lmaganda qandaydir bir yangilikni bilmay o‘tirish azobiga chidash qiyin edi. Mister Darsi uning singlisining to‘yiga kelgan! Bu ayni u yoqtirmagan sharoit va u yoqtirmagan odamlar edi-ku! Bu nimani anglatishi mumkin, degan turli-tuman farazlar uning xayolidan ketmay qoldi. Lekin ularning birortasi ham haqiqatga yaqin emasdi. Unga xush yoqadigan va yigitni uning nazari-da osmonga olib chiqib qo‘yadigan sabablar unga ishonarli emasdek tuyulardi. Elizabet bu noaniqlikka ortiq chiday olmadi. Tezda qog‘oz olib, missis Gardinerdan, Lidiyaning og‘zidan chiqib ketgan gapni tushuntirib berishni so‘radi:

«Bizga hech qanday aloqasi yo‘q va bizning oilaga butunlay begona bo‘lgan bu odamning shunday paytda sizlar bilan birga bo‘lishining sababini bilish men uchun qanchalik qiziqlicini tasavvur qilayotgan bo‘lsangiz kerak, – derdi Elizabet. – Iltimos, xudo haqqi, agar Lidiya aytgandek bu sir bo‘lmasa, menga gap nimaligini tushuntirib bering. Bo‘lmasa, men juda azobda qolaman».

«Hech ham-da, – xatni tugatayotgan Elizabet o‘ziga o‘zi dedi. – Agar bor gapni yaxshilik bilan aytmasangiz, bilib olish uchun shunaqa ayyorlik qilaman...»

Jeynning o‘ta odobliligi uning Elizabet bilan Lidiya aytgan gaplar to‘g‘risida gap boshlashiga yo‘l qo‘ymadi. Buning uchun Elizabet undan minnatdor bo‘ldi. Hamma gap ma‘lum bo‘lmaguncha, buni hech kim bilmagani ma‘qul.

X bob

Elizabetning baxtiga javob xati juda tez keldi. Xatni olishi bilan qiz uni topishlari mushkul bo'lgan daraxt-zor orasiga kirib ketdi-da, baxtli daqiqalardan oldindan huzur qilib o'rindiqlardan biriga o'tirdi. Xat juda uzun bo'lib, uning qiziqishini qondiruvchi faqat rad javobi emasdi.

«Greyschyorch-strit, 6-sentabr.

Aziz jiyanim!

Hozirgina sening xatingni oldim. Senga aytmogchi bo'lgan narsalarimni bir necha qatorga sig'dira olmasligimni bilganim uchun javob yozishga butun ertalabki vaqtimni qurbon qildim. Bo'ynimga olaman, sening xatingni kutmagandim. Iltimos, xating meni xafa qildi, deb o'ylama, faqat menga shunday savol berasan, deb hech kutmagandim. Meni tushunmaslikni afzal ko'rayotgan bo'lsang, unda meni befarosatlik qilganim uchun kechir. Tog'ang mendan ham battar hayron – faqat bo'layotgan ishlarda sening qo'ling bor, degan fikrgina, u qilgan ishlarni qilishga undagandi. Lekin rostdan ham sening hech narsadan xabaring bo'lmasa va hech narsaga qo'l urmagan bo'lsang, men senga aniqroq qilib tushuntirib beraman. Men Longborndan qaytib kelgan kunim biznikiga kutilmagan mehmon kelgan ekan. Mister Darsi tog'ang bilan bir necha soat yolg'iz gaplashishibdi. Men kelganimda ularning suhbatı tugab qolgan ekan, shuning uchun men nima gapligiga qiziqmadim. Uning biznikiga kelishdan maqsadi mister Gardinerga singling bilan Uikxemning qayerdaligini topganini bildirib qo'yish ekan. U yoshlar bilan allaqachon ko'rishib, Lidiya bilan bir marta, Uikxem bilan esa bir necha marta gaplashib ham bo'lgan ekan. Men, tushunishimcha, biz ketgan kun-

ning ertasigayoq u Derbishirdan ketib, qochoqlarni topish uchun Londonga kelgan. O'zining xatti-harakatini u o'zini deb Uikxemning pastkashligi hammaga ochib tashlanmaganini, aks holda yosh qizlar u bilan qiziqishmagan bo'lardi, deb tushuntirdi. Bo'lib o'tgan hodi-
saning sababi o'zining soxta mag'rurligi ekanligini aytib, ungagina tegishli bo'lgan holatni hammaga ochishni o'ziga ep ko'rmaganini tan olayapti. Odamlar kim bilan muloqotda bo'layotganlarini bilishlari kerak ekan. Shuning uchun mister Darsi bu ishga aralashib, uning bee'tiborligi orqasida sizlarga yetkazilgan zararni qoplashni o'zining burchi, deb bilibdi. Agar buning yana bir boshqa sabablari bo'lsa ham, men buning uchun undan gina qilish kerak, deb o'ylamayman. U qochoqlarni shaharda qidirib topguncha bir necha kun o'tibdi. Unga qidirishda bizga noma'lum bo'lgan bir qancha holatlar yordam beribdi. Bir paytlar miss Darsiga guvernantka bo'lgan, keyin nima uchundir ishdan haydalgan (mister Darsi nima uchunligini aytishni lozim ko'rmadi) missis Yang ismli ayol bor ekan. O'sha ayol Edvard-stritda yashar va uyini ijaraga berib, kun ko'rar ekan. Mister Darsining aytishicha, bu ayol Uikxemni yaxshi tanir ekan. Shuning uchun u shaharga kelishi bilan o'sha ayolnikiga boribdi, lekin undan biror narsani bilib olgunicha ikki-uch kun ketibdi. Menimcha, u qochoqlarning qayerdaligini yaxshi bilgan, lekin yaxshigina pul undirmaguncha aytishga rozi bo'lmagan. Haqiqatan ham, Uikxem Londonga kelishlari bilan unikiga borgan, agar bo'sh xona bo'lsa, o'sha yerda qolishni rejalashtirgan. Xullas, do'stimiz bir amallab bu ayoldan o'ziga kerakli axborotni sug'urib olgan. Ma'lum bo'lishicha, yoshlar ...stritda yashayotgan ekanlar. Mister Darsi avval Uikxem bilan ko'rishgan, keyin esa Lidiya bilan gaplashgan. Uning aytishicha, Lidiyani agar ota-onasi ruxsat bergan taqdirda uyga qaytishga ko'ndirmoqchi bo'lgan va o'z yordamini ayamashligini aytgan. Lidiya

esa qarori qat'iyiligini, uning qarindoshlari bilan qiladigan ishi yo'qligini, Uikxemdan ajralishni, hatto xayoliga ham keltirmasligini aytib, uning yordamidan ham voz kechibdi. Lidiya ertami, kechmi baribir Uikxem bilan albatta, nikohdan o'tishlariga ishonishini aytibdi. Uning gaplaridan kelib chiqib, mister Darsi endi nikoh masalalarini hal qilish kerakligiga va iloji boricha buni tezlashtirishga qaror qilibdi. Uikxem bilan birinchi marta gaplashgandayoq uylanish yigitning xayolida ham yo'qligini, polkdan ketishiga sabab qarzlari ekanligini aytib, qochish fikri Lidiyadan chiqqan, deb unga to'n-kab qo'ya qolibdi. U iste'foga chiqmoqchi ekan va kelayagini hali hal qilmagan ekan. Qayergaligi hali nomal'um, qayerlargadir ketishni rejalashtirayotgan ekan. Uning gaplaridan, yashash uchun hech vaqosi yo'qligi aniq ekan. Mister Darsi undan nima uchun Lidiya bilan darrov nikohdan o'tishmaganining sababini so'rabdi. Mister Bennetni juda boy deb bo'lmasa ham, Uikxemga foydasi tegishi mumkin edi va uning Lidiyaga uylanishi mavqeyiga ham ta'sir qilishi mumkin edi. Uikxemning javoblaridan u yangi joyda uylanib, shuning orqasidan ishlarini yo'lga qo'yib olishni rejalashtirgani mal'um bo'libdi. Bu ahvolda unga qilinayotgan, Uikxemning hamma ishlari birdaniga hal qilinishi mumkin bo'lgan taklifdan voz kechish qiyin ekan. Ular bir necha marotaba uchrashishdi – hal qilinadigan muammolar juda ko'p ekan. O'rtalarida hamma narsa kelishib olinishi bilanoq, mister Darsi bu xabarni yetkazish uchun men sizlarnikidan kelgan kunim, biznikiga kelibdi. Lekin o'sha kuni mister Gardiner uyda emasdi. U xizmatkordan otang shu yerdaligini, ertasi kuni ertalab ketmoqchi ekanligini eshitgan. Otang bilan suhbat mister Gardiner bilan bo'lgandek oson bo'lmasligini o'ylab, u otang ketgandan keyin kelishga qaror qilib jo'nab ketgan. U o'z ismini aytmagani uchun kim kelib ketganini hech kim bilmagan. Shanba kuni yana kelgan. Bu payt-

ga kelib otang yo'q edi, tog'ang uyda bo'lgan va yuqorida aytib o'tganimdek ikkalasi o'rtasida uzoq suhbat bo'lib o'tgan. Yakshanba kuni u yana kelgan, men ham uni o'sha kuni ko'rdim. Ular faqat dushanba kunigina nima qilishni hal qilishdi va o'sha zahoti Longbornga chopar yuborildi. Mehmonimiz juda qaysar ekan. Lizzi, menimcha, uning tabiatidagi salbiy jihati ayni shu qaysarligi bo'lsa kerak. Har xil paytlarda unga har xil salbiy sifatlarni yopishtirishgan. Lekin unda ayni o'jarlik bor. Uningcha, qilinishi kerak bo'lgan narsalarni faqat o'zi qilishi kerak, men aminmanki (bu gapni minnatdorchilik talab qilib aytayotganim yo'q), tog'angning o'zi ham bu ishlarni hal qila olgan bo'lardi. Ular bu haqda juda ko'p tortishishdi (bu gaplar tegishli bo'lgan odamlar bunga arzimasa ham). Nihoyat, tog'ang yon berishga majbur bo'ldi va jiyaniga yordam berish o'rniga, o'zi xohlamagan tarzda faqat yaxshilik qilayotgan (aslida, unday bo'lmasa-da) odamdek turib beradigan bo'ldi. Bugun ertalab sendan olingan xat uni juda xursand qildi, chunki xatda talab qilinayotgan tushuntirish uni o'zi qilmagan yaxshiligi uchun eshitajak minnatdorchilikdan qutqarar va bu minnatdorchilikni tegishli odamga yo'naltirar edi. Lekin azizam Lizzi, bu xatni hech kim, juda bo'lmaganda Jeyndan tashqari hech kim bilishi kerak emas. Sen, albatta, kuyov bilan kelin uchun nimalar qilinganini juda yaxshi bilishing kerak. Uikxemning ming funtdan ham oshib ketgan qarzini to'lash kerak edi. Yana ming funt o'zinikiga qo'shib, Lidiyaning nomiga o'tkazildi. Kuyovga patent sotib olindi. Mister Darsi nima uchun bu ishlarni qilayotganining sababini men senga yuqorida aytib o'tdim. Faqat uning aybi bilan uning hech narsa qilmagani va uzoqni ko'ra olmagani sababligina odamlar Uikxemning haqiqatda qanday odamligini bilmay qolishgan. Balki bu gaplar rostdir. Lekin azizam Lizzi, ishonching komil bo'lsinki, agar tog'ang bu yerda boshqa bir gap bor deb faraz qilma-

ganda, o'la qolsa ham bu shartga rozi bo'lmasdi. Hamma ishlar hal bo'lgandan so'ng, mister Darsi hali Pemberlida bo'lgan do'stlarining yoniga qaytib ketdi. Lekin nikoh kuni qolgan pul masalalarini ham hal qilib olish uchun yana Londonga keladigan bo'ldi. Menimcha, senga hamma narsani aytib bo'ldim, shekilli. Xatingdan tushunishimcha, bu gaplar seni rosa ajablantirsa kerak. Har holda, norozi bo'lmaysan, deb umid qilaman. Lidiya biznikiga ko'chib kelgan edi va Uikxemga ham bemalol kirib-chiqishga ruxsat berilgan. U Xartfordshirda qanday bo'lgan bo'lsa, o'shanday, hech ham o'zgarmagan. Agar Jeynning o'tgan chorshanbadagi xati bo'lmaganda men senga bu to'g'risida hech nima demasdim. Gap Lidiyaning o'zini tutishi haqida. U Longbornda o'zini qanday tutayotgan bo'lsa, bu yerda ham shunday bo'ldi. Men unga o'zini shunday tutishi orqasida oilasi boshiga tushgan sharmandalikni, bunday qiliqlari tarbiyasizlikdan darak berishini har qanaqasiga tushuntirishga urinmay, foydasi bo'lmadi. Agar sal bo'lsa ham foydasi bo'lganda xursand bo'lardim, yo'q, u o'zini eshitmaganga soladi. Bir necha marta jonim chiqib ketdi. Lekin shunday hollarda o'zimning Elizam va Jeyn jiyanlarimni eslab, sabr qilishga harakat qildim. Mister Darsi shartlashilgan vaqtda yetib keldi va sen Lidiyadan eshitganidek, nikoh marosimida qatnashdi. Ertasi kuni u biznikida tushlik qildi va chorshanba yoki payshanba kuni Londonga jo'nab ketadigan edi. Lizzi, azizam, vaqtdan foydalanib (shu kungacha hech haddim sig'mayotgan edi), menga mister Darsining qanchalik yoqqanini aytib qo'ymoqchiman. Uning biz bilan o'zini tutishi Derbishirda qanday bo'lgan bo'lsa, xuddi shunday edi. Mister Darsining dunyoqarashlari va aqli, menimcha, juda keng. Unga yetishmayotgan narsa faqat harakatlari sustligida, agar yaxshi umr yo'ldoshi uchrasa, bu tuzatsa bo'ladigan odat. U menga sal pismiqroq bo'lib tuyildi – sening

ismingni biror marta ham tiliga olmadi. Lekin hozir hamma shunaga shekilli. Xudo haqqi, iltimos, podadan oldin chang chiqarayapti, deb mendan ranjima. Men Pemberliga kelganimda jilla qursa yuzimga eshikni yopib qo'yadigan darajada ranjima. Bo'ldi, boshqa yoza olmayman – bolalarimga qarashim kerak.

Hurmat bilan M.Gardiner».

Bu xat Elizabetning ko'nglida g'alayon ko'tardi. Bu g'alayon ham quvonchdan, ham alamdan edi – qaysi biri ko'proqligini o'zi ham tushunmasdi. Mister Darsining uning singlisining turmushga chiqishidagi o'rni to'g'risida qizning oldingi (hatto o'ylashga ham haddi sig'mayotgani) noaniq taxminlari butunlay tasdiqlandi! U odatda bunday sharoitlarda bo'ladigan hamma ko'ngilsizliklarga, kamsitishlarga chidashni bo'yniga olib, ularni qidirib Londonga kelgan. O'zi ko'rishni ham istamagan, nomini tilga olishdan nafratlanadigan inson bilan bir emas, bir necha marta ko'rishib, unga pora berib sotib olgan. Bularning hammasini o'zi na hurmat qilmaydigan, na qadriga yetmaydigan qiz uchun qildimi? Elizabet yuragi bular hammasi uning uchun qilinganini aytib turardi. Lekin qiz hozirgi sharoitida yigitning bir paytlar unga rad javobi bergan qizga bo'lganchalik muhabbatga umid qilishga haqqim yo'q, deb hisoblagani uchun uning yuqoridagi taxmini noto'g'ri, deb hisoblardi. Buning ustiga mister Darsi Uikxem bilan qarindoshchilik qilish to'g'risida o'ylashning o'zidanoq ko'ngli ketsa kerak? Uikxemning bojasi! Sal g'ururi bor odam bunday qarindoshchilikdan bosh olib qochgan bo'lardi. To'g'ri, u juda ko'p narsani hal qildi. Qiz buning qanchaligini tasavvur qilishga ham uyalayotgan edi. Lekin u aralashuvining sababini (ishonsa bo'ladigan) tushuntirdi-ku! Go'yoki, o'zini aybdor deb hisoblayotgani to'g'riga o'xshaydi. U sa-

xiy edi va buni isbot qilish uchun sharoit bo'lib qoldi. Elizabet bu ishlarda yigitning ilgarigi unga bo'lgan munosabati asosiy sabab, deb o'ylamayotgan esa-da, bu munosabatlardan qolgan zarragina qismi ham o'zining ruhiy tinchligi bog'liq bo'lgan o'sha ishga bosh qo'shishga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Qutulishing amrimahol bo'lgan odamdan qancha narsada qarzdor ekanligingni his qilish qanday og'ir, qanchalik alamli! Lidiyani, uning or-nomusini qutqargan odam – shu! Elizabet hozir yigit haqida o'ylagan har bir yomon fikri uchun, unga aytgan har bir yomon gapi uchun shunchalik afsus qilayotgan edi! O'zini yerga urilgandek his qilayotgandi. Lekin shu bilan birga, yigit bilan g'ururlanayotgan ham edi, chunki u oliyhimmatlik va mardlikda yigit kutganidan ham a'lo edi. Qiz missis Gardinerning yigit haqida aytgan joylarini qayta-qayta o'qidi. Yigitning o'ziga naqadar azizligini his qildi. Missis Gardinerning uning mister Darsi bilan o'zaro bir-birlariga ko'ngli bor, deb ishonch bilan aytgan gaplaridan hatto xursand ham bo'ldi.

Qizning xayolini orqasidan eshitilgan qadam tovushlari bo'ldi. U sakrab turib ketayotganda orqasidan Uiksem yetib keldi:

– Sizning yolg'iz sayr qilishingizga xalaqit berdimmi, deb qo'rqaman.

– Rostdan ham, – kulib javob berdi Elizabet. – Lekin bu bevaqt degani emas.

– Rostdan shunday bo'lsa, men juda xafa bo'lgan bo'lardim. Axir biz yaqin do'st edik-ku, endi esa undan ham yaqinmiz, shunday emasmi?

– Ha, albatta. Kimdir yana aylanishga chiqqanmi?

– Bilmadim. Lidiya missis Bennet bilan Meritonga ketishdi. Demak, men mister va missis Gardinerlarning gaplaridan tushunishimcha, siz Pemberliga boribsiz-a?

Elizabet bu gapni tasdiqladi.

– Mening sizga havasim kelayapti. Lekin menga u yoqqa borish og‘ir bo‘lardi – bo‘lmasa Nyukaslga ketayotganimda kirish mumkin edi. Keksa xizmatchi ayolni ko‘rdingizmi? Bechora Reynolds, meni shunaqa yaxshi ko‘rardi! U albatta, men haqimda sizga hech narsa demagan bo‘lsa kerak?

– Yo‘q, dedi.

– Nima dedi?

– Armiyaga xizmatga kirganingizni va yana u yerda o‘zingizni yaxshi tutmaganingizni aytdi. Bilasizmi, uzoqda bo‘lganda ba‘zi gaplar boshqacha yetib boradi.

– Ha, rost, – dedi yigit lablarini tishlab.

Elizabet yigitning og‘zini yumdim, deb o‘yladi. Lekin yigit yana gapirishda davom etdi:

– Men yaqinda Londonda Darsini ko‘rib, hayron bo‘ldim. Biz bir necha marta uchrashdik. Qiziq, u Londonda nima qilayotgan ekan?

– Balki miss de Byor bilan to‘ylariga tayyorgarchilik ko‘rayotgandir? – so‘radi Elizabet. – Bu paytda u shaharga kelishi uchun uncha-muncha sabab bo‘lmasa kerak.

– Ha, albatta. Lemtonga borganingizda siz uni ko‘rdingizmi? Gardinerlarning aytganlaridan men ko‘rgansiz, deb tushundim.

– Ha, u meni singlisi bilan tanishtirdi.

– Singlisi sizga yoqdimi?

– Juda ham.

– Men ham ikki yil ichida u juda o‘zgargan, deb eshitdim. Qizni oxirgi marta ko‘rganimda, undan umid yo‘q edi. Sizga yoqqanidan juda xursandman. U keyin ham shundayligicha qoladi, deb umid qilaman.

– Mening bunga ishonchim komil. Axir, uning uchun xavfli bo‘lgan davrlar orqada qoldi, to‘g‘rimi?

– Kimton qishlog‘iga bormadingizmi?

– Bunday nomni eshitganim yo‘q.

– Men so‘raganim, u ayni men sizga aytganim, men umid qilgan prixod. Ajoyib joy! Pastorning uyi ham zo‘r! Men uchun hozir juda yaxshi bo‘lardi!

– Va‘zlar aytgan bo‘larmidingiz?

– Maza qilib! Hayotim mazmuniga aylangan bo‘lardi; o‘rganib olgandan so‘ng yengil bo‘lardi. Shikoyat qilish yaxshi emas, lekin goh-goh o‘ylab qo‘yasan-da – zo‘r bo‘lgan bo‘lardi, deb! Tinchlik va yolg‘izlik – mana shular haqiqiy baxt bo‘lsa kerak. Ammo buning iloji yo‘q. Kentda bo‘lganingizda Darsi sizga bularni aytmadimi?

– Darsidan kamroq bilmaydigan odamdan prixod sizga shartli ravishda qoldirilganini eshitdim. Oxirgi qarorni chiqarish hozirgi xo‘jayinning qo‘lida ekan.

– Ha-a-a, mana gap nimada! Ha, bu bir tomondan to‘g‘ri. Menimcha, bir payt gaplashib qolganimizda men buni sizga aytgandim.

Elizabet yigitdan tezroq qutulish uchun tez-tez yurganidan ular bu paytda uyning oldiga kelib qolishgandi. Singlisiga achingani uchun yigit bilan orani buzishni istamay, Elizabet unga qarab kulib, dedi:

– Menga qarang, mister Uikxem. Biz endi aka-singildekmiz. O‘tgan gaplarni eslamaylik. Kelajakda esa, hamma narsa to‘g‘risida bir xil o‘ylaymiz, deb umid qilaman.

Qiz qo‘lini Uikxemga uzatdi. U esa ko‘zini qayoqqa olib qochishni bilmay, qiz qo‘lini o‘pib qo‘ydi-da, ikkalari uyga kirishdi.

XI bob

Mister Uikxem Elizabet bilan bo‘lib o‘tgan suhbatdan shunchalik qoniqqan ediki, qizga endi o‘zining achinarli taqdiri to‘g‘risida boshqa gapirmadi. Qiz ham uning ovozini birato‘la o‘chirish uchun hamma gapini aytib olganidan xursand edi.

Tez orada yoshlarning jo‘naydigan kuni ham yetib keldi. Missis Bennet ularning bu yerda bo‘lishi, eri

Nyukaslga borish to'g'risida eshitishni ham xohlamayotgani uchun, kamida bir yilga cho'ziladi, deb umid qilayotgani uchun ularning ketishlariga zo'rg'a ko'nishga majbur bo'ldi.

– Lidiya, jonim, – xitob qildi missis Bennet. – Endi seni qachon ko'raman?

– Men qayoqdan bilaman? Balki ikki, balki uch yildan keyindir.

– Azizam, menga tez-tez xat yozib tur.

– Iloji bo'lsa. Erli xotinlarning xat yozishga vaqti bo'lmasligini bilsangiz kerak. Yaxshisi, menga opalarim ko'proq yozib turishsin. Ularning qiladigan ishi yo'q-ku!

Mister Uikxem qarindoshlar bilan quyuq xayrlashdi. U hammaga kulib qarab, chiroyli so'zlar aytdi.

– Bu yigit men umrim davomida ko'rgan eng zo'r yigit, – ular jo'nab ketishi bilan dedi mister Bennet. – Tirjayadi, hiringlaydi, hamma bilan hazillashadi! Men u bilan faxrlanaman. Menimcha, hatto Uilyam Lukas ham bunday kuyovni tug'dira olmasdi!

Qizining jo'nab ketishi missis Bennetni bir necha kunga izdan chiqardi.

– Men dunyoda aziz odaming bilan ayriliqdan yomon narsa bo'lmasa kerak, deb ko'p o'ylaydigan bo'lib qoldim, – derdi u. – U yoningda bo'lmasa hamma yoq bo'shab qolganga o'xshaydi.

– Mana, qizining erga tegishi nimaga olib kelar ekan, – dedi Elizabet. – U holda boshqa qizlaringiz yoningizdaligidan xursand bo'lishingiz kerak.

– Hech ham-da! Lidiya erga tekkani uchun uzoqqa ketmadi, Uikxemning polki boshqa yoqda bo'lgani uchun ketdi. Polk yaqinroqda bo'lganida u ketmagan bo'lardi.

Missis Bennetni bu holga solgan voqea asta-sekin o'z kuchini yo'qota boshladi va missis Bennet yaqinginada eshitgani yangilik sabab yana umid qila bosh-

ladi: Nezerfildning xizmatkori ikki-uch kundan keyin shu yerlarda ov qilish uchun otlangan xo'jayinining kelishiga uylarni tayyorlab qo'yishi kerak emish. Missis Bennet yana tinchini yo'qotdi. U dam o'tmay Jeynga qarab jilmayardi.

– Demak, singiljon, mister Bingli qaytib kelayotgan ekan-da? – ularga yangilikni missis Filips yetkazgan edi. – Juda ham yaxshi. Menga baribir, chunki u biz uchun hech kim emas, men uni ko'rishni xohlayotgan ham emasdim. Lekin uning Nezerfildga qaytishi, yaxshi bo'libdi. Nimalar bo'lishi mumkin, kim biladi? Ammo biz bu haqda hech gaplashmaymiz, deb kelishganmiz-ku! Uning kelishiga o'zing ishonayapsanmi?

– Menga bemalol ishonishing mumkin, – dedi singlisi. – Kecha missis Nikols Meritonga borgandi. Uning o'tib ketayotganini ko'rib, so'ragani oldiga yugurib bordim. U bu gaplarning rostligini aytdi. Mister Bingli chorshanbami, uzog'i bilan payshanbami kuni kelmish. Missis Nikolsning aytishicha, chorshanba kuniga go'sht buyurib qo'yish uchun qassob oldiga kiribdi. Baxtiga juda yetilgan oltita o'rdak bor ekan, rosa xursand bo'libdi.

Mister Binglining kelishi haqidagi xabardan miss Bennetning yuzlari qizarib ketdi. Elizabet bilan suhbatda uning nomini oxirgi marta tilga olganidan beri bir necha oy o'tib ketgan edi. Hozir singlisi bilan ikkalasi yolg'iz qolishganda u Elizabetga dedi:

– Xolam bu yangilikni aytganida menga qarab qo'yganingni sezdim. Senga kayfiyatim buzilgandek bo'lib ko'ringandirman. Bu mister Bingli bilan bog'liq, deb o'ylamagin. Shunchaki, hamma menga o'girilib qaragandek bo'lib tuyildi. Bu yangilikdan men xursand ham, xafa ham bo'lganim yo'q. Yaxshiyam uning bir o'zi kelayotgan ekan – u bilan uchrashib qolishga to'g'ri kelmaydi. Bundan qo'rqmayman, shunchaki har xil tagdor gaplar bo'lishidan qo'rqaman.

Elizabet nima deb o'ylashni ham bilmas edi. Agar mister Binglini Derbishirda uchratmaganida edi, uni rostdan ham hozir ov qilgani kelaypti, deb ishonsa bo'lardi. Lekin Derbishirda u hali ham opasini sevadiganga o'xshab ko'ringandi. Shuning uchun u hozir nima deb o'ylashga qiynalar edi: do'stining maslahati bilan kelayptimi yoki o'zi harakat qilishga qaror qildimikan?

«Bechoraga rosa qiyindir – qonunan o'ziniki bo'lgan uyga g'iybatlardan qo'rqib kela olmayapti. Menga qol-sa, xohlaganini qilmaydimi!»

Jeyn mister Binglining qaytib kelayotgani to'g'risidagi xabar uning uchun baribir, deb aytayotgan bo'lsa-da, Elizabet uning hayajonlanayotganini sezib turardi. Uning har bir harakatida odatda qizga xos bo'lmagan asabiylik, betoqatlik sezilayotgan edi.

Qizlarning ota-onalari o'rtasida esa bir yil ilgari rosa muhokama qilingan mavzu yana kundalik muammo-ga aylangandi:

– Azizim, mister Bennet, mister Bingli kelishi bilan siz albatta uni borib ko'rishingiz kerak, – derdi missis Bennet.

– Kechirib qo'yasiz! O'tgan yili buning uchun u qiz-larimizdan biriga uylanadi, deb va'da bergan edingiz. Lekin ko'rib turganingizdek, hech narsa bo'lmadi. Men endi bu gapingizga uchmoqchi emasman.

Xotini mister Binglining kelganini hamma qo'shni-lar yo'qlashi kerak, deb bir amallab erini ko'ndirishga urindi.

– Shunaqa odatlarni hech jinim suymaydi! – rad qildi eri. – Agar Bingli biz bilan ko'rishgisi kelayotgan bo'lsa, o'zi kelib ko'rsin. Biz qayerda yashashimizni u juda yaxshi biladi. Har bir qo'shnining kelgani-yu ketganini yo'qlayverish uchun mening bekorchi vaqtim yo'q.

– Bo'пти, demak, bormaysiz. Lekin u holda o'zim uni uyimizga taklif qilaman. Yaqinda biznikiga Goldinglar

bilan missis Long kelishmoqchi edi. Hammamiz bilan o'n uchta odam bo'lar ekan – uning uchun ham bitta o'rin bor.

O'zi qabul qilgan bu qaror missis Bennetga erining qo'polligini yutib ketishiga yordam berdi. Shunday bo'lsa-da, erining bu rad javobi deb, qo'shnilari undan oldin yigit bilan ko'rishishlari ayolga alam qilayotgan edi.

– Men uning kelishini hech xohlamayotgandim, – dedi Jeyn singlisiga. – Men uchun bordi-keldisi yo'q – u bilan hech narsa bo'lmagandek bemalol gaplasha beraman. Lekin bo'ladigan gap-so'zlardan qo'rqayapman. Onamiz menga yomonlik sog'inmayapti, tushunaman. Lekin uning gaplari meni qanchalik ezishini u tushunmayapti, buni hech kim tushunmaydi. U tezroq qaytib ketsa edi, men yana bemalol bo'lardim.

– Seni juda ovutgim kelayapti, lekin qo'limdan kelmaydi. Men senga hatto odatda bunday vaziyatlarda aytiladigandek «biroz chida», ham deya olmayman, chunki shundoq ham qancha narsaga chidayapsan.

Mister Bingli keldi. Missis Bennet xizmatkorlar yordamida bundan tezda xabar topdi va uni qachon mehmonga chaqirsa qulay bo'larkan, deb hisoblay boshladi. Uning yigitni oldinroq ko'rishga umidi yo'q edi. Lekin yigit Xartfordshirga kelganining uchinchi kuni u yotoqxonasining derazasidan yigitning otda ularning uylari tomon kelayotganiga ko'zi tushdi. Suyunib ketganidan qizlarining hammasini deraza oldiga chaqirdi. Jeyn stol oldidan turishni xohlamadi. Lekin Elizabet onasi xursand bo'la qolsin deb derazadan tashqariga qaradi-da, Binglining yonida mister Darsi ham borligini ko'rib, opasining yoniga keldi.

– Uning yonida qandaydir yigit ham bor. Onajon, u kim bo'lishi mumkin? – so'radi Kitti.

– Birorta tanishidir-da, qizim, men qayoqdan bilaman.

– Voy! – qichqirib yubordi Kitti. – Menimcha, u oldin doim mister Bingli bilan yurgan jentlmen-ku! Mister... nima ham edi-ya... bo'ylari baland, kekkeygan...

– Voy xudoyim! Mister Darsi! Ont ichaman, o'sha. Nima qildik, biz mister Binglining do'stlarini, kim bo'lishidan qat'i nazar, kutib olishdan xursandmiz. Lekin ochig'ini aytsam, ular do'st bo'lishmaganda Darsining ko'rinishining o'zidanoq g'azabim qaynab ketgan bo'lardi.

Jeyn taajjub va hamdardlik bilan Elizabetga qarab qo'ydi. U Derbishirda bo'lib o'tgan voqealardan deyarli bexabar edi. Shuning uchun yigit o'sha esda qoladigan maktubini berganidan keyin Darsini, uning nazarida endigina ko'rayotgan singlisining ahvolini juda yaxshi tushunib turardi. Ikkala qizning ahvoli juda achinarli edi. Ikkalasining dardi to'lib-toshgan va bir-birlariga rahmlari kelayotgan edi. Shuning uchun ular onalarining mister Darsiga uning befarqligi, u bilan faqat mister Binglining do'sti bo'lgani uchungina yumshoq munosabatda bo'lmoqchiligi to'g'risida aytayotgan gaplarini eshitishmadi. Elizabetning xavotir bo'lishiga opasi hali bexabar bo'lgan sabab bor edi. U hali opasiga missis Gardinerdan olgan maktubini ko'rsatishga ulgurmagan va o'zining mister Darsiga nisbatan munosabati o'zgarganini ham aytmagan edi. Jeyn uchun u singlisi sevgisini rad qilgan va fazilatlarining to'la qadriga yetmagan bir yigit edi, xolos. Lekin Elizabet ko'proq narsani bilardi. U yigit qiyofasida ularning oilasiga beqiyos yaxshilik qilgan do'stni ko'rayotgan va unga nisbatan balki Jeyn Bingliga nisbatan his qilayotgan tuyg'ulardan ham nozikroq bir tuyg'uni his qilardi. Uning kelishi, Nezerfild va Longbornda paydo bo'lishi, qiz bilan uchrashishga ochiqdan-ochiq intilishi – bular hammasi Derbishirda uning o'zini tutishi qizni qanchalik hayron qoldirgan bo'lsa, hozir ham shunchalik hayron qoldirayotgan edi.

Qiz yigitning unga nisbatan bo'lgan sevgisi o'zgar-magani va qiz yuragini zabt qilish istagi so'nmaganini o'ylaganda uning yuzlarida chiroyli kulgi jilvalandi va yonoqlariga qizillik yugurdi. Lekin shu bilan birga u bekorga umid qilishni ham xohlamasdi.

«Oldin ko'raylik-chi, u o'zini qanday tutarkin, – o'z-o'ziga dedi qiz. – Orzu qilishga hali ulguramiz».

Elizabet xuddi tikayotgan ishiga berilgandek, ichida-gi g'ulg'ulani tinchitishga urinib va ko'zlarini ko'tarishga ham haddi sig'may o'tirar edi. Eshik tagida qadam to-vushlarini eshitib, yonida o'tirgan opasiga qarab qo'ydi. Jeyn biroz rangi oqargan, lekin Elizabet kutgandan an-cha xotirjamroq ko'rinardi. Mehmonlar kirib kelishgan-da, u qizarib ketdi. Lekin shunga qaramay mehmonlar-ni xotirjam kutib oldi va uning o'zini tutishida na araz va na keragidan ortiq xushmuomalalik bor edi.

Elizabet mehmonlarning har biri bilan mehmon-do'stlik odatlari qanday talab qilsa, shunday darajada so'rashdi va tikishini davom ettirdi. Faqat bir martagi-na boshini ko'tarib, Darsiga qarashga yuragi dov berdi. Yigit odatdagiday jiddiy edi va qiz uning hozir u Pem-berlidagi Darsi emas, u birinchi marta Xartfordshirda ko'rgan Darsiga o'xshayotganini sezdi. Balki u qizning onasining oldida o'zini uning tog'asi va uning xotini ol-dida tutgandek tuta olmayotgandir? Bunday taxmin, qanchalik yoqimsiz bo'lmasin, rostga o'xshardi.

Qiz Bingliga ham bir nazar tashlashga ulgurdi – u juda baxtli va hayajonlanayotganga o'xshardi. Mis-sis Bennet yigitni juda ehtirom bilan qarshi oldi. Qiz-lar esa onalarining yigitning do'sti bilan quruqqina so'rashib qo'rganidan xijolat bo'lishdi. Ayniqsa, onasi eng yaxshi ko'rgan qizini sharmandalikdan qutqargan Darsidan minnatdor bo'lishi kerakligini yaxshi bilgan Elizabet juda noqulay ahvolda edi.

Darsi qizarib ketgan qizdan mister va missis Gar-dinerlarning salomatliklari to'g'risida so'radi va Eli-

zabet uning savoliga zo'rg'a javob qaytargach, boshqa og'zini ham ochmadi. Qiz bilan yigit bir-birlaridan ancha uzoqda o'tirishardi va yigitning jimligini shu bilan tushuntirish mumkin edi. Lekin Derbishirda hammasi boshqacha edi. U yerda qiz bilan gaplasha olmasa, uning yonidagilar bilan gaplashardi. Bu yerda esa yigit ovozi ham chiqmayotgan edi. Yuragi qizib ketayotgan Elizabet unga o'g'rincha qarab qo'yganda u goh qizga, goh Jeynga qarayotgan yoki shunchaki yer chizib o'tirgan bo'lardi. Darsining sarosimalanishi va oldingi safardagidek qizga yoqishga harakat qilmayotganining sababi ma'lum edi. Qizning orzulari chil-chil singan va o'zidan-o'zi nafratlanib ketayotgan edi.

«Nimani kutayotgandim o'zi? – qiz o'zidan so'radi. – Unda nega bu yerga keldi?»

Qiz hech kim bilan gaplashgisi kelmayotgan, yigitga gapirishga esa haddi sig'mayotgan edi. Miss Darsining sog'lig'ini so'rashdan boshqa hech narsa uning xayoliga kelmadi.

– Bu yerdan ketganingizga juda ko'p bo'ldi-a, mister Bingli? – deb qo'ydi missis Bennet.

Mister Bingli boshini qimirlatib qo'ydi.

– Men siz endi qaytib kelmasangiz kerak, deb o'ylay boshlagandim. Sizni Mixaylovo kunigacha ijaradan bosh tortadi, deyishayotgan edi. Bunday bo'lmas, deb umid qilaman. Siz yo'qligingizda shuncha yangiliklar bo'ldi! Miss Lukas turmushga chiqdi va endi o'zining uyida yashayapti. Mening qizlarimdan biri ham. Eshitgan bo'lsangiz kerak – bu haqda gazetalarda ham yozishgan edi, o'qigandirsiz. «Kurer» va «Tayms» gazetalarida yozishgandi. Kutganimizchalik bo'lmasa-da, har holda... Faqatgina: «Yaqinda Jorj Uikxem, eskvayr miss Lidiya Bennetga uylandi» xolos... Na qizning otasi haqida, na qayerdanligi haqida – hech narsa. Bu mening ukam mister Gardinerning ishi. Nima jin urib janjallashib qoldi, tushunmayman. Siz o'qidingizmi?

Mister Bingli to'yi haqida eshitganini aytarkan, vaqtdan foydalanib, missis Binglini to'yi bilan tabrikladi. Elizabet boshini ham ko'tara olmayotgani uchun bu mister Darsiga qanday ta'sir qilganini ko'ra olmadi.

– Qizingiz yaxshi joyga turmushga chiqsa, bu chindan ham katta baxt, – gapida davom etdi missis Bennet. – Lekin ularning bizdan juda uzoqqa ketishayotgani adolatdan emas. Ular shimolga, juda uzoqqa, Nyukaslgga ketishdi. Xudo biladi, endi u yerlarda qancha bo'lisharkin. Uikxemning polki o'sha yerda joylashgan. Siz uning ...shir polkidan ketib, harakatdagi armiyaga xizmatga kirganini eshitgansiz, shekilli. Uning ko'p bo'lmasa-da, xudoga shukur, qancha kerak bo'lsa shuncha yaqin do'stlari bor.

Bu gap mister Darsiga tekkizib aytilganini tushungan Elizabet, o'zini xo'rlangandek qis qilib, joyida zo'rg'a o'tirardi. Lekin onasining ayni shu so'zlari uning sabr kosasini to'ldirdi va u gapga qo'shilishga qaror qildi. Qiz Binglidan Nezerfildga qancha kunga kelganini va nimalar qilmoqchiligini so'radi.

– O'zingiz tomondagi hamma yovvoyi qushlarni otib bo'lganingizdan so'ng, bizlarnikiga kelavering, mister Bingli, – gapga qo'shildi missis Bennet. – Siz mister Bennet yerlarida xohlaganingizcha ov qilishingiz mumkin. Ishonavering, u bundan juda xursand bo'ladi.

Onasining chegara bilmaydigan yopishqoqligi Elizabetni battarroq uyaltirdi. Qiz o'tgan yilgi orzular yana qaytadan tug'lsa, tez orada yana puchga chiqishiga ishonchi komil edi. Hozir o'zi va Jeyn his qilayotgan azoblar yillar davomida baxtli bo'lishsa-da, og'rig'i ketmaydigandek edi.

«Mening eng xohlayotgan narsam – endi bu odamlarni ortiq ko'rmaslik, – o'zicha o'ylardi qiz. – Ularning bu turishlaridan bizga hech qanday naf yo'q. Iloyim, na unisini, na bunisini boshqa ko'rmay!»

Yillar davomida baxtli bo'lishsa-da, og'rig'i ketmaydigandek azob, Jeynning jozibasini uning ilgarigi xush-

toriga hali ham kuchli ta'sir qilayotganini ko'rib, Elizabetga juda ham og'riqli emasday tuyuldi. Yigitlar kirib kelishgani zahoti Bingli Jeyn bilan biroz gaplashgandi. Vaqt o'tgan sari yigitning qizga e'tibori orta bordi. U qizning avvalgidan ham chiroyli bo'lib ketganini his qildi. Hali ham yoqimli va tabiiy, lekin biroz indamas bo'lib qolibdi. Jeyn esa o'zini xuddi hech o'zgarmagandek tutishga harakat qilar, u oldin qanday gapirgan bo'lsa, shuncha gapirayotgandek edi. Lekin uning miyasi to'xtamay ishlar, o'zining indamayotganini o'zi sezmayotgan edi.

Yigitlar ketishga o'tlanishganda, har qanaqasiga mister Bingliga mulozamat qilishga urinayotgan missis Bennet ularni bir kuni kelib Longbornda tushlik qilib ketishga taklif qildi:

– Mister Bingli, siz mendan qarzdorsiz. Yodingizdami, o'tgan qish shaharga ketayotganingizda qaytib kelgach, bizlar bilan tushlik qilishga va'da bergandingiz. Ko'rdingizmi, mening esimda. Ochig'ini aytsam, va'dangizni bajarish uchun Xartfordshirga qaytib kelmaganingizga ancha xafa bo'ldim.

Bu so'zlarni eshitib, mister Bingli nima deyishni bilmay qoldi, sekingina uni ushlab qolgan ishlar haqida nimalardir deb qo'ydi. So'ng, ular jo'nab ketishdi.

Missis Bennet yigitlarni o'sha kunning o'zida mehmonga chaqirgisi kelayotgandi. Lekin dasturxonlari har doim yaxshi bo'lsa-da, katta umid bog'layotgani yigitni kutib olish uchun hamda yigitning yiliga o'n ming foyda oladigan do'stining ishtahasi va maqtanchoqligini qondirish uchun taomlar sonini ko'paytirishga qaror qildi.

XII bob

Yigitlar jo'nashlari bilan Elizabet biroz o'zini bosib olish niyatida aylangani chiqib ketdi. U kun davomida bo'lib o'tgan, ayniqsa, uning yuragini yaralagan

gap-soʻzlarni yana bir marta oʻylab koʻrmoqchi edi. Uni hayron qoldirayotgan va qiynayotgan narsa Darsining oʻzini tutishi edi.

«Indamay oʻtirar ekan, nimaga keldi oʻzi?» – oʻylardi u.

Qiz oʻzini zarracha boʻlsa-da, xursand qiladigan bi-ror sababni topa olmayotgan edi.

«Yaqinginda Londonda u togʻamlar bilan juda yaxshi munosabatda boʻlibdi. Men bilan esa nega bunday? Agar mening oldimda noqulay boʻlayotgan boʻlsa, unda nega bu yerga keldi? Men bilan hech ishi yoʻq ekan, unda ichimdagini top deyishi nimasi? Bu odam qancha kuchimni olayapti! Endi u haqda oʻylamayman».

Koʻrinishidan juda baxtiyor Jeyn uning yoniga kel-guncha biroz vaʼdasiga vafo qildi. Jeynning, Elizabet-dan farqli oʻlaroq, ertalabki uchrashuvdan xursandli-gi koʻrinib turar edi.

– Birinchi uchrashuv orqada qolganiga ancha yengil boʻldim, – dedi Jeyn. – Oʻzimning kuchimga ishona boshladim va uning kelishi endi meni bezovta qilmay-di. Seshanba kuni biznikiga tushlikka kelayotganidan hatto xursandman. Oʻshanda, hamma bizning oʻrta-mizda oddiy tanishlikdan boshqa hech gap yoʻqligiga ishonch hosil qiladi.

– Ha, ha, oddiy tanishlik, – kuldi Elizabet. – Jeyn, menga qara, ehtiyot boʻl!

– Lizzi, azizam, mendan xavotir olayapsan, nima meni shunaqa kuchsiz deb oʻylayapsanmi?

– Men u seni battarroq sevib qolishidan ehtiyot boʻl, deyapman.

* * *

Kelasi seshanba kunigacha yigitlar boshqa koʻri-nishmadi. Bu kunlar ichida missis Bennet mister Binglining yarim soatlik kelib-ketganidan yana katta umidlar qila boshladi.

Seshanba kuni Longbornga juda ko'p odam yig'ildi. Alohida bir sabrsizlik bilan kutilayotgan ikki mehmon aniq aytilgan paytga yetib kelishdi. Hammalari yemakxonaga kirishayotganda Elizabet Binglining oldingi safar o'tirgan joyi – Jeynning yonidagi stulga borib o'tirarmikan, deb qiziqib qarab turdi. Qizning shu xayol bilan o'tirgan onasi ham yigitni o'zining oldiga chaqirib o'tirmadi. Xonaga kirgan Bingli oldiniga nima qilishni bilmay turar ekan, Jeyn bexosdan qilganday atrofga qarab jilmayib qo'ydi va hamma ish hal bo'ldi-qo'ydi: yigit uning oldiga borib o'tirdi.

Elizabet yigitning do'stiga tantana bilan qarab qo'ydi. U esa bu voqeaga pinagini ham buzmad. Agar Binglining do'stiga hazilona bir tarzda qarab qo'ygani sezmagani, qiz Bingli baxtli bo'lish uchun ruxsat so'raganmikin, deb o'ylagan bo'lardi.

Yigitning tushlik davomida Jeynga nisbatan o'zini tutishi uning qizga bo'lgan tuyg'ulari o'sha-o'shaligidan darak berardi. Avvalgi uchrashuvlarga nisbatan, o'zini ehtiyotkorona tutayotgan bo'lsa-da, u va Jeyn agar ularga hech kim xalaqit bermasa, bir-birlariga to'yib olmoqchi ekanliklari aniq ko'zga tashlanib turardi. Oldindan bir narsa deyishga qo'rqayotgan Elizabet Binglining o'zini tutishiga qarab xursand bo'lib ketayotgandi. Faqat shu narsagina uning ushbu damdagi kayfiyatini biroz bo'lsa-da, ko'tardi. Mister Darsi Elizabetdan uzoqroqda, missis Bennetning yonida o'tirdi. Elizabet ularning ikkalasi ham bu qo'shnichilikdan suyunib ketishmayotganini juda yaxshi tushunib turar edi. Bunchalik uzoqdan qiz ularning nimalar deyishayotganini eshita olmasdi. Lekin ularning bir-birlari bilan juda kam gaplashayotganlarini va shunda ham gaplari qisqa va quruqqina ekanligini his qilib turardi. Onasining yigitga nisbatan mulozamat qilmayotgani Elizabetning ular yigitdan qanchalik qarz-dorliklarini yanada chuqurroq eslatdi. Ba'zi paytlarda

qiz unga oila a'zolaridan bittasi uning qilgan hamma yaxshiliklaridan xabardorligini, buning uchun undan bir umr minnatdor ekanliklarini ayta olish uchun hamma narsasini qurbon qilishga tayyor bo'lar edi.

Qiz oqshom davomida biror tasodif ularni to'q-nashtirib qo'yadi va u mister Darsi bilan faqat salom-lashibgina qo'ya qolmay, ko'proq gaplashish imkoni bo'ladi deb umid qilayotgandi. Xavotirlangan va ha-yajonlangan qiz mehmonlar kelguncha shunchalik charchagan holda o'tirardiki, tashqaridan xuddi be-hurmatlikdek bo'lib tuyilishi mumkin edi. Ularning kelishini u: «Bu bizga birorta xursandchilik olib kelar-mikin», degan xayol bilan kutayotgan edi.

«Agar u bu safar ham mening oldimga kelmasa, – o'ylardi qiz, – demak, u men uchun butunlay yo'qolgan».

Yigitlar kirib kelishdi. Mister Darsining ko'rinishi-dan qizning umidlari ro'yobga chiqadigandek edi. Le-kin... ayollar stol atrofida shunday o'tirishar ediki, bir stulda choy quyayotgan Jeyn, yonida qahva quyayot-gan Elizabet bo'lib, yaqin orada yigit o'tirishi uchun joy yo'q edi. Yigitlar ularning oldilariga yaqinlashgan-larida, qizlardan biri Elizabetning qo'llaridan ushlab, shivirladi:

– Yigitlar bizga xalaqit berishlarini xohlamayman. Ularning bizga keragi yo'q-a, to'g'rimi?

Darsi xonaning boshqa tomoniga qarab ketdi. Qiz u so'rashayotgan va gaplashayotgan har bir odamga havasi kelib, hammaga qahva quyib berishga sabri ye-tishiga ko'zi yetmay, yigitni kuzata boshladi. Shu payt birdan o'zining shunchalik soddaligiga hayron qoldi.

«Men rad qilgan odam! U meni yana sevib qoladi, deb o'ylashim qanday tentaklik! Axir, erkaklar orasida ikkinchi bor o'z sevgisini izhor qilishga jazm qila oladi-gani bormikan?»

Lekin yigit undan yana qahva quyib berishini so'ra-ganida, qiz biroz yengil tortdi. Fursatdan foydalanib so'radi:

– Singlingiz hali ham Pemberlidami?
– Ha, Rojdestvo bayramigacha o'sha yerda bo'ladi.
– U bilan hech kim qolmaganmi? Do'stlari hammasi ketib bo'lishganmi?

– Missis Ensli hali o'sha yerda. Qolgan ayollar uch hafta burun Skarboroga jo'nab ketishdi.

Elizabet yana nima deyishni bilmay jim qoldi. Agar yigit suhbatni davom ettirishni xohlasa, o'zi biror mavzu topgan bo'lardi. Lekin yigit uning yonida bir necha daqiqa indamay turdi va qizlardan biri Elizabetning qulog'iga shivirlab nimadir deyotganida, sekingina chetga chiqdi.

Dasturxon yig'ishtirilib, stolning usti qarta o'ynashga tayyorlandi. Elizabet yigit endi yoniga kelar, deb kutib turganda missis Bennet yigitni to'xtatib, ro'parasiga o'tqazdi va u bilan vist o'ynay boshladi. Qiz endi bu mehmondorchilikdan boshqa hech narsa kutmay qo'ydi. Ular ikkalasi mehmondorchilikning oxirigacha xonaning qarama-qarshi tomonida o'tirishdi va qiz faqatgina yigit goh-goh o'zi tomonga qarab qo'yishidan, uning ham o'ziga o'xshab yomon o'yinchiligidan umid qilardi.

Missis Bennet mister Bingli va uning do'stini kechki ovqatga ham olib qolishni rejalashtirgandi. Lekin yigitning ekipaji kelgani sabab ayol ularga ruxsat berishga majbur bo'ldi.

– Qizlar, qalay, bugungi mehmondorchilikka nima deysiz? – hamma jo'nab bo'lgach, dedi u. – Hammasi zo'r bo'ldi. Dasturxon chiroyli yasatilganini sezdingizmi? Kiyik go'shti juda yaxshi qovurilibdi, hamma hali bunaqa mazali go'shtni yemaganini aytdi. Sho'rva-chi, bir hafta oldin missis Lukaslarnikida ichganimizdan butunlay farq qiladi. Hatto mister Darsi kakliklar zo'r pishirilganini aytdi. Uning o'zinikida kamida ikki-uchta fransuz oshpazlari bo'lsa kerak. Jeyn, jonim, sen hech qachon bugungichalik chiroyli ko'rinmaganding. Missis Long ham shunday deyapti – mening savolim-

ga xuddi shunday javob berdi. Bilasanmi, yana nima dedi? «Missis Bennet, qizingizning peshonasiga Nezerfildda yashash yozilgan!» Ha, ha, xuddi shunday dedi! Biram yaxshi ayol shu missis Long – hech boshqalar-ga o'xshamaydi. Jiyanlari-chi, to'g'ri, chiroyli emas, le-kin biram tarbiyali. Ularni shunday yaxshi ko'raman.

Qisqacha aytganda, missis Bennetning kayfiyati zo'r edi. U Binglining qiziga munosabatini yaxshilab kuzatgan va qizimga albatta uylanadi, deb xulosa qil-gan edi. Kayfiyati a'lo bo'lgani holda, buyog'i endi tez ketadi, deb kutayotganda, ertasi kuni ertalab yigit Jeynga uylanishga uning roziligini so'rab kelmagani uning hafsalasini pir qildi.

– Kechagi kun juda ajoyib bo'ldi-a? – dedi Jeyn sing-lisiga. – Kelganlar hammasi bir-birlariga mos tushish-di. Bundan keyin ham uchrashib turamiz, deb umid qilaman.

Elizabet jilmaydi.

– Lizzi, nega kulasan? Mendan shubha qilishing-ning hojati yo'q. Menga yoqmayapti. Men boshqa hech nimani his qilmagan holda u yigit bilan shuncha-ki maza qilib suhbatlasha olishni o'rgandim, menga ishonaver. Men yana unda qalbimni zabt etish istagi bo'lmaganini ham anglab yetdim. Tashqaridan shun-day bo'lib ko'ringandir, chunki boshqa odamlarga qa-raganda unda o'zining atrofida qilarga quvonch ulasha olish qobiliyati bor ekan.

– Sen juda qattiqqo'llik qilayapsan, – javob berdi Elizabet. – O'zing kulish uchun menga sharoit yaratib, yana menga kulishni taqiqlab qo'yyapsan.

– Ba'zan birovni gapingga ishontirish juda ham qiyin.

– Ba'zan esa, umuman iloji yo'q.

– Nega men seni o'zim ham bilmayotgan narsani his qilayotganimga ishontirishim kerak?

– Bu savolga javob bera olmasam kerak. Hamma-miz birovni o'qitishni yaxshi ko'ramiz, vaholanki, ayt-

ganlarimiz bilib qo'yishga arzimasa ham. Meni kechirasan. Mister Bingliga befarqman, deb meni ishontirishga urinmoqchi bo'lsang, meni boshqa sirdosh dugona demay qo'ya qol.

XIII bob

Mehmondorchilikdan bir necha kun o'tgach, mister Bingli yana Longbornga tashrif buyurdi. Bu safar u do'stisiz edi. Mister Darsi o'sha kuni ertalab, o'n kundan keyin yana Nezerfildga kelishni rejalashtirib, Londonga jo'nab ketgan edi. Bingli bu yerda bir soatdan ortiq bo'ldi. Uning kayfiyati a'lo edi. Missis Bennet uni birga tushlik qilishga taklif qildi, lekin afsuski, yigitning boshqa boradigan joyi bor ekan.

– Keyingi safar kelganingizda albatta vaqtingiz bo'ladi, deb umid qilaman, – dedi missis Bennet.

Yigit bu taklifdan juda minnatdorligini, imkon bo'lishi bilan albatta kelishini aytdi.

– Ertaga kela olasizimi? – darrov so'radi missis Bennet.

Yigit ertaga bo'sh bo'lib, albatta kelishini aytdi va chindan ham ertasi kuni ertalab, ayollar hali kiyinishga ham ulgurmaslaridan oldin yetib keldi.

Missis Bennet bitta xalatda, sochlari hali taralmagan holda yo'l-yo'lakay baqirib, qizining xonasiga chopdi:

– Jeyn, qizim, bo'la qol tezroq! Tez-tez bo'lib pastga tush. U keldi! Mister Bingli keldi! Xudo haqqi, chindan. Tezroq! Tezroq! Sara, Lizzining sochini qo'ya tur, unikini keyinroq qilasan, miss Bennetga yordamlash.

– Tayyor bo'lishimiz bilan tushamiz, – dedi Jeyn.
– Kitti vaqtilroq tushsa kerak, u allaqachon xonasiga ketgan edi.

Lekin onasi chiqib ketgandan so'ng Jeyn, birorta singlisi bo'lmasa, o'zi hech ham yolg'iz tushmaslikka qaror qildi.

Missis Bennet nima qilib bo'lsa-da, yoshlarni yolg'iz qoldirgisi kelayotgandi. Choydan so'ng mister Bennet odatdagidek kutubxonasiga yo'naldi, Meri esa musiqa bilan shug'ullanish uchun xonasiga ketdi. Ikki xalaqit beradigan to'siq bartaraf etilgach, missis Bennet Elizabet bilan Kittiga ko'z qisa boshladi. Uning harakatlariga ancha paytgacha e'tibor berishmadi: Elizabet ataydan sezmaganga solib o'tiraverdi. Axiri, Kitti hech narsa tushunmaganday so'radi:

– Nima deysiz? Nega ko'zingiz bilan imlayapsiz? Biron nima qilaymi?

– Hech narsa, qizim, hech narsa, senga shunday ko'ringandir.

Shundan so'ng missis Bennet besh daqiqacha jim o'tirdi. Lekin bunday qulay fursatni qo'ldan boy bergisi kelmay, o'rnidan turib Kittiga: «Qizim, yur, men senga bir gap aytaman», – deb xonadan olib chiqib ketdi. Jeyn Elizabetga chiqib ketmaslikni so'ragandek, qarab qo'ydi.

Bir necha daqiqalardan keyin eshik ochilib, missis Bennet Elizabetni chaqirdi:

– Lizzi, jonim, bu yoqqa qara, senda gapim bor.

– Bilasanmi, biz ularni yolg'iz qoldirishimiz kerak, – Elizabet chiqishi bilan dedi missis Bennet. – Biz boshqa xonaga kirib turamiz.

Elizabet onasi bilan bahslashib o'tirmadi, lekin onasi bilan Kitti ketishguncha kutib turdi-da, so'ng mehmonxonaga qaytib kirdi.

Bu gal ham missis Bennetning kutgani bo'lmadi. Binglining hali hech narsa taklif qilmaganini hisobga olmaganda, hamma narsa yaxshi ketayotgandi. Uning tabiatidagi xushmuomalalik va o'zini bemalol tutishi bu xonadondagi hayot tarziga ancha jonlanish kiritayotgan edi. Ayniqsa, qizlar uning missis Bennetning haddan ortiq g'amxo'rligiga chidab berishi va uning hamma beandisha gaplarini ham indamay yutib ketayotganidan beadam minnatdor edilar.

Uni ovqatlanib ketishga undashning hojati bo'lmadi. U jo'nab ketishidan oldin ertasi kuni mister Bennet bilan ovga chiqishlari to'g'risida kelishib olishdi.

Jeyn endi Bingliga nisbatan hech narsa his qilmayapman, demay qo'ygandi. Ikkala opa-singil suhbatlashayotganda yigit nomi tilga olinmadi, lekin Elizabet, agar mister Darsi kutilgandan oldin kelib qolmasa, yaqinda opasining ishlari yaxshilik bilan tugashiga ishonch bilan uyquga ketdi. Lekin bir tomondan, qiz, hamma narsa Darsining roziligi bilan bo'layapti, degan fikrdan ham yiroq emasdi.

Bingli ertasi kuni kelishilgan paytga yetib keldi va ancha vaqtgacha mister Bennet bilan bo'ldi. Binglining hamrohi u kutganidan ancha yoqimli chiqib qoldi. Bingli ham o'ziga bino qo'yg'an ahmoq emasdi va u mister Bennetning unga istehzo qilishiga yoki o'z qobig'iga o'ralib olishiga yo'l qo'ymadi. Shu sabab mister Bennet oldingi safarlar kabi g'alati qiliqlar qilmadi va Bingli bilan ochiq muomalada bo'ldi. Albatta, mister Bennet va Bingli tushlikka birga kelishdi, kechqurun esa missis Bennet yana qizi bilan yigitni yolg'iz qoldirish uchun bahona o'ylab qoldi: xat yozishi kerak bo'lgan Elizabet o'z xonasiga qarab ketdi, qolganlar esa qarta o'ynash uchun stol atrofiga yig'ildilar. Elizabet hozir onasiga qarshilik qilishning keragi yo'q, deb hisoblayotgandi.

Lekin xatni yozib bo'lib xonaga qaytgan Elizabet onasining bu bahonalariga qarshi kurashishda juda ham o'z-o'ziga ishonib yuborish ham kerak emasligini his qildi: xona eshigini katta ochib kirar ekan, opasi bilan yigitning kamin oldida berilib suhbatlashayotganlarini ko'rdi. Bu hol hech qanday shubhaga o'rin qoldirmasa-da, ularning birdan o'girilib qarab, bir-birlaridan tez uzoqlashganlaridagi yuz ifodalari bo'lib o'tgan voqeaga gumonsirashga o'rin qoldirmasdi. Ularning hozirgi holatlari juda noqulay edi. Lekin Elizabetniki esa ularnikidan ham battar edi. Hech kim

hech narsa demadi va Elizabet chiqib ketishga otlanganda, divanda o'tirgan Bingli sakrab turdi-da, Jeynga sekin nimadir deb, xonadan chiqib ketdi.

Yaxshi xabarlar aytishga kelganda Jeyn singlisidan hech narsani yashira olmasdi. Haddan ortiq hayajonlangan qiz singlisining bo'ynidan mahkam quchib oldi-da, o'zini dunyodagi eng baxtiyor inson, deb sanayotganini aytdi:

– Bu men uchun haddan tashqari ko'p! – dedi u. – Rost, juda ko'p. Axir, men bunga loyiq emasman-ku! Nimaga hamma ham menchalik baxtli bo'lolmaydi?!

Singlisi Jeynni so'z bilan ifodalab bo'lolmaydigan darajada sidqidildan, qizg'inlik bilan tabrikladi. Uning har bir so'zi yurakdan chiqayotgan edi va Jeyn uchun yana bir rohat baxsh etdi. Jeyn hozir Elizabetga hamma gapni aytib berish uchun u bilan uzoq qololmasdi:

– Tezroq onamning oldiga borishim kerak. Uning men uchun qanchalik qayg'urganini unutishim kerak emas. Men uning bu gaplarni boshqalardan eshitishini istamayman. Mister Bingli hozir otamning oldiga ketdi. Lizzi, jonginam, mening gaplarim oilamizga qancha quvonch keltiradi! Qanday qilib shuncha baxtni ko'tarib yuraman!

Shu gaplarni gapirib, Jeyn qarta o'ynashni tugatib tepada Kitti bilan o'tirgan onasining oldiga yugurdi. Yolqiz qolgan Elizabet ularni shuncha qiynagan, esankiratgan qiyinchiliklarning qanchalik oson va yengil hal bo'lgani to'g'risida o'yladi:

– Mana, uning opa-singillarining hamma nayranglari, do'stining ehtiyotkorligi nimaga olib keldi! Eng yaxshi, eng tabiiy va eng aqlli nihoya!

Bir necha vaqtdan so'ng qizlar otasi bilan suhbat muvaffaqiyatli tugagan mister Bingli xonaga qaytib kirib, so'radi:

– Miss Bennet qayerda?

– Yuqorida, onamning oldida edi. Hozir kelib qoladi.

Yigit eshikni yopib, asta Elizabetning oldiga keldi-da, undan o'zlariga baxt, unga esa singillik sadoqatini tilashni so'radi. Elizabet unga o'zlarining qarindosh bo'layotganlari munosabati bilan chin dildan xursand ekanligini aytdi va bir-birlarining qo'llarini siqib qo'yishdi. Shundan so'ng Jeyn kelguncha qiz Binglining naqadar baxtiyor ekanligi va opasi to'g'risidagi maqtovlarini eshitib o'tirishiga to'g'ri keldi. Bu so'zlar sevgi to'la yurakdan chiqayotgan bo'lsa-da, Elizabet uning orzulari ro'yobga chiqishiga, ularning birgalikda uzoq yillar baxtli yashashlariga amin bo'lgisi kelardi, chunki bu hayotning asosida sog'lom aql, Jeynning ajoyib tabiati va sevimliklarning bir xil o'y va hissiyotlari yotardi.

Bugun hamma odatdagidan ko'ra ancha xursand edi. O'z hayotidan qoniqish va xotirjamlik hissi Jeynning yuzida shunday aks etib turar ediki, u yanada go'zallashib ketgandek edi. Kitti tezroq o'zining ham navbati kelishini orzu qilib, kulib o'tirardi. Missis Bennet yarim soatdan beri Bingli bilan shu mavzuda gaplashayotgan bo'lsa-da, bu nikohga o'zining roziligini berayotib, o'z tuyg'ularini ifodalash uchun so'z topolmayotgan edi. Ovqat payti ularga qo'shilgan mister Bennetning ko'rinishi va o'zini tutishi uning ham bu voqeadan xursandligini bildirardi. Lekin mehmon xayrlashib, jo'nab ketmaguncha u biror og'iz ham gapirmadi. Bingli jo'nagach, qiziga qarab, dedi:

– Jeyn, qizim, tabriklayman. Sen albatta baxtli bo'lasan.

Jeyn otasining oldiga kelib, o'pib qo'ydi-da, unga chiroyli so'zlari uchun rahmat aytdi.

– Sen ajoyib qizsan va hayoting yaxshi boshlanayotganidan men juda xursandman, – dedi mister Bennet. – Sizlar bir-biringizga mosligingizga mening shubham yo'q. Oralaringizda umumiylik bor: ikkalangiz ham gapga ko'nadigansiz – ikkalangizning o'rtangizda gap

qochishi mumkin emas; shunchalik ishonuvchansizki, sizlarni xohlagan xizmatkor bemalol aldab ketishi mumkin; shunchalik saxiysizlarki, hech qachon oladigan pullaringiz sizlarga yetmaydi.

– Bunday bo'lmaydi, deb umid qilaman, ota. Men tomonimdan pul ishlarida aqlsizlik va yengiltaklik qilinishi kechirib bo'lmaydigan xato bo'ladi.

– Pullaringiz yetmaydi? Mister Bennet, nimalar deyapsiz? – xitob qildi missis Bennet. – Axir, u yiliga to'rtmi yoki beshmi ming funt yoki undan ham ko'proq oladi-ku! – qiziga qarab davom etdi: – Jeyn, jonginam! Men hayratdaman! Xudoyim, bugun ham uyqu bo'lmaydi! Shunday tugashini bilardim – axir boshqacha bo'lishi mumkinmidi? Sen bekorga shunchalik go'zal emassan-ku! Esimda, bir yil burun ikkalangizni Xartfordshirda birga ko'rganimda hayron qolgan edim, mana bu juftlik, deb. Bu yigit men ko'rganlarim ichida eng kelishgani!

Uikxem va Lidiyalar esdan chiqishgan edi. Endi so'zsiz, Jeyn onasining eng yaxshi ko'rgan qiziga aylangan edi. Ayni paytda u boshqa hech kim haqida o'ylamayotgan edi. Kichik singillar esa Jeynga kelajakda ularga quvonch olib keladigan manbadek qarashayotgan edi: Meri Nezerfild kutubxonasidan foydalanishga ruxsat so'rar, Kitti esa kelajakda Nezerfildda qish paytlari tez-tez bal uyushtirib turishni iltimos qilardi.

Shu kundan boshlab, Bingli Longbornning kundalik mehmoniga aylandi. U nonushtadan oldin kelar va mabodo rad qila olmaydigan birorta qo'shni mehmonga taklif qilmagan bo'lsa, kechki ovqatgacha shu yerda yurardi. Elizabet esa endi Jeyn bilan xohlaganda bemalol gaplasha olmay qoldi, chunki Bingli bu yerdaligida, Jeyn u bilan ko'proq band bo'layotgandi. Lekin majburiy ayriliq davomida har ikkala sevishgan uchun Elizabetning foydasi tegar edi. Jeyn yo'qligida Bingli u bilan opasi to'g'risida maza qilib gaplashar,

Bingli bo'lmaganda esa Jeyn uchun yana Elizabet kerak edi.

– O'tgan bahorda u mening Londonga kelganimdan xabari bo'lmaganini eshitib, juda xursand bo'ldim, – dedi bir kuni kechqurun Jeyn. – Men hech qachon bu to'g'rida o'ylab ko'rmagan edim.

– Mening esa xayolimga kelgandi. Lekin nega shunday bo'lgan ekan?

– Hammasiga opalari sabab. Ular akasining men bilan tanishuvini ma'qullashmagan. Uning hamma tomondan to'g'ri keladigan xohlagan qiz bilan bema'lol turmush qurishi mumkin bo'lganini hisobga olsak, buning hech hayron qoladigan joyi yo'q. Lekin ular Binglining men bilan hozir qanchalik baxtliligini ko'rishsa – ular albatta ko'rishadi, men bunga aminman – ular bizning nikohimizga qarshilik bildirishmaydi va bizlar yana do'st bo'lib qolamiz. Albatta, oldingichalik bo'lmasak kerak...

– Men sendan umrim davomida eshitgan eng qattiq gap, – dedi Elizabet. – Ko'ngilchan opajonim! To'g'risi, agar miss Binglilar sen bilan soxta munosabatda bo'lishadigan bo'lsa, menga rosa alam qiladi.

– Lizzi, tasavvur qilgin-a, u o'zi meni o'tgan yili Londonga jo'nash oldidan sevib qolgan ekan. Agar mening unga beparvoligimga amin bo'lmaganda, albatta qaytib kelgan bo'lar ekan.

– Rostdan katta xato qilgan ekan, lekin bu uning kamtarligidan darak beradi.

Bu gapga Jeyn Binglining o'z-o'zini to'g'ri baholamasligi, uning o'ta kamtarligi haqida maqtov so'zlarini ayta ketdi. Elizabet Bingli do'sti Darsining aralashuvi to'g'risida hech narsa aytmaganiga xursand bo'ldi, chunki Jeynning o'ta oqko'ngilligiga qaramay, bu uning xursandchiligiga soya solgan bo'lardi.

– Men dunyodagi eng baxtli qizman! – xitob qilardi qiz. – Lizzi, oilamizda nega bitta menga omad kulib

boqdi? Sen ham bu baxtni tatib ko'rishningni shunday xohlayapman! Senga ham xuddi shunday odam duch kelsa edi!

– Menga bundaylardan yuztasini taklif qilsang ham men senchalik baxtli bo'la olmayman. Buning uchun mening tabiatim senikidek bo'lishi kerak. Yo'q, men o'z yo'limdan ketishim kerak. Xudo xohlasa, bir kuni ikkinchi mister Kollinz uchrab qolar.

Longborndagi yangiliklarni uzoq vaqt yashirib o'tirib bo'lmadi: Missis Bennet bo'lgan voqealarni missis Filipsning qulog'iga aytib qo'ydi va sal vaqt o'tib butun Meriton ahli bu oiladagi yangilikdan darak topdi. Bennetlar oilasini – yaqiniginada, Lidiyaning qochib ketgani sabab, hamma tanish-bilishlar ularni o'z ro'y-xatlaridan o'chirib tashlashgan bo'lsa – endi eng baxti kulgan oilalardan biri deb sanay boshlashdi.

XIV bob

Bir kuni ertalab, mister Bingli va boshqa oila a'zolari nonushta qilishayotgan mahal, ularning e'tiborini yaqinlashayotgan ekipaj ovozi tortdi. Derazadan qarab, ular o'tloq bo'ylab to'rt otga qo'shilgan kareta kelayotganini ko'rishdi. Mehmon kelishiga hali ancha erta, kareta esa qo'shnilarnikiga o'xshamas edi. Kimdir kelganini sezgan mister Bingli o'zi uchun zerikarli bo'lgan mehmon kutish marosimidan qochib, Jeynni birga aylanib kelishga ko'ndirdi. Ular chiqib ketishdi, qolganlar esa kim keldi ekan, deb qiziqib turishganda, eshik lang ochilib ledi Ketrin de Byor kirib keldi. Hamma, hozir bir narsa bo'ladi, deb hayratda kutib turgandi.

Ledi Ketrin xonaga kirib odatdagidan ham battarroq yuzsizlik bilan Elizabetning salomiga boshini sal qimirlatib qo'ydi, xolos va biror og'iz so'z aytmay, kresloga o'tirdi. Elizabet mehmon so'ramasa ham uning

kimligini onasiga tanishtirdi. Shunday ulug' zotning ularnikiga qadam ranjida qilganidan boshi osmonga yetgan missis Bennet, u bilan juda mulozamatli bo'lishga harakat qildi. Biroz indamay o'tirgach, ledi Ketrin Elizabetga dedi:

– Miss Bennet, ishlaringiz joyida, deb umid qilaman. Bu ayol sizning onangiz shekilli?

Elizabet bu gapni tasdiqladi.

– Bu esa sizning singillaringizdan biri shekilli?

– Ha, ha, xonim, bu mening ikkinchi qizim, – gapirish imkoniyati tug'ilganidan xursand bo'lgan missis Bennet darrov gapga qo'shildi. – Eng kichkina qizim yaqinda turmushga chiqdi. Eng kattasi esa bog'da, yaqinda turmushga chiqadigan insoni bilan sayr qilib yuribdi.

– Bog'laringiz juda kichkina ekan, – biroz sukut qilib dedi ledi Ketrin.

– To'g'ri, Rozingschalik katta emas, lekin ser Uilyam Lukaslarnikiga solishtiradigan bo'lsak, ancha katta.

– Bu xonalarda yozda o'tirib bo'lmaydi. Derazalari g'arbga qaragan ekan.

Missis Bennet unga tushdan keyin bu xonalarda o'tirilmasligini aytib, so'radi:

– Zoti oliyalaridan mister va missis Kolinzlarning sog'lig'ini so'rasam bo'ladimi?

– Juda ham yaxshi. Men ularni o'tgan kuni kechqurun ko'rgan edim.

Elizabet bu mehmon kelishining sababi Sharlotta yuborgan xat bo'lsa kerak, deb faraz qilayotgan edi. Lekin xat to'g'risida gap ko'tarilmagach, nima deb o'ylashga ham hayron qoldi.

Missis Bennet zoti oliyalarini biror nima yeb olishga taklif qildi, lekin ledi Ketrin qo'pollik bilan taklifni rad qildi. Biroz o'tib, o'rnidan turayotib, Elizabetga dedi:

– Miss Bennet, hov anavi yerda o'tloqning orqasida chiroyli changalzor bor shekilli. Agar birga borsangiz, o'sha yerlarni ko'rib kelardim.

– Bora qol, qizim, hamma yoqlarni ko'rsat. Menimcha, sizga juda yoqsa kerak, – dedi missis Bennet.

Elizabet rozi bo'ldi. Yugurib xonasidan soyabonini olib chiqdi-da, hurmatli mehmonni zinadan olib tusha boshladi. Xolldan o'tishar ekan, ledi Ketrin yemakxona va mehmonxonaning eshiklarini ochib ko'rdi va o'zicha baho bergan bo'lib, Elizabetning ketidan tashqariga chiqdi. Eshikning oldida xonimni olib kelgan kareta turar edi, Eliza uning ichida zoti oliylarining tanish oqsochi o'tirganini ko'rdi. Ular bir-birlariga biror og'iz ham gap qotmay, changalzorga olib boradigan tosh yo'lkanidan sekin ketib borishardi. Elizabet o'zini tutishi odatdagidan ham balandparvoz va kishining shaxsiga tegadigandek ko'rinayotgan mehmonning o'zi gap boshlamasa, og'zini ham ochmaslikka qaror qildi.

«Men uning nimasini jiyaniga o'xshatdim o'zi?» – hamrohining yuziga qarab o'yladi u.

Chakalakzor ichiga kirishgan zahoti ledi Ketrin gap boshladi:

– Siz mening kelishim sababini tushunmayotgan bo'lishingiz mumkin emas. Buni vijdoningiz va yuragingiz aytib turgan bo'lishi kerak.

Elizabet unga chindan ham hayron bo'lib qaradi:

– Xonim, siz yanglishayapsiz. Men nima sababdan bu hurmatga sazovorligimni chindan tushunmadim.

– Miss Bennet, men bilan hazillashish mumkin emasligini siz bilib qo'yishingiz kerak edi, – qat'iy tovush bilan gap boshladi ledi Ketrin. – Agar siz yolg'on yo'lga o'tgan bo'lsangiz, meni bunga ishontira olmaysiz. Mening tabiatim to'g'risida doim to'g'riso'z, ochiqko'ngil deyishadi va men ayniqsa, hozir shu yo'limdan qaytmayman. Ikki kun burun meni juda hayratga solgan yangilikni eshitdim. Menga aytishdiki, nafaqat opangiz yaxshi joyga turmushga chiqayotibdi, balki siz o'zingiz ham, miss Elizabet, yaqin kunlarda mening jiyanim mister Darsi bilan nikohdan o'tishga umid qilayapsiz.

Men albatta, buni o'ylab chiqarishganini juda yaxshi bilaman. Men bu narsani hatto taxmin qilib ham jiyanimni yerga urmasam-da, baribir mening bu narsaga munosabatimni siz bilib qo'ying, deb bu yerga kelishni lozim topdim.

– Agar siz bu gaplarning uydirmaligiga ishonsangiz, unda nima qilib shuncha uzoq yo'l bosib, bu yerga keldingiz? – dedi alamidan qizarib ketgan Elizabet. – Zoti oliyalari, nimaga erishmoqchi edingiz?

– Siz bu gaplar yolg'onligini tasdiqlashingizni!

– Agar chindan ham shunday gap tarqalgan bo'lsa, – sovuqqina davom etdi Elizabet, – sizning Longborn-ga kelganingiz, men va mening oilam bilan uchrashganingiz bu gaplarning tasdiqlanishiga olib keladi.

– «Agar» dedingizmi?! Nima, o'zingizni hech narsadan xabari yo'qqa solmoqchimisiz? Axir, bu gaplarni o'zingiz tarqatmaganmisiz? Va sizning bu gaplardan xabaringiz yo'qmi?

– Mening qulog'imga hech qanday gap yetib kelmadi.

– Siz bu gaplarga hech qanday asos yo'qligiga ont icha olasizmi?

– Men sizga xos bo'lgan to'g'riso'zlikka hech ham da'vo qilmayman. Siz men javob bermaslikni afzal ko'rayotgan savollarni berayapsiz.

– Men bunga chiday olmayman! Miss Bennet, men sizdan hamma narsani tushuntirib berishingizni talab qilaman! Uning – jiyanimning sizdan unga turmushga chiqishingizni so'ragani rostmi?

– Zoti oliyalari bu bo'lishi mumkin emas, deb hisoblaydilar.

– Agar u aqlini yeb qo'ymagan bo'lsa, bunday bo'lishi mumkin emas, bunday bo'lgan bo'lishi mumkin emas! Lekin siz g'amzalar qilib, uni yo'ldan urmoqchi bo'lishingiz mumkin, u esa ko'zi ko'r bo'lib, o'zi va oilasi oldidagi burchini esidan chiqarib qo'yan. Siz uni qarmoqqa ilintirmoqchi bo'lgansiz.

– Agar shunday qilgan bo'lsam, u holda mening shunday qilganimga iqrar qildira olmasdingiz.

– Miss Bennet, siz kim bilan hazillashayotganingizni bilasizmi? Men bilan bunday gaplashishlariga odatlanmaganman! Uning eng yaqin qarindoshi bo'lganim uchun yuragida nima borligini bilishim kerak.

– Lekin mening yuragimda nima borligini bilishga haqqingiz yo'q. Aksincha, siz o'zingizni tutishingiz mening sizga biror narsani ochiq aytishimga to'sqinlik qilayapti.

– Siz meni to'g'ri tushunishingizni xohlardim. Siz yurak yutib orzu qilganingiz bu nikoh bo'lishi mumkin emas. Ha, ha, mumkin emas! Mister Darsi mening qizim bilan unashtirib qo'yilgan. Endi nima deysiz?

– Faqat bitta narsa. Agar chindan shunday bo'lganda edi, siz u mening roziligimni so'ragan, deb taxmin qilmasdingiz.

Ledi Ketrin bir necha daqiqa taraddudlanib qoldi, keyin dedi:

– Ular boshqacharoq unashtirilgan. Yoshligidan boshlab ular bir-biriga atalgan, deb hisoblanib kelingan. Bu ularning onalarining orzusi edi. Ular hali yo'rgakdaligidayoq shunga kelishib qo'yilgandi. Endi, marhuma onasining orzusi ro'yobga chiqay deganda, bizning oilaga hech qanday aloqasi yo'q, jamiyatda hech qanday o'rni yo'q va past tabaqalik bir qiz oradan chiqib qoldi! Uning qarindoshlarining roziligi siz uchun baribirmi? Uning miss de Byor oldidagi majburiyatining siz uchun hech ahamiyati yo'qmi? Nahotki, samimiylik va halollik degan so'zlar siz uchun yot? Axir, siz mening o'zimdan ularning tug'ilganidanoq bir-birlariga atalgani to'g'risida eshitmaganmidingiz?

– Ha, eshitgandim. Ammo buning menga nima daxli bor? Agar mening sizning jiyaningiz bilan turmush qurishimga shu sabab xalaqit beradigan bo'lsa, uning onasi va xolasi uni miss de Byorga uylanishini

xohlashgandi, degan fikr meni to'xtata olmagan bo'lar-di. Sizlar ikkalangiz uning uylanishini o'ylab, nima qila olgan bo'lsangiz, qilgansiz. Uni ro'yobga chiqarish esa boshqalarga nasib qilgan ekan. Agar mister Darsi na so'zda, na tuyg'ulari bilan sizning qizingizga bog'liq emas ekan, nega boshqa qizni tanlashga uning haqi yo'q? Agar u meni tanlagan bo'lsa, nega men unga ro-zilik bera olmas ekanman?

– Chunki bu yerda nomus, oliyjanoblik, odob-ax-loq va yana o'zingizning foydangiz ham bunga yo'l qo'ymaydi! Ha, miss Bennet, foydangiz! Aks holda, siz uning oila a'zolari, qarindosh-urug'lari va do'stlari to-monidan birorta yaxshi munosabatni kutmang. Unga yaqin har bir inson sizdan hazar qiladigan bo'ladi, uning siz bilan turmush qurishi sharmandali hol deb hisoblanadi, biz tomondan hech kim sizning nomin-gizni ham atamaydi!

– Mayli, chindan ham ko'p narsa yo'qotar ekanman, – javob berdi Elizabet. – Lekin mister Darsining xotini-da uning tutgan o'rnidan kelib chiqib xursand bo'lish uchun shunchalik ko'p sabablar bo'ladiki, uning g'am-ga botib o'tirishiga ham hojat qolmaydi.

– Qaysar, bema'ni qiz! Men siz uchun uyalib keta-yapman. Mana, mening o'tgan bahorda sizga o'tkazgan mehmondorchiliklarim uchun minnatdorchiligingiz! Sizningcha, siz mendan hech nimaga qarz emasmisiz? Qani, o'tiraylik-chi. Yaxshilab tushunib oling, miss Bennet, men bu yerga rejalashtirgan ishlarimni qilish uchun kelganman. Menga hech kim xalaqit bera ol-maydi! Men shu paytgacha hech kimning injiqliklariga qarab o'tirmaganman! Menda yutqizish odati yo'q!

– Bu sizning ahvolingizni og'irlashtiradi. Lekin bu-ning menga daxli yo'q.

– Mening gapimni bo'lmang! Indamay gapimni oxi-rigacha eshiting. Mening qizim va jiyanim bir-birlari uchun yaralishgan. Ona tomonidan ular juda buyuk

zotlardan. Otalari ham, unvonlari bo'lmagan bo'lsa-da, juda qadimgi, hurmatli va oliyjanob avlodlarga tegishli oilalardan. Ikkala tomonning ham yaxshigina davlati bor. Ular har ikkala oila a'zolarining hammasining ko'zi oldida bir-birlariga unashtirib qo'yilgan. Ular-ning orasiga kim suqilib kirayapti? Na boyligi va na tanish-bilishi bor bir mahmadona! Bunga yo'l qo'yib bo'ladimi? Yo'q, bu bo'lishi mumkin emas va hech qachon bo'lmaydi! Agar o'z foydangizni bilganingizda edi, o'zingiz o'sgan bu muhitni tashlab ketmasdingiz!

– Lekin sizning jiyaningizga turmushga chiqib men bu muhitni tashlab ketmoqchi emasman. U dvoryan. Men ham dvoryanning qiziman. Bu ma'noda biz ikkimiz tengmiz.

– Mayli, siz dvoryanning qiziligingiz rostdir. Lekin onangiz-chi? Onangiz qanday oiladan? Tog'a, xolalar-ingiz-chi? Ular nima ish qilishini meni bilmaydi, deb o'ylayapsizmi?

– Mening qarindoshlarim kimligidan qat'i nazar, agar mister Darsining ularga nisbatan hech qanday e'tirozi yo'q ekan, buning sizga og'irligi tushmay qo'ya qolsin.

– To'g'risini ayting, sizlar unashtirildinglarmi?

Elizabet ledi Ketrinni suyuntirmaslik uchun bu savolga javob bergisi kelmayotgandi. Lekin javob bermaslikning ham ilojini topa olmadi:

– Yo'q.

Ledi Ketrin yengil tortgandek bo'ldi.

– Unga hech qachon turmushga chiqmayman, deb menga so'z berasizmi?

– Bunga va'da bera olmayman.

– Miss Bennet, mening taajjubimning cheki yo'q! Men sizni aqlli qiz deb o'ylardim. Lekin meni bu bilan kelishadi, deb umid qilmang. Siz menga va'da bermaguningizcha men bu yerdan ketmayman.

– Men esa hech qachon va'da bermayman! Meni bu bilan qo'rqitmay qo'ya qoling. Siz, zoti oliyalari, mister

Darsi sizning qizingizga uylanishini istaysizmi? Agar siz xohlayotgan va'dani bersam, ularning orasidagi nikoh aniq bo'lib qoladimi? U menga intilib turganida, men uning sevgisini rad qilib, mister Darsini o'zining xolavachchasiga uylanishga undagan bo'lamanmi? Ledi Kettrin, siz mendan talab qilayotgan narsaga sizni majbur qilayotgan sabablar hech qanday mantiqqa to'g'ri kelmaydigan, arziyas narsalar. Bu kabi narsalar menga ta'sir qiladi, deb o'ylayotgan bo'lsangiz, siz haligacha mening tabiatimni tushunib olmagansiz, shekilli. Jiyaningiz uning ishlariga aralashayotganingizga qanday qaraydi, menga noma'lum. Lekin mening ishlarimga aralashishga sizning hech qanday haqqingiz yo'q. Shuning uchun iltimos, meni tinch qo'ying.

– Yo'q, hali men gapimni tugatganim yo'q. Butun aytgan gaplarimga yana bir narsani qo'shib qo'ymoqchiman. Men sizning kichik singlingizning hammaningizni sharmanda qilib qochib ketganidan xabarim bor. Bu haqda hamma narsani eshitganman. Shuningdek, ularning to'yi otangiz va tog'angizning puliga orqadagi sana bilan bir amallab tashkil qilinganini ham. Nima, endi kelib-kelib, shu qiz mening jiyanimga singil bo'ladimi? Singlingizning eri – jiyanimning marhum otasining ish boshqaruvchisining o'g'li – mening jiyanimga uka bo'ladimi? Yer bilan osmon! Nimalarni o'ylayapsiz? Nahotki, Pemberli shunday bulg'anishga munosib?!

– Menga aytadigan boshqa gapingiz qolmadi, – g'azab bilan dedi Elizabet. – Siz meni qanchalik haqoratlash mumkin bo'lsa, yetarli darajada haqoratlab bo'ldingiz. Ruqsat eting, men ketishim kerak.

Yuqoridagi so'zlarni ayta turib, qiz o'rnidan turdi. Ledi Kettrin ham turdi. U juda darg'azab edi:

– Demak, jiyanimning nomusi va obro'si siz uchun bir pul! Xudbin! Nahotki, siz bilan bog'lanib u o'zini butun olamga kulgiga qo'yishini tushunmasangiz?

– Ledi Ketrin, mening sizga aytadigan boshqa gapim yo‘q. Mening tuyg‘ularimni o‘zingiz yaxshi bilasiz.

– Demak, siz uni ilintirmoqchi bo‘lgansiz?

– Men bunday gaplarni gapirganim yo‘q! Men faqat na siz bilan, na menga uzoqdan-uzoq tanish bo‘lgan odamlar bilan hisoblashmagan holda, o‘z baxtinga nisbatan bo‘lgan tasavvurimdan kelib chiqib gapirdim.

– Bo‘pti, juda yaxshi. Demak, siz mening iltimosimni rad qildingiz. Siz uni do‘stlarining ko‘zi oldida xarob qilib, unga nisbatan butun olamning nafratini uyg‘otishga qaror qildingiz.

– Hozir na burch, na nomus, na minnatdorlik menga biror narsada majburiyat yuklamaydi. Mening mister Darsi bilan turmush qurishim hech qanday axloq-odob qoidalarini buzmasdi. Uning qarindoshlarining bunga qanday qarashi, butun olamning nafrati menga juda ham tegmagan bo‘lardi, chunki bu narsalarga juda ham jiddiy e‘tibor bermaslik uchun butun olam yetarli darajada aqlli.

– Ha, mana siz nimalarni o‘ylar ekansiz?! Bu sizning oxirgi so‘zingizmi? Juda yaxshi. Endi nima qilishni men yaxshi bilaman. Miss Bennet, men yutib chiqaman deb, xomxayol bo‘lmang. Men sizni sinab ko‘rish uchun kelgandim. Sizni yetarli darajada aqlli, deb o‘ylagandim. Xomtama bo‘lmang, men albatta maqsadimga yetaman.

Ledi Ketrin karetasining oldiga kelguncha shu tarzda gapirib keldi va orqasiga o‘girilib, dedi:

– Miss Bennet, men siz bilan xayrlashmayman. Onangizga ham salom aytib qo‘ymoqchi emasman. Sizlar bunday e‘tiborga arzimaysizlar.

Elizabet hech narsa deb javob qilmadi, zoti oliyalari-ni ichkariga ham taklif qilmay, o‘zi jimgina kirib ketdi. Zinadan ko‘tarilayotib, uzoqlashayotgan karetaning ovozi eshitdi. Xonada onasi ledi Ketrin nega kirmasdan ketib qolganini so‘rash uchun kutib turgandi.

– Tez jo‘nab ketishi kerak ekan, – dedi Elizabet.
– Zoti oliyalari biram muloyim ayol ekan! Uning biznikiga kelgani katta obro‘. Men tushunishimcha, u biznikiga Kollinzlarning salomini yetkazish uchun kirdi, shekilli. Ular qayergadir ketayotib, Meritondan o‘tayotganda seni ko‘rib ketmoqchi bo‘lgan bo‘lsa kerak. Uning senga hech qanaqa ishi yo‘q ekanmi?

Elizabet biroz yolg‘on ishlatishiga to‘g‘ri keldi, chunki bo‘lib o‘tgan suhbatning mazmunini onasiga aytib berishdan bir ma‘no chiqmasdi.

XV bob

Ledi Ketrin bilan bo‘lgan bu uchrashuvdan so‘ng Elizabet anchagacha o‘ziga kela olmadi. Demak, ledi Ketrin qizning mister Darsi bilan kutilayotgan nikohini buzish uchun Rozingsdan ataylab shunday uzoq yo‘lga chiqibdi! Bu safar uchun boshqa bahona yo‘q edi. Biroq Elizabet o‘zining Darsi bilan unashtirilgani to‘g‘risidagi gaplar qayerdan chiqqan bo‘lishi mumkinligiga hech aqli yetmayotgan edi. Nihoyat, qizning xayoliga odamlar bitta to‘yni gapira turib, Binglining Darsi bilan yaqinligi va o‘zining Jeyn bilan yaqinligini bilganlari uchun yana bitta to‘y bo‘ladi, deb faraz qilgan bo‘lishi mumkin, degan fikr keldi. To‘g‘risi, o‘zi ham opasining Bingliga turmushga chiqishi orqasidan Darsi bilan endi uchrashishimiz ko‘proq bo‘ladi, deb o‘ylayotgan edi. Lukaslar oilasi esa – ledi Ketrin yuqoridagi gaplarni ularning Kollinzlilar bilan yozishgan xatlaridan olgan bo‘lsa kerak – qizning o‘ziga balki kelajakda bo‘lishi mumkin deb tuyulgan narsani hal qilib qo‘ya qolishgan.

Ledi Ketrinning gaplarini birma-bir xayolidan o‘tkazar ekan, Elizabet ayolning bu ishlarga aralashishidan kelib chiqadigan oqibatlardan xavotirlana boshladi. Uning, men albatta nikohlaringga xalal beraman,

degan gapi jiyaniga ta'sirini o'tkazmoqchi ekanligidan darak berardi. Elizabet yigitning o'ziga uylangan taqdirda kelib chiqadigan natijalarga bu ayolning qanday munosabatda bo'lishini tasavvur qila olmayotgan edi. U yigitning xolasiga munosabati qay darajada ekanligini bilmas, xolasining jiyaniga qay darajada ta'sir o'tkaza olishini ham tasavvur qila olmas edi. Lekin yigitning xolasiga nisbatan munosabati Elizabetnikidan yuqoriroq ekanligi kundek ravshanligini taxmin qilish mumkin. Xolasining yigitga o'zidan ancha past tabaqadagi bu qizga uylanishi qanday oqibatlariga olib kelishini tushuntirayotib, yigitning eng nozik joyidan ushlashi ko'rinib turgan narsa edi. Elizabetga bo'lmag'ur gapdek tuyulayotgan sabablar, yigitning «oilaviy g'urur» degan tushunchalaridan kelib chiqib, unga e'tiborga molik jihat bo'lib tuyulishi mumkin. Agar yigit shu paytga qadar ikkilanib kelgan bo'lsa, yaqin qarindoshining maslahati uning qarorini mustahkamlashi mumkin edi. U holda, yigit qizning oilasi obro'siga mos keladigan darajadagina baxtli bo'la oladi. Demak, bu holda endi u Longbornga qaytib kelmaydi. Londondan o'tib keta turib, ledi Kettrin jiyan bilan uchrashishi mumkin va unda Darsi Nezerfildga kelish to'g'risida do'sti Bingliga bergan va'dasidan qaytishga majbur bo'ladi.

– Demak, yaqin orada u va'dasidan qaytgani uchun do'stidan kechirim so'raydigan bo'lsa, nega bunday bo'lganining sababini men bilaman, – fikrlardi Elizabet. – U holda men unga bo'lgan hamma umidlarimdan voz kechaman. Agar ajralib ketishimizdan pushaymonlik men unga berishga tayyor turganim yuragimning o'rnini bosa oladigan bo'lsa, men undan ayrilganimga afsuslanishimga arzimaydi.

Ularnikiga kim kelganini bilgan boshqa oila a'zolari juda taajjubda edilar. Lekin ular ham missis Bennetga aytilgan sabablarni eshitib, xotirjam bo'lishdi va Eliza-

bet shu tarzda o'zi uchun ko'ngilsiz bo'lgan gaplardan ozod bo'ldi.

Ertasi kuni ertalab, zinadan tushib kelayotib, kutubxonadan chiqib, qo'lida qandaydir xat ushlab turgan mister Bennetni ko'rdi:

– Lizzi, – dedi otasi, – sen menga keraksan, oldinga kirgin.

Hayron bo'lgan Elizabet otasining ortidan kutubxonaga kirdi. Qiz otasining gapi qo'lidagi xat bilan bog'liqligini sezib turar edi. Uning xayoliga xatni ledi Ketrin yozgan bo'lsa-ya, degan fikr keldi. Va qizni otamga nima deb tushuntiraman endi, degan vahima bosdi.

Ikkalasi kamin oldiga o'tirishgach, mister Bennet gap boshladi:

– Bugun ertalab meni juda hayratga solgan mana bu xatni oldim. Xat senga tegishli bo'lgani uchun sen ham u nima to'g'risida ekanligini bilib qo'yishing kerak. Men yana bitta qizim turmushga chiqish arafasida ekanligini bilmagan ekanman. Seni buyuk g'alaba bilan tabriklayman.

Xatni ledi Ketrin emas, uning jiyani yozganini tushungan Elizabetning yuzlari yonib ketdi. U shu paytda yuragida paydo bo'lgan tuyg'uni tushunmadi: o'zining unashtirilishidan xursandchilikmi yoki yigitning o'ziga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilmaganidan hayron qolishmi? Bu orada esa mister Bennet gapida davom etdi:

– Sen mening juda aqlli qizimsan. Yosh qizlar esa bu borada o'ta aqlli. Lekin oshig'ingning ismini bilishga hatto sening ham aqling yetmaydi. Bu xat mister Kollinzdan kelibdi.

– Mister Kollinz?! U nimalar debdi?

– Albatta aqlli maslahatlar beribdi. Gapini Jeynning to'yi bo'lishi munosabati bilan tabrikdan boshlabdi. Bu gaplarni u birorta g'iybatchi ayollardan eshitgan shekilli. Uning bu to'g'risidagi gaplarini o'qib berib

men sening boshingni qotirmoqchi emasman. Senga tegishli gaplar esa mana, eshit:

«...Shunday qilib, ushbu xursandchilik bilan Sizni o'zim va missis Kollinz nomidan tabriklayotib, ruxsatinigiz bilan biz yana o'sha odamdan eshitganimiz bir yangilikka sizning e'tiboringizni qaratmoqchiman. Sizning Elizabet qizingiz, uning opasi va u tanlagan turmush o'rtog'i asosli ravishda bu mamlakatning mashhur shaxslari deb sanalishga ulgurmay, Bennet familiyasi ni almashtiradi».

– Lizzi, qizim, qani top-chi, kim ekan bu?

«Yaratgan bu yigitni hamma narsa bilan siylagan: oliynasablik, boylik, odamlar ustidan hukmronlik va boshqa inson uchun kerakli hamma narsalar. Lekin yuqorida sanab o'tganim sifatlarga qaramay, men qizingiz Elizabetni va Sizni ham u Sizlarga qilmoqchi bo'layotgan, jozibaliligi aniq ko'rinib turgan taklifni shoshilinch bilan qabul qilib qo'ymanglar, deb ogohlantirib qo'ymoqchiman».

– Xo'sh, Lizzi, bu qanday dvoryan ekanligini topdingmi? Hozir bilasan, shoshmay tur:

«Sizlarni ogohlantirib qo'yishga meni chorlayotgan mulohazalar quyidagilardir: bu dvoryanning xolasi bo'lmish ledi Kettrin de Byor bu nikohga butunlay qarshi, deyishga asosimiz bor».

– Mister Darsi – mana kim! Xo'sh, qizim, seni rosa boshingni qotirdimmi? Sen menga ayting – u Lukaslar bilan gapirayotgan gaplarining yolg'onligini ismiyoq aytib turgan birortasini bizning tanishlarimiz orasidan topa olishi mumkin narsami? Xohlagan ayoliga

qarashi bilan uning hamma kamchiliklarini o'sha zahoti ko'ra oladigan va menimcha, senga biror marta ham qaramagan mister Darsiga seni to'g'rilab qo'yish! Zo'r-ku!

Elizabet ham o'zini quvnoqdek ko'rsatishga harakat qildi. Lekin yuzida ayanchli bir ifoda paydo bo'ldi. Shu paytgacha otasining gapga to'n kiydirib gapirishi bunchalik uning g'ashiga tegmagan edi.

– Qalay seni zo'r kuldirdimmi?

– Ha, albatta. Iltimos, davomini o'qing.

«Kecha kechqurun men zoti oliylariga shunday bo'lib qolishi mumkinligi to'g'risida gapirganimda ular o'zlariga xos bo'lgan andisha bilan bu boradagi munosabatlarini aytib o'tdilar. Unga ko'ra mening amakivachchamning ba'zi nobop qarindoshlari orqasidan uningcha nomuvofiq bo'lgan ushbu nikohga har qanday taqdirda ham o'z roziliklarini bermasliklarini aytib o'tdilar. Shuning uchun men o'z tomonimdan iloji boricha zudlik bilan o'z amakivachchamni va uning xush-torini nimalar kutayotganini aytib qo'yishni va hech kim oq fotiha bermaydigan bu nikohga shoshilmaslikni maslahat berishni o'z burchim deb bilaman. Men amakivachcham Lidiyaning qilib qo'ygan ishini silliqqina hal qilishning iloji topilganidan juda xursandman. Faqat ularning to'y bo'lmasdan turib birga yashagani hamma yoqqa ovoza bo'lib ketgani meni qayg'uga solayapti. Va bu yoshlar nikohdan o'tishi bilan siz ularni mehmonga chaqirganingiz esa meni hayron qoldiryapti. Esiz, sizning bu ishingiz yomon xulqni rag'batlantirishdek bo'lib chiqibdi. Agar Longborn mening qaramog'imda bo'lganida edi, men bunga yo'l qo'ymagan bo'lardim. Siz, albatta, xristian sifatida ularni kechirgansiz. Lekin ular bir umr Sizning ko'zingizga ko'rinishlari kerak emas edi, ularning nomlari esa bir umr Sizning qulog'ingiz ostida jaranglamasligi kerak edi».

– Ha, mana xristianlikning kechirimligini u qanday tushunarkan! Xatining qolgani uning aziz Sharlot-tasiga va yaqinda paydo boʻladigan kichkina Kollinzga atalgan. Lizzi, bu xat senga xuddi hech ham yoqma-ganga oʻxshaydi. Har xil gʻiybatlardan xafa boʻldim, deb oʻzingni gap koʻtara olmaydiganga solmassan, axir? Axir biz qoʻshnilarimizni xursand qilish uchun ularga bahona topib berib va oʻz navbatida oʻzimiz ham ularning ustidan kulib yashamayapmizmi?

– Bu xat meni chindan ham rosa kuldirdi. Lekin juda gʻalati yozilibdi!

– Hamma gap shunda-da. Agar boshqa birov boʻl-ganda bunchalik qiziq boʻlmasdi. Lekin Darsining senga befarqligi va sening oʻzing ham uni yoqtirma-ganing uchun ham bu shunchalik bemaʼni narsa! Men xat yozishni yoqtirmasligimni bilasan. Lekin men Kollinz bilan albatta xat yozishaman! Uning xatlarini oʻqiganimda kuyovim Uikxemning qancha-lik uyatsiz va munofiqligini bilsam-da, Kollinz un-dan zoʻrroq, degan xulosaga kelaman. Aytgancha, Lizzi, ledi Kettrin bu xabar toʻgʻrisida nima dedi? U seni oʻzining oq fotihasidan benasib qilish uchun kelmaganmidi?

Bu gapga javoban Elizabet kulib qoʻydi xolos. Mister Bennet bu savolni shunchaki bergani uchun qizini boshqa savollar bilan qiynab oʻtirmadi. Hali shu paytgacha Elizabet biror marta ham bu ahvolga tushmagan edi. Uning yigʻlagisi kelayotganda un-dan kulishni talab qilishayapti. Otasi, ayniqsa, Dar-sining unga befarqligi toʻgʻrisidagi gapi bilan uning yarasiga tuz sepdi. Qiz ikki yoʻlning oʻrtasida qol-gandi: otasining hech narsani sezmayotganiga hay-ron qolsinmi yoki otasining kam narsani koʻrayot-ganidan emas, oʻzining koʻp narsani koʻrayotgani-dan xavfsirasinmi?

XVI bob

Ledi Ketrin kelib ketganidan biroz o'tib, mister Bingli, Elizabet Darsidan kutayotgani kechirim so'rab yozilgan xat o'rniga mister Darsining shaxsan o'zini olib keldi. Yigitlar vaqtli kelishdi. Missis Bennet Darsiga uning xolasi (qiz hayajonlanib kutgani) kelib ketganini aytguncha, Jeyn bilan tezroq yolg'iz qolishga shoshayotgan mister Bingli hamma-ni birga aylangani chiqishga taklif qildi. Bu taklif hammaga yoqdi. Missis Bennetning aylanish odati yo'q edi, Merining esa hech qachon bo'sh vaqti bo'lmasdi, qolganlar esa bajonidil rozi bo'lishdi. Bingli va Jeyn boshqalarning ulardan o'zib ketishlariga yo'l qo'yib berishdi va asta-sekin orqada qolishdi. Elizabet, Kitti va Darsi esa nima qilishni bilmay asta gaplashib keta boshlashdi. Ular juda kam gapirishar edi: Kitti nima deyishni bilmas, chunki u Darsining oldida uyalib ketayotgan, Elizabet esa muhim qadamni qo'yish uchun kuch yig'ib ketar, Darsi ham, ko'rinishidan shunaqaga o'xshardi.

Ular Kitti Mariyani ko'rib chiqmoqchi bo'lgan Lukas Lojga qarab ketishardi. Kitti yo'lda qolib ketgach, yigit va qiz ikkalasi yo'lda davom etar ekanlar, gapirish payti kelganini his qilgan Elizabet shosha-pisha dedi:

– Mister Darsi, bilasizmi, men juda xudbinman. O'zimning ko'nglimni bo'shatib olish uchun hamma muammoni sizga yuklab qo'ymoqchiman. Shunday qilib, bu yog'iga siz mening singlimga qilgan chuqur g'amxo'rliklaringiz uchun minnatdorchilik bildirishni boshqa orqaga surolmayman. Sizning qilgan harakatingiz to'g'risida eshitgan kunimdan beri bu gapni aytishim kerakligi meni qiynab kelayotgan edi. Sizning bu ishdagi o'ringiz to'g'risida oilamizdagi hamma eshitganida edi, men minnatdorchilikni faqat o'z nomimdan bildirmagan bo'lardim.

– Bu to‘g‘risida siz bilib qolganingiz men uchun noqulay, juda ham noqulay, – mister Darsi nima deyishni ham bilmay qoldi. – Sizga boshqacha qilib yetkazilgan bu gaplar sizni bekorga yuragingizni siqqan bo‘lishi mumkin. Men missis Gardinerga ishonib bo‘lmasligini tasavvur ham qilmagandim.

– Yo‘q, yo‘q, ulardan xafa bo‘lishning hech o‘rni emas. Sizning bu o‘rinda ishtirokingiz Lidiyaning yengiltakligi orqaligina menga ma‘lum bo‘lib qoldi. Va albatta, hamma gapni bilib olmaganimcha, tinch uxlay olganim yo‘q. Shunday qilib, mening oilamdagilarning hammasining nomidan sizning qochoqlarni topishda qancha ko‘ngilsizliklarga chidab qilgan oliyjanobligingiz uchun yana bir marta chindan ham minnatdorchilik izhor qilishimga ruxsat bering.

– Agar menga juda minnatdorchilik bildirishingiz zarur bo‘lsa, unda o‘zingizning nomingizdan bildir qoling, – dedi yigit. – Meni bu ishga aralashishga majbur qilgan sabablardan biri sizni xursand qilish bo‘lganini inkor qilmoqchi emasman. Oilangizning boshqa a‘zolari, men ularning hammalarini hurmat qilganim holda, mening oldimda qarzdor emaslar – men faqat siz to‘g‘ringizda o‘yladim.

Elizabet xijolat chekayotgani sabab, biror nima deyishga ojiz edi. Biroz sukutdan so‘ng Darsi gapida davom etdi:

– Mening qalbim bilan o‘ynashmayotibsiz, deb umid qilaman, chunki siz juda oliyjanobsiz. Agar biz siz bilan aprel oyida gaplashganimizdan beri sizning menga bo‘lgan munosabatingiz o‘zgarmagan bo‘lsa, darrov aytib qo‘ya qoling. Mening tuyg‘ularim va niyatlarim o‘sha-o‘sha. Sizning bir og‘iz so‘zingiz va men bu haqda boshqa og‘iz ochmayman.

Yigitning ahvolini yurakdan his qilib turgan Elizabet gapirishga o‘zida kuch topdi. U o‘tgan davr davomida unga boshqacha ko‘z bilan qaray boshlaganini,

uning hozirgi gaplaridan minnatdorligini, juda qizishib bo'lmasa-da, asta tushuntirdi. Qizning bu so'zlaridan yigit hali biror marta boshidan o'tkazmagan, o'zgacha bir baxtni his qildi. U o'zi his qilayotgan bu tuyg'ularni ehtiros otashida yonayotgan odamgina ayta oladigan, shu tuyg'ulardек qaynoq va samimiy so'zlar bilan qizga yetkazishga urindi. Agar Elizabet shu paytda yigitning ko'zlariga qaray olganda edi, bu ehtiros uning ko'zlarida aks etayotganini ko'rardi. Lekin qiz uning yuziga qaray olmasa-da, tinglay olardi. Yigit Elizabetning unga qanchalik qadrli ekanligini aytar ekan, u qizga borgan sari qadrliroq bo'lib borardi.

Ular qayergaligini bilmagan holda oldinga qarab ketishardi. Aytadigan gaplar hali juda ko'p edi. Elizabet birozdan so'ng ular bir-birlarini tushunishlariga ledi Ketrintning harakatlari yordam berganini angladi. Darsining xolasi Londondan o'tib ketayotib chindan ham yigit bilan uchrashgan, unga Longbornga borganini, borishining sababini va Elizabet bilan suhatini aytib bergan ekan. Ledi Ketrin, ayniqsa, miss Bennetning javoblari uning behayo va buzuvchiligini isbotlaganiga urg'u beribdi. Albatta bu gaplarni jiyaniga ayta turib, ledi Ketrin Longbornda ololmagan javobni undan olishiga amin edi. Lekin zoti oliylarining baxtiga qarshi, uning gaplari aks ta'sir qilibdi.

– Bu gaplar men shu paytgacha hatto orzu qilishga ham yuragim dov bermayotgan umid uyg'otdi. Men sizning dangal gapirishingizni bilganim uchun agar siz menga qarshi bo'lganingizda buni xolamga to'g'ridan-to'g'ri aytib qo'ya qolgan bo'lishingizni tushundim.

Qizarib ketgan Elizabet kulibgina dedi:

– Ha, siz mening dangalchiligim bilan tanishsiz. Shuning uchun ham meni shunday qiladi, deb hisoblagansiz. Sizning yuzingizga shuncha gapni aytib tashlaganimdan so'ng, qarindoshlaringizga siz haqingizdagi fikrimni aytilish hech gap emasdi, albatta.

– Lekin siz men haqimda biror yomon narsa dedingizmi? Sizning men haqimdagi salbiy taassurotlaringiz men to'g'rimdagi yolg'on axborotlardan kelib chiqib paydo bo'lgan bo'lsa-da, mening o'sha kechadagi o'zimni tutishimni chindan ham qoralashga munosib. Uni aslo kechirib bo'lmaydi. Men buni titramasdan eslay olmayman.

– Keling, yaxshisi, o'sha kuni kim ko'proq aybdor bo'lgani to'g'risida bahslashmay qo'ya qolaylik, – dedi Elizabet. – Agar jiddiy aytadigan bo'lsak, har ikkalamiz ham beayb emasdik. O'shandan beri ikkalamiz ham odobli bo'lishga o'rgandik, degan umiddaman.

– Men o'zimni bunday osonlik bilan kechira olmayman. O'sha kuni aytgan gaplarim, o'zimni tutishim, butun shu oylar ichida xayolimdan ketgani yo'q. Siz menga qilgan ta'nangiz bir umr yodimdan chiqmaydi. Siz menga: «Siz o'zingizni oliyjanob insondek tutsangiz...» – degandingiz. Bu gapingiz menga qanchalik alam qilganini bilmaysiz, hatto tasavvur ham qila olmaysiz. Lekin sal vaqt o'tgandan so'ng sizning haq ekanligingizga tan berdim.

– Lekin men bu gaplarim shunchalik ta'sir qiladi deb men xayolimga ham keltirmagandim. Ular sizga tegib ketishini o'ylamagandim ham.

– Sizga ishonaman. O'sha paytda siz chindan ham menda oddiy odamlarda bo'ladigan his-tuyg'ular yo'q, deb hisoblardingiz. O'sha kuni siz menga men nima qilgan taqdirda ham o'zim to'g'rimdagi fikringizni o'zgartirmasligingizni aytayotganingizdagi yuz ifodangizni hech ham esimdan chiqarmayman.

– Iltimos, men o'sha kuni aytgan gaplarimni qayta-ravermaylik. Bular hammasi xato edi va ularni esdan chiqaramiz. Men o'zi qachondan beri uyaliy yuribman.

Darsi yozgan xatini eslatdi:

– Qiziq, xatni o'qigan zahotiyuq men to'g'rimda yaxshi o'ylay boshladingizmi? Xatni o'qiganingizda unga ishondingizmi?

Qiz xat unga qanday ta'sir qilganini, keyinchalik sekin-asta o'zining noto'g'ri fikrlari o'zgara boshlaganini aytib berdi.

– Xatim sizning ko'nglingizni og'ritishini sezgandim. Lekin shunday qilishim kerak edi. Xatimni yo'q qilib tashladingizmi? Agar siz uni hozir yana bir mar-ta – ayniqsa, birinchi qismini – o'qiydigan bo'lsangiz, menga juda noqulay bo'lardi. O'sha joylaridagi meni o'sha gaplar uchun yomon ko'rishga arziydigan nar-salar esimda.

– Agar, sizningcha mening sizga bog'lanib qolganim-ni mustahkamlash uchun shu kerak bo'lsa, men al-batta yoqib yuboraman. Lekin bu narsalar mening tuyg'ularimga aks ta'sir qilmaydi – ularni o'zgartirish oson emas. Aslida, ikkalamiz amin bo'lganimizdek, ular ba'zida o'zgarib turadi.

– Men o'sha xatni yozayotganimda, sovuqqondek edim. Lekin xatni yozayotganimda qanchalik ruhiy azobda bo'lganimni hozir juda yaxshi tushunaman.

– Xatingizning davomi boshqacharoq bo'lgan bo'lsa-da, boshida chindan ham keskin edi. Xayrlashuv so'zingiz esa... Keling, yaxshisi, bu haqda o'ylamaymiz. Bu xatni yozgan odamning ham, uni o'qigan odam-ning ham tuyg'ulari shunchalik o'zgardiki, bu xat bi-lan bog'liq xafagarchiliklar unutilishi kerak. Mening faylasufona qat'iy qoidam mana bunday: «Biror nar-sani esga olmoqchi bo'lsang, u senga yoqadigan payt-dagina esga olgin».

– Ochig'ini aytsam, men bunday falsafani juda ham yoqtiravermayman. Sizning esdaliklaringizda ta'naga o'rin yo'q, shuning uchun sizning tinchligin-giz falsafaga emas, toza vijdon asosiga qurilgan. Men bir umr fikrlashim bilan bo'lmasa-da, xatti-harakat-larimda xudbinlik qilib kelgan ekanman. Bolaligimda to'g'ri-noto'g'ri nimaligini tushuntirishgan, lekin o'z ta-biating ustida ishlashni o'rgatishmagan. Menga yaxshi

e'tiqodlarni singdirishgan, lekin mag'rur va kekkaygan bo'lishimga qo'yib qo'yishgan. Yolg'iz o'g'il bo'lganim uchun (ko'p yillar davomida yana yolg'iz farzand ham) ota-onam meni haddan ortiq erkalatishgan. Menda-gi xudbinlikka yo'l qo'yib qo'yishgan, uni rag'batlan-tirishgan. Mendagi bizning oilamizdan tashqaridagi har bir kimsaga nisbatan nafrat hissini, ularning aqli yoki xizmatlarini menikidan past qo'yish odatlarimga panja orasidan qarashgan. Men sakkiz yoshimdan yigirma sakkiz yoshgacha ana shunday edim. Agar siz, azizam Elizabet, siz bo'lmaganingizda men shun-dayligimcha qolardim! Men sizdan juda qarzdorman. Menga juda achchiq, lekin foydali maktab bo'ldingiz. Siz meni ruhiy barqarorlikka o'rgatdingiz. Olishingizga amin bo'lgan holda sizga qo'limni tutgan edim. Siz esa o'zimda bor hamma xislatlarimga qaramay, muhab-bati chindan-da qadrlashnishi kerak bo'lgan ayolning sevgisiga loyiq emasligimni ko'rsatib berdingiz.

– Nahotki, siz o'shanda meni sizning taklifingizni qabul qiladi, deb o'ylagan bo'lsangiz?

– Hamma gap shunda-da! Mening shuhratparast-ligimga nima deysiz? Men, siz meni sevib qolganimni aytishga majbur qilmoqchisiz, deb o'ylagandim.

– Demak, men o'zim sezmagani holda, nimada-dir xato qilganman. Ishoning. Men sizni aldamoqchi emasdim. Lekin mening quvnoqligim meni noto'g'ri yo'lga boshlagan shekilli. O'sha kundan keyin meni rosa yomon ko'rib qolgan bo'lsangiz kerak!

– Sizni yomon ko'rish? Balki chindan ham boshida jahlim chiqqandir. Lekin keyin bu g'azabga loyiq odam o'z jazosini oldi.

– Meni Pemberlida ko'rganingizda nimalarni o'yla-ganingizni so'rashga uyalayapman. Meni u yerda ko'rib jahlingiz chiqmadimi?

– Nimalar deyapsiz, hech ham. Faqat juda hayron bo'lgandim.

– Menchalik hayron bo'lmagan bo'lsangiz kerak. Menga yaxshi muomalada bo'lishlariga vijdonim yo'l qo'ymayotgan edi, ochig'i men bunday yaxshi munosabatni kutmagandim.

– Men esa o'sha paytda qo'limdan kelgancha sizga qarab, kek saqlaydigan odam emasligimni isbotlamoqchi bo'lgandim. Men sizning kechirimingizga erishishga, men to'g'rimdagi yomon fikrlaringizni yo'q qilishga, sizning ta'nalaringiz menga foydali ta'sir qilganini ko'rsatishga urinayotgandim. Sizni ko'rganimdan keyin yarim soatlar o'tibmi – anig'ini aytolmayman – menda boshqa xohishlar ham paydo bo'ldi.

Yigit Elizabetning singlisiga qanchalik yoqqanini va ular birdan jo'nab ketishlariga to'g'ri kelganida, uning xafa bo'lib qolganini aytib berdi. Uning gapi shu yerda ularning nima sababdan Pemberlidan shunchalik tez ketishlariga sabab bo'lgan mavzuga o'tib ketdi. Elizabet, yigit hali mehmonxonadan ketmasdanoq uning singlisini qidirish uchun yo'lga tushishga qaror qilganini endi bildi. Uning o'sha paytdagi sarosimali va xafa ko'rinishi qalbida bo'layotgan g'alayonlardan ekan.

Qiz unga yana bir bora minnatdorchilik bildirdi va bu ikkalalari uchun ham og'riqli mavzu bo'lgani uchun jim qolishdi.

Yana biroz yurgach, soatga qarab allaqachon uyga qaytadigan vaqt bo'lganini ko'rishdi. Bingli va Jeyn qayerga ketgan bo'lishlari mumkinligiga qiziqib, ular haqida gapira ketishdi. Darsi o'rtog'ining Jeynga unashtirilganidan juda xursand ekanligini aytdi.

– To'g'risini ayting, siz bunga hayron bo'lmadingizmi? – so'radi Jeyn.

– Aslo. Ketayotganimning o'zidayoq ularning unash-tirilishiga ishongandim.

– Boshqacha aytganda, siz unga roziligingizni aytdingizmi? O'zim ham shunday deb o'ylagandim.

Yigit bu gapni inkor qilsa-da, Elizabet aynan shunday bo'lganini tushundi.

– Londonga ketishim arafasida, men unga avvalroq aytishim kerak bo'lgan narsalarni aytib berdim. Unga hech qanday asossiz, qo'pollik bilan hayotiga aralashganimni aytdim, – dedi mister Darsi. – Bu narsalar uning xayoliga ham kelmagan ekan, hayron qoldi. Men yana, sizning opangizning unda ko'ngli yo'q, deganimda yanglishganimni ham aytdim. Shu paytda do'stimning opangizga munosabati o'zgarmaganini sezdim va ularning kelgusida baxtli bo'lishiga menda hech qanday gumon qolmadi.

Yigitning do'stining taqdirini bemalol boshqarishi qizda kulgi uyg'otdi:

– Siz do'stingizga Jeyn uni sevishini o'z kuzatishlaringizdan xulosa qilib aytdingizmi yoki bahorda mendan eshitganlaringizga asoslanibmi?

– Men o'z ko'zlarim bilan ko'rib amin bo'ldim. Longbornga oxirgi ikki marta kelganimizdagi kuzatishlarimdan kelib chiqib, opangizning sevgisiga shubha qilmay qo'ydim.

– Do'stingiz esa sizning gaplaringizga darrov ishon-di-a?

– Ha. Bingli juda kamtar yigit. Uning o'ziga o'zi ishonmasligi shunday muhim ishni yolg'iz o'zi hal qilishiga yo'l qo'ymadi. Lekin u hamma narsada menga ishon-gani uchun hamma narsa o'z joyiga tushdi. Lekin men unga bir sirni ochishim kerak edi va u bu gapni eshitib, haqli ravishda jahli chiqdi. Men unga opangiz uch oy qishni Londonda o'tkazganini, men bundan xabarim bo'laturib, unga aytmaganimni ma'lum qildim. U chin-dan ham juda xafa bo'ldi. Lekin opangizning tuyg'ulari hali ham o'sha-o'sha ekanligiga ishonganidan so'ng o'ziga keldi. Hozir esa meni butunlay kechirgan.

Elizabetning tiliga, «qanaqa yigit ekan o'zi bu Bingli, hamma narsada o'rtog'ining maslahati bilan yu-

radigan», degan gap keldi-yu, lekin hali Darsi o'zining hazillariga o'rganmagani yodiga tushib tilini tiydi. Bu ishni hozirdanoq boshlash xavfli edi. Yo'ning qolgan qismini Darsining Binglining kelajakda o'zlarinikidan kam bo'lmagan baxtli hayoti haqidagi gaplari bilan o'tishdi. Ular uyga kirib kelganda ayrilishdi.

XVII bob

– Lizzi, azizam, qayerlarga yo'qolib ketdinglar? – Elizabet xonaga kirganda Jeyn uni shu so'zlar bilan kutib oldi. Hamma dasturxon atrofiga o'tirar ekan, boshqalar ham unga shu savolni berishdi. Qizarib ketgan qiz notanish joylarga borib qolishganini aytdi. Lekin uning qizarib ketgani ham va na boshqa sabablar hech kimda shubha uyg'otmadi.

Oqshom tinch, hech qanday hodisalarsiz o'tdi. Sevishganlar deb tan olinganlar kulib gaplashib o'tirishar, hali tan olinmaganlar esa – jim o'tirishardi. Darsining o'z hissiyotlarini quvnoqlik bilan tashqariga chiqarish odati yo'q edi, hayajonlanib ketayotgan Elizabet esa o'z baxtini his qilayotgan edi. Odatda, bunday paytlarda qizlar his qiladigan noqulaylikdan tashqari uni boshqa ko'p narsalar tashvishga ham solayotgan edi. O'zining oilasidagilar ularning qarorini qanday qabul qilishlarini u oldindan tasavvur qilayotgan edi. Va Jeyndan boshqa hamma Darsiga yoqtirmay qarashlarini bilgani uchun ularning bu hissiyotlari uning boyligidan ham, jamiyatda tutgan o'rnidan ham kuchli chiqib qolmaydimi, degan xavotiri bor edi.

Uyquga yotishdan oldin qiz hamma gapni opasiga aytib berdi. Odatda, Jeyn uning hamma gaplariga ishonsa-da, bu safar ishonqiramadi:

– Hazillashayapsanmi, Lizzi? Bunday bo'lishi mumkin emas! Mister Darsi bilan unashtirish! Yo'q, sen meni aldayapsan. Bunday bo'lishi mumkin emas.

– Boshlanishi yaxshi emas. Men faqat senga umid qilgandim. Agar sen menga ishonmasang, unda men boshqalarni qanday ishontiraman? Jeyn, jonim, rost aytayapman. U haligacha meni sevadi. Biz kelishib oldik.

Jeyn singlisiga ishonqiramay qaradi:

– Lizzi, hech ham ishona olmayapman. Axir, sen uni ko'rgani ko'zing yo'q edi-ku!

– Sening hech narsadan xabaring yo'q. O'tgan narsalarni hammasini unutish kerak. Balki men uni hech qachon hozirgichalik sevmagandirman. Lekin bunday holatlarda yaxshi eslab qolish odati to'g'ri kelmaydi. Men ham hozir bu to'g'rida oxirgi marta eslayapman.

Jeyn chindan ham nima deb o'ylashni bilmasdi. Elizabet aytgan gaplari chin ekanligiga uni yana bir marta ishontirishga harakat qildi.

– Xudoyim-ey! Nahotki, shunaqasi ham bo'lsa? Lekin men senga ishonaman. Lizzi, jonim, men seni chin dildan tabriklashni xohlayman. Lekin sen – savolim uchun meni kechirasan – u bilan baxtli bo'lishingga to'liq ishonasanmi?

– Xotirjam bo'lishing mumkin. Biz dunyodagi eng baxtli oila bo'lamiz, deb kelishib qo'ydik. Lekin Jeyn, sen xafa emasmisan? Shunday akani sen yoqtira olasani?

– Albatta, jonim bilan! Men bilan Bingli uchun bu katta xursandchilik. Biz u bilan shu to'g'risida gaplashgan edik, lekin keyin, bo'lishi mumkin emas, deb voz kechgandik. Sen chindan ham uni sevasanmi? Lizzi, nima qilsang qil, lekin sevmay turib turmushga chiqma! Sen uni yetarli darajada kuchli sevishingga ishonching komilmi?

– Ha! Men senga hamma narsani aytib berganimdan so'ng, uni qanchalik sevishimga o'zing ham amin bo'lasan.

– Bu bilan nima demoqchisan?

– Chindan aytadigan bo'lsam, uni Binglidan ham ortiqroq sevaman. Buning uchun mendan xafa emas-misan?

– Lizzi, jonim, birpas hazil qilmay turgin. Axir, jiddiy gaplashib olishimiz kerak. Qani, men bilmaydigan hamma narsani aytib ber-chi. Uni anchadan beri sevasanmi?

– Bu tuyg'ular shunday sekinlik bilan paydo bo'ldi-ki, qachon boshlanganini aniq ayta olmayman. Balki, birinchi marta uning Derbishirdagi pomestyesini ko'rganimdan keyin paydo bo'lgandir...

Jeynning uni jiddiyroq bo'lishga chorlashi aniq mo'ljalga tegdi va Elizabet opasini mister Darsini chindan ham sevlashga ishontirdi. Hamma gapni eshitgach, Jeyn o'zini juda baxtli his qildi:

– Men endi chinakamiga baxtiyorman! – xitob qildi u. – Sening hayoting ham menikidek quvonchga to'la bo'ladi. Men mister Darsi to'g'risida doim yaxshi fikrda edim. Seni sevib qolganining o'zi uni mening oldimda ko'klarga ko'tarib qo'ydi. Lekin bundan buyon Binglining do'sti va sening ering sifatida u sen va Binglidan keyin dunyodagi men uchun eng aziz insonlar qatorida turadi. Lekin Lizzi, sen bunchalik mug'ombir emasding-ku? Mendan shuncha narsani yashirib yurgan ekansanda-a?! Axir, Pemberlida nimalar bo'lganidan men butunlay bexabar edim-ku! Bilgan narsalarimni ham boshqa birovlardan eshitgan edim.

Elizabet nima uchun undan yashirganligi sababini opasiga aytib berdi: u paytda opasiga Binglining nomini eslatishni xohlamagan. O'zi ham hali uncha ishonmayotgan tuyg'ularini ochishni ham nojoiz deb bilgan. Endi esa Lidiyaning turmushga chiqishida mister Darsining o'rnini yashirishning ortiq hojati yo'q. Opa-singillar shu tarzda yarim kechaga-cha gaplashib yotishdi.

– Voy, xudoyim-ey, – ertasi kuni derazaning oldida turgan missis Bennet xitob qildi. – Bu shilqim mister Darsi yana bizning Binglimizning orqasidan yuribdimi? Ertadan kechgacha kunini biznikida o'tkazib nima qilayapti? Agar o'zining shu yerdaligi bilan bizga xalaqit bermay, biror narsa qilsa yoki ovga borsa bo'lmasmikin-a?! Bugun uni endi qayerga yuboramiz? Lizzi, qizim, u Bingliga xalal bermasin, u bilan tashqarida biroz aylanib kelgin.

Bu taklif juda yoqib tushgan Elizabet o'zini zo'rg'a kulgidan tiyib qoldi. Lekin onasining yigitni har xil so'zlar bilan atashi unga biroz tegib ketdi. Yigitlar xonaga kirib kelishganda mister Bingli Elizabetga shunday ifodali qarab, qo'llarini qattiq siqib ko'rishdiki, uning hamma gapdan xabar topgani sezildi. U missis Bennetga qarab dedi:

– Missis Bennet, bu yaqin atrofda Lizzi yo'qolib qolishi mumkin bo'lgan joylar yana bormi?

– Men mister Darsi, Lizzi va Kittini Oukxem tepaligiga borishlarini maslahat berardim, maza qilib aylanib kelasizlar, mister Darsi esa u yerlarda bo'lmagan.

– U yoqqa borganinglar yaxshi, lekin u yergacha yetib borish Kittiga og'irlik qiladi, to'g'rimi Kitti? – dedi mister Bennet.

Kitti o'zi ham uyda qolgisi kelayotganini aytdi. Mister Darsi ham tepalikdan yon-atrof qanday ko'rinishiga qiziqib qoldi va Elizabet uni kuzatib borishga rozilik bildirdi. U kiyinib olish uchun xonasiga borar ekan, onasi ketidan kirib shivirladi:

– Lizzi, uzr, bu tabiati og'ir odamga sen qarashingga to'g'ri kelayapti. Xafa bo'lmayapsanmi? O'zing tushunasana-ku – hammasi Jeynni deb qilinayapti. Sen u bilan gaplashib yurishing shart emas, bir-ikki og'iz gapirib qo'yg'in, bo'ladi.

Yoshlar aylanish davomida bu kech mister Bennetning roziligini so'rashga kelishib olishdi. Onasiga tu-

shuntirishni Elizabet o'z bo'yniga oldi. Onasining yangilikni qanday qabul qilishi noma'lum edi. Elizabet bu odamning hammaga mashhurligi va boyligi onasining unga bo'lgan munosabatini o'zgartira olarmikan, deb ikkilanardi. Lekin bo'lg'usi nikohdan onasi g'azabga to'ladimi yoki hayratga tushadimi – ikkala holda ham onasining o'zini bema'ni tutishi ma'lum va Darsining buni ko'rishini Elizabet uchun juda og'ir edi.

Kechqurun mister Bennet kutubxonasiga kirib ketgach, Elizabet Darsi ham uning ketidan yo'nalganini ko'rdi. Rosa xavotirga tushdi. U otasi mister Darsiga rad javobi berishidan qo'rqmas edi. Uni xavotirga va qo'rquvga solayotgan narsa otasining qizining tanlovidan norozi bo'lishi mumkinligi va uning taqdiridan xavotirga tushishi mumkinligi edi. U Darsi kutubxonadan chiqib kelgunicha juda betoqatlanib o'tirdi va faqat yuzida yengilgina kulgi bilan Darsi ko'ringandan keyingina biroz xavotiri bosildi. Bir necha daqiqadan so'ng Darsi Elizabet tikish bilan band bo'lib o'tirgan stolning oldiga keldi-da, xuddi uning tikayotgan narsasini tomosha qilayotgandek, asta shivirladi:

– Otangiz sizni kutubxonada kutayapti.

Qiz o'sha zahoti kutubxonaga yo'naldi.

Otasi tund bir ahvolda xonaning u boshidan bu boshiga yurardi.

– Lizzi, – dedi qiziga mister Bennet, – senga nima bo'ldi? Aqling bormi? Sen shu yigitga turmushga chiqishga rozimisan? Axir, sen uni hech qachon yoqtirmagan eding-ku!

Lizzi shu daqiqalarda o'zining o'sha paytlarda hamma narsani ochiq gapirganlariga pushaymon bo'lib ketdi. Agar o'sha paytda tiliga ehtiyotroq bo'lganida edi, hozir tashvishi kamroq bo'lardi. Lekin hozir hamma narsani tushuntirib berishga majbur edi va u tutilib-tutilib otasiga o'zining Darsiga munosabatini bildirdi.

– Demak, bir gap bilan aytganda sen unga turmushga chiqmoqchisan. To‘g‘ri, u juda boy, chiroyli ko‘ylaklaring, ekipajlaring Jeynnikidan ko‘ra ko‘proq bo‘ladi. Lekin sen bundan baxtli bo‘la olasanmi?

– Otajon, siz mening tuyg‘ularimga ishonmayotganingizdan boshqa yana sabablaringiz bormi?

– Yo‘q. Hammamiz uni mag‘rur va yoqimsiz odam, deb hisoblayotgandik. Lekin sen uni chindan ham sevadigan bo‘lsang, buning hech qanday ahamiyati yo‘q.

– Lekin men uni sevaman, butun yuragim bilan sevaman! – ko‘zlarida yosh bilan dedi Elizabet. – Men uni sevaman. Uni bekor mag‘rur degan ekanmiz. Aslida u ajoyib inson. Siz uning qanaqaligini hech ham bilmaysiz. Iltimos, u to‘g‘risida bunday ohangda gapirib menga azob bermang.

– Lizzi, qizim, men roziman. Mister Darsi shunday odamlar toifasiga kiradiki, ular mendan biror narsa so‘rasalar, rad qilishga haddim sig‘maydi. Bu yog‘i o‘zingga havola – xohlasang men rozi. Lekin senga bir maslahat – yana bir marta o‘ylab ko‘r. Men seni juda yaxshi bilaman. Men sening agar eringga pastdan yuqoriga qaraganday qaramasang, eringning qadriga yeta olmasang, sen baxtli bo‘la olmasligingni, o‘zingni hurmat qilmay qo‘yishingni juda yaxshi bilaman. Sening aqlingning o‘tkirliги va hayotni sevishing agar nikohda omading kelmasa, senga ko‘p tashvish keltiradi. Bu holda sen hamma narsadan sovib ketasan. Bolajonim, sen umr yo‘ldoshingga bo‘lgan hurmatingni yo‘qotganingni ko‘rib, senga achinib ketganimdan qayg‘u chekishdan meni qutqargin. Bu nima ekanligini sen tasavvur ham qila olmayсан.

Otasidan battar hayajonlangan Elizabet chin dildan jiddiy qilib tushuntirdi. Otasiga yana bir marta mister Darsini chindan sevishini, unga munosabati tubdan o‘zgarganini aytib berdi. Uning xislatlarini faxr bilan sanab berar ekan, yigitning muhabbati chin ekanligi-

ga ishonishini, bu vaqt bilan sinalganini aytib berdi. Axiri otasini ishontirishga va o'zining yigitga turmushga chiqishga ko'ndirishga erisha oldi.

– Bo'пти, nima ham derdim, – dedi axiri mister Bennet Elizabet gaplarini tugatgach. – Agar hozirgina aytgan gaplarning hammasi rost bo'lsa, u senga er bo'lishga munosib. Senga munosib bo'lmagan odamga turmushga chiqishingga men chiday olmagan bo'lardim.

Mister Darsini otasining ko'zi oldida yana ham ko'tarib qo'yishni istagan qiz uning Lidiya uchun nima qilganlarini aytib berdi.

– Bugun chindan ham mo'jizalar kuni shekilli! Bu bo'lib o'tgan muzokaralar, to'y shartnomasi bo'yicha to'lovlar, Uikxemning qarzlarini to'lash, zobitlik patentini sotib olish – bular hammasi mister Darsining ishi ekan-da! Undan ham yaxshi. Bu meni har xil muammolar va to'lovlardan qutqaradi. Agar bularni hammasini tog'ang qilganda men u bilan hisob-kitob qilishim kerak bo'lardi. Lekin bu sevishib qolgan yoshlar hamma narsani o'zlaricha qilishadi. Men ertaga unga qarzimni qaytarishni taklif qilaman. U qarshilik qila boshlaydi, senga bo'lgan muhabbatini gapirib, har xil bo'lmag'ur gaplarni aytadi. Shu bilan hamma narsa hal bo'ladi.

Shuni gapirayotib, mister Bennet bir necha kun burun mister Kollinzning xatini o'qiyotganida qizining uyalganini esladi. U kulganicha, qizini kuzata turib, dedi:

– Agar birorta yigit Kittinimi yoki Merinimi so'rab keladigan bo'lsa, menga yuboraver, hozir bo'shman.

Elizabetning yelkasidan tog' ag'darilgandek bo'ldi. O'ziga kelib olguncha yarim soatcha o'zining xonasida bo'lib, keyin mehmonxonaga kirdi. Kun shunday hayajonli o'tgan ediki, uning o'zini quvnoq tutishga ham kuchi yetmay, oqshom jimgina o'tdi. Elizabet onasi uyquga yetishi oldidan uning xonasiga kirdi-da,

unga yangilikni aytdi. Gaplari onasiga tomdan tara-sha tushgandek ta'sir qildi. Uning gaplarini oxirigacha eshitgan missis Bennet biror narsa deyishga ham ku-chi yetmay, bir qancha vaqtgacha jim o'tirdi. Odatda, uning aqli gap qizlari foydasiga bo'lsa, darrov ishlab ketardi, lekin bu safar qizining aytgan gaplari unga yetib borguncha ancha vaqt o'tdi. Nihoyat, u sal o'zi-ga kela boshladi, sakrab o'rnidan turdi, yana o'tirdi, xudoga shukur qildi:

– Yaratgan egam! O'zingga shukur! Nahotki! Menga nima bo'layapti o'zi? Mister Darsi! Lizzi, qizginam! Qa-naqa boy bo'lasan-a! Puling shunchalik ko'p bo'ladi! Karetalar, taqinchoqlar! Jeyn sen bilan hatto bellasha ham olmaydi! Men hayratdaman, men baxtliman! Qan-doq ajoyib yigit! Shunday kelishgan! Baland bo'yli! Oh, Lizzi, qizginam! Xudo haqqi, men uni yoqtirmay yur-ganim uchun undan uzr so'rab qo'y. U bularni unutib yuboradi, deb umid qilaman. Qanday yaxshi! Shaharda uying bo'ladi! Uchta qizim turmushga chiqdi! Yiliga o'n ming! Xudoyim! Menga nima bo'layapti! Esim og'ay deb qolayapti!

Onasining rozi bo'lganini anglash uchun shuning o'zi yetarli edi. Va onasining yuragidagi gaplariga yolg'iz o'zi guvoh bo'lgan Elizabet xursand bo'lgancha, chiqib ketdi. Lekin chiqqaniga uch daqiqalar bo'lar-bo'lmas, missis Bennet uning xonasiga yugurib keldi:

– Qizim! Yiliga o'n ming, balki ko'proq hamdir! Xud-di lordga tekkandek gap. Va alohida ruxsat – sen al-batta o'ziga xos ruxsat bilan turmushga chiqasan. Aytgancha, qizim, mister Darsi qanday ovqatlarni yax-shi ko'radi! Ertaga tayyorlashni buyuraman.

Bu narsa onasining kelgusida kuyoviga qiladigan munosabatiga juda ham yaxshi bo'lmagan ishora edi. Elizabet ota-onasining roziligini olgan bo'lsa-da, onasi-ning mister Darsiga nisbatan yaxshi qarashiga ishonch hosil qilgan bo'lsa ham, onasining baribir nimadandir

ko'ngli to'lmay qolishi mumkinligini tushundi. Lekin ertasi kuni ertalab nonushta juda yaxshi o'tdi, missis Bennet bo'lg'usi kuyov oldida shunday hayajonlandiki, hatto uni ovqatga taklif qilish, biror narsada uning gapiga qo'shilganini tasdiqlashdan boshqa u bilan bemalol gaplasha olmadi ham.

Elizabet otasining mister Darsi bilan yaqindan tanishishga harakat qilayotganidan xursand bo'ldi. Biroz o'tib u qiziga yigit borgan sari unga yoqib ketayotganini aytdi.

– Uchala kuyovim ham menga zo'r tuyulayapti. Lekin menimcha, eng yaxshi ko'rganim Uikxem bo'lib qoladi. Lekin senikini ham Binglidan kam yaxshi ko'rmasam kerak.

XVIII bob

Elizabet tez orada o'ziga kelib oldi va avvalgidek quvnoq kayfiyatda bo'lgan kunlarining birida mister Darsidan u qanday qilib o'zini yaxshi ko'rib qolganini so'radi:

– Nimadan boshlandi o'zi? Keyin nima bo'lganini bilaman, lekin birinchi marta sizni menga e'tibor berishingizga nima sabab bo'ldi?

– Birinchi marta qayerda, qanday, qachon boshlanganini yoki sabab bo'lgan birorta gap yoki ko'z qarashlarni aniq ayta olmayman. Men nima gapligini tushunganimda kech bo'lgan edi.

– Birinchi mening ko'rinishim sizga hech yoqmagani edi-a? Mening gapirishim-chi, sizga munosabatim juda qo'pol edi. Har bir gapimda sizga tekkizib gapirishga harakat qilardim. Chindan ham, sizga yoqib qolgan narsa mening jasoratli ekanligim emasmidi?

– Men sizni tiyrak aqlingiz uchun sevib qoldim.

– Bu ochiqdan-ochiq gaplarim uchun meni kechirasiz. Atrofingizdagi odamlarning sizga diqqat

bilan, egilib-bukilib munosabatda bo'lishlari joningizga tekkan, fikri zikri ko'z qarashi bilan, e'tibori bilan, xatti-harakati bilan faqat e'tiboringizni tortish bo'lgan ayollardan sizning ko'nglingiz ketayotgan edi. Menga e'tibor bera boshlaganingizning sababi, men o'shalarga o'xshamaganim uchun bo'lgan. Agar yuragingiz toza bo'lmaganida edi, gaplarim uchun mendan nafratlangan bo'lardingiz. Lekin siz doim o'zingizning aslida qanday ekanligingizni yashirishga uringaningiz bilan baribir, sizning tuyg'ularingiz, xatti-harakatingiz doim adolatli va oliyjanob edi. Ichingizda sizning boyligingiz va jamiyatdagi o'rnigingiz uchungina sizga ta'zim qiladiganlardan nafratlarnar edingiz. Mana, sizni birorta narsani tushuntirib berishdan ozod qilib qo'ya qoldim. Chindan ham, bo'lib o'tgan hamma voqealarni hisobga olsak, shunday bo'lsa kerak. Albatta, mening hali qandayligimni siz tasavvur ham qila olmaysiz. Lekin chindan sevib qolganda, bu narsalar haqida o'ylashmaydi shekilli.

– Axir, siz o'zingizning qanday ko'ngilchan ekanligingizni Nezerfildda Jeynga qarab o'tirganda isbotladingiz-ku!

– Jeyn – farishta! Uning uchun hamma shunday qilgan bo'lardi. Mayli, siz buni ko'ngilchanlik deb hisoblay qoling. Endi mening yaxshi xislatlarimga siz qarab yurasiz va iloji boricha ko'klarga ko'tarasiz. Men esa siz bilan urishish va g'ashingizga tegish uchun har bir narsadan bahona topaman. Men buni hozirdanoq boshlamoqchiman. Qani, menga aytingchi, nimaga qat'iy gaplashib olishni shuncha cho'zdingiz? Birinchi marta kelganlaringizda nima uchun mendan qochishga harakat qildingiz? Chindan ham, o'zingizni xuddi men bilan hech qanday ishingiz yo'qdek tutdingiz.

– Chunki o'sha paytda ko'rinishingiz juda ayanchli edi. Va menga hech qanday dalda ham bermadingiz.

– Lekin men uyalayotgan edim!

- Men ham.
- Shuning uchun ham biznikiga tushlikka kelganingizda men bilan gaplasha olmadingizmi?
- Hissiyotlari menikichalik bo'lmagan odam balki bu ishni qila olardi.
- Zo'r-ku, hamma gapga javobingiz tayyor! Men esa darrov ishonib qo'ya qolaman. Lekin o'zingizga qolsa, izhori dilni hali anchaga cho'zarmidingiz... O'zim so'rab olmasam, qachon aytmoqchi edingiz? Mening Lidiya uchun minnatdorchilik bildirganim ish berdi-a? Uyat bo'lsa ham. O'zimizning tinchligimizni og'iz ochmaslikka bergan va'damizni buzish asosida quradigan bo'lsak, biz uzoqqa bormaymiz. Unda ishlarimiz yomon!
- Xafa bo'lmang. Axloqiy e'tiqodlaringizdan xavotir olmang. Mening ikkilanishlarimni bizlarni behayolarcha ajratmoqchi bo'lgan xolam yo'q qildi. Bugungi kundagi baxtiyorligim sizning menga minnatdorchilik izhor qilganingizdan emas. Men sizning birinchi bo'lib qadam qo'yishingizni kutayotgan emasdim. Ledi Ketrinning aytganlari menda ishonch hosil qildi va men o'sha zahotiyoyq o'zim haqidagi hukmni eshitishga shoshildim.
- Ledi Ketrin bizga beqiyos xizmat ko'rsatdi. U bundan xursand bo'lishi kerak. Hammaga foydali bo'lishni juda yaxshi ko'radi. Lekin siz o'zingiz Nezerfildga nima uchun kelgandingiz? Nahotki, faqat Longbornga kelganda uyalish uchun bo'lsa? Yoki uzoqni ko'zlagan rejalaringiz bormidi?
- Asosiy maqsadim – sizni ko'rish edi. Sizning muhabbatingizga erishishga birorta imkoniyatim bor yoki yo'qligini bilish edi. O'z-o'zimni esa opangiz hali ham Binglini yoqtiradimi yoki yo'qmi, aniqlashim kerak deb ishontirayotgandim. Agar shunday bo'ladigan bo'lsa, do'stimning oldida gunohimni bo'ynimga olmoqchi edim. Keyinchalik shunday qildim ham.

– Keyinchalik ledi Ketringa uni nima kutayotganini aytishga qurbingiz yetadimi?

– To‘g‘rirog‘i, mening qurbim emas, vaqtim yetmaydi. Lekin buni albatta qilish kerak, agar menga bir varaq qog‘oz bersangiz, hoziroq qilaman.

– Men esa – agar o‘zim ham hozir xat yozishim kerak bo‘lmaganda – sizning yoningizda o‘tirib bir tekis yozishingizni tomosha qilib o‘tirgan bo‘lardim. Lekin mening ham xolam bor, uni unutishga esa mening haqqim yo‘q.

Elizabet haligacha missis Gardinerning xatiga javob bermagan edi. Bir paytlar xolasining mister Darsi to‘g‘risidagi ishoralariga ishongisi kelmayotgan edi. Lekin endi unga bu yangilikni aytsa bo‘ladi. Elizabet mister Gardinerlarning uning baxtidan xursand bo‘lishlari to‘g‘risidagi xabarni uch kun kechikib eshitishayotganidan uyalib ketdi va o‘sha zahotiyoc xat yozishga o‘tirdi.

«Xolajonim, sizning hamma gaplarni batafsil yozib yuborgan do‘stona xatingizga allaqachon javob yozib yuborgan bo‘lishim kerak edi. Lekin ochig‘i, yozishga qiynalдим. Siz gumon qilgan narsalaringiz to‘g‘ri ekan. Endi nima o‘ylasangiz o‘ylayvering. Xohlagan narsangizni tasavvur qilavering. Mening turmushga chiqqanim xayolingizga kelmaguncha o‘ylayvering. Ha, to‘g‘ri eshitayapsiz. Men tanlagan odamning, o‘tgan safar yozganingizdan ham aniqroq qilib, hamma xislatlarini yana sanab chiqib berishingiz kerak. Ko‘llar O‘lkasiga borigingiz kelmagani uchun sizga qayta-qaytadan rahmat aytaman. U yoqqa borishni rosa orzu qilganimda qanchalik ahmoq ekanman! Sizning kichkinagina fayton haqidagi g‘oyangiz menga yoqdi. Ikkalamiz har kuni parkda sayr qilamiz. Men hozir dunyodagi eng baxtiyor insonman. Balki mengacha ko‘plar bu gapni aytishgandir. Lekin hech kimda menikichalik asos bo‘lmagan

bo'lsa kerak. Men hatto Jeyndan ham baxtiyorroqman. U faqat jilmayyapti, men esa xaxolab kulayapman! Mister Darsi mendan yashirib qolgan sevgisini sizga izhor qilayapti. Rojdestvoda albatta Pemberliga keling.

Sizning Elizabetingiz».

Mister Darsining xolasiga yozgan xati esa butunlay boshqacha edi. Mister Bennetning mister Kollinzning oxirgi xatiga javobi esa yuqoridagi ikkala xatga umuman o'xshamasdi:

«Hurmatli ser!

Siz yana bir marta bizni tabriklab qo'yishingizga to'g'ri keladi. Elizabet yaqinda mister Darsiga turmushga chiqayapti. Qo'lingizdan kelgancha ledi Ketrinni ovutib qo'ying. Lekin sizning o'rningizda bo'lsam, men uning jiyani tarafga o'tgan bo'lardim. Chunki uning imkoniyati ko'proq.

Hurmat bilan mister Bennet».

Mister Binglining singlisi tabriklab yozib yuborgan xat esa o'ta chuchmal va qalbaki edi. U hatto o'z xursandchiligini bildirib, ilgari do'st bo'lganliklarini eslatib, Jeynga ham xat yubordi. Jeyn bu xatga aldanmagan bo'lsa-da, lekin xursand bo'ldi va bo'lajak qayn-singlisi o'zi aslida arziydiganidan ham samimiyroq qilib javob yozib yubordi.

Miss Darsining ushbu munosabat bilan yozib yuborgan xati esa akasi unga yuborgan xatidek samimiy edi. Qizning Elizabet uni o'z singlisidek yaxshi ko'rishiga bo'lgan umidi borligini va o'z xursandchiligini yozishiga to'rt varaq qog'oz kamlik qilgandek edi.

Mister Kollinzning olgan xatiga javobi va xotini-ning tabrik xati yetib kelgunicha longbornliklar ularning o'zi Lukas Lojga kelishganini eshitishdi. Ular-ning bunchalik shoshilib kelishganining sababi tez-

da ma'lum bo'ldi. Ledi Ketrin jiyanidan xat olganidan so'ng shunchalik g'azablanibdiki, bo'lajak nikohdan xursand bo'layotgan Sharlotta o'ziga kelib olmaguncha uning ko'ziga ko'rinmay turishga qaror qilibdi. Shunday paytda dugonasining kelganidan Elizabet juda xursand bo'ldi. Lekin ular ko'rishgan paytlarida dugonasining erining mister Darsiga qilayotgan xushomadlari hamma narsani buzib qo'yadimi, deb qo'rqdi. Lekin mister Darsi hammasiga chiday oldi. U hatto ser Uilyam Lukasning yigit bu yerlarning qimmatbaho narsasini olib ketayotganidan shikoyatlarini, Sent-Jeymsda birga uchrashishlariga umid bildirayotganini ham indamay tingladi. Faqat ser Uilyam orqasini o'g'irgan ba'zi paytlarda yelkasini qisib qo'ydi. Mister Darsi yana bir, Ser Lukasnikidan ham og'irroq sinovni – bu safar missis Filipsning o'zini juda qo'pol tutishi sabab – boshidan kechirishiga to'g'ri kel-di. Missis Filips, xuddi opasidek, mister Bingli bilan bemalol gaplashganidek, Darsi bilan bemalol gaplashishga jur'at qila olmadi. Mister Darsiga bo'lgan hurmat uning og'zini yumib qo'ygandi. Elizabet Darsini mister Kollinz va missis Filipsning unga bo'lgan e'tiborlaridan sal olib qochay degan urinishlari zo'rg'a ish berayotgan edi. Qizning urinishlari orqasida yigit ko'p vaqtini u bilan yoki birga bo'lish unga og'ir bo'lmayotganlar bilan o'tkazardi. Shu muammolar sabab Elizabetga unashtirilish davri sal qiyinchilik bilan kechayotgan bo'lsa-da, kelgusidagi hayoti yanada qiziqarliroq tuyulardi. Va qiz bir kun kelib hozir o'zlari uchun yoqimsiz bo'layotgan muhitdan ketib, Pemberlida sokin hayot kechirishlarini o'ylab, entikib qo'yardi.

XIX bob

Missis Bennet uchun onalikning eng baxtiyor kuni o'zining eng yaxshi qizlari bilan xayrlashgan kuni

bo'ldi. Uning qanchalik g'urur bilan missis Binglini-kiga borganini, missis Darsi to'g'risida gapirganlarini bemalol tasavvur qilish mumkin. Va uning oilasining hurmati uchun aytib qo'yishim lozimki, uning eng katta orzusi – qisqa vaqt ichida salkam hamma qizi-ni uzatib yuborish – ayolga shunchalik yaxshi ta'sir qildiki, hayotining oxirlariga kelib, u ancha yoqimli xonimga aylandi. Lekin afsuski, aqliga aql qo'shilma-di va vaqti-vaqti bilan – balki erining baxtigadir, aks holda mister Bennet o'zi uchun noodatiy bo'lgan uy-dagi sharoitdan yomon vaziyatga tushgan bo'lardi – u ilgarigidek jazavaga tushib turar edi.

Mister Bennetga doim ikkinchi qizi yetishmasdi va qiziga bo'lgan intilish uning tez-tez uydan chiqib tu-rishiga bahona bo'lardi. Unga Pemberliga – ayniqsa, uni kutishmayotgan paytda – borish juda yoqardi.

Mister Bingli va Jeyn Nezerfildda atigi bir yilgi-na yashashdi. Ularning missis Bennet va meriton-lik qarindoshlari bilan yaqin yashashlari yigitning yumshoqligi va Jeynning ko'ngli bo'shligiga qa-ramay xavfli bo'lib qoldi. Yigitning opa-singillari-ning eng ezgu orzulari ro'yobga chiqib, Bingli Der-bishir bilan chegaradosh graflikdan mulk sotib oldi. Shunday qilib, hamma quvonchlari ustiga oralari nihoyati o'ttiz mil bo'lgan holda, bir-birlari-ga qo'shni bo'ldilar.

Kitti ko'p vaqtini ikki opasinikida o'tkaza boshla-di va natijada tabiati ancha yaxshi tomonga o'zgar-di. U Lidiyachalik o'jar emasdi. Hozir uning ta'siri ostidan chiqib, Jeyn va Elizabet rahbarligida ancha harakatchan va savodli bo'lib qolgan, jizzakiligi ham qolgan edi. Albatta, har qanaqasiga uni Lidiyaning ta'siridan himoya qilishardi. Missis Uikxemning Kitti-ni tez-tez o'zinikiga – uni yigitlar qatnashadigan bal-lar bilan qiziqtirib, chaqirib turishiga qaramay, mister Bennet Kittini unikiga yubormas edi.

Longbornda qolgan yolgʻiz qiz Meri edi. U oʻzi xohlamagan tarzda oʻz ustida ishlash fikrlarini tashladi, chunki missis Bennet bir daqiqa ham oʻzi qolishni istamasdi. Shunday qilib, Meri, sal narsaga nasihat qilish odatini tashlamagan boʻlsa-da, oila hayotida koʻproq ishtirok eta boshladi.

Uikxem va Lidiyalarga keladigan boʻlsak, ikkita opasining turmushga chiqqani ularga taʼsir qilgani yoʻq. Elizabetning endi yigitning minnatdorchilikni bilmasligi va yaramasligini juda yaxshi bilishini ular indamaygina qabul qilishgan edi. Hech narsaga qaramay, Uikxem hali ham Darsi ularga gʻamxoʻrlik qiladi, degan umididan kechmagan edi. Toʻyi arafasida Elizabet singlisidan olgan xatda, yigit boʻlmaganda ham, singlisining oʻzi shu niyatda ekanligi yozilgan edi:

«Azizam Lizzi!

Senga doimo xursandchilik tilayman. Agar sen mister Darsini men oʻzimning Uikxemimni sevganimning yarmicha sevsang ham, juda baxtli boʻlasan. Sen shu qadar boy boʻlishing qanday yaxshi! Umid qilamanki, qiladigan ishing boʻlmay qolganda, sen bizlarni esga olasan. Agar iloji boʻlsa, saroyda biror joyga ega boʻlishga Uikxem rozi boʻlgan boʻlardi va birov bizga yordam bermasa, biz qiynalib qolsak kerak, deb qoʻrqaman. Lekin agar kerak emas, deb hisoblaydigan boʻlsang, bu gaplarni mister Darsiga aytmay qoʻya qol.

Sening Lidiyang».

Elizabet bu narsa kerak, deb hisoblamagani uchun singlisiga yozgan javob xatida bu toʻgʻridagi har qanday umid va daʼvolarga nuqta qoʻyishga harakat qildi. Lekin shunga qaramay, Elizabet tez-tez oʻziga ketadigan xarajatlardan siqib, yiqqanlarini ularga yuborib turardi. U Uikxemlarning qoʻlida

bor daromadlarni o'ylamay sovuradigan va kelajakni o'ylamaydigan bu ikki yosh uchun juda kamligini juda yaxshi bilar edi. Va ular har safar u yoq bu yoqqa ko'chib o'tganlarida Jeyn ham, Elizabet ham ularning hozir qarz so'rashlarini sezib turishardi. Uikxemlarning o'zini tutishlari, ular o'z joylariga qaytib kelganlaridan so'ng ham avvalgidek taral-labedod bo'lib qolaverdi. Ular doim arzonroq joy topish umidida bir joydan ikkinchi joyga ko'chishar, natijada esa keragidan ortig'ini ishlatib yuborishar edi. Uikxemning Lidiyaga bo'lgan qiziqishi juda tez so'ndi. Lidiyaniki esa biroz cho'zildi. Va qiz o'zining ko'rinishi va kelib chiqishiga qaramay, obro'si u turmushga chiqish arafasida qanday bo'lgan bo'lsa, hali ham shunday edi.

Mister Darsi Uikxemni Pemberlida ko'rishni aslo istamasa-da, Elizabet uchun Uikxemning ish topishida madad berib turardi. Eri Londonda yoki Batda ayshini surib yurgan paytda Lidiya ba'zan Pemberliga mehmonga kelardi. Ular Bingliniki-ga ham shunchalik ko'p kelishardiki, farishtadek bo'lgan Bingli ham Uikxemga endi jo'nash kerakligini aytishga majbur bo'lardi.

Darsining uylanishi miss Binglining qalbini qattiq yaralagan bo'lsa-da, u Pemberliga borish imkoniyatini qo'ldan bermaslik uchun bu tuyg'uni hech kimga aytmay qo'ya qoldi. U Jorjianadan ilgari-gidan ham hayratda edi, Darsiga hali ham yaxshi munosabatda bo'lib, Elizabetga nisbatan esa o'zini o'ta ehtiromli tutardi.

Jorjiana endi butunlay Pemberlida yashay boshladi. Va qizlar o'rtasida Darsi umid qilgan yaqinlik bor edi, ular hatto bir-birlarini juda yaxshi ko'rardilar. Boshida Jorjiana Elizabetning akasi bilan quvnoq va qiziqqonlik bilan gaplashayotganidan biroz qo'rqib turgan bo'lsa, endi Elizabetni juda yaxshi

ko'rib qolgan edi. U o'zi doimo g'oyatda hurmat va muhabbat bilan munosabatda bo'lgan odam endi Elizabetning quvnoq hazillariga sabab bo'layotgan edi. Va qiz asta-sekin ilgari hech uning xayoliga kelmagan bir narsaga aqli yetdi: qiz bola akasiga qilishga haddi sig'magan munosabatni ayol kishi eriga qila olar ekan.

Jiyanining Elizabetga uylanishi ledi Ketrinni g'oyatda g'azablantirdi. U kutilayotgan to'yga taklif qilib jo'natilgan xatga javobida o'zini qo'yib yubordi. Javobda, ayniqsa, Elizabet haqiga, shunchalik haqoratli so'zlar bor ediki, ancha vaqtgacha Rozingsga borish orqaga surildi. Lekin keyinchalik, Darsi Elizabetning iltimosi bilan arazni yig'ishtirib qo'yib, yarashishga rozi bo'ldi. Ledi Ketrin tomondan biroz tixirlikdan so'ng, jiyanini juda yaxshi ko'rgani sababmi, uning xotini o'zini qanday tutayotganiga qiziqishi ustun kelibmi, axiri yoshlarga nisbatan yumshoq munosabatda bo'la boshladi. Va shu darajaga yetdiki, nafaqat bu yerga munosib bo'lmagan beka bilan, balki uning Londondan amma-xolalari-ning kelishlari bilan ham bulg'angan bo'lsa-da, ledi Ketrin Pemberliga ham keladigan bo'ldi.

Yosh kelin-kuyov Gardinerlar bilan juda iliq munosabatda qolishdi. Darsi ham, xuddi Elizabetdek, ularni juda yaxshi ko'rardi. Ikkovi ham Elizabetni Derbishirga olib kelib, ularning birga bo'lishlariga sabab bo'lgan insonlardan bir umr minnatdor bo'lishdi.

(Tamom)

MUNDARIJA

Muallif va mutarjim haqida soʻz	
<i>Nusratullo Jumaxoʻja</i>	3
BIRINCHI BOʻLIM.....	7
IKKINCHI BOʻLIM.....	145
UCHINCHI BOʻLIM.....	255

Adabiy-badiiy nashr

JEYN OSTIN

ANDISHA VA GʻURUR

Muharrir

Maʼmura QUTLIYEVA

Musahhih

Sunnat MUSAMEDOV

Badiiy muharrir

Uygʻun SOLIHOV

Kompyuterda sahifalovchi

Dildora JOʻRABEKOVA

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 02.10 da berilgan.

Bosishga 20.02.2016-y.da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobogʻi 12,625. Shartli bosma tobogʻi 21,21.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qogʻozi.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 45.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi va chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol koʻchasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr boʻlimi – 147-00-14; 129-09-72;

Marketing boʻlimi – 128-78-43; 397-10-87; faks – 273-00-14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru